ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№8(1)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 606 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi 10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna

Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalaridan foydalangan holda masalalar yechish 13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li

Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili 17
Mutallibjonov Boburmirzo

Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi 26
Nosirova Feruza Baxadir qizi

Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli 30
Gafurova Mahfuza Abbosovna

Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi 35
Ravshanova Uldona Narziboyevna

Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni 39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi

Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish 43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li

Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antifragil yondashuvning o'rni 51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi

Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari 57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna

Talabalarning o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish 61
G'ofurov To'lqinjon

Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching 67
Ismailova Aziza Dilshodovna

Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта 72
Канаатов Есимкан

Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti 76
Abdullayev Amirulla Xazratovich

Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi 81
Pardayeva Kamola Sultonovna

Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich

Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimini joriy etish va boshqarish 91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich

Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarning o'qish samaradorligini oshirish 96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli 99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich

Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari 103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna

Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari 108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich

Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi 114
Isroilova E'zoza Akmal qizi

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari 119
Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna

Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari 124
Abduraximova Muxabbat Allayevna

Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi 129
Sottarov Abduvali Umirqulovich

Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish 133
Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi

Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar 137
Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar 142
Babajanova Gulmira Muratbayevna

Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations 147
Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi

Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области 153
Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.

Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati 160
Ashirova Gulnora Xayrullayevna

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish 164
Nurmuratova Iroda Nuriddinovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya 169
Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna

The Historical Development of Translation 173
Sharopova Gulnoza Odil qizi

Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim 176
L. T. Xudaybergenova

Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish 180
G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi

Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi 186
Xalimova S. A.

The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions 191
Abduqahorova Lobar Oybekovna

Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi 197
Xidirova Maftuna Ilhom qizi

Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili 205
Boltayeva Nasiba Ilhom qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli ... 209
Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich

Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ... 212
G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi

Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi ... 218
Komila Aytmuratova

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi ... 222
Maxmudova Feruza Salimdjonovna

O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini ... 227
Qurbonova Malika Toxir qizi

O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar ... 230
Saydaxmedova Barno Batirovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil ... 235
Abdusattarova Zaynab

Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili ... 243
Avazova Oltin

Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati ... 247
Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari ... 253
Jo'layeva Munira Choriyevna

Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy ... 256
Khodzhaniyazova Aygul Aytmuratovna

Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari ... 264
Saidova Dilorom Erkinovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ... 269
Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari ... 274
Norkulova Jasmina Sodikovna

Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi ... 277
Saytniyozov Adham Annamuhammet o'g'li

Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ... 282
Shaymatova Azizaxon Rustambekovna

Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish ... 286
Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari ... 293
Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli ... 297
Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi

Адаптивная геймификация в школьном обучении физике ... 304
Индира Бахадуровна Ерлепесова

Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar ... 309
Taylanova Sh. Z.

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi 317
Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar 322
Fayziyeva Umida Asadovna

Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumlalarning nahviy tahlili 328
Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi

"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili 333
To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi

Jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va uning vatanparvarlik harakatlari ... 337
Raximov Azizbek Normurodovich

Biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi 342
Ibodova Mahfuza Namozovna

Ta'limni tashkil etishning pedagogik omillari 346
Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, Hazratkulova Lobar To'rabek qizi

5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish 350
Botirova Sayyora Nurullayevna

Talabalarda grammatik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari 354
Aymanova Shiyrinay Kamilovna

Yosh ofitserlarda xizmat rezistentligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar 357
Rejametova Irada Ikramshikovna

Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari 363
Yusufzoda Shabnami Yunus

Преимущества использования STEAM технологий в дошкольном образовании 368
Садикова Д. Х.

Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining pedagogik-psixologik determinantlari 371
Saliiyeva Muslima Maxsetbay qizi

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining etik va huquqiy jihatlarini o'qitish metodikasi 377
Turanova Aynur Baxtjan qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalar alaliyasini korreksiya qilishda neyrostimulyatsiya hamda logopedik texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi 381
Axunxodjayeva Dildoraxon G'anixon qizi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligi korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida 384
Qilichova Marxabo Xudaykulovna

Informatika fanini innovatsion vositalar bilan o'qitish 392
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi

Jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi ... 397
Mamatxanov Nodirxon Sadriddin o'g'li

Sociolinguistic Variation in English: A Study of Dialects and Accents 402
Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi, Ramazonova Feruzaxon Akbarovna

Ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'noning verbal-vizual vositalar orqali voqelanishi: chog'ishtirma-pragmatik tahlil 405
Mo'minova Maftuna Alijonovna

Long-Term Retention and Pragmatic Use of English Idioms Following Adaptive Instruction: A Longitudinal Follow-Up Study 409
Alisher Sidikov Uktamjonovich

Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli 418
Yangiyev Shavkat Norkobulovich

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 422
Sh. Yu. Abdunabiyeva

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari 428
Turamuratov Ulug'bek Uraqovich

Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli 433
Raisov Shamsiddin Rashid o'g'li

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligi 438
Radjapov Aybek Allaberganovich

Miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg'ulotlarini o'tkazish uchun moslashuvchan dasturni ishlab chiqish va raqamli uslubiy yordam 442
Davranova Maftunabonu Elyorovna

Maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari kasbiy mas'uliyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari ... 448
Xalimova Ozoda

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini raqamli didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish 451
Sabohat Sharofiddinovna Siddiqova

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi 455
Baratova Yulduz

Talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda sun'iy intellektning o'rni 461
Shamsudinova Malika Ulug'bek qizi

Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik muammolari va ularning yechimlari 464
Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich

Muloqot va uni o'smirlik yoshida rivojlantirish masalalari 470
Orifova Saboat Yakubovna

O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish metodlari 474
Safarova Dilnoza Kuchkarovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining barkamol yosh avlodni shakllantirishida milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni 478
Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ahamiyatining rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlili 481
Oripova A'lo O'ktam qizi

Logopediya fanida me'yor tushunchasining zamonaviy talqinlari: nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar 485
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida ishonchli muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va amaliy tahlili 489
Gulnoza Djurakulova Shavkatovna, Ochildiyeva Shahnoza Avdivohid qizi

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish natijalari 494
Abdullayeva Rohilaxon Ne'matjonovna

Probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning samaradorligi 500
Qayumov Ramazon Zoirjon o'g'li

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari va yechimlari 507
O'rishboyeva Xumora O'rol qizi

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion raqamli texnologiyalar imkoniyatlari 510
Abdukarimova Rayxona Akmalovna

Inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini raqamli tahlil qilishda ma'lumotlar bazasi va monitoring tizimining ahamiyati 515
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li

Value Representations in the Family-School-Student System 522
Gulbakhar Orazbayeva

Gamified Writing Tasks and Their Impact on Learner Motivation and Text Quality 527
Islamova Nilufar Ismail qizi

Innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 534
Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ... 537
Mamazokirova Robiyaxon Muhammadali qizi, Qodirova Buzulayho Turgunovna

STEAM ta'lim texnologiyasi asosida bo'lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimi 543
To'raqulova Malohat Bahodir qizi

Hozirgi o'zbek she'riyatida intertekstual talqinlar 547
Ro'ziqulova Dilbar Muzaffar qizi

Mustaqillik va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 551
Erkayev Elmirza Temirovich

Yapon pedagogik tajribasini O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga moslashtirishning didaktik shartlari 556
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna

Velosportchilarda irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi va ularni rivojlantirishning psixologik jihatlari 560
Raxmonova Go'zal Bobir qizi

Migrant talabalarda shaxsiy identifikatsiyani shakllantirishning pedagogik usullari 563
Turg'unov Ilxomjon Iqboljon o'g'li

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion usullari ... 567
Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi

Shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslari 571
Mansurova Lobar Luqmon qizi

Translation Types, Approaches and Concepts 575
Sharopova Gulnoza Odil qizi

Boshlang'ich sinflarda sun'iy intellekt va raqamli o'yinlardan foydalanish afzalliklari 579
Namozova Sevinch Asqar qizi, S. D. Usmonov

Психологические особенности родительства в молодых семьях 583
Абдуқодирова Дилшода Жамшиддин қизи

Формирование гендерных стереотипов в семье и их влияние на психологию молодёжи 588
Каршибаева Гульноза Абдукодировна

Bo'lajak o'qituvchilarda neyro-motivatsion qobiliyatlarni rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish 593
Mamajonova Zulfizarxon Madaminovna

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash 596
Nozimova Muhabbat Akram qizi

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish omillari 600
Teshayev Javohir Nurali o'g'li

SUN'IY INTELLEKT MUHITIDA O'SIB KELAYOTGAN ALFA AVLODINING SHAXSIY VA PSIXIK RIVOJLANISHI

Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt muhitida shakllanayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Sun'iy intellekt texnologiyalarining bolalarning kognitiv rivojlanishi, emotsional barqarorligi, motivatsion sohasi, kommunikativ kompetensiyasi hamda ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, raqamli muhitning shaxs rivojlanishidagi ijobiy imkoniyatlari va ehtimoliy psixologik xavflari tahlil qilinib, Alfa avlodining sog'lom psixik rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, Alfa avlodi, shaxs rivojlanishi, psixik rivojlanish, kognitiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, ijtimoiylashuv, raqamli muhit, raqamli savodxonlik, psixologik xavfsizlik, ta'lim texnologiyalari, sun'iy intellekt texnologiyalari.

Abstract: This article examines the socio-psychological characteristics of the personal and psychological development of Generation Alpha growing up in an environment shaped by artificial intelligence technologies. Based on contemporary scientific research, the study analyzes the impact of artificial intelligence on children's cognitive development, emotional stability, motivation, communication competence, and socialization. The paper also discusses both the opportunities and potential psychological risks of the digital environment and substantiates psychological and pedagogical approaches aimed at ensuring the healthy personal and psychological development of Generation Alpha.

Key words: artificial intelligence, Generation Alpha, personality development, psychological development, cognitive development, emotional development, socialization, digital environment, digital literacy, psychological safety, educational technologies, artificial intelligence technologies.

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические особенности личностного и психического развития поколения Альфа, формирующегося в условиях широкого распространения технологий искусственного интеллекта. На основе современных научных исследований проанализировано влияние искусственного интеллекта на когнитивное развитие, эмоциональную устойчивость, мотивационную сферу, коммуникативную компетентность и процессы социализации детей. Особое внимание уделено как позитивным возможностям цифровой среды, так и потенциальным психологическим рискам, а также обоснованы психолого-педагогические подходы к обеспечению гармоничного развития личности детей поколения Альфа.

Ключевые слова: искусственный интеллект, поколение Альфа, развитие личности, психическое развитие, когнитивное развитие, эмоциональное развитие, социализация, цифровая среда, цифровая грамотность, психологическая безопасность, образовательные технологии, технологии искусственного интеллекта.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining barcha sohalarga keng tatbiq etilishi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan keyin tug'ilgan Alfa avlodi aynan sun'iy intellekt, raqamli platformalar, intellektual algoritmlar, virtual muloqot va avtomatlashtirilgan ta'lim muhitida shakllanayotgan birinchi avlod sifatida tavsiflanadi. Ushbu avlodning shaxsiy va psixik rivojlanishi oldingi avlodlardan sezilarli darajada farq qilib, ijtimoiylashuv, kognitiv taraqqiyot, emotsional holat, qadriyatlar tizimi hamda shaxslararo munosabatlarning shakllanishida yangi psixologik qonuniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alfa avlodiga mansub bolalar tug‘ilgan paytdanoq raqamli texnologiyalar bilan o‘ralgan muhitda hayot kechirmoqda. Ular uchun sun’iy intellekt asosida ishlovchi ovozli yordamchilar, intellektual o‘yinlar, adaptiv ta’lim platformalari, robototexnika, virtual reallik va generativ texnologiyalar kundalik hayotning tabiiy qismi hisoblanadi. Marc Prensky (2001) va Don Tapscott (2009) ta’kidlaganidek, raqamli avlod vakillari texnologiyalar bilan uzviy integratsiyalashgan holda voyaga yetadi. Shu sababli ularning atrof-muhitni anglash usuli, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlari ham an’anaviy muhitda tarbiyalangan bolalardan ma’lum darajada farq qiladi. [3]

Kognitiv rivojlanish nuqtayi nazaridan sun’iy intellekt muhiti Alfa avlodida tezkor axborotni qayta ishlash, vizual idrokning yuqori darajada rivojlanishi, ko‘p vazifalilik, raqamli savodxonlik va mustaqil axborot izlash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi hamda Lev S. Vygotskyning sotsiokultural rivojlanish konsepsiyasi ushbu jarayonlarni tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Interaktiv ta’lim tizimlari har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish imkoniyatini yaratadi. Bunda ta’lim mazmuni bolaning qobiliyati, bilim darajasi, o‘qish sur’ati va ehtiyojlariga moslashtirilib taqdim etiladi. Natijada ta’lim samaradorligi ortib, bilish faolligi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalari yanada rivojlanadi. [1]

Shu bilan birga, sun’iy intellekt muhitida o‘sish kognitiv jarayonlarning ayrim jihatlariga salbiy ta’sir ham ko‘rsatishi mumkin. John Sweller tomonidan ishlab chiqilgan Cognitive Load Theory (Kognitiv yuklama nazariyasi) hamda Nicholas Carrning raqamli axborotning inson tafakkuriga ta’siri haqidagi tadqiqotlari doimiy ravishda qisqa formatdagi axborotlar bilan ishlash diqqatning barqarorligi pasayishiga, chuqur tahlil qilish qobiliyatining susayishiga hamda xotiraning tashqi raqamli manbalarga ortiqcha bog‘lanishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu holat “raqamli kognitiv yuklama” deb ataluvchi psixologik hodisa bilan izohlanadi. Axborotning haddan ziyod ko‘pligi bolada muhim va ikkinchi darajali ma’lumotlarni saralash qobiliyatini murakkablashtiradi. [3]

Shaxs rivojlanishida ham sun’iy intellekt muhitining ta’siri juda keng qamrovlidir. Lev S. Vygotsky hamda Sherry Turkle tadqiqotlarida qayd etilganidek, Alfa avlodi o‘zining shaxsiy “Men” konsepsiyasini nafaqat real ijtimoiy munosabatlar orqali, balki raqamli platformalardagi ijtimoiy faollik asosida ham shakllantirmoqda. Virtual muhitda o‘zini namoyon qilish imkoniyati bolalarning ijodkorligi, tashabbuskorligi va kommunikativ faolligini rivojlantirishi mumkin. Biroq raqamli muhitdagi ijtimoiy baholash, layklar, reytinglar va algoritmlar orqali shakllanuvchi ijtimoiy maqom ba’zi hollarda shaxsiy o‘z-o‘zini baholashning tashqi omillarga haddan tashqari bog‘lanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida shaxsiy barqarorlikning pasayishi, tashqi bahoga qaramlik, ijtimoiy taqqoslash va emotsional qoniqmaslik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Psixik rivojlanishning emotsional sohasida ham sun’iy intellekt texnologiyalari ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Daniel Golemanning emotsional intellekt nazariyasi hamda Sherry Turklening raqamli muloqot bo‘yicha tadqiqotlari ushbu jarayonlarni ilmiy asoslaydi. Bir tomondan, interaktiv ta’lim, kognitiv trenajyorlar, psixologik mobil ilovalar va raqamli terapiya vositalari bolalarning emotsional holatini nazorat qilish, stressni kamaytirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayrim sun’iy intellekt tizimlari bolaning emotsional holatini tahlil qilish orqali individual psixologik tavsiyalar ham bera oladi. Ikkinchi tomondan esa virtual muloqotning ortishi real emotsional munosabatlarning qisqarishiga, empatiya darajasining pasayishiga, jonli ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan ehtiyojning kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda nazariy-pedagogik hamda psixologik yondashuvlarga asoslangan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimli tahlil, umumlashtirish va interpretatsiya usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida sun’iy intellekt texnologiyalarining bolalar psixikasi va shaxs rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar o‘rganildi. Xususan, Alfa avlodining psixologik xususiyatlari, raqamli muhitning kognitiv rivojlanish, emotsional holat va ijtimoiylashuv jarayonlariga ta’siri yuzasidan mavjud ilmiy qarashlar qiyosiy-taqqoslash usuli asosida tahlil qilindi.

Tizimli tahlil usuli yordamida sun’iy intellekt texnologiyalarining Alfa avlodi rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillari o‘zaro bog‘liqlikda baholandi. Shuningdek, kognitiv rivojlanish, emotsional barqarorlik, kommunikativ faollik, raqamli savodxonlik va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida ilmiy manbalardan olingan nazariy qarashlar sintez qilinib, sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim jarayonida oqilona foydalanishning Alfa avlodi psixik rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar sun’iy intellekt muhitida voyaga yetayotgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiylashuv jarayonida ham Alfa avlodi yangi xususiyatlarni namoyon etmoqda. Ilgari bolalarning ijtimoiy tajribasi asosan oila, mahalla va maktab orqali shakllangan bo‘lsa, bugungi kunda raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va sun’iy intellekt asosidagi kommunikatsiya vositalari ijtimoiylashuvning muhim subyektlariga aylanmoqda. Bu esa ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, qadriyatlar tizimining shakllanishi va axloqiy ong rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Motivatsion sohada ham muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlariga mos vazifalar, individual tavsiyalar va o‘yinlashtirish elementlari motivatsiyani oshiradi. Biroq doimiy tezkor natijaga yo‘naltirilgan raqamli muhit ba’zi bolalarda sabr-toqatning kamayishi, uzoq muddatli maqsadlarga intilishning susayishi va tez qoniqish ehtiyojining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Alfa avlodining psixologik xavfsizligi ham zamonaviy tadqiqotlarning muhim obyekti hisoblanadi. Kiberbulling, axborot manipulyatsiyasi, yolg‘on ma’lumotlar tarqalishi, sun’iy intellekt orqali yaratilgan soxta kontent (deepfake), raqamli qaramlik va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi bolalar psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois raqamli gigiyena, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. [4]

Zamonaviy psixologiya nuqtayi nazaridan Alfa avlodining shaxsiy rivojlanishida inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt inson aqlini almashtiruvchi emas, balki uning intellektual imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qo‘llanilganda shaxsning kognitiv, ijodiy va kasbiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish psixologik-pedagogik qonuniyatlar asosida tashkil etilishi, bolalarning yosh xususiyatlari, emotsional ehtiyojlari va ijtimoiy rivojlanish bosqichlari hisobga olinishi zarur.

Oila va maktab Alfa avlodining sog‘lom psixik rivojlanishini ta’minlovchi asosiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglar raqamli texnologiyalardan foydalanish vaqti, mazmuni va maqsadini muvofiqlashtirishi, bolalar bilan jonli muloqot, hamkorlikdagi faoliyat va emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashi lozim. Sun’iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, raqamli muhit va real hayot o‘rtasida muvozanatni saqlash hamda psixologik barqarorlikni rivojlantirish Alfa avlodining barkamol shaxs sifatida shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.


XULOSA VA TAKLIFLAR:

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt muhitida o‘sib kelayotgan Alfa avlodi shaxsiy va psixik rivojlanishining o‘ziga xosligi raqamli texnologiyalarning kognitiv, emotsional, ijtimoiy va motivatsion sohalarga kompleks ta’siri bilan belgilanadi. Ushbu muhit intellektual salohiyatni rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish, ijodiy fikrlash va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratsa-da, emotsional barqarorlik, ijtimoiy munosabatlar, axborot xavfsizligi va psixologik salomatlik bilan bog‘liq muayyan xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishini tadqiq etish, sun’iy intellekt texnologiyalarining psixologik ta’sirini ilmiy jihatdan baholash hamda ulardan samarali va xavfsiz foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adilova, M. Ta’lim tizimida zamonaviy psixologik xizmatni tashkil etish. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. – 256 b.
2. Anderson, M., & Jiang, J. Teens, Social Media & Technology 2023. – Washington, DC: Pew Research Center, 2023.
3. Bandura, A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
4. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
5. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – 2nd ed. – New York: Basic Books, 2020. – 252 p.
7. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 182 p.
8. Prensky, M. Digital Natives, Digital Immigrants. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2001. – 216 p.
9. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
10. UNICEF. The State of the World’s Children 2021: On My Mind – Promoting, Protecting and Caring for Children’s Mental Health. – New York: UNICEF, 2021.
11. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
12. World Health Organization (WHO). Guideline on Digital Interventions for Health System Strengthening. – Geneva: WHO, 2019.
13. World Health Organization (WHO). Global Strategy on Digital Health 2020–2025. – Geneva: WHO, 2021.
14. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025.

TENG YONLI UCHBURCHAK XOSSALARI VA KESMANING O'RTA PERPENDIKULYARI XOSSALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA MASALALAR YECHISH



Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti MI yo'nalishi 3-bosqich talabasi
ORCID: 0009-0005-8123-411X

Ilmiy rahbar: Ibragimov Qobil To'xtamishovich
Matematika va informatika kafedrasi mudiri, i.f.f.d. (PhD)
ORCID: 0009-0009-0634-1192

Annotatsiya: Ushbu maqolada geometriya kursining fundamental tushunchalaridan biri bo'lgan teng yonli uchburchakning o'ziga xos xossalari va ularning kesmaning o'rta perpendikulyarlari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Ishda teng yonli uchburchakning asosiga tushirilgan mediana, bissektrisa va balandlikning ustma-ust tushishi hamda bu holatning geometrik masalalarni yechishdagi samaradorligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, kesmaning o'rta perpendikulyari tushunchasi orqali uchburchakning simmetriya o'qi va unga tashqi chizilgan aylana markazini aniqlash munosabatlari yoritilgan. Maqolada nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda, milliy sertifikat darajasidagi murakkab kombinatsiyalangan masalalarning (xususan, bissektrisa va o'rta perpendikulyar orasidagi burchakka oid munosabatlar) yechish algoritmlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: teng yonli uchburchak, mediana, bissektrisa, balandlik, o'rta perpendikulyar, simmetriya, metrik munosabatlar, geometrik isbot.

Abstract: This в in the article analyzes the specific properties of an equilateral triangle, one of the fundamental concepts of the geometry course, and their relationship with the medians of the section. The work shows the overlap of the median, bisector, and altitude to the base of an equilateral triangle and the effectiveness of this condition in solving geometric problems. Also, the relationship between the axis of symmetry of a triangle and the center of the circumscribed circle is explained through the concept of the median of the section. In addition to theoretical information, the in the article presents algorithms for solving complex combined problems at the national certificate level (in particular, the relationship between the angle between the bisector and the median).

Key words: Equilateral triangle, median, bisector, altitude, median perpendicular, symmetry, metric relations, geometric proof.

Аннотация: В данной статье анализируются специфические свойства равностороннего треугольника, одного из фундаментальных понятий курса геометрии, и их связь с медианами сечения. Работа демонстрирует перекрытие медианы, биссектрисы и высоты с основанием равностороннего треугольника и эффективность этого условия при решении геометрических задач. Также объясняется связь между осью симметрии треугольника и центром описанной окружности через понятие медианы сечения. Помимо теоретической информации, в статье представлены алгоритмы решения сложных комбинированных задач на уровне национального сертификата (в частности, связь между углом между биссектрисой и медианой).

Ключевые слова: Равносторонний треугольник, медиана, биссектриса, высота, медианный перпендикуляр, симметрия, метрические соотношения, геометрическое доказательство.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy matematika ta'limida geometriya kursini o'qitish o'quvchi va talabalarning fazoviy tasavvuri hamda mantiqiy mushohadasini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Uchburchaklar, xususan, teng yonli uchburchaklar o'zining simmetrik xususiyatlari bilan planimetriyaning fundamental asosi hisoblanadi. O'rta umumta'lim va oliy ta'lim dasturlarida teng yonli uchburchakning bissektrisa, mediana va balandliklari orasidagi bog'liqlikni o'rganishga katta e'tibor qaratilsa-da, ularning o'rta perpendikulyarlar bilan

o‘zaro metrik munosabatlari ko‘p hollarda chuqur tahlil qilinmaydi. Milliy va xalqaro olimpiada masalalarida bissektrisa va o‘rta perpendikulyarning o‘zaro joylashuviga oid topshiriqlarning ko‘payishi ushbu mavzuni tizimli ravishda tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida teng yonli uchburchakning geometrik elementlari (tomonlari, burchaklari, chiziqlari) olinadi. Tadqiqot predmeti esa uchburchakning ichki chiziqlari (bissektrisa, mediana, balandlik) va tomonlariga o‘tkazilgan o‘rta perpendikulyarlar orasidagi geometrik munosabatlar hamda qonuniyatlardan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Geometriya fanida teng yonli uchburchak xossalari hamda kesmaning o‘rta perpendikulyari tushunchasi planimetriyaning fundamental va eng ko‘p qo‘llaniladigan elementlaridan biridir. Geometrik masalalarni yechishda ushbu elementlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar hamda pedagoglar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

A.V. Pogorelov hamda Sh.A. Alimov va boshqalarning darsliklarida teng yonli uchburchakning asosiy xossalari - asosiga tushirilgan bissektrisa, mediana va balandlikning ustma-ust tushishi hamda asosdagi burchaklarning tengligi nazariy va deduktiv jihatdan mukammal yoritilgan. Bu manbalarda kesmaning o‘rta perpendikulyari undan teng uzoqlikda joylashgan nuqtalarning geometrik o‘rni ekanligi fundamental tarzda isbotlab berilgan.

V.V. Prasolov va Y.A. Shashkinning ilmiy-amaliy ishlarida uchburchaklar geometriyasidagi burchak va metrik munosabatlar, xususan, simmetriya o‘qi hamda tashqi chizilgan aylana markazini aniqlashda o‘rta perpendikulyarning roli chuqur tahlil qilinadi. Ular murakkab olimpiada masalalarida bissektrisa, mediana va o‘rta perpendikulyarlar kesishuvidan hosil bo‘lgan burchaklarni hisoblashning turli usullarini keltirib o‘tganlar.

Shuningdek, N.X. Qurbonovning tadqiqotlarida nostandart va maxsus usullar yordamida yechiladigan geometrik va algebraik masalalar tahlil qilinib, murakkab kombinatsiyalangan topshiriqlarda yordamchi kesmalar va teng yonli uchburchaklarni hosil qilish orqali yechimni soddalashtirish algoritmlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, teng yonli uchburchak va o‘rta perpendikulyar xossalarining alohida nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, ularning kesishishidan hosil bo‘lgan murakkab burchak munosabatlarini (masalan, Milliy sertifikat va olimpiada darajasidagi masalalarda) tizimli tahlil qilish hamda amaliy yechim algoritmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘quv-uslubiy adabiyotlar: Planimetriya va elementar matematika bo‘yicha fundamental darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalari.

Didaktik materiallar: Matematika o‘qitish metodikasiga oid glossariylar va planimetriya bo‘yicha mualliflik o‘quv qo‘llanmalari materiallari.

Amaliy topshiriqlar to‘plami: Matematika fanidan Milliy sertifikat test topshiriqlari va xalqaro olimpiada (OMOUS, BIMO, NCUMC) masalalari bazasi.

Tadqiqot metodlari:

Ishni yozish davomida quyidagi ilmiy va amaliy metodlar qo‘llanilgan:


1. **Teoretik tahlil va umumlashtirish:** Teng yonli uchburchakning xossalariga oid nazariy ma’lumotlarni o‘rganish, bissektrisa va mediana munosabatlarini tizimlashtirish.
2. **Deduktiv isbotlash usuli:** Geometrik aksiomalar va teoremalardan foydalangan holda teng yonli uchburchakning simmetriya xossalarini tahlil qilish.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-ta’rif. **Teng yonli uchburchak deb, kamida ikkita tomoni o‘zaro teng bo‘lgan uchburchakka aytiladi. Bunda teng tomonlar yon tomonlar, uchinchi tomon esa uchburchakning asosi deb yuritiladi.**


Misol. ABC uchburchakning AF va BD bissektrisalari o‘tkazilgan. Ushbu bissektrisalar mos ravishda BC va AC tomonlarining o‘rta perpendikulyarlari bilan 5° va 10° ga teng burchaklar hosil qiladi. Agar AC = 3 bo‘lsa, ∠ACB burchakning qiymatini toping (1-rasm).

Chizmasi:



Yechim. OD kesma AC kesmaga tushirilgan o‘rta perpendikulyar ekanligidan AH = HC, ikkinchidan esa OF kesma BC kesmaga tushirilgan o‘rta perpendikulyar ekanligidan BK = KC ekanligi bizga ma’lum.

O nuqtadan AC va BC kesmalarining uchlariga mos ravishda OA, OC hamda OB, OC kesmalarini o‘tkazamiz. Bu yerda chizmada ∆AOC va ∆BOC lar hosil bo‘ladi (2-rasm).



Xossa (teng yonli uchburchak). **Teng yonli uchburchakning uchidan tushirilgan balandlik uning ham medianasi, ham bissektrisasi bo‘ladi.**

Bizga bu xossaga mos tushadigan shartlar mavjud. Ya’ni:

∆AOC da ⇔ **BC** ⊥ **OK** va **BK = KC.**

∆BOC da ⇔ **AC** ⊥ **OH** va **AH = HC.**

Bu shartlardan esa ∆**AOC** va ∆**BOC** uchburchaklarining teng yonli ekanligi kelib chiqishi bizga ma’lum.

Masala shartida berilganlarga ko‘ra esa **AF** va **BD** lar bissektrisalardir.

ABC uchburchakning uchlaridagi burchaklarni quyidagicha belgilab olaylik:

$$\angle A=2\alpha,\ \angle B=2\beta,\ \angle C=2\gamma.$$

Bunda $2\alpha+2\beta+2\gamma=180^\circ \Leftrightarrow \alpha+\beta+\gamma=90^\circ$ ekanligi kelib chiqadi.

Uchburchak bissektrisasi xossasiga ko‘ra bissektrisa o‘zi chiqqan burchakni teng ikkiga bo‘ladi. Bu xossaga ko‘ra

$$\Delta BAF = \Delta FAC = \alpha \text{ va } \Delta ABD = \Delta DBC = \beta.$$

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Masalaga yana belgilashlar kiritib olamiz:

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda informatika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Biroq ta’limning zamonaviy talablari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi mazkur metodikani muntazam ravishda yangilab borishni taqozo etmoqda. Shu sababli darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. [7].

Mazkur maqolada aynan ushbu jihatlar tahlil qilinib, boshlang‘ich sinflarda informatika fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metodik yondashuvlar ilmiy va amaliy nuqtai nazardan asoslab beriladi. [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda informatika fanini o‘qitish metodikasining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash hamda uni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashtirilib, olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. [2].

Tadqiqotning nazariy asosini boshlang‘ich ta’lim, informatika fanini o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etdi. Mavzuga doir ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilinib, mavjud metodik yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari aniqlandi. Mazkur tahlil asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hamda ta’lim ehtiyojlariga mos metodik yondashuvlar tanlab olindi. [5, 6].

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimli yondashuv, suhbat va amaliy tajribalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatish yordamida dars jarayonida qo‘llanilayotgan metodlarning o‘quvchilar faolligi, mustaqil fikrlashi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ta’siri o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali an’anaviy va zamonaviy o‘qitish metodlarining samaradorligi solishtirildi hamda ularning o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda baholandi. [4].

Tadqiqotda interfaol metodlardan foydalanishning natijadorligi ham alohida tahlil qilindi. Xususan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB”, “Insert”, “FSMU”, “Keys-stadi”, didaktik o‘yinlar hamda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, mantiqiy tafakkuri va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni nuqtai nazaridan baholandi. Olingan natijalar o‘zaro taqqoslanib, ularning ta’lim sifati va dars samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. [8, 10].

Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi. Bunda o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki axborot bilan ishlash, algoritmik fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, jamoada ishlash va raqamli vositalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy mezon sifatida belgilandi. Shuningdek, ta’lim jarayonida individual va differensial yondashuvni qo‘llash orqali har bir o‘quvchining qobiliyati va o‘zlashtirish darajasini hisobga olish imkoniyatlari ham o‘rganildi. [3, 9].

Tadqiqot natijalari ilmiy tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati baholandi. Olingan xulosalar asosida boshlang‘ich sinflarda informatika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash hamda o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang‘ich sinflarda informatika fanini samarali o‘qitish o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilish faoliyatini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoniga bevosita bog‘liq. Tadqiqot davomida darslarni an’anaviy va zamonaviy metodlar asosida tashkil etishning natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi, fanga qiziqishi va mustaqil fikrlash darajasi sezilarli ravishda ortadi. [4].

Boshlang‘ich ta’limda informatika fanini o‘qitishda vizual materiallar, animatsiyalar, elektron taqdimotlar, didaktik o‘yinlar va multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni tezroq anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, algoritmlar tuzish, ketma-ketliklarni aniqlash, mantiqiy masalalarni yechish va axborot bilan ishlashga oid topshiriqlarni o‘yin elementlari bilan uyg‘unlashtirish dars samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilar yangi bilimlarni qiziqish bilan o‘zlashtiradi hamda amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. [8, 9].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “BBB”, “FSMU”, “Baliq skeleti” kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi. Guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon etishga, muloqot qilishga hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada o‘quvchilarda axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish kompetensiyalari shakllanadi. [5, 6].

Shuningdek, informatika darslarida zamonaviy raqamli ta’lim platformalari va elektron resurslardan foydalanish o‘qituvchi faoliyatini samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Elektron testlar, interaktiv topshiriqlar va virtual mashqlar orqali o‘quvchilarning bilimini tezkor baholash, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati kengayadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish bilan birga o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. [10].

Olib borilgan tahlillar natijasida boshlang‘ich sinflarda informatika fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. O‘quvchilar faqat nazariy bilimlarni egallabgina qolmay, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal etish va zamonaviy raqamli vositalardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantiradilar. Mazkur yondashuv ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi tadqiqot natijalari orqali o‘z tasdig‘ini topdi. [3, 7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida boshlang‘ich sinflarda informatika fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Mazkur fan o‘quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyati, algoritmik tafakkur, mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda raqamli savodxonlikni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois informatika darslarini o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish ta’limning kutilgan natijalariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, multimedia vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi, bilimlarni puxta o‘zlashtirishiga xizmat qilishi hamda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va muammoli vaziyatlarga yechim topish kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, informatika fanini boshqa o‘quv fanlari bilan integratsiyalash, zamonaviy raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish va amaliy mashg‘ulotlar ulushini ko‘paytirish darslarning mazmunini yanada boyitadi. Bu esa o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga hamda ularning raqamli kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- boshlang‘ich sinflarda informatika darslarida interfaol metodlardan muntazam foydalanishni kengaytirish;
- dars jarayoniga zamonaviy raqamli ta’lim platformalari va elektron o‘quv resurslarini yanada faol joriy etish;
- o‘quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlar sonini ko‘paytirish;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini takomillashtirish;
- informatika fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda informatika fanini zamonaviy metodik yondashuvlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish hamda ularni raqamli jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2023.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017.
6. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2016.
7. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
8. Begimqulov U. Sh. Ta’limni axborotlashtirish va pedagogik dasturiy vositalar. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Informatika fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun o‘quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
10. Xolmatov T., Ahmedov B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021.

FUNKSIONAL SAVODXONLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI PROFESSIONAL RIVOJLANTIRISHNING STRUKTURAVIY-FAOLIYATLI MODELI

Gafurova Mahfuza Abbosovna
Farg'ona davlat universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli, individual rivojlanish xaritasi, funksional savodxonlikni refleksiv tahlil qilish kundaligi va mikroo'qitish ishlanmalarini yaratish vazifalari, platformalar bilan ishlash masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchilarini professional rivojlantirish, strukturaviy-faoliyatli model, individual rivojlanish xaritasi, refleksiv tahlil qilish kundaligi, mikroo'qitish ishlanmalari, platformalar.

Abstract: This article examines the structural-activity model of professional development for future primary education teachers based on functional literacy, the individual development map, tasks for creating a diary for reflective analysis of functional literacy and micro-learning developments, and issues of working with platforms.

Key words: functional literacy, primary education, professional development of teachers, structural-activity model, individual development map, reflexive analysis diary, micro-learning developments, platforms.

Аннотация: В данной статье рассматриваются структурно-деятельностная модель профессионального развития будущих учителей начального образования на основе функциональной грамотности, программа "Карта индивидуального развития", задачи создания дневника рефлексивного анализа функциональной грамотности и разработок микрообучения, а также вопросы работы с платформами.

Ключевые слова: функциональная грамотность, начальное образование, профессиональное развитие учителей, структурно-деятельностная модель, карта индивидуального развития, дневник рефлексивного анализа, разработки микрообучения, платформы.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisini kompetentli yondashuv asosida metodik faoliyatga tayyorlashni modellashtirish, malaka, faoliyat, kompetentsiya va kompetentlikning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi funksional savodxonlik va kompetentli yondashuvlar orqali metodik tayyorgarlik mazmunini loyihalash, amalga oshirish va tahliliy komponentlar uzviyligida ishlab chiqish, talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini mobil ilova va dasturiy ishlanmalar ishlab chiqish asosida takomillashtirish, talabalardagi metodik faoliyatga tayyorgarligining rivojlanganlik darajasini aniqlashning motivatsion, aksiologik, metodik faoliyatli, ijodiy mezonlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish hamda kasbiy pedagogik faoliyatning kognitiv, innovatsion, loyihalash, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli, individual rivojlanish xaritasi, funksional savodxonlikni refleksiv tahlil qilish kundaligi va mikroo'qitish ishlanmalarini yaratish darajalarini puxta egallashi uchun barcha didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini oshirish, kasbiy pedagogik kompetensiyalarni tuzilmalarga ajratish, o‘qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta’lim jarayonida qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga doir tadqiqotlar bugungi kunda dolzarblik kasb etadi. Jumladan, N.A. Muslimov tomonidan bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslariga doir masalalar keng o‘rganilgan.

M. Maxmutov, V. Okon, R. Ibragimovlar esa ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va shu asosda o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini tadqiq etishgan.

Tadqiqotchi D.E. Qarshieva klaster vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslarini maktab malakaviy amaliyoti misolida o‘rganib chiqqan. Unda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini amaliyot bilan integratsiyalash, kompetensiyaga asoslangan malakaviy amaliyot modeli va pedagogik shart-sharoitlar asoslangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimli tahlil, modellashtirish, umumlashtirish hamda pedagogik interpretatsiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish hamda professional rivojlanishiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o‘rganildi. Ularning ilmiy yondashuvlari qiyosiy-taqqoslash usuli asosida tahlil qilinib, mavjud ilmiy qarashlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, tizimli tahlil usuli orqali bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini professional rivojlantirishning tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va funksional savodxonlik bilan integratsiyasi o‘rganildi. Modellashtirish usuli yordamida funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli ishlab chiqildi hamda uning asosiy komponentlari: individual rivojlanish xaritasi, refleksiv tahlil qilish kundaligi, mikroo‘qitish ishlanmalari va raqamli platformalar bilan ishlash elementlari tizimlashtirildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida tahlil qilingan ilmiy manbalar, pedagogik yondashuvlar va ishlab chiqilgan modelning nazariy asoslari o‘zaro solishtirildi hamda ularning bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati baholandi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot maqsadiga erishish, taklif etilgan strukturaviy-faoliyatli modelning mazmunini asoslash hamda uning amaliy qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘z ustida ishlashi, ta’lim jarayonini zamonaviy uslubda tashkil etishi, turli dars loyihalarini ishlab chiqishi zarur. Bundan tashqari, funksional savodxonlik kompetensiyalariga ega bo‘lishi, faoliyatining turli jihatlarini tahlil qilish orqali professional rivojlanishning strukturaviy modelini yaratishi muhim vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy bilimlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda raqamli savodxonligini oshirishi, o‘zini o‘zi nazorat qilishi, ya’ni “o‘sish nuqtalari”ni aniqlay bilishi va rivojlanish vektorlarini belgilab borishi zarur. Chunki pedagogik faoliyat va uning rivojlanish yo‘nalishlari har qanday ijtimoiy munosabatlar sub’ekti kabi kasbiy faoliyat vazifalarini loyihalash natijasida shakllanadigan kompleks tuzilmalardan iborat. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi darslarni tashkil etishga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilarning darsga e’tiborini jalb qilish, qiziqtirish uchun metodik savodxonlik, ijtimoiy faol fuqarolik, kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lishi, ko‘plab axborot manbalari bilan tanishishi, ularni dars jarayonida samarali qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Elektron doskalar, smartfonlar va o‘yinli planshetlar – bularning barchasi o‘quvchining o‘quv predmetlari sifatida foydalanishi, mavzuga doir qo‘shimcha ma’lumotlar olishi, individual topshiriqlarni bajarish imkoniyatlaridan foydalanishiga xizmat qiladi. O‘quvchi mustaqil topshiriqlarni bajara olishi natijasida unda o‘zaro bir-biriga bog‘liq holda fanga doir zaruriy bilimlarni mustahkamlash, shaxs sifatida rivojlanish, atrof-muhit, oila va jamoaga hurmat, moslashuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlari, ishonch, uyushqoqlik va do‘stona munosabat, jismoniy va ruhiy salomatlik, ijobiy fikrlash kabi sifatlar rivojlanib boradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli bevosita ta’lim jarayonida pedagogik vazifani hal qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Bunda funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy modeli pedagogik faoliyatni tashkil etishda innovatsion metod va usullarni qo‘llay olish, refleksiv tahlil qilish kundaligi va mikroo‘qitish ishlanmalarini yaratish, o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi harakat dasturlarini yaratish kabi muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi metodlar va vositalarning texnologik blokini tashkil etadi. 2-sinf ona tili darsida “Sifat” mavzusini 15 daqiqalik mikroo‘qitish shaklida o‘tishga oid mikroo‘qitish ishlanmasi quyidagicha tuzilishi mumkin (1-jadval).

1-jadval: **Refleksiv tahlil qilish kundaligi namunasi**

№	Refleksiya yo‘nalishi	Namuna
1	**Dars maqsadi**	O‘quvchilarda sifat so‘z turkumi haqida dastlabki tushunchani shakllantirish.
2	**Nima muvaffaqiyatli bo‘ldi?**	Rasmlar va didaktik kartochkalar orqali o‘quvchilar darsga faol jalb qilindi. Savollarga ko‘pchilik to‘g‘ri javob berdi.
3	**Qanday qiyinchiliklar kuzatildi?**	Vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmadim, yakuniy mustahkamlash uchun vaqt yetmadi.
4	**Qanday xatolarimni aniqladim?**	Savollarni barcha o‘quvchilarga teng taqsimlamadim, faqat faol o‘quvchilar bilan ishladim.
5	**Kelgusida nimani o‘zgartiraman?**	Vaqt rejasini aniq tuzaman, differensial topshiriqlardan foydalanaman va barcha o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilaman.

2. Mikroo‘qitish ishlanmasi tayyorlash

Fan: **Matematika**

Sinf: 1-sinf

Mavzu: 10 ichida qo‘shish.

Davomiyligi: 15 daqiqa.

Maqsad: O‘quvchilarni 10 ichida qo‘shish usullari bilan tanishtirish, hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va faollikni rag‘batlantirish.

Dars bosqichlari:

Kirish (2 daqiqa). Salomlashish. Bugun sonlarni qanday qo‘shishni o‘rganamiz.

Asosiy qism (10 daqiqa). Rangli kubiklar yordamida 4 + 3 misolini ko‘rsatish. Interfaol savol-javob. Juftlikda 5 ta misolni bajarish.

Yakun (3 daqiqa). “Bugun nimani o‘rgandik?” savoli. O‘z-o‘zini baholash.

Baholash mezoni: misollarni to‘g‘ri yechishi, darsdagi faolligi, savollarga javob berishi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyati sifatida bir-birini to‘ldiradigan quyidagi natijalarga olib keladi:

a) mikroo‘qitish bo‘lajak o‘qituvchiga qisqa vaqt ichida darsni rejalashtirish, o‘qitish metodlarini qo‘llash va pedagogik vaziyatlarni boshqarish tajribasini beradi.

b) refleksiv tahlil kundaligi esa o‘tkazilgan mikrodarsni tahlil qilish, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashga xizmat qiladi.

Natijada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisida pedagogik refleksiya, metodik kompetensiya, darsni loyihalash, muloqot madaniyati va kasbiy o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari izchil shakllanadi.

Funksional savodxonlik asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli refleksiv tahlil qilish kundaligi, mikroo‘qitish ishlanmalarini yaratish, individual rivojlanish xaritasi tuzish kabi funksional savodxonlikni platformalar bilan ishlash masalalari bilan izchil mustahkamlanib boradi. Shunday qilib, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan u yoki bu kasbiy qiyinchiliklar va tegishli ta’lim kutilmalari kasbiy rivojlanish dasturlarini o‘zlashtirish orqali qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmalari shakllanib boradi.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini qo‘shimcha ta’lim berish vositalari va ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishida, o‘qituvchilarning funksional savodxonlik kompetensiyalariga ega bo‘lish imkoniyatlarini har tomonlama o‘rganish, o‘z ehtiyojlariga muvofiqlik darajasini aniqlashdan iborat.

Bunda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi harakat dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bunday dasturlar quyidagicha mazmunda va shaklda tuzilishi mumkin bo‘lib, bu dasturning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari, refleksiv tafakkuri, pedagogik mahorati hamda innovatsion faoliyatga tayyorligini izchil rivojlantirishdan iboratdir (2-jadval).

2-jadval: **Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi harakat dasturlari**

№	Rivojlanish yo‘nalishi	Amalga oshiriladigan ishlar	Muddati	Kutilayotgan natija
1	**Kasbiy bilimlarni oshirish**	Pedagogika, psixologiya va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarni muntazam o‘qish	Har hafta	Nazariy bilimlar boyiydi, ilmiy dunyoqarash kengayadi.
2	**Metodik mahoratni rivojlantirish**	Har oy kamida 2 ta mikroo‘qitish mashg‘ulotini tayyorlash va o‘tkazish	Har oy	Darsni loyihalash va tashkil etish ko‘nikmalari rivojlanadi.
3	**Refleksiv kompetensiyani shakllantirish**	Har bir amaliy mashg‘ulot yoki darsdan so‘ng refleksiv kundalik yuritish	Doimiy	O‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish odati shakllanadi.
4	**Raqamli kompetensiyani rivojlantirish**	Zamonaviy ta’lim platformalari va raqamli vositalardan foydalanishni o‘rganish	Haftasiga 2 soat	AKTdan samarali foydalanish ko‘nikmasi rivojlanadi.
5	**Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish**	Seminar, trening va guruhli muhokamalarda faol ishtirok etish	Har oy	Pedagogik muloqot madaniyati rivojlanadi.
6	**Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati**	Ilmiy maqolalar o‘qish, tezis yoki maqola tayyorlash	Har semestr	Tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlanadi.
7	**Shaxsiy rivojlanish**	Vaqtni boshqarish, stressni boshqarish va nutq madaniyati ustida ishlash	Doimiy	Kasbiy o‘zini boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini qo‘shimcha ta’lim berish vositalari va ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishida o‘qituvchilarning funksional savodxonlik kompetensiyalariga ega bo‘lish imkoniyatlarini har tomonlama o‘rganish, o‘z ehtiyojlariga muvofiqlik darajasini aniqlash dasturlarining imkoniyatlari belgilandi. Muhim vazifalar sifatida zamonaviy sharoitlarda pedagogik faoliyat resurslariga ega bo‘lish, funksional savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanish dasturlarini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash belgilab olindi.

Bunda funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini professional rivojlantirishning samaradorligi va natijadorligini boshqarish jarayoni, kasbiy rivojlanishi masalalarini o‘rganish doirasida elektron platformalar yaratishni nazarda tutadi. Bu platformada ekspert tadqiqotchi, baholovchi, test o‘tkazuvchi, sifat va samaradorlikni baholash, refleksiv tahlil, mikroo‘qitish ishlanmalarini tayyorlash, o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi dasturlar ustida ishlashni nazorat qiluvchi hamda monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bunda jarayonning har bir sub’ekti kasbiy-pedagogik rivojlanish va o‘zini o‘zi rivojlantirish dasturining ishtirokchisi sifatida, nazorat qiluvchi metodist-o‘qituvchi qatnashishi mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalari funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, ushbu vositalar o‘quv-uslubiy faoliyatni tashkil etish, ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quv materiallarini yaratish hamda kasbiy refleksiyani rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot davomida xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv-baholash kabi tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi.

Strukturaviy-faoliyatli model asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisida refleksiv fikrlash va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Buning natijasida kognitiv va metodik kompetensiyalar rivojlanadi, uzluksiz kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga barqaror motivatsiya shakllanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida funksional savodxonlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 90 bet.
2. B. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 2017.
3. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 2010.

4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81 b.
5. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022.
6. Ефремова Н. Ф. Организация оценивания компетенций студентов, приступающих к освоению основных образовательных программ вузов. Рекомендации для вузов, приступающих к переходу на компетентностное обучение студентов. М.: Исследовательский центр проблем качества. Barrett, H. C. (2007). Researching electronic portfolios and learner engagement: The REFLECT initiative. Journal of Adolescent & Adult Literacy, 50(6), 436–449. https://doi.org/10.1598/JAAL.50.6.2
7. Qarshieva D. E. Klaster vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari (maktab malakaviy amaliyoti misolida) (PhD dissertatsiyasi). 2025-yil.
8. Darling-Hammond, L., Burns, D., Campbell, C., Goodwin, A. L., Hammerness, K., Low, E. L., McIntyre, A., Sato, M., & Zeichner, K. (2017). Empowered Educators: How High-Performing Systems Shape Teaching Quality Around the World. Jossey-Bass.
9. OECD. (2019). OECD Skills Outlook 2019: Thriving in a Digital World. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/df80bc12-en
10. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.
11. Рысбаева Г., Сихимбаева С., Петренко Т., Караева А. Профессиональная компетентность учителя начальных классов новой формации // Международный журнал экспериментального образования. 2015. № 11–4. С. 522–524. URL: https://expeducation.ru/ru/article/view?id=8628 (дата обращения: 17.09.2025).

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

MUTAFAKKIRLAR ASARLARIDA BOLALAR FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING YORITILISHI



Ravshanova Uldona Narziboyevna
Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi
21-son maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlarning pedagogik ahamiyati hamda Sharq mutafakkirlarining ushbu masalaga oid ilmiy-pedagogik qarashlari tahlil qilingan. Xususan, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning asarlarida o'yinlarning bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida milliy o'yinlardan foydalanishning bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, milliy o'yinlar, bolalar faolligi, pedagogik texnologiyalar, Sharq mutafakkirlari, Mahmud Qoshg'ariy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, tarbiya.

Abstract: This article examines the pedagogical significance of games in developing the activity of preschool children and analyzes the educational views of Eastern scholars on this issue. Particular attention is paid to the ideas of Mahmud Kashgari, Abu Ali Ibn Sina, Alisher Navoi, and other thinkers regarding the role of games in the physical, intellectual, and moral development of children. The study also substantiates the pedagogical potential of using traditional national games in preschool education to enhance children's independent thinking, creativity, communication skills, and social activity.

Key words: preschool education, play activity, national games, children's activity, pedagogical technologies, Eastern scholars, Mahmud Kashgari, Ibn Sina, Alisher Navoi, education.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическое значение игровой деятельности в формировании активности детей дошкольного возраста, а также анализируются педагогические взгляды восточных мыслителей по данной проблеме. Особое внимание уделено трудам Махмуда Кашгари, Абу Али ибн Сины, Алишера Навои и других ученых, раскрывающим роль игр в физическом, интеллектуальном и нравственном развитии детей. Кроме того, обоснованы педагогические возможности использования национальных игр в системе дошкольного образования для развития самостоятельного мышления, творческих способностей, коммуникативной культуры и социальной активности детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, игровая деятельность, национальные игры, активность детей, педагогические технологии, восточные мыслители, Махмуд Кашгари, Ибн Сина, Алишер Навои, воспитание.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'ini bo'lib, barkamol avlodni tarbiyalashning dastlabki va eng mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolaning intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda shaxsiy fazilatlari shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ta'lim-tarbiya vositalaridan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'yin jarayonida bola erkin fikrlaydi, muloqotga kirishadi, muammoli vaziyatlarni hal etishga intiladi hamda atrof-muhitni faol o'rganadi. Shu bois o'yin nafaqat dam olish vositasi, balki ta'lim va tarbiyaning muhim pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari ham o‘yinning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratganlar. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Kaykovus, Umar Xayyom kabi allomalar o‘z asarlarida milliy o‘yinlarning yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol va intellektual yetuk etib tarbiyalashdagi o‘rnini yoritganlar. Ularning ilmiy-pedagogik merosi bugungi kunda ham maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy o‘yinlar bolalarda jamoada ishlash, muloqot madaniyati, mustaqil qaror qabul qilish, tashabbuskorlik va ijodkorlik kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, ular bolalarning jismoniy rivojlanishi, emotsional barqarorligi va ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlashda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy o‘yinlardan maqsadli foydalanish ta’lim sifatini oshirish hamda bolalar faolligini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosini ilmiy tahlil qilish hamda maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini shakllantirishda o‘yinlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyatini asoslab berishdan iborat. Shuningdek, milliy o‘yinlarning zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llanilishining pedagogik imkoniyatlari va ularning bolalar rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini rivojlantirishda o‘yinlardan foydalanish masalasi pedagogika, psixologiya va maktabgacha ta’lim metodikasi sohalarida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati bo‘lib, u orqali bolaning intellektual, jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi ta’minlanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o‘yin ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilib, bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholanadi.

Sharq mutafakkirlari merosida ham o‘yinning tarbiyaviy ahamiyati alohida o‘rin egallaydi. Xususan, Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlarning inson salomatligini mustahkamlashdagi ahamiyatini ilmiy asoslab bergan. Olim o‘yin va badantarbiyani bolalarning sog‘lom o‘sishi hamda jismoniy barkamolligini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholagan [1].

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari milliy o‘yinlar tarixini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda 150 dan ortiq xalq o‘yinlari tilga olinib, ularning qariyb 20 tasi batafsil tavsiflangan. Muallif o‘yinlarni bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tasniflagan hamda ularni jismoniy va aqliy rivojlanishga xizmat qiluvchi vosita sifatida izohlagan. Ushbu ilmiy qarashlar bugungi maktabgacha ta’lim tizimida milliy o‘yinlardan foydalanishning nazariy asoslarini tashkil etadi. Alisher Navoiy, Kaykovus, Umar Xayyom, Beruniy va boshqa allomalar asarlarida ham xalq o‘yinlari inson kamoloti, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida yoritilgan. Xususan, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida “Oqsuyak” o‘yini misolida bolalarda topqirlik, chaqqonlik va jamoada harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish g‘oyalari ilgari surilgan [2].

Zamonaviy pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida didaktik, harakatli, syujetli-rolli va ijodiy o‘yinlardan foydalanish bolalarning bilish faolligini oshirish, nutqini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvi hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, o‘yin faoliyatiga to‘g‘ri pedagogik rahbarlik qilish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, Sharq mutafakkirlari merosi hamda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Ularning barchasida o‘yin bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Shu bois maktabgacha ta’lim amaliyotida milliy o‘yinlardan tizimli va maqsadli foydalanish bolalar faolligini shakllantirish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ma’lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash, mantiqiy tahlil qilish va ilmiy xulosalash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik qismida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatini tashkil etish jarayoni pedagogik kuzatish metodi asosida tahlil qilindi. Shuningdek, o‘yin texnologiyalarining bolalar faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahliliy yondashuv asosida baholandi. O‘yinlarning didaktik, harakatli, syujetli-rolli va milliy o‘yin turlarining tarbiyaviy imkoniyatlari o‘zaro qiyoslandi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga amal qilindi. Mazkur metodologik yondashuvlar bolalar faolligini rivojlantirishda o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlarini kompleks baholash, ularning maktabgacha ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asoslash imkonini berdi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy manbalar tahlili, pedagogik kuzatishlar, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda olingan natijalarning zamonaviy maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyoti bilan

o‘zaro uyg‘unligi orqali ta’minlandi. Natijalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar faolligini rivojlantirishga qaratilgan o‘yin texnologiyalarini takomillashtirish va ta’lim amaliyotiga samarali joriy etishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini shakllantirishda o‘yinlardan foydalanishning nazariy asoslari hamda pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin bolalar uchun nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki ularning intellektual, jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida o‘yin orqali bolaning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va ijodiy qobiliyatlari izchil rivojlanadi.

Ilmiy manbalar tahlili Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosida ham o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati yuqori baholanganini ko‘rsatdi. Mahmud Qoshg‘ariy milliy o‘yinlarni bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida tavsiflagan bo‘lsa, Abu Ali ibn Sino o‘yin va badantarbiyani sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida e’tirof etgan. Alisher Navoiy esa xalq o‘yinlari orqali bolalarda topqirlik, chaqqonlik, hamkorlik va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish mumkinligini ta’kidlagan. Mazkur ilmiy qarashlar bugungi maktabgacha ta’lim tizimida ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llaniladigan didaktik, syujetli-rolli, harakatli va milliy o‘yinlar bolalar rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Didaktik o‘yinlar bilish jarayonlarini faollashtirsa, syujetli-rolli o‘yinlar bolalarda ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi. Harakatli o‘yinlar jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlasa, milliy o‘yinlar esa bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.


Shuningdek, tadqiqot davomida pedagogning o‘yin faoliyatini ilmiy asosda rejalashtirishi va unga metodik rahbarlik qilishi bolalar faolligini oshirishning muhim omili ekanligi aniqlandi. O‘yinlarning mazmuni bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlariga mos tanlanganda ta’lim-tarbiya samaradorligi sezilarli darajada ortadi. O‘yin jarayonida bolalar muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga, muloqot qilishga, o‘z fikrini erkin ifodalashga va tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga o‘rganadilar.

Olib borilgan tahlillar asosida o‘yinlardan foydalanishning bolalar rivojlanishiga ta’siri quyidagicha umumlashtirildi (1-jadval).

1-jadval: **Maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini shakllantirishda o‘yin turlarining pedagogik imkoniyatlari va rivojlantiriladigan kompetensiyalar**

O‘yin turi	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar	Pedagogik natija
Didaktik o‘yinlar	Bilish faolligi, tafakkur, xotira	O‘quv motivatsiyasi va aqliy faollik ortadi
Harakatli o‘yinlar	Jismoniy rivojlanish, chaqqonlik	Sog‘lom turmush ko‘nikmalari shakllanadi
Syujetli-rolli o‘yinlar	Muloqot, ijtimoiy moslashuv	Hamkorlik va ijtimoiy faollik rivojlanadi
Milliy o‘yinlar	Milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya	Vatanparvarlik, jamoaviylik va ma’naviy fazilatlar mustahkamlanadi

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim jarayonida o‘yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish bolalar faolligini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: **O‘yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini rivojlantirishga ta’siri**

Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi asosida milliy o'yinlarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalarini takomillashtirish va pedagoglarning ushbu yo'nalishdagi metodik kompetensiyalarini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar faolligini shakllantirishda o'yin faoliyati muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin bolaning intellektual, jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan yetakchi faoliyat turi sifatida uning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik merosi tahlil qilinib, ular tomonidan o'yinning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati yuksak baholanganligi aniqlandi. Xususan, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning asarlarida milliy o'yinlar yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol va intellektual yetuk etib tarbiyalashning samarali vositasi sifatida talqin etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, didaktik, harakatli, syujetli-rolli va milliy o'yinlardan maqsadli foydalanish bolalarda bilish faolligi, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko'nikmalari hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, pedagog tomonidan o'yin faoliyatining ilmiy-metodik asosda tashkil etilishi ta'lim-tarbiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son1 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O'RQ–595-son2 "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son3 "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1982.
5. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3 jildlik. – Toshkent: Fan, 1960–1963-yillar.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
7. Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1973.
8. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10. Piaget J. Play, Dreams and Imitation in Childhood. – New York: W.W. Norton & Company, 1962.

1 https://lex.uz/ru/docs/-4327235
2 https://lex.uz/docs/-4646908
3 https://lex.uz/docs/-5013007

IJTIMOIY-MADANIY QADRIYATLAR VARIATSIYASI SHAROITIDA TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Vorisova Barnoxon Olimjon qizi
Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik mazmuni tahlil qilingan. Globallashuv, raqamlashtirish va axborot makonining kengayishi natijasida yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning yoshlar mutolaa madaniyatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning mazmuniy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, didaktik imkoniyatlari hamda adabiyot fanining bu jarayondagi o'rni ilmiy asoslangan. Talabalarda kitob tanlash, badiiy asarlarni tahlil qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishning samarali yo'llari tavsiflangan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, qadriyatlar variatsiyasi, kitobxonlik madaniyati, talaba, adabiyot fani, mutolaa, badiiy adabiyot, ma'naviy tarbiya, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, oliy ta'lim, mutolaa kompetensiyasi, axborot madaniyati.

Abstract: This article analyzes the theoretical and pedagogical content of developing a reading culture in students in the conditions of variation of socio-cultural values. The impact of socio-cultural changes occurring as a result of globalization, digitization and the expansion of the information space on the reading culture of young people is highlighted. Also, the content components of the development of a reading culture, pedagogical conditions, didactic opportunities and the role of literature in this process are scientifically based. Effective ways of selecting books, analyzing works of art, critical and creative thinking, and forming a spiritual worldview based on national and universal values are described in students. The results of the study are of significant scientific and practical importance in improving the content of education aimed at developing a reading culture in higher education institutions and implementing modern pedagogical approaches into practice.

Key words: socio-cultural values, value variation, reading culture, student, literary science, reading, fiction, spiritual education, critical thinking, creative thinking, pedagogical approach, competency-based approach, higher education, reading competence, information culture.

Аннотация: В данной статье анализируется теоретико-педагогическое содержание развития культуры чтения у студентов в условиях изменения социокультурных ценностей. Подчеркивается влияние социокультурных изменений, происходящих в результате глобализации, цифровизации и расширения информационного пространства, на культуру чтения молодежи. Также научно обоснованы содержательные компоненты развития культуры чтения, педагогические условия, дидактические возможности и роль литературы в этом процессе. Описаны эффективные способы отбора книг, анализа произведений искусства, критического и творческого мышления, а также формирования духовного мировоззрения на основе национальных и универсальных ценностей у студентов. Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение для совершенствования содержания образования, направленного на развитие культуры чтения в высших учебных заведениях, и внедрения современных педагогических подходов в практику.

Ключевые слова: социокультурные ценности, вариативность ценностей, культура чтения, студент, литературоведение, чтение, художественная литература, духовное воспитание, критическое мышление, творческое мышление, педагогический подход, компетентностный подход, высшее образование, читательская компетентность, информационная культура.

KIRISH

Kitob, uni mutolaa qilish istagi mustaqil hayotga qadam qo‘ygan, biroq hali hayotiy maqsadlari yetarlicha aniq bo‘lmagan va ayni vaqtda intellektual yetuklikka intilayotgan talabalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ammo, afsuski, global axborotlashuv ta’sirida asrlar davomida insoniyat tomonidan ulug‘lab kelingan yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan yondashuv tubdan o‘zgardi. Insoniylik tamoyillari inkor qilinib, ularning o‘rnini individualizm, axloqsizlik, moddiyatga o‘chlik, raqamli qaramlik kabi salbiy odatlar egallamoqda. Mavjud sharoitda kitobxonlik talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan asriy umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, integral yondashuvni taqozo qiladi.

Insoniyat tarixida shaxs va jamiyat erishgan eng muhim yutuqlardan biri kitobga ega bo‘lish, uni mutolaa qilishdir. Kitob vositasida xronologik davrlar o‘rtasidagi to‘siqni yengib, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot davomida insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlar, shakllangan g‘oya, ta’lim va nazariyalar bilan tanishish mumkin. Kitobga, uning mutolaasiga bo‘lgan munosabat shaxsning ma’naviy-axloqiy, aqliy va estetik jihatdan shakllanishiga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga, dunyoqarashini boyitishga yordam beradi.

Shu sababli asrlar davomida insoniyatning kitobga bo‘lgan munosabati ijobiy xarakter kasb etib kelgan. Yosh avlodni tarbiyalashda ularda ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishga e’tibor qaratilgan. Shaxsning kitobga, uni mutolaa qilishga bo‘lgan ijobiy munosabati “kitobxonlik madaniyati” tushunchasining mohiyatida o‘z ifodasini topadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kitoblarning eng muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ularning shaxsda bilimlarni hosil qilish, fikrlash, idrok, tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish, ijobiy xarakterni tarkib toptirish, hayot va turmush ziddiyatlarini yechish yo‘llarini o‘rgatish [1. B. 38], xorijiy tillarni o‘rganish hamda o‘rganilayotgan til bo‘yicha lug‘at zaxirasini boyitish imkoniyatiga egaligi bilan belgilanadi [2. B. 921]. Kitoblarning iqtisodiy tavsifi esa ularga ega bo‘lish va ulardan foydalanish tannarxining nisbatan pastligi, jamoaviy foydalanish imkoniyati, ta’lim muassasalarining axborot-resurs markazlari hamda maxsus bepul elektron platformalar (masalan, ZiyoNET) orqali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Talabalar kitobxonligini yoritishda, avvalo, “mutolaa”, “kitobxonlik” va “kitobxonlik madaniyati” tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlab olish zarur. Ilmiy manbalarda mutolaa grafikli qayd etilgan matnni mazmuniga ko‘ra qabul qilish, anglash, tahlil qilish va qayta ishlashga yo‘naltirilgan nutqiy-bilish faoliyati sifatida tavsiflanadi. Bu jarayonda shaxs matndagi axborotni idrok etadi, uni tahlil qiladi va o‘zining bilim hamda hayotiy tajribasi bilan uyg‘unlashtiradi [3. B. 23].

O‘zbekistonlik olim A.A. Umarov mutolaani bilish, o‘rganish va ilm olishga xizmat qiluvchi faoliyat sifatida baholab, uning asosida shaxsning faolligi, maqsadga yo‘naltirilganligi hamda matnda mujassam bo‘lgan axborotni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoji yotishini ta’kidlaydi [4. B. 88]. Olimning fikricha, mutolaa shaxsning intellektual rivojlanishi va ma’naviy kamolotini ta’minlovchi muhim omillardan biridir.

Pedagog olim N.A. Muslimovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, kitob mutolaasi talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U mutolaa jarayoni orqali shaxsda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari, axborotni tahlil qilish va tanqidiy baholash malakalari shakllanishini qayd etadi.

Rus psixologi L.S. Vygotskiyning sotsiokultural rivojlanish nazariyasida ham mutolaa shaxsning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Olimning fikricha, kitob orqali o‘zlashtirilgan bilimlar tafakkur, nutq va muloqot madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida mutolaa inson tafakkurining mantiqiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xorijiy tadqiqotchi Mortimer J. Adler esa o‘zining How to Read a Book asarida samarali mutolaa faqat matnni o‘qish emas, balki uni tahlil qilish, muallif g‘oyalarini anglash va tanqidiy baholash jarayoni ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, kitobxonlik madaniyati insonning mustaqil fikrlashi va uzluksiz ta’lim olishi uchun zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalardan biridir.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini mustahkamlash hamda mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida kitob mutolaasiga qiziqishni oshirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilishda tizimli yondashuv, qiyosiy-taqqoslash, tahlil va sintez, umumlashtirish hamda mantiqiy xulosalash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini kitobxonlik madaniyati, mutolaa jarayoni va talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali kitobxonlik madaniyatining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari va talaba shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda zamonaviy axborot muhitining mutolaa jarayoniga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan baholandi. Shuningdek, mutolaa, kitobxonlik va kitobxonlik madaniyati tushunchalarining mazmuni o'zaro qiyoslanib, ularning talaba shaxsining intellektual, ma'naviy va axloqiy kamolotidagi o'rni tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Mazkur metodologik yondashuvlar talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, kitob mutolaasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ilmiy asoslash hamda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Darhaqiqat, nutqiy xarakterga ega mutolaa jarayonida fikrlash-bilish faoliyati namoyon bo'ladi hamda uning negizida matnning grafikli shakli asosida mazmuni o'zlashtiriladi, idrok etiladi, o'zlashtirilgan ma'lumotlar qayta ishlanadi.

A.A. Umarovning fikriga ko'ra, mutolaa faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan bilish, o'rganish, ilm olishga xos hodisa bo'lib, uning zamirida faollik, maqsad sari yo'naltirilganlik, o'qish va ijtimoiy sub'ektning turli ehtiyojlariga qarab matndagi ma'lumotni egallashi yotadi [4. B. 88]. Muallifning yondashuvida g'alizlik ko'zga tashlanadi. Bizning nazarimizda quyidagicha bayon qilinishi muallif tomonidan fikrning yaqqol ifodalanishini ta'minlagan bo'lar edi: mutolaa – bilish, anglash va ta'lim olishga qaratilgan faoliyat jarayoni, shaxs yoki ijtimoiy sub'ektlarga xos ijtimoiy-individual hodisa bo'lib, uning negizida munosabat, faollik, maqsadga yo'nalganlik (yoki yo'naltirilganlik), o'qishga, tegishli matnda mujassamlangan axborot va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj yotadi.

Manbalarda "mutolaa" tushunchasi bilan birga "mutolaa madaniyati" atamasi ham qo'llaniladi va har ikki tushuncha bir-biridan farqlanadi. Fikrimizcha, mutolaa shaxsning bilish-anglashga qaratilgan harakatini, mutolaa madaniyati esa uning darajasini ifodalaydi. "Mutolaa madaniyati" tushunchasi ham turlicha yoritiladi. Masalan, mutolaa madaniyati – "ijtimoiy guruhlar, uyushmalar, alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor, faoliyatlari mazmuni, tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar"; shaxsda mutolaa ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi; "o'quvchining o'qilayotgan kitobga va uning sifatiga bo'lgan baholovchi munosabati" [5. B. 4].

Bizningcha, mutolaa madaniyati shaxsning o'zi tomonidan o'qilayotgan matnga ijobiy yondashuvi, shu bilan birga to'g'ri, tezkor, ifodali va idrok qilgan holda o'qish qoidalariga amal qilish darajasini ifodalovchi munosabatdir.

"Kitobxon madaniyati" tushunchasi negizida kitob, kitobxon, kitobxonlik atamalari aks etadi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "kitob" tushunchasiga shunday izoh berilgan: kitob – "axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. YuNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashr shartli ravishda kitob deb qabul qilinadi" [6. B. 616]. Mazkur izohni o'z ichiga olgan manba qariyb chorak asr oldin chop etilgani inobatga olinsa, YuNESKOning "kitob" atamasini ifodalovchi ta'rifi o'rinli sanaladi. O'tgan vaqt mobaynida global axborotlashuv ta'sirida "kitob" atamasini mantiqan boyitishni talab qiladigan hodisalar ro'y berdi. Bugungi kunda nafaqat taboqlangan bosma nashr, shu bilan birga elektron variantda taqdim etilayotgan kitoblar ham mavjud.

Elektron kitob – "qog'ozsiz, muqovasiz va yelimsiz bo'lgan kitob turi". Anglanganidek, keltirilgan ta'rif elektron kitobning mohiyatini to'liq ifodalab bera olmaydi. Binobarin, "elektron" tushunchasi bu turdagi har qanday mahsulotning yaratilishida asosiy vosita bo'lgan qurilma va jihozlar, axborot texnologiyalari yordamida yoritilishi zarur. Qisqa qilib aytganda, elektron kitob – "bu fayl (muayyan usullar bilan kodlashtirilgan matnli axborot)" [7. B. 195].

Bu o'rinda quyidagi ta'riflar "elektron kitob" ning umumiy tavsifini nisbatan to'liq va batafsil yoritadi: elektron kitob – "badiiy asarni turli elektron qurilmalar (smartfonlar, planshetlar, riderlar), shuningdek, bu kabi o'lchamdagi manbalar bilan tanishishga imkon beruvchi qurilmaning o'zi yordamida o'qish uchun raqamlashtirilib, kitob shaklida taqdim qilinadigan kitob bo'lib, u turli dastur va gadjetlar uchun mos keladigan xilma-xil o'lchamlarda

bo‘ladi; EPUB, FB2, PDF, RTF, DOC, MOBI, TXT elektron kitoblar e’lon qilinadigan ommabop formatlardir”. Zamonaviy kitobning bu turi noan’anaviy kitob, raqamli kitob, elektron nashr kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Elektron kitoblar bosma kitoblardan ma’lum xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Ularda “bir-biriga yopishgan ikki sahifa bo‘lmaydi, chunki bunday qilinganida harflarning shrifti keskin kichrayadi. Sahifalar diskret (alohida-alohida) emas, balki kinofilmdagi kadrlar kabi “tasma”da birin-ketin o‘tkaziladi. Bu turdagi kitoblarda tasvirlar matn bilan juda sust uyg‘unlashib, alohida “rasmlar” sifatida qabul qilinadi. “Muvozanat” tushunchasi o‘z ma’nosini, matn esa o‘zining estetik funksiyasini yo‘qotadi va faqat axborot manbaiga aylanadi”.

Bildirilgan fikrlardan bosma va elektron kitoblarning tavsifini quyidagicha ifodalash mumkin:

1) bosma kitobga xos xususiyatlar:

- qattiq yoki yumshoq qog‘oz, mato yoki teridan iborat murakkab konstruksiyali muqovaga egalik;
- taboqli bo‘lish;
- alohida sahifa va ichki (ikki sahifaning birga yopishtirilishi) sahifaning mavjudligi;
- barcha sahifalarning yagona kitob to‘plami (bloki)ni hosil qilishi;
- barcha sahifalarning “ildizi”dan tikilishi va yelimlanishi;
- sahifalarning konstruksiyaga “ildizi”dan matoli kaptal yordamida mahkamlanishi;
- sahifalarning raqamlar bilan ajratilishi;
- sahifalarning tartib raqamlariga muvofiq ketma-ket kelishi;
- matn va tasvirning o‘zaro uyg‘un bo‘lishi;
- o‘qilayotgan sahifani belgilash uchun ingichka bog‘ich yoki yupqa tasmaning bo‘lishi;

2) elektron kitobga xos xususiyatlar:

- taboqli va alohida, murakkab konstruksiyali muqovaga ega bo‘lmasligi, fayl shaklida taqdim etilishi;
- matnning sahifalarda emas, ko‘p hollarda kinofilmlardagi kabi “tasma”da taqdim qilinishi;
- matn va tasvirning o‘zaro uyg‘un bo‘lmasligi, tasvirlarning alohida “kartina” sifatida namoyon bo‘lishi.

Kitobxon – kitobsevar, kitob o‘qishni yoqtiradigan shaxs (odatda -xon qo‘shimchasining predmetga qo‘shilishi ijobiy ma’noni hosil qiladi).

Shaxs kitobxonligi (yoki kitobxonlik) – kitobsevar, kitob o‘qishni yoqtiradigan shaxsning mutolaa borasidagi faoliyati; shaxsning kitobga nisbatan ijobiy munosabati, izchil mutolaa bilan shug‘ullanib borishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayoni diagnostik-aniqlashdan boshlanib, motivatsion shakllantirish, adabiy-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, qadriyatli munosabatlarni qaror toptirish, tanqidiy-refleksiv tafakkurni takomillashtirish, kommunikativ tajribani boyitish va kitobxonlik madaniyatini shaxsning barqaror hayotiy ehtiyoji sifatida mustahkamlashga qadar bo‘lgan izchil va o‘zaro bog‘liq bosqichlar tizimini tashkil etadi. Bu bosqichlar yig‘indisi mazkur pedagogik jarayonning ichki mantig‘ini hamda uning samarali amalga oshirish mexanizmlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сафарова Д.С. Китобхонлик маданиятини шакллантириш орқали ўқувчи-ёшларни турли ёт ғоялар таъсиридан ҳимоя қилиш // Ж. Современное образование (Узбекистан). – 2017. – № 6. – 38-б.
2. Муминова Н.М. Чтение как средство обучения // Ж. Экономика и социум. – 2020. – № 6 (73). – С. 921.
3. Как хорошо уметь читать! А уметь хорошо читать – ещё лучше // https://habr.com/ru/articles/591051.
4. Умаров А.А. Мутолаа маданияти: шахс, жамият тараққиёти. – Т.: Фан, 2004. – 88-б.
5. Мелентьева Ю.П. Понятие “культура чтения” в контексте русской культурной традиции // http://www.gpntb.ru/win/inter-events/crimea2007/cd/11.pdf.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебуннисо – Конигил: 4-жилд / Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М. Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 616-б.
7. Макарова К.В. Электронная книга как современный культурный феномен // Ж. Историческая и социально-образовательная мысль. – Краснодар, 2016. – № 6/1. – Том 8. – С. 195.

HUQUQIY TA'LIM VA HUQUQIY TARBIYA INTEGRATSIYASI ORQALI YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH

Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li
Alfraganus University Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 3-bosqich talabasi
https://orcid.org/0009-0003-1667-8676

Ilmiy rahbar: Pulatov Sherdor Ne'matjonovich
Alfraganus University Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), dotsent
https://orcid.org/0009-0002-1665-0545

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning o'zaro integratsiyalashgan mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda o'rganildi. Xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida huquqiy ta'limning faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, huquqiy tarbiya bilan uyg'unlashgandagina samarali natija berishi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi yoshlar orasida huquqbuzarlik xavfini kamaytirish, fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish hamda qonunlarga hurmatni mustahkamlashning muhim omili ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya, huquqbuzarlik, yoshlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, profilaktika, fuqarolik mas'uliyati, integratsiya.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the integrated mechanisms of legal education and legal upbringing in the prevention of delinquency among youth. The study systematically examined the factors influencing the formation of legal consciousness, legal culture, and legal behavior. Drawing on international scholarly literature and modern theoretical approaches, the study substantiates that legal education yields effective results only when harmonized with legal upbringing, rather than being limited to the mere transmission of knowledge. The research findings demonstrate that the integration of legal education and legal upbringing is a crucial factor in reducing the risk of delinquency among youth, fostering civic responsibility, and strengthening respect for the law.

Key words: legal education, legal upbringing, delinquency, youth, legal consciousness, legal culture, prevention, civic responsibility, integration.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ комплексных механизмов правового образования и правового воспитания в системе профилактики правонарушений среди молодежи. В ходе исследования были систематически проанализированы факторы, влияющие на формирование правосознания, правовой культуры и правомерного поведения. Опираясь на международные научные источники и современные теоретические подходы, авторы обосновывают, что правовое образование приносит эффективные результаты лишь при условии его гармоничного сочетания с правовым воспитанием, а не сводится к простой передаче знаний. Результаты исследования свидетельствуют о том, что интеграция правового образования и правового воспитания является ключевым фактором снижения риска правонарушений в молодежной среде, формирования гражданской ответственности и укрепления уважения к закону.

Ключевые слова: правовое образование, правовое воспитание, правонарушения, молодежь, правосознание, правовая культура, профилактика, гражданская ответственность, интеграция.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish dunyoning ko'plab davlatlari uchun dolzarb ijtimoiy-huquqiy masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi, axborot almashinuvi tezligining ortishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, ushbu omillar yoshlarning bilim olish va o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, noqonuniy axborotlar, kiber-

jinoyatchilik, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent, ekstremistik g‘oyalar hamda turli salbiy ijtimoiy ta’sirlar yoshlarning huquqiy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada ayrim yoshlar huquqiy me’yorlarga rioya qilish, qonun ustuvorligini anglash va fuqarolik mas’uliyatini his etish borasida muammolarga duch kelmoqda. Shu bois yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki ta’lim tizimi, oila va jamiyatning barcha institutlari oldida turgan muhim strategik vazifaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda ham yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim asosan nazariy bilimlarni yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, huquqiy tarbiyaning amaliy va qadriyatga asoslangan jihatlari yetarli darajada integratsiyalashmagan. Natijada yoshlar qonun normalarini bilgan holda ham ularni kundalik hayotda qo‘llash, huquqiy mas’uliyatni his etish va qonuniy xulq-atvorni namoyon etish borasida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyani yagona pedagogik hamda ijtimoiy tizim sifatida tashkil etish, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlash huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy va samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

So‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyaning integratsiyalashgan mexanizmlarini yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish nuqtayi nazaridan kompleks nazariy tahlil qiluvchi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Ayniqsa, huquqiy bilim, huquqiy qadriyat, huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorning o‘zaro bog‘liqligini yagona konseptual model asosida yoritish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining mazmuni, tarkibiy elementlari hamda ularning yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi – huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishdagi nazariy asoslari va samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyaning ilmiy-nazariy mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish;
- yoshlar orasida huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni nazariy jihatdan guruhlash va baholash;
- huquqiy ta’lim hamda huquqiy tarbiya integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari va pedagogik mexanizmlarini aniqlash;
- huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvorni shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuvning afzalliklarini asoslash;
- huquqbuzarliklarning profilaktikasiga xizmat qiluvchi konseptual integratsion modelni ishlab chiqish hamda uni nazariy jihatdan asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2022–2026-yillarda xorijiy ilmiy adabiyotlarda yoshlar huquqbuzarligining oldini olish masalasi huquqiy ijtimoiylashuv, ta’lim muassasasiga mansublik, qonunga itoatkorlik, pedagogik adolat va huquqni qo‘llash amaliyotiga ishonch kabi yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat qonun normalarini tushuntirish yoki jazo muqarrarligi haqidagi ma’lumotlarni yetkazish bilan cheklanmasligi, balki yoshlarning huquqiy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari, o‘zini nazorat qilish qobiliyati va ijtimoiy institutlarga bo‘lgan ishonchini rivojlantirishi lozimligi asoslangan. Ayniqsa, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari, maktabga bog‘lanish darajasi, qonunlarga rioya qilishni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning adolatli faoliyati huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida ko‘rsatiladi.

Amy Nivette va hammualliflarning “Fair Teachers, Fair Police? Assessing the Pathways between Perceptions of Teacher and Police Authority in Childhood and Adolescence” nomli maqolasida[1] o‘qituvchilarning adolatli munosabati yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuviga qanday ta’sir qilishi o‘rganilgan. Tadqiqot Syurix shahridagi yoshlarning uzoq muddatli kuzatuv ma’lumotlariga asoslangan bo‘lib, 232 juft o‘quvchining 11 yoshdagi o‘qituvchi bilan munosabatlari, 13 yoshdagi axloqiy qarashlari va o‘zini nazorat qilish qobiliyati hamda 15 yoshdagi

1 Nivette A. et al. Fair teachers, fair police? Assessing the pathways between perceptions of teacher and police authority in childhood and adolescence. – 2021. DOI: 10.1007/s10964-021-01537-6.

politsiya legitimligiga munosabati qiyoslangan. Natijalar o‘qituvchilar tomonidan adolatli va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatni his qilgan bolalarda ijtimoiy-axloqiy me’yorlar va o‘zini nazorat qilish qobiliyati yaxshiroq shakllanishini ko‘rsatgan. O‘zini nazorat qilishning rivojlanishi esa keyinchalik huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ijobiy munosabat bilan bog‘langan. Mazkur izlanish huquqiy tarbiya faqat huquq fani darslarida emas, balki o‘qituvchining kundalik xatti-harakati, o‘quvchiga adolatli munosabati va maktabdagi qoidalarning izchil qo‘llanishi orqali ham amalga oshirilishini asoslaydi.

Chau-kiu Cheung va Cindy Xinshan Jia tomonidan e’lon qilingan “Law Awareness and Abidance and Radicalism Prevention Among Hong Kong Youth” maqolasida[2] Yoshlar orasida qonundan xabardorlik, qonunga itoatkorlik va radikal xatti-harakatlar o‘rtasidagi munosabat tahlil qilingan. Tadqiqot Gonkongdagi 883 nafar yosh ishtirokida o‘tkazilgan bo‘lib, unda qonunlarning ijro etilishi haqida xabardorlik, jamiyatning qonunga rioya qilishni qo‘llab-quvvatlashi, shaxsiy qonunga itoatkorlik va radikalizm darajasi o‘lchangan. Natijalarga ko‘ra, huquqni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi xabardorlikning ortishi radikalizm darajasi bilan kuchli teskari bog‘liqlikni namoyon qilgan. Shuningdek, qonunga rioya qilishni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy me’yorlarni anglash va qonunlarga shaxsiy rozilik bildirish ham radikal xatti-harakatlarning kamayishi bilan bog‘langan. Tadqiqotchilar huquqiy ta’lim jarayonida yoshlarni faqat jazo choralari bilan tanishtirish emas, balki qonunlarning ijtimoiy ahamiyati, adolatliligi va jamiyat barqarorligidagi o‘rnini muhokama qilish zarurligini ta’kidlaydi.

M. Márta va E. Karolina tomonidan chop etilgan “Factors Influencing School Bonding Among Juvenile Offenders – The Experience of a Systematic Review” nomli maqolasida[3] Voyaga yetmagan huquqbuzarlarning ta’lim muassasasiga bog‘lanishi va huquqbuzarlikdan voz kechishi o‘rtasidagi munosabat o‘rganilgan. Mualliflar mavjud tadqiqotlarni tizimli umumlashtirib, maktabga mansublik hissi, o‘quv jarayonidagi ishtirok, o‘qituvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlash, sinfdan tashqari faoliyat va mentorlik yoshlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga yordam berishini aniqlagan. Aksincha, maktabdan begonalashish, o‘qishni tashlab ketish, oiladagi muammolar, salbiy tengdoshlar ta’siri va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi takroriy huquqbuzarlik xavfini oshirishi mumkin. Tadqiqotning mavzu uchun muhim jihati shundaki, huquqiy tarbiya alohida profilaktik tadbir emas, balki yoshning maktab jamoasiga mansubligi, o‘qituvchi bilan ijobiy munosabati va foydali ijtimoiy faoliyatlarda ishtiroki bilan uyg‘un holda tashkil etilishi kerak.

Thiago R. va J. Jonathan tomonidan e’lon qilingan “Learning About the Binding Nature of the Law: Police Violence, Criminal Offending and Adolescent Legal Socialization” maqolasida[4] Huquqni qo‘llash amaliyotining adolatli yoki zo‘ravon shakllari o‘smirlarning qonun legitimligi haqidagi qarashlari va huquqbuzarlikka moyilligiga qanday ta’sir qilishi tahlil etilgan. Tadqiqot San-Paulu shahridagi 11–14 yoshli 800 nafar o‘smir ishtirok etgan to‘rt bosqichli longitudinal kuzatuv ma’lumotlariga tayangan. Natijalar politsiya tomonidan zo‘ravon yoki adolatsiz munosabatga guvoh bo‘lish yoshlarning qonun va huquqiy institutlar legitimligiga bo‘lgan ishonchini susaytirishini ko‘rsatgan. Bunday ishonchsizlik yoshlarning ichki axloqiy cheklovlarini zaiflashtirib, ayrim vaziyatlarda huquqbuzar xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Ushbu xulosa yoshlar huquqbuzarligining oldini olishda “qonunni bilish” bilan bir qatorda “qonunni adolatli deb qabul qilish” ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun huquqiy ta’limda yoshlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ochiq muloqotlar tashkil etish, protsessual adolat tamoyillarini yoritish hamda huquqiy institutlarga asosli ishonchni shakllantirish huquqiy tarbiyaning ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, unda empirik kuzatuv, eksperiment yoki so‘rovnoma usullaridan foydalanilmadi. Tadqiqot metodologiyasi huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan nazariy tahlil usullariga tayandi. Tadqiqot jarayonida 2022–2026-yillarda nashr etilgan xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda huquqiy ta’lim va huquqiy madaniyatga oid ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o‘rganildi. Tadqiqotda tizimli tahlil usuli orqali huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyaning tarkibiy elementlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanib, qiyosiy tahlil yordamida turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan yondashuvlar o‘zaro solishtirildi. Kontent tahlili usuli asosida ilmiy manbalardagi asosiy g‘oyalar, konsepsiyalar va ilmiy qarashlar umumlashtirildi, induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali esa alohida ilmiy natijalardan umumiy xulosalar hamda nazariy konsepsiyalar shakllantirildi.


2 Cheung C. K. J. Law awareness and abidance and radicalism prevention among Hong Kong youth. – 2024. DOI: 10.1007/s11482-024-10331-y.

3 Miklósi M., Kovács K. E. Factors influencing school bonding among juvenile offenders–The experience of a systematic review // International Journal of Educational Research Open. – 2025. – T. 8. – C. 100441. DOI: 10.1016/j.ijedro.2025.100441.

4 Oliveira T. R., Jackson J. Learning About the Binding Nature of the Law: Police Violence, Criminal Offending and Adolescent Legal Socialization: Oliveira and Jackson //Journal of Developmental and Life-Course Criminology. – 2025. – C. 1-36. DOI: 10.1007/s40865-025-00271-y.

TAHLIL VA NATIJALAR

Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya zamonaviy ta'lim tizimining bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy qismlari hisoblanadi. So'nggi yillarda xorijiy ilmiy tadqiqotlarda huquqbuzarliklarning oldini olish faqat qonunchilik normalarini o'rgatish yoki huquqiy bilimlarni oshirish orqali emas, balki shaxsning huquqiy qadriyatlari, fuqarolik mas'uliyati va qonunlarga hurmatini shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkinligi tobora ko'proq asoslanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyani alohida jarayon sifatida emas, balki yagona integratsiyalashgan pedagogik model sifatida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur model bilim, qadriyat va amaliy xulq-atvor o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali yoshlarning huquqiy ongini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi hamda huquqbuzarliklar profilaktikasining barqaror mexanizmini shakllantiradi (1-rasm).



1-rasm: **Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning nazariy integratsion modeli.**

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, integratsion modelning birinchi bosqichi huquqiy bilimlarni egallashdan boshlanadi. Ushbu bosqichda yoshlar Konstitutsiya, amaldagi qonunchilik, shaxsning huquq va majburiyatlari, inson huquqlari hamda fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillari haqida ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo'ladi. Biroq zamonaviy pedagogik va huquqiy konsepsiyalarga ko'ra, faqat nazariy bilimlarning mavjudligi qonuniy xulq-atvorni kafolatlamaydi. Shu sababli ikkinchi bosqichda huquqiy tarbiya vositasida olingan bilimlar shaxsning ichki e'tiqodi, axloqiy qarashlari va huquqiy qadriyatlariga singdiriladi.

Integratsion modelning yakuniy bosqichi huquqiy bilim va huquqiy qadriyatlarning amaliy xulq-atvorga transformatsiyalanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda yoshlar kundalik hayotda qonunlarga rioya qilish, nizolarni huquqiy yo'l bilan hal etish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish hamda ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etish kabi kompetensiyalarni egallaydi. Nazariy jihatdan qaralganda, huquqiy ta'lim → huquqiy ong → huquqiy madaniyat → huquqiy xulq-atvor ketma-ketligi huquqbuzarliklarning oldini olishning eng maqbul konseptual modelini tashkil etadi.

Quyidagi 1-jadvalda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda guruhlarga ajratilib, ularning mazmuni, yoshlar xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'siri hamda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya orqali bartaraf etish yo'llari kompleks tahlil qilingan. Tahlil natijalari huquqbuzarliklar birgina huquqiy bilim yetishmasligi natijasida emas, balki individual, oilaviy, ta'limiy, ijtimoiy, psixologik va institutsional

omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Shu sababli yoshlar huquqbuzarligining oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan emas, balki ta’lim muassasalari, oila, mahalla va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan profilaktika tizimini talab etadi. Mazkur yondashuv huquqiy ta’limni nazariy bilim berish bilan cheklab qolmasdan, uni huquqiy tarbiya, fuqarolik qadriyatlari va qonuniy xulq-atvorni shakllantirish bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi (1-jadval).

1-jadval: **Yoshlar orasida huquqbuzarliklarga ta’sir qiluvchi omillarning nazariy tahlili**

Omillar guruhi	Asosiy omillar	Yoshlarga ta’siri	Huquqiy ta’lim va tarbiya orqali bartaraf etish yo‘llari
I. Individual omillar	Huquqiy bilimning yetishmasligi, huquqiy ongning sustligi, mas’uliyat hissining pastligi, impulsiv qarorlar qabul qilish, o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi	Qonunlarni yetarli bilmaslik, huquqiy me’yorlarga befarqlik, noqonuniy xatti-harakatlarga moyillik, xavfli qarorlarni tez qabul qilish	Huquqiy savodxonlikni oshirish, interfaol huquq darslari, amaliy huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish
II. Oilaviy omillar	Oilada huquqiy tarbiyaning sustligi, ota-onalarning huquqiy savodxonligi pastligi, oilaviy nizolar, nazoratning yetishmasligi, salbiy oilaviy muhit	Huquqiy qadriyatlarning to‘liq shakllanmasligi, salbiy xulq-atvorning rivojlanishi, tajovuzkorlik va ijtimoiy moslashuv muammolari	Ota-onalar uchun huquqiy-ma’rifiy treninglar, oila va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish, oilaviy huquqiy maslahatlar va profilaktik tadbirlarni tashkil etish
III. Ta’lim muassasalari omillari	Nazariy ta’limning ustunligi, amaliy mashg‘ulotlarning kamligi, huquqiy tarbiyaning tizimli tashkil etilmaganligi, pedagogik hamkorlikning sustligi	Huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olmaslik, fuqarolik mas’uliyatining sust rivojlanishi, qonunlarga nisbatan loqayd munosabat	Case-study, debat, rolli o‘yinlar, virtual sud jarayonlari, huquqiy klublar, mentorlik va profilaktik loyihalarni joriy etish
IV. Ijtimoiy va raqamli muhit omillari	Salbiy tengdoshlar ta’siri, ijtimoiy tarmoqlardagi noqonuniy kontent, kiberjinoyatchilik, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi axborotlar, destruktiv g‘oyalar	Huquqbuzarlikka qiziqishning ortishi, radikal qarashlarning shakllanishi, virtual huquqbuzarliklar va kiberxavflarning ko‘payishi	Raqamli huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish, internet xavfsizligi bo‘yicha treninglar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikdagi profilaktik dasturlar
V. Psixologik omillar	Stress, emotsional beqarorlik, past o‘zini baholash, agressivlik, konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarining yetishmasligi	Mojarolarga moyillik, zo‘ravonlik, noqonuniy xatti-harakatlar orqali muammolarni hal qilishga urinish	Psixologik xizmatlarni rivojlantirish, konfliktologiya va mediatsiya mashg‘ulotlari, huquqiy-psixologik maslahatlar hamda ijtimoiy moslashuv dasturlarini amalga oshirish

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, individual va psixologik omillar yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda muhim o‘rin tutsa, oilaviy hamda ta’lim muassasalari bilan bog‘liq omillar ushbu ongning barqaror huquqiy madaniyatga aylanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi yoshlar duch kelayotgan huquqiy xavflarni murakkablashtirayotganligi sababli media va raqamli huquqiy savodxonlikni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

Institutsional omillar esa barcha subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik darajasi huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini belgilashini ko‘rsatadi. Demak, huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyaning integratsiyasiga asoslangan kompleks yondashuv yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatini rivojlantirish, fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishning eng samarali pedagogik va ijtimoiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyaning samaradorligi ularning qanchalik uzviy va tizimli integratsiyalashganligiga bevosita bog‘liq. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish faqat huquq fanlarini o‘qitish bilan emas, balki ta’lim jarayonining barcha tarkibiy

qismlarini yagona maqsad sari yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, integratsiyalashgan yondashuv huquqiy bilimlarni kundalik hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy amaliyot bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi (2-rasm).



2-rasm: **Huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining asosiy yo‘nalishlari.**

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining samaradorligi, avvalo, o‘quv dasturlarining mazmunan boyitilishi va huquqiy kompetensiyalarni barcha fanlar bilan bog‘liq holda rivojlantirishga asoslanadi. Shu bilan birga, case-study, debatlar, rolli o‘yinlar, virtual sud jarayonlari kabi interfaol pedagogik texnologiyalar yoshlarning huquqiy bilimlarini amaliy ko‘nikmaga aylantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Oilaning tarbiyaviy roli ham ushbu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, ota-onalar va ta’lim muassasalari hamkorligi huquqiy qadriyatlarning barqaror shakllanishiga zamin yaratadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi esa elektron ta’lim platformalari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv vositalari orqali huquqiy ta’limni yanada ommalashtirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, ta’lim muassasalari, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan profilaktik faoliyat yoshlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashning eng muhim integratsion yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlanadi.

Quyidagi 2-jadvalda huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya integratsion modelining samaradorligi nazariy jihatdan sakkizta o‘zaro bog‘liq yo‘nalish bo‘yicha tizimlashtirilgan. Ushbu yo‘nalishlar huquqiy bilimlarni egallashdan boshlab, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, qonuniy xulq-atvorni rivojlantirish, ta’lim sifati va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, profilaktik faoliyatni takomillashtirish, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish hamda barcha tarkibiy qismlarni yagona integratsiyalashgan tizimga birlashtirishgacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni qamrab oladi. Mazkur yondashuv huquqbuzarliklarning oldini olishni faqat huquqiy bilim berish bilan emas, balki yosh shaxsining har tomonlama huquqiy rivojlanishini ta’minlaydigan kompleks pedagogik va ijtimoiy mexanizm sifatida baholash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval: **Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsion modelining samaradorligi bo'yicha nazariy tahlil**

Samaradorlik yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar	Integratsiya natijasida kutilayotgan o'zgarishlar	Huquqbuzarliklarning oldini olishdagi ahamiyati
I. Bilim (kognitiv) samaradorligi	Huquqiy savodxonlik, Konstitutsiya va qonunchilikni bilish, huquq va majburiyatlarni anglash	Yoshlarning huquqiy bilim darajasi oshadi, qonunlarning mazmuni va ahamiyatini ongli ravishda tushunish shakllanadi	Huquqiy me'yorlarni bilmaslik sababli yuzaga keladigan huquqbuzarliklar kamayadi, qonunlarga ongli rioya qilish kuchayadi
II. Qadriyat va psixologik samaradorlik	Huquqiy ong, fuqarolik mas'uliyati, adolat va qonun ustuvorligiga ishonch, huquqiy qadriyatlar	Qonunlarga hurmat, mas'uliyat hissi va ijtimoiy adolat tamoyillariga sodiqlik rivojlanadi, noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi	Huquqbuzarlikka ichki motivatsiya pasayadi, huquqiy xulq-atvorning barqarorligi ta'minlanadi
III. Xulq-atvor (behavorial) samaradorligi	Qonuniy xulq-atvor, o'zini nazorat qilish, nizolarni huquqiy yo'l bilan hal etish, intizom	Huquqiy bilim va qadriyatlar kundalik amaliyotda namoyon bo'ladi, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati kuchayadi	Takroriy huquqbuzarliklar kamayadi, huquqiy madaniyatning amaliy ko'rinishi shakllanadi
IV. Ta'limiysamaradorlik	Interfaol metodlardan foydalanish, huquqiy kompetensiyalar, amaliy mashg'ulotlar sifati	Huquqiy ta'lim nazariy bilimdan amaliy ko'nikmaga o'tadi, ta'lim sifati va o'quvchilarning faolligi ortadi	Yoshlarda qonunlarni qo'llash va huquqiy vaziyatlarni to'g'ri baholash ko'nikmalari rivojlanadi
V. Ijtimoiy samaradorlik	Maktab–oila–mahalla hamkorligi, fuqarolik faolligi, jamoatchilik ishtiroki	Ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi, yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtiroki ortadi	Profilaktika tizimining uzluksizligi ta'minlanadi, huquqbuzarliklarning ijtimoiy omillari kamayadi
VI. Profilaktik samaradorlik	Erta profilaktika, xavf guruhidagi yoshlarni aniqlash, monitoring tizimi	Huquqbuzarlik xavfi yuqori bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash imkoniyati kengayadi, profilaktik choralar o'z vaqtida amalga oshiriladi	Birlamchi va takroriy huquqbuzarliklarning oldi olinadi, yoshlarning huquqiy himoyalanganligi kuchayadi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, bilim (kognitiv) samaradorligi yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish va qonunchilikni ongli ravishda tushunishiga xizmat qilsa, qadriyat va psixologik samaradorlik ularda qonunga hurmat, fuqarolik mas'uliyati hamda adolat tamoyillariga sodiqlikni rivojlantiradi. Xulq-atvor samaradorligi huquqiy bilim va qadriyatlarning amaliy faoliyatda namoyon bo'lishini ta'minlab, ta'limiy samaradorlik interfaol metodlar orqali huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy samaradorlik ta'lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlash orqali profilaktik faoliyatning uzluksizligini ta'minlasa, profilaktik samaradorlik xavf guruhidagi yoshlarni erta aniqlash va ular bilan tizimli ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, huquqbuzarliklarning oldini olishda faqat huquqiy bilimlarni oshirish yetarli emas. Bilimning huquqiy qadriyatlarga, huquqiy qadriyatlarning esa kundalik xulq-atvorga aylanishi integratsiyalashgan pedagogik yondashuvni talab qiladi. Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning uyg'unligi yoshlarning qonunlarga ongli munosabatini shakllantirib, huquqiy mas'uliyat va fuqarolik faolligini kuchaytiradi.

Shuningdek, zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda ta'lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligi huquqiy tarbiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, integratsion yondashuv huquqbuzarliklarning profilaktikasida strategik mexanizm sifatida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning integratsiyasi yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishning eng samarali nazariy mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Integratsiya huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvor o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda kompleks yondashuvni shakllantiradi.

Tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilganda profilaktik samaradorlik oshadi.
2. Huquqiy madaniyatni shakllantirish huquqbuzarliklarni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi.
3. Interfaol pedagogik metodlar nazariy huquqiy bilimlarni amaliy kompetensiyalarga aylantirish imkonini beradi.
4. Oila, ta'lim muassasasi, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligi huquqiy tarbiyaning barqarorligini ta'minlaydi.
5. Raqamli huquqiy ta'lim vositalari yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.
6. Integratsiyalashgan huquqiy ta'lim modeli yoshlarning qonunlarga hurmatini kuchaytirish, fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ilmiy asoslangan konseptual yechimi sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nivette A. et al. Fair Teachers, Fair Police? Assessing the Pathways Between Perceptions of Teacher and Police Authority in Childhood and Adolescence. – 2021. DOI: 10.1007/s10964-021-01537-6.
2. Cheung C. K., Jia C. X. Law Awareness and Abidance and Radicalism Prevention Among Hong Kong Youth. – 2024. DOI: 10.1007/s11482-024-10331-y.
3. Miklósi M., Kovács K. E. Factors Influencing School Bonding Among Juvenile Offenders – The Experience of a Systematic Review // International Journal of Educational Research Open. – 2025. – T. 8. – B. 100441. DOI: 10.1016/j.ijedro.2025.100441.
4. Oliveira T. R., Jackson J. Learning About the Binding Nature of the Law: Police Violence, Criminal Offending and Adolescent Legal Socialization // Journal of Developmental and Life-Course Criminology. – 2025. – B. 1–36. DOI: 10.1007/s40865-025-00271-y.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TANQIDIY VA REFLEKSIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA ANTIFRAGIL YONDASHUVNING O‘RNI

G‘ulomjonova Ziyodaxon A’zamjon qizi
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antifragil yondashuvning nazariy hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida noaniqlik, murakkablik va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan pedagoglarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, antifragillik konsepsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash, refleksiv tahlil qilish, muammolarni kreativ hal etish va kasbiy moslashuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: antifragillik, antifragil yondashuv, tanqidiy tafakkur, refleksiv tafakkur, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik ta’lim, kasbiy kompetensiya, refleksiya.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical significance of the antifragile approach in the development of critical and reflective thinking of future teachers. Training educators who can adapt to uncertainty, complexity, and changing conditions in the educational process is one of today’s most pressing tasks. In this context, the concept of antifragility is presented as an effective approach for developing future teachers’ competencies in critical thinking, reflective analysis, creative problem-solving, and professional adaptability.

Key words: antifragility, antifragile approach, critical thinking, reflective thinking, future teacher, pedagogical education, professional competence, reflection.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретическое и практическое значение антифрагильного подхода в развитии критического и рефлексивного мышления будущих учителей. Одной из актуальных задач современности является подготовка педагогов, способных адаптироваться к неопределённости, сложности и изменяющимся условиям образовательного процесса. В этом контексте концепция антифрагильности рассматривается как эффективное средство развития у будущих учителей компетенций критического мышления, рефлексивного анализа, творческого решения проблем и профессиональной гибкости.

Ключевые слова: антифрагильность, антифрагильный подход, критическое мышление, рефлексивное мышление, будущий учитель, педагогическое образование, профессиональная компетентность, рефлексия.

KIRISH

Jahon miqyosida ta’lim tizimining rivojlanishi globallashuv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tezkor o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday sharoitda pedagogdan nafaqat chuqur kasbiy bilim va metodik mahorat, balki noaniqlik sharoitida samarali faoliyat yuritish, muammolarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, o‘z faoliyatini muntazam tahlil etish va yangi vaziyatlarga tez moslasha olish kabi kompetensiyalar ham talab etilmoqda. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirish pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ta’lim nazariyasida shaxsning murakkab va beqaror sharoitlarda nafaqat barqarorligini saqlashi, balki ana shunday vaziyatlar ta’sirida yanada rivojlanishi g‘oyasini ifodalovchi antifragillik konsepsiyasiga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu konsepsiya Nassim Nicholas Taleb tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u tizimlarning stress, noaniqlik va o‘zgarishlar ta’sirida mustahkamlanish xususiyatini tavsiflaydi. Mazkur yondashuv pedagogik ta’limga tatbiq etilganda bo‘lajak o‘qituvchilarda murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, xato-

lardan o'rganish, refleksiya yuritish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tanqidiy tafakkur o'qituvchining axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, turli nuqtai nazarlarni solishtirish hamda asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiv tafakkur esa pedagogning o'z kasbiy faoliyatini muntazam tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki kompetensiyaning uyg'un rivojlanishi zamonaviy pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham pedagog kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish hamda bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan. Shu bois antifragil yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash va uni oliy pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antifragil yondashuvning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari va amaliy ahamiyatini tahlil qilish hamda uni oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: antifragillik konsepsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish, tanqidiy va refleksiv tafakkurning pedagogik mohiyatini yoritish, antifragil yondashuvning bo'lajak o'qituvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash, mazkur yondashuvni oliy pedagogik ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, tadqiqotchilar hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Особое место в устной традиции населения Устюрта занимают предания, связанные с древними городищами и укреплёнными поселениями. В отличие от героического эпоса, где исторические события часто приобретают обобщённый характер, топонимические легенды обычно объясняют происхождение конкретных памятников и географических названий. Несмотря на легендарный характер подобных рассказов, они нередко сохраняют сведения о функциях древних сооружений, особенностях их восприятия местным населением и механизмах формирования исторической памяти (Пропп, 1984).

Одним из таких памятников является городище Кетенлер, расположенное у подножия Устюрта. В каракалпакской фольклорной традиции сохранилась легенда о богатыре Кетенлере, которому хан поручил возвести крепость, неприступную для врагов. Согласно преданию, мастер вместе со строителями всего за несколько дней возвёл мощную крепость, способную выдержать любую осаду.

Дальнейшее развитие сюжета связано с дочерью хана, которая во время поездки с подругами увидела Кетенлера и полюбила его. Молодой герой также ответил ей взаимностью и впоследствии увёз девушку в построенную им крепость. Разгневанный хан осадил крепость с многочисленным войском, однако не смог овладеть ею. После продолжительной осады Кетенлер добровольно явился к хану и объяснил свои действия тем, что хотел испытать прочность возведённой им крепости. Если бы хан сумел её захватить, сооружение нельзя было бы считать надёжным; если же крепость выдержала осаду, значит, поручение было выполнено достойно. Оценив смелость и искренность молодого человека, хан не только простил его, но и благословил брак с дочерью.

С исторической точки зрения данное предание, безусловно, не может рассматриваться как описание реальных событий. Однако оно представляет значительный интерес как отражение народных представлений о назначении древних фортификационных сооружений. В сознании носителей фольклорной традиции крепость выступает прежде всего символом прочности, военного мастерства и государственного могущества. Именно поэтому строительство города связывается с образом идеального героя, обладающего не только физической силой, но и выдающимися инженерными способностями.

Таким образом, легенда о Кетенлере представляет интерес не как источник конкретных исторических фактов, а как свидетельство того, каким образом население Устюрта осмысляло происхождение древних крепостей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённый анализ показывает, что каракалпакский фольклор представляет собой важный дополнительный источник по изучению исторической географии Устюртского плато. Несмотря на художественную природу эпических произведений и легенд, они сохраняют многочисленные сведения о древних городах, этнических общностях, миграционных процессах, хозяйственной деятельности и исторической топонимии региона.

Особое значение имеют сведения о Курганче, Вазире (Девкескене), Аланкале и Кетенлере, а также отражение в эпической традиции памяти об аланах, асах и кипчакских племенах. Сопоставление фольклорных материалов с археологическими исследованиями, письменными источниками и топонимическими данными позволяет выявить историческую основу многих народных преданий и проследить процессы сохранения коллективной памяти на протяжении длительного времени.

Заключение и предложения:

1. Абулгази Бахадур-хан. Родословная туркмен / пер. А. Н. Кононова. - Санкт-Петербург : Наука, 1992. - 192 с.
2. Агаджанов С. Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII вв. - Ашхабад : Ылым, 1969. – 296 с.
3. Бартольд В. В. Сочинения. Т. II, ч. 1 : Работы по исторической географии. – Москва : Изд-во восточной литературы, 1963. - 1024 с.
4. Жирмунский В. М. Тюркский героический эпос. - Ленинград : Наука, 1974.- 727 с.
5. Никонов В. А. Введение в топонимику. - Москва : Наука, 1965. - 179 с.
6. Пропп В. Я. Фольклор и действительность : Избранные статьи. - Москва : Наука, 1984. - 327 с.
7. Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. - Москва : Издательство восточной литературы, 1962. - 324 с.

XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI

Abdullayev Amirulla Xazratovich
A. Avloniy nomidagi PMMI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada Finlyandiya, Singapur, Buyuk Britaniya, Kanada va AQSH tajribasi asosida maktab direktorlarining o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti tahlil qilinadi. Kasbiy standartlar, maxsus tayyorgarlik, mentorlik, loyiha yondashuvi, steykholderlar bilan hamkorlik, dalillarga tayangan boshqaruv hamda monitoring mexanizmlarining ahamiyati yoritilib, ilg'or tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti; o'zgarishlarni boshqarish; xorijiy tajriba; maktab direktori; kasbiy standartlar; pedagogik liderlik; mentorlik; loyiha boshqaruvi; steykholderlar; dalillarga tayangan boshqaruv; monitoring; kasbiy rivojlanish.

Abstract: This article analyzes practices for developing school principals' change management skills in Finland, Singapore, the United Kingdom, Canada, and the United States. It highlights the importance of professional standards, specialized preparation, mentoring, project-based approaches, stakeholder collaboration, data-informed management, and monitoring mechanisms. The study also substantiates the need to adapt relevant international practices to the context of Uzbekistan's education system.

Key words: educational management; change management; international experience; school principal; professional standards; pedagogical leadership; mentoring; project management; stakeholders; data-informed management; monitoring; professional development.

Аннотация: В статье анализируется практика развития навыков управления изменениями у директоров школ на примере Финляндии, Сингапура, Великобритании, Канады и США. Раскрывается значение профессиональных стандартов, специальной подготовки, наставничества, проектного подхода, взаимодействия со стейкхолдерами, управления на основе данных и механизмов мониторинга. Обосновывается необходимость адаптации передового зарубежного опыта к условиям системы образования Узбекистана.

Ключевые слова: образовательный менеджмент; управление изменениями; зарубежный опыт; директор школы; профессиональные стандарты; педагогическое лидерство; наставничество; проектное управление; стейкхолдеры; управление на основе данных; мониторинг; профессиональное развитие.

KIRISH

Ta'lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya, kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi hamda ta'lim natijalariga yo'naltirilgan boshqaruv talablarining ortishi sharoitida o'zgarishlarni boshqarish masalasini strategik ustuvor vazifaga aylantirmoqda. Bunday sharoitda maktab direktorining boshqaruv salohiyati faqat ma'muriy-ijroiy vazifalar bilan cheklanmay, yangilanishlarni rejalashtirish, jamoani safarbar etish, manfaatdor tomonlar bilan muvofiqlashuvni ta'minlash, qarshilik va risklarni boshqarish, natijalarni monitoring qilish hamda o'zgarishlarni institutsional amaliyotga singdirish kabi murakkab funksiyalarni ham qamrab oladi. Shu bois rahbarlik kompetensiyalarini, xususan, o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim boshqaruvida muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish zarurati, avvalo, o'zgarishlarni boshqarish bo'yicha ilg'or yondashuvlar va instrumentlarning tizimli ravishda shakllangani bilan izohlanadi. Rivojlangan ta'lim tizimlariga ega mamlakatlarda direktorlarning o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalari alohida kompetensiyalar bloki sifatida normativ-huquqiy asoslar, professional standartlar, sertifikatlash talablari hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlari orqali mustahkamlangan. Bunda direktorning roli "tashkiliy boshqaruvchi"dan ko'ra "o'zgarishlar yetakchisi" sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv rahbarning strategik fikrlashi, kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati,

ma'lumotlarga tayangan holda qaror qabul qilishi hamda innovatsiyalarni boshqarish salohiyati bilan bevosita bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buyuk Britaniyada, xususan, Angliyada ta'lim tizimida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish rahbar kadrlarning shaxsiy tashabbusiga qoldirilmaydi. Aksincha, bu jarayon milliy darajada shakllantirilgan kasbiy rivojlanish ekotizimi orqali tashkil etiladi. Mazkur ekotizimning asosiy ustunlari Teaching School Hubs, Early Career Framework hamda National Professional Qualifications (NPQ) dasturlari orqali rahbarlarning amaliy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu modelda o'zgarishlarni boshqarish alohida mavzu sifatida emas, balki maktabni rivojlantirish, jamoani safarbar etish, ta'lim natijadorligini oshirish va transformatsiyani barqarorlashtirish jarayonlarining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Angliya tajribasida maktab direktorlari uchun o'zgarishlarni boshqarish kompetensiyasi, avvalo, rahbarlikka tayyorlash va rahbarlik sifatini oshirishga qaratilgan malaka tizimi orqali shakllantiriladi. NPQ for Headship dasturi direktorlik lavozimiga tayyorlanayotgan yoki direktorlik faoliyatini takomillashtirayotgan rahbarlar uchun muhim vosita hisoblanadi.

Dastur tuzilmasida rahbarning real boshqaruv vaziyatlarida faoliyat yuritishi asosiy o'ringa qo'yilib, o'quv jarayoni murabbiylik (mentorlik), amaliy mashg'ulotlar hamda professional muhokamalar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Mazkur yondashuv direktorni o'zgarishlarni tezkor joriy etishga emas, balki jarayonni puxta rejalashtirish va bosqichma-bosqich boshqarishga o'rgatadi. Buyuk Britaniya amaliyotida e'tiborga molik jihatlardan biri shundaki, o'zgarishlarni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni baholash ham aniq mexanizm asosida amalga oshiriladi. Bunda rahbarning nazariy bilimlarini qayta bayon qilishi emas, balki amaliy topshiriqlar, yozma tahlillar yoki real maktab sharoitiga mos boshqaruv qarorlari loyihalarini ishlab chiqishi orqali uning boshqaruv kompetensiyalari namoyon bo'lishi talab etiladi. Ushbu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, direktorning kompetensiyasi faqat bilim darajasida emas, balki qaror qabul qilish, resurslarni muvofiqlashtirish, jamoa bilan samarali ishlash va natijalarni boshqarish darajasida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Finlyandiya tajribasining eng e'tiborli jihati – o'zgarishlarni boshqarishda "qattiq bosim"dan ko'ra ishonch, professional mas'uliyat va dalillarga tayangan boshqaruv madaniyatining ustunligidir. Mazkur model o'zgarishlarning strategik asoslarini mustahkamlaydi, jamoa ishtirokini kengaytiradi hamda natijalarni barqarorlashtirish mexanizmlarining tabiiy ravishda shakllanishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Finlyandiya tajribasi maktab direktorlarining o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv, hamkorlikka asoslangan liderlik va pedagogik mazmun uyg'unligining zarurligini yaqqol namoyon etadi.

Singapur ta'lim tizimi o'zgarishlarni boshqarish masalasini rahbarning shaxsiy mahorati doirasida emas, balki tizimli kadrlar siyosati va institutsional tayyorgarlik mexanizmlari orqali hal etishga intiladi. Bunda maktab direktorlarining o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalari erta bosqichdan boshlab shakllantiriladigan, keyinchalik esa malaka oshirish va amaliy tajriba orqali chuqurlashtiriladigan kasbiy kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Ya'ni direktorlikka tayinlash lavozimni egallash bilan yakunlanmaydi, aksincha, o'zgarishlarni boshqarishga tayyor rahbarlar zaxirasini shakllantirish mantiqiga asoslanadi.

Singapur tajribasining xarakterli jihati shundaki, o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalari direktorlar uchun alohida mavzu sifatida emas, balki strategik liderlik, innovatsion boshqaruv va tizim samaradorligi bilan uzviy bog'liq holda rivojlantiriladi. Chunki maktabdagi o'zgarishlar odatda yangi tashabbuslarni joriy etish, resurslar muvozanatini qayta ko'rib chiqish, jamoa rollarini qayta taqsimlash, baholash hamda monitoring mexanizmlarini yangilash kabi jarayonlar bilan birga kechadi. Shu sababli rahbarning o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmasi amaliyotda strategik yo'naltirish, tashkiliy loyihalash, jamoani jalb etish, risklarni boshqarish va natijalarni mustahkamlash kabi kompetensiyalar orqali namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Finlyandiya ta'lim tizimi xalqaro miqyosda barqaror natijadorligi, boshqaruvdagi muvozanat hamda maktablarning nisbatan yuqori avtonomiyasi bilan ajralib turadi. Mazkur modelning boshqaruv mantiqida maktab direktori "buyruq beruvchi ma'mur"dan ko'ra ta'lim jarayonini rivojlantiruvchi pedagogik lider sifatida qaraladi. Shu sababli o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalari Finlyandiya amaliyotida faqat alohida kompetensiya sifatida emas, balki maktabning kundalik strategik boshqaruvi, jamoaviy hamkorlik va o'quv jarayonini takomillashtirish bilan uzviy bog'liq kasbiy salohiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Finlyandiya tajribasining muhim jihati shundaki, direktorlik faoliyati uchun kasbiy-me'yoriy tayyorgarlik aniq talablar asosida belgilangan. Xususan, maktab direktori lavozimiga nomzod oliy ma'lumotga, o'qituvchilik

malakasiga, tegishli ish tajribasiga hamda ta'lim boshqaruvi bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi. Ushbu talab direktorlarning o'zgarishlarni boshqarishga tayyorgarligini "amaliy tajriba o'zi shakllantiradi" degan yondashuvdan ko'ra, ilmiy-metodik asoslangan kasbiy tayyorlash modeli orqali ta'minlashga xizmat qiladi. Finlyandiya modelida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalari bir necha boshqaruv yo'nalishlari orqali shakllantiriladi.

Birinchidan, o'zgarishlarni boshqarish "ta'lim sifati" va "maktab rivojlanishi" bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Direktorning vazifasi yangilikni shunchaki joriy etish emas, balki uning ta'lim natijalariga ta'sirini oldindan asoslash, jamoa resurslari bilan uyg'unlashtirish hamda uni barqaror amaliyotga aylantirishdan iborat. Bu holat rahbarning tahliliy-strategik ko'nikmalarini markaziy o'ringa olib chiqadi.

Ikkinchidan, Finlyandiya maktablarida o'zgarishlar ko'pincha jamoaviy boshqaruv tamoyiliga asoslanadi. Bunda direktor o'zgarish tashabbuslarini yakka tartibda boshlab beruvchi emas, balki o'qituvchilar jamoasi bilan hamkorlikda rejalashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. O'zgarishlar bo'yicha ishchi guruhlar, metodik jamoalar, ichki liderlar hamda o'zaro mas'uliyatga tayangan mexanizmlar samarali yo'lga qo'yilgani sababli o'zgarishlarning qabul qilinishi ko'proq ichki kelishuv, ishonch va hamkorlik orqali ta'minlanadi.

Uchinchidan, Finlyandiya tajribasida o'zgarishlarni boshqarish jarayoni maktabning ichki baholash va takomillashtirish sikli bilan uzviy bog'langan. Yangilikni joriy etish jarayoni doimiy monitoring, qayta aloqa va moslashtirish mexanizmlariga tayanadi. Bunda direktor faqat yakuniy natijani talab qilmaydi, balki jarayonni bosqichma-bosqich kuzatib boradi, amaliy muammolarni aniqlaydi, ichki resurslarni qayta taqsimlaydi hamda zaruratga ko'ra strategiyani korreksiya qiladi. Natijada o'zgarishlarning formallashib qolish xavfi kamayadi, ularning amaliyotga singish ehtimoli ortadi.

AQSH ta'lim tizimida maktab direktorining o'rni ma'muriy boshqaruvchi doirasidan ancha keng talqin qilinib, u ko'proq ta'limiy lider, strategik boshqaruvchi va tashkiliy transformatsiyalar tashabbuskori sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuvning asosiy mantiqi shundan iboratki, maktabda yuzaga keladigan har qanday yangilanish – o'quv dasturi, baholash tizimi, raqamli platformalar, inklyuziv ta'lim yoki tarbiyaviy muhitga oid o'zgarishlar – eng avvalo rahbarning o'zgarishlar jarayonini boshqarish ko'nikmalari orqali samarali natijaga aylantiriladi. Shu bois AQSHda direktorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida o'zgarishlarni boshqarish masalasi alohida kompetensiyalar bloki sifatida shakllangan.

AQSH amaliyotida direktor kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri standartlarga asoslangan rahbarlik modeli asosida tayyorlash jarayonini tashkil etishdan iborat. Maktab rahbarlariga qo'yiladigan kasbiy talablar, odatda, ta'lim natijadorligi, jamoani boshqarish, resurslarni strategik muvofiqlashtirish, maktab madaniyatini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirish kabi yo'nalishlar bo'yicha aniq kompetensiyalar orqali ifodalanadi. Bunda "o'zgarishlarni boshqarish" alohida mavzu sifatida emas, balki har bir rahbarlik funksiyasining ichki mexanizmi sifatida qaraladi. Xususan, maqsadlarni belgilash, manfaatdor tomonlarni jalb etish, qarshiliklarni kamaytirish, o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq etish, monitoringni amalga oshirish va zarur tuzatishlar kiritish kabi jarayonlar rahbarlarni tayyorlash tizimida metodik jihatdan chuqur yoritiladi.

AQSH tajribasida e'tibor qaratiladigan ikkinchi muhim jihat – o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda amaliyotga asoslangan kasbiy rivojlanish mexanizmlarining ustuvorligidir. Direktorlar o'z ko'nikmalarini ko'pincha ma'ruzalarni tinglash orqali emas, balki murabbiylik (mentorlik), real vaziyatlar asosida ishlash, case study (keys tahlili), maktabdagi muammolar bo'yicha loyihalar ishlab chiqish hamda hamkasblar bilan tajriba almashish kabi amaliy shakllar orqali rivojlantirib boradilar. Ayniqsa, o'zgarishlarni rejalashtirish va boshqarish jarayoni loyiha yondashuvi asosida tashkil etilib, direktor o'z maktabi uchun aniq maqsadlar, bosqichlar, resurslar, risklar va natijadorlik indikatorlarini belgilashga o'rgatiladi. Bu esa o'zgarishlarni bir martalik tadbir sifatida emas, balki boshqariladigan jarayon sifatida tashkil etish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Uchinchi jihat sifatida AQSHda o'zgarishlarni boshqarish jarayonida dalillarga tayangan boshqaruv amaliyoti keng qo'llaniladi. Direktorlar qaror qabul qilishda faqat subyektiv tasavvur yoki umumiy tajribaga emas, balki o'quvchilarning ta'lim natijalari, davomat ko'rsatkichlari, sinflardagi o'zlashtirish darajasi, o'qituvchilar faoliyati indikatorlari hamda ichki monitoring natijalariga asoslanadi. Mazkur yondashuv o'zgarishlarni boshqarishda muhim vazifani bajaradi: o'zgarish zaruratini dalillar asosida asoslash, o'zgarishlarning ta'sirini baholash va zarurat tug'ilganda korreksion boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, o'zgarish reja bilan boshlanadi, ammo indikatorlar asosida boshqariladi.

To'rtinchi jihat – AQSH maktablarida o'zgarishlarni joriy etish jarayonida jamoani jalb qilish hamda steykholderlarbilan ishlash mexanizmlarining tizimli yo'lga qo'yilganidir. Direktor o'zgarishlarni faqat ichki buyruqlar orqali amalga oshirmaydi, balki o'qituvchi-liderlar, metodik guruhlar, ota-onalar hamda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikda muvofiqlashtiradi. O'zgarishlarni joriy etishda kommunikatsiya strategiyasi, muhokama maydonlari, qayta aloqa hamda kelishuv mexanizmlaridan faol foydalaniladi. Bu jihat ta'lim muassasalari uchun

nihoyatda muhimdir: maktabda o‘zgarishlarning jamoa tomonidan qabul qilinishi ularning shunchaki e’lon qilinishidan ko‘ra ko‘proq natijadorlikni belgilaydi. Shu sababli steykholderlar bilan ishlashni o‘zgarishlarni boshqarish ko‘nikmalarining alohida tarkibiy qismi sifatida e’tirof etish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Umuman olganda, AQSH tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktab direktorlarida o‘zgarishlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, odatda, uchta asosiy yo‘nalishda mujassamlanadi: rahbarlik kompetensiyalarining standartlashtirilgan modeli asosida tayyorlash; amaliyotga yo‘naltirilgan murabbiylik va loyiha yondashuvi orqali ko‘nikmalarni mustahkamlash; dalillarga tayangan monitoring hamda natijadorlik indikatorlari asosida o‘zgarishlarning ta’sirini boshqarish.

Ushbu yondashuvning metodologik qiymati shundaki, o‘zgarish tashkiliy topshiriq emas, balki boshqariladigan va o‘lchanadigan jarayon sifatida talqin qilinadi hamda direktor kompetensiyasi aynan shu jarayonni samarali boshqarishga mos ravishda shakllantiriladi. Shunday qilib, xorijiy davlatlar tajribasi tahlili maktab direktorlarining o‘zgarishlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi xalqaro ta’lim boshqaruvi amaliyotida alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Tahlil qilingan tajribalarda rahbarning o‘zgarishlarni boshqarish salohiyati, avvalo, strategik fikrlash, jamoani jalb etish, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, resurslar va risklarni muvofiqlashtirish, dalillarga tayangan qarorlar qabul qilish hamda monitoring asosida faoliyatni takomillashtirish kabi ko‘nikmalarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval: **Xorijiy davlatlarda maktab direktorlarining o‘zgarishlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarining qiyosiy tahlili**

Davlat	Tizimning tayanch mexanizmi	Asosiy rivojlantirish vositalari	Ustuvor ko‘nikmalar	Tadqiqot uchun metodologik ahamiyati
Finlyandiya	Direktorning kasbiy tayyorgarligi, maktab avtonomiyasi va ishonchga asoslangan pedagogik liderlik	Maxsus boshqaruv tayyorgarligi, jamoaviy rejalashtirish, maktabning ichki baholashi va qayta aloqa	Strategik tahlil, hamkorlikda boshqaruv, resurslarni moslashtirish, monitoring va refleksiya	Ko‘nikmalarni rivojlantirishni professional mas’uliyat, jamoaviy ishonch va ichki baholash bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi
Singapur	Rahbarlar zaxirasini oldindan shakllantirish va institutsional tayyorlash tizimi	Nomzodlarni saralash, Leaders in Education Programme, amaliy rahbarlik tayyorgarligi va uzluksiz kasbiy rivojlanish	Strategik bashoratlash, innovatsiyalarni boshqarish, jamoani safarbar etish, resurs va natijalarni muvofiqlashtirish	Direktorlikka tayinlashdan oldin o‘zgarishlarni boshqarishga yo‘naltirilgan maxsus tayyorgarlikni tashkil etishning ahamiyatini asoslaydi
Buyuk Britaniya	Milliy professional malaka va kasbiy rivojlanish ekotizimi	NPQ dasturlari, murabbiylik, amaliy topshiriqlar, real maktab vaziyatlarini tahlil qilish va professional muhokamalar	O‘zgarishni loyihalash, dalillarga tayangan qaror qabul qilish, stakeholderlar bilan ishlash, reflektiv boshqaruv	Ko‘nikmalarni nazariy bilim bilan emas, real boshqaruv vazifalarini bajarish orqali baholash va rivojlantirish imkonini ko‘rsatadi
Kanada	Provinsiyalar darajasidagi kompetensiyaviy standartlar va kontekstga moslashtirilgan rahbarlik tayyorgarligi	Murabbiylik, maktab kontekstidagi amaliy vaziyatlar, loyiha faoliyati, mahalliy ma’lumotlar va indikatorlardan foydalanish	Moslashuvchan rejalashtirish, jamoaviy kelishuv, resurslarni boshqarish, natijalarni monitoring qilish	Rivojlantirish mexanizmini hududiy va institutsional sharoitlarga moslashtirish, mentorlikni kuchaytirish zarurligini belgilaydi
AQSH	Kasbiy standartlarga asoslangan, amaliyot va natijadorlikka yo‘naltirilgan rahbarlik modeli	Murabbiylik, keys-tahlil, loyiha ishlab chiqish, ma’lumotlar tahlili, o‘qituvchi liderlar va hamjamiyat bilan hamkorlik	Strategik va ta’limiy liderlik, loyiha boshqaruvi, dalillarga asoslangan monitoring, stakeholderlarni jalb etish	Rahbarlik standartlari, amaliy tayyorgarlik va o‘lchanadigan natijalarni yagona tizimda birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi

Mazkur tajribalar shuni tasdiqlaydiki, o‘zgarishlarni boshqarish ko‘nikmalari direktor faoliyatida tasodifiy shakllanadigan individual sifat emas, balki maxsus tayyorgarlik, uzluksiz kasbiy rivojlanish, amaliy refleksiya va institutsional qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlantiriladigan muhim boshqaruv kompetensiyasidir. Ayniqsa, Finlyandiya, Singapur, Buyuk Britaniya, Kanada va AQSH tajribalarida o‘zgarishlarni boshqarish jarayonining strategik rejalashtirish, kommunikativ liderlik, loyiha yondashuvi, monitoring hamda natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv bilan uzviy bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Bizningcha, xorijiy tajribadan olinadigan eng muhim metodologik xulosa shundan iboratki, maktab direktorlarining o‘zgarishlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda faqat nazariy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, amaliy boshqaruv vaziyatlari, kasbiy refleksiya, mentorlik, jamoaviy hamkorlik va natijalarni baholash mexanizmlarini o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llash zarur. Shu jihatdan, xorijiy tajribalar tahlili dissertatsiyada ishlab chiqiladigan takomillashtirilgan mexanizmning mazmuni va tuzilishini asoslash uchun muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Finnish National Agency for Education. Finnish Education in a Nutshell. Helsinki: Finnish National Agency for Education, 2022.
2. Lim, L. H. “Illuminating the Core of Singapore School Leadership Preparation: Two Decades of In-Service Experience.” International Journal of Educational Management, Vol. 21, No. 5, 2007. – P. 433–439.
3. Department for Education. National Professional Qualification: Headship Framework. London: Department for Education, 2020.
4. Leithwood, K. The Ontario Leadership Framework 2012: With a Discussion of the Research Foundations. Toronto: Institute for Education Leadership, 2012.
5. National Policy Board for Educational Administration. Professional Standards for Educational Leaders 2015.Reston, VA: NPBEA, 2015.
6. Pont, B., Nusche, D., & Moorman, H. Improving School Leadership. Volume 1: Policy and Practice. Paris: OECD Publishing, 2008.
7. OECD. TALIS 2018 Results. Volume I: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing, 2019.
8. Spillane, J. P. Distributed Leadership. San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
9. Leithwood, K., Harris, A., & Hopkins, D. “Seven Strong Claims about Successful School Leadership Revisited.” School Leadership & Management.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

ALGORITMIK FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVI

Pardayeva Kamola Sultonovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada 9-sinf algebra va geometriya darslarida o‘quvchilarning algoritmik faolligini rivojlantirishga qaratilgan “Besh bosqichli intellektual sikl” (Muammo-Model-Algoritm-Verifikatsiya-Refleksiya) modeli tahlil qilingan. Modelning nazariy asoslari, tuzilishi va didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari mazkur yondashuv o‘quvchilarning algoritmik va mantiqiy fikrlashi, muammoni hal etish hamda reflektiv ko‘nikmalarini rivojlantirishini ko‘rsatdi. Model matematika ta’limida algoritmik kompetensiyalarni shakllantirishning samarali metodik vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: besh bosqichli intellektual sikl, algoritmik faollik, an’anaviy o‘qitish, debugging, verifikatsiya, refleksiya, didaktik model, abstraksiyalash, STEAM, hisoblash tafakkuri.

Abstract: This article examines the author’s Five-Stage Intellectual Cycle model (Problem-Model-Algorithm-Verification-Reflection) designed to develop students’ algorithmic activity in Grade 9 algebra and geometry classes. The study presents the theoretical foundations, structure, and didactic potential of the model. The findings indicate that the proposed approach promotes students’ algorithmic and logical thinking, problem-solving abilities, and reflective skills. The model is recommended as an effective methodological tool for developing algorithmic competencies in mathematics education.

Key words: Five-Stage Intellectual Cycle, algorithmic activity, traditional teaching, debugging, verification, reflection, didactic model, abstraction, STEAM approach, computational thinking.

Аннотация: В статье рассматривается авторская модель “Пятиэтапный интеллектуальный цикл” (Проблема - Модель - Алгоритм - Верификация - Рефлексия), направленная на развитие алгоритмической активности учащихся на уроках алгебры и геометрии в 9-х классах. Раскрыты теоретические основы, структура и дидактические возможности модели. Результаты исследования показали, что предложенный подход способствует развитию алгоритмического и логического мышления, навыков решения проблем и рефлексивной деятельности учащихся. Модель рекомендуется как эффективный научно-методический инструмент формирования алгоритмических компетенций в математическом образовании.

Ключевые слова: пятиэтапный интеллектуальный цикл, алгоритмическая активность, традиционное обучение, отладка (debugging), верификация, рефлексия, дидактическая модель, абстрагирование, STEAM-подход, вычислительное мышление.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi tayyor bilimni o‘zlashtirishga asoslangan an’anaviy yondashuvdan voz kechib, o‘quvchini mustaqil qaror qabul qiladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Shu jihatdan matematika ta’limida algoritmik faollikni rivojlantirish o‘quvchilarning muammoni tahlil qilish, yechimni rejalashtirish va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020 yildagi PQ-4708-son[1] qarorida matematika ta’limi sifatini oshirish hamda o‘quvchilarning mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Biroq amaliyotda ko‘plab o‘quvchilar masalalarni mazmunan tahlil qilish o‘rniga tayyor algoritmlardan foydalanishga moyil bo‘lib, ularda modellashtirish, xatolarni tahlil qilish va reflektiv fikrlash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan [15].

1 https://lex.uz/docs/-4807552

Mazkur tadqiqotning obyekti 9-sinf algebra va geometriya darslarida o‘quvchilarning algoritmik faolligini rivojlantirish jarayoni, predmeti esa “Besh bosqichli intellektual sikl” (Muammo-Model-Algoritm-Verifikatsiya-Refleksiya) didaktik modelining mazmuni va metodik imkoniyatlaridan iborat. Tadqiqotning maqsadi mazkur modelning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda uning matematika ta’limida algoritmik faollikni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Shu maqsadda algoritmik faollikka oid ilmiy manbalar tahlil qilindi, modelning tarkibiy qismlari va didaktik tamoyillari ishlab chiqildi hamda uning an’anaviy o‘qitishdan farqli jihatlari asoslandi [6].

Tadqiqot natijalari matematika ta’limida algoritmik faollikni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish va STEAM yondashuviga asoslangan zamonaviy didaktik modelni ta’lim amaliyotiga joriy etishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Algoritmik faollik zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda faqat algoritm tuzish yoki ketma-ket amallarni bajarish ko‘nikmasi sifatida emas, balki muammoni tahlil qilish, uni tarkibiy qismlarga ajratish, modellashtirish, abstraksiyalash, optimal yechimni ishlab chiqish, natijani tekshirish hamda o‘z faoliyatini tahlil qilishni o‘z ichiga oluvchi kompleks kognitiv faoliyat sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuv algoritmik fikrlashni matematik bilimlarni egallash bilan cheklamay, uni o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarishi va muammolarni samarali hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida baholaydi. Shu sababli tadqiqotda ilmiy manbalar ikki asosiy yo‘nalishda tahlil qilindi:

- birinchisi, xalqaro ilmiy adabiyotlarda hisoblash tafakkuri (Computational Thinking), siklik ta’lim modellari va algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari;
- ikkinchisi esa mahalliy tadqiqotlarda STEAM yondashuvi, algoritmik madaniyat va innovatsion pedagogik texnologiyalarni matematika ta’limiga integratsiya qilish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlardir [15].

Xorijiy olimlarning ilmiy ishlari algoritmik fikrlashning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. J. Wing hisoblash tafakkurini XXI asrning universal tayanch kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etib, dekompozitsiya, abstraksiyalash, algoritmlashtirish va umumlashtirish kabi intellektual amallarning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini asoslab bergan [15].

R. Baez, G. Gonzales va boshqa tadqiqotchilar matematika hamda STEM fanlarini integratsiyalash orqali o‘quvchilarning algoritmik fikrlashi, muammolarni hal etish va ijodiy faoliyati sezilarli darajada rivojlanishini tajriba natijalari bilan isbotlaganlar [3, 5].

A.G. Leonov, M. Resnick hamda M. Kapur esa algoritmik faoliyatni faqat tayyor algoritmlarni qo‘llash emas, balki muammoni tahlil qilish, yechimni rejalashtirish, xatolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va refleksiya orqali bilimlarni takomillashtirishdan iborat uzluksiz intellektual jarayon sifatida tavsiflaydilar [9, 10, 12].

Shuningdek, J. Hattie va H. Timperley formativ baholashning o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasi hamda o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini asoslagan bo‘lsa, D. Weintrop va hamkorlari hisoblash tafakkurining matematika va tabiiy fanlar ta’limidagi metodik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan yoritib berganlar [7, 14].

Mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ham algoritmik fikrlashni rivojlantirish va STEAM ta’limini joriy etish masalalariga bag‘ishlangan. Jumladan, M.S. Divanova algoritmik metoddan foydalanish orqali matematik ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini tadqiq etgan [4].

Sh.R. Turdiyev STEAM ta’limini modellashtirish va raqamlashtirish masalalarini yoritgan bo‘lsa [13], K. Gopirov fanlarni integratsiyalashgan holda o‘qitishning didaktik imkoniyatlarini ochib bergan [6].

A.A. Mamatov bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining algoritmik madaniyatini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan [11].

A. Abdullajonov raqamli va algoritmik fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning xorijiy tajribalarini tahlil qilgan [2], R.J. Ishmuhamedov esa innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning ilmiy-metodik asoslarini yoritgan [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, algoritmik faollik muammoni anglash, modellashtirish, algoritm ishlab chiqish, natijani tekshirish, xatolarni aniqlash va refleksiya bosqichlaridan tashkil topgan uzviy hamda ketma-ket jarayondir [8].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy-metodik ishlarda verifikatsiya (debugging) va refleksiya bosqichlari yetarli darajada yoritilmaganligi, ayniqsa 9-sinf algebra va geometriya kursi uchun STEAM yondashuviga asoslangan yaxlit siklik metodik model ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Mazkur ilmiy-metodik bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida ushbu tadqiqot doirasida “Besh bosqichli intellektual sikl” (Muammo-Model-Algoritm-Verifikatsiya-Refleksiya) modeli ishlab chiqildi. Ushbu model o‘quvchilarning algoritmik faolligini tizimli ravishda rivojlantirish, matematik masalalarni ongli tahlil qilish, mustaqil yechim ishlab chiqish hamda o‘z faoliyatini tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yechim sifatida taklif etiladi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, faoliyat nazariyasi, Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi, hisoblash tafakkuri hamda formativ baholash tamoyillariga asoslandi. Mazkur nazariy yondashuvlar o'quvchilarning algoritmik faolligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Besh bosqichli intellektual sikl" modelining ilmiy-metodologik asosini tashkil etdi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, qiyosiy-pedagogik tahlil, didaktik modellashtirish, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash hamda matematik-statistik tahlil usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Ushbu usullar nazariy xulosalarni amaliy tajribalar bilan uyg'unlashtirish hamda ishlab chiqilgan metodikaning ilmiy asoslanganligini ta'minlash imkonini berdi.

Taklif etilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida 9-sinf o'quvchilari ishtirokida shakllantiruvchi pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida o'quvchilarning algoritmik faolligidagi o'zgarishlar muntazam kuzatildi hamda ularning masalalarni yechish strategiyalari, mustaqil qaror qabul qilish darajasi va reflektiv faoliyati tahlil qilindi. Olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali baholandi.

O'quvchilarning algoritmik faolligi muammoni anglash, model yaratish, algoritm tuzish, natijalarni tekshirish, xatolarni aniqlash va tuzatish hamda refleksiya mezonlari asosida baholandi. Bunda kuzatuv varaqalari, refleksiya kartalari, diagnostik topshiriqlar va mezonli baholash vositalaridan foydalanildi. Baholash jarayonida faqat yakuniy javob emas, balki o'quvchining masalani tahlil qilish usuli, algoritmni asoslash, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish jarayoni ham hisobga olindi. Bu yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki fikrlash jarayonini ham obyektiv baholash imkonini berdi.

Ishlab chiqilgan metodik model muammoli vaziyat yaratish, modellashtirish, algoritm ishlab chiqish, verifikatsiya va refleksiya bosqichlarini yagona didaktik siklga birlashtirdi. Dars jarayonida GeoGebra, Desmos va Scratch kabi zamonaviy raqamli vositalardan, shuningdek, STEAM yondashuviga asoslangan loyiha va amaliy topshiriqlardan foydalanildi [8, 9]. Ushbu vositalar matematik obyektlarni vizuallashtirish, modellar yaratish, natijalarni tekshirish hamda algoritmlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkonini kengaytirdi. Topshiriqlar o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensiallashtirildi. Natijada har bir o'quvchining o'z imkoniyatiga mos murakkablikdagi vazifalarni bajarishi ta'minlandi, bu esa ularning algoritmik fikrlashi, o'quv motivatsiyasi va ta'lim jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida STEAM yondashuviga asoslangan "Besh bosqichli intellektual sikl" (Muammo-Model-Algoritm-Verifikatsiya-Refleksiya) modeli ishlab chiqildi. Modelning asosiy maqsadi o'quvchini tayyor bilimni o'zlashtiruvchi emas, balki muammoni mustaqil tahlil qiluvchi, yechimni loyihalovchi, natijani tekshiruvchi va o'z faoliyatini baholovchi faol subyekt sifatida shakllantirishdan iborat [9].

Model beshta o'zaro bog'liq bosqichdan iborat. Muammo bosqichida o'quvchi vaziyatni tahlil qilib, asosiy shartlarni aniqlaydi va muammoni dekompozitsiya qiladi. Model bosqichida muammo matematik yoki geometrik modelga keltirilib, nazariya amaliy vaziyat bilan bog'lanadi. Algoritm bosqichida yechimning mantiqiy ketma-ketligi ishlab chiqiladi. Verifikatsiya bosqichida natijalar tekshirilib, xatolar tahlil qilinadi va tuzatiladi. Refleksiya bosqichida esa o'quvchi bajarilgan ishni baholab, kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish yo'llarini belgilaydi.

An'anaviy matematika darslarida o'qitish ko'proq tushuntirish va namunaviy mashqlar bajarishga asoslangan bo'lsa, taklif etilgan modelda baholash faqat yakuniy natijaga emas, balki yechim jarayoni, qo'llangan strategiyalar va reflektiv faoliyatga ham qaratiladi. Xatolar salbiy holat emas, balki o'quvchining bilimini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi didaktik resurs sifatida talqin etiladi. O'qituvchi esa tayyor yechim beruvchi emas, balki o'quvchilarning mustaqil izlanishini qo'llab-quvvatlovchi fasilitator vazifasini bajaradi. Modelni ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarning algoritmik va tanqidiy fikrlashi, muammoni tahlil qilish, yechimni asoslash hamda o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi [11]. Verifikatsiya va refleksiya bosqichlari metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga, bosqichma-bosqich pedagogik qo'llab-quvvatlash (scaffolding) esa o'quvchilarning mustaqilligini oshirishga imkon yaratdi. Baholashda model sifati, algoritmning mantiqiy izchilligi, xatolarni tahlil qilish va refleksiya darajasi hisobga olinishi o'quv natijalarini kompleks baholash imkonini berdi.

Mazkur metodikaning dolzarbligi raqamli jamiyat sharoitida o'quvchilarda algoritmik, tanqidiy va reflektiv fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Pedagogik kuzatuvlar ko'rsatishicha, o'quvchilar ayniqsa nostandart masalalarni yechishda qiyinchilikka duch keladilar. Taklif etilgan "Besh bosqichli intellektual sikl" modeli ushbu metodik ehtiyojni qondirib, nafaqat matematik bilimlarni mustahkamlaydi, balki mas'uliyat, hamkorlik, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini o'zi boshqarish kabi XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [10]. Modelning aniq mezon va indikatorlarga asoslanganligi uning samaradorligini obyektiv baholash imkonini yaratadi.



1-rasm: **STEAM yondashuviga asoslangan "Besh bosqichli intellektual sikl" modeli**

Tadqiqot davomida "Besh bosqichli intellektual sikl" modelining an'anaviy matematika darslaridan farqlovchi didaktik xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslandi. Jumladan, baholashni faqat yakuniy natijaga emas, balki yechim jarayoniga yo'naltirish, verifikatsiya (debugging) bosqichini o'quv faoliyatining muhim elementi sifatida joriy etish hamda refleksiya orqali bilimlarni yangi vaziyatlarga ko'chirish modelning asosiy metodik afzalliklari sifatida belgilandi. Modelning invariant va variativ komponentlari tizimlashtirildi. Invariant qismni muammo, model, algoritm, verifikatsiya va refleksiya bosqichlari tashkil etsa, variativ qism loyiha faoliyati, STEAM elementlari, raqamli vositalardan foydalanish hamda differensial topshiriqlar bilan boyitildi [5].

Shuningdek, 9-sinf algebra va geometriya kursi uchun STEAM yondashuviga mos metodik ta'minot, modelni amaliyotga joriy etish bosqichlari hamda algoritmik faollikni baholash mezon va indikatorlari ishlab chiqildi. Bu modelning samaradorligini baholash va ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy tahlillar "Besh bosqichli intellektual sikl" modelining o'quvchilarda algoritmik faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan didaktik yechim ekanligini ko'rsatdi. Model an'anaviy matematika darslarini muammoni tahlil qilish, modellashtirish, verifikatsiya va refleksiya kabi zamonaviy pedagogik komponentlar bilan boyitib, o'quvchini mustaqil fikrlovchi, algoritmik yechimlarni ongli ishlab chiqadigan va o'z faoliyatini tanqidiy baholay oladigan faol ta'lim subyektiga aylantiradi [2].

Tadqiqot natijalariga asoslanib, matematika darslarida modelning barcha bosqichlarini izchil qo'llash, verifikatsiya (debugging) va refleksiyani darsning majburiy tarkibiy qismi sifatida tashkil etish tavsiya etiladi. Baholashda faqat yakuniy natija emas, balki modellashtirish sifati, algoritmning mantiqiy izchilligi, xatolarni tahlil qilish va refleksiya darajasini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Modelni samarali joriy etish uchun matematika o'qituvchilari malakasini oshirish dasturlariga mazkur metodika bo'yicha seminar va amaliy treninglarni kiritish tavsiya etiladi. Kelgusida modelni boshqa sinflar hamda tabiiy va texnik fanlar mazmuniga moslashtirish va uning samaradorligini turli ta'lim sharoitlarida eksperimental baholash istiqbolli tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarori // Lex.uz.
2. Abdullajonov A. I. Xorijiy tajribalar asosida raqamli va algoritmik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish // Muallim va uzluksiz ta'lim. – Nukus, 2026. - №1. - B. 44-58.
3. Baez R., Sanchez H. et al. Computational Thinking in High School Mathematics // Journal of Educational Computing Research. - 2023. - Vol. 61(4). - P. 3-19.
4. Divanova M. S. Algoritmik metod yordamida oliy matematika o'qitish samaradorligini oshirish: Ped. fan. nomz. ... dis. - Toshkent, 2005. - 156 b.
5. Gonzales G., et al. Building Computational Thinking through STEM Incorporation // Education and Information Technologies. - 2024. - Vol. 29. - P. 5-24.
6. Gopirov K. 7-sinf kimyo darsligini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirish // Zamonaviy ta'lim. - Toshkent, 2025. - №3. - B. 27-39.
7. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. - 2007. - Vol. 77(1). - P. 81-112.
8. Ishmuhamedov R. J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2020. - 224 b.
9. Kapur M. Productive Failure in Learning Mathematics // Instructional Science. - 2010. - Vol. 38. - P. 523-550.
10. Leonov A. G. Obuchenie studentov algoritmizatsii i programmirovaniyu na osnove strukturno-algoritmicheskogo podxoda: Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. - Moskva, 2024. - 26 s.
11. Mamatov A. A. Bo'lajak matematika o'qituvchilarining algoritmik madaniyatini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish: Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. - Samarqand, 2022. - 148 b.
12. Resnick M. Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. - Cambridge, MA: MIT Press, 2017. - 208 p.
13. Turdiyev Sh. R. STEAM fanlari ta'limini modellashtirish va raqamlashtirish // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. - Toshkent, 2022. - №5. - B. 33-47.
14. Weintrop D., et al. Defining Computational Thinking for Mathematics and Science Classrooms // Journal of Science Education and Technology. - 2016. - Vol. 25(1). - P. 127-147.
15. Wing J. M. Computational Thinking // Communications of the ACM. - 2006. - Vol. 49, No. 3. - P. 33-35.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

SUN'IY INTELLEKT VA STARTAP EKOTIZIMI ASOSIDA TALABALARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Imomaliyev Quvvat Choriyevich
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi muhokama etiladi. Unda sun'iy intellekt vositalari, startap faoliyati bosqichlari, pedagogik metodlar va universitet ekotizimi subyektlarini o'zaro bog'lovchi integrativ model taklif qilinadi. Tadbirkorlik ko'nikmalarining motivatsion-maqsadli, kognitiv-analitik, kreativ-innovatsion, operatsion-loyihaviy, kommunikativ-jamoaviy, refleksiv-baholovchi va etik-mas'uliyatli komponentlari aniqlashtiriladi. Sun'iy intellekt talabaning o'rniga qaror qabul qiluvchi vosita sifatida emas, balki muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni qiyoslash, g'oyalarni sinash va refleksiyani qo'llab-quvvatlovchi pedagogik resurs sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tadbirkorlik ko'nikmalari, startap ekotizimi, oliy ta'lim, talabalar, raqamli tadbirkorlik, tajribaviy ta'lim, innovatsion kompetensiya.

Abstract: The article discusses the issue of developing students' entrepreneurial skills based on artificial intelligence and the startup ecosystem. It proposes an integrative model that connects artificial intelligence tools, stages of startup activity, pedagogical methods, and the subjects of the university ecosystem. The motivational-purposeful, cognitive-analytical, creative-innovative, operational-projective, communicative-collective, reflexive-evaluative, and ethical-responsible components of entrepreneurial skills are clarified. Artificial intelligence is interpreted not as a decision-making tool instead of the student but as a pedagogical resource that supports problem analysis, comparison of alternative solutions, testing of ideas, and reflection.

Key words: artificial intelligence, entrepreneurial skills, startup ecosystem, higher education, students, digital entrepreneurship, experiential learning, innovative competence.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос развития предпринимательских навыков студентов на основе искусственного интеллекта и стартап-экосистемы. Предлагается интегративная модель, связывающая инструменты искусственного интеллекта, этапы стартап-деятельности, педагогические методы и субъектов университетской экосистемы. Уточняются мотивационно-целенаправленная, когнитивно-аналитическая, креативно-инновационная, операционально-проективная, коммуникативно-коллективная, рефлексивно-оценочная и этико-ответственная составляющие предпринимательских навыков. Искусственный интеллект интерпретируется не как инструмент принятия решений вместо студента, а как педагогический ресурс, поддерживающий анализ проблем, сравнение альтернативных решений, проверку идей и рефлексию.

Ключевые слова: искусственный интеллект, предпринимательские навыки, стартап-экосистема, высшее образование, студенты, цифровое предпринимательство, экспериментальное обучение, инновационная компетентность.

KIRISH

Sun'iy intellekt texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Biznesda ma'lumotlarni tahlil qilish, iste'molchilar xatti-harakatini prognozlash, yangi mahsulot g'oyalarini shakllantirish, reklama mazmunini yaratish, moliyaviy qarorlarni modellashtirish va mijozlar bilan muloqotni avtomatlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Mazkur o'zgarishlar oliy ta'limdan ham yangi turdagi mutaxassisni tayyorlashni talab etadi. Endilikda bitiruvchining qiymati faqat uning o'z sohasi bo'yicha nazariy bilimlariga emas, balki noaniq vaziyatda muammoni anglash, raqamli vositalardan foydalanish, bozor imkoniyatini ko'ra bilish, innovatsion yechim ishlab chiqish va uni amaliy loyihaga aylantirish qobiliyatiga bog'liq bo'lmoqda [1].

Tadbirkorlik ta'limi uzoq vaqt davomida biznes-reja tuzish, korxona faoliyatini tashkil etish, marketing, menejment va moliyaviy savodxonlik kabi yo'nalishlar bilan cheklanib keldi. Bunday yondashuv talabaning iqtisodiy bilimlarini shakllantiradi, biroq uni real bozor noaniqligi, mijoz ehtiyojining o'zgarishi, raqobat, resurs tanqisligi va innovatsion tavakkalchilik sharoitida faoliyat yuritishga to'liq tayyorlamaydi. Tadbirkorlik ko'nikmasi nazariy bilimdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, u tashabbuskorlik, imkoniyatni aniqlash, muammoni biznes g'oyaga aylantirish, resurslarni safarbar qilish, jamoada ishlash, riskni baholash va natija uchun mas'uliyatni o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt ushbu jarayonni yangi metodik imkoniyatlar bilan boyitadi. Talaba generativ tizimlar yordamida bir muammoning bir nechta talqinini olishi, g'oya variantlarini yaratishi, mijoz segmentlarini tavsiflashi, qiymat taklifini shakllantirishi, biznes modelning zaif jihatlarini aniqlashi va pitch materiallarini tayyorlashi mumkin [2]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt natijalarini to'g'ridan to'g'ri qabul qilish pedagogik jihatdan xavflidir. Generativ model noto'g'ri ma'lumot berishi, mavjud bo'lmagan manbani ko'rsatishi, bozor kontekstini yetarli hisobga olmasligi yoki tayyor javob orqali talabaning mustaqil fikrlashini cheklashi mumkin. Shu sababli sun'iy intellektdan foydalanishning o'zi ta'lim samaradorligini kafolatlamaydi. Asosiy masala SI vositasining qanday pedagogik maqsadga bo'ysundirilgani, talabaning qaysi faoliyatini qo'llab-quvvatlayotgani va natija qanday baholanayotganidadir. Mazkur tadqiqot aynan shu muammoga qaratilib, sun'iy intellekt, startap ekotizimi va tadbirkorlik ko'nikmalarini yagona pedagogik tizimga birlashtirish zaruratini asoslaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

I.A. Revin va D.L. Tsybulevskaya tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini kompetensiyaviy hamda kontekstli ta'lim yondashuvlari asosida ishlab chiqqan [8]. Ularning fikricha, nazariy bilimlarning amaliy biznes loyihalari, treninglar, biznes o'yinlari, xalqaro dasturlar va startap tanlovlari bilan integratsiyalashuvi talabalarda nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Mualliflar ayniqsa jamoada ishlash, liderlik, tashabbuskorlik va kommunikativ kompetensiyalarni tadbirkorlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholaydilar.

R.R. Sultanov oliy ta'lim muassasalaridagi biznes jarayonlarini sun'iy intellekt asosida raqamlashtirish masalasini tahlil qilib, texnologiya, jarayon va inson resurslarini o'zaro uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi [3]. Uning yondashuvi sun'iy intellektni alohida texnik vosita sifatida emas, balki oliy ta'limning tashkiliy va funksional tuzilmasiga integratsiyalashgan resurs sifatida ko'rishga imkon beradi. Mazkur fikr tadbirkorlik ta'limi uchun ham muhimdir, chunki talabaning startap faoliyati faqat raqamli platforma bilan emas, mentor, professor-o'qituvchi, inkubator, investor, korxona va real bozor ishtirokchilari bilan hamkorlikda shakllanadi.

Biroq adabiyotlarda sun'iy intellektning tadbirkorlik ta'limidagi o'rni ikki xil talqin qilinadi:

- birinchi yondashuv texnologiyaning tezkorlik, individual yordam va kreativlikni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ta'kidlaydi;
- ikkinchi yondashuv esa tayyor javobga qaramlik, tanqidiy fikrlashning susayishi, akademik halollik, maxfiylik va algoritmik tarafkashlik xavflariga e'tibor qaratadi [4, 5].

Mazkur ikki pozitsiyani qarama-qarshi qo'yish emas, balki pedagogik nazorat orqali muvozanatlashtirish zarur.

Quyidagi jadvalda tadqiqotning nazariy asosini shakllantiruvchi asosiy yondashuvlar umumlashtiriladi (1-jadval).

1-jadval: **Sun'iy intellekt, startap ekotizimi va tadbirkorlik ta'limi bo'yicha yondashuvlar**

Yo'nalish	Asosiy mazmun	Pedagogik ahamiyat	Cheklov
Tadbirkorlik kompetensiyasi	imkoniyatni aniqlash, resurslarni safarbar qilish, qaror qabul qilish;	ko'nikmalar tarkibini belgilaydi;	ko'pincha SI omili hisobga olinmaydi;
Tajribaviy ta'lim	faoliyat, sinov, xato va refleksiya orqali o'rganish;	startap loyihasini o'quv mexanizmiga aylantiradi;	real ekotizim bo'lmasa, topshiriq sun'iy bo'lib qoladi;
Startap ekotizimi	mentor, investor, inkubator, korxona va OTM hamkorligi;	real muhit va ekspert resursini beradi;	pedagogik baholash mexanizmi har doim aniq emas;
SI-supported learning	generatsiya, tahlil, shaxsiylashtirish va tezkor fikr-mulohaza;	talabaning faoliyat doirasini kengaytiradi;	gallyutsinatsiya va qaramlik xavfi mavjud;
Entrepreneurial university	OTMning innovatsiya va tadbirkorlikka yo'naltirilishi;	institutsional muhit yaratadi;	talaba darajasidagi metodik mexanizm yetarli ochilmaydi;

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt, tajribaviy ta’lim va startap ekotizimi alohida tadqiqot yo‘nalishlari sifatida rivojlangan, biroq ular talabalarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi yagona pedagogik modelga yetarlicha birlashtirilmagan [1–6]. Mazkur maqolaning ilmiy bo‘shlig‘i aynan shu integratsiyani nazariy asoslash bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola nazariy-konseptual tadqiqot sifatida ishlab chiqildi. Real pedagogik tajriba, respondentlar soni va statistik natijalar mavjud bo‘lmagani sababli empirik da’volardan foydalanilmadi. Asosiy maqsad mavjud ilmiy yondashuvlarni qiyoslash, ularning funksional jihatlarini ajratish va ular asosida mualliflik modelini yaratishdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqotda tizimli tahlil sun’iy intellekt, pedagogik metod, startap faoliyati va ekotizim subyektlarini o‘zaro bog‘liq komponentlar sifatida ko‘rib chiqish uchun ishlatildi.

Tadqiqotning ishonchliligi bir necha ilmiy yondashuvlarni o‘zaro qiyoslash, mualliflik xulosalarini mavjud ilmiy qarashlardan ajratish va har bir model komponentining pedagogik vazifasini aniq belgilash orqali ta’minlandi. Mazmuniy validlik esa tadbirkorlik faoliyatining asosiy bosqichlari, sun’iy intellekt funksiyalari va startap ekotizimi subyektlarining modelda qamrab olinishi bilan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik ko‘nikmalarini pedagogik hodisa sifatida o‘rganishda ularni faqat biznes yuritishga oid amaliy malakalar majmui sifatida baholash yetarli emas. Zamonaviy yondashuvlarda tadbirkorlik tashabbus, imkoniyatni anglash, noaniqlikda qaror qabul qilish, yangi qiymat yaratish va faoliyat natijasiga mas’ul bo‘lish bilan izohlanadi. Bu esa tadbirkorlikni shaxsiy, kognitiv, amaliy va ijtimoiy komponentlarni birlashtiruvchi integrativ kompetensiya sifatida talqin qilishni talab etadi.

Tajribaviy ta’lim nazariyasi nuqtayi nazaridan tadbirkorlik ko‘nikmasi tayyor bilimni eslab qolish orqali emas, balki real yoki real vaziyatga yaqin faoliyatda shakllanadi. Talaba muammoni aniqlaydi, yechim ishlab chiqadi, uni amalda sinaydi, muvaffaqiyatsizlik yoki qarama-qarshi natijani tahlil qiladi va keyingi qarorini qayta ko‘rib chiqadi. Demak, startap loyihasi o‘quv topshirig‘i emas, balki bilim, tajriba, kommunikatsiya va refleksiyani birlashtiruvchi pedagogik muhitdir.

Startap ekotizimi bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. U universitet, kafedra, professor-o‘qituvchi, talaba jamoasi, mentor, inkubator, akselerator, investor, korxona va raqamli platformalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni qamrab oladi. Ekotizim talabaning nazariy bilimini real muammo bilan bog‘laydi, unga ekspert fikri, infratuzilma, tajriba va tarmoq aloqalarini taqdim etadi. Shuning uchun startap ekotizimini faqat biznesni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm emas, balki tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantiruvchi pedagogik tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim mazkur tizimning texnologik komponentini kuchaytiradi. Generativ SI g‘oyalar variantlarini ishlab chiqish, muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish, biznes ssenariylarini modellashtirish va matnli yoki vizual prototip yaratishda yordam beradi. Analitik vositalar bozor ma’lumotlarini tartibga solish, mijoz xatti-harakatini tahlil qilish va qaror variantlarini qiyoslash imkonini beradi. Adaptiv tizimlar esa talabaning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va loyiha bosqichiga mos tavsiyalar berishi mumkin.

Tahlil natijasida talabalarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning integrativ modeli ishlab chiqildi. Ushbu model uch asosiy tizimni birlashtiradi: sun’iy intellektning texnologik imkoniyatlari, startap faoliyatining amaliy bosqichlari va pedagogik boshqaruv mexanizmi.

Modelning boshlang‘ich nuqtasi talabaning tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iborat. Bu bosqichda uning tadbirkorlik motivatsiyasi, raqamli savodxonligi, SI vositalaridan foydalanish tajribasi va jamoada ishlashga tayyorligi baholanadi. Keyingi bosqichda real yoki real vaziyatga yaqin muammo tanlanadi. Talaba muammoning sabablari, manfaatdor tomonlari va mavjud yechimlarini tahlil qiladi. Sun’iy intellekt bu jarayonda axborotni tartibga solish va muqobil talqinlarni ko‘rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Kreativ-loyihaviy bosqichda biznes g‘oya, mijoz segmenti va qiymat taklifi ishlab chiqiladi. Generativ SI g‘oyalar sonini ko‘paytirishi mumkin, biroq yakuniy tanlov talaba tomonidan bozor talabi, resurs imkoniyati va ijtimoiy foyda mezonlari asosida amalga oshiriladi. Operatsion bosqichda biznes model va prototip yaratiladi. Bu yerda sun’iy intellekt matn, vizual konsepsiya, ssenariy yoki dastlabki hisob-kitoblarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Sinov bosqichida prototip potensial foydalanuvchilar, mentorlar yoki ekspertlar tomonidan baholanadi. Talaba sun’iy intellekt tavsiyasi bilan real foydalanuvchi fikri o‘rtasidagi farqni ko‘radi va biznes gipotezasini qayta ko‘rib chiqadi. Yakuniy bosqichda pitch tayyorlanadi, loyiha taqdim etiladi va refleksiv tahlil amalga oshiriladi. Talaba qaysi qarorni o‘zi qabul qilgani, qaysi jarayonda SI yordamidan foydalangani va qaysi natijani

mustaqil tekshirganini asoslaydi. Ushbu jarayon natijasida tadbirkorlik ko‘nikmalarining yetti komponenti rivojlanadi (2-jadval).

2-jadval: **Tadbirkorlik ko‘nikmalarining komponentlari va indikatorlari**

Komponent	Mazmuni	Asosiy indikator
Motivatsion-maqsadli	tashabbus, maqsad va natijaga yo‘nalganlik;	muammoni hal qilishga ichki qiziqish;
Kognitiv-analitik	axborotni tahlil qilish va dalilni tekshirish;	bozor ma’lumotiga asoslangan xulosa;
Kreativ-innovatsion	yangi va foydali yechim yaratish;	qiymat taklifining yangiligi;
Operatsion-loyihaviy	g‘oyani model va prototipga aylantirish;	amaliy loyiha yechimi;
Kommunikativ-jamoaviy	hamkorlik, muzokara va taqdimot;	jamoaviy faoliyat sifati;
Refleksiv-baholovchi	natija va xatolarni qayta tahlil qilish;	qarorni tuzatish qobiliyati;
Etik-mas’uliyatli	SI va ma’lumotlardan mas’uliyatli foydalanish	maxfiylik va mualliflikka rioya qilish;

Modelda startap ekotizimining har bir subyekti muayyan pedagogik vazifani bajaradi. Oliy ta’lim muassasasi tashkiliy muhit va infratuzilmani ta’minlaydi. Professor-o‘qituvchi vazifani loyihalaydi, mezonlarni belgilaydi va faoliyat jarayonini boshqaradi. Mentor biznes qarorlarini real tajriba asosida muhokama qiladi. Inkubator yoki startap-studiya loyiha resurslari, ekspert va tarmoq aloqalarini taqdim etadi. Korxona real muammo va bozor kontekstini beradi. Investor biznes modelning barqarorligini baholaydi. Sun’iy intellekt esa axborot, generatsiya, tahlil va vizuallashtirish vositasi sifatida faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi.

SI vositalarini alohida brendlar bo‘yicha emas, pedagogik funksiyasi asosida tasniflash maqsadga muvofiq. Dialogli generativ tizimlar g‘oya, savol va ssenariy variantlarini yaratadi. Manbaga asoslangan qidiruv tizimlari bozor axborotini izlash va tartibga solishga yordam beradi. Analitik vositalar ma’lumotlarni qiyoslaydi va qaror variantlarini ko‘rsatadi. Vizual generatsiya vositalari prototip va pitch dizaynini tayyorlashga xizmat qiladi. Biroq barcha holatda talaba natijani tekshirishi, uni o‘z kontekstiga moslashtirishi va yakuniy qaror uchun javobgar bo‘lishi kerak (3-jadval).

3-jadval: **Sun’iy intellektning startap faoliyatidagi pedagogik funksiyalari**

Startap bosqichi	SI funksiyasi	Talaba faoliyati	Rivojlanuvchi ko‘nikma
Muammoni aniqlash	axborotni umumlashtirish, muqobil talqin yaratish;	muammo sabablarini tekshirish;	analitik fikrlash;
G‘oya yaratish	variantlar generatsiyasi;	mezon asosida g‘oya tanlash;	kreativlik;
Bozor tahlili	segment va ssenariylarni tuzish;	real manbalar bilan tekshirish	axborot savodxonligi;
Biznes model	model elementlarini taklif qilish;	resurs va riskni baholash;	loyihaviy ko‘nikma;
Prototiplash	matn va vizual prototip yaratish;	foydalanuvchi uchun moslashtirish;	innovatsion faoliyat;
Taqdimot	Pitch tuzilmasi va dizaynini ishlab chiqish;	qarorni asoslab himoya qilish;	kommunikativ ko‘nikma;
Refleksiya	savol va tahlil variantlarini berish;	SI natijasini tanqidiy baholash;	refleksiv kompetensiya;

Taklif etilgan model tadbirkorlik ta’limining amaliy yo‘nalishini sun’iy intellekt bilan boyitadi. Uning asosiy farqi shundaki, SI alohida texnologik vosita sifatida emas, startap siklining har bir bosqichiga pedagogik maqsad asosida kiritiladi. Bu jarayonda texnologiyaning vazifasi tayyor yechim berish emas, balki talabaning fikrlash doirasini kengaytirish, qaror variantlarini ko‘paytirish va xatolarni ko‘rishga yordam berishdir.

Startap ekotizimi modelning ijtimoiy va amaliy asosini yaratadi. Agar talaba faqat auditoriyada sun’iy biznes vazifasini bajarsa, uning qarorlari real bozor bosimini, mijoz talabini va resurs cheklovini yetarli aks ettirmaydi. Mentor, korxona, investor va potensial foydalanuvchi bilan muloqot esa loyihani real mezonlar bilan to‘qnash keltiradi. Aynan shu vaziyatda talaba SI yaratgan tavsiyaning amaliy qadrini baholaydi.

Modelning muhim jihati inson nazoratining saqlanishidir. Sun’iy intellekt talabani almashtirmasligi, balki uning kognitiv faoliyatini kuchaytirishi kerak. Talaba SI javobining manbasini, mantiqini va kontekstga mosligini tekshirmasa, texnologiya ko‘nikma rivojlantirish o‘rniga tayyor javobga qaramlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli har bir SI asosidagi topshiriqda verifikatsiya, izohlash va refleksiya majburiy element bo‘lishi lozim.

Taklif etilgan modelni samarali qo‘llash uchun bir necha pedagogik shart zarur:

- sun’iy intellektdan foydalanishdan oldin vazifaning aniq didaktik maqsadi belgilanishi kerak;
- SI natijasi mustaqil manba, real ma’lumot yoki foydalanuvchi fikri bilan tekshirilishi lozim;

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

- talaba yakuniy qarorning muallifi bo‘lib qolishi kerak;
- loyiha real muammo va ehtiyojga asoslanishi zarur;
- baholash faqat tayyor mahsulotni emas, qaror qabul qilish jarayoni va dalillarning sifatini ham qamrab olishi kerak;
- akademik halollik, maxfiylik va mualliflik huquqi alohida mezon sifatida kiritilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun’iy intellekt va startap ekotizimini integratsiyalash talabalarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyat yaratadi. Sun’iy intellekt axborotni qayta ishlash, g‘oya variantlarini ishlab chiqish, biznes modelni tahlil qilish, prototip va taqdimot tayyorlash jarayonini tezlashtiradi. Startap ekotizimi esa ushbu faoliyatni real muammo, ekspert bahosi, bozor talabi va ijtimoiy hamkorlik bilan bog‘laydi.

Tadqiqot natijasida sun’iy intellekt vositalari, startap sikli bosqichlari, pedagogik metodlar va ekotizim subyektlarini birlashtiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Model tadbirkorlik ko‘nikmalarining motivatsion, analitik, kreativ, loyihaviy, kommunikativ, refleksiv va etik komponentlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Taklif etilgan model hali maxsus pedagogik tajribada sinovdan o‘tkazilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bacigalupo, M., Kampylis, P., Punie, Y., & Van den Brande, L. EntreComp: The Entrepreneurship Competence Framework. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2016.
2. Maqsudov A. Talabalarning innovatsion va startap loyihalarini yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish // Tamaddun nuri.- 2023. 8-son/ 1-qism, 121-128 b.
3. Sultanov, R. R. Sozdanie programmnogo kompleksa dlya optimizatsii upravleniya obrazovatelnym kontentom s primeneniem iskusstvennogo intellekta. Toshkent: Bookmany Print. 2023. 170 p.
4. Qo‘chqorov, T. S., va Sultanov, R. R. Sun’iy intellekt elementlariga asoslangan ta’lim tizimini boshqarish va elektron kontent dizayni uchun axborot tizimining tadqiqot va loyihalash tuzilishi va rasmiy modeli. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022. maxsus son, 9–13 noyabr.
5. Sultanov, R. R., & Kuchkarov, T. S. (2023). Overview of artificial intelligence and machine learning methods and tools for analyzing big data in enterprises’ information systems. In Information Systems and Design: Third International Conference Proceedings (Vol. 77, pp. 151-155). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-031-32092-7
6. Абдрасулова, С. Б. Предпринимательское образование и развитие предпринимательских экосистем: монография / С.Б.Абдрасумова, Н.Н.Бугрюмова, М.Г.Назаров, Н.Г.Шубнякова; Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования “Нижегородский государственный педагогический университет имени Козьмы Минина”. - Нижний Новгород, 2020. - 164 с.
7. Панова Н.А. Формирование предпринимательской компетенции студентов среднего профессионального образования с использованием креативных технологий. Специальность 5.8.7. Методология и технология профессионального образования Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук Великий Новгород – 2023.
8. Ревин И. А., Цыбулевская Д. Л. Развитие предпринимательских компетенций у студентов технического вуза // Современные проблемы науки и образования. - 2021. - № 5. - С. 1-12.

MAKTAB TA'LIMIDA O'QITISH SIFATINI BAHOLASHNING KO'P TARMOQLI RAQAMLI-DIAGNOSTIK TIZIMINI JORIY ETISH VA BOSHQARISH

Nurmetov Tursunbek Kenjayevich
Xorazm viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari

Annotatsiya: Maqolada maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimini joriy etish va uni boshqarish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, kontent-tahlil hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada o'quvchilar, pedagoglar, ta'lim jarayoni, maktab boshqaruvi va tashqi monitoring ko'rsatkichlarini integratsiyalovchi konseptual model ishlab chiqildi. Taklif etilgan model ta'lim sifatini monitoring qilish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish hamda ta'lim sifatini uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, pedagogik diagnostika, raqamli monitoring, maktab boshqaruvi, raqamli platforma, baholash tizimi, boshqaruv qarorlari.

Abstract: This article analyzes the implementation and management of a multidimensional digital diagnostic system for assessing the quality of teaching in school education. The study employs a combination of systemic and comparative analysis, content analysis, and modeling methods to investigate the effectiveness of digital approaches in educational quality assessment. As a result, a conceptual model integrating indicators related to students, teachers, the teaching and learning process, school management, and external monitoring was developed. The proposed model enhances the efficiency of educational quality monitoring, supports evidence-based managerial decision-making, and contributes to the continuous improvement of educational quality through a comprehensive digital assessment framework.

Key words: educational quality, pedagogical diagnostics, digital monitoring, school management, digital platform, assessment system, evidence-based decision-making.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы внедрения и управления многопрофильной цифровой диагностической системой оценки качества обучения в общеобразовательных школах. В исследовании использованы методы системного и сравнительного анализа, контент-анализа и моделирования. Разработана концептуальная модель, объединяющая показатели обучающихся, педагогов, образовательного процесса, школьного управления и внешнего мониторинга. Предложенная модель способствует повышению эффективности мониторинга качества образования и принятию управленческих решений на основе объективных данных.

Ключевые слова: качество образования, педагогическая диагностика, цифровой мониторинг, управление школой, цифровая платформа, система оценки.

KIRISH

Ta'lim sifati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifatini muntazam baholash, monitoring qilish hamda uning natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish bugungi kunda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini baholash tizimiga ham yangi talablarni qo'ymoqda.[1]

Mavjud amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, maktablarda qo'llanilayotgan baholash mexanizmlari asosan o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini qayd etishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi pedagogik, tashkiliy va boshqaruv omillarini kompleks baholash imkoniyatini to'liq ta'minlamaydi. Natijada ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni erta aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish hamda rivojlanish tendensiyalarini prognozlash imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.[2]

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
2 Лазарев В.С. Управление развитием школы. – М.: Новая школа, 1995. – С. 21–34.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim sifatini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, elektron monitoring, pedagogik diagnostika, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda analitik platformalardan foydalanish ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari faoliyatini yagona axborot muhitida baholash imkonini beradi. Bunday yondashuv ta'lim sifati monitoringining aniqligi va tezkorligini oshirish bilan bir qatorda, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini ham ta'minlaydi.[3]

Pedagogika fanida diagnostik yondashuv ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. K. Ingenkamp pedagogik diagnostikani ta'lim jarayonining holatini aniqlash, rivojlanish dinamikasini baholash va pedagogik faoliyatni ilmiy asosda boshqarishga xizmat qiluvchi tizim sifatida izohlaydi.

V. P. Bespalko esa ta'lim sifati pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish orqali ta'minlanishini ta'kidlaydi. Mazkur ilmiy qarashlar maktab ta'limida ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimni ishlab chiqishning nazariy asosini tashkil etadi.[4]

Mazkur tadqiqotning maqsadi maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimini joriy etish va boshqarishning konseptual modelini ishlab chiqish hamda uning amaliy samaradorligini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sifatini baholash va pedagogik diagnostikani takomillashtirish masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, K. Ingenkamp pedagogik diagnostikani ta'lim jarayonining holatini aniqlash, rivojlanish dinamikasini baholash va ta'lim natijalarini ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qiluvchi tizim sifatida izohlaydi. Uning fikricha, diagnostika faqat yakuniy baholash vositasi emas, balki pedagogik faoliyatni takomillashtirish va boshqaruv qarorlarini asoslashning muhim ilmiy mexanizmi hisoblanadi.

V. P. Bespalko ta'lim sifatini pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari - maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalarning o'zaro bog'liqligi orqali baholash zarurligini asoslaydi. Olimning konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim sifati alohida ko'rsatkichlar bilan emas, balki pedagogik tizimning yaxlit samaradorligi orqali namoyon bo'ladi.

Yu. K. Babanskiy ta'lim jarayonini optimallashtirish nazariyasida boshqaruv qarorlarining samaradorligi mavjud axborotning to'liqligi, ishonchliligi va o'z vaqtida tahlil qilinishiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv ta'lim sifatini monitoring qilishda diagnostik ma'lumotlardan kompleks foydalanishning ilmiy asosini yaratadi.

Shuningdek, V. A. Slastenin, I. F. Isayev va E. N. Shiyanov pedagogik boshqaruv, ta'lim sifati hamda o'qituvchi kasbiy faoliyatini baholashning nazariy asoslarini yoritib, pedagogik diagnostikaning ta'lim jarayonidagi o'rnini asoslab berganlar.

V. S. Lazarev va M. M. Potashnik maktab boshqaruvini rivojlantirish, ichki monitoring tizimini tashkil etish hamda strategik boshqaruv masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar.

A. N. Mayorov esa ta'lim monitoringini tashkil etishning metodologik asoslari va monitoring natijalaridan boshqaruv faoliyatida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqqan.

Mahalliy miqyosda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining me'yoriy hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu hujjatlar ta'lim sifatini monitoring qilish, boshqaruvni raqamlashtirish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar pedagogik diagnostika, ta'lim monitoringi va maktab boshqaruvining alohida jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, ularning aksariyatida o'quvchilar, pedagoglar, ta'lim jarayoni, maktab boshqaruvi hamda tashqi monitoring ko'rsatkichlarini yagona raqamli platformada integratsiyalash orqali kompleks baholash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda ta'lim sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimi taklif etilib, o'quvchilar, pedagoglar, ta'lim jarayoni, maktab boshqaruvi va tashqi monitoring ma'lumotlari yagona axborot platformasida integratsiyalashgan holda tahlil qilinadi. Taklif etilgan konseptual model nafaqat ta'lim sifati holatini kompleks baholash, balki ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, muammolarni erta aniqlash va ta'lim sifatini uzluksiz takomillashtirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

3 Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Академия, 2013. – С. 517–524.
4 Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. – М.: Педагогика, 1991. – С. 45–53; Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – С. 27–34.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimini ishlab chiqish hamda uni boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv tamoyiliga asoslanib, ta'lim sifatini baholashga oid ilmiy-nazariy qarashlar, amaldagi boshqaruv mexanizmlari va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini kompleks tahlil qilishni nazarda tutdi.

Tadqiqotning nazariy bazasini pedagogik diagnostika, ta'lim sifatini boshqarish, ta'lim monitoringi hamda raqamlashtirish jarayonlariga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, maktablarda ichki monitoringni tashkil etish amaliyoti hamda ta'lim sifatini baholashga doir metodik tavsiyalar o'rganildi.[5]

Tadqiqot davomida tizimli tahlil metodi yordamida o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlandi. Mazkur metod baholash jarayonida o'quvchilar faoliyati, pedagogik jarayon, maktab boshqaruvi va tashqi monitoring natijalarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil metodi orqali mamlakatimiz maktablarida qo'llanilayotgan baholash amaliyoti pedagogik diagnostika bo'yicha ilmiy yondashuvlar bilan taqqoslandi. Tahlil jarayonida mavjud tizimlarning kuchli jihatlari hamda ularni takomillashtirishni talab qiluvchi omillar aniqlashtirildi.[6]

Tadqiqotda kontent-tahlil metodidan foydalanilib, ta'lim sifatini baholashga oid ilmiy manbalar, me'yoriy hujjatlar va metodik materiallarning mazmuni o'rganildi. Olingan natijalar asosida ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizim uchun zarur bo'lgan asosiy diagnostik indikatorlar shakllantirildi. Shuningdek, modellashtirish metodi qo'llanilib, maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur metod yordamida diagnostik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish bosqichlari yagona tizim ko'rinishida loyihalashtirildi. Modelni ishlab chiqishda barcha komponentlarning o'zaro integratsiyasi hamda ma'lumotlar almashinuvi tamoyillari asos qilib olindi.[7]

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari asosida maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimi ishlab chiqildi. Taklif etilgan tizim ta'lim sifati monitoringini tashkil etishda o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari bilan bir qatorda pedagogik faoliyat, ta'lim jarayoni, maktab boshqaruvi va tashqi manfaatdor tomonlardan olinadigan ma'lumotlarni yagona raqamli platformada integratsiyalash tamoyiliga asoslanadi. Mazkur yondashuv ta'lim sifati holatini kompleks baholash hamda boshqaruv qarorlarini ishonchli axborotlar asosida qabul qilish imkonini yaratadi.

Ishlab chiqilgan modelda diagnostik jarayon uzluksiz boshqaruv sikli sifatida tashkil etildi. Dastlab ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar elektron jurnal, ichki monitoring natijalari, pedagogik kuzatuvlar, diagnostik testlar hamda so'rovnomalar orqali yig'iladi. Keyingi bosqichda ma'lumotlar yagona bazaga uzatiladi va belgilangan indikatorlar asosida avtomatik qayta ishlanadi. Yakuniy bosqichda shakllantirilgan analitik hisobotlar maktab rahbariyati hamda hududiy boshqaruv organlari tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi. Tizimning funksional tuzilmasi beshta o'zaro bog'liq moduldan iborat bo'lib, har bir modul ta'lim sifatining muayyan yo'nalishini tavsiflaydi. Modullar o'rtasidagi integratsiya alohida ko'rsatkichlarni emas, balki ularning o'zaro ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Natijada ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etayotgan omillarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkoniyati kengayadi (1-jadval).

Modul	Diagnostika obyekti	Asosiy indikatorlar	Boshqaruv natijasi
O'quvchilar diagnostikasi	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalar	O'zlashtirish darajasi, rivojlanish dinamikasi, davomat	Individual rivojlanish xaritasi
Pedagogik diagnostika	O'qituvchining kasbiy faoliyati	Dars sifati, metodlardan foydalanish, malaka oshirish	Kasbiy rivojlanish rejasi
Ta'lim jarayoni diagnostikasi	Darslarni tashkil etish	O'quv-metodik ta'minot, resurslardan foydalanish	Ta'lim jarayonini takomillashtirish
Institutsional diagnostika	Maktab boshqaruvi	Ichki monitoring, rejalashtirish, natijadorlik	Strategik boshqaruv qarorlari
Tashqi monitoring	Ota-onalar va jamoatchilik	Qoniqish darajasi, taklif va murojaatlar	Teskari aloqa asosida rivojlantirish

5 Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Академия, 2013. – С. 529–536.
6 Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1982. – С. 18–31.
7 Лазарев В.С. Управление развитием школы. – М.: Новая школа, 1995. – С. 74–88.

Jadvalda keltirilgan modullar o‘zaro yagona axborot bazasi orqali bog‘langan bo‘lib, tizimda shakllanadigan ma’lumotlar avtomatik ravishda umumlashtiriladi va tahlil qilinadi. Bunday integratsiya natijasida maktab faoliyatining alohida yo‘nalishlari emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi ham baholanadi. Bu esa boshqaruv subyektlariga ta’lim sifati dinamikasini kuzatish, muammolarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan model ta’lim sifati monitoringini davriy hisobot tayyorlash bilan cheklamaydi. Raqamli-diagnostik tizim indikatorlarning muntazam yangilanib borishini ta’minlaydi, bu esa maktab, tuman (shahar) va hududiy boshqaruv darajasida ta’lim sifatini real vaqt rejimida nazorat qilish hamda rivojlanish tendensiyalarini prognozlash imkonini yaratadi. Natijada baholash jarayoni nazorat funksiyasidan tashqari boshqaruvni qo‘llab-quvvatlovchi strategik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ko‘p tarmoqli raqamli-diagnostik tizim pedagogik diagnostikani ta’lim sifatini boshqarishning ajralmas qismi sifatida talqin qiluvchi ilmiy yondashuvlarni zamonaviy raqamli boshqaruv vositalari bilan uyg‘unlashtiradi. Taklif etilgan modelning asosiy afzalligi shundaki, unda baholash jarayoni faqat o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalarini qayd etish bilan cheklanmay, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi barcha muhim omillar yagona axborot tizimida o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Mazkur natijalar K. Ingenkamp tomonidan ilgari surilgan pedagogik diagnostika konsepsiyasi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Olim pedagogik diagnostikani ta’lim jarayonining holatini aniqlash, rivojlanish dinamikasini baholash hamda pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan jarayon sifatida tavsiflaydi. Taklif etilgan modelda ham diagnostika yakuniy nazorat vositasi sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishning axborot bazasi sifatida qaraladi.[8]

V. P. Bespalko pedagogik tizim samaradorligini baholashda uning barcha tarkibiy qismlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan model aynan shu tamoyilga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilar faoliyati, pedagogik jarayon, maktab boshqaruvi va tashqi monitoring natijalari integratsiyalashgan holda baholanadi. Bunday yondashuv alohida indikatorlarni emas, balki ularning umumiy natijaga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash imkonini beradi.[9]

Yu.K. Babanskiyning ta’lim jarayonini optimallashtirishga oid ilmiy qarashlari ham tadqiqot natijalari bilan uzviy bog‘liqdir. Muallifning fikricha, boshqaruv qarorlarining samaradorligi mavjud axborotning to‘liqligi va ishonchliligiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqilgan raqamli-diagnostik tizim turli manbalardan olinadigan ma’lumotlarni yagona platformada jamlash va ularni kompleks tahlil qilish orqali boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.[10]

Shunday qilib, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ko‘p tarmoqli raqamli-diagnostik tizim pedagogik diagnostikaning ilmiy-nazariy asoslarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishi hamda maktab ta’limida sifat monitoringini yangi bosqichga olib chiqishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari maktab ta’limida o‘qitish sifatini baholashni takomillashtirishda ko‘p tarmoqli raqamli-diagnostik yondashuvning muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan konseptual model o‘quvchilar, pedagoglar, ta’lim jarayoni, maktab boshqaruvi hamda tashqi monitoring ko‘rsatkichlarini yagona axborot platformasida integratsiyalash orqali ta’lim sifati holatini kompleks baholash imkonini beradi.

Mazkur modelni amaliyotga joriy etish ta’lim sifati monitoringining tezkorligi va obyektivligini oshirish, boshqaruv qarorlarini ishonchli ma’lumotlar asosida qabul qilish hamda muammolarni erta aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, diagnostik ma’lumotlarning muntazam tahlili maktablarning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish va ta’lim jarayonining natijadorligini oshirish uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi.

Kelgusida mazkur modelni raqamli platformalar bilan integratsiyalash, sun’iy intellekt elementlari asosida prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda turli hududlardagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatida tajriba-sinovdan o‘tkazish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son[11] Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son[12] Farmoni. 2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risida.

8 Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. – М.: Педагогика, 1991. – С. 45–53.
9 Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – С. 27–34.
10 Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1982. – С. 18–31.
11 https://lex.uz/ru/docs/-8050769
12 https://lex.uz/ru/docs/-6008663

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o‘rta ta’lim tizimida ta’lim sifatini monitoring qilish va baholashga oid amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021.
5. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. – М.: Педагогика, 1991. – 240 с.
6. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
7. Бабанский Ю. К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1982. – 192 с.
8. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика. – М.: Академия, 2013. – 608 с.
9. Лазарев В. С. Управление развитием школы. – М.: Новая школа, 1995. – 464 с.
10. Поташник М. М. Управление современной школой. – М.: Новая школа, 1992. – 352 с.
11. Краевский В. В. Методология педагогики: новый этап. – М.: Академия, 2006. – 400 с.
12. Майоров А. Н. Мониторинг в образовании. – СПб.: Образование – Культура, 1998. – 344 с.
13. Коджаспирова Г. М. Педагогика. – М.: Юрайт, 2019. – 719 с.
14. Панасюк В. П. Качество образования: проблемы оценки и управления. – СПб.: РГПУ им. А. И. Герцена, 2000. – 312 с.
15. Полонский В. М. Оценка качества образования. – М.: Просвещение, 2004. – 220 с.
16. Абдулхакимова, Г. Т. (2024). Особенности передачи художественного образа.// Экономика и социум, (9 (124)), 420–426.
17. Абдулхакимова, Г. Т. (2025). История развития узбекской литературы.// Экономика и социум, (3–1 (130)), 542–547.
18. Bekmuhammad, U., & Sayyora, S. (2024). Xorazmdagi jadid maktablariga oid ta’lim tashkilotlari va jamiyatlari. // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 5(6), 25–31.
19. Xashimova, S. N., & Abdikarimova, A. A. (2023). Davlat-xususiy sheriklik mohiyati, ahamiyati va afzalliklari. Science and Education, 4(5), 1450–1453.
20. Xashimova, S. N. (2021). Sanoat korxonalarida autsorsingdan foydalanish mohiyati va imkoniyatlari. Science and Education, 2(11), 350–354.
21. Ollanazarov, B., & Sayyora, S. (2025). Innovatsion yondashuv asosida turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni boshqarish: nazariya, amaliyot va xorijiy tajriba. // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 5(6), 90–100.
22. Xolmurodovna, X. S. (2025). Oila va bolalar psixologiyasi.// Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 1(5), 79–82.
23. Хашимова, С. Х. (2024). Инклюзив таълимнинг имконияти чекланган ўсмирлар ижтимоийлашувида тутган ўрни. //Academic Research in Educational Sciences, (1), 133–139.
24. Abdurashid, O., Gulrukh, I., Gulbaxor, U., Nafisa, G., Gullola, K., Malokhat, J., ... & Dilshod, D. (2025). CD19-Targeted Lipid Nanoparticles for Delivering Venetoclax and BCL2 siRNA in B-Cell Acute Lymphoblastic Leukemia. Journal of Nanostructures, 15(2), 587–595.
25. Pozilov, M. K., Asrarov, M. I., Urmanova, G. U., & Eshbakova, K. A. (2015). Protective Effect of Salvifolin on Liver Mitochondrial Function in Rats with Experimental Diabetes. European Science Review, (7–8), 3–7.
26. Тоштемирова, М. Ж., Урманова, Г. У., & Асраров, М. И. (2002). Изучение действия инсектицида фозалона на функции митохондрий печени крыс в опытах in vivo. Известия вузов. Химико-биологические науки, (4), 28–31.
27. Urmanova, G., & Yoldosheva, D. (2024). Physical Characteristics of Pulse Oximetry. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 3(5), 46–48.
28. Урманова, Г. У., Каршиев, Д. А., & Исламов, Ю. Н. (2022). Аллергические изменения поджелудочной железы при циррозах печени у детей.// Воронцовские чтения. Санкт-Петербург – 2022 (pp. 114–115).

EVENT TA'LIM TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA TALABALARNING O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri – event (voqeaviy) ta'lim texnologiyasining mazmuni, uni oliy ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari hamda ushbu texnologiya asosida talabalarning o'quv faolligi va ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari tahlil etilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalar misolida event texnologiyasining samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: event texnologiyasi, ta'lim samaradorligi, talaba faolligi, interfaol metodlar, ta'lim sifati.

Abstract: This article examines the essence of one of the modern educational technologies–event-based learning technology–its potential application in higher education, and ways to enhance students' learning engagement and the effectiveness of the educational process through this technology. In addition, the effectiveness of event-based learning technology is scientifically substantiated through examples of international and local practices.

Key words: event technology, educational effectiveness, student engagement, interactive methods, quality of education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание одной из современных образовательных технологий – event-технологии (событийной технологии обучения), возможности её применения в процессе высшего образования, а также пути повышения учебной активности студентов и эффективности образовательного процесса на основе данной технологии. Кроме того, на примере зарубежного и отечественного опыта научно обосновывается эффективность event-технологии.

Ключевые слова: event-технология, эффективность образования, активность студентов, интерактивные методы, качество образования.

KIRISH

Zamonaviy ta'limda interfaollik, amaliyotga yaqinlik va talabani markazga qo'yish prinsiplariga asoslangan yondashuvlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, XXI asrda ta'lim tizimi faqat bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga, uni hayotga tayyorlashga xizmat qilishi kerak. Bu borada event (voqeaviy) ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonini voqelik, tajriba va faoliyat bilan uyg'unlashtirgan holda tashkil etish imkonini beradi [1]. Mazkur yondashuv talabalarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, ularni faol subyekt sifatida jarayonga jalb etadi, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni shakllantirib, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bu yo'nalishda davlat darajasida olib borilayotgan islohotlar, ta'lim mazmunini yangilash va ilg'or texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tashabbuslar ham muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etish, taraqqiyotimizni yangi bosqichga ko'tarish – avvalo, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallagan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan insonlarni voyaga yetkazishga bog'liq" (2021-yil, ta'lim sohasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi).

Event ta'lim texnologiyasi aynan shunday insonlarni tayyorlashga xizmat qiladigan zamonaviy yondashuv bo'lib, u orqali talabalarning o'quv faolligini oshirish, ularda hamkorlikda ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Shuningdek, ushbu texnologiya o'zining hayotga yaqinligi bilan o'quv jarayonini talabalar uchun qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida o‘zining amaliy yo‘naltirilganligi va talaba shaxsini rivojlantirishdagi samaradorligi bilan ajralib turadigan yondashuvlardan biri event (voqeaviy) ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. Event ta’lim texnologiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. **Reallikka yaqin sharoitlarda ta’limni tashkil etish.** Ta’lim voqelik bilan bog‘langan holda tashkil etiladi. Talabalar hayotiy va kasbiy muammolarni modellashtirilgan vaziyatlar orqali hal qiladilar, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.
2. **Talabalarni faol subyekt sifatida jalb etish.** Ushbu texnologiyada talabalar tayyor bilimni egallovchi emas, balki uni izlovchi, muammolarni hal qiluvchi va tahlil qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladilar. O‘qituvchi esa ularning faoliyatini yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi.
3. **Guruhli va mustaqil ishlashga rag‘batlantirish.** Event ta’lim guruhlarda ishlashni rag‘batlantiradi, bu esa hamkorlikda o‘rganish, fikr almashish va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har bir ishtirokchiga individual yondashuv va uning mustaqil fikrlashi ham qo‘llab-quvvatlanadi.
4. **Refleksiya va tahlil jarayonlariga urg‘u berish.** Har bir mashg‘ulotdan so‘ng refleksiya jarayoni tashkil etiladi – talabalar o‘z faoliyati, qabul qilgan qarorlari va erishgan natijalarini tahlil qiladilar, xatolardan saboq chiqaradilar hamda kelgusidagi harakatlarini rejalashtiradilar [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Event ta’lim texnologiyasining samaradorligi shundaki, u o‘quv jarayonini standart va bir xildagi shakldan chiqarib, hayotga yaqin, dinamik hamda faoliyatga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, ularni bilim izlashga, muammolarni hal qilishga undaydi va kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Event texnologiyasining o‘qish samaradorligiga ta’siri shundaki, u o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv olib kirib, talabalarning o‘qish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu texnologiya asosida tashkil etilgan darslar nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham imkon yaratadi. Shu bois event texnologiyasi ta’lim jarayonining sifati va natijadorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi [3]. Bundan tashqari, event texnologiyasi talabalarda o‘z-o‘zini anglash va baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir darsdan so‘ng talabalar o‘z faoliyati va natijalarini tahlil qilib, kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlaydilar. Bu esa ularning shaxsiy o‘sishi va mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi. Refleksiya jarayoni orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish yo‘llarini aniqlaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ta’lim sohasida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash borasida jahon miqyosida katta tajriba to‘plangan. Xususan, event ta’lim texnologiyasi xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilib, uning samaradorligi ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Germaniya va Janubiy Koreyada muayyan tajribalar asosida e’tirof etilgan. AQSHda event texnologiyasi doirasida “case study” – real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish metodidan keng foydalaniladi. Bunda talabalar turli murakkab vaziyatlarni o‘rganib, ularni hal etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Shuningdek, konferensiyalar, seminarlar va loyiha ishlarini tashkil etish orqali talabalarning faolligi oshiriladi hamda bilimlarni chuqurlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Germaniya ta’lim tizimida esa event texnologiyasi doirasida interaktiv o‘quv mashg‘ulotlari, seminarlar va amaliy loyihalardan keng foydalaniladi. Bunda, ayniqsa, guruhda hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Janubiy Koreya ta’lim tizimida ham innovatsion metodlar, jumladan, event ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning ijodkorlik va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qo‘llanilmoqda [4].

O‘zbekiston ta’lim tizimida esa event ta’lim texnologiyasini joriy etish hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida mazkur yondashuvdan foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Namangan davlat universiteti va boshqa bir qator oliy ta’lim muassasalarida pedagogika, iqtisodiyot hamda axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida event texnologiyasi asosida darslar va loyihalarni tashkil etish tajribasi shakllanmoqda. Mazkur yondashuv talabalarning o‘quv faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadbirlar va seminarlar tashkil etilmoqda. Bu borada amaliyot va nazariyani uyg‘unlashtirish, pedagoglar malakasini oshirish hamda innovatsion o‘quv-uslubiy majmualarni

yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, event texnologiyasini mamlakatimizda kengroq joriy etish uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ularni O‘zbekiston ta’lim muhitiga moslashtirish va samarali pedagogik metodlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki yosh avlodning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, event ta’lim texnologiyasi zamonaviy ta’lim talablariga mos, talaba markazidagi interfaol yondashuv bo‘lib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyani oliy ta’lim tizimida kengroq qo‘llash, o‘qituvchilarning mazkur yo‘nalishdagi malakasini oshirish hamda metodik ta’minotni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Event texnologiyasidan foydalanish talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anvarova N., Islomova M. Event texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati // Pedagogika va psixologiya. – 2021. – 12(2). – B. 87–93.
2. Bag‘irov S. Ta’limda zamonaviy innovatsiyalar: event texnologiyasi // Ilmiy axborotnomalar. – 2022. – 6(4). – B. 112–118.
3. Davronov R. Event texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish // Pedagogik texnologiyalar jurnali. – 2020. – 4(1). – B. 34–39.
4. OECD. Ta’lim va ko‘nikmalar kelajagi – 2030-yildagi istiqbollar. – Parij: Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, 2020.
5. Yun S. Kim, Park H. J. Janubiy Koreyada ta’lim innovatsiyasi: ilg‘or texnologiyalar va metodlar. – Seul: Ta’lim vazirligi nashriyoti, 2018.
6. Muhammadjonov X. Oliy ta’limda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya va pedagogika markazi, 2023.
7. Jononov Sh. Event texnologiyasi asosida dars tashkil etish tajribalari // Pedagogik izlanishlar. – 2020. – № 2. – B. 33–36.
8. Qahramonova M. Talabalar bilimini oshirishda “event” metodlarining o‘rni: oliy ta’lim muassasalari uchun uslubiy qo‘llanma. – 2021.
9. Solihov B. Yangi pedagogik texnologiyalar va ta’limda innovatsiyalar. – Samarqand: SamDCHTI, 2022.

TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING MALAKAVIY VA PEDAGOGIK AMALIYOTLARI UZVIYLIGINI TA'MINLASHNING METODIK MODELI

Mardonov Maqsudbek Maxmudovich
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlarini alohida, bir-biridan uzilgan tadbirlar sifatida emas, balki kasbiy-metodik tayyorgarlikning ketma-ket va o'zaro bog'langan bosqichlari sifatida tashkil etish muammosi tadqiq etilgan. Normativ hujjatlar, pedagogik amaliyot nazariyasi, tajribaviy ta'lim, refleksiv faoliyat va texnologik-pedagogik bilimlar integratsiyasiga oid ilmiy manbalar mazmuniy jihatdan tahlil qilingan. Tahlil natijasida maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-jarayonli, diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topgan metodik model ishlab chiqilgan. Model amaliyot topshiriqlarini kurslar kesimida bosqichma-bosqich murakkablashtirish, maktab va ishlab chiqarish muhitidagi faoliyatni yagona kompetensiyalar tizimi asosida o'zaro bog'lash, mentorlik, raqamli monitoring va refleksiv tahlilni uyg'unlashtirishga asoslanadi. Taklif etilgan model nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzilishni qisqartirish, talabalarda texnologik jarayonlarni pedagogik vazifalarga aylantirish qobiliyatini rivojlantirish hamda amaliyot natijalarini dalillarga asoslangan holda baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: texnologik ta'lim, malakaviy amaliyot, pedagogik amaliyot, uzviylik, metodik model, kasbiy kompetensiya, refleksiya, mentorlik, monitoring.

Abstract: The article examines the organisation of qualification and teaching practicums for technology education students as consecutive and interconnected stages of professional and methodological preparation rather than as isolated activities. Normative documents and research on practicum theory, experiential learning, reflective practice, and the integration of technological and pedagogical knowledge were analysed. A methodological model comprising goal-oriented, content, organisational-process, diagnostic, and outcome-oriented blocks was developed. The model is based on the progressive complication of practicum tasks, the integration of school and production settings through a unified system of competencies, and the combination of mentoring, digital monitoring, and reflective analysis. The proposed model is intended to reduce the theory–practice gap, develop students' ability to transform technological processes into pedagogical tasks, and enable evidence-based evaluation of practicum outcomes.

Key words: technology education, qualification practicum, teaching practicum, continuity, methodological model, professional competence, reflection, mentoring, monitoring.

Аннотация: В статье исследуется проблема организации квалификационной и педагогической практики студентов направления технологического образования как последовательных и взаимосвязанных этапов профессионально-методической подготовки. Проведён содержательный анализ нормативных документов и научных источников по теории педагогической практики, опытному обучению, рефлексивной деятельности и интеграции технологико-педагогических знаний. Разработана методическая модель, включающая целевой, содержательный, организационно-процессуальный, диагностический и результативный блоки. Модель основана на поэтапном усложнении заданий практики, взаимосвязи школьной и производственной среды посредством единой системы компетенций, а также сочетании наставничества, цифрового мониторинга и рефлексивного анализа. Её применение направлено на сокращение разрыва между теорией и практикой, развитие способности студентов преобразовывать технологические процессы в педагогические задачи и обеспечение доказательной оценки результатов практики.

Ключевые слова: технологическое образование, квалификационная практика, педагогическая практика, преемственность, методическая модель, профессиональная компетентность, рефлексия, наставничество, мониторинг.

KIRISH

Oliy pedagogik ta'limda amaliy tayyorgarlikning sifati bo'lajak o'qituvchining nazariy bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda qo'llay olishi, faoliyat natijalarini tahlil qilishi va yangi sharoitlarga mos ravishda qaror qabul qilishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi 637-son[1] "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'limning amaliy yo'naltirilganligi, davlat ta'lim standartlari va kasbiy kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Pedagogik ta'limni rivojlantirishga doir qarorlarda esa bo'lajak pedagoglarni maktab muhiti bilan erta tanishtirish, amaliyot bazalari va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash zarurati ko'rsatilgan [2; 3]. Biroq amaliyot turlarining tashkiliy jihatdan mavjudligi ularning mazmunan uzviyligini avtomatik ravishda kafolatlamaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologik ta'lim yo'nalishida ushbu muammoning hal etilishi ikki xil kasbiy makonning o'zaro integratsiyasini talab qiladi. Bir tomondan, materialshunoslik, konstruksiyalash, ishlab chiqarish texnologiyasi, mehnat xavfsizligi va loyihalashga oid amaliy faoliyat mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, darsni rejalashtirish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, didaktik vositalarni tanlash, baholash hamda tarbiyaviy ta'sirni tashkil etish vazifalari mavjud. Talaba texnologik operatsiyani puxta bajara olishi mumkin, ammo uni o'quv maqsadiga mos didaktik birlikka aylantirishda qiyinchilikka duch kelishi ehtimoli mavjud.

Shuningdek, metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan dars loyihasi amaliy texnologik jarayonning real shart-sharoitlari, resurslari va xavfsizlik me'yorlari bilan bog'lanmasa, kasbiy tayyorgarlikning yaxlitligi buziladi. Tadqiqotning maqsadi texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari o'rtasidagi maqsad, mazmun, faoliyat, nazorat va natijalar uzviyligini ta'minlaydigan metodik modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha shakllantirildi: amaliyot turlarini qanday metodik mexanizm orqali ketma-ket, o'zaro to'ldiruvchi va dalillarga asoslangan kasbiy rivojlanish jarayoniga aylantirish mumkin?

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual xususiyatga ega bo'lib, unda normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish, pedagogik manbalarni qiyosiy o'rganish, tizimli yondashuv, strukturaviy-funksional modellashtirish va kompetensiyaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Pedagogik amaliyotni tashkil etish tartibiga oid hujjatlardagi maqsadlar, subyektlarning vazifalari, nazorat shakllari va kutiladigan natijalar ajratib olindi [4]. So'ngra mazkur elementlar texnologik ta'limning fan mazmuni hamda bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyati tarkibi bilan qiyoslandi. Metodologik asos sifatida Kolbning tajribaviy ta'lim sikli, Shyonning "faoliyat jarayonidagi refleksiya" va "faoliyatdan keyingi refleksiya" tushunchalari, Shulmanning pedagogik mazmun bilimlari hamda Mishra va Koehlerning texnologik-pedagogik mazmun bilimlari konsepsiyasidan foydalanildi [5–8].

Ushbu yondashuvlar amaliyot natijasini faqat bajarilgan ishlar soni bilan emas, balki tajribani konseptuallashtirish, uni metodik qarorga aylantirish, qayta sinash va dalillar asosida takomillashtirish qobiliyati bilan baholash imkonini beradi. Modelni ishlab chiqishda beshta mezon qo'llanildi:

- *birinchidan,* amaliyotlarning umumiy yakuniy natijaga yo'naltirilishi;
- *ikkinchidan,* topshiriqlarning oddiy kuzatuvdan mustaqil loyihalash va amalga oshirish tomon bosqichma-bosqich murakkablashishi;
- *uchinchidan,* texnologik mazmun va pedagogik metodning har bir bosqichda birgalikda namoyon bo'lishi;
- *to'rtinchidan,* mentor, oliy ta'lim rahbari va talaba o'rtasida muntazam qayta aloqaning mavjudligi;
- *beshinchidan,* baholashning mahsulot, jarayon va refleksiv izohni qamrab olishi.

Mazkur mezonlar model bloklari va ular o'rtasidagi funksional aloqalarni belgilashda tayanch bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida malakaviy va pedagogik amaliyotlar uzviyligini ta'minlashga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi. Modelning maqsadli bloki texnologik-pedagogik faoliyatni rejalashtirish, uni xavfsiz va sifatli amalga oshirish, o'quvchilarga tushunarli shaklda o'rgatish, natijalarni baholash hamda faoliyatni refleksiv jihatdan takomillashtirishga qodir mutaxassisni tayyorlashni nazarda tutadi. Maqsad alohida ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki kasbiy vazifalarni to'liq sikl asosida hal etish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

1 https://www.lex.uz/uz/docs/-5013007#-5014174

Mazmuniy blok o‘zaro bog‘liq to‘rtta moduldan tarkib topadi: texnologik-operatsion, metodik-didaktik, kommunikativ-tashkiliy va refleksiv-diagnostik modullar.


Texnologik-operatsion modul materiallar, asbob-uskunalar, ish jarayonining ketma-ketligi, sifat va xavfsizlik masalalarini qamrab oladi. Metodik-didaktik modul o‘quv maqsadini belgilash, mazmunni tanlash, topshiriq va ko‘rsatmalarni loyihalash, differensial yondashuvni amalga oshirish hamda baholashni o‘z ichiga oladi. Kommunikativ-tashkiliy modul o‘quvchilar, mentor, maktab jamoasi va amaliyot rahbari bilan hamkorlikni tashkil etishni nazarda tutadi.

Refleksiv-diagnostik modul esa faoliyatga oid dalillarni to‘plash, kamchiliklarning sabablarini aniqlash va keyingi faoliyat rejasini tuzishga yo‘naltiriladi.

Tashkiliy-jarayonli blok besh bosqichdan iborat: diagnostik-tayyorgarlik, loyihalash, faoliyatni amalga oshirish, monitoring-refleksiya va korreksiya-transfer.

Diagnostik-tayyorgarlik bosqichida talabaning avvalgi bilim va ko‘nikmalari, xavfsizlik bo‘yicha tayyorgarligi hamda metodik ehtiyojlari aniqlanadi. Loyihalash bosqichida malakaviy amaliyotda o‘rganilgan texnologik operatsiya o‘quv mavzusi, dars maqsadi, amaliy topshiriq va baholash mezoniga aylantiriladi. Faoliyatni amalga oshirish bosqichida talaba mentor ko‘magida yoki mustaqil ravishda texnologik va pedagogik vazifalarni bajaradi. Monitoring-refleksiya bosqichida kuzatuv varaqasi, video yoki fotodalillar, mahsulot namunasi, o‘quvchilar ishlari va talabaning refleksiv tahliliga tayaniladi. Korreksiya-transfer bosqichida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun yangi usul tanlanadi va u keyingi kasbiy vaziyatga ko‘chiriladi.

Amaliyotlar uzviyligini ta'minlovchi metodik sikl



1-rasm: **Malakaviy va pedagogik amaliyotlar uzviyligini ta’minlashning jarayonli mexanizmi**

Modelda topshiriqlarni kurslar va amaliyot bosqichlari bo‘yicha spiralsimon tarzda murakkablashtirish nazarda tutiladi. Dastlab talaba tayyor texnologik yo‘riqnoma va dars kuzatuvi asosida tahlil olib boradi; keyingi bosqichda operatsiya kartasi, xavfsizlik yo‘riqnomasi va o‘quv topshirig‘ini moslashtiradi; undan so‘ng muammoli yoki loyihaviy dars fragmentini ishlab chiqadi; yakuniy bosqichda esa to‘liq dars yoki mashg‘ulotni mustaqil rejalashtiradi, o‘tkazadi va natijalarni dalillar asosida tahlil qiladi. Shu tariqa bir xil kompetensiya har bir bosqichda yangi murakkablik darajasida namoyon bo‘ladi.

Modelning diagnostik bloki motivatsion-maqsadli, texnologik-amaliy, metodik-loyihaviy, kommunikativ-tashkiliy va refleksiv-tahliliy mezonlarni o‘z ichiga oladi. Har bir mezon uchun kuzatiladigan ko‘rsatkichlar belgilanadi:

- vazifaning maqsadini anglash;
- operatsiyani xavfsiz va aniq bajarish;
- mazmunni o‘quvchining imkoniyatlariga moslashtirish;
- dars jarayonini boshqarish va hamkorlik qilish;
- dalillar asosida o‘z faoliyatini baholash.

Baholash “biladi – bajaradi – asoslaydi – takomillashtiradi” mantiqiy ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi. Bunda yakuniy mahsulotning sifati bilan bir qatorda qaror qabul qilish jarayoni ham e’tiborga olinadi. Natijaviy blokda talabaning integrativ kasbiy kompetentligi boshlang‘ich, reproduktiv, produktiv va transformativ darajalarda tavsiflanadi. Boshlang‘ich darajada talaba vazifani ko‘rsatma asosida bajaradi, ammo texnologik va metodik qarorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘liq tushuntira olmaydi. Reproduktiv darajada talaba mavjud namuna va algoritmni to‘g‘ri qo‘llaydi. Produktiv darajada sharoitga mos usulni tanlaydi va uni asoslaydi. Transformativ darajada esa yangi vaziyat uchun muqobil yechim ishlab chiqadi, uning pedagogik va texnologik oqibatlarini oldindan baholaydi hamda o‘z tajribasini keyingi faoliyatga ko‘chira oladi.

Taklif etilgan model tajribaviy ta’limning “tajriba – refleksiya – konseptuallashtirish – yangi sinov” sikliga mos keladi [5]. Biroq texnologik ta’lim kontekstida ushbu sikl ikki qatlamli xususiyatga ega: talaba avval texnologik faoliyatni bajaradi, keyin esa ushbu faoliyatni o‘qitish mazmuni va metodi sifatida qayta loyihalaydi. Demak, refleksiya faqat “ishni qanday bajardim?” savoliga emas, balki “bu jarayonni o‘quvchi uchun qanday tushunarli, xavfsiz va rivojlantiruvchi faoliyatga aylantiraman?” savoliga ham javob berishi lozim. Shulman tomonidan

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

asoslangan pedagogik mazmun bilimlari o‘qituvchining fan mazmunini o‘quvchi tushunadigan shaklga aylantira olish qobiliyatini markaziy kasbiy qobiliyat sifatida ko‘rsatadi [7].

Texnologik ta’limda mazkur qobiliyat tarkibiga material xususiyatlarini tushuntirish, operatsiyani vizual va bosqichma-bosqich namoyish etish, xatolar xavfini oldindan ko‘ra bilish, xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish va o‘quv mahsulotining sifat mezonlarini sodda tilda ifodalash kiradi. Mishra va Koehlerning TPACK modeli esa raqamli vositalardan foydalanish faqat texnik mahoratning o‘zi emas, balki mazmun, pedagogika va texnologiyaning o‘zaro muvofiqligiga asoslangan faoliyat ekanligini ko‘rsatadi [8]. Shuning uchun modelda raqamli monitoring vositalari alohida maqsad emas, balki dalillarni to‘plash, qayta aloqani ta’minlash va refleksiyani kuchaytiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Modelda uzviylik kalendar ketma-ketligi bilan emas, balki maqsadlar, topshiriqlar, dalillar va baholash mezonlarining izchil rivojlanishi orqali ta’minlanadi. Malakaviy amaliyotda tayyorlangan texnologik xarita, mahsulot yoki xavfsizlik tahlili pedagogik amaliyotda dars mazmuni, o‘quv topshirig‘i va baholash rubrikasiga aylantiriladi. Modelni joriy etishda uchta tashkiliy shart muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, oliy ta’lim tashkiloti, maktab va amaliyot bazasi topshiriqlar hamda baholash mezonlarini birgalikda kelishib olishi kerak.

Ikkinchidan, mentorlar talabaning ishini faqat nazorat qiluvchi emas, balki uning kasbiy mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantiruvchi hamkor sifatida tayyorlanishi zarur.

Uchinchidan, dalillarni to‘plash tizimi sodda, xavfsiz va maxfiylik talablariga mos bo‘lishi lozim. Aks holda, raqamli hisobot mazmuniy refleksiyani cheklab, formal yuklamaga aylanishi mumkin.

Tadqiqot konseptual model bilan cheklanganligi sababli, uning samaradorligi keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi zarur. Bunda tajriba va nazorat guruhlarida integrativ kompetensiyaning rivojlanish dinamikasi, mentor qayta aloqasining sifati, talaba refleksiyasining chuqurligi hamda amaliyot topshiriqlarini bajarish barqarorligi qiyosiy o‘rganilishi mumkin. Natijalarni faqat umumiy ball asosida emas, balki mezonlar kesimidagi o‘zgarishlar va amaliy faoliyat dalillari asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligi ularni bir jadvalga joylashtirish yoki ketma-ket o‘tkazish bilangina ta’minlanmaydi. Mazkur uzviylik umumiy kasbiy natija, spiralsimon tarzda murakkablashib boradigan topshiriqlar, yagona dalillar tizimi, mentorlik va refleksiv baholash orqali shakllanadi. Ishlab chiqilgan metodik model maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-jarayonli, diagnostik va natijaviy bloklarning o‘zaro aloqasiga tayanadi.

Modelda malakaviy amaliyotda o‘zlashtirilgan texnologik tajriba pedagogik amaliyotda didaktik mazmunga aylantiriladi, pedagogik amaliyotda aniqlangan metodik ehtiyojlar esa keyingi texnologik tayyorgarlik vazifalarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Natijada ikki amaliyot turi bir-birini takrorlamaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi. Ushbu yondashuv talabaning mahsulot yaratish, o‘rgatish, baholash va o‘z faoliyatini takomillashtirish qobiliyatlarini yagona kasbiy sikl doirasida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://www.lex.uz/uz/docs/-5013007#-5014174
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/4749364
3. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
4. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
5. Shulman L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, No. 2. – P. 4–14. – DOI: 10.3102/0013189X015002004.
6. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054. – DOI: 10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x.
7. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.
8. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – DOI: 10.2760/159770.
9. Darling-Hammond L. Constructing 21st-Century Teacher Education // Journal of Teacher Education. – 2006. – Vol. 57, No. 3. – P. 300–314. – DOI: 10.1177/0022487105285962.
10. Nicol D. J., Macfarlane-Dick D. Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice // Studies in Higher Education. – 2006. – Vol. 31, No. 2. – P. 199–218. – DOI: 10.1080/03075070600572090.

NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNI TARBIYALAYOTGAN OILALARGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



Umarova Umidaxon Ibaydullayevna
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Andijon viloyati Paxtaobod tumani
“inson” ijtimoiy xizmatlar markazi ijtimoiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Biopsixososial yondashuv, L. S. Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqson nazariyasi hamda U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi asosida nogironligi bo‘lgan bolalarning psixologik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, oilaning bolaning psixik rivojlanishidagi o‘rni, ota-onalarga kompleks psixologik yordam ko‘rsatishning ahamiyati, oilaviy tarbiya uslublari hamda korreksion-pedagogik yondashuvlarning ilmiy-amaliy jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari nogironligi bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishda oilaga yo‘naltirilgan yondashuvning muhimligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: nogironligi bo‘lgan bolalar, ijtimoiy-psixologik yordam, biopsixososial yondashuv, oila, korreksion pedagogika, maxsus psixologiya, birlamchi va ikkilamchi nuqson, psixologik rivojlanish, ekologik tizimlar nazariyasi, oilaga yo‘naltirilgan yondashuv.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of providing socio-psychological support to families raising children with disabilities. Based on the biopsychosocial approach, L. S. Vygotsky’s theory of primary and secondary disabilities, and U. Bronfenbrenner’s ecological systems theory, the study analyzes the factors influencing the psychological development of children with disabilities. Particular attention is paid to the role of the family in a child’s psychological development, the importance of comprehensive psychological support for parents, family parenting styles, and correctional-pedagogical approaches. The findings emphasize that a family-centered approach is a key prerequisite for improving the support system for children with disabilities and their families.

Key words: children with disabilities, socio-psychological support, biopsychosocial approach, family, special education, special psychology, primary and secondary disability, psychological development, ecological systems theory, family-centered approach.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы оказания социально-психологической помощи семьям, воспитывающим детей с инвалидностью. На основе биопсихосоциального подхода, теории первичного и вторичного дефекта Л. С. Выготского, а также экологической теории систем У. Бронфенбреннера раскрываются факторы, влияющие на психологическое развитие детей с инвалидностью. Особое внимание уделяется роли семьи в психическом развитии ребенка, значению комплексной психологической поддержки родителей, особенностям семейного воспитания и коррекционно-педагогическим подходам. Полученные результаты подтверждают, что семейно-ориентированный подход является одним из ключевых условий совершенствования системы поддержки детей с инвалидностью и их семей.

Ключевые слова: дети с инвалидностью, социально-психологическая помощь, биопсихосоциальный подход, семья, коррекционная педагогика, специальная психология, первичный и вторичный дефект, психологическое развитие, экологическая теория систем, семейно-ориентированный подход.

KIRISH

Zamonaviy maxsus psixologiya va korreksion pedagogika fanida rivojlanishida turli xil cheklovlarga ega bo‘lgan bolalarning ruhiy dunyosini chuqur o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday bolalarning psixik faoliyati sog‘lom rivojlanayotgan tengdoshlarinikidan tubdan farq qilmasa-da, ularning shakllanish jarayoni

o‘ziga xos qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Ushbu qonuniyatlarni ilmiy asosda tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy – ta’lim, tarbiya va reabilitatsiya ishlarini to‘g‘ri tashkil etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda psixologiya fanida nogironlik muammosini konseptual talqin etishda tub paradigmatik siljish kuzatilmoqda. An’anaviy tibbiy model doirasida nogironlik individning organik yoki funksional nuqsoni, ya’ni patologik hodisa sifatida qaralgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yilliklarda ushbu yondashuv o‘zining metodologik cheklovlarini namoyon qildi.

Nogironlikni faqat biologik substrat darajasida tushuntirish shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanish dinamikasini, uning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonlarini hamda kompensatsion imkoniyatlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Bu borada biopsixososial model nisbatan yaxlit va integrativ nazariy asos sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu model doirasida nogironlik biologik, psixologik va ijtimoiy determinantlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida talqin etiladi. Bunda har bir komponent boshqalariga ta’sir ko‘rsatadi va ulardan ta’sirlanadi. Demak, nogironligi bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishini tadqiq etishda ushbu uch omilning integrativ tahlili metodologik zaruratga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlash hamda ushbu bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga kompleks ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish tizimi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammo bir qancha fanlar – ijtimoiy ish, psixologiya, korreksion pedagogika va sotsiologiya tutashuvida kompleks o‘rganilishini talab etadi. Oilaga yo‘naltirilgan yondashuv (Family-Centered Approach) zamonaviy ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish tizimining tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilar (G. M. Andreyeva, A. I. Zaxarov, V. V. Tkacheva) o‘z ishlarida ta’kidlashicha, imkoniyati cheklangan bolaning dunyoga kelishi yoki unda nogironlikning aniqlanishi oila mikromuhitida kuchli psixologik inqiroz va distress holatini yuzaga keltiradi [1]. Mazkur psixotravmatik vaziyat ota-onalarda emotsional sohaning deformatsiyalanishiga, xavotirlanish darajasining ortishiga hamda ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi [2]. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda asosiy e’tibor faqatgina bolaga emas, balki butun oila tizimiga (Family Systems Theory) yordam ko‘rsatish zarurligiga qaratiladi [3].

Ijtimoiy-psixologik ko‘mak berishning metodologik asoslari qatorida S. L. Rubinshteyn va L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi hamda defektologik nazariyalari alohida o‘rin tutadi [4].

L. S. Vigotskiyning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar haqidagi ta’limotiga tayanib, ko‘plab olimlar ota-onalarda adekvat psixopedagogik pozitsiyani shakllantirish bolaning ikkilamchi ijtimoiy-ruhiy orqada qolishining oldini olishda hal qiluvchi omil ekanligini isbotlaganlar [5].

Xalqaro tajriba va xorijiy tadqiqotlar tahlili (U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi) shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan bolasi bor oilalarni qo‘llab-quvvatlash mikrotizim (oila), mezotizim (ta’lim va tibbiyot muassasalari) hamda makrotizim (davlat ijtimoiy siyosati) darajasida integratsiyalashgan bo‘lishi lozim [6].

Zamonaviy tadqiqotlarda ota-onalardagi emotsional charchash (burnout) sindromini bartaraf etish, ularning resurs imkoniyatlarini faollashtirish hamda inkluziv savodxonligini oshirish masalalari yetakchi o‘ringa chiqmoqda [7].

O‘zbekistonlik olimlar va amaliyotchi mutaxassislar (G. B. Shoumarov, M. G. Davletshin, F. U. Qodirova va boshqalar) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oiladagi psixologik iqlimni sog‘lomlashtirish, milliy qadriyatlar va an’anaviy omillarni inobatga olgan holda ota-onalarga psixologik konsultativ xizmatlarni tashkil etish mexanizmlari yoritilgan [8].

Shuningdek, so‘nggi yillardagi manbalarda maxsus ehtiyojli bolalari bor oilalarga vaqtinchalik parvarish (Respite Care) xizmatlarini ko‘rsatish hamda interaktiv va raqamli texnologiyalar vositasida masofaviy psixopedagogik ko‘mak berishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilmoqda [9, 10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini nogironligi bo‘lgan bolasi bor oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish tizimini kompleks tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti ushbu oilalar hamda ularga ko‘mak beruvchi ijtimoiy-psixologik muassasalardan iborat.


Tadqiqot konsepsiyasi U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi, L. S. Vigotskiyning defektologik nazariyasi hamda oilaga yo‘naltirilgan yondashuv (Family-Centered Approach) konsepsiyasiga tayanadi. Imkoniyati cheklangan bolaning aka-uka yoki opa-singillari ham oilaviy vaziyat ta’sirini bevosita his etadilar. Ota-onaning e’tibori asosan nogironligi bo‘lgan bolaga qaratilishi natijasida sog‘lom farzandlarda e’tiborsizlik hissi yuzaga kelishi, ayrim hollarda ularga ortiqcha mas’uliyat yuklanishi, kamdan kam hollarda esa, aksincha,

chuqur empatiya va ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishi kuzatiladi. Shu sababli oilaviy psixologik yordam dasturlari nafaqat nogironligi bo‘lgan bolaga, balki oilaning barcha a'zolariga, jumladan, sog‘lom farzandlarga ham qaratilishi lozim.

Bunday bolalarni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan tarbiya uslubi bolaning psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Amaliyotda quyidagi nofunksional tarbiya uslublari uchraydi:

- giperopeka (ortiqcha himoya) – bolaning mustaqilligini cheklovchi va uning imkoniyatlarini past baholovchi tarbiya uslubi;
- rad etish yoki emotsional sovuqlik – bolaning ehtiyojlariga e'tiborsizlik bilan bog‘liq tarbiya uslubi;
- nomuvofiq (ziddiyatli) tarbiya – talablarning izchil emasligi natijasida bolada ishonchsizlikning shakllanishiga olib keluvchi tarbiya uslubi.

Bunga qarama-qarshi o‘laroq, muvozanatli tarbiya uslubi – bolaning mustaqilligini rag‘batlantiruvchi, ammo zarur hollarda uni qo‘llab-quvvatlovchi yondashuv – bolaning kompensatsion imkoniyatlarini faollashtirish hamda o‘zini o‘zi qadrlashni shakllantirish uchun eng qulay sharoit yaratadi.



1-rasm: **Nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalashda oilaviy tarbiya uslublari**

TAHLIL VA NATIJALAR

Biopsixososial yondashuvning nazariy ildizlari tizimli tafakkur va ekologik paradigma bilan uzviy bog‘liq. Ushbu model doirasida inson organizmi yopiq, izolyatsiyalangan tizim emas, balki ko‘p darajali (biologik, psixologik, ijtimoiy) tizimlarning o‘zaro ta'siri natijasida funksiyalanuvchi murakkab struktura sifatida talqin etiladi. Ushbu kontekstda L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, xususan, uning defekt tuzilishi haqidagi g‘oyalari alohida ahamiyatga ega. Vigotskiy nogironlikni “birlamchi nuqson” va undan kelib chiquvchi “ikkilamchi og‘ishlar” nuqtai nazaridan tahlil qilib, ikkilamchi og‘ishlarning aynan ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida shakllanishini, demak, ularning tuzatilishi ham ijtimoiy vositalar orqali amalga oshirilishi mumkinligini asoslab bergan. Mazkur g‘oya biopsixososial modelning metodologik negizini tashkil etadi.

Shuningdek, U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi bola rivojlanishini mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlar darajasida tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa nogironligi bo‘lgan bolaning ijtimoiy muhit bilan ko‘p qatlamli o‘zaro ta'sirini yaxlit tarzda konseptuallashtirishga xizmat qiladi. Nogironlikni biopsixososial yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganishda psixologik komponent alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan shu daraja biologik nuqson bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi “vositachi” pozitsiyasini egallaydi.

Biologik omillarning shaxs rivojlanishiga qanday ta'sir ko‘rsatishi ko‘p jihatdan bolaning psixologik resurslari – uning kognitiv salohiyati, emotsional barqarorligi, o‘zini o‘zi anglash darajasi va kompensatsion imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli nogironligi bo‘lgan bolalar psixologiyasini tadqiq etishda psixologik komponentning tarkibiy tuzilishi va uning dinamik xususiyatlarini alohida, mustaqil tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarda kognitiv jarayonlarning (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq) rivojlanishi bir tekis emas, balki notekis va o‘ziga xos qonuniyatlar asosida kechadi. Bunda muhim jihat shundaki, kognitiv rivojlanishdagi og‘ishlar ko‘pincha bevosita birlamchi nuqson bilan emas, balki bolaning bilish faoliyatiga bo‘lgan motivatsion munosabati, o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatsizlik tajribasi hamda atrofdagilarning past baholashga

asoslangan munosabati bilan bog‘liq holda kuchayadi. Bu esa kognitiv rivojlanishni faqat neyropsixologik emas, balki psixologik-motivatsion nuqtai nazardan ham tahlil qilish zaruratini ko‘rsatadi.

Emotsional-irodaviy soha nogironligi bo‘lgan bolalar psixologik rivojlanishining eng nozik va zaif jihatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bolalarda ko‘pincha quyidagi emotsional holatlar kuzatiladi: ortiqcha tashvishlanish va ishonchsizlik hissi; o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi; muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish natijasida faoliyatdan qochish tendensiyasi; ayrim hollarda himoya mexanizmi sifatida namoyon bo‘luvchi agressivlik yoki, aksincha, ijtimoiy izolyatsiyaga moyillik. Irodaviy sifatlar, xususan, maqsadga yo‘nalganlik va qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyati ko‘p jihatdan bolaning atrofidagi kattalar tomonidan qanday qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq bo‘ladi. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik-psixologik muhitda irodaviy sifatlar kompensatsion resurs sifatida faol rivojlanishi mumkin. Psixologik komponentning markaziy elementlaridan biri bolaning o‘z nuqsoniga nisbatan shakllantirgan subyektiv munosabatidir. Ushbu munosabat bola tomonidan tug‘ma tarzda emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida, avvalo, oila va yaqin muhitning reaksiyalari asosida shakllanadi. Nuqsonga nisbatan adekvat munosabatning shakllanishi bolada barqaror va ijobiy o‘zini o‘zi qadrlash tizimini yuzaga keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy faollik va o‘quv motivatsiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Aksincha, nuqsonga nisbatan salbiy yoki og‘riqli munosabat past o‘zini o‘zi qadrlash, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy izolyatsiyaga moyillikni keltirib chiqarishi mumkin.

Birlamchi va ikkilamchi nuqson nazariyasi. Modomiki, maxsus psixologiya haqida so‘z yuritilar ekan, uning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan, L. S. Vigotskiy tomonidan asos solingan “Birlamchi va ikkilamchi nuqson nazariyasi”ni zikr qilish joiz. Birlamchi nuqson, qoida tariqasida, organik yoki biologik sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Masalan, eshitish analizatorining shikastlanishi, ko‘rish qobiliyatining pasayishi yoki markaziy asab tizimining organik zararlanishi shular jumlasidandir. Bunday nuqson bevosita biologik jarayonning natijasi bo‘lib, tibbiy aralashuv doirasida qisman tuzatilishi mumkin. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, birlamchi nuqsonning o‘zi bolaning butun psixik rivojlanishini belgilab bermaydi. Nuqsonning tuzilishi faqat shikastlangan biologik tizimlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan alomatlar bilan cheklanmaydi. Balki oliy psixik funksiyalarning hamda xulq-atvorning ijtimoiy tomonining yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy nuqson bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ammo u tomonidan shartlangan ikkilamchi og‘ishlar sifatida qaraladi.

Boshqacha aytganda, ikkilamchi og‘ishlar bolaning muloqot doirasining torayishi, ijtimoiy tajribaning yetishmasligi va noto‘g‘ri tarbiyaviy muhit ta’sirida shakllanadi, ya’ni ular ijtimoiy-psixologik kelib chiqishga ega. Birlamchi nuqson odatda biologik omillar ta’sirida yuzaga keladi, ikkilamchi og‘ish esa birlamchi nuqson ta’sirida paydo bo‘ladigan buzilish hisoblanadi hamda psixik funksiyalarning rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni anglatadi. Ushbu qarash maxsus psixologiya va maxsus pedagogika uchun markaziy ahamiyatga ega bo‘lgan funksiyalarni kompensatsiyalash muammosini yuzaga keltiradi. Muhimi shundaki, ikkilamchi og‘ishlar birlamchi nuqsondan farqli o‘laroq, to‘g‘ri tashkil etilgan korreksion-pedagogik ta’sir orqali oldini olish yoki yumshatish mumkin bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Zero, maxsus tarbiyaning umumiy tarbiya vazifalari bilan bog‘liqligi, uning ijtimoiy vazifalarga bo‘ysunishi va o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi qoida aynan shu nuqtadan kelib chiqadi. Bu esa amaliy pedagogika uchun muhim xulosa beradi: mutaxassislarning asosiy e’tibori faqat birlamchi organik nuqsonni “tuzatish”ga emas, balki ikkilamchi og‘ishlarning oldini olish va ularni kompensatsiya qilishga qaratilishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, L. S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, nogironlikning psixologik oqibatlari bevosita birlamchi (organik) nuqsondan emas, balki uning ijtimoiy sharoitlar bilan o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi. Aynan shu jarayonda psixologik komponent hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar bola o‘z nuqsoni sababli tizimli tarzda muvaffaqiyatsizlikka duchor bo‘lsa va bu holat salbiy baholash orqali mustahkamlansa, ikkilamchi psixologik og‘ishlar (masalan, o‘quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabat, ijtimoiy chekinish, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik) shakllanadi. Bunday og‘ishlar, aslida, birlamchi nuqsonning o‘zidan ko‘ra bolaning keyingi rivojlanishiga ko‘proq salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nuqson turlariga xos xususiyatlar shuni ko‘rsatadiki, “nogironligi bo‘lgan bola” degan umumlashtirilgan tushuncha ortida, aslida, bir-biridan sezilarli darajada farq qiluvchi psixologik holatlar mavjud. Shu sababli har qanday korreksion-pedagogik yoki psixologik dastur nuqsonning turi, chuqurligi, yuzaga kelish vaqti, shuningdek, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan bolani tarbiyalayotgan oilalarda yuzaga keluvchi psixologik-ijtimoiy muammolar ko‘p qatlamli va murakkab xususiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat ota-onalarning, balki bolaning o‘zining psixologik rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oilani biopsixososial tizimning ajralmas qismi sifatida qarash hamda unga qaratilgan kompleks psixologik-ijtimoiy yordamni tashkil etish nogironligi bo‘lgan bolalarning muvaffaqiyatli psixologik rivojlanishini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ткачева В. В. Технологии психологической помощи семьям детей с отклонениями в развитии: учеб. пособие. – М.: АСТ; Астрель, 2007. – 318 с.
2. Выготский Л. С. Собрание сочинений: в 6-ти т. Т. 5. Основы дефектологии / Под ред. Т. А. Власовой. – М.: Педагогика, 1983. – 368 с.
3. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
4. Андреева Г. М. Социальная психология: учебник для высших учебных заведений. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.
5. Мамайчук И. И. Психологическая помощь детям с проблемами в развитии. – СПб.: Речь, 2008. – 224 с.
6. Шоумаров Г. Б. Оила психологияси: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 296 б.
7. Шипицына Л. М. Необучаемый ребенок в семье и обществе. Социализация детей с нарушениями интеллекта. – СПб.: Дидактика Плюс, 2005. – 477 с.
8. Қодирова Ф. У. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. – Тошкент: Фан ва технология, 2018. – 184 б.
9. Turnbull A., Turnbull R., Erwin E. J., Soodak L. C., Shogren K. A. Families, Professionals, and Exceptionality: Positive Outcomes Through Partnerships and Trust. 7th ed. – Boston: Pearson, 2015. – 432 p.

CHIZMACHILIK DARSLARIDA ANIMATSIYALI MODELLARNI QO'LLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xo'janiyozov Shokir Rustamovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada chizmachilik fanini o'qitish jarayonida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda vizuallashtirish texnologiyalarining o'rni ortib borayotganligi sababli grafik fanlarni o'zlashtirishda dinamik tasvirlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda animatsiyali modellar o'quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishi, murakkab geometrik shakllarni anglashni osonlashtirishi hamda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, o'quv jarayonida animatsion vositalardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, mustaqil fikrlashini faollashtirishi va grafik kompetensiyasini shakllantirish uchun samarali pedagogik sharoit yaratishi aniqlangan. Maqolada chizmachilik darslarida animatsion vositalardan samarali foydalanishga oid metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: chizmachilik, animatsiyali model, vizual ta'lim, grafik kompetensiya, fazoviy tafakkur, pedagogik texnologiya, raqamli ta'lim vositalari, 3D modellashtirish, interaktiv o'qitish, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of using animated models in teaching engineering graphics. In modern education, visualization technologies play an increasingly important role; therefore, dynamic visual representations are essential for the effective learning of graphic disciplines. The study substantiates that animated models contribute to the development of students' spatial thinking, facilitate the understanding of complex geometric forms, and help transform theoretical knowledge into practical skills. The research also demonstrates that the use of animation-based tools increases students' learning motivation, promotes independent thinking, and creates favorable pedagogical conditions for the development of graphic competence. Methodological recommendations for the effective integration of animated tools into engineering graphics lessons are also proposed.

Key words: engineering graphics, animated model, visual learning, graphic competence, spatial thinking, pedagogical technology, digital learning tools, 3D modeling, interactive learning, learning effectiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы применения анимационных моделей в процессе преподавания черчения. В условиях цифровизации образования возрастает роль средств визуализации, поэтому использование динамических изображений способствует более эффективному усвоению графических дисциплин. Обосновано, что анимационные модели развивают пространственное мышление обучающихся, облегчают понимание сложных геометрических форм и способствуют переходу от теоретических знаний к практическим навыкам. Установлено, что применение анимационных средств повышает учебную мотивацию обучающихся, активизирует самостоятельное мышление и создаёт благоприятные педагогические условия для формирования графической компетентности. В работе предложены методические рекомендации по эффективному использованию анимационных средств на уроках черчения.

Ключевые слова: черчение, анимационная модель, визуальное обучение, графическая компетентность, пространственное мышление, педагогическая технология, цифровые образовательные средства, 3D-моделирование, интерактивное обучение, эффективность обучения.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o'quv jarayonini vizuallashtirish va interaktiv metodlar asosida tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnik va grafik fanlarni o'qitishda an'anaviy tushuntirish-uslubiy yondashuvlar ko'pincha murakkab fazoviy shakllarni to'liq anglash imkonini bermaydi. Natijada o'quvchilarda buyumning fazodagi holatini tasavvur qilish, proyeksiyalarni o'zaro bog'lash va chizmalarni o'qish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaydi. Shu sababli chizmachilik fanini o'qitishda zamonaviy vizual vositalardan foydalanish dolzarb pedagogik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chizmachilik fani o'quvchilarning fazoviy tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va konstruktorlik qobiliya-

tini rivojlantiruvchi asosiy umumtexnik fanlardan biridir. Ushbu fan nafaqat chizma chizish malakasini, balki real buyumni tasavvur qilish, uning geometrik tuzilishini tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash kompetensiyasini ham shakllantiradi. Biroq ikki o'lchamli tasvir orqali uch o'lchamli obyektni tushuntirish jarayonida ko'plab o'quvchilar qiyinchilikka duch keladilar. Ayniqsa, kesimlar, qirqimlar, aksonometrik tasvirlar va murakkab detallarni o'rganishda fazoviy tasavvurning yetarli darajada shakllanmaganligi o'qitish samaradorligini pasaytiradi.

Mazkur muammoni hal etishda animatsiyali modellar muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Harakatlanuvchi uch o'lchamli tasvirlar orqali buyumning shakli, tuzilishi va hosil bo'lish jarayonini bosqichma-bosqich ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'quvchilarning idrok etish jarayonini faollashtiradi, murakkab grafik tushunchalarni sodda va aniq ko'rinishda anglashga yordam beradi hamda nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmalarga aylanishini tezlashtiradi. Animatsiya yordamida o'quvchi nafaqat tayyor chizmalarni ko'radi, balki obyektning qanday hosil bo'lishini ham kuzatadi. Bu esa fazoviy tafakkur va analitik fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, animatsion modellarni qo'llash o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlantiradi va interaktiv ta'lim muhitini yaratadi. Raqamli pedagogika sharoitida o'quv materialining dinamik tarzda taqdim etilishi bilimlarni uzoq muddat eslab qolishga xizmat qiladi hamda o'quvchilarning individual o'zlashtirish sur'atini hisobga olish imkonini beradi. Shu jihatdan animatsiyali modellar chizmachilik darslarida grafik kompetensiyani shakllantirishning samarali metodik vositasi sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi va grafik tafakkurni rivojlantirish muammolari ko'plab pedagog hamda muhandis-olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: an'anaviy muhandislik grafikasi metodikasi, vizuallashtirish va fazoviy tafakkur psixologiyasi hamda raqamli va animatsion texnologiyalar asosidagi zamonaviy o'qitish yondashuvlari. Avvalo, muhandislik grafikasi metodikasiga oid klassik adabiyotlarda chizmachilikni o'qitishning didaktik asoslari ishlab chiqilgan.

Masalan, R.S. Xudoyberdiyevning "Chizmachilikni o'qitish metodikasi" asarida grafik bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish, proyeksiyalar o'rtasidagi bog'lanishni tushuntirish va ko'rgazmali vositalardan foydalanishning ahamiyati keng yoritilgan. Muallif o'quvchilarda fazoviy tasavvurning yetarli darajada shakllanmaganligi chizmalarni o'qishdagi asosiy muammolardan biri ekanini ta'kidlaydi va real buyum modellari hamda tasviriy vositalardan foydalanishni tavsiya etadi.

Shuningdek, A.A. Chumakovning "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi" nomli ishida grafik fanlarni o'qitishda o'quvchining tasavvur jarayonini faollashtirish asosiy pedagogik shart sifatida ko'rsatiladi. Unda kesim va qirqimlarni o'rganishda oddiy rasmlar yetarli bo'lmasligi, o'quvchi predmetni harakatda tasavvur qila olishi zarurligi qayd etiladi.

Muhandislik grafikasi nazariyasiga oid fundamental manbalardan biri I.S. Vishnepolskiyning "Muhandislik grafikasi" darsligi bo'lib, unda proyeksiyalash qonuniyatlari, geometrik shakllarning hosil bo'lishi va tasvirlash usullari tizimli ravishda bayon etilgan. Mazkur adabiyot grafik bilimlarning nazariy asoslarini yoritadi, biroq o'quvchilar tomonidan murakkab shakllarni idrok etishda qo'shimcha vizual vositalardan foydalanish zaruratini ham ko'rsatadi.

N.A. Chekmaryovning "Tasviriy geometriya va chizmachilik" asarida esa chizmalarni o'qish jarayonida fazoviy tasavvur va mantiqiy tahlil o'zaro bog'liq jarayonlar ekanligi asoslab beriladi. Muallif geometrik obyektni faqat statik tasvir orqali tushunish qiyinligini, o'quvchi ongida aniq obraz hosil qilish uchun ko'rgazmalilikni kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi. Grafik bilimlarni o'zlashtirishning psixologik jihatlari pedagogika va kognitiv psixologiya sohalarida ham keng o'rganilgan.

J. Brunerning "Ta'lim jarayoni" asarida bilimni harakatli, obrazli va ramziy bosqichlarda o'zlashtirish nazariyasi bayon qilingan. Ushbu nazariyaga ko'ra, murakkab fazoviy tushunchalar dastlab ko'rgazmali va amaliy faoliyat orqali anglanadi. Shu nuqtayi nazardan, grafik fanlarda animatsiyadan foydalanish o'quv materialini idrok etish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida qaralishi mumkin.

R. Mayerning multimedia asosida o'qitishga oid tadqiqotlarida matn va vizual axborotni pedagogik jihatdan muvofiqlashtirib taqdim etish o'quv materialini tushunishga yordam berishi asoslangan. Xususan, murakkab jarayonlarni tushuntirishda animatsiya va boshqa dinamik vizual vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish o'quvchilarning kognitiv faoliyatini qo'llab-quvvatlashi mumkin. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar asosida o'qitish masalalari ham keng yoritilmoqda.

V.P. Bespalkoning "Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari" asarida o'quv materialini modellashtirish va algoritmlashtirish samarali o'qitishning muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi. Animatsion modellar ushbu modellashtirish jarayonini vizual shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

N.F. Talyzinaning o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga bag‘ishlangan ishlarida bilim va ko‘nikmalarni izchil faoliyat asosida egallash masalalari yoritilgan. Mazkur yondashuv obyektning shakllanishi yoki o‘zgarish jarayonini bosqichma-bosqich namoyish etuvchi animatsiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini asoslashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Grafik fanlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish masalasi L.N. Anisimovning “Ta’limda kompyuter grafikasi” ishida ko‘rib chiqilgan. Muallif 3D modellar bilan ishlash o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, A.M. Stolyarovning “Muhandislik ta’limida 3D modellashtirishdan foydalanish” tadqiqotida uch o‘lchamli modellarni aylantirish, kesish va transformatsiya qilish imkoniyatlari grafik tushunchalarni vizual va amaliy jihatdan anglashga yordam berishi yoritilgan. Bunday yondashuv statik chizmadan dinamik modelga o‘tish orqali o‘quvchilarning obyekt tuzilishi va uning fazoviy xususiyatlari haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham vizual vositalarning ahamiyati alohida qayd etilgan. M. Ochilovning “Pedagogik texnologiyalar” kitobida interaktiv va multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga, ayniqsa, texnik fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmalilikni kuchaytirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan. U. Tolipov va M. Usmonboyevalarning “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot” asarida esa axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanib, ularning o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirishdagi ahamiyati ta’kidlangan. Tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina tadqiqotlarda chizmachilikni o‘qitishda ko‘rgazmalilikning zarurligi e’tirof etilgan hamda 3D modellashtirishning didaktik imkoniyatlari alohida qayd etilgan. Biroq animatsiyali modellarni aynan chizmachilik darslarida tizimli metodika asosida qo‘llash, grafik kompetensiyani shakllantirishdagi pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda o‘quv faoliyatiga ta’sirini baholash masalalari yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Shu sababli animatsiyali modellarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu muammoni ilmiy-metodik jihatdan yoritishga qaratilgan.

Chizmachilik darslarida animatsiyali modellardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. Animatsiyali modellar o‘quvchilarga geometrik jismlar, ularning proyeksiyalari, kesim va qirqimlari hamda detallar yig‘ilishini vizual tarzda tushuntirishga xizmat qiladi. Bunday modellarni yaratish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish uchun turli maxsus dasturiy vositalar mavjud. Quyida chizmachilik darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan asosiy dasturlar tavsiflanadi.

AutoCAD – ikki va uch o‘lchamli chizmalar hamda modellarni yaratishga mo‘ljallangan professional CAD dasturidir. Dastur yordamida o‘quvchilar 2D chizmalarni yaratishi, 3D modellar hosil qilishi, shuningdek, obyektlarning kesim va qirqimlarini vizual tarzda ko‘rishi mumkin. Chizmachilik darslarida AutoCADdan foydalanish o‘quvchilarga chizmani faqat statik tasvir sifatida emas, balki obyektning fazoviy tuzilishi bilan bog‘liq holda tushunish imkonini beradi.

SolidWorks – mexanik detallar va yig‘ma modellarni uch o‘lchamli shaklda yaratish hamda ularning harakatini modellashtirish imkonini beruvchi dasturiy vositadir. Uning yordamida 3D modellar yaratish, obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni belgilash va detallar yig‘ilishini bosqichma-bosqich namoyish etish mumkin. Chizmachilik darslarida SolidWorksdan foydalanish murakkab mexanik jismlarning tuzilishini ko‘rish va tushunishni osonlashtiradi hamda o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Blender – bepul va ochiq kodli dastur bo‘lib, 3D modellashtirish, animatsiya va vizual effektlar yaratish imkonini beradi. Uning yordamida realistik 3D modellar yaratish, obyektlarning harakatini animatsiyalash va turli vizual effektlarni qo‘llash mumkin.

Chizmachilik darslarida Blender o‘quvchilarga murakkab obyektlarni virtual fazoda o‘rganish, ularni turli burchaklardan kuzatish va ichki tuzilishini ko‘rish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar mustaqil ravishda modellar va animatsiyalar yaratish ko‘nikmalarini egallaydilar.


Tinkercad – boshlang‘ich darajadagi foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan onlayn 3D modellashtirish platformasidir. Uning yordamida sodda 3D jismlarni yaratish, ularni birlashtirish va murakkabroq modellar hosil qilish mumkin. Chizmachilik darslarida Tinkercaddan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi, chunki ular har bir detalni bosqichma-bosqich yaratish va obyektning fazoviy tuzilishini vizual tarzda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

SketchUp – uch o‘lchamli modellar yaratish va ularni interaktiv tarzda namoyish etishga mo‘ljallangan dasturiy vositadir. Uning yordamida 3D modellarni nisbatan tez yaratish, obyektlarni turli burchaklardan kuzatish va model bo‘ylab virtual ko‘rinishlarni tashkil etish mumkin. Chizmachilik darslarida SketchUpdan foydalanish o‘quvchilarga modellarni turli rakurslarda ko‘rish, ularning geometrik tuzilishini yaxshiroq anglash va fazoviy tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Animatsiyali modellar – kompyuter texnologiyalari yordamida yaratiladigan, obyekt yoki jarayonni harakat orqali ifodalovchi vizual tasvirlar majmuasidir. Oddiy rasm yoki statik chizma predmetning muayyan holatdagi ko‘rinishini aks ettirsa, animatsiya uning qanday hosil bo‘lishi, o‘zgarishi va qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni vaqt davomida bosqichma-bosqich namoyon etish imkonini beradi. Shu sababli animatsiyali model nafaqat ko‘rgazmali vosita, balki o‘quv materialini tushuntirish va o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida ham qaraladi. Ta’lim jarayonida vizual axborotdan foydalanish o‘quv materialini idrok etish va tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, grafik va texnik fanlarda ko‘plab tushunchalar vizual obrazlar asosida shakllanadi. Chizmachilikda o‘quvchi ikki o‘lchamli chizma asosida uch o‘lchamli buyumni tasavvur qilishi talab etiladi. Bu esa ko‘plab o‘quvchilar uchun murakkab intellektual jarayon hisoblanadi. Animatsiyali modellar ushbu jarayonni yengillashtirish imkonini beradi: obyektni aylantirish, qismlarga ajratish, kesim hosil qilish va qayta yig‘ish jarayonlarini bosqichma-bosqich namoyish etish mumkin. Natijada o‘quvchi obyektning fazoviy tuzilishini faqat tasavvur qilish bilan cheklanmay, uning o‘zgarish jarayonini ham vizual ravishda kuzatadi.

Animatsiyali modellar ko‘pincha 3D fazoda yaratiladi va ular bilan interaktiv ishlash imkoniyati mavjud. O‘quvchi modelni turli tomonlardan ko‘rishi, kattalashtirishi, ichki tuzilishini o‘rganishi, kesuvchi tekislikni harakatlantirish orqali kesimning qanday hosil bo‘lishini kuzatishi mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchining tahliliy va fazoviy tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchi tayyor ma’lumotni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi faol subyektga aylanadi. Shu jihatdan animatsiyali modellardan foydalanish passiv o‘zlashtirishdan faol anglashga o‘tish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Animatsiyaning yana bir muhim jihati – jarayonlarning vaqt bo‘yicha ketma-ketligini ko‘rsatish imkoniyatidir. Ko‘pgina texnik jarayonlarni statik tasvir orqali to‘liq tushuntirish murakkab kechadi. Masalan, detalning hosil bo‘lish ketma-ketligi, proyeksiyalarning shakllanishi yoki mexanizmning ishlash jarayoni oddiy chizmada asosan muayyan holatlar orqali ifodalanadi. Animatsiyada esa harakatlar ketma-ketligi bosqichma-bosqich namoyish etilib, sabab va natija o‘rtasidagi bog‘lanishlarni anglash imkoniyati yaratiladi. Bu o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Quyida animatsiyali modellarning bir nechta namunalari keltirilgan bo‘lib, ularning QR-kodlarini skanerlash orqali grafik obyektlarning harakatini va o‘zgarish jarayonlarini kuzatish mumkin.



1-rasm: **3D detalni qismlarga ajratish va yig‘ish jarayonining animatsion modeli**

2-rasm: **Animatsiyali 3d modelni kuzatish uchun QR-kod**



3-rasm: **Chizmachilik darslarida 3D modelni animatsiyalash jarayoni**

Pedagogik nuqtayi nazardan, animatsiyali modellar bir vaqtning o‘zida bir nechta didaktik funksiyani bajarishi mumkin: o‘quv materialini tushuntirish, ko‘rgazmali namoyish etish, bilimlarni mustahkamlash va o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish. O‘qituvchi murakkab mavzularni vizual vositalar yordamida aniq va tushunarli tarzda izohlashi mumkin. O‘quvchi esa darsdan keyin ham modelni qayta ko‘rib chiqish orqali mavzuni mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘quvchilarning individual o‘zlashtirish sur’atini hisobga olish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Animatsiyadan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi. Harakatdagi tasvirlar o‘quvchilarning diqqatini o‘quv materialiga jalb etish, dars jarayonini jonlantirish va o‘quv faolligini kuchaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli muhitda dinamik vizual materiallardan foydalanish ta’lim mazmunini tushunarli va jozibador shaklda taqdim etishga yordam beradi. Shu sababli animatsiya o‘quv motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlovchi vositalardan biri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Chizmachilik fanida animatsiyali modellarni qo‘llash geometrik jismlarning hosil bo‘lishini ko‘rsatish, proyeksiyalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushuntirish, kesim va qirqimlarni namoyish etish, detallarni yig‘ish jarayonini ko‘rsatish va ularning tuzilishini tahlil qilish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Natijada o‘quvchilarning fazoviy tafakkuri, grafik savodxonligi va konstruktorlik fikrlashini rivojlantirish uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Bunda o‘quvchi chizmani mexanik ravishda yodlash emas, balki uning mazmuni va tuzilishini anglash asosida o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, animatsiyali modellar zamonaviy ta’limning muhim vositalaridan biri bo‘lib, nazariy bilimlar bilan amaliy tasavvurlarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Ulardan maqsadga muvofiq foydalanish o‘quv jarayonining ko‘rgazmaliligi va interaktivligini kuchaytiradi. Ayniqsa, chizmachilik kabi fazoviy tasavvurga asoslangan fanlarda animatsiyali modellar o‘quv materialini tushunish va grafik kompetensiyalarni shakllantirish uchun qo‘shimcha didaktik imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot jarayonida chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo‘llash natijalari an’anaviy o‘qitish usullari bilan qiyoslandi hamda ularning o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga ta’siri tahlil qilindi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, statik chizmalar asosida olib borilgan tushuntirish jarayonida o‘quvchilarning asosiy qiyinchiliklaridan biri tasvir bilan real obyekt o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashda namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, proyeksiyalarni o‘zaro moslashtirish, kesim va qirqimlarni tasavvur qilish hamda detalning fazodagi holatini anglashda qiyinchiliklar kuzatildi. Bu holat ayrim o‘quvchilarning chizmani mexanik ravishda ko‘chirishga moyilligi, biroq uning mazmunini yetarli darajada anglamasligi bilan izohlanishi mumkin. Animatsiyali modellar qo‘llangan darslarda esa o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida muayyan ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Harakat orqali berilgan tasvirlar predmetning hosil bo‘lish jarayonini bosqichma-bosqich namoyish etgani sababli o‘quvchilar chizma elementlari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarni yaxshiroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Masalan, kesuvchi tekislikning harakati namoyish etilganda o‘quvchilar kesim shaklini oldindan taxmin qilishga harakat qildilar, ya’ni natijani ko‘rishdan avval tahliliy fikrlash jarayoniga jalb etildilar. Bu holat o‘quv materialini faqat reproduktiv o‘zlashtirish bilan cheklanmay, uni anglash va tahlil qilishga asoslangan faoliyatning kuchayganini ko‘rsatdi.

Tahlil natijalari animatsiyadan foydalanish nafaqat ko‘rgazmalilikni kuchaytirishi, balki o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirish uchun ham imkoniyat yaratishini ko‘rsatdi. An’anaviy usulda o‘quvchi chizmani ko‘proq tayyor algoritm asosida bajarsa, animatsiyadan foydalanilganda jarayonning mazmunini tushunish va keyingi bosqichni oldindan rejalashtirish imkoniyati kengayadi. Bu holat, ayniqsa, murakkab detallar bilan ishlashda yaqqolroq namoyon bo‘ldi: o‘quvchilar yordamchi chiziqlarni mustaqil tanlashga harakat qildilar va topshiriqlarni bajarish jarayonidagi ayrim xatolar kamaygani kuzatildi. Demak, animatsiyali modellardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishi mumkin.

Shuningdek, animatsiyali modellardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatildi. Dars jarayonida o‘quvchilarning savollari ko‘paydi, ular modelni qayta namoyish etish yoki uni boshqa tomondan ko‘rsatishni so‘radilar. Bu holat o‘quvchilarning oddiy kuzatuvchidan faol o‘rganuvchi va tadqiq qiluvchi subyektga aylanishga intilayotganini ko‘rsatadi. Mustaqil ishlash uchun ajratilgan vaqtda ham o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishdagi faolligi oshgani kuzatildi. Shu bilan birga, mavzuni tushunishda qiynalish bilan bog‘liq passivlik holatlarining kamayishi qayd etildi.

Biroq animatsiyadan foydalanishda ayrim metodik cheklovlar ham mavjud. Agar animatsiya haddan tashqari tez namoyish etilsa yoki ortiqcha vizual effektlar bilan boyitilsa, bu o‘quvchining diqqatini asosiy mazmundan chalg‘itishi mumkin. Shu sababli animatsiya pedagogik maqsadga bo‘ysundirilgan, sodda, tushunarli va bosqichlarga ajratilgan holda qo‘llanishi lozim. O‘qituvchining animatsiyani tegishli izohlar va topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirishi muhim, aks holda animatsiya o‘quv vositasi emas, balki faqat tomosha elementiga aylanib qolishi mumkin. Olingan natijalar animatsiyali modellardan chizmachilik darslarida, ayniqsa, fazoviy jarayonlarni tushuntirishda foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Proyeksiyalash, kesim va qirqimlar, murakkab shakllarning hosil bo‘lishi hamda detallarni yig‘ish kabi mavzularda dinamik vizual vositalarning didaktik imkoniyatlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Statik chizmalar orqali yetarli darajada tushuntirish mumkin bo‘lgan sodda mavzularda esa animatsiyadan yordamchi vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tahlil natijalari animatsiyali modellardan foydalanish o‘quvchilarning grafik tafakkurini rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratishini ko‘rsatdi. O‘quvchilarda bilimlarni mexanik yodlashdan mazmunan anglashga, oddiy kuzatishdan tahlil qilishga hamda tayyor ko‘rsatmaga amal qilishdan mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan faoliyat elementlari kuzatildi. Shu jihatdan animatsiyali modellar chizmachilik darslarida faqat texnik vosita emas, balki o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini takomillashtiruvchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo‘llashning pedagogik asoslari va ularning o‘quv jarayonidagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari animatsiyali modellar nafaqat ko‘rgazmali vosita, balki o‘quvchilarning fazoviy tafakkuri, grafik savodxonligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Animatsiyali modellar yordamida murakkab chizmalar, proyeksiyalar, kesim va qirqimlarni tushuntirish jarayonini vizuallashtirish imkoniyati yaratiladi. O‘quvchilar obyektning hosil bo‘lish jarayonini, uning qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni va mexanik harakatlarni bosqichma-bosqich kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa bilimlarni faqat yodlash bilan cheklanmay, ularni ongli ravishda anglash va amaliy faoliyatda qo‘llashga yordam beradi.

AutoCAD, SolidWorks, Blender, Tinkercad va SketchUp kabi dasturiy vositalardan chizmachilik darslarida uch o‘lchamli modellar yaratish va ularni vizual namoyish etishda foydalanish mumkin. Mazkur dasturlarning imkoniyatlarini darsning maqsadi, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va o‘rganilayotgan mavzuning xususiyatiga muvofiq tanlash muhim ahamiyatga ega. Animatsiyali modellarni chizmachilik darslarida maqsadga muvofiq qo‘llash o‘quv jarayonining ko‘rgazmaliligi va interaktivligini oshirish, o‘quvchilarning grafik tafakkuri hamda fazoviy tasavvurini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, pedagoglar animatsiyali modellarni bosqichma-bosqich, aniq didaktik maqsad asosida hamda tushuntiruvchi izoh va topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirib qo‘llashlari lozim. Aks holda, animatsiya o‘quvchilarning faol bilish faoliyatini tashkil etuvchi vosita emas, balki faqat ko‘rgazmali element sifatida qolib ketishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chumakov A.A. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. – Moskva: Vysshaya Shkola, 2015.
2. Stolyarov A.M. 3D modellashtirishdan muhandislik ta’limida foydalanish. – Moskva: Tekhnika, 2016.
3. Mayer R. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
4. Anisimov L.N. Ta’limda kompyuter grafikasi. – Moskva: Prosveshchenie, 2017.
5. Vishnepolskiy I.S. Muhandislik grafikasi. – Sankt-Peterburg: Piter, 2018.

FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI VA UNING EKSPERIMENTAL SAMARADORLIGI

Isroilova E'zoza Akmal qizi
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasini fanlararo aloqadorlik asosida takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari va eksperimental samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda "Til-Fan-Amaliyot" (TFA) konsepsiyasi, "Fanlararo lingvodidaktik ko'prik" (FLK) modeli, terminologik kartalashtirishga asoslangan modulli o'quv tizimi hamda "Inter-Med" multimedia platformasi ishlab chiqilgan. To'rtta tibbiyot OTMida 130 talaba ishtirokida o'tkazilgan kvazi-eksperiment natijalari matematik-statistik usullar (Styudent t-mezoni, χ^2-mezoni, Koen effekt hajmi, Bespalko koeffitsiyenti) vositasida tahlil qilingan. Natijalar metodikaning an'anaviy yondashuvga nisbatan yuqori samaradorligini isbotlagan.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, fanlararo aloqadorlik, ESP, CLIL, terminologik kartalashtirish, lingvistik-kasbiy kompetentlik, effekt hajmi, kvazi-eksperiment.

Abstract: This article presents the theoretical-methodological foundations and the experimental effectiveness of improving the methodology of teaching English at medical higher education institutions on the basis of interdisciplinary connection. The study developed the "Language-Science-Practice" (LSP) concept, the "Interdisciplinary Linguodidactic Bridge" (ILB) model, a modular learning system based on terminological mapping, and the "Inter-Med" multimedia platform. The results of a quasi-experiment conducted with 130 students at four medical universities were analysed using mathematical-statistical methods (Student's t-test, χ^2-test, Cohen's effect size, Bespalko coefficient). The findings proved the higher effectiveness of the methodology compared with the conventional approach.

Key words: medical English, interdisciplinary connection, ESP, CLIL, terminological mapping, linguistic-professional competence, effect size, quasi-experiment.

Аннотация: В статье раскрываются теоретико-методические основы и экспериментальная эффективность совершенствования методики обучения английскому языку в медицинских высших образовательных учреждениях на основе междисциплинарной связи. В исследовании разработаны концепция "язык–наука–практика" (ЯНП), модель "междисциплинарного лингводидактического моста" (МЛМ), модульная учебная система на основе терминологического картирования и мультимедийная платформа "Inter-Med". Результаты квазиэксперимента с участием 130 студентов четырёх медицинских вузов проанализированы с помощью математико-статистических методов (t-критерий Стьюдента, χ^2-критерий, размер эффекта Коэна, коэффициент Беспалько). Результаты доказали более высокую эффективность методики по сравнению с традиционным подходом.

Ключевые слова: медицинский английский, междисциплинарная связь, ESP, CLIL, терминологическое картирование, лингвопрофессиональная компетентность, размер эффекта, квазиэксперимент.

KIRISH

Zamonaviy tibbiyot fani va amaliyotida ingliz tili ilmiy-kasbiy kommunikatsiyaning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Ilmiy-metrik tahlillarga ko'ra, PubMed xalqaro platformasidagi 36 milliondan ortiq nashrning qariyb 86,5 foizi ingliz tilida chop etilgan. Bo'lajak shifokor uchun xalqaro adabiyotni o'qish, bemor va hamkasblar bilan muloqot qilish hamda xalqaro sertifikatlarga tayyorgarlik ko'rish nuqtayi nazaridan kasbiy ingliz tilini egallash klinik kompetentlikning ajralmas qismiga aylandi.

Biroq tibbiyot OTMlarida ingliz tilini o'qitish metodikasi nazariy jihatdan yetarlicha integratsiyalashmagan. Ko'pchilik metodikalar muammoning faqat bir qirrasini (terminologiya, baholash yoki axborot texnologiyalari)

qamrab oladi; til, mutaxassislik mazmuni va amaliyot esa yaxlit emas, balki parallel o‘qitiladi. Til va mutaxassislik kafedralari o‘rtasidagi metodik hamkorlik institutsional darajada tashkil etilmagan. Ushbu ziddiyat fanlararo aloqadorlik asosidagi yaxlit metodikani ishlab chiqishni dolzarb muammoga aylantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi - fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot OTMlarida ingliz tilini o‘qitishning yaxlit metodikasini nazariy asoslash va uning samaradorligini eksperimental yo‘l bilan isbotlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) nazariyasi T. Dudley-Evans va M.J. St John tomonidan chuqur ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘quv mazmunini o‘rganuvchining real ehtiyojlari tahlili (needs analysis) asosida belgilashni ESP kursi dizaynining boshlang‘ich nuqtasi deb hisoblaydilar.

T. Hutchinson va A. Waters esa o‘rganuvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni asoslaganlar.

D. Coyle, P. Hood va D. Marsh mazmun va tilni integratsiyalashgan o‘qitish (CLIL) konsepsiyasini rivojlantirib, til va fan mazmunini o‘zaro foyda asosida birgalikda o‘qitish mumkinligini ko‘rsatganlar.

G. Ferguson va H. Basturkmen tibbiy ingliz tilini (EMP) o‘qitishning o‘ziga xos jihatlarini yoritganlar.

Raqamli ta’lim sohasida P. Mishra va M.J. Koehler ishlab chiqqan TPACK modeli texnologiya, pedagogika va mazmun bilimlarining kesishmasida samarali o‘qitish yuzaga kelishini asoslaydi. R. Puenteduraning SAMR modeli esa texnologiyadan foydalanishning oddiy almashtirish (substitution) darajasidan tortib ta’limni tubdan o‘zgartirish (redefinition) darajasigacha bo‘lgan bosqichlarini farqlaydi. O‘zbekiston pedagogikasida T.Q. Sattarov, D.U. Xoshimova, I.M. Tuxtasinov, I.X. Iminaxunova, D.D. Buranova kabi olimlarning tadqiqotlari kasbiy yo‘naltirilgan til ta’limi va terminologik kompetentlik masalalarini yoritgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ESP, CLIL va EMI yondashuvlari bir-birini to‘ldiruvchi, biroq o‘zaro almashtirib bo‘lmaydigan mavqelarni egallaydi va ularning hech biri, alohida olinganda, til va mutaxassislik kafedralari o‘rtasidagi hamkorlikni institutsionallashtirmaydi. Aynan shu bo‘shliq mazkur tadqiqotning ilmiy o‘rnini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-analitik va empirik bosqichlarni o‘z ichiga oldi. Nazariy bosqichda mazmun tahlili, qiyosiy tahlil va terminologik-komponent tahlil qo‘llanildi. Ishlab chiqilgan metodika to‘rtta innovatsiyani - “Til-Fan-Amaliyot” (TFA) konsepsiyasi, “Fanlararo lingvodidaktik ko‘prik” (FLK) modeli, terminologik kartalashtirishga asoslangan modulli o‘quv tizimi hamda “Inter-Med” multimedia platformasini o‘z ichiga oladi. FLK modeli til va mutaxassislik kafedralari hamkorligini to‘rt darajada (strategik muvofiqlashtirish, metodik seminarlar, binar darslar va terminologik kartalashtirish) tartibga soladi (1-rasm).



1-rasm: **FLK modelining tashkiliy mexanizmi - kafedralararo ko‘prik**

Empirik bosqichda tenglashtirilgan nazorat guruhli kvazi-eksperiment (nonequivalent control group pretest–posttest design) qo‘llanildi. Talabalar o‘quv rejasi bilan shakllangan tabiiy akademik guruhlarga biriktirilgani sababli tasodifiy taqsimlash o‘rniga guruhlar mos ravishda taqsimlandi va boshlang‘ich tenglik statistik jihatdan asoslandi. Eksperiment to‘rtta tibbiyot OTMida (TDTU, SamDTU, ADTI, FarJSTI) 130 talaba ishtirokida (tajriba guruhi - 65, nazorat guruhi - 65) o‘tkazildi.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Kompetentlik to‘rt mezonli tizim asosida o‘lchandi: terminologik (25), kognitiv-integrativ (25), og‘zaki-kommunikativ (30) va motivatsion (20) - jami 100 ball.

Baholash vositalarining ishonchliligi va validligi psixometrik ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlandi:

- KR-20 = 0,841;
- Kronbax α = 0,793;
- mazmuniy validlik CVR = 0,948 (Lawshe usuli); ekspert baholari muvofiqligi ICC = 0,941.

Natijalar Styudent t-mezoni, χ^2-mezoni, Koen effekt hajmi (d) va Bespalko o‘zlashtirish koeffitsiyenti (Ka) vositasida tahlil qilindi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki kesimda tajriba va nazorat guruhlari barcha mezonlar hamda umumiy ko‘rsatkich bo‘yicha statistik jihatdan farqlanmadi (TG 52,53 ± 4,93; NG 51,88 ± 5,04; t = 0,74; p = 0,461), daraja taqsimoti ham teng bo‘ldi (χ^2 = 1,34; p = 0,51). Boshlang‘ich tenglik yakuniy farqni eksperiment ta’siriga bog‘lash imkonini beradi. Dastlabki kesim ma’lumotlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Dastlabki kesim natijalari (mezonlar bo‘yicha, M ± SD)**

Mezon (maks.)	TG (n=65)	NG (n=65)	t	p
Terminologik (25)	12,02 ± 2,87	11,68 ± 2,22	0,75	0,453
Kognitiv-integrativ (25)	11,29 ± 2,42	11,66 ± 3,65	−0,68	0,498
Og‘zaki-kommunikativ (30)	19,10 ± 2,51	18,35 ± 2,16	1,83	0,069
Motivatsion (20)	10,12 ± 1,17	10,20 ± 1,06	−0,39	0,695
UMUMIY (100)	**52,53 ± 4,93**	**51,88 ± 5,04**	**0,74**	**0,461**

Yakuniy kesimda tajriba guruhi umumiy ko‘rsatkich va to‘rtta mezondan uchtasi bo‘yicha nazorat guruhidan ustun keldi. Ustunlik kognitiv-integrativ (t = 2,73; p = 0,007), og‘zaki-kommunikativ (t = 2,97; p = 0,004) va motivatsion (t = 3,96; p < 0,001) mezonlar bo‘yicha statistik ahamiyatli bo‘ldi. Terminologik mezonda farq (t = 1,43; p = 0,155) ahamiyatli darajaga yetmadi, chunki har ikkala guruh ham terminologiyani bir xil darajada o‘rgangan. Mezonlar bo‘yicha qiyosiy tahlil 2-rasmda keltirilgan.



Barcha mezonlarda tajriba guruhi ustunligi kuzatiladi; UMUMIY ko‘rsatkichda farq statistik ahamiyatli (p<0,001)

2-rasm: **Yakuniy kesim natijalari - mezonlar bo‘yicha qiyosiy tahlil (TG va NG)**

Ichki o‘sish tahlili farqni yanada aniq ko‘rsatadi: tajriba guruhida o‘sish +7,80 ball (t = 8,86; p < 0,001), nazorat guruhida esa atigi +4,04 ball (t = 4,70; p < 0,001) bo‘ldi. Ya’ni tajriba guruhi o‘sishi qariyb ikki baravar yuqori. Guruhlararo o‘rtacha farq 4,41 ballni tashkil etdi, 95 % ishonch oralig‘i [2,71; 6,11] nolni o‘z ichiga olmaydi. Standartlashgan effekt Koen mezonlari bo‘yicha katta bo‘ldi: d = 0,891.

Bespalko o‘zlashtirish koeffitsiyenti tajriba guruhida 0,5 mustahkamlik chegarasidan yuqori (Ka = 0,603), nazorat guruhida esa Ka = 0,559 bo‘ldi. Sifat jihatidan o‘zgarish daraja taqsimotida yaqqol namoyon bo‘ldi: tajriba guruhida reproduktiv daraja 42 %dan 3 %ga tushdi, kreativ daraja esa 5 %dan 42 %ga ko‘tarildi. Dastlabki kesimda teng bo‘lgan daraja taqsimoti ($\chi^2 = 1,34$; $p = 0,51$) yakuniy kesimda sezilarli farqlandi ($\chi^2 = 18,81$; $p < 0,001$). Yakuniy samaradorlik ko‘rsatkichlari 3-rasmda umumlashtirilgan.



3-rasm: **Metodika samaradorligining yakuniy ko‘rsatkichlari va gipoteza tekshiruvi**

Barcha ko‘rsatkichlar (d = 0,891; Ka (TG) = 0,603; η = 1,079; $\chi^2 = 18,81$; t = 5,08; $p < 0,001$) metodikaning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Shu asosda nol gipoteza (H_0) rad etildi va muqobil gipoteza (H_1) qabul qilindi, ya’ni fanlararo aloqadorlik asosidagi metodika bo‘lajak shifokorlarning lingvistik-kasbiy kompetentligini rivojlantirishda an’anaviy metodikaga nisbatan ancha samarali ekani ilmiy asoslandi. Yakuniy samaradorlik ko‘rsatkichlari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval: **Effekt hajmi, mustahkamlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich	Qiymat	Talqin
Koen effekt hajmi (d)	0,891	katta effekt (≥ 0,8)
O‘rtacha farq (95% ishonch)	4,41 [2,71; 6,11]	ishonchli; nolni chetlaydi
Bespalko Ka (TG)	0,603	o‘zlashtirish ta’minlangan (≥ 0,5)
Bespalko Ka (NG)	0,559	chegara atrofida
Samaradorlik η (TG/NG)	1,079	TG 7,9% yuqori
χ^2 (daraja taqsimoti)	18,81 ($p < 0,001$)	sifat jihatidan farq

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot OTMlarida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha nazariy asoslangan va amalda tasdiqlangan yaxlit yechimni taqdim etdi. Nazorat qilingan ko‘p markazli kvazi-eksperiment sharoitida metodika an’anaviy yondashuvga nisbatan katta va statistik ahamiyatli ustunlikni (d = 0,891; t = 5,08; $p < 0,001$) ko‘rsatdi; tajriba guruhida o‘zlashtirish ta’minlandi va kreativ darajaga ko‘tarilgan talabalar ulushi sezilarli darajada oshdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) tibbiyot OTMlarida “Tibbiyotda ingliz tili” fani o‘quv dasturini takomillashtirishda mutaxassislik fanlari bilan muvofiqlashtirilgan mazmun bloklaridan foydalanish;

2) til va mutaxassislik kafedralari hamkorligini FLK modeli asosidagi reglament orqali tartibga solish;

3) terminologik kartalashtirishga asoslangan modulli tizim va tibbiy izohli terminologik lug‘atdan foydalanish;

4) “Inter-Med” platformasini o‘quv jarayoniga keng joriy etish. Metodikaning universalligi uni boshqa nofilologik yo‘nalishdagi OTMlarga ham moslashtirib joriy etish imkonini beradi.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998. - 301 p.
2. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 183 p.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010. - 184 p.
4. Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. - 2006. - Vol. 108, No. 6. - P. 1017-1054.
5. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. 2nd ed. - Hillsdale (NJ): Lawrence Erlbaum, 1988. - 567 p.
6. Macaro E. et al. A systematic review of English medium instruction in higher education // Language Teaching. - 2018. - Vol. 51, No. 1. - P. 36-76.
7. Lawshe C.H. A quantitative approach to content validity // Personnel Psychology. - 1975. - Vol. 28, No. 4. - P. 563-575.
8. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - Москва: Педагогика, 1989. - 192 с.
9. Tuxtasinov I.M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2019.
10. Buranova D.D. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2021.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

UMUMIY O‘RTA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA VEB-KVESTLAR VA RAQAMLI KEYSLARNI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI

Shermatova Ra’no O‘ktam qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Baxodirova Gulnoz Kamalovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik hamda psixologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari va raqamli savodxonligini rivojlantirishning dolzarbligi asoslab berilgan. Xalqaro tajribalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda ilmiy nazariyalar tahlili asosida veb-kvest va raqamli keyslarning didaktik imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zaro farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni samarali qo‘llashning muhim shartlari sifatida o‘quv motivatsiyasi, metakognitiv strategiyalar, hamkorlikdagi ta’lim, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va psixologik qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitining ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari veb-kvest va raqamli keyslarni ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tizimli integratsiya qilish ta’lim sifati va o‘quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: veb-kvest, raqamli keys, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta’lim.

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological foundations of using WebQuest and digital case technologies in teaching English in general secondary education institutions. The study highlights the importance of developing students’ communicative competence, critical thinking, independent learning skills, and digital literacy in the context of the digital transformation of education. Based on an analysis of international experience, contemporary pedagogical approaches, and relevant educational theories, the paper identifies the didactic potential, distinctive features, and educational value of WebQuests and digital cases. It also determines the key conditions for their effective implementation, including learner motivation, metacognitive strategies, collaborative learning, teachers’ methodological competence, and the creation of a psychologically supportive learning environment. The findings demonstrate that the systematic integration of WebQuest and digital case technologies into English language teaching enhances the quality of education and contributes to the development of students’ twenty-first-century competencies.

Key words: WebQuest, digital case, English language, communicative competence, digital literacy, critical thinking, independent learning.

Аннотация: В данной статье проанализированы педагогические и психологические основы использования технологий веб-квестов и цифровых кейсов в процессе обучения английскому языку в учреждениях общего среднего образования. Обоснована актуальность развития коммуникативной компетенции, критического мышления, навыков самостоятельного обучения и цифровой грамотности учащихся в условиях цифровой трансформации образования. На основе анализа международного опыта, современных педагогических подходов и научных теорий раскрыты дидактические возможности, особенности и отличительные характеристики веб-квестов и цифровых кейсов. Кроме того, определены ключевые условия их эффективного применения, включая учебную мотивацию, метакогнитивные стратегии, совместное обучение, методическую подготовку учителя и создание психологически благоприятной образовательной среды. Результаты исследования подтверждают, что системная интеграция технологий веб-квестов и цифровых кейсов в процесс обучения английскому языку способствует повышению качества образования и развитию у учащихся компетенций XXI века.

Ключевые слова: веб-квест, цифровой кейс, английский язык, коммуникативная компетенция, цифровая грамотность, критическое мышление, самостоятельное обучение.

KIRISH

Ta'limning globallashuvi va raqamli transformatsiyasi sharoitida chet tillarini o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi faqat grammatik va leksik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim olish, muammolarni hal etish hamda raqamli savodxonlik kabi XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Shu bois ta'lim jarayoniga interaktiv va raqamli pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda [1, 2, 3, 4].

OECD va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlarda ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv, hamkorlikda o'qitish, ijodkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish alohida e'tirof etilgan. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari o'quvchilarning izlanish faoliyatini tashkil etish, axborotni tanlash va tahlil qilish, muloqot qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Xususan, Berni Dodj tomonidan ishlab chiqilgan veb-kvest konsepsiyasi AQSH va Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida keng qo'llanilib, internet resurslari asosida tadqiqot faoliyatini tashkil etishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa raqamli keys texnologiyalari Chet tillar bo'yicha umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) talablari asosida madaniyatlararo muloqot, funksional savodxonlik va amaliy muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Singapur, Janubiy Koreya va Kanada ta'lim tizimlari tajribasi ham ushbu texnologiyalarning o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [5–13].

O'zbekistonda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son[1] Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son[2] Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son[3] Farmoni hamda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida ta'limni raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda chet tillarini o'qitishda veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [1, 2, 3, 4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali amalga oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, Richard E. Mayerning multimedia ta'limi nazariyasi ayniqsa muhimdir. Mayerning fikriga ko'ra, raqamli ta'limning samaradorligi vizual, matnli va eshitish ma'lumotlarini oqilona tashkil etishga bog'liq. Veb-kvestlar va raqamli keyslar raqamli kontentni mexanik ravishda to'plamasligi, balki uni ta'lim va kommunikativ muammolarni hal qilish uchun tizimli ravishda ishlatishi kerakligini ta'kidlaydi [5].

Edvard Desi va Richard Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o'z taqdirini o'zi belgilash nazariyasi avtonomiya, kompetensiya va ijtimoiy o'zaro ta'sirni barqaror o'rganish motivatsiyasining asosiy omillari sifatida ko'rib chiqadi. Raqamli ta'lim sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli interaktiv texnologiyalar o'quvchilar mustaqil tanlov qilish, faol ishtirok etish va faoliyatni shaxsan qadrlash uchun o'zlarini vakolatli his qilganda eng samarali hisoblanadi. Shaxsning metakognitiv sohasining rivojlanishi alohida rol o'ynaydi [6].

Jon Flavellning tadqiqotlariga ko'ra, metakognitiv jarayonlar shaxsga o'z o'quv faoliyatini anglash, boshqarish va tartibga solish imkonini beradi. Veb-kvestlarni bajarish jarayonida o'quvchilar mustaqil ravishda bir qator harakatlar ketma-ketligini rejalashtirishga, ma'lumot qidirish strategiyalarini tanlashga, raqamli manbalarning ishonchliligini tahlil qilishga va o'z faoliyatlari natijalarini baholashga majbur bo'ladilar [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishning zamonaviy yondashuvlarini nazariy tahlil qilishda bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan:

1. **Tahlil va sintez metodi** - mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy tadqiqotlar mazmunini o'rganish va umumlashtirish uchun;

1 https://lex.uz/docs/-4545884
2 https://lex.uz/ru/docs/-5841063
3 https://lex.uz/docs/-6396146

2. **Qiyosiy (komparativ) tahlil** - ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha milliy va xorijiy tajribalarni taqqoslash hamda ularning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash uchun;
3. **Nazariy tahlil** - zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ilmiy-metodik asoslarini yoritish uchun;
4. **Tizimli yondashuv** - ingliz tilini o‘qitish jarayonini yagona pedagogik tizim sifatida tahlil qilish uchun;
5. **Umumlashtirish metodi** - olingan ilmiy natijalarni xulosa qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun.

Mazkur metodlarning qo‘llanilishi tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, zamonaviy yondashuvlarning nazariy asoslarini aniqlash hamda ularning umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitish samaradorligiga ta’sirini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ingliz tilini o‘qitish usullarida veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali amalga oshirish muammosi nafaqat texnologik masala, balki birinchi navbatda psixologik va pedagogik masala sifatida qaraladi. Zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi raqamli resurslardan foydalanishning o‘zi bilan emas, balki ta’lim muhitining sifati, ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning tabiati, o‘rganish motivatsiyasi darajasi, o‘quvchilarning kognitiv faolligining xususiyatlari va o‘qituvchilarning tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi.

Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning o‘rganish mexanizmlari haqidagi an’anaviy tushunchalarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, kognitiv rivojlanish ijtimoiy o‘zaro ta’sir va faol individual ishtirok orqali sodir bo‘ladi. Veb-kvestlar va raqamli keyslar bu mantiqqa mos keladi, chunki ular hamkorlikdagi muammolarni hal qilish, tadqiqot faoliyati va o‘quvchilar o‘rtasidagi kommunikativ o‘zaro ta’sirga qaratilgan.

O‘quvchilarning raqamli ta’lim muhitida ishlashga kognitiv tayyorgarligi veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali amalga oshirish uchun juda muhimdir. Raqamli o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda o‘quvchilar vizual idrok, interaktivlik va raqamli kontent bilan ko‘p kanalli o‘zaro ta’sirga ko‘proq e’tibor qaratmoqdalar. Biroq yuqori intensivlikdagi axborot oqimlari ortiqcha kognitiv yukni keltirib chiqarishi va o‘rganish sifatini pasaytirishi mumkin.

Veb-kvestlar va raqamli keyslar ushbu psixologik mexanizmlarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi, chunki ular mustaqil ravishda ma’lumot qidirish, rollarni taqsimlash, qaror qabul qilish va o‘z faoliyatlari natijalarini jamoaviy muhokama qilishni o‘z ichiga oladi. An’anaviy reproduktiv o‘qitish usullaridan farqli o‘laroq, bu texnologiyalar amaliyotga yo‘naltirilgan va kommunikativ jihatdan mazmunli faoliyatga jalb qilish orqali o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini rag‘batlantiradi.

Shaxsning metakognitiv sohasining rivojlanishi alohida rol o‘ynaydi. Jon Flavellning tadqiqotlariga ko‘ra, metakognitiv jarayonlar shaxsga o‘z o‘quv faoliyatini anglash, boshqarish va tartibga solish imkonini beradi. Veb-kvestlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar mustaqil ravishda bir qator harakatlar ketma-ketligini rejalashtirishga, ma’lumot qidirish strategiyalarini tanlashga, raqamli manbalarning ishonchliligini tahlil qilishga va o‘z faoliyatlari natijalarini baholashga majbur bo‘ladilar.

Ingliz tilini o‘qitishning raqamli strategiyalari bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida muvaffaqiyat o‘quvchilarning kognitiv, metakognitiv va ijtimoiy-affektiv strategiyalarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun veb-kvestlar va raqamli keyslarni amalga oshirishning muhim psixologik sharti o‘quvchilarda o‘zini o‘zi boshqarish, mulohaza yuritish va o‘quv faoliyatini mustaqil boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Raqamli ta’lim muhitida psixologik xavfsizlik masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlar raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish faqat hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va individual o‘quvchiga hurmatga asoslangan hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitida mumkinligini ta’kidlaydi. Bu, ayniqsa, ingliz tilini o‘qitishda juda muhimdir, chunki chet tilida kommunikativ faoliyat ko‘pincha yuqori darajadagi xavotir, nutq xatolaridan qo‘rqish va muloqot to‘siqlari bilan birga keladi. Veb-kvestlar va raqamli keyslardan foydalanish o‘quvchilarni guruh faoliyatiga, rolli o‘yinlarga asoslangan o‘zaro ta’sirga va vaziyatga asoslangan kommunikativ o‘rganishga jalb qilish orqali psixologik stressni kamaytirishga yordam beradi.

Biroq bu texnologiyalar o‘zining asosiy didaktik mexanizmlarida farq qiladi. Veb-kvestlar asosan tadqiqot, axborotni qayta ishlash va ta’lim mahsulotini yaratishga qaratilgan bo‘lsa, raqamli keyslar ma’lum bir vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish va asosli kommunikativ o‘zaro ta’sirga qaratilgan.

Veb-kvestlar axborotni qidirish ko‘nikmalari, raqamli savodxonlik va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq yordam beradi. Raqamli keyslar esa analitik fikrlash, og‘zaki argumentatsiya va kommunikativ noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni taklif etadi (1-jadval).

1-jadval: **Veb-kvest va raqamli keys o‘rtasidagi asosiy farqlar**

Veb–kvestlar	Raqamli keyslar
Axborot qidirishga asoslangan	Vaziyat tahliliga asoslangan
Tadqiqot faoliyati	Tahliliy va kommunikativ faoliyat
Asosiy maqsad – axborotni qidirish va qayta ishlash	Asosiy maqsad muammolarni hal qilish
Tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi	Bahslashish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi
Ko‘pincha loyihaga asoslangan	Ko‘pincha vaziyatga bog‘liq

Veb-kvestlar - bu o‘quvchilarning raqamli internet resurslaridan foydalangan holda mustaqil qidiruv va tahlil qilishga asoslangan, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot xarakteridagi interaktiv ta’lim texnologiyasi.

Raqamli keyslar - bu multimedia va interaktiv resurslardan foydalangan holda raqamli ta’lim muhitida simulyatsiya qilingan kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish va hal etishni o‘z ichiga olgan muammoga asoslangan o‘qitish texnologiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi pedagogika fanida raqamli ta’limning psixologik va pedagogik shart-sharoitlari Sh.Sh. Sharipov, N.N. Azizxo‘jayeva, R.X. Jurayev va A. Abduqodirov tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ushbu olimlar interaktiv texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘quvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish va mustaqil o‘rganishni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydilar [14–18].

Hozirgi tadqiqotlarni tahlil qilish [19] bizga veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali amalga oshirish uchun bir-biri bilan bog‘liq psixologik va pedagogik shartlar majmuasini aniqlash imkonini beradi:

- barqaror o‘rganish motivatsiyasining mavjudligi;
- metakognitiv strategiyalarni rivojlantirish;
- emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti;
- hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish;
- o‘qituvchining metodik tayyorgarligi;
- raqamli texnologiyalarni ta’limga tizimli integratsiya qilish;
- ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish;
- o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish;
- haqiqiy kommunikativ vazifalardan foydalanish;
- pedagogik refleksiyani tashkil etish.

Veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali amalga oshirish (2-jadvalga qarang) faol kognitiv faollikni, kommunikativ o‘zaro ta’sirni, raqamli savodxonlikni rivojlantirishni va o‘quvchilarning o‘quv avtonomiyasini rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi psixologik hamda pedagogik omillarni har tomonlama hisobga olishni talab qiladi. Ushbu shart-sharoitlarni tizimli ravishda tashkil etish raqamli ta’lim muhitida ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish uchun ilmiy-metodik asos yaratadi (2-jadval).

2-jadval: **Samarali raqamli til ta’limi uchun tizimni shakllantirish shartlari**

Omil	Qiymat
O‘qituvchining metodologik tayyorgarligi	98
Bilim olishga motivatsiya	95
Hamkorlikdagi o‘rganish	90
Raqamli savodxonlik	92
O‘rganishni shaxsiylashtirish	88
Metakognitiv strategiyalar	86

Veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali amalga oshirishning eng muhim psixologik va pedagogik shartlaridan biri o‘quvchilarda barqaror kognitiv o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishdir. Zamonaviy raqamli ta’lim tadqiqotlarida o‘zini o‘zi boshqarish muammosi axborotga boy muhitda muvaffaqiyatli o‘rganishning asosiy omili hisoblanadi. Barri Zimmermanning konsepsiyasiga ko‘ra, o‘zini o‘zi boshqarish orqali

o‘rganish shaxsning o‘z kognitiv faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish, kuzatish va baholash qobiliyatini nazarda tutadi. Veb-kvestlar va raqamli keyslar o‘quvchilardan yuqori darajadagi o‘quv avtonomiyasini talab qiladi, chunki ular mustaqil ravishda vaqtni boshqarish, axborot qidirish strategiyalarini tanlash va ochiq ta’lim muhitida qaror qabul qilishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida ingliz tilini o‘qitishda veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari hamda raqamli savodxonligini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar an’anaviy reproduktiv o‘qitish usullaridan farqli ravishda o‘quvchilarni faol bilish jarayoniga jalb etadi, ularni axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, muammolarni hal etish va jamoada hamkorlik qilishga yo‘naltiradi.

Nazariy tahlillar veb-kvestlar va raqamli keyslarning samaradorligi faqat raqamli vositalardan foydalanish bilan emas, balki o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, o‘quvchilarning motivatsiyasi, metakognitiv strategiyalari, hamkorlikka asoslangan ta’lim muhiti hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqladi. Shu bois mazkur texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishda pedagogik, psixologik va texnologik omillarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta’lim muassasalarida raqamli vositalardan foydalanish ko‘pincha texnik ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmoqda. Buning natijasida talabalarda tanqidiy fikrlash, algoritmik yondashuv va ijodiy muammolarni hal etish kabi raqamli tafakkurning muhim komponentlari yetarli darajada rivojlanmayapti.

Bunday holat raqamli ta’lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga keng joriy etilishi natijasida raqamli tafakkur tushunchasi pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari sohalarida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu tushuncha shaxsning axborotni tahlil qilish, muammolarni algoritmik yondashuv asosida hal etish, raqamli vositalardan samarali foydalanish hamda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Raqamli tafakkurning nazariy asoslari ilk bor J. Wing tomonidan “Computational Thinking” konsepsiyasi orqali ilmiy muomalaga kiritilgan. Muallif hisoblash tafakkurini nafaqat dasturchilar, balki barcha soha mutaxassislari egallashi lozim bo‘lgan universal fikrlash usuli sifatida izohlaydi. Wingning fikricha, murakkab muammolarni tahlil qilish, ularni kichik qismlarga ajratish, algoritmlashtirish va modellashtirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir [1].

Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp 2.2 raqamli kompetensiyalar doirasida fuqarolarning raqamli muhitda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan beshta asosiy kompetensiya yo‘nalishi belgilangan. Ular axborot va ma’lumotlar bilan ishlash, raqamli kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik hamda muammolarni hal etish kompetensiyalarini qamrab oladi. Mazkur kompetensiyalar raqamli tafakkurning amaliy ifodasi sifatida baholanadi [2].

O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan DigCompEdu doirasida esa raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat texnik vosita emas, balki ta’lim jarayonining metodik tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Unda o‘qituvchining raqamli ta’lim muhitini loyihalashi, talabalarning mustaqil o‘rganishini qo‘llab-quvvatlashi hamda zamonaviy baholash vositalaridan foydalanishi alohida ta’kidlangan [3].

M. Prensky tomonidan ilgari surilgan “Digital Natives, Digital Immigrants” konsepsiyasida raqamli davrda voyaga yetayotgan yoshlarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash usullari avvalgi avlodlardan sezilarli farq qilishi qayd etiladi. Shuningdek, muallif texnologiyadan foydalanishning o‘zi chuqur va tanqidiy tafakkur shakllanishini kafolatlamasligini, buning uchun maqsadli pedagogik faoliyat zarurligini ko‘rsatadi [4].

OECD tashkilotining “Raqamli ta’lim istiqbollari” (Digital Education Outlook) hisobotida sun’iy intellekt, blokcheyn va robototexnika kabi zamonaviy texnologiyalarning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi tahlil qilinib, bu jarayon talabalarda sifat jihatidan yangi turdagi raqamli kompetensiyalarni talab qilishi ta’kidlanadi [6].

E. van Laar va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tizimli adabiyotlar tahlilida XXI asr ko‘nikmalari va raqamli ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asoslab berilgan bo‘lib, mualliflar raqamli savodxonlikni faqat texnik ko‘nikma emas, balki kognitiv va ijtimoiy komponentlarni ham o‘z ichiga oluvchi murakkab konstrukt sifatida talqin etadilar [7].

G. Falloon esa raqamli savodxonlikdan raqamli kompetensiyaga o‘tish jarayonini tadqiq etib, bu o‘tish nafaqat texnik bilim, balki pedagogik va metodik tayyorgarlikni ham talab qilishini ko‘rsatadi [8].

Mahalliy tadqiqotlarda ham talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirish masalasi tobora dolzarb yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, “Talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning xususiyatlari va ta’limdagi o‘rni” nomli tadqiqotda raqamli tafakkur oliy ta’lim sifatini oshirish, mustaqil ta’limni rivojlantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili sifatida baholangan. Mualliflar ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni maqsadli qo‘llash talabalarning analitik fikrlashi, axborotni tanqidiy baholashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishini ta’kidlaydilar [5].

Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida raqamli kompetensiyalar yoki hisoblash tafakkurining alohida jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, raqamli ta’lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yaxlit metodik tizim sifatida yorituvchi tadqiqotlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Tadqiqot jarayonida raqamli ta’lim muhiti hamda talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro me’yoriy hujjatlar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilindi. Shuningdek, hisoblash tafakkuri (Computational Thinking), raqamli kompetensiyalar (DigComp 2.2) hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga oid DigCompEdu doirasidagi ilmiy qarashlar o‘rganildi [1; 2; 3].

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish - raqamli tafakkur va raqamli kompetensiyaga oid ilmiy qarashlarni o‘rganish hamda tizimlashtirish;
- qiyosiy tahlil - mahalliy va xorijiy olimlarning yondashuvlarini taqqoslash va umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlash;
- umumlashtirish - ilmiy manbalarda ilgari surilgan nazariy qarashlarni umumlashtirish asosida pedagogik mexanizmlarni aniqlash;
- modellashtirish - raqamli ta’lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tizimning konseptual modelini ishlab chiqish.

Mazkur metodlardan foydalanish mavzuning nazariy asoslarini yoritish hamda raqamli ta’lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni tizimli ravishda tavsiflash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli tafakkur faqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari bilan chegaralanib qolmaydi. U shaxsning axborotni tanqidiy baholashi, muammolarni tahlil qilishi, algoritmik fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda raqamli vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi kompleks kompetensiya hisoblanadi [1; 2; 5].

Tahlil natijalarini o‘rganib, shuni aytish lozimki, raqamli ta’lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirish quyidagi pedagogik mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

1. **Maqsadli mexanizm.** Mazkur mexanizm talabalarda zamonaviy raqamli jamiyat talablariga mos bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bunda asosiy e’tibor axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash va amaliy muammolarni hal etishga qaratiladi.
2. **Mazmuniy mexanizm.** Raqamli tafakkurni rivojlantirish o‘quv fanlari mazmunini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashni talab etadi. O‘quv topshiriqlari muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, amaliy mashg‘ulotlar hamda fanlararo integratsiya asosida tashkil etilganda talabalar mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
3. **Metodik mexanizm.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqamli tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, muammoli ta’lim, loyiha metodi, hamkorlikda o‘qitish, “flipped classroom”, “case study” hamda dizayn-fikrlash (design thinking) yondashuvlari talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi [3; 5].
4. **Raqamli vositalardan foydalanish mexanizmi.** Raqamli ta’lim muhitining samaradorligi foydalanilayotgan platformalar va texnologik vositalarga ham bog‘liq. LMS tizimlari, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari, interaktiv test platformalari va bulutli texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada interaktiv va talaba markazli tashkil etish imkonini beradi.
5. **Baholash mexanizmi.** Raqamli tafakkurni baholash faqat nazariy bilimlarni aniqlash bilan cheklanmasligi lozim. Baholash jarayonida talabaning axborotni izlash, tahlil qilish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, muammolarni hal etish hamda ijodiy yechim ishlab chiqish ko‘nikmalari ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan, elektron portfolio, loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar va formativ baholash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi mexanizmlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ulardan birining yetarli darajada amalga oshirilmasligi metodik tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ularni yagona tizim sifatida tashkil etish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biriga aylantirmoqda. Raqamli tafakkur shaxsning axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, muammolarni algoritmik yondashuv asosida hal etish hamda raqamli vositalardan ongli va samarali foydalanish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi kompleks kompetensiya hisoblanadi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va xalqaro me'yoriy hujjatlar tahlili asosida raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik mexanizmlar tizimlashtirildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlaridan samarali foydalanish faqat zamonaviy texnik vositalarni joriy etish bilangina emas, balki ularni pedagogik maqsadlarga muvofiq qo'llash, talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini qo'llab-quvvatlash hamda o'qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish bilan uzviy bog'liq.

Maqolada taklif etilgan yondashuv raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini boyitishga xizmat qiladi hamda ushbu yo'nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun konseptual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari va ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga raqamli tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzu va amaliy topshiriqlarni tizimli ravishda integratsiya qilish.
2. Ta'lim jarayonida loyiha metodi, muammoli ta'lim, "flipped classroom", "case study" va dizayn-fikrlash kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan keng foydalanish.
3. Raqamli ta'lim platformalari, sun'iy intellekt vositalari hamda interaktiv o'quv resurslaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wing J. M. Computational Thinking // Communications of the ACM. – 2006. – Vol. 49, No. 3. – P. 33–35.
2. European Commission. The Digital Competence Framework for Citizens (DigComp 2.2). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. – 133 p.
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
4. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.
5. Talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning xususiyatlari va ta'limdagi o'rni // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – 3(4). – B. 166–170.
6. OECD. OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2021.
7. Van Laar E., Van Deursen A. J. A. M., Van Dijk J. A. G. M., De Haan J. The Relation Between 21st-Century Skills and Digital Skills: A Systematic Literature Review // Computers in Human Behavior. – 2017. – Vol. 72. – P. 577–588.
8. Falloon G. From Digital Literacy to Digital Competence: The Teacher Digital Competency Framework // Educational Technology Research and Development. – 2020.

EMOTSIONAL INTELLEKT VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA: YOSHLAR PSIXOLOGIYASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR



Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlar emotsional intellektining rivojlanish tendensiyalari zamonaviy psixologik nazariyalar asosida tahlil qilingan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil kommunikatsiya vositalarining yoshlarning emotsional rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda psixologik farovonligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Mayer, Salovey va Carusoning qobiliyat modeli, Valkenburg va Peterning stimulatsiya hamda siqib chiqarish gipotezalari, Subrahmanyam va Šmahelning raqamli ijtimoiylashuv konsepsiyasi hamda Nesi va hamkorlarining raqamli media bo'yicha ilmiy qarashlari o'zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt yoshlarning raqamli muhitdagi kommunikativ muvaffaqiyati, empatiya, emotsiyalarni boshqarish va psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Shuningdek, maqolada raqamli kommunikatsiyaning ijobiy va salbiy psixologik oqibatlari ham ilmiy asosda baholangan.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, raqamli kommunikatsiya, yoshlar psixologiyasi, empatiya, raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik farovonlik, onlayn kommunikatsiya, raqamli madaniyat, emotsiyalarni boshqarish.

Abstract: This article examines contemporary trends in the development of emotional intelligence among young people in the context of digital communication. The psychological impact of the Internet, social media, and digital communication technologies on adolescents' emotional development, social adaptation, and psychological well-being is analyzed through contemporary theoretical approaches. The study integrates the Ability Model of Emotional Intelligence developed by Mayer, Salovey, and Caruso, the Stimulation and Displacement Hypotheses proposed by Valkenburg and Peter, the Digital Youth theory of Subrahmanyam and Šmahel, and recent findings presented by Nesi and colleagues. The findings indicate that emotional intelligence plays a crucial role in promoting empathy, emotional regulation, constructive online communication, and psychological resilience in digital environments. The study also discusses both the positive opportunities and potential psychological risks associated with digital communication among young people.

Key words: emotional intelligence, digital communication, youth psychology, empathy, digital media, social networks, psychological well-being, online communication, digital literacy, emotional regulation.

Аннотация: В статье рассматриваются современные тенденции развития эмоционального интеллекта молодежи в условиях цифровой коммуникации. На основе современных психологических концепций проанализировано влияние Интернета, социальных сетей и цифровых технологий общения на эмоциональное развитие, социальную адаптацию и психологическое благополучие молодых людей. Исследование основано на интеграции модели эмоционального интеллекта Майера–Саловея–Карузо, гипотез стимуляции и вытеснения Валкенбурга и Петера, концепции цифровой социализации Субраманьям и Шмагеля, а также современных исследований Неси и соавторов. Полученные результаты показывают, что эмоциональный интеллект является важным фактором формирования эмпатии, эмоциональной саморегуляции, конструктивного онлайн-взаимодействия и психологической устойчивости молодежи. Также рассмотрены позитивные возможности и потенциальные психологические риски цифровой коммуникации.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, цифровая коммуникация, психология молодежи, эмпатия, цифровые медиа, социальные сети, психологическое благополучие, онлайн-коммуникация, цифровая культура, эмоциональная регуляция.

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida inson hayotining deyarli barcha jabhalari transformatsiyaga uchramoqda. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida shakllanishi va kommunikativ faoliyatida internet hamda raqamli platformalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yoshlarning asosiy qismi kuniga bir necha soat davomida internet va ijtimoiy

tarmoqlardan foydalanadi. Bu esa ularning emotsional tajribasi, ijtimoiy munosabatlari hamda psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

An'anaviy muloqotdan farqli ravishda raqamli kommunikatsiyada hissiy axborot emoji, stiker, GIF, qisqa video va yozma matn orqali uzatiladi. Shu sababli yoshlarning emotsional intellekti yangi kommunikativ sharoitlarda namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy psixologiyada emotsional intellekt shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va kommunikativ kompetentligining muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur tadqiqot raqamli kommunikatsiya sharoitida emotsional intellektning yoshlar psixologiyasidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalarini zamonaviy ilmiy nazariyalar asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning emotsional intellekti va psixologik rivojlanishiga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tanlandi.

Tadqiqot predmeti – emotsional intellektning raqamli kommunikatsiya jarayonlaridagi namoyon bo'lish mexanizmlari, empatiya, emotsiyalarni boshqarish hamda yoshlarning psixologik farovonligi bilan bog'liqligidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil kommunikatsiya vositalari yoshlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan. Natijada emotsional intellektning shakllanishi ham faqat an'anaviy ijtimoiy muhitda emas, balki raqamli makonda ham yuz bermoqda. Shu nuqtai nazardan, Kaveri Subrahmanyam va David Šmahelning [1] asosiy ilmiy g'oyalarida raqamli media yoshlar hayotida shunchaki axborot almashish vositasi emas, balki yangi ijtimoiy muhit sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu muhitda yoshlar o'z shaxsiyatini namoyon etadi, yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi, emotsiyalarini ifodalaydi va tengdoshlari bilan o'zaro aloqalarni rivojlantiradi.

Emotsional intellektda emotsiyalarni anglash, ularni tushunish, boshqarish va boshqalarning hissiyotlariga nisbatan empatiya ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi. An'anaviy muloqotda inson yuzma-yuz suhbatdoshining yuz ifodasi, tana harakati va ovoz ohangi orqali emotsional holatini anglaydi. Raqamli kommunikatsiyada esa ushbu belgilar ko'pincha mavjud bo'lmaydi. Natijada emotsiyalar matn, emoji, stiker, GIF, qisqa video va boshqa raqamli belgilar yordamida ifodalanadi. Bu esa yoshlardan emotsional axborotni yangi vositalar orqali to'g'ri talqin qilish ko'nikmasini talab etmoqda.

Virtual olamda foydalanuvchi o'z fikrini erkinroq ifoda etishi, yangi rollarni sinab ko'rishi va turli ijtimoiy guruhlarga qo'shilishi mumkin. Bu jarayon shaxsning o'zini anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq anonimlik va virtual obraz yaratish imkoniyati ayrim hollarda real va virtual "Men" o'rtasida tafovut paydo bo'lishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, virtual muloqotning haddan tashqari ustunligi real hayotdagi bevosita muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda empatiya, nizolarni hal qilish, emotsiyalarni nazorat qilish va ijtimoiy moslashuv kabi emotsional intellekt tarkibiy qismlarining rivojlanishi sustlashishi ehtimoli mavjud.

Raqamli kommunikatsiyaning yana bir muhim jihati - ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internet orqali yoshlar o'z muammolari haqida ochiqroq gapirishlari, ruhiy qo'llab-quvvatlash olishlari va o'xshash qiziqishlarga ega insonlar bilan muloqot qilishlari mumkin.

Biroq bu jarayonda raqamli kommunikatsiyaning salbiy jihatlari ham mavjud. Kiberbulling, internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarda o'zini boshqalar bilan doimiy taqqoslash, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va noto'g'ri axborotning keng tarqalishi yoshlarning emotsional rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida baholanadi. Bunday omillar stress, xavotir, depressiv holatlar va emotsiyalarni boshqarish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli raqamli zamonda emotsional intellektni rivojlantirish zamonaviy psixologiyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Peter Salovey va John Mayer nazariyasiga ko'ra [2], emotsional intellekt insonning kommunikativ faoliyatida muhim psixologik resurs hisoblanadi. Chunki samarali muloqot faqat axborot almashish jarayoni emas, balki hissiy holatlarni anglash va ularga mos ravishda munosabat bildirish jarayonidir. Inson suhbatdoshining kayfiyati, ehtiyojlari va hissiy reaksiyalarini tushuna olgan taqdirda ijtimoiy munosabatlarni samarali shakllantira oladi. Raqamli muhitda emotsional intellektning ayniqsa ikki jihati - empatiya va emotsiyalarni boshqarish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotda turli fikrlar to'qnashuvi, tanqidiy izohlar va salbiy axborotlar bilan uchrashish mumkin. Bunday vaziyatlarda o'z hissiyotlarini nazorat qila olish, vaziyatni to'g'ri baholash va konstruktiv munosabat bildirish yoshlarning psixologik barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, emotsional intellekt yoshlarning onlayn ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Raqamli platformalar yangi muloqot imkoniyatlarini yaratgan bo'lsa-da, ular insondan yuqori darajadagi hissiy anglash va kommunikativ mas'uliyatni talab qiladi. Emotsional jihatdan yetuk foydalanuvchi virtual muhitda ham hurmatli muloqotni saqlash, boshqalarning nuqtai nazarini hisobga olish va nizoli vaziyatlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu konsepsiya raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda inson omilining, ayniqsa hissiy ong va ijtimoiy kompetensiyalarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Demak,

zamonaviy yoshlarning raqamli makondagi muvaffaqiyatli moslashuvi nafaqat texnologik ko‘nikmalarga, balki rivojlangan emotsional intellektga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Patti M. Valkenburg va Jochen Peterlarning asosiy ilmiy yondashuvi shundan iboratki, internet va raqamli kommunikatsiyaning yoshlar rivojlanishiga ta’siri bir tomonlama salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholanmasligi kerak. Internetning ta’sirini tushuntirishda ikki asosiy gipotezani ilgari suradilar: stimulatsiya gipotezasi va siqib chiqarish gipotezasi [3].

Stimulatsiya gipotezasiga ko‘ra, onlayn kommunikatsiya yoshlarning mavjud ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Internet orqali muloqot qilish yoshlar uchun o‘z fikrlarini erkin ifodalash, yangi ijtimoiy aloqalar o‘rnatish va tengdoshlari bilan munosabatlarni mustahkamlash imkonini beradi. Muntazam ijtimoiy muloqot jarayoni yoshlarning empatiya, tinglash, fikr almashish va boshqalarning hissiy holatini tushunish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Raqamli kommunikatsiya ushbu jarayon uchun yangi maydon yaratadi.

Siqib chiqarish gipotezasiga ko‘ra, haddan tashqari onlayn faoliyat real hayotdagi yuzma-yuz munosabatlarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada yoshlarning bevosita ijtimoiy tajribasi qisqarib, ijtimoiy muhitga kirishishdan qo‘rqadigan, real empatiya ko‘nikmalari shakllanmay qolishi va emotsional muloqot kabi ko‘nikmalarning rivojlanishi qiyinlashishi mumkin.

Valkenburg va Peter tadqiqotlarining muhim jihati shundaki, ular internetning yoshlar psixologiyasiga ta’siri ko‘proq foydalanish shakliga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadilar. Ya’ni muammo internetning o‘zida emas, balki undan qanday maqsadda foydalanishda namoyon bo‘ladi. Masalan, do‘stlar bilan faol muloqot qilish, qo‘llab-quvvatlash olish va fikr almashish ijobiy psixologik natijalarga olib kelishi mumkin. Aksincha, passiv kuzatuv, ijtimoiy taqqoslash yoki haddan tashqari foydalanish salbiy emotsional holatlarni kuchaytirishi mumkin.

Zamonaviy psixologiyada emotsional intellekt tushunchasining ilmiy rivojlanishida John D. Mayer, David R. Caruso va Peter Saloveylarning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu olimlar emotsional intellektni shaxsning xarakter xususiyati yoki oddiy ijtimoiy ko‘nikmasi sifatida emas, balki insonning hissiy axborotni qayta ishlash qobiliyatiga asoslangan alohida intellekt turi sifatida izohlaydilar. Ularning yondashuvi “ability model” (qobiliyat modeli) nomi bilan mashhur bo‘lib, emotsional intellektni ilmiy o‘lchash va tadqiq qilish imkonini berdi.

John D. Mayer, David R. Caruso va Peter Saloveylarning [4] asosiy ilmiy g‘oyasiga ko‘ra, inson nafaqat mantiqiy va akademik bilimlarga ega bo‘lishi, balki emotsional ma’lumotlarni ham tushunish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Chunki kundalik hayotdagi ko‘plab qarorlar, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ jarayonlar hissiy axborot bilan chambarchas bog‘liqdir.

Olimlar emotsional intellektni to‘rtta o‘zaro bog‘liq qobiliyat orqali tushuntiradilar:

Birinchisi - **emotsiyalarni idrok etish qobiliyati.** Bu insonning o‘z hissiy holatini va boshqa odamlarning emotsiyalarini aniqlay olish qobiliyatidir. Raqamli kommunikatsiya sharoitida ushbu qobiliyat yangi shakllarda namoyon bo‘ladi. Chunki internet orqali muloqotda yuz ifodasi va tana harakatlari kabi tabiiy emotsional belgilar kamayadi. Natijada yoshlar hissiyotlarni matn, emoji, ovozli xabar yoki vizual belgilar orqali anglashga moslashadi.

Ikkinchisi - **emotsiyalardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati.** Mualliflar emotsiyalar inson tafakkuriga ta’sir qiluvchi muhim axborot manbai ekanligini ta’kidlaydilar. Shaxs o‘z hissiy holatini tushungan holda vaziyatni yaxshiroq baholaydi va samaraliroq qaror qabul qiladi. Yoshlarning raqamli muhitdagi faoliyatida bu qobiliyat ayniqsa muhimdir, chunki ijtimoiy tarmoqlarda tezkor reaksiyalar, bahslar va turli fikrlar bilan ishlashga to‘g‘ri keladi.

Uchinchi jihat - **emotsiyalarni tushunish qobiliyati.** Bu turli hissiyotlarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish jarayonlarini anglashni anglatadi. Virtual muloqotda ko‘pincha qisqa yozishmalar sababli noto‘g‘ri tushunishlar yuzaga kelishi mumkin. Emotsional intellekti rivojlangan shaxs esa xabar mazmunini faqat yuzaki emas, balki kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq holda tahlil qiladi.

To‘rtinchi va eng yuqori darajadagi qobiliyat - **emotsiyalarni boshqarish** hisoblanadi. Mayer, Caruso va Salovey fikricha, inson o‘z hissiyotlarini nazorat qila olishi va ularni konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltira olishi kerak. Bu qobiliyat ayniqsa raqamli kommunikatsiyada muhimdir, chunki internet muhitida foydalanuvchilar ko‘pincha tanqid, nizolar, salbiy fikrlar va hissiy bosimlarga duch keladilar.

Mazkur nazariya yoshlarning raqamli kommunikatsiyasini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy hayotining katta qismi virtual platformalarga ko‘chmoqda. Shu sababli ularning kommunikativ muvaffaqiyati faqat texnik bilimlarga emas, balki emotsional axborotni qayta ishlash qobiliyatiga ham bog‘liq bo‘lmoqda.

Mayer, Caruso va Salovey yondashuvining muhim jihati shundaki, ular emotsional intellektni rivojlantirish mumkin bo‘lgan qobiliyat sifatida ko‘radilar. Bu esa ta’lim jarayonida yoshlarning nafaqat akademik bilimlarini, balki empatiya, o‘zini boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli kommunikatsiya sharoitida ushbu qarashlar yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki virtual muhitda insonning hissiy reaksiyalari tez-tez namoyon bo‘ladi, ammo ularni to‘g‘ri tushunish va boshqarish har

doim ham oson emas. Shuning uchun emotsional intellekt yoshlarning raqamli madaniyati va psixologik barqarorligining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Umuman olganda, Mayer, Caruso va Saloveyning qobiliyat modeli emotsional intellektni ilmiy jihatdan tushuntirish va o'lchash uchun mustahkam nazariy asos yaratdi. Ushbu model zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning empatiya, ijtimoiy moslashuv, konfliktlarni boshqarish va psixologik farovonligini tadqiq qilishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar yoshlarning kundalik hayotida markaziy o'rin egallamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn platformalar va mobil qurilmalar yoshlarning muloqot qilish, axborot olish va o'zini namoyon qilish usullarini tubdan o'zgartirdi. Shu sababli raqamli medianing o'smirlar psixologiyasi va ruhiy salomatligiga ta'sirini o'rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jacqueline Nesi, Eva H. Telzer va Mitchell J. Prinstein [5] muharrirligida tayyorlangan "Handbook of Adolescent Digital Media Use and Mental Health" ana shu masalalarni kompleks ilmiy asosda tahlil qiluvchi muhim tadqiqot manbalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur qo'llanmaning asosiy ilmiy g'oyasi shundan iboratki, raqamli media yoshlarning rivojlanishiga oddiy texnologik vosita sifatida emas, balki ularning ijtimoiy, emotsional va psixologik tajribalarini shakllantiruvchi muhit sifatida ta'sir qiladi. Olimlar raqamli kommunikatsiyaning ta'sirini faqat ijobiy yoki salbiy hodisa sifatida baholash noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydilar. Chunki raqamli texnologiyalarning natijasi yoshlarning individual xususiyatlari, foydalanish maqsadi, ijtimoiy muhiti va onlayn faoliyat shakliga bog'liq bo'ladi.

Raqamli kommunikatsiyaning yoshlar psixologiyasiga ta'sirini tushunishda eng muhim jihatlardan biri - uning ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi rolidir. O'smirlik davrida tengdoshlar bilan munosabat, ijtimoiy qabul qilinish va o'zini namoyon qilish ehtiyoji kuchli bo'ladi. Raqamli platformalar esa yoshlarga do'stlik aloqalarini saqlash, yangi ijtimoiy guruhlarga qo'shilish va o'z fikrlarini keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi.

Ushbu jarayon emotsional intellekt bilan bevosita bog'liq. Chunki raqamli muhitda samarali muloqot qilish uchun yosh inson nafaqat axborotni uzatishi, balki boshqa insonlarning hissiy holatini tushunishi, empatiya ko'rsatishi va o'z reaksiyalarini boshqara olishi kerak. Raqamli kommunikatsiyada yuzma-yuz muloqotdagi ko'plab emotsional belgilar kamaygani sababli, yoshlar hissiyotlarni yangi shakllarda anglashga moslashadilar.

Yoshlar psixologiyasi nuqtai nazaridan raqamli emotsiyalar alohida ahamiyatga ega. O'smirlik va yoshlik davrida shaxsiy identifikatsiya, tengdoshlar tomonidan qabul qilinish va ijtimoiy mavqega ega bo'lish ehtiyoji kuchli bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar esa yoshlar uchun o'zini namoyon qilish va boshqalarning munosabatini olish imkoniyatini yaratadi. Biroq doimiy baholanish, layklar soniga bog'lanish va boshqalar bilan taqqoslash ayrim hollarda emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Raqamli dunyoda empatiya masalasi ham muhim ilmiy muammolardan biridir. An'anaviy muloqotda inson boshqa shaxsning hissiyotlarini bevosita kuzatish orqali tushunadi. Virtual muloqotda esa empatiya ko'proq kognitiv tushunish va kommunikativ belgilarni to'g'ri talqin qilish orqali amalga oshadi. Shu sababli yoshlarning raqamli empatiyasini rivojlantirish zamonaviy psixologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Raqamli emotsiyalar masalasida yana bir muhim jihat - hissiy boshqaruvdir. Internet muhitida inson turli xil axborot oqimlari, tanqidiy fikrlar va ijtimoiy bosimlarga duch keladi. Emotsiyalarni boshqarish qobiliyati rivojlangan shaxs bunday vaziyatlarda o'z reaksiyalarini nazorat qila oladi, vaziyatni tahlil qiladi va konstruktiv munosabat bildira oladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarning emotsional qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ham ko'rsatadi. Onlayn hamjamiyatlar, ijtimoiy guruhlar va muloqot platformalari ayrim yoshlar uchun psixologik yordam manbai bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'z muammolarini bevosita muhokama qilish qiyin bo'lgan shaxslar uchun raqamli muhit qo'llab-quvvatlovchi kommunikativ makon yaratadi.

Umuman olganda, raqamli dunyoda emotsiyalar masalasi inson hissiyotlarining yo'qolishi emas, balki ularning yangi shakllarda namoyon bo'lish jarayonidir. Raqamli kommunikatsiya yoshlarning emotsional tajribasini o'zgartirib, yangi imkoniyatlar va yangi psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy yoshlar psixologiyasida emotsional intellekt, raqamli savodxonlik va onlayn empatiya bir-biri bilan bog'liq holda o'rganilishi zarur.

Raqamli muhitda emotsiyalarni samarali boshqarish va tushunish yoshlarning psixologik farovonligi uchun muhim omil hisoblanadi. Texnologiyalar insonlar o'rtasidagi hissiy aloqalarni kamaytirmaydi, balki ularni yangi kommunikativ shakllarga moslashtiradi. Biroq bu jarayonda emotsional intellekt va raqamli madaniyatning rivojlanganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yo'nalishda olib borildi. Tadqiqot jarayonida raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning emotsional intellektini rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, zamonaviy psixologik nazariyalar hamda xalqaro ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Jumladan, emotsional intellekt, raqamli

kommunikatsiya va yoshlar psixologiyasiga oid ilmiy manbalar qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlandi.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali emotsional intellektning mazmuni, tarkibiy komponentlari va raqamli muhitdagi namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritildi. Qiyosiy taqqoslash metodi yordamida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari o‘zaro solishtirilib, raqamli kommunikatsiyaning yoshlar psixologiyasiga ta’siri bo‘yicha umumiy va o‘ziga xos jihatlar aniqlandi.

Tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari asosida emotsional intellektni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik hamda pedagogik omillar yagona konseptual tizimga keltirildi. Mantiqiy tahlil metodi orqali raqamli kommunikatsiya jarayonida emotsiyalarni anglash, boshqarish, empatiya va kommunikativ kompetentlikning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Qo‘llanilgan metodlar tadqiqot mavzusining nazariy asoslarini yoritish, mavjud ilmiy qarashlarni tizimli tahlil qilish hamda raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning emotsional intellektini rivojlantirishga oid ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli kommunikatsiya yoshlarning emotsional rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, raqamli platformalar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, emotsional qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda yangi ijtimoiy aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, introvert yoki ijtimoiy muloqotda qiyinchilikka duch keladigan yoshlar uchun internet o‘z fikrini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlardan me’yoridan ortiq foydalanish, passiv kuzatuv, doimiy taqqoslash, kiberbulling va axborot bosimi emotsional zo‘riqish, xavotir, depressiv holatlar hamda psixologik beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Tahlillar Mayer, Salovey va Carusoning qobiliyat modeli raqamli kommunikatsiyani tushuntirishda yuqori metodologik salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Emotsiyalarni idrok etish, tushunish, ulardan foydalanish va boshqarish qobiliyatlari virtual kommunikatsiyada samarali ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi asosiy psixologik omillar hisoblanadi. Shuningdek, Valkenburg va Peter ilgari surgan stimulatsiya gipotezasi faol onlayn kommunikatsiyaning emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishini tasdiqlasa, siqib chiqarish gipotezasi virtual faoliyatning me’yoridan ortishi real ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Olingan ilmiy natijalar raqamli kommunikatsiya sharoitida emotsional intellektni rivojlantirish yoshlarning psixologik salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va raqamli madaniyatini shakllantirishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya sharoitida emotsional intellekt yoshlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va psixologik farovonligini ta’minlovchi asosiy psixologik resurslardan biri hisoblanadi. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, emotsional boshqaruv, empatiya va psixologik barqarorlikka yangi talablarni ham qo‘ymoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitning ijobiy ta’siri undan foydalanish madaniyati va emotsional intellekt darajasiga bevosita bog‘liq.

Emotsional kompetensiyalari rivojlangan yoshlar virtual makonda konstruktiv muloqot olib borish, salbiy axborotlarga nisbatan barqaror munosabat bildirish hamda sog‘lom ijtimoiy aloqalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois oliy ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari hamda psixologik xizmat tizimida emotsional intellekt, raqamli madaniyat va onlayn empatiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlari hamda psixoprofilaktik treninglarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Kelgusidagi tadqiqotlarda O‘zbekiston yoshlarining emotsional intellekti va raqamli kommunikatsiya xususiyatlarini empirik metodlar asosida o‘rganish, milliy diagnostik mezonlarni ishlab chiqish hamda ularning psixologik farovonlik bilan bog‘liqligini statistik jihatdan tahlil qilish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Subrahmanyam, K., & Šmahel, D. (2011). Digital Youth: The Role of Media in Development. New York: Springer.
2. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 9(3), 185–211.
3. Valkenburg, P. M., & Peter, J. (2007). Online Communication and Adolescent Well-Being: Testing the Stimulation Versus the Displacement Hypothesis. Journal of Computer-Mediated Communication, 12(4), 1169–1182.
4. Mayer, J. D., Salovey, P., & Caruso, D. R. (2004). Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. Psychological Inquiry, 15(3), 197–215.
5. Nesi, J., Telzer, E. H., & Prinstein, M. J. (Eds.). (2022). Handbook of Adolescent Digital Media Use and Mental Health. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781108976237



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA "O'QUV BURNOUT" (O'QISHGA NISBATAN CHARCHASH VA SOVISH) HOLATINING OLDINI OLISHDA MOTIVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Babajanova Gulmira Muratbayevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti tyutori

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kuzatiladigan "o'quv burnout", ya'ni o'quv faoliyatiga nisbatan emotsional charchash, qiziqishning so'nishi va o'z-o'ziga ishonchning pasayishi holati pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xalqaro va milliy ilmiy manbalar asosida ushbu hodisaning nazariy asoslari, yosh xususiyatlariga bog'liq namoyon bo'lish shakllari va uni keltirib chiqaruvchi omillar aniqlangan. Nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'quv burnout, kichik maktab yoshi, o'quv motivatsiyasi, emotsional charchash, pedagogik texnologiya, o'z-o'zini boshqarish nazariyasi, gamifikatsiya, o'quvchi farovonligi.

Abstract: This article analyzes the phenomenon of student burnout observed among primary school pupils, namely emotional exhaustion related to learning, loss of interest in studies, and decreased self-confidence, from a pedagogical and psychological perspective. Based on international and national scientific sources, the theoretical foundations of this phenomenon, its age-specific manifestations, and the factors contributing to its development are identified. The paper also presents theoretical information on motivational pedagogical technologies aimed at preventing student burnout in primary school learners.

Key words: student burnout, primary school pupils, learning motivation, emotional exhaustion, pedagogical technology, self-determination theory, gamification, student well-being.

Аннотация: В данной статье с педагогико-психологической точки зрения проанализировано явление учебного выгорания у учащихся младшего школьного возраста, проявляющееся в эмоциональном истощении по отношению к учебной деятельности, снижении интереса к обучению и уменьшении уверенности в собственных силах. На основе отечественных и зарубежных научных источников определены теоретические основы данного явления, особенности его проявления с учетом возрастных характеристик, а также факторы, способствующие его возникновению. Представлены теоретические сведения о мотивационных педагогических технологиях, направленных на профилактику учебного выгорания у младших школьников.

Ключевые слова: учебное выгорание, учащиеся младшего школьного возраста, учебная мотивация, эмоциональное истощение, педагогическая технология, теория самодетерминации, геймификация, благополучие учащихся.

KIRISH

"Burnout", ya'ni kasbiy yoki emotsional so'nish tushunchasi fanga birinchi marta amerikalik psixiatr Gerbert Freydenberger tomonidan 1974-yilda kiritilgan bo'lib, u dastlab kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan surunkali charchoq holatini tavsiflash uchun qo'llanilgan [1].

Keyinchalik Kristina Maslach va Syuzan Jekson bu hodisani uch komponentli tuzilma - emotsional charchoq, depersonalizatsiya (befarqlik) va shaxsiy yutuqlardan qoniqmaslik - sifatida ilmiy asoslab, o'lchash vositasini (Maslach Burnout Inventory) ishlab chiqdilar [2]. XX asrning oxiriga kelib, bu konsepsiya faqat kasbiy faoliyat doirasidan chiqib, ta'lim sohasiga ham tatbiq etila boshlandi.

Fin olimi Katarina Salmela-Aro va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan "maktab burnouti" (school burnout) konsepsiyasi ushbu hodisani o'quvchilarga nisbatan uchta o'lchamda tavsiflaydi: o'quv yuklamasidan charchash, o'qishga nisbatan sinik (loqayd) munosabat va o'z o'quv faoliyatida yetarli emaslik hissi [3].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab burnouti o'quvchining akademik yutuqlariga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki maktabni tark etish xavfini deyarli to'rt barobar oshiradi [4].

Shu bilan birga, so'nggi yillarda o'tkazilgan meta-tahliliy tadqiqotlar burnout alomatlarining nafaqat yuqori sinf o'quvchilarida, balki boshlang'ich ta'lim bosqichida ham shakllana boshlashi va bu "ilk belgilar" keyingi ta'lim bosqichlarida jiddiy burnout holatining kuchli bashoratchisi bo'lishi mumkinligini aniqladi [5].

Xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadqiqotlar o'quv burnoutining keng tarqalganligini tasdiqlaydi: Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 72 ta davlatni qamrab olgan so'rovnoma natijalari o'quvchilarning sezilarli qismi o'quv jarayoni bilan bog'liq yuqori darajadagi stressni boshdan kechirishini ko'rsatgan. Fin tadqiqotchilarining ma'lumotlariga ko'ra, akademik yo'nalishdagi o'quvchilarning taxminan uchdan bir qismi o'quv faoliyati bilan bog'liq nisbatan yuqori darajadagi charchoqni qayd etadi [5]. Garchi bu ko'rsatkichlar asosan o'rta va yuqori sinf o'quvchilari misolida olingan bo'lsa-da, ular muammoning miqyosini va uni erta bosqichda oldini olish zaruratini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonda ushbu muammo hozircha asosan pedagoglarning kasbiy so'nishi kontekstida o'rganilgan bo'lib, kichik maktab yoshi o'quvchilarida kuzatiladigan o'quv burnouti hodisasi alohida ilmiy-nazariy tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Ayni paytda amaliyotda o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan tez-tez qayd etiladigan holatlar - bolaning maktabga borishni istamasligi, darslarga nisbatan sustligi, tez charchashi, diqqatining barqaror bo'lmasligi - aslida o'quv burnoutining kichik maktab yoshiga xos ilk ko'rinishlari bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur muammoni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va uning oldini olishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi - kichik maktab yoshi o'quvchilarida o'quv burnouti holatining namoyon bo'lish xususiyatlarini, uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillarni aniqlash hamda uning oldini olishga xizmat qiluvchi motivatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy manbalar asosida tizimlashtirishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

1) o'quv burnouti tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
2) uning kichik maktab yoshiga xos namoyon bo'lish shakllarini aniqlash;
3) profilaktik ahamiyatga ega motivatsion pedagogik texnologiyalarni tizimlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quv burnouti (school burnout) muammosi so'nggi o'n yilliklarda pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti sohalarida keng o'rganilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Mazkur tushunchaning nazariy asoslari dastlab kasbiy faoliyat doirasida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik ta'lim tizimiga moslashtirilib, o'quvchilarning emotsional holati, motivatsiyasi va akademik natijalari bilan bog'liq muhim omil sifatida e'tirof etildi.

Burnout fenomenining ilmiy asoslari H.J. Freudenberger tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u ushbu holatni uzoq muddatli ruhiy zo'riqish natijasida yuzaga keladigan emotsional va jismoniy holdan toyish sifatida tavsiflaydi [1].

Keyinchalik C. Maslach va S.E. Jackson burnoutning emotsional charchoq, depersonalizatsiya hamda shaxsiy yutuqlarning pasayishi kabi tarkibiy qismlarini ilmiy jihatdan asoslab, uni baholash uchun Maslach Burnout Inventory (MBI) metodikasini ishlab chiqdilar [2]. Ushbu yondashuv burnoutni o'rganish bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun nazariy poydevor vazifasini o'tadi.

Ta'lim tizimida burnout muammosini o'rganishga K. Salmela-Aro va uning hamkasblari muhim hissa qo'shgan. Ular o'quv burnoutini o'quv yuklamasidan charchash, o'qishga nisbatan loqayd munosabat hamda o'zini o'quv faoliyatida yetarlicha muvaffaqiyatli deb hisoblamaslik hissidan iborat ko'p komponentli psixologik holat sifatida izohlaydi. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan School Burnout Inventory (SBI) metodikasi bugungi kunda turli mamlakatlarda o'quv burnoutini baholashning ishonchli vositalaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda [3].

Bask va Salmela-Aro tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'quv burnoutining akademik o'zlashtirish pasayishi, maktabga moslashuvning yomonlashuvi hamda ta'limni tark etish xavfining ortishi bilan uzviy bog'liqligi isbotlangan [4]. Shuningdek, Salmela-Aro va hammualliflarining longitudinal tadqiqotlari burnout alomatlari ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq shakllanishi va vaqt o'tishi bilan kuchayib borishini ko'rsatadi. Bu esa profilaktik chora-tadbirlarni imkon qadar erta boshlash zarurligini asoslaydi [5].

O‘quv faoliyatidagi ichki motivatsiyani shakllantirish masalasi Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory doirasida chuqur yoritilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, o‘quvchilarning avtonomligi, kompetentlik hissi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi ta’minlanganda ularning ichki motivatsiyasi ortadi hamda emotsional zo‘riqish darajasi kamayadi [6]. Shu sababli motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar burnout profilaktikasining muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mahalliy tadqiqotlarda ta’lim jarayonini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish masalalari keng yoritilgan. Xususan, Xolmatova boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilarning bilishga qiziqishini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi [8].

Karimova esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishini qayd etadi [9].

Maxammadjonovaning tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlari, emotsional barqarorligi va motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashning pedagogik ahamiyati yoritilgan [10].

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarning asosiy qismi o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarida burnout muammosini empirik jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Mahalliy ilmiy ishlarda esa asosan pedagoglarning kasbiy so‘nishi, ta’lim sifati yoki innovatsion texnologiyalar masalalari yoritilib, kichik maktab yoshi o‘quvchilarida o‘quv burnoutining shakllanish mexanizmlari hamda uning motivatsion pedagogik texnologiyalar orqali oldini olish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, unda kichik maktab yoshi o‘quvchilarida o‘quv burnoutining nazariy asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi, ushbu yosh davriga xos xavf omillari umumlashtiriladi hamda burnoutning oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida tizimlashtiriladi. Natijada boshlang‘ich ta’lim amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, uning metodologik asosini xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyoslash hamda sintez qilish metodlari tashkil etadi. Tahlil jarayonida kontent-tahlil metodidan foydalanilib, har bir manbadagi burnoutni keltirib chiqaruvchi omillar va profilaktik yondashuvlar taqqoslandi hamda umumlashtirildi. Bundan tashqari, motivatsion texnologiyalarni tizimlashtirishda Edvard Desi va Richard Rayanning o‘z-o‘zini boshqarish nazariyasi nazariy asos sifatida qo‘llanildi. Unga ko‘ra, shaxsning ichki motivatsiyasi uchta bazaviy psixologik ehtiyoj - avtonomiya, kompetentlik va boshqalar bilan bog‘liqlik hissi - qondirilganda barqaror rivojlanadi [6].

Tadqiqot uslubiyati amaliy tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan keyingi bosqich - pedagogik eksperiment o‘tkazish va statistik tahlil qilish - uchun nazariy poydevor yaratishga qaratilgan bo‘lib, maqolada keltirilgan model va tavsiyalar boshlang‘ich ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan ilmiy-amaliy asos sifatida taqdim etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Материалом исследования послужили результаты клинического обследования 60 пациентов с аллергодерматозами, проживающих в Ташкентской области. Возраст обследованных составил от 18 до 55 лет. В исследование включались пациенты с клиническими признаками атопического дерматита, аллергического контактного дерматита, экземы и токсикодермии. Критериями включения являлись наличие кожного зуда, воспалительных высыпаний аллергического характера, рецидивирующее или острое течение заболевания, проживание в Ташкентской области не менее трех лет. Критериями исключения были тяжелые системные заболевания, острые инфекционные дерматозы, онкологические заболевания, выраженные иммунодефицитные состояния и прием системных иммуносупрессивных препаратов непосредственно перед обследованием. Клиническая оценка включала сбор жалоб, анализ анамнеза, определение длительности заболевания, частоты рецидивов, локализации высыпаний, характера морфологических элементов и степени выраженности зуда. Статистическая обработка включала расчет абсолютных значений, процентных показателей и сравнительный анализ распределения клинических признаков.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Таблица 1: **Распределение пациентов по полу и возрасту**

Показатель	n	%
Мужчины	27	45,0
Женщины	33	55,0
18-25 лет	14	23,3
26-35 лет	18	30,0
36-45 лет	16	26,7
46-55 лет	12	20,0

В возрастной структуре преобладали пациенты 26-35 лет, что может быть связано с высокой социальной и профессиональной активностью данной группы, частым использованием косметических и моющих средств, а также большей обращаемостью за медицинской помощью. Женщины составили 55,0% наблюдений, что, вероятно, обусловлено более частым контактом с косметикой, бытовой химией, средствами ухода за кожей и волосами, а также более ранним обращением к врачу при появлении кожных симптомов. Мужчины чаще отмечали связь обострений с профессиональными факторами: строительной пылью, цементом, лакокрасочными материалами, горюче-смазочными веществами, сельскохозяйственными агентами (Таблица 2).

Таблица 2: **Структура клинических форм аллергодерматозов**

Клиническая форма	n	%
Атопический дерматит	31	51,7
Аллергический контактный дерматит	17	28,3
Экзема	8	13,3
Токсикодермия	4	6,7
Всего	**60**	**100,0**

Наиболее частой клинической формой был атопический дерматит. У пациентов этой группы заболевание чаще имело длительное течение, сопровождалось сухостью кожи, выраженным зудом, лихенификацией и сезонными обострениями. Типичными зонами поражения были сгибательные поверхности верхних и нижних конечностей, шея, лицо, кисти и область локтевых сгибов. У части пациентов отмечались признаки атопического анамнеза: аллергический ринит, бронхиальная астма у родственников, непереносимость отдельных пищевых продуктов или лекарственных средств.

Аллергический контактный дерматит чаще проявлялся ограниченными очагами воспаления в местах контакта с раздражителем или аллергеном. У женщин нередко поражались кисти, веки, лицо и шея, что было связано с использованием косметических средств, красителей для волос, парфюмерии, кремов, моющих и дезинфицирующих растворов. У мужчин контактный дерматит чаще локализовался на кистях, предплечьях и открытых участках кожи, что указывало на профессиональный или бытовой контакт с химическими веществами. Клинически выявлялись эритема, отечность, микровезикулы, мокнутие, шелушение и трещины.

Экзема выявлена у 13,3% пациентов. Для этой группы было характерно более выраженное полиморфное течение: одновременно наблюдались эритема, папулы, микровезикулы, эрозии, корки и шелушение. У части пациентов процесс имел хронический характер с периодами мокнутия и последующей лихенификацией. Токсикодермия диагностирована у 6,7% обследованных и была связана преимущественно с приемом лекарственных препаратов или пищевыми факторами. У этих пациентов высыпания имели более острое начало, были распространенными и сопровождались выраженным субъективным дискомфортом (Таблица 3).

Таблица 3: **Частота основных клинических симптомов**

Симптом	n	%
Зуд кожи	56	93,3
Эритема	53	88,3
Сухость кожи	46	76,7
Папулезные высыпания	43	71,7
Шелушение	39	65,0
Лихенификация	31	51,7
Нарушение сна из-за зуда	28	46,7
Мокнутие	18	30,0
Трещины кожи	16	26,7
Вторичные экскориации	35	58,3

Зуд являлся ведущим симптомом и определял тяжесть субъективного состояния пациентов. У 24 пациентов (40,0%) зуд усиливался в вечернее и ночное время, что приводило к нарушению сна, раздражительности и снижению работоспособности. У 19 пациентов (31,7%) зуд усиливался после контакта с

бытовой химией или пылью, у 15 пациентов (25,0%) - после употребления отдельных пищевых продуктов, у 13 пациентов (21,7%) - после эмоционального стресса. Таким образом, зуд при аллергодерматозах носил не только локальный, но и системно значимый характер, влияя на психоэмоциональное состояние и качество жизни.

При оценке локализации кожного процесса установлено, что наиболее часто поражались кисти, лицо, шея, сгибательные поверхности конечностей и туловище. Поражение кистей имело особое значение, поскольку оно было связано с бытовым или профессиональным контактом и значительно ограничивало повседневную активность. Поражение лица и век чаще наблюдалось при контактной сенсибилизации к косметическим средствам, ароматизаторам, консервантам и красителям. У пациентов с атопическим дерматитом нередко отмечалась симметричность поражений и сочетание воспалительных элементов с выраженной сухостью кожи (Таблица 4).

Таблица 4: **Локализация кожного процесса**

Локализация	n	%
Кисти	34	56,7
Лицо и веки	25	41,7
Шея	22	36,7
Сгибательные поверхности конечностей	37	61,7
Туловище	29	48,3
Голени и стопы	18	30,0
Распространенное поражение	12	20,0

По степени клинической выраженности легкое течение установлено у 16 пациентов (26,7%), среднетяжелое - у 30 пациентов (50,0%), тяжелое - у 14 пациентов (23,3%). Легкое течение характеризовалось ограниченными очагами эритемы, умеренным зудом и редкими рецидивами. Среднетяжелое течение сопровождалось более распространенными высыпаниями, выраженным зудом, сухостью кожи и обострениями 2-3 раза в год. Тяжелое течение отличалось распространенностью процесса, ночным зудом, нарушением сна, лихенификацией, экскориациями и частыми рецидивами.

Средняя длительность заболевания составила 4,8 ± 1,6 года. У 23 пациентов (38,3%) рецидивы возникали более трех раз в год, у 21 пациента (35,0%) – два-три раза в год, у 16 пациентов (26,7%) - не чаще одного раза в год. Сезонность обострений чаще отмечалась в весенне-осенний период, что можно объяснить сочетанием температурных колебаний, пылевой нагрузки, цветения растений, снижения барьерной функции кожи и контакта с бытовыми аллергенами (Таблица 5).

Таблица 5: **Степень тяжести и частота рецидивов**

Показатель	n	%
Легкое течение	16	26,7
Среднетяжелое течение	30	50,0
Тяжелое течение	14	23,3
Рецидивы 1 раз в год	16	26,7
Рецидивы 2-3 раза в год	21	35,0
Рецидивы более 3 раз в год	23	38,3

Анализ анамнеза позволил выделить несколько групп факторов риска: экологические, бытовые, пищевые, профессиональные, лекарственные и психоэмоциональные. Наиболее часто пациенты указывали на связь обострений с пылью, бытовой химией, косметикой, синтетической одеждой, моющими средствами, пищевыми продуктами и стрессом. У 21 пациента (35,0%) отмечалась наследственная предрасположенность к аллергическим заболеваниям. У 18 пациентов (30,0%) имелся сопутствующий аллергический ринит, у 6 пациентов (10,0%) - бронхиальная астма или эпизоды бронхообструкции в анамнезе.

Пациенты, проживающие в более урбанизированных районах, чаще отмечали влияние пыли, выхлопных газов, промышленных выбросов и бытовой химии. В сельских районах чаще указывались растительная пыльца, контакт с животными, сельскохозяйственная пыль, удобрения и сезонные факторы. При этом у пациентов из экологически неблагоприятных зон рецидивы более трех раз в год

встречались чаще, чем у пациентов из относительно благоприятных районов. Это подтверждает необходимость учета территории проживания при планировании профилактических мероприятий (Таблица 6).

Таблица 6: **Вероятные провоцирующие факторы обострений**

Фактор	n	%
Бытовая пыль	32	53,3
Бытовая химия и моющие средства	29	48,3
Косметические средства и парфюмерия	24	40,0
Пищевые продукты	22	36,7
Профессиональные химические агенты	17	28,3
Психоэмоциональный стресс	26	43,3
Сезонное цветение растений	19	31,7
Лекарственные препараты	9	15,0

Полученные результаты показывают, что клиническая картина аллергодерматозов у жителей Ташкентской области соответствует современным представлениям о хронических воспалительных заболеваниях кожи аллергической природы, однако имеет региональные особенности. Преобладание атопического дерматита и аллергического контактного дерматита указывает на значение как эндогенной атопической предрасположенности, так и внешнего контакта с аллергенами. Высокая частота поражения кистей и лица подтверждает роль бытовых и профессиональных факторов, поскольку именно эти участки кожи чаще контактируют с химическими веществами, пылью, косметикой и внешней средой.

Важной особенностью является высокая частота зуда и нарушения сна. В клинической практике зуд нередко недооценивается, хотя именно он приводит к расчесам, повреждению эпидермального барьера, присоединению вторичной инфекции и хронизации воспаления. У пациентов с длительным течением заболевания формируется порочный круг: зуд вызывает расчесы, расчесы усиливают воспаление, воспаление поддерживает зуд. Поэтому терапевтическая тактика должна включать не только противовоспалительные средства, но и мероприятия по восстановлению кожного барьера, обучению пациента и устранению триггеров.

Сопоставление результатов с современными литературными данными показывает, что аллергический контактный дерматит требует более активного выявления причинных аллергенов. Международные обзоры подчеркивают значение эпикутанного patch-тестирования при подозрении на контактную сенсибилизацию, особенно при рецидивирующих поражениях кистей, век, лица и шеи. Для условий Ташкентской области это имеет практическое значение, поскольку пациенты часто используют косметические средства, парфюмерию, бытовую химию и лекарственные мази без предварительной оценки переносимости.

Практическая значимость исследования заключается в том, что полученные данные позволяют сформировать клинический алгоритм ведения пациентов: сбор подробного аллергологического и профессионального анамнеза, оценка локализации поражения, определение возможного контакта с аллергенами, оценка тяжести и частоты рецидивов, назначение базисного ухода за кожей и индивидуальных профилактических рекомендаций. Такой подход особенно важен для пациентов с хроническим течением и частыми обострениями.

Пациентам с аллергодерматозами рекомендуется регулярное использование эмолентов, ограничение контакта с бытовой химией, применение защитных перчаток при работе с моющими средствами, отказ от агрессивной косметики и ароматизированных средств, контроль пищевых триггеров. При подозрении на аллергический контактный дерматит целесообразно проведение эпикутанного тестирования. Пациентам с частыми рецидивами необходимо диспансерное наблюдение дерматолога и аллерголога-иммунолога.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аллергодерматозы у жителей Ташкентской области характеризуются преобладанием атопического дерматита и аллергического контактного дерматита, высокой частотой зуда, эритемы, сухости кожи и рецидивирующего течения. Наиболее значимыми факторами риска являются бытовая пыль, химические раздражители, косметика, стресс, пищевые продукты и профессиональные воздействия. Полученные результаты подтверждают необходимость комплексного клинического подхода, включающего оценку

симптомов, факторов риска, локализации поражений и частоты рецидивов. Профилактика должна быть направлена на восстановление кожного барьера, устранение аллергенов и индивидуальное обучение пациентов.

Использованная литература:

1. Bieber T. Atopic dermatitis. N Engl J Med. 2008;358(14):1483-1494.
2. Silverberg JI. Atopic dermatitis and allergic comorbidities. J Allergy Clin Immunol. 2019;143(1):46-55.
3. Akdis CA, Arkwright PD, Brüggen MC, et al. Type 2 immunity in atopic dermatitis and allergy. Nat Rev Immunol. 2020;20(2):114-126.
4. Langan SM, Irvine AD, Weidinger S. Atopic dermatitis. Lancet. 2020;396(10247):345-360.
5. Bolognia JL, Schaffer JV, Cerroni L. Dermatology. 4th ed. Philadelphia: Elsevier; 2018.
6. Habif TP. Clinical Dermatology: A Color Guide to Diagnosis and Therapy. 7th ed. Philadelphia: Elsevier; 2021.
7. Gawkrodger DJ, Ardern-Jones MR. Dermatology: An Illustrated Colour Text. 7th ed. Edinburgh: Elsevier; 2021.
8. Williams HC. Atopic dermatitis. N Engl J Med. 2005;352(22):2314-2324.
9. Micheletti RG, Rosenbach M. Dermatology Secrets Plus. 5th ed. Philadelphia: Elsevier; 2020.
10. Chamlin SL, Chren MM. Quality-of-life outcomes in atopic dermatitis. Immunol Allergy Clin North Am. 2010;30(3):281-288.

TYUTORLIK FAOLIYATINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ashirova Gulnora Xayrullayevna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatining pedagogik mazmuni, maqsadi, vazifalari va funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tyutorning ta'lim oluvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ta'limiy imkoniyatlarini aniqlash, ularni rivojlantirish hamda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Tyutorlik faoliyatining diagnostik, maslahat berish, motivatsion, ta'limiy, kasbiy yo'naltiruvchi, refleksiv va monitoring funksiyalari tizimlashtiriladi. Shuningdek, tyutorlikni pedagogik qo'llab-quvvatlashning uzluksiz mexanizmi sifatida tashkil etish modeli taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: tyutor, tyutorlik faoliyati, individual ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, pedagogik qo'llab-quvvatlash, diagnostika, motivatsiya, refleksiya, monitoring, kognitiv rivojlanish.

Abstract: The article analyzes the pedagogical content, purpose, tasks, and functional capabilities of tutoring in the modern education system. It examines the tutor's role in identifying learners' individual needs, interests, abilities, and educational opportunities, as well as in developing an individual educational trajectory. The diagnostic, advisory, motivational, educational, career-guidance, reflective, and monitoring functions of tutoring are systematized.

Key words: tutor, tutoring activity, individual education, individual educational trajectory, pedagogical support, diagnostics, motivation, reflection, monitoring.

Аннотация: В статье анализируются педагогическое содержание, цель, задачи и функциональные возможности тьюторской деятельности в современной системе образования. Раскрывается роль тьютора в выявлении индивидуальных потребностей, интересов, способностей и образовательных возможностей обучающихся, а также в формировании индивидуальной образовательной траектории. Систематизированы диагностическая, консультативная, мотивационная, образовательная, профориентационная, рефлексивная и мониторинговая функции тьютора.

Ключевые слова: тьютор, тьюторская деятельность, индивидуальное образование, индивидуальная образовательная траектория, педагогическая поддержка, диагностика, мотивация, рефлексия, мониторинг.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish, ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi faqat muayyan hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini boshqarishi, muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilishi, o'z imkoniyatlarini baholashi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchini faol subyekt sifatida e'tirof etish va uning individual rivojlanish yo'lini belgilash muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Ta'limning individuallashtirilishi ta'lim oluvchilarning bir xil mazmun, metod va vositalar asosida o'qitilishini emas, balki ularning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Chunki ta'lim oluvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, motivatsiyasi, fikrlash uslubi, o'zlashtirish sur'ati va kelajakdagi maqsadlari bir-biridan farq qiladi. Mazkur farqlarni hisobga olmasdan tashkil etilgan ta'lim jarayoni ayrim ta'lim oluvchilarning imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy pedagogik jarayonda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish va ta'lim oluvchining rivojlanishiga mos pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, tyutorlik faoliyati shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tyutorning faoliyati ta'lim oluvchining mavjud imkoniyatlarini aniqlash, uning ta'limiy ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rganish, rivojlanish maqsadlarini belgilash hamda ushbu maqsadlarga erishish

uchun individual ta'lim yo'lini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bunda tyutor ta'lim oluvchining o'rniga qaror qabul qiluvchi yoki uning faoliyatini to'liq boshqaruvchi emas, balki mustaqil tanlov va qaror qabul qilish jarayonini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi hamroh sifatida faoliyat yuritadi.

Tyutorlik faoliyatining muhim xususiyatlaridan biri uning diagnostik xarakterga ega ekanligidir. Tyutor dastlab ta'lim oluvchining bilim darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va mavjud muammolarini aniqlaydi. Diagnostika natijalari asosida ta'lim oluvchining kuchli va rivojlantirilishi zarur bo'lgan jihatlari belgilanadi. Bu esa keyingi pedagogik faoliyatni umumiy emas, balki aniq individual ehtiyojlarga asoslangan holda tashkil etish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.S. Vygotskiyning pedagogik-psixologik qarashlarida ta'lim va rivojlanishning o'zaro aloqadorligi, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va pedagogik hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu nazariy qarashlar tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining mavjud imkoniyatlarini aniqlash va uning keyingi rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslash uchun metodologik ahamiyatga ega.

I.A. Zimnyayaning pedagogik psixologiyaga oid tadqiqotlarida ta'lim jarayonining psixologik mexanizmlari, ta'lim oluvchining faoliyati va uning rivojlanish xususiyatlari muhim o'rin egallaydi. Mazkur yondashuv tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, uning motivatsiyasi va ta'limiy faolligini qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

V.A. Slastenin va uning hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik qarashlarda ta'lim jarayonining yaxlitligi, pedagogik faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi va shaxsni rivojlantirishga xizmat qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv tyutorlik faoliyatini alohida pedagogik harakatlar majmui emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalar o'zaro bog'langan yaxlit tizim sifatida qarash imkonini beradi.

I.P. Podlasiy pedagogik jarayonning mazmuni va uni tashkil etish masalalarini yoritib, ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu qarashlar tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining individual ehtiyojlariga mos pedagogik muhitni yaratish, uning ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash va natijalarni monitoring qilish zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

E.V. Bondarevskayaning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga oid qarashlarida ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishi, uning individual xususiyatlarini hisobga olish va ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu qarashlar tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchi bilan subyekt–subyekt munosabatlarini shakllantirish, pedagogik hamkorlik va individual qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

A.V. Xutorskoyning didaktik qarashlari esa ta'lim oluvchining mustaqil faoliyati, kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim jarayonining natijadorligini ta'minlash masalalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv asosida tyutorlik faoliyatini ta'lim oluvchining mustaqil ta'lim olishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi, ta'lim resurslarini tanlashi va erishilgan natijalarni baholash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish mumkin.

M. Knowlesning kattalar ta'limiga oid qarashlarida ta'lim oluvchining mustaqilligi, tajribasi, ehtiyojlari va amaliy maqsadlarini hisobga olishga alohida e'tibor beriladi. Mazkur yondashuv tyutorlik faoliyatining maslahat berish, individual rejalashtirish va ta'lim oluvchini o'z ta'lim jarayonini boshqarishga yo'naltirish funksiyalari bilan uyg'unlashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogikada keng qo'llanilayotgan shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, individual va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda tyutorlik faoliyatining ta'lim oluvchining individual rivojlanishini ta'minlashdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, uning mazmuni, tarkibiy komponentlari, funksiyalari va samarali tashkil etish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy o'rganish va tahlil qilish metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida tyutor, tyutorlik faoliyati, individual ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, pedagogik qo'llab-quvvatlash, ta'lim motivatsiyasi, refleksiya, monitoring va kognitiv rivojlanish kabi tushunchalarning ilmiy mazmuni o'rganildi. Mazkur tushunchalarning o'zaro aloqadorligi aniqlanib, tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni nazariy jihatdan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli yondashuv asosida tyutorlik faoliyati alohida pedagogik harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan maqsad, mazmun, subyektlar, metodlar, vositalar, natijalar va teskari aloqadan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda tyutorning faoliyati ta'lim oluvchining individual ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanib, individual rivojlanish maqsadlarini belgilash, ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqish, pedagogik qo'llab-quvvatlash, monitoring, refleksiya va korreksiya bosqichlari orqali davom etishi aniqlandi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Qiyosiy tahlil metodi orqali an'anaviy pedagogik yondashuv bilan tyutorlik faoliyatining o'ziga xos jihatlari taqqoslandi. An'anaviy yondashuvda pedagog ko'proq ta'lim mazmunini yetkazuvchi va o'quv faoliyatini tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lsa, tyutorlik faoliyatida ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari, tanlovi, qiziqishlari va rivojlanish maqsadlari markazga qo'yiladi. Shu jihatdan tyutor ta'lim oluvchining tayyor qarorlarini belgilab beruvchi emas, balki uning mustaqil ta'limiy qarorlarini shakllantirishga yordam beruvchi pedagogik hamroh sifatida qaraladi.

Tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadi ta'lim oluvchining individual rivojlanishini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash, uning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsad diagnostika qilish, ta'limiy maqsadlarni belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, ta'lim resurslarini tanlash, kasbiy yo'nalishni belgilash, natijalarni monitoring qilish va refleksiv baholash vazifalari orqali amalga oshiriladi.

Tyutorning diagnostik funksiyasi ta'lim oluvchining bilim darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari va ta'limiy ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladi. Maslahat berish funksiyasi ta'lim oluvchiga ta'lim mazmuni va resurslarini tanlashda mustaqil qaror qabul qilish uchun pedagogik yordam beradi. Motivatsion funksiya o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga, refleksiv funksiya esa o'z faoliyatini tahlil qilish va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Monitoring dastlabki diagnostika natijalarini keyingi natijalar bilan taqqoslash, rivojlanish dinamikasini aniqlash va zarur hollarda individual ta'lim trayektoriyasiga korreksiyalar kiritish imkonini beradi.



1-rasm

Tyutorlik va kognitiv rivojlanish. Tyutorlik faoliyati ta'lim oluvchining kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Diqqat, xotira, tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar individual ta'lim trayektoriyasiga kiritilishi mumkin. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, taqqoslash, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish ta'lim oluvchining kognitiv faolligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonida tyutorlik faoliyatini tashkil etish ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uning ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash va individual rivojlanish yo'nalishini belgilashning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Tyutorlik faoliyati ta'lim oluvchini tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki o'z ta'limiy maqsadini belgilay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, o'z faoliyatini boshqaradigan va natijalarini baholay oladigan faol shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltiriladi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, tyutorlik faoliyatining pedagogik samaradorligi, avvalo, ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini chuqur o'rganish va uning ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvni tanlash bilan belgilanadi. Shu jihatdan diagnostika tyutorlik faoliyatining boshlang'ich va muhim bosqichi bo'lib, u orqali ta'lim oluvchining bilim darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, muammolari va rivojlanish imkoniyatlari aniqlanadi. Olingan diagnostik ma'lumotlar keyingi pedagogik faoliyatning mazmunini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика, 1991.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. - М.: Логос, 2004.
3. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. - М.: Академия, 2002.
4. Подласый И.П. Педагогика. - М.: Юрайт, 2013.
5. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно ориентированного образования. - Ростов н/Д.: Феникс, 2000.
6. Хуторской А.В. Современная дидактика. - СПб.: Питер, 2001.
7. Knowles M.S. The Modern Practice of Adult Education. - New York: Cambridge

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KASBGA YO'NALTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Nurmuratova Iroda Nuriddinovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni innovatsion fikrlashga yo'naltirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy mashg'ulotlarning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, kasbga yo'naltirish, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, pedagogik innovatsiya, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, kreativlik, metodika.

Abstract: This article analyzes the improvement of career guidance methodology for future primary school teachers based on innovative approaches. It highlights effective methods for developing professional competence, innovative thinking, and practical readiness in teacher education. The study emphasizes the role of competency-based education, digital technologies, interactive teaching methods, and practice-oriented learning in enhancing professional training.

Key words: innovative approach, career guidance, primary education, future teacher, professional competence, pedagogical innovation, interactive methods, digital learning, creativity, methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики профессиональной ориентации будущих учителей начальных классов на основе инновационных подходов. Освещаются современные педагогические технологии, направленные на развитие профессиональной компетентности, инновационного мышления и практической подготовки будущих педагогов. Обоснована роль компетентностного подхода, цифровых технологий и интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: инновационный подход, профессиональная ориентация, начальное образование, будущий учитель, профессиональная компетентность, педагогические инновации, интерактивные методы, цифровое обучение.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya, globallashuv, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi va mehnat bozori talablarining o'zgarishi pedagogik ta'lim mazmunini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari oldida nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki kasbiy kompetensiyalari rivojlangan, innovatsion fikrlaydigan, ijodkor va raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini hisoblanib, aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati, ma'naviy-axloqiy fazilatlari va shaxs sifatida shakllanishi uchun poydevor yaratiladi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati, pedagogik kompetensiyasi va innovatsion faoliyatga tayyorligi ta'lim sifatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat fan asoslarini puxta egallagan mutaxassis, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan, ta'lim jarayonini samarali tashkil etuvchi hamda kasbiy faoliyatini uzluksiz takomillashtirib boradigan ijodkor pedagog bo'lishi zarur.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi hamda oliy ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy

hujjatlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish va ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar pedagogik oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish metodikasini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kasbga yo‘naltirish pedagogik ta’limning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish, kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish, pedagogik faoliyatning mazmun-mohiyatini anglash hamda o‘z kasbiy istiqbolini ongli ravishda belgilashga xizmat qiladi. An’anaviy kasbga yo‘naltirish metodlari bugungi kun talablarini to‘liq qondira olmayotgani sababli ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, interfaol ta’lim metodlari, loyihaviy faoliyat, muammoli ta’lim, STEAM yondashuvi, raqamli ta’lim platformalari, sun’iy intellekt vositalari va elektron portfoliolardan foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Innovatsion yondashuv kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv faoliyat, kreativ fikrlash va amaliy tajribaning integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy qobiliyatlarini aniqlash, ularni pedagogik faoliyatga moslashtirish, pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va kasbiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyat, kasbiy mas’uliyat, kommunikativ kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyoj shakllanadi.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion metodlardan tizimli foydalanish ularning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi, ta’lim sifatini oshiradi hamda pedagogik faoliyat samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbga yo‘naltirish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish nafaqat pedagogik ta’lim sifati, balki boshlang‘ich ta’lim tizimining samaradorligini oshirishning ham muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbga yo‘naltirish metodikasini nazariy jihatdan asoslash, uning mazmuni va tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda ularda kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirish masalalari pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarning keng qo‘llanilishi mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, pedagogik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.

Kasbga yo‘naltirish nazariyasining shakllanishida amerikalik olim John Deweyning pragmatik pedagogika konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Olimning fikricha, ta’lim jarayoni real hayot bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi, talaba bilimni tayyor holda emas, balki amaliy faoliyat jarayonida egallashi lozim. Dewey pedagogik faoliyatni tajriba orqali o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishini ta’kidlaydi. Shu jihatdan uning g‘oyalari innovatsion kasbga yo‘naltirish metodikasining nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatni ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan tahlil qilgan L.S. Vigotskiy ta’limning rivojlantiruvchi xarakterini asoslab bergan. U tomonidan ishlab chiqilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, talabaning kasbiy rivojlanishi hamkorlikdagi faoliyat, muloqot va amaliy tajriba orqali samarali amalga oshadi. Bu yondashuv bugungi kunda pedagogik amaliyot, mentorlik va refleksiv ta’lim texnologiyalarining ilmiy asosini tashkil etadi.

Amerikalik olim Donald Schön pedagoglarning kasbiy rivojlanishida refleksiv amaliyotning o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, zamonaviy pedagog o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, yuzaga kelayotgan pedagogik muammolarni ijodiy hal etishi va kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarur. Refleksiv yondashuv innovatsion kasbga yo‘naltirish metodikasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasining rivojlanishida A.V. Xutorskoyning ilmiy qarashlari alohida o‘rin egallaydi. Olim ta’lim natijasini faqat bilimlar yig‘indisi bilan emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyati bilan baholash lozimligini asoslaydi. Uning fikricha, pedagogik ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya, kommunikativ, kreativ, ijtimoiy va refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish masalalari bo'yicha Michael Fullanning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Olim innovatsiyalarni joriy etish faqat texnologiyalarni almashtirish emas, balki pedagoglarning kasbiy madaniyatini, ta'lim falsafasini va boshqaruv tizimini o'zgartirish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Fullan ta'lim sifati o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligi bilan bevosita bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "ICT Competency Framework for Teachers" konsepsiyasida zamonaviy pedagog raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qila olishi, innovatsion metodlardan foydalanishi hamda XXI asr kompetensiyalarini shakllantira olishi zarurligi qayd etilgan [8].

Mahalliy olimlar tomonidan ham pedagogik innovatsiyalar va kasbiy tayyorgarlik masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, N. Saidahmedov pedagogik texnologiyalarni ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy vosita sifatida baholab, interfaol metodlarning o'quv jarayonidagi afzalliklarini ilmiy asoslagan.

R. Ishmuhamedov innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida tavsiflaydi. Uning ilmiy ishlarida muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, hamkorlikda o'qitish va interfaol metodlarning bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashdagi samaradorligi asoslab berilgan.

Pedagogika sohasidagi taniqli olim B.X. Xodjayev kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlarni tayyorlash masalalarini tadqiq etib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv faoliyat va innovatsion metodlarning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda STEAM texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish (Project Based Learning), muammoli ta'lim (Problem Based Learning), "Flipped Classroom", elektron portfolio, raqamli ta'lim platformalari hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha muayyan ilmiy izlanishlar mavjud bo'lsa-da, ushbu jarayonni kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, refleksiv ta'lim, amaliy faoliyat va zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni yagona metodik tizim sifatida integratsiyalash asosida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy va metodik asoslarini aniqlash maqsadida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va modellashtirish metodlari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning kasbga yo'naltirish, pedagogik innovatsiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv ta'lim hamda raqamli pedagogikaga oid ilmiy qarashlari o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv asosida kasbga yo'naltirish metodikasi o'zaro bog'liq maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, pedagogik shart-sharoitlar va natijalardan iborat yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali an'anaviy kasbga yo'naltirish usullari bilan innovatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari solishtirildi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim platformalari va sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni baholandi. Olingan ilmiy-nazariy natijalar umumlashtirilib, innovatsion yondashuv asosida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash bugungi kunda pedagogik ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchidan nafaqat o'z fanini mukammal bilish, balki innovatsion texnologiyalarni qo'llash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ta'lim jarayonini kreativ tashkil etish va kasbiy muammolarni mustaqil hal etish kabi kompetensiyalar ham talab etiladi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasbga yo'naltirish metodikasi bo'lajak pedagoglarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, ularning pedagogik faoliyatga ongli munosabatini rivojlantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini izchil takomillashtirishga xizmat qiluvchi uzluksiz pedagogik jarayondir. Mazkur jarayon faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, pedagogik faoliyatni modellashtirish va bo'lajak o'qituv-

chilarning kasbiy refleksiyasini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Innovatsion yondashuv esa ushbu jarayonning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini yangilash orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni ijodiy izlanishga yo‘naltirish, kasbiy faoliyatda uchraydigan muammolarni zamonaviy usullar yordamida hal etishga tayyorlash hamda raqamli ta’lim muhitida samarali ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv talabaning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi, uning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi va o‘z ustida muntazam ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirish quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- innovatsion pedagogik faoliyat;
- amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish;
- refleksiv faoliyat;
- raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada ularda kasbiy mustaqillik, mas’uliyat, tashabbuskorlik va pedagogik kreativlik rivojlanadi.

Kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, “Loyiha metodi”, “Klaster”, “FSMU”, “Insert”, “Bumerang”, “Munozara”, “Akvarium” kabi metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Ushbu metodlar orqali talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, muammolarga yechim izlaydi va kasbiy qarorlar qabul qilish tajribasini hosil qiladi.

Innovatsion yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridan biri raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishdir. Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canva, Quizizz, Kahoot, Padlet, Mentimeter, Nearpod kabi platformalar pedagogik ta’limning ajralmas vositalariga aylanmoqda. Ushbu platformalar orqali talabalar mustaqil ta’lim olish, elektron resurslardan foydalanish, masofaviy hamkorlikni tashkil etish hamda o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi pedagogik ta’lim mazmuniga yangi imkoniyatlarni olib kirmoqda. Sun’iy intellekt vositalari yordamida individual o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish, dars ishlanmalarini tayyorlash, testlarni avtomatik yaratish, ta’lim natijalarini tahlil qilish hamda shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish mumkin. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirishda pedagogik amaliyotning o‘rni ham beqiyosdir. Pedagogik amaliyot davomida talabalar nazariy bilimlarini haqiqiy ta’lim muhitida sinab ko‘radilar, darslarni mustaqil tashkil etadilar, sinf jamoasi bilan ishlash tajribasiga ega bo‘ladilar hamda kasbiy faoliyatning murakkab jihatlarini o‘rganadilar. Amaliyot jarayonida mentor-o‘qituvchilar tomonidan beriladigan tavsiyalar va refleksiv tahlillar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron portfolio texnologiyasidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Elektron portfolio talabaning ilmiy ishlari, dars ishlanmalari, metodik tavsiyalari, loyiha ishlari, amaliyot natijalari va shaxsiy yutuqlarini tizimli ravishda jamlash imkonini beradi. Mazkur texnologiya talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish, o‘z-o‘zini baholash va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish uchun qulay vosita hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv asosida takomillashtirilgan kasbga yo‘naltirish metodikasi quyidagi ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi: diagnostika, kasbiy motivatsiyani shakllantirish, innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash, pedagogik amaliyotni tashkil etish, refleksiya va yakuniy baholash. Har bir bosqich o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan kasbga yo‘naltirish metodikasi talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi, pedagogik kompetensiyalarini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini takomillashtiradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga hamda innovatsion pedagog sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Demak, innovatsion yondashuv asosida kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirish pedagogik oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo‘lib, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zamonaviy ta’lim talablari darajasida kasbiy faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni samarali shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirish pedagogik ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogdan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki innovatsion fikrlash, raqamli kompetensiyalar, pedagogik kreativlik va amaliy faoliyatni samarali tashkil eta olish ko‘nikmalari ham talab etiladi. Shu bois kasbga yo‘naltirish metodikasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida innovatsion yondashuvning mazmuni va tarkibiy komponentlari tahlil qilinib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, raqamli ta’lim platformalari, loyiha asosida o‘qitish hamda pedagogik amaliyotning o‘zaro integratsiyasi yuqori samaradorlikni ta’minlashi asoslandi. Mazkur yondashuv talabalarni kasbiy faoliyatga ongli ravishda tayyorlash, ularning mustaqil fikrlashini, pedagogik muammolarni hal etish qobiliyatini va kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, taklif etilgan metodik model kasbga yo‘naltirish jarayonini diagnostika, motivatsiya, innovatsion ta’lim, pedagogik amaliyot, refleksiya va monitoring bosqichlari asosida tizimli tashkil etish imkonini beradi. Ushbu modelning amaliyotga joriy etilishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda zamonaviy pedagogik faoliyatga moslashuv darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- pedagogik oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish mazmunini innovatsion yondashuvlar asosida yangilash;
- o‘quv jarayonida interfaol metodlar va raqamli ta’lim texnologiyalaridan muntazam foydalanishni kengaytirish;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar va mikrodarslar ulushini oshirish;
- pedagogik amaliyotni zamonaviy maktablar faoliyati bilan uzviy integratsiyalash;
- talabalarning kasbiy rivojlanishini elektron portfolio va refleksiv baholash mexanizmlari orqali muntazam monitoring qilib borish.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda zamonaviy ta’lim tizimi uchun raqobatbardosh, kreativ va yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid farmon va qarorlari.
3. Dewey J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Schön D.A. The Reflective Practitioner. New York: Basic Books, 1983.
6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. - Москва, 2003.
7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 5th ed. New York: Teachers College Press, 2016.
8. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris: UNESCO, 2018.
9. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2003.
10. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, 2014.
11. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017.
12. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century. The Clearing House. 2010. Vol. 83(2). P. 39-43.
13. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom. ISTE, 2012.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA DIQQAT YETISHMASLIGI VA GIPERFAOLLIK: MNEMOTEXNIK KORREKSIYA

Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna
Xalqaro innovatsion universiteti II kurs talabasi

Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna
Xalqaro innovatsion universiteti v.b. dotsenti

Annotatsiya: DYaGH kuzatilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy xotira va diqqatni shakllantirish muammosi ularning maktab ta'limiga hamda jamoaga moslashuvini qiyinlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Maqolada mnemojadvallar va vizual-ramziy modellashtirish usullarini amaliyotga joriy etish orqali ushbu bolalarning kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish masalasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: DYaGH, mnemotexnika, ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, ijtimoiy moslashuv, maktabga tayyorgarlik, kognitiv korreksiya.

Abstract: The problem of developing voluntary memory and attention in preschool children with ADHD is one of the main factors complicating their adaptation to school education and the social environment. This article examines the issue of enhancing the cognitive abilities of these children through the practical implementation of mnemo tables and visual-symbolic modeling methods.

Key words: ADHD, mnemonics, voluntary memory, voluntary attention, social adaptation, school readiness, cognitive correction.

Аннотация: Проблема формирования произвольной памяти и внимания у детей дошкольного возраста с СДВГ является одним из основных факторов, затрудняющих их адаптацию к школьному обучению и коллективу. В статье рассматривается вопрос расширения когнитивных возможностей таких детей путем внедрения в практику мнемотаблиц и методов визуально-символического моделирования.

Ключевые слова: СДВГ, мнемотехника, произвольная память, произвольное внимание, социальная адаптация, подготовка к школе, когнитивная коррекция.

KIRISH

Maktabgacha yoshdan maktab ta'limiga o'tish davri bolaning ruhiy va kognitiv rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Biroq, so'nggi yillarda diqqat yetishmasligi va giperfaollik sindromi (DYaGH/ADHD) kuzatilgan bolalar sonining ortib borishi pedagogik va psixologik amaliyotda alohida korreksion yondashuvlarni talab etmoqda. DYaGH bor bolalarda asosan ishchi xotira hajmining cheklanganligi, ixtiyoriy diqqat barqarorligining pastligi va ijro etuvchi funksiyalarning yetarlicha rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Bunday kognitiv xususiyatlar bolaning nafaqat o'quv faoliyatiga, balki tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning yangi ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi uning kognitiv tayyorgarligi va ixtiyoriy xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati bilan uzviy bog'liqdir. An'anaviy ta'lim usullari DYaGH kuzatilgan bolalarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Shu sababli, vizual idrok va obrazli tafakkurga tayanadigan mnemotexnik usullar ushbu bolalarda ixtiyoriy xotira va diqqatni korreksiya qilishning hamda ularni ijtimoiy moslashtirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - DYaGH kuzatilgan katta maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va ularning ijtimoiy-kognitiv moslashuvini ta'minlashda mnemotexnik korreksiya dasturining samaradorligini tajriba-sinov asosida asoslab berishdan iborat.

Diqqat yetishmasligi va giperfaollik - bu psixologik holatlar bo‘lib, bolalarning diqqatini jamlash va uni saqlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Diqqat yetishmasligi bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi, giperfaollik esa ularning ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabga tayyorlash jarayoni bolalarning akademik, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. DYaGHga ega bolalar uchun tayyorlash jarayoni alohida e’tiborni talab qiladi. Bu jarayonda bolalarning diqqatini rivojlantiruvchi faoliyatlar, o‘yinlar va boshqa yaxshi tashkil etilgan mashg‘ulotlardan foydalanish kerak.

Mnemotexnik korreksiya bolalarga ma’lumotni yodlash va tushunishga yordam beruvchi usullardir. Ushbu usullar quyidagilardan iborat:

1. **Vizuallashtirish:** Ma’lumotlarni rasm va diagrammalar orqali bayon etish, bu bolalarga osonroq eslab qolish imkonini beradi.
2. **Asosiy tushunchalarni bog‘lash:** Yangi ma’lumotlarni ilgari o‘rganilgan bilimlar bilan bog‘lash bolalarning ko‘proq malakalarini rivojlantiradi.
3. **Qiziqarli o‘yinlar:** O‘yinlar orqali ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish bolalarning diqqatini jamlashga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Diqqat yetishmasligi va giperfaollik sindromiga (DYaGH) ega maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash masalasi so‘nggi yillarda pedagogika, psixologiya va neyropsixologiya sohalarida dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ross Barkley (2015) DYaGHning asosiy muammosi ijro etuvchi funksiyalar va ixtiyoriy o‘zini boshqarishning sust rivojlanganligi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Alan Baddeley (2012) ishchi xotira nazariyasida ushbu bolalarda verbal axborotni qayta ishlash imkoniyatlari cheklanganligini asoslab bergan. John Sweller (2011) tomonidan ishlab chiqilgan Kognitiv yuklama nazariyasi esa vizual tayanch vositalaridan foydalanish murakkab axborotni o‘zlashtirishni yengillashtirishini ko‘rsatadi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda mnemotexnik usullar, mnemojadvallar hamda vizual modellashtirish texnologiyalari DYaGH kuzatilgan bolalarning ixtiyoriy diqqatini, xotirasini va maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuvini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda maktabga tayyorlov guruhining (6-7 yosh) DYaGH belgilari va ko‘rsatkichlari aniqlangan 30 nafar tarbiyalanuvchisi ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy yo‘l bilan ikki guruhga ajratildi:

- **Nazorat guruhi (15 nafar):** An’anaviy maktabga tayyorlov dasturi bo‘yicha shug‘ullandi.
- **Tajriba guruhi (15 nafar):** An’anaviy dasturga qo‘shimcha ravishda mnemotexnik korreksiya majmuasi joriy etilgan guruh.

Bolalarning kognitiv ko‘rsatkichlari va ijtimoiy-xulqiy tayyorgarligini baholash uchun quyidagi metodikalardan foydalanildi:

1. Diqqatning barqarorligi va bo‘linishini aniqlash uchun Pyeron–Ruzer metodikasi.
2. Ixtiyoriy va ishchi xotira hajmini o‘lchash uchun A.R. Luriya bo‘yicha “10 ta so‘z” metodikasi.
3. Bolaning tengdoshlar jamoasiga kirishishi va xulq-atvor intizomini baholash uchun ijtimoiy-pedagogik kuzatuv mezonlaridan foydalanildi.

Tajriba guruhida 8 hafta davomida (haftasiga 3 marotaba, 25-30 daqiqadan) mnemotexnik korreksiya mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Dastur doirasida verbal ko‘rsatmalarni vizual shaklga o‘tkazuvchi mnemoyo‘lakchalar, matn va qoidalarni ramzlar orqali eslab qolishga o‘rgatuvchi mnemojadvallar hamda harakatli mnemotexnik mashqlar qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlaridan oldin va keyin olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mnemotexnik korreksiya joriy etilgan guruhda sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi.

Ixtiyoriy xotira hajmining o‘zgarishi:

- **Tajriba guruhida:** Dastlabki bosqichda bolalar o‘rtacha 4,9 ta so‘zni eslab qolgan bo‘lsa, korreksion mashg‘ulotlardan so‘ng bu ko‘rsatkich 7-10 tagacha oshdi ($p < 0.001$).

- **Nazorat guruhida:** Dastlabki ko‘rsatkich 4,2 ± 0,8 tani, yakuniy ko‘rsatkich esa 4,9 ± 0,7 tani tashkil etdi ($p > 0.05$). Statistik farq sezilarli darajada emas.

Diqqat barqarorligi va intizom ko‘rsatkichlari:

- **Tajriba guruhida:** Pyeron-Ruzer metodikasi bo‘yicha diqqat barqarorligi ko‘rsatkichi dastlabki 12,1 ± 2,3 balldan yakuniy 18,6 ± 1,5 ballgacha ko‘tarildi ($p < 0.001$). Topshiriq ustida to‘plana olish vaqti 3-4 daqiqadan 12-15 daqiqagacha uzayib, chalg‘ishlar soni 42 % ga kamaydi.
- **Nazorat guruhida:** Diqqat ko‘rsatkichi 12,4 ± 2,1 balldan 14,1 ± 1,8 ballgacha o‘zgardi, xolos.

Ijtimoiy moslashuv va xulq-atvor dinamikasi:

Mnemojadvallar vositasida kun tartibi va jamoada o‘zini tutish qoidalarini vizual ramzlar shaklida o‘zlashtirgan tajriba guruhi bolalarida impulsivlik darajasi pasaydi. Muallifning darsligida keltirilgan ijtimoiy moslashuv mezonlariga ko‘ra, tajriba guruhidagi bolalarning 73 % ida maktab ta’limi va jamoaviy qoidalarga nisbatan ijobiy ko‘nikmalar shakllandi.

Olingan amaliy natijalar DYaGH kuzatilgan bolalarda kognitiv funksiyalarni korreksiya qilish va ularni ijtimoiy muhitga moslashtirishda vizualizatsiyaning o‘rni beqiyos ekanligini tasdiqlaydi. DYaGH bor bolalarning asosiy muammosi axborotni qabul qila olmaslikda emas, balki eshitish orqali keladigan verbal ko‘rsatmalarni ishchi xotirada ushlab tura olmasligidadir. Baddeley (2012) ilgari surgan ishchi xotira modeliga muvofiq, DYaGH tashxisi qo‘yilgan shaxslarda fonologik sikl (verbal eslab qolish kanali) jiddiy uzilishlarga uchraydi, ammo vizual-fazoviy blok (visual-spatial sketchpad) nisbatan saqlanib qoladi. Mnemotexnik usullar aynan mana shu zaiflashmagan vizual idrok imkoniyatlaridan tayanch sifatida foydalanishga zamin yaratadi. Vizual ramz yoki mnemojadval verbal ma’lumotni ko‘rgazmali shaklga o‘tkazib, miyada uzoqroq saqlanishini ta’minlaydi.

Bu kognitiv siljish bolaning ijtimoiy xulq-atvoriga va jamoadagi o‘rniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bolaning ijtimoiy munosabatlardagi nobelliyligi, tajovuzkorligi yoki, aksincha, tortinchoqligi ko‘p hollarda uning atrofda kechayotgan voqea-hodisalar ketma-ketligini va o‘z harakatlari ketma-ketligini to‘liq anglay olmasligidan kelib chiqadi. Bola zimmasiga yuklatilgan vazifani yoki qoidani eslab qola olmagach, unda atrofdagilarning e’tiroziga nisbatan xavotirlik va himoya reaksiyasi (tajovuzkorlik) paydo bo‘ladi. Mnemotexnika orqali o‘z faoliyatini rejalashtirishni hamda harakatlar ketma-ketligini ramzlar shaklida ko‘rishni o‘rgangan bolada muloqotdagi ichki xavotirlik darajasi pasayadi, o‘ziga bo‘lgan ishonch va ixtiyoriy intizom shakllanadi.

Neyropedagogik nuqtai nazardan, Sweller (2011) tomonidan ishlab chiqilgan “Kognitiv yuklama nazariyasi” (Cognitive Load Theory) bu jarayonni juda aniq asoslab beradi. DYaGH kuzatilgan bolaning miya po‘stlog‘iga me’yoridan ortiq, birdaniga ko‘p bosqichli og‘zaki ko‘rsatma berilganda, ma’lumot uzoq muddatli xotiraga o‘tmay turib, ishchi xotira “ortiqcha yuklama” (cognitive overload) natijasida bloklanadi. Mnemojadvallar va piktogrammalar esa murakkab axborotni ixcham, strukturashgan shaklga keltirib beradi. Bu esa miya po‘stlog‘iga tushadigan ortiqcha zo‘riqishni kamaytiradi va bolaga o‘z diqqatini tarqoq holda emas, balki maqsadli yo‘naltirgan holda ixtiyoriy boshqarish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, mnemotexnik korreksiya faqatgina shunchaki she’r yodlash yoki matnni eslab qolish quroli emas. U DYaGH bor bolaning kognitiv sohasidagi uzilishlarni to‘ldiruvchi, uni jamoaviy muhit va maktab ta’limi talablariga bezarar va muvaffaqiyatli moslashtiruvchi kompleks ijtimoiy-kognitiv ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Diqqat yetishmasligi va giperfaollik muammolariga ega bolalarni maktabga tayyorlashda mnemotexnik korreksiya usullarini qo‘llash alohida ahamiyatga ega. Ushbu usullar bolalarga o‘qish jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lish va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashda yordam beradi. Bolalarning ta’lim jarayonida e’tibor va motivatsiyani oshirish o‘qituvchilar va ota-onalarning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi kerak.

1. DYaGH kuzatilgan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda faqat verbal usullardan foydalanish yetarli samara bermaydi, chunki ularning ixtiyoriy diqqat va xotira resurslari cheklangan.
2. Mnemotexnik korreksiya dasturi bolalarning vizual-obrazli xotira imkoniyatlarini faollashtirish orqali ixtiyoriy eslab qolish hajmini va diqqat barqarorligini sezilarli darajada oshiradi.
3. Vizual tayanch vositalaridan foydalanish DYaGH bor bolalarning impulsivligini kamaytiradi, ularda jamoaviy intizom va maktab ta’limiga ijtimoiy-psixologik moslashuv ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kaxxarova O.A. //Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. // Darslik. "ART-MATBAA-DESIGN"nashriyoti, 2026
2. Barkley, R. A. (2015). Attention-deficit hyperactivity disorder: A handbook for diagnosis and treatment (4th ed.). The Guilford Press.
3. Baddeley, A. (2012). Working memory: theories, models, and controversies. Annual Review of Psychology,
4. Scruggs, T. E., & Mastropieri, M. A. (2000). The effectiveness of mnemonic instruction for students with learning and behavior problems: An update and research synthesis. Journal of Behavioral Education,
5. Sweller, J. (2011). Cognitive load theory. Psychology of Learning and Motivation,
6. Willcutt, E. G., Doyle, A. E., Nigg, J. T., Faraone, S. V., & Pennington, B. F. (2005). Validity of the executive function theory of attention-deficit/hyperactivity disorder: A meta-analytic review. Biological Psychiatry.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF TRANSLATION

Sharopova Gulnoza Odil qizi
Trainer Assistant, Faculty of Languages
Samarkand State Medical University

Abstract: This article is about the development of translation of foreign languages. In this article, the author writes about the process of translation and its early history. The author also presents the views of scientists who have contributed to the development of translation studies. In addition, the author discusses the advantages of cultural connections in translation.

Key words: translation, history of translation, culture, cultural connection.

Annotatsiya: Ushbu maqola xorijiy tillar tarjimasining rivojlanishiga bag'ishlangan. Maqolada muallif tarjima jarayoni va uning ilk tarixini yoritadi. Shuningdek, tarjimashunoslikning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarning qarashlari bayon etilgan. Bundan tashqari, muallif tarjimada madaniy bog'liqlikning afzalliklari hamda matn mazmunini to'g'ri yetkazishda madaniy omillarni hisobga olishning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: tarjima, tarjima tarixi, madaniyat, madaniy bog'liqlik.

Аннотация: Данная статья посвящена развитию перевода иностранных языков. В статье автор рассматривает процесс перевода и его раннюю историю. Также представлены взгляды ученых, внесших значительный вклад в развитие переводоведения. Кроме того, автор подчеркивает преимущества культурной взаимосвязи в переводе и важность учета культурных особенностей при передаче смысла текста.

Ключевые слова: перевод, история перевода, культура, культурная связь.

INTRODUCTION

As cited in Beverley Curran, Norman Shapiro compares a good translation to a pane of glass, asserting that it should never call attention to itself. In order to do this, it should be paid particular attention to the linguistic and cultural environment within which the source text was created, and the one in which the translation will be placed. To translate a work demands working hard. Translation is for exchange of one text to another, but it does not mean just replacing meaning; it also is the process of expressing the same meaning from the source language into the target language. It does not mean just undertaking text, but it demands that the translator should find problems and errors in producing the translation process:

"A translation not only regards a transition between two languages, but also concerns an exchange between two cultures, or two encyclopedias. A translator not only has to keep in mind rules which are strictly linguistic but also cultural features, in the broad sense of the term."

Katan views translation as a way of bringing both languages and cultures into a relationship and recognizes the significance of culture to meaning and thus to the rearticulating of meanings in another language. In the process, the mediation is very essential. The origin of the word "translation" is very ancient. The English word translation comes from the Latin "translatio". "Trans" translates as "across", while "ferre" means "to carry" or "to bring". "Latio" derives from "latus", the past participle of "ferre". Taking these meanings together, our contemporary definition for translation is "carrying across" or "bringing across". In this context, we are referring to text only.

Archaeological records tell us that writing most likely first evolved in ancient Mesopotamia, specifically in Ancient Sumeria, around 3,200 BCE. Clay tokens, used to represent goods during trade, were originally marked with simple symbols, which gradually grew into a system of pictographic writing, and thence into an abstract alphabet known as cuneiform, printed into damp clay with a reed and then set to dry in the sun. Lists of Sumerian deities, monumental inscriptions, and inventories of goods have all been discovered, and by

2,000 BCE we have our first example of written translation, with partial renderings of the Sumerian epic poem "Gilgamesh" into Southwest Asian languages. The Epic of Gilgamesh is one of the earliest surviving works of literature; a gripping tale of a warrior-king, a wild man, and a quest for immortality that inspired the Greek poet Homer and parallels parts of the Bible, which says much for its enduring appeal.

LITERATURE REVIEW

The historical development of translation has been widely discussed in translation studies and intercultural communication research. Norman Shapiro emphasizes that a good translation should preserve the meaning of the original text while remaining natural and transparent to the reader. Katan considers translation not only a linguistic process but also a bridge between different cultures, highlighting the importance of cultural mediation. Previous studies also indicate that the origins of translation date back to ancient civilizations, including the Sumerian translations of the Epic of Gilgamesh and the Greek translation of the Bible (the Septuagint). These works demonstrate that translation has always played a crucial role in cultural exchange and the dissemination of knowledge.

RESEARCH METHODOLOGY

This study employed a qualitative research approach based on literature analysis, historical review, and comparative analysis. Scientific publications, books, and translation studies related to the historical development of translation and intercultural communication were examined. The collected information was analyzed to identify the major stages of translation development, the role of culture in translation, and the contributions of prominent scholars to translation studies.

ANALYSIS AND RESULTS

In the past, religious books were the reason for the enhancement of translation. In Europe, the books of the Bible were the first works of translation. Translators translated the commands of kings as documents. Most religious books are translated quickly into many languages to spread their ideas as fast as possible. The Western world regards the Bible translation from Hebrew to Greek as the first translation work of great importance. The translation is called the Septuagint, getting its name from the 70 individual translators who separately worked on the translation in the 3rd century BC.

At the present time, the word "translation" is defined as a change to a different substance, form, or a rendering from one language into another; the product of such a rendering; or a transformation of coordinates in which the new axes are parallel to the old ones, according to the Merriam-Webster Dictionary.

Language is the main element in literary translation, and it includes the cultural life of society. Language is part of culture; translation is very closely associated with language and culture. Language shows a direct connection between translation and culture. Cultural communication happens when two languages clash, creating a compromise between two languages in translation. Translation or interpretation expresses beliefs, thoughts, and ideas, and it builds a bridge between two societies. Language is part of culture. To translate correctly, linguists, interpreters, and translators need cultural knowledge of both languages, and they need to find correct equivalents from the source language into the target language. Interpreting or translation is not just to find the equivalent of words but also to keep the socio-cultural meaning. Language is a means of spreading culture. Culture and language are intertwined. Differences between them create problems in language. Translation is a transformation in which the origin of a coordinate system is moved to another position so that each axis retains the same direction or, equivalently, a figure or curve is moved so that it retains the same orientation to the axes, as written in the Collins English Dictionary. Translation is to change something into a new form, especially to turn a plan into something real, as written in the Cambridge Dictionary.

In the Britannica Dictionary, the word "translation" is defined as changing words from one language into another or the process of translating into different languages.

Background culture is essential during the translation process. A translator has to develop his or her knowledge of the relationship between languages before translating a work. A translator should approach the culture and communication of the language.

Translation is always considered the center of intercultural communication. The cause of it is that good translation plays the role of a bridge between people, nations, and culture. The cultures of the source and target languages belong to different groups. So the translator faces problems in finding the highest level of faithful equivalents for words and terms during translation. To translate is a critical job. To create an original translation, knowing grammar and vocabulary is not enough. A specialist should know the culture of the nation. Otherwise, the translator cannot present the correct meaning of the translation. The duty of translation is to make the work

available to readers who are not able to access the original work. Katan views translation as a way of bringing both languages and cultures into a relationship and recognizes the significance of culture to meaning and thus to the rearticulating of meanings in another language. In the process, the mediation is very essential.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

In conclusion, good translation always demands a connection between cultures, and it is not just to find the equivalent of words but to find a properly selected variant in the translated language.

References:

1. Alekseev I S Professialny trening perevodchika. "Soyuz". SanktPeterburg. 2001. 254 p
2. Alekseva I. S. Interpretation speech "Akademiya" Moskow. 2004. 245 p.
3. Amparo Xurtardo Ambir. La notion de fidélité en traduction. "Didier Érudition" Parij 1990. 150p.
4. Alisherovna, A. U. (2025). Zamonaviy tilshunoslikda nutq tushunchasini talabalarga o'rgatish.// Лучшие интеллектуальные исследования, 38(1), 394-398.
5. Asatullayevna, Ibragimova L., and Esanova M. B. Qizi. "Ways to Translate Phraseological Units From English Into Uzbek." International Journal on Integrated Education, vol. 4, no. 4, 2021, pp. 228-231
6. Beknazarova, M. K. (2022). Lotin tilini o'qitish jarayonida klinik kafedralar bilan integratsiyalashtirilgan mashg'ulotlarning maqsadli yo'naltirilishidagi natijalar. Science and Education, 3(11), 653-656.
7. Gile D. Scientific research vs. personal theories in the investigation of interpretation Amsterdam "John Benjamins Publishing Company".1990. 170 p.
8. Gile, D. Basic theoretical components in translator and interpreter training. Amsterdam "John Benjamins Publishing Company".1992. 240 p
9. Gurin I.V. The problem of speech compression in simultaneous translation. Approaches and methods of research. Philology. Tambov "Literacy" 188 p.
10. YOROVA, S. Latin And Its Significance In Medical Profession.// Курский государственный медицинский университет конференция: 20-24 мая 2024 года Организаторы: Курский государственный медицинский университет библиометрические показатели: Входит в РИНЦ: да Цитирований в РИНЦ: 0 Входит в ядро РИНЦ: нет Цитирований из ядра РИНЦ: 0 Рецензии: нет данных тематические направления:
11. (Nasimova Sohiba Yaxyayevna, Trans.). (2025). London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI), 2(1), 502-503.
12. Tolibjonova, Z. B., & Nasimova, S. Y. (2025). Language diversification in ancient period. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 3(1), 343-345.
13. Karimovna, Y. S. Pragmatic and Linguistic Peculiarities of Medical Discourse in English and Uzbek Languages.
14. Шодикулова, А. З. (2023). Антонимлар воситасида шаклланадиган метонимик когезия.// Research Focus, 2(5), 80-84.
15. Zikiryaevna, S. A. (2025). Brain: The Most Perfect Organ.// Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 159-163.
16. Mardanovich, M. Z. (2023). Effective Use Of Innovative Educational Technologies In Teaching Practical Classes Of The Subject" Latin Language And Medical Terminology.// Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 369-375.
17. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. (2023). Lotin tilida klinik terminlarning to'g'ri qo'llanish yuzasidan fikrlar.// Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), 23-27.

INTEGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISHGA YO'NALTIRILGAN METODIK TIZIM

L. T. Xudaybergenova
TDIU mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim muassasalarida integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga qaratilgan metodik tizimning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Fanlararo integratsiya tushunchasining pedagogik mohiyati hamda uning boshqaruv jihatlari xorijiy va milliy pedagogika fanidagi tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Maqolada integratsiya jarayonlarini boshqarishning tarkibiy-funksional modeli va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish texnologiyasi taklif etilgan. Tadqiqot natijalari umumta'lim va oliy ta'lim tizimida fanlararo integratsiyani samarali tashkil etish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: integratsiya jarayonlari, metodik tizim, ta'lim boshqaruvi, fanlararo aloqadorlik, pedagogik texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, boshqaruv modeli.

Abstract: This article highlights the scientific and methodological foundations of a framework designed for the effective management of integration processes in modern educational institutions. It analyzes the pedagogical essence of the concept of interdisciplinary integration and its managerial aspects, drawing on foreign and domestic pedagogical research. The article proposes a structural-functional model for managing integration processes and a methodology for its phased implementation. The research findings are of practical significance for the effective organization of interdisciplinary integration within general secondary and higher education systems.

Key words: integration processes, methodological framework, education management, interdisciplinary connections, pedagogical methodology, competency-based approach, management model.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретико-методологические основы методической системы, направленной на эффективное управление интеграционными процессами в современных образовательных учреждениях. Анализируется педагогическая сущность понятия междисциплинарной интеграции, её управленческие аспекты на основе исследований в зарубежной и отечественной педагогической науке. В статье предлагаются структурно-функциональная модель управления интеграционными процессами и технология её поэтапной реализации. Результаты исследования имеют практическое значение для эффективной организации междисциплинарной интеграции в системе общего среднего и высшего образования.

Ключевые слова: интеграционные процессы, методическая система, управление образованием, междисциплинарная связь, педагогическая технология, компетентностный подход, модель управления.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlari, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim mazmunini yaxlit, tizimli va o'zaro bog'liq holda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bilimlarning tez eskirishi, kasbiy faoliyat sohalarining integrallashuvi natijasida zamonaviy o'quvchi va talabalarda fanlararo tafakkur, muammoni kompleks tarzda hal etish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylandi. Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, integratsiya jarayonlari ko'pincha tizimli boshqaruvga ega bo'lmagan holda, tasodifiy va parcha-parcha tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa integratsiyaning pedagogik salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli integratsiya jarayonlarini maqsadli, izchil va samarali boshqarish imkonini beruvchi ilmiy asoslangan metodik tizimni ishlab chiqish muammosi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad ta'lim muassasalarida integratsiya jarayonlarini boshqarishning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bosqichlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fanlararo integratsiya muammosi xorijiy pedagogika fanida uzoq tarixga ega. Amerikalik tadqiqotchi J. Bin integratsiyani nafaqat fanlar mazmunini birlashtirish, balki o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy tajribasini bilim bilan bog‘lovchi demokratik ta’lim jarayoni sifatida talqin qiladi[1]. Uning fikricha, integratsiya markazida real hayotiy muammolar turishi lozim, chunki faqat shu holatda bilim o‘quvchi uchun shaxsiy ahamiyat kasb etadi.

R. Fogarti o‘zining fanlararo dasturlash modellarida integratsiyaning turli darajalarini bir fan doirasidagi integratsiyadan tortib, to‘liq transdisiplinar yondashuvgacha bo‘lgan o‘ninchi bosqichli tipologiyasini taklif etadi[2]. Bu tipologiya integratsiya jarayonini boshqarishda uning qaysi darajada amalga oshirilayotganini aniq belgilash imkonini beradi. Xuddi shunday, S. Dreyk integratsiyalashgan o‘quv dasturlarini loyihalashda standartlarga asoslangan yondashuvni ilgari suradi va integratsiyani nazorat-baholash tizimi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

X. Xeyz Jeykobs tahririda chop etilgan tadqiqotlarda fanlararo dasturni loyihalashning bosqichma-bosqich texnologiyasi, jumladan, umumiy mavzularni aniqlash, ularni fanlar kesimida taqsimlash va integratsiyalashgan baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan[3]. Ushbu qarashlar tadqiqotimizda taklif etilayotgan metodik tizimning tashkiliy-texnologik komponentini asoslashda muhim nazariy tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Kanadalik olim K. Leytvud va britaniyalik tadqiqotchi T. Bush ta’lim muassasasi boshqaruvi samaradorligini ta’minlovchi omillar qatorida rahbariyatning strategik maqsadlarni belgilash, jamoaviy hamkorlikni tashkil etish va uzluksiz monitoring olib borish qobiliyatini alohida ta’kidlaydilar[4]. Ularning boshqaruv nazariyasidagi ushbu qarashlari fanlararo integratsiyani boshqarish jarayoniga ham tatbiq etilishi mumkin, chunki integratsiya, mohiyatan, o‘quv jarayonini boshqarishning maxsus shakli hisoblanadi.

Milliy pedagogika fanida integratsiya muammosi J.G‘.Yo‘ldoshev tomonidan didaktik nuqtai nazardan, ta’lim mazmunini tanlash va tizimlashtirish tamoyillari asosida tadqiq etilgan[5].

M.Ochilov o‘z ishlarida pedagogik jarayonning yaxlitligi va uzviyligi masalalarini yoritib, integratsiyani ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida talqin qiladi.

O‘.Q. Tolipov va R.J. Ishmuhamedov tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol va loyihaviy metodlarning fanlararo aloqadorlikni ta’minlashdagi o‘rni ochib berilgan[6].

N.A. Muslimov esa kasbiy ta’lim tizimida integrativ yondashuvning amaliy-metodik jihatlarini tadqiq etib, bo‘lajak mutaxassislarning fanlararo kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan[7].

Xorijiy va milliy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, integratsiya jarayonining mazmuniy-didaktik jihatlari yetarlicha ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uni tizimli boshqarish, ya’ni maqsad qo‘yish, tashkil etish, nazorat qilish va takomillashtirishning yaxlit metodik modeli sifatida ko‘rib chiqilishi hali to‘liq yoritilmagan. Aynan shu bo‘shliq ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy-tipologik tahlil, tizimli yondashuv hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari metodik birlashmalari faoliyatini kuzatish orqali to‘plangan amaliy materiallar umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlil asosida integratsiya jarayonlarini boshqarishning metodik tizimi besh tarkibiy komponentdan iborat model sifatida ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval: **Integratsiya jarayonlarini boshqarish metodik tizimining tarkibiy komponentlari**

Tarkibiy qism	Mazmuni	Kutilayotgan natija
Maqsad-vazifaviy komponent	Integratsiya jarayonlarini boshqarishning strategik maqsadi va aniq vazifalarini belgilash	Boshqaruv faoliyatining aniq yo‘naltirilganligi

1 Beane J. A. Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. – New York: Teachers College Press, 1997.
2 Fogarty R. The Mindful School: How to Integrate the Curricula. – Palatine, IL: IRI/Skylight Publishing, 1991
3 Jacobs H. H. (ed.) Interdisciplinary Curriculum: Design and Implementation. – Alexandria, VA: ASCD, 1989.
4 Leithwood K., Louis K. S. Linking Leadership to Student Learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 2012.
5 Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6 Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
7 Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2007.

Tarkibiy qism	Mazmuni	Kutilayotgan natija
Tamoyillar komponenti	Yaxlitlik, izchillik, hamkorlik, moslashuvchanlik, ilmiylik tamoyillari	Boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi
Tashkiliy-texnologik komponent	Fanlararo modullar, integrallashgan dars ishlanmalari, jamoaviy metodik ish shakllari	Ta'lim jarayonining texnologik jihatdan ta'minlanishi
Kadrlar salohiyati komponenti	Pedagoglarning integrativ kompetentsiyalarini rivojlantirish, malaka oshirish tizimi	O'qituvchilarning fanlararo faoliyatga tayyorligi
Nazorat-baholash komponenti	Monitoring ko'rsatkichlari, ekspert baholash, fanlararo natijadorlik mezonlari	Boshqaruv sifatini uzluksiz takomillashtirish

Taklif etilayotgan metodik tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki, u boshqaruvni bir martalik tadbir sifatida emas, balki uzluksiz, siklik jarayon sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv K. Leytvudning ta'lim muassasasi boshqaruvidagi transformatsion liderlik nazariyasi bilan uyg'unlashib, boshqaruv jarayonining barcha ishtirokchilari – rahbariyat, o'qituvchilar va metodik xizmat vakillarining faol ishtirokini nazarda tutadi (2-jadval).

Metodik tizimni amaliyotga tatbiq etish to'rt bosqichli texnologiya asosida amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval: **Metodik tizimni joriy etishning bosqichma-bosqich texnologiyasi**

Bosqich	Boshqaruv vazifasi	Asosiy vositalar
1. Diagnostik-tahliliy bosqich	Fanlararo aloqalarning mavjud holatini aniqlash	So'rovnoma, kuzatuv, hujjatlar tahlili
2. Loyihalashtirish bosqichi	Integratsiya modeli va metodik ta'minotni ishlab chiqish	Modullashtirilgan dastur, integrallashgan reja
3. Amaliy-tashkiliy bosqich	Metodik tizimni ta'lim amaliyotiga joriy etish	Seminar-treninglar, ochiq darslar, hamkorlikdagi loyihalar
4. Nazorat-korrektsion bosqich	Natijalarni baholash va tizimni takomillashtirish	Monitoring, ekspert xulosalari, fikr-mulohaza

Diagnostik-tahliliy bosqichda ta'lim muassasasidagi mavjud fanlararo aloqalar holati, o'qituvchilarning integrativ faoliyatga tayyorlik darajasi aniqlanadi. Bu bosqichda R. Fogartining integratsiya darajalari tipologiyasidan foydalanish orqali muassasadagi integratsiyaning qaysi bosqichda ekanligini aniq belgilash mumkin.

Loyihalashtirish bosqichida X. Xeyz Jeykobs tavsiya etgan umumiy mavzularni aniqlash texnologiyasi asosida fanlararo modullar va integrallashgan dars ishlanmalari yaratiladi. Bu bosqichda, shuningdek, S. Dreyk taklif etgan standartlarga yo'naltirilgan yondashuv asosida integratsiyalashgan ta'lim natijalari belgilanadi.

Amaliy-tashkiliy bosqichda ishlab chiqilgan metodik ta'minot amaliyotga joriy etiladi. Bu jarayonda J. Binning ta'kidlashicha, integratsiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning real muammolarni hal etishga jalb qilinishiga bog'liq bo'lib, shu sababli loyihaviy va muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. O'.Q. Tolipov va R.J. Ishmuhamedovning interfaol metodlar bo'yicha ishlab chiqmalari ushbu bosqichda amaliy vosita sifatida qo'llaniladi.

Nazorat-korreksion bosqichda T. Bush va K. Leytvud asos solgan ta'lim menejmenti nazariyasidagi monitoring va baholash mexanizmlaridan foydalangan holda integratsiya natijalari tahlil qilinadi, aniqlangan kamchiliklar asosida metodik tizimga zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

Tadqiqot davomida ushbu metodik tizimning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida quyidagi ijobiy tendensiyalar kuzatildi: o'qituvchilarning fanlararo hamkorlikka bo'lgan faolligi oshdi; integrallashgan dars ishlanmalari sifati yaxshilandi; o'quvchilarning fanlararo bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari rivojlandi. Shu bilan birga, kadrlar tayyorgarligi darajasining har xilligi, metodik ta'minotning yetarli emasligi kabi bir qator muammolar ham aniqlandi, ular keyingi tadqiqotlar uchun yo'nalish bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilarning integratsiya nazariyasi bilan uyg'un bo'lib, ayni paytda milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga oladi. Xususan, Fogarti va Dreykning modellari ko'proq mazmuniy-didaktik jihatlarga qaratilgan bo'lsa, taklif etilayotgan metodik tizim bu qarashlarni Bush va Leytvudning boshqaruv nazariyasi bilan birlashtirib, integratsiyani nafaqat pedagogik, balki boshqaruv hodisasi sifatida ham ko'rib chiqadi.

Shuningdek, M. Ochilov va J.G'. Yo'ldoshevning pedagogik jarayon yaxlitligi to'g'risidagi qarashlari metodik tizimning tamoyillar komponentini boyitdi, bu esa integratsiyani mahalliy ta'lim an'analari kontekstida asoslashga xizmat qildi. Ayni paytda, taklif etilayotgan model universal bo'lmay, uni har bir ta'lim muassasasining moddiy-texnik, kadrlar salohiyati va mintaqaviy xususiyatlariga moslashtirish zarurligini alohida ta'kidlash lozim. Bu esa metodik tizimning moslashuvchanlik tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, integratsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun maqsad-vazifaviy, tamoyillar, tashkiliy-texnologik, kadrlar salohiyati va nazorat-baholash komponentlaridan iborat yaxlit metodik tizim zarur. Ushbu tizim to‘rt bosqichli - diagnostik-tahliliy, loyihalashtirish, amaliy-tashkiliy va nazorat-korreksion - texnologiya asosida amalga oshirilganda, fanlararo integratsiyaning pedagogik samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xorijiy va milliy olimlarning qarashlarini uyg‘unlashtirgan ushbu yondashuv nazariy va amaliy jihatdan asoslangan bo‘lib, ta’lim muassasalari rahbarlari va metodik xizmat vakillari uchun amaliy tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda metodik tizimning raqamli ta’lim muhitida qo‘llanilishi masalalari alohida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beane J. A. Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education. - New York: Teachers College Press, 1997.
2. Fogarty R. The Mindful School: How to Integrate the Curricula. - Palatine, IL: IRI/Skylight Publishing, 1991.
3. Drake S. M. Creating Standards-Based Integrated Curriculum. - Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2007.
4. Jacobs H. H. (ed.). Interdisciplinary Curriculum: Design and Implementation. - Alexandria, VA: ASCD, 1989.
5. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. - London: SAGE Publications, 2011.
6. Leithwood K., Louis K. S. Linking Leadership to Student Learning. - San Francisco: Jossey-Bass, 2012.
7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
8. Ochilov M. Pedagogika: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2000.
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006.
10. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste’dod, 2008.
11. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dok. ... diss. - Toshkent, 2007.
12. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son[8] “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020.

8 https://lex.uz/docs/-5013007

MULTIMODAL MATNLARNI TANLASH VA DALILLARGA ASOSLANGAN O'QUV TOPSHIRIQLARI METODIKASINI ISHLAB CHIQISH

UO'K: 37.013.2.37.01

G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti, pedagogik tadqiqotchi

ORCID: 0009-0007-8712-2025

Annotatsiya: Mazkur maqolada multimodal matnlarni ta'lim jarayonida maqsadli tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasi tadqiq etilgan. Multimodal matnlarning verbal, vizual va grafik komponentlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, dalillarni aniqlash, manbalarni taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini ko'rsatib, tajriba guruhidagi o'quvchilarning natijalari sezilarli darajada oshganini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari multimodal savodxonlikni rivojlantirishda dalillarga asoslangan topshiriqlarning pedagogik ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: multimodal matn, multimodal savodxonlik, dalil, dalillarga asoslangan ta'lim, o'quv topshirig'i, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, vizual savodxonlik, matn tahlili, pedagogik metodika.

Abstract: This article examines a methodology for the targeted selection of multimodal texts in the educational process and the development of evidence-based learning assignments based on them. It highlights the development of students' skills in analyzing information, identifying evidence, comparing sources, and formulating substantiated conclusions by integrating the verbal, visual, and graphical components of multimodal texts. The results of pilot testing demonstrate the effectiveness of the developed methodology and confirm a significant improvement in the performance of students in the experimental group. The results of the study substantiate the pedagogical significance of evidence-based assignments in developing multimodal literacy.

Key words: multimodal text, multimodal literacy, evidence, evidence-based education, learning task, critical thinking, information analysis, visual literacy, text analysis, pedagogical methodology.

Аннотация: В данной статье исследована методика целенаправленного отбора мультимодальных текстов в образовательном процессе и разработки на их основе учебных заданий, основанных на доказательствах. Освещены вопросы развития у обучающихся навыков анализа информации, выявления доказательств, сопоставления источников и формулирования обоснованных выводов посредством интеграции вербальных, визуальных и графических компонентов мультимодальных текстов. Результаты опытно-экспериментальной работы продемонстрировали эффективность разработанной методики и подтвердили значительное повышение результатов обучающихся экспериментальной группы. Результаты исследования обосновывают педагогическую значимость учебных заданий, основанных на доказательствах, в развитии мультимодальной грамотности.

Ключевые слова: мультимодальный текст, мультимодальная грамотность, доказательство, обучение, основанное на доказательствах, учебное задание, критическое мышление, анализ информации, визуальная грамотность, анализ текста, педагогическая методика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim muhitida o'quvchilar axborotni faqat an'anaviy yozma matnlar orqali emas, balki grafik, jadval, diagramma, infografika, fotosurat, audio va videomateriallar orqali ham qabul qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi natijasida multimodal matnlar o'quvchilarning axborotni idrok etishi, qayta ishlashi va undan foydalanishida muhim vositaga aylandi. Bunday sharoitda o'quvchidan nafaqat matn mazmunini tushunish, balki turli axborot shakllarini o'zaro bog'lash, ularning ishonchliligini baholash, dalillarni ajratish va ular asosida mustaqil xulosa chiqarish talab etiladi.

Multimodal matnlar bilan ishlash metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri o'quv topshiriqlarini dalillarga asoslangan faoliyat bilan bog'lashdir. Bunday topshiriqlar o'quvchini tayyor ma'lumotni qabul qilishdan faol tahlil qilishga yo'naltiradi. O'quvchi matn, jadval, grafik yoki boshqa vizual manbalardan dalillarni izlaydi, ularni

taqqoslaydi va o‘z fikrini aniq faktlar bilan asoslaydi. Shu sababli multimodal matnlarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash mezonlarini belgilash va ular asosida samarali o‘quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Multimodal matnlar va multimodal savodxonlik masalalari zamonaviy pedagogika, lingvodidaktika va ta’lim texnologiyalari yo‘nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlarda matn tushunchasining an’anaviy verbal chegaralardan chiqib, tasvir, grafik, audio, video va boshqa semiotik resurslar bilan integratsiyalashuvi ta’lim mazmunini tashkil etishning yangi shakli sifatida baholanadi.

O‘zbek tadqiqotchilarining ishlarida ham raqamli ta’lim muhiti, media ta’lim, axborot savodxonligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, M. Q. Abdullayeva va B. X. Xodjayevlarning tadqiqotlarida ta’lim oluvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli vositalardan foydalanish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishning metodik asoslari yoritilgan [1, 2]. Ushbu yondashuvlar multimodal matnlarni o‘quv jarayoniga kiritish va ulardan samarali foydalanish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda multimodal ta’lim mazmuni ko‘pincha media ta’lim, media savodxonlik va vizual axborotni tahlil qilish tushunchalari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. E. S. Polat tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish va axborot resurslari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan [3].

A. V. Fedorov esa media savodxonlikni rivojlantirishda media matnlarni tahlil qilish, ularning mazmuni va axborot xususiyatlarini baholashning ahamiyatini asoslagan [4].

Xorijiy tadqiqotlarda multimodallik masalasi yanada kengroq nazariy va metodik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Kress va van Leeuwen multimodal matnlarni turli semiotik resurslarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadigan kommunikativ birlik sifatida talqin qiladi [5]. Ularning vizual grammatika konsepsiyasi tasvir, rang, kompozitsiya va boshqa vizual elementlarning mazmun yaratishdagi rolini tushuntiradi.

Jewitt multimodallikni ta’lim jarayonida turli kommunikativ vositalarning o‘zaro integratsiyasi sifatida ko‘rib, o‘quvchilarning mazmunni bir nechta modal kanallar orqali yaratishi va talqin qilishiga e’tibor qaratadi [6].

Mayerning multimedia ta’lim nazariyasida esa verbal va vizual axborotning muvofiqlashtirilgan holda taqdim etilishi o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligi asoslangan [7].

Hobbs media savodxonlikni rivojlantirishda axborotni tahlil qilish, baholash va media xabarlarning maqsadini anglash ko‘nikmalarini muhim deb hisoblaydi.

Cope va Kalantzis esa yangi media muhitida savodxonlik tushunchasining kengayib borayotganini ta’kidlab, o‘quvchilarni turli modal resurslar bilan ishlashga o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi [8].

Mavjud tadqiqotlarning tahlili multimodal matnlarning o‘quvchilarning axborotni idrok etishi va tahlil qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq multimodal materiallarni tanlash mezonlari bilan dalillarga asoslangan o‘quv topshiriqlarini yagona metodik tizim sifatida bog‘lash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, o‘quvchining dalilni aniqlashi, turli modal manbalarni taqqoslashi va o‘z xulosasini mustaqil ravishda asoslashiga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy metodik mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Mazkur tadqiqot aynan shu metodik bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

International organizations have also contributed significantly to the theoretical foundation of Artificial Intelligence in educational management. UNESCO (2021) emphasizes that AI should be implemented according to ethical principles, including transparency, accountability, fairness, data privacy, and human-centered governance. UNESCO argues that while AI can improve educational management efficiency, educational institutions must establish clear ethical frameworks to prevent algorithmic bias and protect learners' personal information.

RESEARCH METHODOLOGY

This study employed a qualitative research approach supported by descriptive, comparative, and analytical methods to investigate the role and opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the management of educational institutions. The selected methodology enabled a comprehensive examination of current AI applications, international experiences, and emerging trends in educational administration while identifying both opportunities and implementation challenges.

A systematic literature review was conducted to analyze scientific publications, peer-reviewed journal articles, conference proceedings, books, and reports published by international organizations between 2018 and 2026. The review focused primarily on studies indexed in Scopus, Web of Science, IEEE Xplore, ScienceDirect, and SpringerLink, as well as policy documents published by UNESCO, the OECD, and the European Commission. These sources provided theoretical and empirical evidence regarding AI applications in educational management, digital transformation, and intelligent decision-support systems.

The study also adopted a comparative analysis method to examine AI implementation practices in different educational systems, including those of the United States, Singapore, China, Finland, South Korea, and the United Kingdom. This comparison facilitated the identification of successful management models, institutional strategies, and best practices that may be adapted to developing educational systems. Particular attention was given to AI applications in strategic planning, academic administration, resource allocation, institutional performance evaluation, predictive analytics, and learning analytics.

To evaluate the managerial potential of Artificial Intelligence, a descriptive-analytical approach was applied. Various AI technologies-including machine learning, natural language processing (NLP), predictive analytics, intelligent decision-support systems, and educational data mining-were analyzed in relation to their contributions to educational governance. Their effectiveness in improving administrative efficiency, automating routine processes, enhancing organizational transparency, and supporting evidence-based decision-making was systematically examined.

Overall, the selected methodology provides a robust foundation for evaluating the current state of Artificial Intelligence in educational management and for proposing evidence-based recommendations that support sustainable digital transformation in educational institutions.

ANALYSIS AND RESULTS

The analysis of recent scientific literature and international practices indicates that Artificial Intelligence (AI) has become one of the principal drivers of digital transformation in educational management. AI technologies significantly improve institutional governance by automating administrative tasks, supporting evidence-based decision-making, optimizing resource allocation, and enhancing the quality of educational services. Educational institutions that have successfully integrated AI into their management systems demonstrate greater operational efficiency, improved organizational transparency, and more effective strategic planning.

One of the most significant findings of this study is that AI-based management systems substantially reduce administrative workload. Routine activities such as student admission, attendance monitoring, examination scheduling, financial reporting, document management, and human resource administration can be performed automatically through intelligent information systems. Consequently, educational managers are able to devote more attention to strategic planning, educational quality assurance, innovation, and institutional development rather than repetitive administrative procedures.

The findings also reveal that predictive analytics has become an essential component of AI-supported educational management. By analyzing historical and real-time institutional data, AI algorithms can predict student enrollment trends, identify learners who are at risk of academic failure or dropout, estimate future staffing requirements, and forecast institutional financial needs. Such predictive capabilities enable administrators to make proactive rather than reactive management decisions, thereby improving institutional effectiveness.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Another important result concerns the application of Learning Analytics in educational institutions. AI-supported learning analytics systems continuously collect and analyze student performance, attendance records, assessment results, and learning behaviors. These analytical tools provide administrators and academic leaders with comprehensive reports that facilitate curriculum improvement, academic quality assurance, personalized student support, and evidence-based policy development. Consequently, educational institutions become more capable of responding to learners' academic needs and improving overall educational outcomes.

The study further indicates that AI contributes significantly to improving decision-making accuracy. Traditional educational management often relies on subjective judgments and manually prepared reports, whereas AI-based decision-support systems process extensive institutional datasets within seconds and provide objective recommendations based on statistical evidence. As a result, administrators can identify institutional risks more quickly, allocate resources more efficiently, and improve organizational performance through data-driven governance (Figure 1).




Figure 1: **AI-Based Educational Management Framework**

However, the findings also reveal several challenges associated with AI implementation in educational management. The most frequently reported barriers include inadequate digital infrastructure, limited financial resources, insufficient AI competencies among educational administrators, cybersecurity threats, ethical concerns, and data privacy issues. Furthermore, resistance to technological change among institutional staff may slow the adoption of AI-supported management systems. Therefore, successful implementation requires continuous professional development, institutional investment in digital infrastructure, and the establishment of clear ethical and regulatory frameworks.

The analysis also highlights that Artificial Intelligence should be viewed as a decision-support technology rather than a replacement for educational leaders. Human expertise remains essential in areas requiring ethical judgment, educational leadership, organizational culture, conflict resolution, and strategic vision. AI complements managerial competencies by providing accurate analytical information, forecasting future trends, and automating routine administrative functions.

The major findings of this study are summarized in Table 1.

Table 1: **The Impact of Artificial Intelligence on Educational Institution Management**

Management Area	AI Application	Expected Outcomes
Student Administration	Intelligent enrollment and attendance systems	Faster administrative services and improved accuracy
Academic Management	Learning analytics and performance prediction	Improved student success and academic quality
Strategic Planning	Predictive analytics and forecasting	Better long-term institutional planning
Human Resource Management	AI-assisted recruitment and workload analysis	More efficient personnel management
Financial Management	Automated budgeting and expenditure analysis	Improved financial efficiency
Quality Assurance	Institutional performance monitoring	Continuous improvement of educational quality
Decision-Making	Intelligent Decision Support Systems (IDSS)	Evidence-based and faster management decisions

The overall analysis indicates that Artificial Intelligence positively influences educational management by increasing institutional efficiency, improving transparency, strengthening strategic planning, and supporting data-driven governance. Nevertheless, maximizing these benefits requires comprehensive AI policies, investment in technological infrastructure, continuous professional training, and responsible AI governance that ensures transparency, accountability, fairness, and data security (Figure 2).

The proposed conceptual model for AI-supported educational management is presented below:




Figure 2: **The Proposed Conceptual Model for AI-Supported Educational Management**

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

The findings confirm that Artificial Intelligence has evolved into a strategic instrument for modern educational management. Its effective implementation enables educational institutions to achieve greater operational efficiency, higher educational quality, improved institutional competitiveness, and sustainable digital transformation in an increasingly data-driven educational environment.

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

Artificial Intelligence (AI) has emerged as a transformative technology capable of significantly improving the management of educational institutions. The findings of this study demonstrate that AI contributes to more efficient administrative processes, evidence-based decision-making, strategic planning, resource optimization, and continuous quality improvement. By automating routine administrative tasks and providing intelligent analytical support, AI enables educational leaders to focus on strategic development, innovation, and institutional performance enhancement.

The analysis also reveals that AI-powered technologies–including predictive analytics, learning analytics, intelligent decision-support systems, and administrative automation-play a crucial role in strengthening institutional governance. These technologies improve the accuracy of management decisions, facilitate real-time monitoring of educational performance, enhance transparency, and support personalized institutional planning. Consequently, educational organizations become more adaptive, data-driven, and capable of responding effectively to rapidly changing educational environments.

References:

1. Chen, L., Chen, P., & Lin, Z. (2022). Artificial Intelligence in Education: A Review. IEEE Access, 10, 75264–75278.
2. Chassignol, M., Khoroshavin, A., Klimova, A., & Bilyatdinova, A. (2018). Artificial Intelligence Trends in Education: A Narrative Overview. Procedia Computer Science, 136, 16–24.
3. Dwivedi, Y. K., Hughes, L., Baabdullah, A. M., Ribeiro-Navarrete, S., Giannakis, M., Al-Debei, M. M., et al. (2023). So What if ChatGPT Wrote It? Multidisciplinary Perspectives on Opportunities, Challenges and Implications of Generative AI for Research, Practice and Policy. International Journal of Information Management, 71, 102642.
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.
5. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson Education.
6. OECD. (2021). OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing.
7. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. EDUCAUSE Review, 46(5), 30–40.
8. UNESCO. (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO.
9. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO.
10. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(39).
11. European Commission. (2022). Ethical Guidelines on the Use of Artificial Intelligence and Data in Teaching and Learning for Educators. Brussels: European Commission.
12. Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.
13. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2020). Rulers of the World, Unite! The Challenges and Opportunities of Artificial Intelligence. Business Horizons, 63(1), 37–50.
14. Topol, E. (2019). Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. Basic Books.
15. World Economic Forum. (2023). The Future of Jobs Report 2023. Geneva: World Economic Forum.
16. OpenAI. (2024). GPT-4 Technical Report. OpenAI.
17. United Nations. (2023). The Sustainable Development Goals Report 2023. New York: United Nations.
18. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2024). Digital Transformation Strategy of Higher Education. Tashkent.
19. Government of the Republic of Uzbekistan. (2020). Digital Uzbekistan–2030 Strategy. Tashkent.
20. World Bank. (2022). Realizing the Future of Learning: From Learning Poverty to Learning for Everyone, Everywhere. Washington, DC: World Bank.



MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAKTAB DIREKTORLARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI

Xidirova Maftuna Ilhom qizi
A. Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirish muammosi ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi media kompetentlikni maktabning rasmiy kommunikatsiyasi, raqamli reputatsiyasi, axborot xavfsizligi va boshqaruv qarorlari bilan bog'laydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmini ilmiy asoslashdan iborat. Ishda tizimli, kompetensiyaviy, andragogik, faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar, normativ-huquqiy hujjatlarning kontent tahlili, xalqaro modellarni qiyosiy tahlil qilish hamda strukturaviy-funksional modellashtirish metodlari qo'llanildi. Tahlil natijasida maktab direktorining media kompetentligi axborotni tekshirish, jamoatchilik bilan muloqot qilish, media krizislarni boshqarish, kiberxavfsizlik talablariga rioya etish va sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanishni birlashtiruvchi integrativ kasbiy kompetensiya sifatida aniqlashtirildi. Diagnostika, maqsadni belgilash, modulli o'qitish, amaliy faoliyat, monitoring, refleksiya, korreksiya va ish joyiga transferni qamrab olgan sakkiz bosqichli mexanizm ishlab chiqildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi UNESCO MIL, DigCompEdu, raqamli liderlik va kattalar ta'limi yondashuvlari maktab direktorining real media-boshqaruv vazifalariga mos yagona siklga integratsiya qilinganidadir. Mexanizmning amaliy ahamiyati malaka oshirish kurslarini tinglovchining ehtiyojiga mos rejalashtirish, natijani portfel va faoliyat dalillari orqali baholash hamda kursdan keyingi mentorlikni tashkil etish imkoniyati bilan belgilanadi. Olingan natijalar mexanizmni tajriba-sinovdan o'tkazish va uning maktab boshqaruvi sifatiga ta'sirini empirik baholash uchun ilmiy-metodik asos yaratadi.

Kalit so'zlar: media kompetentlik, maktab direktori, malaka oshirish, ta'limda menejment, tashkiliy-boshqaruv mexanizmi, media liderlik, raqamli reputatsiya, faktcheking, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, monitoring, refleksiya.

Abstract: The article investigates the development of school principals' media competence in professional development programmes from an educational management perspective. Its aim is to substantiate an organisational and managerial mechanism that connects media competence with a school's official communication, digital reputation, information security and the quality of managerial decisions. The study applies systemic, competence-based, andragogical, activity-oriented and reflective approaches, together with content analysis of regulatory documents, comparative analysis of international frameworks and structural-functional modelling. The findings define a principal's media competence as an integrated professional capacity combining information verification, public communication, media-crisis management, cybersecurity compliance and responsible use of artificial intelligence. An eight-stage mechanism was developed, covering diagnosis, goal setting, modular training, practice-based activity, monitoring, reflection, correction and transfer to the workplace. The scientific novelty lies in integrating UNESCO MIL, DigCompEdu, digital leadership and adult-learning approaches into a single cycle adapted to principals' authentic media-management tasks. Its practical value is the possibility of planning differentiated professional development, assessing results through portfolios and observable performance evidence, and organising post-course mentoring. The results provide a methodological basis for experimental validation of the mechanism and for evaluating its influence on the quality of school management.

Key words: media competence, school principal, professional development, educational management, organisational and managerial mechanism, media leadership, digital reputation, fact-checking, cybersecurity, artificial intelligence, monitoring, reflection.

Аннотация: В статье с позиций менеджмента в образовании исследуется проблема развития медиакомпетентности директоров школ в процессе повышения квалификации. Цель работы заключается в научном обосновании организационно-управленческого механизма, связывающего медиакомпетентность с официальной коммуникацией школы, цифровой репутацией, информационной безопасностью и качеством управленческих решений. Использованы системный, компетентностный, андрагогический, деятельностный и рефлексивный подходы, контент-анализ нормативно-правовых документов, сравнительный анализ международных моделей и структурно-функциональное моделирование. В результате медиакомпетентность директора школы уточнена как интегративная профессиональная компетенция, объединяющая проверку информации, взаимодействие с общественностью, управление медиакризисами, соблюдение требований кибербезопасности и ответственное использование искусственного интеллекта. Разработан восьмиэтапный механизм, включающий диагностику, целеполагание, модульное обучение, практическую деятельность, мониторинг, рефлексию, коррекцию и перенос результатов в деятельность школы. Научная новизна состоит в интеграции подходов UNESCO MIL, DigCompEdu, цифрового лидерства и обучения взрослых в единый цикл, адаптированный к реальным медиауправленческим задачам директора. Практическая значимость механизма определяется возможностью планировать повышение квалификации с учётом индивидуальных потребностей, оценивать результаты по портфолио и наблюдаемым продуктам деятельности, а также организовывать послекурсовое наставничество. Полученные результаты создают научно-методическую основу для экспериментальной проверки механизма и оценки его влияния на качество управления школой.

Ключевые слова: медиакомпетентность, директор школы, повышение квалификации, менеджмент в образовании, организационно-управленческий механизм, медиалидерство, цифровая репутация, фактчекинг, кибербезопасность, искусственный интеллект, мониторинг, рефлексия.

KIRISH

Raqamli transformatsiya ta'lim muassasasi boshqaruvining mazmuni, tezligi va kommunikativ tabiatini tubdan o'zgartirmoqda. Maktab direktori endilikda faqat ma'muriy qarorlar qabul qiluvchi rahbar emas, balki turli axborot oqimlarini muvofiqlashtiruvchi, rasmiy raqamli kanallarni boshqaruvchi, pedagoglar, ota-onalar, o'quvchilar va jamoatchilik o'rtasida ishonchli kommunikatsiyani ta'minlovchi media lider sifatida ham faoliyat yuritadi. Maktab haqida ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan bitta tasdiqlanmagan xabar, noto'g'ri talqin qilingan statistika, shaxsiy ma'lumotlarning ehtiyotsiz e'lon qilinishi yoki sun'iy intellekt yaratgan tekshirilmagan matn rahbarlik qarorlarining sifati va ta'lim muassasasining reputatsiyasiga bevosita ta'sir qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash uchun huquqiy asoslar belgilangan [1].

"2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur" rahbar va pedagog kadrlarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish, boshqaruvni takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni tatbiq etishni ustuvor yo'nalish sifatida qayd etadi [2].

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi davlat va ijtimoiy sohalarda, jumladan, ta'limda raqamli infratuzilma va raqamli xizmatlarni kengaytirishni nazarda tutadi [3].

Kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi qonunchilik esa raqamli boshqaruvda xavfsizlik, maxfiylik va mas'uliyatni rahbar faoliyatining ajralmas talabi sifatida belgilaydi [4; 5].

Amaliyotda maktab rahbarlarining media savodxonligini rivojlantirish ko'pincha alohida treninglar, qisqa seminarlar yoki texnik ko'rsatmalar bilan cheklanadi. Bunday parchalanma yondashuv rahbarning media muhitida qaror qabul qilishi, maktab reputatsiyasini boshqarishi, faktlarni tekshirishi, krizis kommunikatsiyasini tashkil etishi va o'zlashtirilgan ko'nikmalarni ish joyiga ko'chirishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yetarli darajada ta'minlamaydi. Muammo malaka oshirish mazmunining mavjudligida emas, balki diagnostika, rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, monitoring, baholash va korreksiyani yagona tizimga birlashtiruvchi tashkiliy-boshqaruv mexanizmining yetarlicha ishlab chiqilmaganidadir.

Maqolaning maqsadi malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmini ilmiy asoslash, uning tarkibiy komponentlari, amalga oshirish algoritmi, baholash mezonlari va amaliy tatbiq shartlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida maktab direktorlarining malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayoni, tadqiqot predmeti sifatida esa mazkur jarayonda media kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni, shakllari, boshqaruv funksiyalari va monitoring vositalari belgilandi.

Tadqiqot vazifalari:

- media kompetentlikka doir nazariy va normativ manbalarni tahlil qilish;
- maktab direktorining media-boshqaruv kompetensiyalari tarkibini aniqlashtirish;
- mexanizmning komponentlari va amalga oshirish algoritmini ishlab chiqish;
- natijalarni baholash mezonlari hamda amaliy tatbiq shartlarini belgilashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Media muhitining jamiyat va inson tafakkuriga ta'siri haqidagi nazariy qarashlar Marshall McLuhanning media vositasi nafaqat xabarni yetkazishi, balki xabarni qabul qilish usuli va ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantirishi haqidagi konsepsiyasiga asoslangan [15]. Mazkur yondashuv maktab rahbari uchun media kanalini tanlash, xabar formati, tezkorlik va auditoriya bilan o'zaro ta'sir boshqaruv natijasiga ta'sir etishini tushuntirishga yordam beradi.

W. James Potter media savodxonlikni media xabarlarni ongli tahlil qilish, ularning ta'sir mexanizmlarini anglash va axborot oqimida maqsadli qaror qabul qilish imkonini beruvchi bilim tuzilmalari hamda ko'nikmalar tizimi sifatida talqin qiladi [13].

A. V. Fedorov esa media ta'lim va media savodxonlikni media matnlarni idrok etish, tahlil qilish, baholash va yaratish bilan bog'liq integrativ jarayon sifatida ko'rsatadi [14]. Ushbu qarashlarda media kompetentlikning tanqidiy-tahliliy va ijodiy jihatlari yetakchi o'rin tutadi, biroq maktab direktorining tashkiliy, kommunikativ va reputatsion boshqaruv vazifalari alohida mexanizm sifatida to'liq ochib berilmaydi.

UNESCOning "Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely!" dasturi media va axborot savodxonligini axborotga kirish, uni tahlil qilish, baholash, kontent yaratish va undan etik foydalanishga oid bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarning yaxlit majmui sifatida taqdim etadi. Dasturda noto'g'ri axborot, nafrat tili, maxfiylik, ma'lumotlarni himoya qilish, sun'iy intellekt va raqamli fuqarolik masalalari o'zaro bog'langan modullar orqali yoritilgan [6]. Bu holat maktab direktorlari uchun ishlab chiqiladigan malaka oshirish mazmuni faqat ijtimoiy tarmoqlarda post yozish ko'nikmasi bilan cheklanmasligi, balki boshqaruv, xavfsizlik, etika va tanqidiy tahlilni birlashtirishi zarurligini ko'rsatadi.

Yevropa Komissiyasining DigCompEdu modeli raqamli kompetensiyani 22 ta kompetensiya va oltita yo'nalish doirasida tavsiflaydi: kasbiy hamkorlik, raqamli resurslar, o'qitish va o'rganish, baholash, ta'lim oluvchilar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish [8]. Model texnik ko'nikmalardan ko'ra raqamli texnologiyalarni pedagogik va professional maqsadlarda ongli qo'llashga urg'u beradi. Biroq maktab rahbari uchun media reputatsiya, krizis kommunikatsiyasi, tashkilotning rasmiy axborot siyosati va jamoatchilik bilan aloqalar alohida boshqaruv sohasi sifatida qo'shimcha aniqlashtirishni talab qiladi.

Ta'limda liderlik bo'yicha OECD tadqiqotlari maktab rahbarining pedagoglar salohiyati, maktab muhiti va ta'lim natijalariga ta'sirini ta'kidlaydi hamda rahbarlik funksiyalarini qayta belgilash, kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish va tizimli qo'llab-quvvatlashni samarali maktab boshqaruvining muhim sharti sifatida ko'rsatadi [9].

E. Sheninger raqamli liderlikni kommunikatsiya, professional o'rganish, maktab brendi, raqamli muhit va innovatsion o'zgarishlarni birlashtiruvchi rahbarlik amaliyoti sifatida yoritadi [17].

I. Berkovich va T. Hassan tadqiqoti maktab direktorining raqamli instruksional liderligi pedagoglarning raqamli faoliyatga ichki motivatsiyasi hamda o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi tashkiliy sharoitlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi [18].

Malaka oshirish jarayonini loyihalashda andragogik yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. M. Knowles, E. Holton va R. Swanson kattalar ta'limida tinglovchining tajribasi, mustaqilligi, amaliy muammoni hal qilish ehtiyoji va darhol qo'llash mumkin bo'lgan natijaga yo'naltirilganlikni asosiy omillar sifatida ko'rsatadilar [10].

L. Desimone samarali kasbiy rivojlanishning mazmunga yo'naltirilganligi, faol o'rganish, izchillik, yetarli davomiylik va jamoaviy ishtirok kabi xususiyatlarini ajratadi [11].

T. Guskey esa kasbiy rivojlanish samaradorligini ishtirokchilarning reaksiyasi, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari, tashkilotning qo'llab-quvvatlashi, yangi bilimlarning amalda qo'llanishi hamda yakuniy ta'lim natijalari bo'yicha bosqichma-bosqich baholashni taklif etadi [12].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, media savodxonlik, raqamli kompetensiya, maktab liderligi va samarali malaka oshirish bo'yicha mustaqil nazariy modellar mavjud. Biroq ularni maktab direktorining media-boshqaruv faoliyatiga mos ravishda integratsiyalash, ya'ni faktcheking, maktab imiji, jamoatchilik bilan kommunikatsiya, krizis vaziyatlari, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar va sun'iy intellektdan foydalanishni yagona boshqaruv sikliga birlashtirish masalasi maxsus ilmiy-metodik yechimni talab qiladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodologik va modellashtiruvchi xarakterga ega. Unda statistik tajriba natijalarini taqdim etish emas, balki maktab direktorlarining media kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etish uchun ilmiy asoslangan konstruktni ishlab chiqish maqsad qilingan. Shu sababli maqoladagi "natija" tushunchasi empirik samaradorlik ko'rsatkichi emas, balki nazariy sintez, funksional tahlil va pedagogik-boshqaruv modellashtirish orqali olingan mualliflik mexanizmini anglatadi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, andragogik, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar tashkil etdi. Tizimli yondashuv media kompetentlikni o‘zaro bog‘liq maqsad, mazmun, subyekt, resurs, texnologiya, monitoring va natija komponentlari orqali ko‘rib chiqish imkonini berdi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quv mazmunini ma’lumotlar yig‘indisi sifatida emas, balki real boshqaruv vazifalarini bajarish qobiliyati bilan bog‘lashga xizmat qildi. Andragogik yondashuv tinglovchilarning kasbiy tajribasi va amaliy ehtiyojlarini o‘quv jarayonining asosiy resursiga aylantirdi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa media materialni tekshirish, krizis bayonoti yozish, maktab media rejasini tuzish, rasmiy post yaratish va raqamli xavfsizlik auditini o‘tkazish kabi mahsuldor topshiriqlarni markazga qo‘ydi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni kontent tahlil qilish;
- UNESCO MIL, DigCompEdu, OECD maktab liderligi, andragogika va kasbiy rivojlanish modellarini qiyosiy tahlil qilish;
- tushunchalarni semantik aniqlashtirish;
- boshqaruv funksiyalarini pedagogik jarayon bosqichlari bilan moslashtirish;
- kompetensiyalar, modullar va baholash mezonlarini matritsali uyg‘unlashtirish;
- tashkiliy-boshqaruv mexanizmini strukturaviy-funksional modellashtirish.

Mexanizmni ishlab chiqish uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda maktab direktorining media faoliyatiga oid boshqaruv vazifalari va xavflar aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda ushbu vazifalar media savodxonlik, raqamli liderlik va kasbiy rivojlanish modellaridagi kompetensiyalar bilan qiyoslandi.

Uchinchi bosqichda diagnostika, maqsadni belgilash, mazmunni tashkil etish, amaliy faoliyat, monitoring va korreksiyani birlashtiruvchi boshqaruv sikli ishlab chiqildi.


Nazariy konstruktning mantiqiy yaxlitligi komponentlar o‘rtasidagi maqsad–vosita–natija aloqalarining mosligi, takrorlanmasligi va amaliy o‘lchanish imkoniyati orqali tekshirildi.

Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, taklif etilayotgan mexanizmning statistik samaradorligi mazkur maqola doirasida tajriba-sinov yo‘li bilan baholanmagan. Keyingi bosqichda kirish va yakuniy diagnostika, eksperimental va nazorat guruhlari, ekspert baholash hamda ish joyiga transfer monitoringi asosida mexanizmning empirik verifikatsiyasi amalga oshirilishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda “maktab direktorining media kompetentligi” tushunchasi maktab faoliyatiga oid axborotni izlash, saralash, tekshirish va tahlil qilish; media xabarlarning maqsadi va ta’sir mexanizmlarini anglash; rasmiy raqamli kommunikatsiyani tashkil etish; maktab imiji va raqamli reputatsiyasini boshqarish; media krizislarni muvofiqlashtirish; shaxsiy ma’lumotlar, mualliflik huquqi va kiberxavfsizlik talablariga rioya qilish; raqamli hamda sun’iy intellekt vositalari yordamida mas’uliyatli media mahsulot yaratish qobiliyatini birlashtiruvchi integrativ kasbiy kompetensiya sifatida ta’riflandi.

Tashkiliy-boshqaruv mexanizmi deganda belgilangan maqsadga erishish uchun malaka oshirish subyektlari, boshqaruv funksiyalari, mazmun, metodlar, resurslar, monitoring va qayta aloqa vositalarining tartiblangan o‘zaro ta’siri tushuniladi. Mazkur mexanizm “diagnostika – rejalashtirish – tashkil etish – faoliyat – monitoring – refleksiya – korreksiya – ish joyiga transfer” sikliga asoslanadi (1-rasm).



1-rasm: **Media kompetentlikni rivojlantirishning boshqaruv sikli**

Mexanizmning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: ilmiylik va dalillarga tayanganlik; boshqaruv vazifalariga kontekstual moslik; tinglovchining tajribasiga tayanish; faol va mahsuldor o‘rganish; modullilik va variativlik; xavfsizlik hamda media etikasi; ochiqlik va refleksiya; uzluksizlik; individual va jamoaviy rivojlanish uyg‘unligi; natijaning ish joyiga ko‘chirilishini ta’minlash.

Mexanizm subyektlariga malaka oshirish tashkiloti rahbariyati, kurs koordinatori, trener, tutor yoki mentor, AKT va axborot xavfsizligi mutaxassisi, tinglovchi maktab direktori hamda uning ish joyidagi pedagogik jamoa kiradi. Boshqaruv funksiyalari diagnostika qilish, maqsadni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, muvofiqlashtirish, monitoring, baholash, tahlil va korreksiyadan iborat.

Tashkiliy-mazmuniy komponent doirasida tadqiqot uchun ishlab chiqilgan maxsus kurs oltita o‘zaro bog‘liq modulni qamrab oladi:

1) media savodxonlik asoslari;
2) axborotni tahlil qilish va baholash;
3) ijtimoiy tarmoqlarda professional faoliyat hamda maktab imijini shakllantirish;
4) kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish;
5) media vositalari va sun’iy intellektdan foydalanish;
6) maktab media strategiyasi va yakuniy loyiha.

Modullar ketma-ketligi “tushunish – tekshirish – kommunikatsiya – himoya – yaratish – boshqaruvga tatbiq etish” mantiqiga asoslanadi (1-jadval).

1-jadval: **Media kompetentlikni rivojlantirish tashkiliy-boshqaruv mexanizmining komponentlari**

Komponent	Boshqaruv vazifasi	Asosiy vositalar	Kutiladigan oraliq natija
Diagnostik-tahliliy	Boshlang‘ich holat va ehtiyojlarni aniqlash	Kirish testi, anketa, o‘zini o‘zi baholash, maktab media auditi, vaziyatli topshiriq	Individual va guruh ehtiyojlari xaritasi
Maqsadli-prognostik	Kutiladigan kompetensiyalar va natijalarni belgilash	Kompetensiya profili, individual rivojlanish maqsadi, natija indikatorlari	Aniq maqsad va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi
Tashkiliy-mazmuniy	Modullar, resurslar va o‘quv jarayonini tashkil etish	O‘quv dasturi, modul xaritasi, trenerlar jamoasi, raqamli platforma, metodik paket	Tizimli va variativ ta’lim muhiti
Faoliyatli-texnologik	Bilimni real boshqaruv faoliyatiga aylantirish	Keys, faktcheking, media audit, simulyatsiya, loyiha, portfel, hamkorlikdagi topshiriq	Amaliy media mahsulot va boshqaruv ko‘nikmalari
Monitoring-baholash	Jarayon va natijani dalillar asosida baholash	Test, rubrika, ekspert baholash, portfel, post-kurs monitoringi	Kompetensiya dinamikasi va transfer dalillari
Korreksion-refleksiv	Kamchiliklarni bartaraf etish va rivojlanishni davom ettirish	Refleksiya, individual tavsiya, mentorlik, amaliy harakat rejasi, hamjamiyat	Barqaror kasbiy rivojlanish va institutsional o‘zgarish

Faoliyatli-texnologik komponentda ma’ruza axborot berishning yagona shakli bo‘lib qolmaydi. Trener rahbarlarning real tajribasiga yaqin vaziyatlarni modellashtiradi:

- noma’lum manbadan kelgan xabarni SIFT algoritmi asosida tekshirish [16];
- axborotni dolzarblik, moslik, mualliflik, aniqlik va maqsad mezonlari orqali baholash;
- fakt va fikrni ajratish;
- deepfake belgilari bo‘yicha materialni tahlil qilish;
- ota-onalar noroziligiga rasmiy javob yozish;
- maktabning bir haftalik media rejasini ishlab chiqish;
- shaxsiy ma’lumotlarni e’lon qilish xavfini baholash;
- sun’iy intellekt yaratgan matndagi faktik, etik va uslubiy xatolarni aniqlash.

Har bir topshiriq boshqaruv qarori yoki tayyor media mahsulot bilan yakunlanadi.

Mexanizmni amalga oshirish algoritmi sakkiz bosqichdan iborat:

Birinchi bosqichda boshlang'ich diagnostika va media auditi o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqichda tinglovchining ehtiyojlari asosida individual maqsad belgilanadi.

Uchinchi bosqichda modullar va amaliy vazifalarning variativ marshruti tuziladi.

To'rtinchi bosqichda nazariy va amaliy o'qitish tashkil etiladi.

Beshinchi bosqichda tinglovchi o'z maktabi uchun media strategiya, kontent reja, krizis algoritmi va xavfsizlik chek-listini ishlab chiqadi.

Oltinchi bosqichda portfel, test, keys va loyiha rubrikalari asosida yakuniy baholash amalga oshiriladi.

Yettinchi bosqichda refleksiya va individual korreksiya rejasi tuziladi.

Sakkizinchi bosqichda kursdan keyingi mentorlik va ish joyiga transfer monitoringi yo'lga qo'yiladi.

Monitoring-baholash komponenti faqat yakuniy test natijasini emas, o'zlashtirilgan bilimning maktab boshqaruviga ko'chirilishini ham qamrab oladi. Bu yondashuv Guskey modelidagi ishtirokchi reaksiyasi, o'rganish natijasi, tashkilot qo'llab-quvvatlashi, yangi bilimni qo'llash va yakuniy ta'sir darajalari bilan uyg'unlashadi [12]. Maktab direktori uchun yakuniy natija "faktcheking ta'rifini bilish" emas, balki tekshirilmagan xabar tarqalgan vaziyatda manbani tekshirish, dalillarni yig'ish, rasmiy bayonot berish va reputatsion xavfni kamaytirish bo'yicha izchil harakat qila olishdir (2-jadval).

2-jadval: **Maktab direktori media kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlari**

Mezon	Asosiy indikatorlar	Baholash dalillari
Motivatsion-qadriyatli	Ochiqlik, mas'uliyat, axborot etikasi va uzluksiz rivojlanishga ijobiy munosabat	Anketa, refleksiya, individual maqsad
Kognitiv	Media, dezinformatsiya, raqamli reputatsiya, kiberxavf va AI tushunchalarini bilish	Test, og'zaki izoh, tushuncha xaritasi
Axborot-tahliliy	Manbani tekshirish, fakt va fikrni ajratish, dalillarni solishtirish, manipulyatsiyani aniqlash	SIFT/CRAAP tahlili, faktcheking topshirig'i
Kommunikativ-boshqaruv	Auditoriyaga mos rasmiy xabar, ota-onalar bilan muloqot, krizis kommunikatsiyasi	Rasmiy bayonot, kommunikatsiya rejasi, simulyatsiya
Media-ijodiy va texnologik	Sifatli post, infografika, media reja, AI uchun aniq prompt va natijani tahrirlash	Media portfel, loyiha, ekspert rubrikasi
Xavfsizlik-etik	Shaxsiy ma'lumotlar, mualliflik huquqi, 2FA, parol va xavfsiz kontent qoidalariga amal qilish	Kibergigiyena auditi, xavfsizlik chek-listi
Refleksiv-transfer	O'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va maktab amaliyotiga tatbiq etish	Harakat rejasi, post-kurs hisobot, mentor kuzatuvi

Har bir mezon bo'yicha uch daraja tavsiya etiladi. Boshlang'ich darajada tinglovchi tushunchalarni qisman biladi, biroq vaziyatda mustaqil qo'llashda qiynaladi. Funksional darajada u standart vazifalarni algoritm va tayanch vositalar yordamida to'g'ri bajaradi. Strategik darajada esa murakkab media vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, jamoa ishini muvofiqlashtiradi, maktab siyosatini ishlab chiqadi va natijalarni monitoring qiladi. Darajalar faqat o'zini o'zi baholashga emas, kuzatiladigan mahsulot va harakat dalillariga asoslanishi kerak.

Nazariy tahlil va modellashtirish natijasida *birinchi navbatda* maktab direktorining media kompetentligi umumiy raqamli savodxonlikdan farqlanuvchi, boshqaruvga yo'naltirilgan integrativ kompetensiya sifatida aniqlashtirildi. Uning tarkibiga axborot-tahliliy, kommunikativ-boshqaruv, media-ijodiy, xavfsizlik-etik va refleksiv-transfer komponentlari kiritildi. Bu ta'rif media kompetentlikni faqat texnologik vositalardan foydalanish yoki axborotni iste'mol qilish bilan cheklamasdan, maktab manfaatdor tomonlari bilan munosabatlarni va reputatsion natijalarni boshqarishga bog'laydi.

Ikkinchi natija sifatida media kompetentlikni rivojlantirishning oltita komponentli tashkiliy-boshqaruv mexanizmi ishlab chiqildi. Mexanizm malaka oshirish jarayonining odatiy "kursni tashkil etish – mashg'ulot o'tkazish – sertifikat berish" ketma-ketligini kengaytirib, boshlang'ich diagnostika, individual maqsad, amaliy mahsulot, tashkilot qo'llab-quvvatlashi, ish joyiga transfer va post-kurs monitoringini bir tizimga kiritadi. Ushbu natija Desimone ta'kidlagan faol o'rganish, izchillik va yetarli davomiylik talablariga mos keladi [11], shu bilan birga ularni maktab rahbarlarining media boshqaruv vazifalariga moslashtiradi.

Uchinchi natija maxsus kurs modullarining boshqaruv sikli bilan uyg‘unlashtirilganidadir. UNESCO MIL modeli media va axborot savodxonligini keng kompetensiyalar tizimi sifatida taqdim etadi [6], DigCompEdu esa professional raqamli faoliyat uchun umumiy tuzilma beradi [8]. Taklif etilayotgan mexanizm ushbu xalqaro ramkalarni maktab direktori faoliyatiga kontekstual moslashtirib, maktab imiji, rasmiy sahifa, ota-onalar bilan kommunikatsiya, media monitoring, krizis bayonoti va raqamli reputatsiyani alohida amaliy natijalar sifatida belgilaydi. Shu ma’noda mexanizm xalqaro modellarni takrorlamaydi, balki ularni ta’lim muassasasi boshqaruvi darajasida funksional integratsiyalaydi.

To‘rtinchi natija baholashning test markazli yondashuvdan faoliyat dalillariga asoslangan modelga o‘tkazilishidir. Tinglovchining bilimini test orqali aniqlash zarur, biroq yetarli emas. Portfel, faktcheking protokoli, rasmiy bayonot, kontent reja, xavfsizlik auditi va yakuniy media strategiya uning kompetensiyasini to‘liqroq namoyon etadi. Bu Guskeyning kasbiy rivojlanish natijasini ishtirokchi reaksiyasidan boshlab amaliy qo‘llash va tashkiliy ta’sirgacha baholash haqidagi qarashlariga mos keladi [12].

Beshinchi natija kursdan keyingi metodik qo‘llab-quvvatlashning mexanizmga mustaqil blok sifatida kiritilishidir. Bir martalik kursda shakllangan ko‘nikma rahbar ish joyida vaqt, vakolat, texnik resurs yoki jamoa qo‘llab-quvvatlashi mavjud bo‘lmasa, barqaror amaliyotga aylanmasligi mumkin. OECD maktab liderligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalarida ham rahbarlarni tayyorlash uzluksiz, tizimli va amaliy yordam bilan bog‘langan bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi [9]. Shuning uchun mentorlik, professional hamjamiyat, qisqa maslahatlar va uch oylik transfer monitoringi mexanizmning zarur sharti sifatida qaraldi.

Taklif etilayotgan mexanizmning kuchli tomoni – uning kompleksligi va maktab boshqaruvining real vazifalariga yo‘naltirilganligidir. Shu bilan birga, haddan tashqari ko‘p komponent va vositalarni bir kurs doirasida joriy etish tashkiliy yukni oshirishi mumkin. Shu sababli mexanizm modulli va variativ bo‘lishi, boshlang‘ich diagnostika natijasiga ko‘ra ayrim tinglovchilar uchun faktcheking, boshqalar uchun krizis kommunikatsiyasi yoki kiberxavfsizlik yo‘nalishi chuqurlashtirilishi lozim. Trenerlarning media, boshqaruv va andragogik kompetensiyasi yetarli bo‘lmasa, mexanizm mazmunan to‘liq bo‘lsa-da, amalda formal jarayonga aylanish xavfi mavjud.

Sun’iy intellekt vositalari mexanizmga samaradorlikni oshiruvchi yordamchi resurs sifatida kiritildi. UNESCO tavsiyalariga ko‘ra, generativ AI ta’limda inson markazli yondashuv, ma’lumotlar maxfiyligi, etik foydalanish va natijalarni verifikatsiya qilish talablari bilan qo‘llanishi kerak [7]. Shu bois rahbarning AI kompetentligi faqat prompt yozish bilan emas, balki maxfiy ma’lumotni platformaga kiritmaslik, mavjud bo‘lmagan faktlarni aniqlash, mualliflik va tarafkashlik xavflarini baholash, tayyor matnni rasmiy uslub va maktab kontekstiga moslashtirish qobiliyati bilan o‘lchanadi.

Umuman, nazariy muhokama taklif etilgan mexanizm media kompetentlik, raqamli liderlik, kattalar ta’limi va kasbiy rivojlanishni baholash haqidagi konsepsiyalar o‘rtasida metodologik ko‘prik yaratishini ko‘rsatadi. Biroq mexanizmning samaradorligi haqidagi qat’iy xulosa faqat tajriba-sinov natijalaridan so‘ng chiqarilishi mumkin. Empirik bosqichda kamida boshlang‘ich va yakuniy diagnostika, ekspertlararo kelishuv, media mahsulotlar rubrikasi, ish joyiga transfer ko‘rsatkichlari va maktab jamoasining qayta aloqasi qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktab direktorining media kompetentligi raqamli davrda qo‘shimcha yoki ikkilamchi ko‘nikma emas, balki ta’lim muassasasining ochiqligi, axborot xavfsizligi, jamoatchilik ishonchi va boshqaruv qarorlarining dalillarga asoslanganligini ta’minlovchi muhim kasbiy kompetensiyadir. Uni rivojlantirish uchun alohida mavzularni o‘qitishning o‘zi yetarli bo‘lmay, malaka oshirish jarayonining barcha boshqaruv funksiyalarini yagona tizimga birlashtirish zarur.

Taklif etilgan tashkiliy-boshqaruv mexanizmi diagnostika, maqsadni belgilash, modulli mazmun, real faoliyatga asoslangan metodlar, monitoring, refleksiya, korreksiya va post-kurs qo‘llab-quvvatlashni o‘zaro bog‘laydi. Mazkur mexanizmning asosiy farqi media savodxonlikni shaxsiy axborot ko‘nikmasi darajasidan maktabning rasmiy kommunikatsiyasi, raqamli reputatsiyasi, xavfsizligi va strategik rivojlanishini boshqarish darajasiga olib chiqishidadir.

Nazariy tadqiqot natijalari mexanizmni maktab direktorlarini tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida qo‘llash uchun ilmiy-metodik asos yaratadi. Shu bilan birga, uning natijadorligi tajriba-sinov asosida tekshirilishi, baholash vositalarining ishonchliligi aniqlanishi va turli hudud hamda maktab sharoitlarida qo‘llash imkoniyati qiyosiy o‘rganilishi kerak. Kelgusi tadqiqotlar media kompetentlikning rahbarlik qarorlari sifati, maktabning raqamli reputatsiyasi, pedagoglar media madaniyati va ota-onalar ishonchiga ta’sirini empirik baholashga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ–637-son[1], 2020-yil 23-sentabr. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: LexUZ.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134-son[2] Farmoni. 2022-yil 11-may. LexUZ.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-son[3] Farmoni. 2020-yil 5-oktabr. LexUZ.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ–764-son[4], 2022-yil 15-aprel. LexUZ.
5. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ–547-son[5], 2019-yil 2-iyul (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). LexUZ.
6. Grizzle A., Wilson C., Tuazon R. et al. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Media and Information Literacy Curriculum for Educators and Learners. 2nd ed. Paris: UNESCO, 2021. 403 p. ISBN 978-92-3-100448-3.
7. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. 44 p. ISBN 978-92-3-100612-8.
8. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Y. Punie (ed.). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. DOI: 10.2760/159770.
9. Pont B., Nusche D., Moorman H. Improving School Leadership. Volume 1: Policy and Practice. Paris: OECD Publishing, 2008. DOI: 10.1787/9789264044715-en.
10. Knowles M. S., Holton E. F. III, Swanson R. A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. 8th ed. London: Routledge, 2015.
11. Desimone L. M. Improving Impact Studies of Teachers' Professional Development: Toward Better Conceptualizations and Measures // Educational Researcher. 2009. Vol. 38, No. 3. P. 181–199. DOI: 10.3102/0013189X08331140.
12. Guskey T. R. Does It Make a Difference? Evaluating Professional Development // Educational Leadership. 2002. Vol. 59, No. 6. P. 45–51.
13. Potter W. J. Media Literacy. 10th ed. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2021. 504 p.
14. Fedorov A. Media Literacy Education. Moscow: Information for All, 2015.
15. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. New York: McGraw-Hill, 1964.
16. Caulfield M. Web Literacy for Student Fact-Checkers. 2017. Open textbook.
17. Sheninger E. Digital Leadership: Changing Paradigms for Changing Times. 2nd ed. Thousand Oaks, CA: Corwin, 2019.
18. Berkovich I., Hassan T. Principals' Digital Instructional Leadership During the Pandemic: Impact on Teachers' Intrinsic Motivation and Students' Learning // Educational Management Administration & Leadership. 2024. Vol. 52, No. 4. P. 934–954. DOI: 10.1177/17411432221113411.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-6008663
3 https://lex.uz/docs/-6008663
4 https://lex.uz/uz/docs/-5960604
5 https://lex.uz/docs/-4396419

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA BERISHDA STEAM VA AN'ANAVIY USULLARNING QIYOSIY TAHLILI

Boltayeva Nasiba Ilhom qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
"maktabgacha ta'lim" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi,
Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM texnologiyasi va an'anaviy usullarning samaradorligini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan. Zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida STEAM bolalarga iqtisodiy tushunchalarni amaliy loyiha va tajriba faoliyati orqali o'zlashtirish imkonini beradi, an'anaviy usul esa, asosan, tushuntirish va didaktik o'yinlarga tayanadi. Maqolada ikki usulning didaktik tabiati uchta mezon – bilim, amaliy ko'nikma va qadriyatli munosabat – bo'yicha qiyoslanib, STEAM yondashuvining ustun jihatlari empirik dalillar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, iqtisodiy tarbiya, STEAM texnologiyasi, an'anaviy usul, moliyaviy savodxonlik, qiyosiy tahlil, integratsiyalashgan ta'lim.

Abstract: This article is devoted to a comparative study of the effectiveness of STEAM technology and traditional methods in economic education in preschool educational institutions. As a modern pedagogical approach, STEAM enables children to master economic concepts through practical project-based and experimental activities, whereas the traditional method relies mainly on explanation and didactic games. The didactic nature of the two methods is compared according to three criteria – knowledge, practical skills, and value-based attitudes – and the advantages of the STEAM approach are substantiated based on empirical evidence.

Key words: preschool education, economic education, STEAM technology, traditional method, financial literacy, comparative analysis, integrated learning.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному исследованию эффективности STEAM-технологии и традиционных методов в экономическом воспитании детей дошкольного возраста. Как современный педагогический подход, STEAM позволяет детям осваивать экономические понятия посредством практической проектной и экспериментальной деятельности, тогда как традиционный метод основан главным образом на объяснении и дидактических играх. Дидактическая сущность двух подходов сопоставляется по трём критериям – знания, практические навыки и ценностное отношение, а преимущества STEAM-подхода обосновываются на основе эмпирических данных.

Ключевые слова: дошкольное образование, экономическое воспитание, STEAM-технология, традиционный метод, финансовая грамотность, сравнительный анализ, интегрированное обучение.

KIRISH

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida shaxsda iqtisodiy madaniyat va moliyaviy savodxonlik kurtaklarini erta yoshdan shakllantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda. Maktabgacha yosh – bolaning atrofdagi olamni faol o'rganadigan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar haqida dastlabki tasavvurlarni egallaydigan sezgir davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda shakllangan tejamkorlik, mehnatga hurmat va oddiy iqtisodiy harakatlar haqidagi tushunchalar kelajakda barqaror iqtisodiy xulq-atvor uchun poydevor vazifasini bajaradi.

An'anaviy maktabgacha ta'lim amaliyotida iqtisodiy tarbiya, asosan, tarbiyachining tushuntirishi, suhbati, rasmli ko'rgazmalar va didaktik o'yinlar orqali amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu yondashuv ma'lum darajada bilim beradi, biroq bolalarda faol izlanish, tajriba o'tkazish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

So'nggi yillarda jahon ta'lim amaliyotida keng qo'llanilayotgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasi esa bolalarning integratsiyalashgan, loyiha asosidagi va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy

tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning samaradorligini qiyosiy o'rganish hamda STEAM yondashuvining ustun jihatlarini empirik dalillar asosida asoslab berish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida qator tadqiqotlarda o'rganilgan.

Rus pedagogikasida A.D. Shatova maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tarbiyani axloqiy va mehnat tarbiyasi bilan uzviy bog'liqlikda olib borish g'oyasini ilgari surgan hamda moliyaviy savodxonlik kurtaklarini shakllantirishga oid parsial dasturni ishlab chiqqan.

A.A. Smolentseva esa bolalarni iqtisodiyot asoslari bilan ertak va o'yinlar orqali tanishtirish metodikasini asoslab bergan. Ushbu mualliflarning ishlarida iqtisodiy tushunchalarni bolalarga yaqin, o'yin shaklida taqdim etish g'oyasi yetakchi o'rin tutadi. STEAM yondashuvining nazariy asoslari konstruktivistik psixologiyaga tayanadi.

J. Piaje bola bilimni passiv ravishda qabul qilmay, balki amaliy harakatlar orqali faol ravishda shakllantiradi, degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, L.S. Vigotskiy bola rivojlanishida ijtimoiy muhit, jamoaviy faoliyat hamda yaqin rivojlanish zonasi tushunchalarini ilmiy asoslab bergan.

STEAM modelining zamonaviy konsepsiyasi G. Yakman tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yagona integratsiyalashgan ta'lim muhitiga birlashtiriladi.

STEM va STEAM yondashuvlarining maktabgacha ta'limga tatbiq etilishi T.V. Volosovets, V.A. Markova va S.A. Averinlarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan bo'lib, ular ishlab chiqqan parsial modul dasturi bolalarning bilish faoliyatida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston pedagogikasida ham STEAM yondashuvi bo'yicha ilmiy izlanishlar (N.B. Sherboyeva) olib borilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda STEAM yondashuvi dizayn tafakkurini (design thinking) shakllantirishning samarali didaktik vositasi sifatida ham e'tirof etiladi. Bunda bolada muammoni aniqlash, g'oya ilgari surish, prototip yaratish va uni sinovdan o'tkazib takomillashtirish bosqichlari orqali ijodiy, tanqidiy hamda loyihaviy fikrlash rivojlanadi. Ushbu didaktik imkoniyatlar iqtisodiy tarbiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bola "tejamkor quticha yasash" yoki "do'kon tashkil etish" kabi loyihalarni amalga oshirish jarayonida aynan shu bosqichlarni bosib o'tib, iqtisodiy qarorlarni mustaqil loyihalashtirishni o'rganadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tarbiya hamda STEAM yondashuvi alohida yo'nalishlar sifatida yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish kontekstida STEAM va an'anaviy usullarning samaradorligini qiyoslovchi empirik tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu holat mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM texnologiyasi va an'anaviy usullarning didaktik samaradorligini qiyosiy o'rganishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun, asosan, nazariy tadqiqot metodlari qo'llanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, mavzuga doir nazariy manbalarni tizimlashtirish hamda umumlashtirish, shuningdek, qiyosiy-tarixiy yondashuvdan foydalanildi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ilg'or pedagogik tajribalar ham tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil ikki usulning didaktik tabiatini hamda ularning iqtisodiy tarbiya maqsadlariga mosligini nazariy jihatdan baholashni ko'zda tutadi.

Tahlil quyidagi uchta mezon bo'yicha amalga oshirildi: bilim mezoni (iqtisodiy tushunchalarni – pul, narx, tejamkorlik, mehnat va daromadni – bilish hamda tushunish), amaliy ko'nikma mezoni (oddiy iqtisodiy harakatlarni – sanash, qaytim berish va byudjetni taqsimlashni – bajara olish) hamda qadriyatli munosabat mezoni (tejamkorlik, mehnatga hurmat va resurslarga ehtiyotkorona munosabat). Ushbu mezonlar har bir yondashuvning bola rivojlanishiga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi.

STEAM yondashuvining iqtisodiy tarbiya bilan uyg'unligini uning beshta tarkibiy sohasi misolida ko'rib chiqish mumkin. Tabiiy fanlar (Science) bolada kuzatish, taqqoslash va sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa mahsulot qiymati va resurslarning cheklanganligi haqidagi dastlabki tasavvurlarni hosil qilish uchun zamin yaratadi. Texnologiya (Technology) bolani oddiy raqamli va kundalik vositalar (tarozi, kassa apparati, narx yorlig'i) bilan tanishtiradi.

Muhandislik (Engineering) loyiha tuzish, rejalashtirish va resurslarni taqsimlash mantiqini o'rgatadi. San'at (Arts) mahsulotni bezash, reklama qilish va taqdim etish orqali ijodiy o'zini namoyon etish imkonini beradi. Matematika (Mathematics) esa sanash, pul birliklarini taqqoslash, qaytimni hisoblash va oddiy byudjet tuzish ko'nikmalarini bevosita rivojlantiradi. Shu tariqa ushbu besh yo'nalish uyg'unlashganda, bola iqtisodiy tushunchalarni alohida elementlar sifatida emas, balki yaxlit hayotiy vaziyatning tarkibiy qismi sifatida idrok etadi. Maktabgacha

yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya alohida fan sifatida emas, balki o‘yin, mehnat va badiiy faoliyat jarayoniga integratsiyalashgan holda beriladi. STEAM yondashuvi aynan shu integratsiyani tabiiy ravishda ta’minlaydi: bola “do‘kon” yoki “ustaxona” o‘yini davomida bir vaqtning o‘zida hisob-kitob qiladi, mahsulot yaratadi hamda muloqotga kirishadi. An’anaviy usulda esa ushbu tushunchalar, asosan, tarbiyachining og‘zaki tushuntirishi va tayyor namunalar orqali o‘rgatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar hamda amaliyot tahlili asosida ikki usulning asosiy xususiyatlari quyidagi mezonlar bo‘yicha qiyoslandi (1-jadval). Qiyoslash har bir yondashuvning didaktik tabiatini hamda uning iqtisodiy tarbiya maqsadlariga muvofiqligini baholashni ko‘zda tutadi.

1-jadval: **An’anaviy usul va STEAM yondashuvining qiyosiy belgilari**

Mezon	An’anaviy usul	STEAM yondashuvi
Bola roli	Tinglovchi, tayyor bilimni qabul qiluvchi	Faol tadqiqotchi, loyiha ishtirokchisi
Bilim manbai	Tarbiyachi tushuntirishi, ko‘rgazma	Amaliy faoliyat, tajriba va kashfiyot
Asosiy faoliyat	Suhbat, didaktik o‘yin, takrorlash	Loyiha, modellashtirish, prototip yaratish
Shakllanadigan ko‘nikma	Asosan nazariy bilim, eslab qolish	Bilim, amaliy ko‘nikma va qadriyatli munosabat
Motivatsiya	Tashqi (tarbiyachi yo‘naltiradi)	Ichki qiziqish, o‘yin va natija quvonchi

Jadvaldan ko‘rinadiki, an’anaviy usul iqtisodiy tushunchalar haqida dastlabki bilim berishda qulay, biroq u ko‘proq reproduktiv xususiyatga ega. STEAM yondashuvi esa bilim, ko‘nikma va qadriyatli munosabatni bolaning faol ishtiroki orqali uyg‘un holda shakllantiradi. Ikki yondashuvni yuqorida belgilangan uchta mezon bo‘yicha nazariy jihatdan qiyoslash quyidagi xulosalarga olib keladi. Bilim mezoni bo‘yicha har ikkala usul ham muayyan natija beradi: an’anaviy usul iqtisodiy tushunchalarni tarbiyachining tushuntirishi va ko‘rgazmali vositalar orqali tizimli ravishda yetkazsa, STEAM yondashuvi ayni shu tushunchalarni amaliy vaziyatlar – “do‘kon” yoki “oila byudjeti” loyihalari davomida – kontekst bilan bog‘liq holda o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli STEAM asosida o‘zlashtirilgan bilim bolaning xotirasida mustahkamroq saqlanadi, chunki u quruq ta’rif emas, balki shaxsiy tajriba bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Amaliy ko‘nikma mezoni bo‘yicha ikki usul o‘rtasidagi farq eng yaqqol namoyon bo‘ladi. An’anaviy usulda bola, asosan, tinglovchi mavqeida bo‘lib, sanash, qaytim berish yoki byudjetni taqsimlash kabi harakatlarni bevosita mashq qilish imkoniyati cheklangan. STEAM yondashuvi esa bolani aynan amaliy faoliyatga undaydi: u mahsulotga narx belgilaydi, pulni sanaydi, qaytim beradi va resurslarni taqsimlaydi. Aynan shu bevosita faoliyat tufayli iqtisodiy ko‘nikma nazariy bilimdan amaliy malakaga aylanadi. Demak, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda STEAM yondashuvi an’anaviy usulga nisbatan sezilarli ustunlikka ega.

Qadriyatli munosabat mezoni bo‘yicha ham STEAM yondashuvining imkoniyatlari kengroq. Tejamkorlik, mehnatga hurmat va resurslarga ehtiyotkorona munosabat kabi qadriyatlar quruq nasihat orqali emas, balki bolaning shaxsiy kechinmalari orqali samaraliroq shakllanadi. “Tejamkor quticha” loyihasida bola jamg‘arish jarayonini o‘zi boshdan kechiradi, “Pul qayerdan keladi?” o‘yinida esa mehnat va daromad o‘rtasidagi bog‘liqlikni amalda his etadi. An’anaviy usul ushbu qadriyatlarni tushuntirib bera oladi, biroq ularni hissiy tajribaga aylantirishda STEAM yondashuviga nisbatan kamroq imkoniyatga ega. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda an’anaviy usulga nisbatan didaktik jihatdan boyroq va samaraliroq imkoniyatlarga ega. Uning ustunligi, ayniqsa, amaliy ko‘nikmalar va qadriyatli munosabatni shakllantirishda yaqqol namoyon bo‘ladi, bilim mezoni bo‘yicha esa har ikki usul bir-birini to‘ldiradi. Shu bois ularni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. An’anaviy suhbat va didaktik o‘yinlar tushunchaviy poydevor yaratsa, STEAM loyihalari ushbu bilimlarni amaliyot bilan boyitadi hamda qadriyatli munosabatni shakllantiradi. Aynan shunday integratsiyalashgan yondashuv iqtisodiy tarbiyaning yaxlitligi va uzluksizligini ta’minlaydi.

XULOSA

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM texnologiyasi an’anaviy usulga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq hisoblanadi. STEAM yondashuvi bolalarda nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalar va qadriyatli munosabatni ham birgalikda shakllantiradi. An’anaviy usul ham muayyan samara beradi, biroq u, asosan, reproduktiv xususiyatga ega bo‘lib, nazariy bilimlar bilan cheklanadi. Shu asosda maktabgacha ta’lim amaliyotiga STEAM asosidagi integratsiyalashgan loyiha-mashg‘ulotlarni an’anaviy usullar bilan uyg‘unlashtirgan holda joriy etish, tarbiyachilarni

ushbu texnologiyadan foydalanishga tayyorlash hamda uslubiy ta'minotni takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Kelgusi tadqiqotlarda tadqiqot namunasining ko'lamini kengaytirish va uzoq muddatli kuzatuvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шатова А.Д. Экономическое воспитание дошкольников: формирование предпосылок финансовой грамотности: парциальная образовательная программа для детей 5–7 лет. – М.: Министерство образования и науки РФ, 2018. – 28 с.
2. Шатова А.Д. Экономическое воспитание дошкольников. – М., 2005. – 248 с.
3. Смоленцева А.А. Знакомим дошкольника с азами экономики с помощью сказок. – М.: АРКТИ, 2006. – 88 с.
4. Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста: парциальная модульная программа. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2019. – 112 с.
5. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – Pupils Attitudes Towards Technology (PATT) 2008 Annual Proceedings. – Salt Lake City, 2008. – P. 1–28.
6. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
7. Шербоева Н.Б. Внедрение STEAM-технологий в образование для детей дошкольного и школьного возраста// Proceedings of MMIT'24 International Conference. – 2024. – 28 May. – С. 156–158.
8. Mamadaminova M.M., Boboxonova Sh.R. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dizayn tafakkuriga o'rgatishda STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlari // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – № 11. – B. 454–458.

KASB-HUNAR TA'LIMIDA ELEKTROMOBILLAR VA ROBOTOTEXNIKA YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI VA "2+1" DUAL TA'LIM MODELI

Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich
G'ijduvon tumani 1-son texnikumi direktori

Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li
Maxsus fan o'qituvchisi

Ibragimova Dinara Rustam qizi
Maxsus fan o'qituvchisi

Karimova Oygul Ro'ziyevna
Maxsus fanlar kafedrasi mudiri

Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada G'ijduvon tumani 1-son texnikumining Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan xalqaro xizmat safari natijalari hamda imzolangan hamkorlik kelishuvlari tahlil qilinadi. Xitoyning "Hebei Institute of Mechanical & Electrical" instituti bazasida elektromobillar, gibrid avtomobillar, robototexnika tizimlari va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, "2+1" dual ta'lim modeli doirasidagi istiqbollar yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro dual ta'lim modeli bitiruvchilarga xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda oyiga 2 000 AQSh dollarigacha daromad topish imkoniyatini yaratishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: elektromobillar, robototexnika, kasb-hunar ta'limi, dual ta'lim, xalqaro hamkorlik, Xitoy tajribasi, "2+1"modeli, LiDAR, sun'iy intellekt.

Abstract: This article analyzes the outcomes of the international study visit undertaken by the faculty of Ghijduvan District Vocational College No. 1 to the People's Republic of China and the resulting cooperation agreements. Practical training conducted at the Hebei Institute of Mechanical & Electrical on electric vehicles, hybrid vehicles, robotics systems, and artificial intelligence (AI) technologies is examined, along with the prospects of the "2+1" dual education model. The findings indicate that the international dual education model equips graduates with internationally competitive vocational skills and provides earning opportunities of up to USD 2,000 per month.

Key words: electric vehicles, robotics, vocational education, dual education, international cooperation, Chinese experience, 2+1 model, LiDAR, artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье анализируются результаты международной служебной командировки Гиждуванского техникума № 1 в Китайскую Народную Республику, а также подписанные соглашения о сотрудничестве. На базе китайского института "Hebei Institute of Mechanical & Electrical" рассмотрены практические занятия по электромобилям, гибридным автомобилям, робототехническим системам и технологиям искусственного интеллекта (ИИ), а также перспективы реализации модели дуального образования "2+1". По результатам исследования установлено, что международная модель дуального образования обеспечивает выпускников конкурентоспособными профессиональными навыками, востребованными на международном рынке труда, и предоставляет возможность получения дохода до 2 000 долларов США в месяц.

Ключевые слова: электромобили, робототехника, профессиональное образование, дуальное образование, международное сотрудничество, китайский опыт, модель "2+1", LiDAR, искусственный интеллект.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida yashil texnologiyalarga o'tish tendensiyasi kasbiy ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda [1]. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga qadar dunyo bo'ylab 300 milliondanortiq elektromobil ekspluatatsiyaga kiritilishi kutilmoqda. Bu esa ushbu texnikalarni texnik jihatdan saqlash va ta'mirlashbo'yicha millionlab malakali kadrlarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi [2].

Xitoy Xalq Respublikasi elektromobil ishlab chiqarish va robototexnika sohasida jahonda yetakchi mavqeni egallaydi: global elektromobil ishlab chiqarishning 60 foizdan ortig'i va sanoat robotlarining 44 foizi XXR hissasiga to'g'ri keladi [3].

O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [4]. Shu munosabat bilan xalqaro ta'lim tajribasini o'rganish hamda uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirib tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada G'ijduvon tumani 1-son texnikumining Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan xizmat safari tajribasi hamda shu asosda ishlab chiqilgan "2+1" dual ta'lim modelining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dual ta'lim tizimi nazariy ta'limni amaliy ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtiruvchi Germaniyada shakllangan model bo'lib, hozirgi kunda 60 dan ortiq mamlakatda qo'llanilmoqda [5]. Ushbu modelni kasb-hunar ta'limiga tatbiq etish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Euler (2013) tomonidan olib borilgan qiyosiy tahlilga ko'ra, dual ta'lim dasturlari an'anaviy ta'lim dasturlariga nisbatan bitiruvchilarning mehnat bozorida 40 % tezroq ish bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi [5].

Xitoy tajribasiga kelsak, Yuan va Li (2019) tadqiqotida Xitoyning "Luban Workshop" modeli 17 ta mamlakatdamuvaffaqiyatli joriy etilgani hamda ushbu tajriba kasb-hunar ta'limida xalqaro brendni shakllantirishga xizmat qilayotgani ko'rsatilgan [6].

Robototexnika va elektromobil texnologiyalarini kasb-hunar ta'limiga integratsiya qilish masalasida Chen va Wang (2022) amaliy dasturlar majmuasini taklif etgan bo'lib, unda, ayniqsa, LiDAR tizimlarini o'qitish metodikasiga alohida e'tibor qaratilgan [7].

O'zbekiston sharoitida Mirzayev (2023) kasb-hunar ta'limi muassasalarining xalqaro hamkorligi samaradorligini baholab, qo'shma ta'lim dasturlarining bitiruvchilar bandligiga ijobiy ta'sirini empirik jihatdan tasdiqlagan [8].

Biroq hozirgi kunga qadar elektromobillar va robototexnika sohasida Xitoy–O'zbekiston dual ta'lim hamkorligini kompleks o'rganuvchi maqsadli tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida tayyorlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi metodlar majmuasiga asoslanadi: Kuzatuv va hujjatlar tahlili. Xitoyga amalga oshirilgan xizmat safari davomida laboratoriya mashg'ulotlari bevosita kuzatildi, o'quv dasturlari hamda hamkorlik memorandumlari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil. Hebei Institute of Mechanical & Electrical instituti o'quv dasturi hamda G'ijduvon tumani 1-son texnikumining amaldagi o'quv dasturi qiyosiy tahlil qilindi. Tizimli yondashuv. "2+1" dual ta'lim modelining tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda o'rganildi. Ekspert baholash. Sohaga oid 5 nafar xitoylik va 3 nafar o'zbek mutaxassisi bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro hamkorlik doirasida o'rganilgan texnologiyalar. Hebei Institute of Mechanical & Electrical institutida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar natijasida pedagog xodimlar quyidagi texnologik yo'nalishlarni chuqur o'zlashtirdilar.

Birinchidan, elektromobil tizimlarini diagnostika qilish. BYD, AITO M8 va LI-1 rusumidagi gibrid hamda elektromobillar uchta texnologik platforma asosida tahlil qilindi. Xususan, oldingi yetakchi g'ildiraklar tizimining motor boshqaruvi, yuqori kuchlanishli akkumulyator batareyalari (HV battery) arxitekturasi hamda boshqaruv elektronikasi o'rganildi. Mazkur bilim va ko'nikmalar O'zbekiston avtomobil bozorida elektromobillar ulushining ortib borishi sharoitida yuqori talab qilinadigan mutaxassislik yo'nalishlari hisoblanadi.

Ikkinchidan, avtonom haydash texnologiyalari. 360° va 90° burchakli kuzatuv kameralari, sensor datchiklar hamda LiDAR (Light Detection and Ranging) tizimi amaliy jihatdan o'rganildi. LiDAR texnologiyasi bugungi kunda global robotaksi va haydovchisiz transport vositalarida keng qo'llanilmoqda hamda ushbu yo'nalishda malakali texnik kadrlarni tayyorlash bo'yicha mehnat bozorida yuqori talab mavjud [7].

Uchinchidan, sun'iy intellekt va raqamli ta'lim. Sun'iy intellekt (AI) asosida ta'limiy animatsiyalar va video-roliklar yaratish platformalari, shuningdek, raqamli ekologik monitoring tizimlari (egzoz gazlari analizatori, LiDAR-monitoring) bo'yicha maxsus treninglar o'tkazildi. B. "2+1" dual ta'lim modelining tuzilmasi Imzolangan memorandum asosida ishlab chiqilgan "2+1" dual ta'lim modeli uchta asosiy komponentdan iborat.

1-jadval: **"2+1" dual ta'lim modelining tuzilmasi va bosqichlari**

Komponent	Muddat	Amalga oshirish joyi	Mazmun
1-bosqich (nazariya)	**2 yil**	**G'ijduvon texnikumi**	Asosiy kasbiy fanlar, texnik chizma, elektrotexnika asoslari; xitoylik o'qituvchilar onlayn ma'ruzalar olib boradi
2-bosqich (amaliyot)	**1 yil**	**Hebei instituti va XXR zavodlari**	Laboratoriya mashg'ulotlari, ishlab chiqarish amaliyoti, zamonaviy diagnostika uskunalari bilan ishlash
Chiqish natijasi	**–**	**Xalqaro sertifikat**	XXR va O'zbekiston diplomlari, oylik 2000 USD gacha maosh bilan bandlik kafolati

Yuqoridagi modelni amaldagi O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimi bilan taqqoslaganda, asosiy innovatsiya – talabaning uchinchi o'quv yilini bevosita Xitoydagi ishlab chiqarish sharoitida o'tashi hisoblanadi. Bu Brown (2020) tomonidan asoslangan "ishga asoslangan ta'lim" (work-based learning) paradigmasiga to'liq mos keladi [9]. Olingan ekspert baholariga ko'ra, ushbu model amaliy ko'nikmalarning shakllanish darajasini an'anaviy texnikum ta'limiga nisbatan 2,3 barobar oshirishi kutilmoqda.

C. Ekologik monitoring va raqamli ta'lim integratsiyasi. "Tianjin Shengwei" korxonasida o'rganilgan raqamli monitoring tizimi (LiDAR asosidagi egzoz gazlari tahlili) O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda 2025-yilga qadar avtotransport parki 10 million birlikka yetishi hamda atmosfera ifloslanishining 40 foizga oshishi prognoz qilinayotgani [4] mazkur diagnostika uskunalaridan foydalana oladigan malakali kadrlarni tayyorlashni strategik zaruratga aylantiradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini samarali o'qitish faqat nazariy mashg'ulotlar bilan emas, balki real ishlab chiqarish sharoitidagi "live lab" yondashuvi asosida tashkil etilganda yuqori natija beradi. Ishlab chiqilgan "2+1" dual ta'lim modeli O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan bo'lib, u ikki davlatning ta'lim standartlarini uzviy uyg'unlashtiradi hamda bitiruvchilarga xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Modelni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- o'zbek-xitoy ikki tilli texnik lug'atlarni ishlab chiqish;
- masofaviy ta'lim platformalarini o'zaro integratsiya qilish;
- texnikum o'qituvchilarini har ikki yilda bir marta Xitoyda malaka oshirish kurslariga yuborish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev Sh.B. Kasb-hunar ta'limi muassasalarida xalqaro hamkorlikning bitiruvchilar bandligiga ta'siri // "Kasbiy ta'lim" ilmiy-metodik jurnali. – 2023. – № 4. – B. 45–52.
2. International Energy Agency (IEA). Global EV Outlook 2024. Paris: IEA Publications, 2024. – 204 p.
3. International Federation of Robotics (IFR). World Robotics 2023: Industrial Robots. Frankfurt: IFR Statistical Department, 2023. – 112 p.
4. China Society of Automotive Engineers. China New Energy Vehicle Industry Report 2023. Beijing: CSAE Press, 2023. – 89 p.
5. Euler D. Germany's Dual Vocational Training System: A Model for Other Countries? Gütersloh: Bertelsmann Stiftung, 2013. – 60 p.
6. Yuan L., Li X. The Luban Workshop: China's Overseas Vocational Education Cooperation Model // Journal of Vocational Education & Training. – 2019. – Vol. 71, № 2. – P. 243–261.
7. Chen H., Wang J. Integration of LiDAR and Autonomous Vehicle Technologies into Vocational Curricula // International Journal of Automotive Technology and Education. – 2022. – Vol. 5, № 1. – P. 14–28.
8. Brown A. Work-Based Learning and Vocational Education: Theoretical Foundations // European Journal of Education. – 2020. – Vol. 55, № 3. – P. 338–352.

MULTIMODAL MATNLARNI TANLASH VA DALILLARGA ASOSLANGAN O'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIKASINI ISHLAB CHIQISH

UO'K: 37.013.2.37.01

G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti, pedagogik tadqiqotchi
ORCID: 0009-0007-8712-2025

Annotatsiya: Mazkur maqolada multimodal matnlarni ta'lim jarayonida maqsadli tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasi tadqiq etilgan. Multimodal matnlarning verbal, vizual va grafik komponentlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, dalillarni aniqlash, manbalarni taqqoslash hamda asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini ko'rsatib, tajriba guruhidagi o'quvchilarning natijalari sezilarli darajada yaxshilanganini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari multimodal savodxonlikni rivojlantirishda dalillarga asoslangan topshiriqlarning pedagogik ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: multimodal matn, multimodal savodxonlik, dalil, dalillarga asoslangan ta'lim, o'quv topshirig'i, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, vizual savodxonlik, matn tahlili, pedagogik metodika.

Abstract: This article examines a methodology for the targeted selection of multimodal texts in the educational process and the development of evidence-based learning assignments based on them. It highlights the development of students' skills in analyzing information, identifying evidence, comparing sources, and formulating substantiated conclusions through the integration of the verbal, visual, and graphical components of multimodal texts. The results of the pilot study demonstrate the effectiveness of the proposed methodology and confirm a significant improvement in the performance of students in the experimental group. The findings substantiate the pedagogical value of evidence-based assignments in fostering multimodal literacy.

Key words: multimodal text, multimodal literacy, evidence, evidence-based education, learning task, critical thinking, information analysis, visual literacy, text analysis, pedagogical methodology.

Аннотация: В данной статье исследуется методика целенаправленного отбора мультимодальных текстов в образовательном процессе и разработки на их основе учебных заданий, ориентированных на использование доказательств. Рассматриваются вопросы развития у обучающихся навыков анализа информации, выявления доказательств, сопоставления различных источников и формулирования обоснованных выводов посредством интеграции вербальных, визуальных и графических компонентов мультимодальных текстов. Результаты опытно-экспериментальной работы подтвердили эффективность разработанной методики, продемонстрировав значительное улучшение учебных результатов учащихся экспериментальной группы. Полученные результаты обосновывают педагогическую значимость заданий, основанных на доказательствах, в развитии мультимодальной грамотности.

Ключевые слова: мультимодальный текст, мультимодальная грамотность, доказательство, обучение, основанное на доказательствах, учебное задание, критическое мышление, анализ информации, визуальная грамотность, анализ текста, педагогическая методика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim muhitida o'quvchilar axborotni nafaqat an'anaviy yozma matnlar orqali, balki grafik, jadval, diagramma, infografika, fotosurat, audio va videomateriallar orqali ham qabul qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi natijasida multimodal matnlar o'quvchilarning axborotni idrok etishi, qayta ishlashi va undan foydalanishida muhim vositaga aylandi. Bunday sharoitda o'quvchidan nafaqat matn mazmunini tushunish, balki turli axborot shakllarini o'zaro bog'lash, ularning ishonchliligini baholash, dalillarni ajratish hamda ular asosida mustaqil xulosa chiqarish talab etiladi.

Multimodal matnlar bilan ishlash metodikasining muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quv topshiriqlarini dalillarga asoslangan faoliyat bilan bog‘lashdir. Bunday topshiriqlar o‘quvchini tayyor ma’lumotni qabul qilishdan faol tahlil qilishga yo‘naltiradi. O‘quvchi matn, jadval, grafik yoki boshqa vizual manbalardan dalillarni izlaydi, ularni taqqoslaydi hamda o‘z fikrini aniq faktlar bilan asoslaydi. Shu sababli multimodal matnlarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash mezonlarini belgilash va ular asosida samarali o‘quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi multimodal matnlarni tanlash hamda dalillarga asoslangan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Multimodal matnlar va multimodal savodxonlik masalalari zamonaviy pedagogika, lingvodidaktika hamda ta’lim texnologiyalari yo‘nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlarda matn tushunchasining an’anaviy verbal chegaralardan chiqib, tasvir, grafik, audio, video va boshqa semiotik resurslar bilan integratsiyalashuvi ta’lim mazmunini tashkil etishning yangi shakli sifatida baholanadi. O‘zbek tadqiqotchilarining ishlarida ham raqamli ta’lim muhiti, media ta’lim, axborot savodxonligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xususan, M. Q. Abdullayeva va B. X. Xodjayevtadqiqotlarida ta’lim oluvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli vositalardan foydalanish hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning metodik asoslari yoritilgan [1, 2]. Ushbu yondashuvlar multimodal matnlarni o‘quv jarayoniga kiritish va ulardan samarali foydalanish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda multimodal ta’lim mazmuni ko‘pincha media ta’lim, media savodxonlik va vizual axborotni tahlil qilish tushunchalari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. E. S. Polat tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish hamda axborot resurslari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan [3].

A. V. Fedorov esa media savodxonlikni rivojlantirishda media matnlarni tahlil qilish, ularning mazmuni va axborot xususiyatlarini baholashning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslagan [4].

Xorijiy tadqiqotlarda multimodallik masalasi yanada kengroq nazariy va metodik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Kress va van Leeuwen multimodal matnlarni turli semiotik resurslarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadigan kommunikativ birlik sifatida talqin qiladilar [5]. Ularning vizual grammatika konsepsiyasi tasvir, rang, kompozitsiya va boshqa vizual elementlarning mazmun yaratishdagi rolini tushuntiradi.

Jewitt multimodallikni ta’lim jarayonida turli kommunikativ vositalarning o‘zaro integratsiyasi sifatida ko‘rib, o‘quvchilarning mazmunni bir nechta modal kanallar orqali yaratishi va talqin qilishiga alohida e’tibor qaratadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mayerning multimedia ta’lim nazariyasida verbal va vizual axborotning muvofiqlashtirilgan holda taqdim etilishi o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan [7].

Hobbs media savodxonlikni rivojlantirishda axborotni tahlil qilish, baholash hamda media xabarlarning maqsadini anglash ko‘nikmalarini muhim deb hisoblaydi. Cope va Kalantzis esa yangi media muhitida savodxonlik tushunchasining tobora kengayib borayotganini ta’kidlab, o‘quvchilarni turli modal resurslar bilan ishlashga o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadilar [8].

Mavjud tadqiqotlar tahlili multimodal matnlarning o‘quvchilarning axborotni idrok etishi va tahlil qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Biroq multimodal materiallarni tanlash mezonlari bilan dalillarga asoslangan o‘quv topshiriqlarini yagona metodik tizim sifatida bog‘lash masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, o‘quvchining dalillarni aniqlashi, turli modal manbalarni taqqoslashi hamda o‘z xulosasini mustaqil ravishda asoslashiga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy metodik mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Mazkur tadqiqot aynan shu metodik bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Multimodal matnlarni tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida multimodal matn bilan ishlash, matndan dalillarni ajratib olish, dalillarni boshqa axborot manbalari bilan taqqoslash, dalil va xulosani farqlash hamda o‘z fikrini matn, grafik, jadval va vizual ma’lumotlar asosida dalillar bilan asoslash ko‘nikmalarining shakllanish darajasi baholandi.

Tajribada jami 120 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ular tajriba va nazorat guruhlariga teng taqsimlandi. Tajriba guruhida 60 nafar, nazorat guruhida esa 60 nafar o‘quvchi qatnashdi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda, ya’ni dastlabki diagnostika, pedagogik ta’sir va yakuniy nazorat bosqichlarida amalga oshirildi. Dastlabki diagnos-

tika bosqichida ikki guruh o‘quvchilariga mazmuni va murakkablik darajasi bir xil bo‘lgan topshiriqlar taqdim etildi. Topshiriqlar tarkibiga axborotli matnni o‘qish, matndagi asosiy fikrni aniqlash, grafik yoki diagrammadan ma’lumot olish, ikki xil axborot manbasidagi ma’lumotlarni taqqoslash hamda berilgan xulosani dalillar bilan asoslash kabi faoliyatlar kiritildi. Dastlabki diagnostika natijalari tajriba guruhida o‘quvchilarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 54,3 %ni, nazorat guruhida esa 53,8 %ni tashkil etganini ko‘rsatdi. Guruhlar o‘rtasidagi farq 0,5 foiz punktiga teng bo‘lib, tajriba boshlanishidan oldin ularning tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil bo‘lgan.


Keyingi bosqichda tajriba guruhida ishlab chiqilgan metodika asosida multimodal matnlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari tizimli ravishda qo‘llanildi. O‘quv materiallari tarkibida verbal matn, jadval, diagramma, infografika, xarita, fotosurat va qisqa videomateriallar o‘zaro bog‘langan holda taqdim etildi. Har bir topshiriq o‘quvchidan faqat axborotni qayta aytib berishni emas, balki muayyan dalilni topish, uning manbasini aniqlash, dalilning mazmunini izohlash, turli multimodal manbalar o‘rtasidagi muvofiqlik yoki ziddiyatni aniqlash hamda yakuniy xulosani dalillar asosida shakllantirishni talab qildi.

Metodik tajriba davomida tajriba guruhidagi o‘quvchilarning dalillarni aniqlash va ulardan foydalanish ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich oshib bordi. Dastlab o‘quvchilarning 48,3 %i matnda berilgan asosiy dalilni to‘g‘ri ajrata olgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 83,3 %ga yetdi. Grafik va diagrammalardagi ma’lumotlarni matn mazmuni bilan bog‘lash ko‘rsatkichi 41,7 %dan 78,3 %gacha oshdi. Bir nechta axborot manbalarini taqqoslash asosida xulosa chiqarish ko‘rsatkichi 36,7 %dan 75,0 %gacha ko‘tarildi. O‘z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash qobiliyatiga ega o‘quvchilar ulushi esa 31,7 %dan 71,7 %gacha oshdi.

Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy diagnostika natijalari ham metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Yakuniy baholashda tajriba guruhining o‘rtacha natijasi 81,7 %ni, nazorat guruhining o‘rtacha natijasi esa 62,4 % ni tashkil etdi. Tajriba guruhida dastlabki va yakuniy natijalar o‘rtasidagi o‘sish 27,4 foiz punktiga teng bo‘lgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 8,6 foiz punktini tashkil etdi. Demak, tajriba guruhidagi o‘sish nazorat guruhiga nisbatan 18,8 foiz punktiga yuqori bo‘ldi.

Tajriba natijalarini mezonlar kesimida tahlil qilish ham sezilarli ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Tajriba guruhida dalillarni aniqlash bo‘yicha o‘rtacha natija 48,3 %dan 83,3 %gacha, multimodal manbalarni integratsiyalash bo‘yicha natija 41,7 %dan 78,3 %gacha, manbalarni taqqoslash bo‘yicha natija 36,7 %dan 75,0 %gacha hamda dalillangan xulosa chiqarish bo‘yicha natija 31,7 %dan 71,7 %gacha oshdi.

Mazkur ko‘rsatkichlar o‘quv topshiriqlarining faqat bitta ko‘nikmani emas, balki multimodal axborotni idrok etishdan boshlab dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishgacha bo‘lgan yaxlit faoliyatni rivojlantirganini ko‘rsatadi. Quyidagi grafikda tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi hamda tajribadan keyingi o‘rtacha natijalari taqqoslanadi.



1-rasm: **Tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi hamda tajribadan keyingi natijalari taqqoslanishi**

Grafikdagi ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba guruhining dastlabki 54,3 %lik ko‘rsatkichi tajriba yakunida 81,7 % ga yetgan. Nazorat guruhida esa 53,8 %lik boshlang‘ich natija 62,4 %gacha oshgan. Natijalar o‘rtasidagi farq tajriba guruhida qo‘llangan metodik yondashuvning o‘quvchilarning dalillarga asoslangan fikrlash hamda multimodal axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi.

Tajriba natijalari multimodal matnlarni maqsadli tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan topshiriqlarni tizimli tashkil etish o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini sezilarli darajada faollashtirishini ko‘rsatdi. Dastlabki diagnostika jarayonida tajriba guruhining o‘rtacha natijasi 54,3 %, nazorat guruhiniki esa 53,8 % bo‘lgani ikki guruhning tajriba boshlanishida deyarli bir xil tayyorgarlik darajasiga ega ekanini ko‘rsatadi. Ular o‘rtasidagi

atigi 0,5 foiz punkti farq tajriba davomida qayd etilgan keyingi tafovutlarning metodik ta'sir bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini tahlil qilish uchun boshlang'ich sharoitlarning yetarli darajada o'xshash bo'lganini anglatadi. Tajriba yakunida tajriba guruhida 81,7 %, nazorat guruhida esa 62,4 % natijaning qayd etilishi metodikaning samaradorligini ko'rsatuvchi asosiy empirik ko'rsatkichlardan biridir. Tajriba guruhidagi 27,4 foiz punktilik o'sish nazorat guruhidagi 8,6 foiz punktilik o'sishdan 18,8 foiz punktiga yuqori bo'ldi. Bu tafovut o'quvchilarning multimodal matnlar bilan oddiy tanishishidan ko'ra, ular asosida maxsus ishlab chiqilgan dalillarga asoslangan topshiriqlarni bajarishi yuqoriroq natija berganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida ham ma'lum darajada ijobiy o'sish kuzatilgani tabiiy o'quv jarayoni, takrorlash hamda mavzularni o'zlashtirish bilan izohlanishi mumkin. Biroq tajriba guruhidagi o'sish sur'atining yuqoriligi metodik yondashuvning qo'shimcha pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Dalilni aniqlash ko'nikmasining 48,3 %dan 83,3 %gacha oshishi o'quvchilarning matndagi barcha ma'lumotlarni bir xil ahamiyatga ega deb qabul qilishdan voz kechib, muayyan fikrni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi axborotni ajrata olishga o'rganganini ko'rsatadi. Bu natija multimodal matnlarni tanlash jarayonida axborotning ishonchliligi, aniqligi va mavzuga aloqadorligi kabi mezonlardan foydalanish muhimligini tasdiqlaydi. O'quvchi dalilni aniqlay olishi uchun matndagi asosiy g'oya bilan uni tasdiqlovchi fakt o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olishi zarur. Shu sababli tajriba davomida "Matnda nima deyilgan?" savolidan tashqari, "Bu fikr qanday dalil bilan tasdiqlangan?" kabi savollarga asoslangan topshiriqlarning qo'llanilishi yuqori natijadorlikka xizmat qilgan.

Grafik va diagrammalarni matn bilan bog'lash ko'rsatkichining 41,7 %dan 78,3 %gacha oshishi multimodal savodxonlikning muhim komponentlaridan biri rivojlanganini ko'rsatadi. O'quvchilar dastlab vizual va verbal axborotni alohida qabul qilgan bo'lsalar, metodik tajribadan so'ng ularni yagona mazmuniy tizim sifatida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Masalan, matnda berilgan statistik ma'lumotni diagrammadagi ko'rsatkich bilan solishtirish, grafikdagi o'zgarish sabablarini matn asosida izohlash yoki infografikadagi ma'lumotni yozma dalil bilan tasdiqlash kabi topshiriqlar o'quvchidan bir nechta axborot kanalini bir vaqtning o'zida tahlil qilishni talab qildi.

Bir nechta manbalarni taqqoslash ko'rsatkichining 36,7 %dan 75,0 %gacha oshgani o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash qobiliyatida sezilarli o'zgarish yuz berganini ko'rsatadi. Ushbu natija ayniqsa muhim, chunki multimodal matnlar bilan ishlashda turli manbalardagi ma'lumotlar doimo bir-birini to'liq takrorlamaydi. Ayrim hollarda matn, grafik va tasvir o'rtasida mazmuniy tafovut yoki qarama-qarshilik bo'lishi mumkin.

Tajriba davomida o'quvchilar bunday tafovutlarni aniqlash, qaysi ma'lumot qaysi dalil bilan qo'llab-quvvatlanganini baholash hamda o'z xulosasini manbalararo taqqoslash asosida shakllantirishga yo'naltirildi. Natijadagi 38,3 foiz punktilik o'sish aynan ushbu faoliyatlarning izchil tashkil etilgani bilan izohlanadi. O'z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash ko'rsatkichining 31,7 %dan 71,7 %gacha oshishi tajriba davomida kuzatilgan eng muhim sifat o'zgarishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Dastlab o'quvchilarning katta qismi o'z javoblarini shaxsiy fikr yoki umumiy mulohaza bilan cheklagan bo'lsa, metodik ta'sirdan so'ng ularning aksariyati o'z fikrini aniq fakt, statistik ma'lumot, grafik ko'rsatkichi yoki boshqa axborot manbasiga tayangan holda asoslashga harakat qildi. Bu holat dalillarga asoslangan topshiriqlarning o'quvchilarda nafaqat axborotni tushunish, balki fikrni mantiqiy asoslash kompetensiyasini ham samarali shakllantirishini ko'rsatadi.

1-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi va keyingi umumiy natijalari**

Guruh	Ishtirokchilar soni	Dastlabki natija (%)	Yakuniy natija (%)	O'sish (foiz punkt)
Tajriba guruhi	60	54,3	81,7	+27,4
Nazorat guruhi	60	53,8	62,4	+8,6
Farq	0	+0,5	+19,3	+18,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tajriba boshlanishida ikki guruh o'rtasidagi farq atigi 0,5 foiz punktini tashkil etgan. Tajriba yakunida esa tajriba guruhi natijasi nazorat guruhi natijasidan 19,3 foiz punktiga yuqori bo'lgan. Tajriba guruhida 27,4 foiz punktilik o'sish kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida esa 8,6 foiz punktilik o'sish qayd etilgan.

2-jadval: **Tajriba guruhida multimodal matnlar bilan ishlash ko'nikmalarining o'zgarishi**

Baholash mezoni	Tajribagacha (%)	Tajribadan keyin (%)	O'sish (foiz punkt)
Dalilni to'g'ri aniqlash	48,3	83,3	+35,0
Grafik va diagrammani matn bilan bog'lash	41,7	78,3	+36,6
Bir nechta manbani taqqoslash	36,7	75,0	+38,3
Fikrni kamida ikki dalil bilan asoslash	31,7	71,7	+40,0

Mazkur jadval tajriba guruhida barcha mezonlar bo'yicha ijobiy dinamika kuzatilganini ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish o'quvchilarning o'z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash ko'nikmasida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich 31,7 %dan 71,7 %gacha oshib, 40,0 foiz punktilik o'sishni tashkil etgan. Eng past boshlang'ich ko'rsatkich ham aynan shu mezonda kuzatilgan. Bu holat tajriba boshlanishida o'quvchilarning o'z fikrini mustaqil ravishda dalillar bilan asoslash qobiliyati yetarli darajada shakllanmaganini, metodik ta'sirdan so'ng esa mazkur ko'nikmada sezilarli rivojlanish kuzatilganini ko'rsatadi.

3-jadval: **Tajriba-sinov natijalarining umumlashtirilgan statistik ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
O'quvchilar soni	60	60
Dastlabki o'rtacha natija	54,3%	53,8%
Yakuniy o'rtacha natija	81,7%	62,4%
Mutlaq o'sish	27,4 foiz punkt	8,6 foiz punkt
Yakuniy guruhlararo farq	19,3 foiz punkt	–
O'sishlar farqi	18,8 foiz punkt	–

Natijalar orasidagi eng yuqori o'sish o'z fikrini kamida ikki mustaqil dalil bilan asoslash mezonida kuzatilib, 40,0 foiz punktini tashkil etdi. Keyingi yuqori o'sish manbalarni taqqoslash mezonida qayd etilib, u 38,3 foiz punktini tashkil qildi. Multimodal axborotni integratsiyalash mezonida 36,6 foiz punkti, dalilni aniqlash mezonida esa 35,0 foiz punktilik o'sish kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlar o'quv topshiriqlari tizimida oddiy reproduktiv savollardan ko'ra tahlil qilish, taqqoslash, integratsiyalash va dalillashga yo'naltirilgan topshiriqlar ustuvor bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Grafikda ifodalangan umumiy natijalar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Tajriba guruhidagi ko'rsatkichning dastlabki 54,3 %dan yakuniy 81,7 %gacha oshishi o'quvchilarning umumiy natijasi qariyb 1,5 baravar ortganini ko'rsatadi. Nazorat guruhidagi 53,8 %dan 62,4 %gacha bo'lgan o'sish esa nisbatan past sur'atni namoyon etadi. Ikki guruh o'rtasidagi yakuniy 19,3 foiz punktilik farq tajriba yakunida metodik ta'sir natijasida yuzaga kelgan tafovutni yaqqol ko'rsatadi.

Tajriba natijalari asosida multimodal matnlarni tanlashda uchta asosiy pedagogik talabning muhimligi aniqlandi.

Birinchidan, matn mazmuni o'quvchilarning yosh va kognitiv imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, multimodal komponentlar, ya'ni matn, grafik, jadval, tasvir yoki video bir-birini mazmunan to'ldirishi hamda o'quvchini qo'shimcha tahlilga undashi kerak.

Uchinchidan, tanlangan material asosida o'quvchi dalilni topishi, uni baholashi, taqqoslashi va undan xulosa chiqarishi mumkin bo'lgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, multimodal matnning o'zi avtomatik ravishda yuqori darajadagi o'quv natijasini ta'minlamaydi. Natijadorlik ko'proq multimodal materialning qanday tanlangani va u asosida qanday topshiriqlar ishlab chiqilganiga bog'liq. Agar o'quvchiga faqat rasmni ko'rish yoki diagrammadagi ma'lumotni ko'chirib olish topshirilsa, uning kognitiv faolligi cheklangan darajada qoladi. Aksincha, o'quvchidan diagrammadagi ma'lumotni matndagi dalillar bilan solishtirish, qarama-qarshi fikrlarni aniqlash, manbalarning ishonchliligini baholash hamda yakuniy xulosani kamida ikki dalil bilan asoslash talab qilinsa, multimodal matn yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqilgan metodikani "multimodal matnni tanlash – dalilni aniqlash – manbalarni integratsiyalash – dalillarni taqqoslash – xulosa chiqarish – xulosani asoslash" izchilligida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tajriba natijalaridagi 27,4 foiz punktilik umumiy o'sish hamda alohida mezonlarda 35,0–40,0 foiz punktigacha yetgan ijobiy dinamika mazkur metodik ketma-ketlikning ta'lim jarayonidagi amaliy samaradorligini ko'rsatadi. Natijalar multimodal matnlar bilan ishlash metodikasini faqat axborotni idrok etish vositasi sifatida emas, balki dalillarga asoslangan fikrlash, tanqidiy tahlil va mustaqil xulosa chiqarishni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida qarash zarurligini asoslaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari multimodal matnlarni maqsadli tanlash va ular asosida dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish o'quvchilarning axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodik vosita ekanini ko'rsatdi. Tajriba guruhida umumiy natijaning 54,3 %dan 81,7 %gacha oshishi ishlab chiqilgan metodikaning ijobiy pedagogik ta'sirini tasdiqladi. Dalilni aniqlash, grafik va matnni integratsiyalash, manbalarni taqqoslash hamda fikrni dalillar bilan asoslash ko'rsatkichlaridagi sezilarli o'sish o'quv-

chilarning multimodal savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanganini ko‘rsatadi. Metodikada multimodal matnni tanlash, dalilni aniqlash, manbalarni taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarish bosqichlarining izchil tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvni turli fanlar va ta’lim bosqichlarida qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva M. Q. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning axborot kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent.
2. Xodjayev B. X. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent.
3. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2009.
4. Федоров А. В. Медиаобразование и медиаграмотность. – Таганрог: Кучма, 2004.
5. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. – London: Routledge, 2006.
6. Jewitt C. The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. – London: Routledge, 2016.
7. Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
8. Cope B., Kalantzis M. Multiliteracies: Literacy Learning and the Design of Social Futures. – London: Routledge, 2000.

MAKTABGACHA TA'LIMDA "IJODIY FAOLIYAT" VA "KREATIVLIK" KONSEPTLARINING NAZARIY-METODOLOGIK INTERPRETATSIYASI

Komila Aytmuratova
Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent-o'qituvchi
Nukus shahri, Qoraqalpog'iston (O'zbekiston Respublikasi)
ORCID: 0009-0009-7903-8290

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik paradigma doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlik va ijodiy faoliyat konseptlarining ilmiy-nazariy mohiyati tizimli ravishda tahlil etilgan. Tadqiqotda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" fenomenlarining o'zaro dialektik munosabatlari, ularning funksional-semantik yuklamalari hamda maktabgacha yosh davriga xos ontogenetik xususiyatlari yoritilgan. Bolalar ijodining sub'ektiv-shaxsiy yangilik, protsessual motivatsiya hamda sinkretizm kabi invariantlari asoslab berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida bolalarning verbal kreativligini rivojlantirishda she'riy asarlarning pedagogik drayver sifatidagi o'rni hamda ularni qo'llashning didaktik shart-sharoitlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijodiy faoliyat, kreativlik, she'riy asarlar, sub'ektiv yangilik, pedagogik drayver, didaktik shart-sharoitlar.

Abstract: This article systematically analyzes the scientific and theoretical essence of the concepts of creativity and creative activity in preschool children within the modern pedagogical paradigm. The study reveals the dialectical relationship between the phenomena of "creative activity" and "creativity", their functional-semantic significance, and the ontogenetic characteristics of preschool childhood. The invariants of children's creativity, including subjective-personal novelty, processual motivation, and syncretism, are substantiated. Furthermore, the didactic conditions and the role of poetic works as a pedagogical driver in fostering children's verbal creativity in preschool educational institutions are highlighted.

Key words: preschool education, creative activity, creativity, poetic works, subjective novelty, pedagogical driver, didactic conditions.

Аннотация: В данной статье системно проанализирована научно-теоретическая сущность концептов креативности и творческой деятельности детей дошкольного возраста в современной педагогической парадигме. В исследовании раскрываются диалектическая взаимосвязь феноменов "творческая деятельность" и "креативность", их функционально-семантическая нагрузка, а также онтогенетические особенности детей в период дошкольного детства. Обоснованы такие инварианты детского творчества, как субъективно-личностная новизна, процессуальная мотивация и синкретизм. Кроме того, освещены дидактические условия и роль поэтических произведений как педагогического драйвера в развитии вербальной креативности детей в условиях дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческая деятельность, креативность, поэтические произведения, субъективная новизна, педагогический драйвер, дидактические условия.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasining tub burilish nuqtasi shaxsning mahsuldor-evristik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan innovatsion ta'lim tizimiga o'tishni taqozo etmoqda. Global transformatsiyalar sharoitida inson kapitalining poydevori aynan ontogenezning ilk bosqichlarida shakllanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyat determinantlarini to'g'ri modellashtirish hamda ularning tabiiy kreativ invariantlarini rivojlantirish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boladagi tabiiy kreativ potensial, agar uning rivojlanishi uchun maqsadli pedagogik muhit yaratilmasa, yosh ulg‘ayishi bilan ijtimoiy bosim ta’sirida so‘nish (kreativ inqiroz) tendensiyasiga ega. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish quyidagi didaktik shart-sharoitlarni ta’minlashni talab etadi: Psixologik xavfsizlik va evristik qulaylik muhiti. Bolaning har qanday nostandart g‘oyasi va xatolari tanqidsiz qabul qilinishi hamda tarbiyachi tomonidan ijobiy rag‘batlantirilishi lozim. Multisensorli rivojlantiruvchi predmet-fazoviy muhit. Guruh xonasida bolaning badiiy, she’riy, teatr va tasviriy ijod bilan erkin hamda mustaqil shug‘ullanishi uchun boyitilgan materiallar bazasi mavjud bo‘lishi zarur. Mashg‘ulotlarning muammoli-evristik xarakteri. Tayyor algoritmlar o‘rniga bolalarga ochiq turdagi savollar, topishmoq-she’rlar hamda kognitiv kolliziyalar (masalan, “Agar ertak qahramoni she’r bilan gapirganda nima bo‘lardi?”) taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

Psixolog L.S. Vigotskiy o‘zining klassik tadqiqotlarida inson faoliyatini ikki asosiy paradigmaga ajratadi: reproduktiv (statik-takrorlovchi) va kombinatorik (dinamik-ijodiy) faoliyat [3; 14-b.]. Agar birinchi yo‘nalish insonning mavjud stereotiplar va xulq-atvor namunalarini aynan takrorlashiga tayanadigan bo‘lsa, kombinatorik faoliyat tasavvur kuchi yordamida voqelik elementlarini sintez qilish, ularni yangi kontekstda qayta guruhlash va interpretatsiya qilish bilan tavsiflanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasida ijodiy faoliyat faqat yakuniy eksklyuziv mahsulot (mukammal chizilgan kompozitsiya yoki applikatsiya) bilan tavsiflanmaydi. Bu yerda asosiy e’tibor jarayonning subyektiv-psixologik qiymatiga, ya’ni ushbu faoliyat davomida bolaning ichki intellektual dunyosi va kognitiv apparati qanchalik transformatsiyaga uchraganiga qaratiladi [4; 92-b.].

“Kreativlik” (lotincha creatio – yaratish, inglizcha creativity – ijodkorlik salohiyati) tushunchasi tizimli ilmiy kategoriya sifatida pedagogika va psixologiya faniga XX asrning ikkinchi yarmida, asosan, g‘arb konseptual maktablari (J. Gilford, E.P. Torrens) orqali kirib kelgan. Agar “ijodiy faoliyat” tushunchasi ko‘proq protsessual (jarayonli) hamda natijaviy mahsuldorlikni (faoliyatning tashqi dinamikasini) ifodalasa, “kreativlik” shaxsning ichki potensial imkoniyati, individual-psixologik sifati hamda intellektual dispozitsiyasini anglatadi. Ya’ni, kreativlik ijodiy faoliyatning konseptual asosi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlovchi individual xususiyatlar integratsiyasidir.

J. Gilford o‘zining intellekt strukturasi modelida kreativlik muammosini divergent fikrlash bilan bog‘laydi [5; 77-b.]. Divergent fikrlash chiziqli bo‘lmagan, bir muammoning yechimini topish uchun turli yo‘nalishlarda ko‘p vektorli qidiruvni amalga oshirish qobiliyatidir. Uning metodologiyasiga ko‘ra, shaxs kreativligini aniqlovchi to‘rtta asosiy parametr mavjud: Fikrning ravonligi (Fluency). Vaqt cheklangan sharoitda maksimal miqdordagi g‘oya yoki farazlarni ilgari surish qobiliyati. Kognitiv moslashuvchanlik (Flexibility). Bir fikrlash strategiyasidan ikkinchisiga tez o‘tish hamda muammoni noan’anaviy nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyati. Originallik (Originality). Shablon va standartlardan xoli, noodatiy, unikal hamda o‘ziga xos yechimlarni ilgari surish qobiliyati. Mukammallashtirish (Elaboration).

Ilgari surilgan dastlabki g‘oyani batafsil ishlab chiqish va uni mantiqiy hamda funksional jihatdan mukammal shaklga keltirish. E.P. Torrens o‘z tadqiqotlarida kreativlikni borliqdagi disharmoniya, bilimlardagi uzilishlar, yetishmovchiliklar yoki nomutanosibliklarga nisbatan shaxsning yuqori darajadagi sezgirligi sifatida talqin qiladi [6; 210-b.]. Uning fikricha, kreativ sikl muammoni sezish, farazlarni shakllantirish, ularni empirik sinovdan o‘tkazish hamda yakuniy konseptni jamiyatga taqdim etish bosqichlarini qamrab oladi.

Zamonaviy o‘zbek maktabgacha ta’lim pedagogikasida (F. Qodirova, Sh. Sodiqova tadqiqotlarida) kreativlik shunchaki kognitiv qobiliyat emas, balki shaxsning emotsional, irodaviy, motivatsion hamda qadriyatli sohalarining dinamik uyg‘unligi sifatida qaraladi [7; 56-b.]. Kreativ bola intellektual stereotiplarga qarshi tura oladi, evristik tavakkalchilikdan hamda xato qilish bilan bog‘liq ijtimoiy qo‘rquvdan cho‘chimaydi, doimiy ravishda o‘zining individual “Men”ini namoyon etishga intiladi. Ilmiy-pedagogik tahlillar va taksonomik mezonlar asosida ushbu ikki fundamental tushunchaning o‘zaro nisbatini quyidagi qiyosiy jadval orqali tizimlashtirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kognitiv pedagogika, psixologik konsepsiyalar (L.S. Vigotskiy, J. Gilford, E.P. Torrens) hamda milliy maktabgacha ta’lim metodologiyasi (F. Qodirova, Sh. Sodiqova) asosida tizimli, qiyosiy-mantiqiy va taksonomik tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi asr ta’lim sivilizatsiyasi reseptiv-reproduktiv xarakterga ega bo‘lgan an’anaviy ta’lim andozalaridan voz kechib, shaxsning mahsuldor-evristik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan innovatsion pedagogik tizimga o‘tishni taqozo etmoqda. Global transformatsiyalar sharoitida jamiyatning intellektual salohiyatini belgilovchi eng muhim mezon muammoli vaziyatlarda nostandart, moslashuvchan va kreativ qarorlar qabul qila

oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Ma'lumki, inson kapitalining poydevori aynan ontogenezning ilk bosqichlarida shakllanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyat determinantlarini to'g'ri modellashtirish hamda ularning tabiiy kreativ invariantlarini she'riy va badiiy vositalar orqali rivojlantirish zamonaviy pedagogika fanining eng fundamental muammolaridan biri bo'lib qolmoqda [1; 44-b.].

Milliy va xorijiy metodologik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "ijodiy faoliyat" hamda "kreativlik" fenomenlari falsafiy-pedagogik kategoriyalar sifatida ko'p hollarda o'zaro sinonimik munosabatga kirishsa-da, ularning funksional-semantik yuklamalari hamda tarkibiy elementlari o'rtasida jiddiy konseptual farqlar mavjud. Ushbu tushunchalarning maktabgacha ta'lim ontogenezidagi o'ziga xos jihatlarini ilmiy-metodologik hamda empirik nuqtai nazardan tahlil qilish tadqiqot obyektining konseptual asosini tashkil etadi.

Falsafiy va sotsiologik yondashuvlar doirasida ijodkorlik (ijodiy faoliyat) subyektning obyektiv borliqni qayta qurishga yo'naltirilgan, natijada sifat jihatidan mutlaqo unikal, ilgari mavjud bo'lmagan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar va modellar majmuini yaratuvchi o'ziga xos faoliyat shakli sifatida ta'riflanadi. Pedagogik nuqtai nazardan esa ijodiy faoliyat shaxs tomonidan to'plangan reproduktiv tajriba, intellektual ko'nikma va malakalarning kutilmagan, noodatiy hamda nostandart kognitiv vaziyatlarda transformatsiya qilinishi jarayonidir [2; 118-b.].

Zamonaviy didaktikada ijodiy faoliyatning arxitektonikasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi tarkibiy invariantlardan iborat: Motivatsion-sintensial komponent. Tashqi va ichki evristik motivlarning ustunligi, kognitiv reflekslar, intellektual qiziquvchanlik hamda kashfiyotga bo'lgan ehtiyoj. Kognitiv-intellektual komponent. Produktiv tasavvur (fantaziya), intuitiv anglash, assotsiativ zanjirlarni qurish, muammoni uning yashirin holatidayoq identifikatsiya qilish qobiliyati. Texnologik-amaliy komponent. Yangi moddiy yoki ma'naviy artefaktni yaratish jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar, taktik harakatlar va individual-ijodiy ko'nikmalar.

1-jadval: **"Ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining qiyosiy tavsifi**

Solishtirish mezonlari	Ijodiy faoliyat	Kreativlik
Kategorial mohiyati	Obyektiv va subyektiv borliqni modifikatsiya qilishga qaratilgan dinamik tizim.	Shaxsning intellektual-psixologik va sotsiogen potensiali, ichki resursi.
Vektorli yo'nalishi	Ekstriorizatsiya (ichki imkoniyatlarni tashqi amaliy natijaga, mahsulotga aylantirish).	Intriorizatsiya (tashqi ta'sirlarni ichki moslanuvchan fikrlash uslubiga aylantirish).
Strukturaviy arxitektonikasi	Metodlar, bosqichlar, didaktik vositalar va algoritmik harakatlar ketma-ketligi.	Ravonlik, kognitiv moslashuvchanlik, semantik originallik, sensor sezgirlik.
Empirik ifodalanishi	Amaliy-ijodiy harakatlarda (tasviriy, musiqiy, adabiy-she'riy, teatr faoliyatida).	Nostandart qarorlar qabul qilishda, g'oyalarning intellektual generatsiyasida.

Kreativlik shaxsning ichki konseptual manbai va potensial energiyasi bo'lsa, ijodiy faoliyat ushbu energiyaning tashqi borliqda moddiylashuvi va kinetik shaklga o'tishidir. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida bolaning kreativligini rivojlantirish faqat uning ijodiy faoliyatini to'g'ri, tizimli va pedagogik jihatdan asoslangan tarzda modellashtirish orqali amalga oshiriladi [8; 112-b.].

Maktabgacha bolalik davri (3 yoshdan 7 yoshgacha) inson ontogenezida kreativlik va evristik salohiyat eng yuqori intensivlikda rivojlanadigan sensitiv (o'ta sezgir) davr hisoblanadi. Bu davrda neyronlararo sinapslarning shakllanishi va miya po'stlog'ining plastikligi yuqori darajada bo'lib, tashqi estetik ta'sirlarni, ayniqsa, she'riy obrazlar va ritmik tuzilmalarni tez o'zlashtirish imkonini beradi. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyati yetuk shaxslar ijodidan tubdan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlarga ega [9; 34-b.]: Agar professional ijodkorlikda yaratilgan mahsulot jamiyat uchun obyektiv yangilik (ixtiro, ilm-fanga qo'shilgan hissa, yangi san'at asari) bo'lishi shart bo'lsa, maktabgacha yoshdagi bolaning ijodida mahsulot subyektiv yangilik xususiyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, bolaning chizgan oddiy rasmlari yoki to'qigan qofiyali so'z birikmalari jamiyat uchun kashfiyot bo'lmasligi mumkin, biroq uning shaxsiy tajribasi va kognitiv rivojlanishi nuqtai nazaridan mutlaqo yangi intellektual qadam hisoblanadi. Pedagogik diagnostika uchun aynan mana shu ichki mikrokashfiyot jarayoni alohida ahamiyatga ega.

Kattalar faoliyati ko'p hollarda yakuniy mahsulotning pragmatik sifati va ijtimoiy bahosiga yo'naltirilgan bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun esa faoliyat jarayonining o'zi eng yuqori emotsional-psixologik qiymatga ega. Bola she'riy asarni tinglayotganda yoki unga qofiya izlayotganda natijani emas, balki aynan shu jarayondagi o'yin elementini hamda emotsional ekspressiyani birinchi o'ringa qo'yadi.

D.B. Elkonin ta'kidlaganidek, bu yoshda ijod o'yin bilan uyg'unlashadi va uning motivi faoliyat natijasida emas, balki mazmunida namoyon bo'ladi [10; 45-b.]. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkuri mantiqiy qoliplar va sotsial-madaniy stereotiplar bilan cheklanmaganligi sababli, ularning tasavvuri cheksiz imkoniyatlarga ega.

Ularda dunyoni animistik (jonsiz narsalarga jon baxsh etish) tarzda idrok etish tendensiyasi kuchli. Bolalar ijodining fundamental xususiyatlaridan biri sinkretizmdir. Bola she'riy asarni idrok etganda uni bir vaqtning o'zida kinetik harakatlar (raqs), vizual ifodalar (tasviriy san'at) va audial vositalar (musiqa) orqali ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har qanday ijodkorligi boshlang'ich bosqichda taqlid mexanizmlariga tayanadi. Bola kattalarning nutqiy modellariga, she'r o'qish intonatsiyasiga hamda emotsional reaksiyalariga taqlid qiladi. Biroq, bu taqlid mexanik xarakterga ega emas. Bola namuna asosida o'zining individual his-tuyg'ularini namoyon etishi natijasida taqlidiy faoliyat kreativ va mustaqil faoliyatga aylanadi.

XULOSA

- Ijodiy faoliyat va kreativlik kategoriyalari zamonaviy pedagogik paradigmada shaxs kapitalini shakllantiruvchi eng muhim komponentlar sifatida e'tirof etiladi.
- Kreativlik shaxsning ichki evristik resursi bo'lsa, ijodiy faoliyat ushbu resursning amaliy-pedagogik ro'yobga chiqish maydonidir.
- Maktabgacha bolalik davri psixik jarayonlarning yuqori plastikligi, tasavvurning sintezlashuvchanligi hamda mantiqiy stereotiplardan xoli ekanligi tufayli kreativlikni shakllantirish uchun eng sensitiv bosqich hisoblanadi.
- Bolalar ijodining o'ziga xos xususiyatlari uning subyektiv yangiligi, protsessual xarakteri, sinkretik tabiati hamda taqlid va mustaqillikning dialektik muvozanati bilan belgilanadi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish an'anaviy ta'lim andozalaridan voz kechishni hamda bolalarni chuqur emotsional va estetik ta'sir kuchiga ega bo'lgan vositalar, xususan, she'riy asarlar bilan tizimli ravishda boyitishni taqozo etadi.
- She'riyat bolaning ritm tuyg'usi, so'z ijodkorligi (verbal kreativlik) va emotsional intellektini faollashtiruvchi eng samarali pedagogik drayverlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur, 2019. – B. 320.
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – С. 180.
3. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления. – М.: Прогресс, 1965. – С. 433–456.
4. Торренс Е.П. Генезис творческого мышления // Вопросы психологии. – 1984. – № 3. – С. 201–211.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish. – T.: O'qituvchi, 2021. – B. 145.
6. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М.: Владос, 1999. – С. 360.

BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHGA DOIR MASHQLAR TIPOLOGIYASINING SAMARADORLIGI

Maxmudova Feruza Salimdjonovna
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi yoritilgan. Mashqlar to'rtta mezon – tashkiliy shakl, leksik kompetensiya komponenti, kognitiv faoliyat darajasi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining komponentlari (differensial, reflektiv, tanlov asosidagi va muammoli vaziyatga yo'naltirilgan) bo'yicha tasniflangan. Taklif etilgan metodikaning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida pedagogik tajriba-sinov ishi tashkil etildi. Unda nazorat guruhi (XTA-25, 15 nafar talaba) an'anaviy metodika asosida, tajriba guruhi (DU-25, 15 nafar talaba) esa ishlab chiqilgan mashqlar tizimi asosida o'qitildi. Tajriba-sinov natijalariga ko'ra, boshlang'ich bosqichda nazorat va tajriba guruhlari ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lgan (mos ravishda 64 % va 65 %). Yakuniy bosqichda esa nazorat guruhi 68 %ga, tajriba guruhi esa 83 %ga erishdi. Natijada tajriba guruhidagi o'sish (+18 foiz punkti) nazorat guruhidagi o'sishga (+4 foiz punkti) nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Olingan natijalar taklif etilgan mashqlar tipologiyasining bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, mashqlar tipologiyasi, differensial mashqlar, reflektiv mashqlar, tanlov asosidagi mashqlar, muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar, pedagogik tajriba-sinov ishi, bo'lajak chet tili o'qituvchisi.

Abstract: This article presents a typology of exercises developed on the basis of learner-centered educational technology to foster the lexical competence of future foreign language teachers. The exercises are classified according to four criteria: organizational form, component of lexical competence, level of cognitive activity, and component of learner-centered educational technology (differentiated, reflective, choice-based, and problem-situation-oriented exercises). To determine the practical effectiveness of the proposed methodology, a pedagogical experiment was conducted at the Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishakhan Ibrat. The control group (XTA-25, 15 students) was taught using the traditional methodology, whereas the experimental group (DU-25, 15 students) was taught using the developed system of exercises. The results showed that, at the initial stage, the performance of the control and experimental groups was almost identical (64% and 65%, respectively). At the final stage, the control group achieved 68%, while the experimental group reached 83%. Consequently, the improvement in the experimental group (+18 percentage points) was considerably greater than that of the control group (+4 percentage points). These findings confirm the practical effectiveness of the proposed typology of exercises in developing the lexical competence of future foreign language teachers.

Key words: lexical competence, learner-centered educational technology, typology of exercises, differentiated exercises, reflective exercises, choice-based exercises, problem-situation-oriented exercises, pedagogical experiment, future foreign language teacher.

Аннотация: В данной статье представлена типология упражнений, разработанная на основе личностно-ориентированной образовательной технологии и направленная на развитие лексической компетенции будущих учителей иностранного языка. Упражнения классифицированы по четырём критериям: организационной форме, компоненту лексической компетенции, уровню когнитивной деятельности и компоненту личностно-ориентированной образовательной технологии (дифференцированные, рефлексивные, основанные на выборе и ориентированные на проблемную ситуацию упражнения). С целью определения практической эффективности предложенной методики в Наманганском государственном институте иностранных языков имени Исхакхана Ибрата был проведён педагогический эксперимент. Контрольная группа (ХТА-25, 15 студентов) обучалась по традиционной методике, тогда как экспериментальная группа (ДУ-25, 15 студентов) – по разработанной системе упражнений. Результаты эксперимента показали, что на начальном этапе показатели контрольной и экспериментальной групп были практически одинаковыми (64 % и 65 % соответственно). На заключительном этапе показатель контрольной группы достиг 68 %, а экспериментальной – 83 %. Таким образом, прирост в экспериментальной группе (+18 процентных пунктов) оказался значительно выше, чем в контрольной группе (+4 процентных пункта). Полученные результаты подтверждают практическую эффективность предложенной типологии упражнений в развитии лексической компетенции будущих учителей иностранного языка.

Ключевые слова: лексическая компетенция, личностно-ориентированная образовательная технология, типология упражнений, дифференцированные упражнения, рефлексивные упражнения, упражнения, основанные на выборе, упражнения, ориентированные на проблемную ситуацию, педагогический эксперимент, будущий учитель иностранного языка.

KIRISH

Chet tili ta'limi jarayonida leksik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasi bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin tutadi. Leksik kompetensiya o'rganuvchining til birliklarini anglash, ularni nutqiy faoliyatda to'g'ri va samarali qo'llashga oid bilim, ko'nikma hamda malakalarni qamrab oluvchi murakkab kompetensiya sifatida talqin etiladi. Mazkur kompetensiyaning samarali shakllanishi, avvalo, o'quv jarayonida qo'llaniladigan mashqlar tizimining ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligiga bevosita bog'liq. Shu bois bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida tizimlashtirish hamda ularni ilmiy asoslangan mezonlar bo'yicha tasniflash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali sinovdan o'tkazish hamda uning bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mashqlarni ko'p mezonli tipologiya asosida tasniflash;
- ishlab chiqilgan mashqlar tizimini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali sinovdan o'tkazish;
- nazorat va tajriba guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish;
- olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning nazariy asoslari va mavjud ilmiy manbalar tahlili keyingi bo'limda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Leksik kompetensiyani rivojlantirish muammosi xorijiy va mahalliy tilshunoslik hamda pedagogika fanida keng o'rganilgan. I.S.P. Nation "Learning Vocabulary in Another Language" asarida leksik kompetensiyani so'z birliklarini bilish, ularni nutqda ongli ravishda qo'llash hamda avtomatlashtirilgan darajada erkin ishlata olish qobiliyatlarining uyg'unligi sifatida talqin qiladi. Muallif leksik kompetensiyani retseptiv va produktiv ko'nikmalarning o'zaro integratsiyasi asosida bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini asoslaydi [1].

J.C. Richards "The Role of Vocabulary Teaching" maqolasida kommunikativ yondashuv doirasida lug'at boyligini o'qitishning ahamiyatini ochib berib, mexanik yodlashdan ko'ra kontekstga asoslangan mashqlar tizimining samaradorligini ta'kidlaydi [6].

Shuningdek, J.C. Richards va T.S. Rodgers hammuallifligidagi "Approaches and Methods in Language Teaching" asarida til o'qitish metodlarining nazariy asoslari tizimli ravishda bayon etilgan [7]. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasining asoschilaridan biri C. Rogers "Freedom to Learn" asarida ta'lim oluvchini o'quv jarayonining markaziy subyekti sifatida e'tirof etib, pedagogik faoliyat uning individual ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi zarurligini asoslaydi [2].

I.S. Yakimanskaya esa "Lichnostno-orientirovannoye obucheniye v sovremennoy shkole" hamda "Lichnostno-orientirovannoye obucheniye" asarlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning didaktik mexanizmlarini, xususan differensiallash va individuallashtirish tamoyillarini batafsil yoritadi [3; 4].

Kognitiv faoliyat darajalarini tasniflashda B.S. Bloom hamda L.W. Anderson va D.R. Krathwohl tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiyalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bloom taksonomiyasida bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari ajratilgan bo'lsa [8], Anderson va Krathwohl ushbu modelni takomillashtirib, kognitiv jarayonlarni "eslab qolish"dan "yaratish"gacha bo'lgan ierarxik tizim sifatida talqin qiladilar [9]. Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan "reproduktiv – qisman izlanishga yo'naltirilgan – ijodiy" darajalanishi ushbu taksonomik yondashuvlar bilan metodologik jihatdan uyg'unlashadi.

Hamkorlikda o'qitish nazariyasi doirasida D. Johnson va R. Johnson "Learning Together and Alone" asarida individual, juftlik va kichik guruhlarda tashkil etilgan o'quv faoliyatining samaradorligini ilmiy asoslaydi [5]. Mazkur qarash tadqiqotda mashqlarni tashkiliy shakliga ko'ra (individual, juftlik va kichik guruh) tasniflash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

I.A. Zimnyaya "Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii" hamda "Pedagogicheskaya psikhologiya" asarlarida kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik va psixologik asoslarini yoritib, kompetensiyaning bilim, ko'nikma va malaka komponentlari orqali namoyon bo'lishini tahlil qiladi [10; 11].

Ushbu yondashuv tadqiqotda leksik kompetensiyaning bilim, ko'nikma va malakadan iborat uch komponentli tuzilmasini asoslashda metodologik tayanch vazifasini bajardi. Nihoyat, J.C. Richards va T.S.C. Farrell "Professional Development for Language Teachers" asarida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida reflektiv faoliyat hamda amaliyotga yo'naltirilgan mashqlarning ahamiyatini asoslaydi [12].

Mazkur ilmiy qarashlar tadqiqotda reflektiv mashqlar komponentini ishlab chiqish va asoslashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qildi. Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, leksik kompetensiyani rivojlantirish, kognitiv faoliyat darajalarini hisobga olish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari alohida ilmiy yo'nalishlar sifatida yetarlicha tadqiq etilgan. Biroq ushbu yondashuvlarning bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash kontekstida yagona, ko'p mezonli mashqlar tipologiyasi doirasida integratsiyalashgan holda ishlab chiqilishi ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Aynan mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mashqlar tipologiyasining nazariy asoslari

Mazkur tadqiqot doirasida mashqlar tipologiyasi to'rtta asosiy mezon asosida ishlab chiqildi va tasniflandi:

- tashkiliy shakliga ko'ra (individual, juftlik va kichik guruh);
- leksik kompetensiya komponentiga ko'ra (bilim, ko'nikma va malaka);
- kognitiv faoliyat darajasiga ko'ra (reproduktiv, qisman izlanishga yo'naltirilgan va ijodiy);
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponentiga ko'ra (differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar).

Ta'kidlash joizki, mazkur to'rt mezon o'zaro mustaqil mashqlar tizimlarini emas, balki yagona mashqlar majmuasini turli metodik nuqtayi nazardan tavsiflovchi va bir-birini to'ldiruvchi tahlil mezonlarini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bitta mashq bir vaqtning o'zida bir nechta mezon bo'yicha tavsiflanishi mumkin. Masalan, u juftlikda bajariladigan, leksik ko'nikmani rivojlantiruvchi, qisman izlanishga yo'naltirilgan hamda reflektiv xarakterdagi mashq bo'lishi mumkin. Shu sababli taklif etilgan tipologiya mashqlarni alohida guruhlarga qat'iy ajratishni emas, balki ularni kompleks metodik tizim sifatida tavsiflashni nazarda tutadi (1-jadval).

1-jadval: **Mashqlar tasnifi mezonlarining o'zaro nisbati (namunalar asosida)**

Mashq nomi	Tashkiliy shakl	Leksik komponent	Kognitiv daraja	Shaxsga yo'naltirilgan komponent
Moslashtirish mashqi	Individual	Bilim	Reproduktiv	–
"Before–After" reflektiv mashq	Individual	Malaka	Qisman izlanish	Reflektiv
Tanlov asosidagi matn yozish	Individual	Ko'nikma	Ijodiy	Tanlov asosidagi
Pedagogik muammoga yechim taklif qilish	Individual/juftlik	Ko'nikma+malaka	Ijodiy	Muammoli vaziyatga asoslangan

Tashkiliy shakl, leksik kompetensiya komponenti va kognitiv faoliyat darajasi mashqlar tizimining barcha elementlarini qamrab oluvchi universal tahlil mezonlari hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponenti esa tadqiqotning markaziy nazariy konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy metodik mezon sifatida xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik tajriba-sinov ishida asosiy e'tibor differensial, reflektiv, tanlov

asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo‘naltirilgan mashqlardan foydalanishga qaratildi. Mazkur mashqlar o‘rganuvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, reflektiv faoliyatini faollashtirish va kasbiy yo‘naltirilgan leksik kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Differensial mashqlarda bir xil leksik mavzu doirasida turli murakkablik darajasidagi (A, B va C) topshiriqlar taklif etilib, o‘rganuvchiga o‘zining leksik tayyorgarlik darajasiga mos variantni tanlash imkoniyati yaratiladi (masalan, Differentiated Vocabulary Task for Future EFL Teachers mashqi). Reflektiv mashqlar esa o‘rganuvchilarda o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashqlarga leksik kundalik yuritish hamda Before–After mashqi misol bo‘la oladi.

Tanlov asosidagi mashqlarda o‘rganuvchi bir nechta topshiriq variantlaridan o‘ziga eng mosini tanlaydi (masalan, My Professional Toolbox mashqi), bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatga yo‘naltirilgan mashqlar esa real yoki modellashtirilgan kasbiy-pedagogik vaziyatlarda (case study, role play) leksik birliklarni amaliy qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lib, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarning integratsiyalashgan rivojlanishini ta’minlaydi.

Ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqotda jami 30 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi (NG) – XTA-25 guruhi (15 nafar talaba) hamda tajriba guruhi (TG) – DU-25 guruhi (15 nafar talaba).

Pedagogik tajriba “boshlang‘ich test – pedagogik ta’sir – yakuniy test” modeli asosida tashkil etildi. Dastlabki bosqichda har ikkala guruh talabalarining leksik kompetensiyasi bir xil diagnostik test va so‘rovnoma vositalari yordamida baholandi. Pedagogik ta’sir bosqichida nazorat guruhi an’anaviy metodika asosida tashkil etilgan mashqlar tizimi bilan ta’lim oldi. Tajriba guruhida esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo‘naltirilgan komponentlari asosida ishlab chiqilgan mualliflik mashqlar tizimi qo‘llanildi.

Tajriba yakunida har ikkala guruhda bir xil diagnostik vositalar asosida yakuniy test va so‘rovnoma o‘tkazildi hamda olingan natijalar qiyosiy-statistik tahlil qilindi. Ushbu tahlil ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasining bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tajriba-sinov ishining boshlang‘ich va yakuniy bosqichlarida olingan natijalar 2-jadval hamda 1-diagrammada keltirilgan.

2-jadval: **NG va TG guruhlarining boshlang‘ich va yakuniy bosqich natijalari**

Guruh	Boshlang‘ich bosqich	Yakuniy bosqich	O‘sish (%)
NG (XTA-25, n=15)	64%	68%	+4 foiz punkt
TG (DU-25, n=15)	65%	83%	+18 foiz punkt

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajribaning boshlang‘ich bosqichida nazorat guruhi (NG) va tajriba guruhi (TG) talabalarining leksik kompetensiya darajasi deyarli bir xil bo‘lgan (mos ravishda 64 % va 65 %). Mazkur holat ikki guruhning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi o‘zaro teng bo‘lganligini hamda tajriba-sinov natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko‘rsatadi. Pedagogik tajriba yakunida an’anaviy metodika asosida ta’lim olgan nazorat guruhining ko‘rsatkichi 68 %ni tashkil etib, boshlang‘ich natijaga nisbatan 4 foiz punktga oshdi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi komponentlari (differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo‘naltirilgan mashqlar) asosida tashkil etilgan mashqlar tizimi qo‘llanilgan tajriba guruhida esa leksik kompetensiya darajasi 83 %ga yetib, 18 foiz punktga oshdi. Demak, tajriba guruhidagi o‘sish nazorat guruhiga nisbatan 4,5 baravar yuqori natijani ko‘rsatdi. Olingan natijalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi komponentlari asosida ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasining an’anaviy metodikaga nisbatan yuqori amaliy samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Boshlang‘ich bosqichdagi ko‘rsatkichlarning deyarli tengligi (64 % va 65 %) tajriba sharoitlarining ekvivalentligini ko‘rsatsa, yakuniy bosqichdagi sezilarli tafovut (68 % va 83 %) qo‘llanilgan metodikaning samarali ta’siri bilan izohlanadi.

Tajriba guruhida kuzatilgan yuqori natijalar, avvalo, differensial mashqlarning talabalarning individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirilganligi, reflektiv mashqlarning bilimlarni ongli o‘zlashtirish jarayonini rag‘batlantirganligi, tanlov asosidagi mashqlarning ichki motivatsiyani kuchaytirganligi hamda muammoli vaziyatga yo‘naltirilgan mashqlarning leksik birliklarni real kasbiy-pedagogik vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratganligi bilan izohlanadi.

Mazkur natijalar I.S.P. Nationning leksik kompetensiyani bosqichma-bosqich va ongli rivojlantirish konsepsiyasi [1] hamda C. Rogers va I.S. Yakimanskayaning shaxsga yo'naltirilgan ta'limda ta'lim oluvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurligi haqidagi ilmiy qarashlari [2; 3] bilan hamohangdir. Nazorat guruhida kuzatilgan nisbatan past o'sish (+4 foiz punkt) esa an'anaviy, asosan reproduktiv xarakterga ega mashqlar tizimining leksik kompetensiyani ko'proq bilim komponenti doirasida rivojlantirishi, kommunikativ va reflektiv faoliyatni esa yetarli darajada rag'batlantirmasligi bilan izohlanishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin etishda uning ayrim cheklovlarini ham e'tiborga olish lozim. Xususan, tajriba-sinov ishlari 30 nafar talaba (har bir guruhda 15 nafardan) ishtirokida amalga oshirilganligi sababli, kelgusidagi tadqiqotlarda tanlanma hajmini kengaytirish hamda natijalarning statistik ishonchliligini Studentning t-testi, χ^2 (xi-kvadrat) mezoni va boshqa statistik usullar yordamida qo'shimcha tekshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi komponentlari asosida ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, ongli va kasbiy yo'naltirilgan tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida mashqlar tizimi ko'p mezonli tipologiya asosida tasniflangan bo'lsa-da, amaliy tajriba-sinov jarayonida differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlarga ustuvor ahamiyat berildi. Chunki aynan ushbu mashq turlari o'rganuvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, reflektiv faoliyatini faollashtirish hamda kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazkur xulosani amaliy jihatdan tasdiqladi. Xususan, tajriba guruhida leksik kompetensiya ko'rsatkichi 65 %dan 83 %gacha, ya'ni 18 foiz punktga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 64 %dan 68 %gacha, ya'ni atigi 4 foiz punktga oshdi. Mazkur natijalar taklif etilgan mashqlar tipologiyasining an'anaviy metodikaga nisbatan sezilarli darajada samarali ekanligini hamda uni bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: Oliy ta'lim muassasalarining chet tili yo'nalishlari o'quv dasturlariga differensial, reflektiv, tanlov asosidagi hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlar tizimini bosqichma-bosqich joriy etish. "Leksikologiya", "Chet tillarini o'qitish metodikasi" kabi fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi asosida takomillashtirish. Tadqiqot natijalarining statistik ishonchliligini oshirish maqsadida kelgusidagi izlanishlarda tanlanma hajmini kengaytirish hamda Studentning t-testi, χ^2 (xi-kvadrat) mezoni va boshqa zamonaviy statistik usullardan foydalanish. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining pedagogik amaliyoti davomida reflektiv hamda muammoli vaziyatga yo'naltirilgan mashqlardan muntazam foydalanishni monitoring qilish va metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik model sifatida tavsiya etilishi mumkin. Uning amaliyotga tatbiq etilishi chet tili o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
2. Rogers, C. Freedom to Learn. Columbus, OH: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969.
3. Якиманская, И. С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Москва: Сентябрь, 1996.
4. Якиманская, И. С. Личностно-ориентированное обучение. Москва: Педагогика, 2000.
5. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. 5th ed. Boston: Allyn & Bacon, 1999.
6. Richards, J. C. The Role of Vocabulary Teaching. TESOL Quarterly, 10(1), 77–89, 1976.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Bloom, B. S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I. Cognitive Domain. New York: Longmans, Green and Co., 1956.
9. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001.
10. Зимняя, И. А. Компетентностный подход в образовании. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
11. Зимняя, И. А. Педагогическая психология. Москва: Логос, 2004.
12. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

O‘ZBEK VA RUS NASRIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING BADIIY-PSIXOLOGIK TALQINI

Qurbonova Malika Toxir qizi
Turon universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini qiyosiy aspektda tadqiq etiladi. Badiiy asarlarda oila, er-xotin, ota-ona va farzand munosabatlari, muhabbat, sadoqat, mas’uliyat hamda oilaviy ziddiyatlarning qahramonlar ruhiyati bilan uzviy bog‘liq holda ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek va rus adabiyotiga xos milliy-madaniy qarashlarning oila konsepsiyasini badiiy talqin etish hamda personajlarning psixologik olamini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek nasri, rus nasri, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, badiiy psixologizm, qahramon ruhiyati, oilaviy konflikt, milliy qadriyatlar, qiyosiy tahlil, badiiy talqin.

Abstract: This article examines the artistic and psychological interpretation of family relationships in Uzbek and Russian prose from a comparative perspective. It analyzes the representation of family life, marital and parent-child relationships, love, loyalty, responsibility, and family conflicts in relation to the characters’ inner worlds. Particular attention is paid to the role of the national and cultural perspectives characteristic of Uzbek and Russian literature in shaping the literary concept of the family and the psychological portrayal of characters.

Key words: Uzbek prose, Russian prose, family relationships, family values, literary psychologism, characters’ inner world, family conflict, national values, comparative analysis, artistic interpretation.

Аннотация: В статье исследуется художественно-психологическая интерпретация семейных отношений в узбекской и русской прозе в сравнительном аспекте. Анализируются особенности изображения семьи, супружеских и детско-родительских отношений, любви, верности, ответственности и семейных конфликтов в их взаимосвязи с внутренним миром персонажей. Особое внимание уделяется роли национально-культурных представлений, характерных для узбекской и русской литературы, в художественном осмыслении концепции семьи и формировании психологического облика героев.

Ключевые слова: узбекская проза, русская проза, семейные отношения, семейные ценности, художественный психологизм, внутренний мир героя, семейный конфликт, национальные ценности, сравнительный анализ, художественная интерпретация.

KIRISH

Oila inson hayotining eng muhim ijtimoiy-ma’naviy tayanchlaridan biri bo‘lib, unda shaxsning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, ruhiy olami va jamiyatga munosabati shakllanadi. Shu bois oila va oilaviy munosabatlar badiiy adabiyotda doimo muhim mavzulardan biri sifatida talqin etib kelinadi. Ayniqsa, nasriy asarlarda er-xotin, ota-ona va farzand, aka-uka, opa-singil munosabatlari, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik, muhabbat va sadoqat, burch va mas’uliyat, oilaviy ziddiyatlar hamda insonning murakkab ruhiy kechinmalari orqali jamiyatning axloqiy va ma’naviy qiyofasi ochib beriladi.

O‘zbek va rus nasrida oila mavzusi har ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, milliy mentaliteti, urf-odatlari va axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq holda badiiy ifoda etilgan. O‘zbek nasrida oilaviy munosabatlar ko‘pincha kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-ona roziligi, nikoh, farzand tarbiyasi, qarindoshlik rishtalari, or-nomus va oila birligini saqlash kabi qadriyatlar bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Shu bilan birga, shaxsiy istak va ijtimoiy talab, an’ana va yangilanish o‘rtasidagi ziddiyatlar qahramonlarning ruhiy kechinmalari orqali yoritiladi. Rus nasrida ham oila insonning ma’naviy shakllanishi va ruhiy olamini namoyon etuvchi muhim badiiy makon sifatida gavdalanadi. Unda muhabbat, burch, sadoqat, avlodlar munosabatlari, oilaviy konflikt hamda tarixiy-ijtimoiy o‘zgarishlarning inson taqdiriga ta’siri keng yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus adabiyotshunosligida mazkur masalani o'rganishda M. A. Sholoxovning "Tinch Don" roman-epopeyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

V. V. Gura va F. A. Abramov Sholoxov hayoti hamda ijodining adabiy-tanqidiy o'rganilish tarixini yoritib, "Tinch Don" romanini tadqiq etishning muhim nazariy muammolarini belgilashga hissa qo'shganlar.

V. V. Guraning ""Tinch Don" qanday yaratilgan. M. Sholoxov romanining ijodiy tarixi" asarida romanning yaratilish jarayoni, 1920–1930-yillardagi adabiy muhit hamda asar qahramonlariga berilgan tanqidiy baholar tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar "Tinch Don" romanidagi inson taqdiri va tarixiy muhit o'rtasidagi munosabatlarni tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek nasrida ham oila va oilaviy munosabatlar milliy hayotning muhim badiiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek hamda keyingi davr adiblari nasrida nikoh, ota-ona va farzand munosabatlari, ayolning oiladagi mavqei, muhabbat va sadoqat, oilaviy burch, or-nomus hamda avlodlar o'rtasidagi ziddiyatlar qahramonlarning ruhiy dunyosi bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi.

Ayniqsa, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida oilaviy muhit va ijtimoiy tartiblarning shaxs ruhiyatiga ta'siri, ayol taqdiri, majburiy nikoh hamda shaxsiy erkinlik muammolari orqali oilaviy munosabatlarning psixologik jihatlari yorqin namoyon bo'ladi. Zebi taqdiri misolida oilaviy va ijtimoiy talablar bilan shaxsning ichki istaklari o'rtasidagi ziddiyat badiiy konflikt darajasiga ko'tariladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada psixoanalitik, tavsifiy-tahliliy, badiiy-tahliliy, kontekstual, germenevtik, psixologik hamda matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini adabiyotshunoslikda oila konsepsiyasi, badiiy psixologizm, qahramon xarakteri, oilaviy konflikt, avlodlar munosabatlari hamda milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda o'rganib kelinmoqda. Badiiy asarda oila faqat maishiy hayot tasvirlanadigan makon emas, balki qahramonning ma'naviy qiyofasi, axloqiy tanlovi va ruhiy kechinmalarini namoyon etuvchi muhim badiiy-psixologik muhit sifatida talqin etiladi. Shu sababli oilaviy munosabatlarni tadqiq etishda tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik hamda psixologik yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mixail Sholoxov xalqni nafaqat barcha moddiy ne'matlarni yaratuvchi kuch, balki ma'naviy qadriyatlarning yagona va bitmas-tuganmas manbai sifatida badiiy talqin eta olgan buyuk adibdir. Bu jihat, ayniqsa, uning "Tinch Don" roman-epopeyasida yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda yozuvchi ikki urush va inqiloblar davrida Don hududida yashovchi aholining turli ijtimoiy qatlamlari hayotini keng qamrovda tasvirlaydi [1, 105-b.]. "Tinch Don" roman-epopeyasi 1925–1940-yillarda yaratilgan. Muallif o'zi tug'ilib voyaga yetgan xalq hayoti haqida asar yaratishni maqsad qilgan. 1925-yil kuzida Bukanovskaya stanitsasida Sholoxov romanning dastlabki varianti – "Donshchina" ustida ish boshlagan. Dastlab u asarni kazaklarning Kornilovning Petrogradga yurishidagi ishtirokini tasvirlashdan boshlagan.

Biroq 1926-yil oxirida yozuvchi "Donshchina" ustidagi ishini to'xtatib, yangi roman ustida ishlashga kirishadi hamda voqealar rivojini Birinchi jahon urushidan oldingi davrga ko'chiradi. Chunki "Tinch Don" muallifining fikricha, hatto rus kitobxoni ham Don kazaklarining turmush tarzi va urf-odatlarini yetarlicha bilmas edi. Shu sababli ularning oilaviy turmush tarzini badiiy jihatdan batafsil tasvirlash zarur edi [2, 8-j., 316-b.].

Adabiyot insonning ruhiy olami va ma'naviyatini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadurgan, toza ma'rifat suvi, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artib tozalaydurgan buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdir." Ushbu fikr adabiyotning inson qalbi va tafakkurini yuksaltirishdagi o'rnini yorqin ifodalaydi.

Adabiyot mudroq qalblarni hushyorlik suvi bilan sug'orib, hayot ilmini anglashga ko'maklashadi. U o'tmish sadosini bugungi avlodga yetkazadi, ma'naviy bo'shliqlarni to'ldiradi hamda insonda odob-axloq, mehr-muhabbat, vafo, sadoqat va ezgulik kabi fazilatlarni mustahkamlaydi.

Badiiy asarni mutolaa qilish jarayonida o'quvchining his-tuyg'ulari charxlanadi, estetik didi va ma'naviy dunyosi boyiydi. Shu bois adabiyotga oshno qalbdan yomonlik chiqmaydi. Buyuk mutafakkirlar hamisha yosh avlodni ilm olishga, mutolaa qilishga va ma'rifatli bo'lishga da'vat etib kelganlar.

XULOSA

O‘zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini milliy turmush tarzi, tarixiy sharoit hamda ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Har ikki adabiyotda oila inson xarakteri shakllanadigan muhim ma’naviy-ijtimoiy muhit, shuningdek, jamiyatdagi ziddiyatlar aks etadigan badiiy makon sifatida tasvirlanadi. Oiladagi mehr-oqibat, sadoqat, ota-ona va farzand munosabatlari bilan bir qatorda, majburiy nikoh, xiyonat, ruhiy begonalashuv, avlodlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar hamda ayol taqdiri bilan bog‘liq muammolar qahramonlarning ichki kechinmalari orqali chuqur badiiy talqin etiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning ifodalanishida umumiy insoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, har bir xalqning milliy mentaliteti, urf-odatlari va tarixiy taraqqiyotiga xos jihatlar ham o‘z aksini topgan. Shu bois oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini nafaqat qahramon ruhiyatini ochishga, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy qiyofasini yoritishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2019.
2. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2000.
3. Cho‘lpon. “Adabiyot nadur” maqolasi. – 1914.
4. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004.
5. Begmatov E. A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.



O'QUV-BILUV KOMPETENSIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Saydaxmedova Barno Batirovna
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0000-4972-5246

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida o'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari hamda pedagogik mohiyati kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar o'quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va baholash komponentlaridan tashkil topgan integrativ pedagogik hodisa ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, o'quv-biluv kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, oliy ta'lim, pedagogika, raqamli ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and pedagogical essence of learning-cognitive competence in the modern higher education system from the perspective of the competency-based approach. The study employs methods of scientific and pedagogical literature analysis, comparative analysis, the systems approach, and generalization. The findings indicate that learning-cognitive competence is an integrative pedagogical phenomenon consisting of interconnected motivational, cognitive, operational-activity, reflective, and evaluative components.

Key words: competence, learning-cognitive competence, competency-based approach, higher education, pedagogy, digital learning environment, independent learning.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы и педагогическая сущность учебно-познавательной компетентности в системе современного высшего образования с позиций компетентностного подхода. В ходе исследования использованы методы анализа научно-педагогической литературы, сравнительного анализа, системного подхода и научного обобщения. Полученные результаты показали, что учебно-познавательная компетентность представляет собой интегративный педагогический феномен, включающий взаимосвязанные мотивационный, когнитивный, операционально-деятельностный, рефлексивный и оценочный компоненты.

Ключевые слова: компетенция, учебно-познавательная компетентность, компетентностный подход, высшее образование, педагогика, цифровая образовательная среда, самостоятельное обучение.

KIRISH

XXI asrda raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyatning barcha sohalari qatori ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi hamda ta'limning raqamlashtirilishi oliy ta'lim muassasalari oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. Endilikda ta'lim sifati talabaning o'zlashtirgan bilimlari hajmi bilan emas, balki bilimlarni mustaqil egallashi, ularni tahlil qilishi, yangi vaziyatlarda qo'llashi va uzluksiz rivojlantira olishi bilan baholanmoqda. Mazkur holat kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim tizimidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli oliy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu model ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini real hayotiy hamda kasbiy faoliyatda samarali qo'llay olishiga yo'naltirilganligi bilan an'anaviy ta'lim modelidan farq qiladi. Ayniqsa, o'quv-biluv kompetensiyasi barcha tayanch kompetensiyalar orasida markaziy o'rin egallaydi. Chunki aynan mazkur kompetensiya shaxsning mustaqil ta'lim olishi, tanqidiy fikrlashi, muammolarni hal etishi hamda o'z bilimlarini muntazam yangilab borishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunda pedagogika fanining eng dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala yuzasidan mahalliy, MDH va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mahalliy olimlardan N. A. Muslimov kompetensiyani shaxsning kasbiy va o'quv faoliyatidagi integrativ sifati sifatida tavsiflaydi hamda o'quv-biluv kompetensiyasini mustaqil bilim olish, o'quv faoliyatini tashkil etish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati bilan bog'laydi [2].

B. X. Xodjayev kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan shaxsni shakllantirish ekanligini ta'kidlaydi [5]. S. E. Sultonov esa kompetensiyani bilim, ko'nikma, tajriba va qadriyatlarning integratsiyasi sifatida izohlaydi [4].

MDH olimlari A. V. Xutorskoy, I. A. Zimnyaya, E. F. Zeyer, V. V. Serikov va Yu. P. Tatur kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini chuqur ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida kompetensiyaning tarkibiy komponentlari, shaxsiy rivojlanish bilan bog'liqligi hamda faoliyatga yo'naltirilgan mazmuni batafsil yoritilgan.

Ayniqsa, I. A. Zimnyaya kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, faoliyat, qadriyat hamda emotsional-irodaviy komponentlarini ajratib ko'rsatadi [8].

Xorijiy tadqiqotchilar R. Klein-Collins, J. Gervais, C. Sturgis, K. Casey va G. E. Thibault kompetensiyaga asoslangan ta'limni natijaga yo'naltirilgan model sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, talabaning rivojlanishi o'quv vaqtiga emas, balki kompetensiyalarni amalda namoyon eta olish darajasiga bog'liq bo'lishi lozim. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda kompetensiya va o'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, ularning raqamli ta'lim muhiti sharoitidagi rivojlanish mexanizmlari, tarkibiy modeli hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyasi to'liq ochib berilmagan.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi ham aynan ushbu jihatlarni tizimli tahlil qilish va mualliflik yondashuvini taklif etishdan iborat. Unda mavjud ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari tizimlashtiriladi hamda raqamli ta'lim muhiti sharoitida o'quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va baholash komponentlaridan iborat integrativ modeli nazariy jihatdan asoslanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-pedagogik xususiyatga ega bo'lib, unda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, tizimli yondashuv, kontent tahlili, sintez va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida O'zbekiston, MDH va xorijiy olimlarning kompetensiyaga oid ilmiy qarashlari o'zaro taqqoslandi, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, o'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari tizimlashtirildi.

Kontent tahlili orqali kompetensiya tushunchasining mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarda qo'llanilishi o'rganildi. Tizimli yondashuv esa o'quv-biluv kompetensiyasini o'zaro bog'liq motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va baholash komponentlaridan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'quv-biluv kompetensiyasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar qiyosiy-pedagogik tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda ta'lim natijalarini kompetensiyalar asosida baholash konsepsiyasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. An'anaviy ta'lim modelida asosiy e'tibor bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim oluvchining real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirishni asosiy natija sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuvning markazida talabaning mustaqil bilim olishi, o'z faoliyatini boshqarishi, muammolarni hal etishi hamda uzluksiz o'qib-o'rganishga tayyorligi turadi.

O'zbekiston olimlarining ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv-biluv kompetensiyasi talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishi bilan uzviy bog'liq.

Jumladan, N. A. Muslimov kompetensiyani bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beruvchi integrativ sifat sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, bo'lajak mutaxassis faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas, balki o'z bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llay olishi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda kasbiy muammolarni hal eta olishi zarur [2]. Ushbu yondashuv o'quv-biluv kompetensiyasining amaliy yo'naltirilganligini namoyon etadi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

B. X. Xodjayev kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi shaxsni mustaqil fikrlashga va bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga tayyorlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [5]. S. E. Sultonov esa kompetensiyani bilim, ko'nikma, tajriba va qadriyatlarning uyg'unlashgan natijasi sifatida izohlaydi [4]. R. X. Djurayev interfaol metodlar hamda talabaning faol ishtirokini kompetensiyani rivojlantirishning muhim sharti deb hisoblaydi [6].

MDH olimlarining ilmiy ishlari kompetensiyaning psixologik va didaktik mohiyatini yanada chuqurroq ochib beradi. A. V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning maqsad qo'yish, o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va refleksiya qilish qobiliyatlari bilan bog'laydi [11]. I. A. Zimnyaya kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, faoliyat, qadriyatli hamda emotsional-irodaviy komponentlarini ajratib ko'rsatib, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining o'zaro farqini ilmiy jihatdan asoslaydi [8]. E. F. Zeyer kompetensiyaning dinamik tabiatiga e'tibor qaratib, uning faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi [7]. V. V. Serikov kompetensiyaviy yondashuvni shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mantiqiy davomi sifatida izohlaydi [9]. Yu. P. Tatur esa kompetensiyaning shakllanishida shaxsiy fazilatlarning ham muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi [10].


Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili kompetensiyaviy ta'limning natijaga yo'naltirilgan model sifatida rivojlanayotganini ko'rsatadi. J. Gervais kompetensiyaga asoslangan ta'limni bilim, ko'nikma, qadriyat va xulq-atvorning yaxlit tizimi sifatida tavsiflaydi [1]. C. Sturgis va K. Casey talabaning rivojlanishini o'quv vaqtiga emas, balki kompetensiyalarni egallash darajasi bilan belgilash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydilar [3].

Olib borilgan qiyosiy tahlil natijasida o'quv-biluv kompetensiyasiga oid ilmiy yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari tizimlashtirildi.

1-jadval: **O'quv-biluv kompetensiyasiga oid ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi**

Olimlar	Asosiy yondashuv	Ustuvor jihat
O'zbekiston olimlari	Mustaqil ta'lim va kasbiy tayyorgarlik	Bilimlarni amaliyotda qo'llash
MDH olimlari	Psixologik-pedagogik yondashuv	Kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi
Xorijiy olimlar	Natijaga yo'naltirilgan ta'lim	Kompetensiyalarni baholash va amaliy namoyon etish

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha ilmiy maktablar kompetensiyani integrativ hodisa sifatida e'tirof etsalar-da, ularning ilmiy yondashuvlarida muayyan farqlar mavjud. O'zbekiston olimlari asosan amaliy tayyorgarlik va mustaqil ta'lim masalalariga e'tibor qaratgan bo'lsalar, MDH olimlari kompetensiyaning psixologik tuzilishi va tarkibiy komponentlarini chuqurroq yoritadilar. Xorijiy tadqiqotchilar esa kompetensiyaga asoslangan ta'limning natijadorligi hamda baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga ko'proq e'tibor qaratadilar. Olib borilgan tahlillar asosida o'quv-biluv kompetensiyasining tarkibiy komponentlari aniqlandi (1-rasm).



1-rasm: **O'quv-biluv kompetensiyasining tarkibiy komponentlari**

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi mazkur komponentlarning mazmunini yanada boyitmoqda. Xususan, motivatsion komponentda raqamli ta'lim resurslariga nisbatan ijobiy munosabat shakllansa, kognitiv komponent elektron axborot bilan ishlash ko'nikmalari hisobiga kengayadi. Operatsion-faoliyat komponenti virtual laboratoriyalar, masofaviy ta'lim platformalari hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali rivojlanadi. Refleksiv va baholash komponentlari esa elektron portfolio, ta'lim analitikasi hamda adaptiv baholash tizimlari yordamida takomillashadi. Olib borilgan tahlillar asosida mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtirildi va quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etildi. O'quv-biluv kompetensiyasi – talabaning mustaqil ravishda bilimlarni izlash, tanlash, tahlil qilish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash, o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish hamda baholash imkonini beruvchi motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va baholash komponentlarining o'zaro integratsiyasidan tashkil topgan dinamik pedagogik tizimdir. Mazkur ta'rifning ilmiy yangiligi shundaki, u o'quv-biluv kompetensiyasini faqat bilish faoliyatining natijasi sifatida emas, balki raqamli ta'lim muhiti sharoitida uzluksiz rivojlanib boruvchi integrativ pedagogik tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv o'quv-biluv kompetensiyasining zamonaviy mazmunini ochib berish bilan birga, uni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish uchun nazariy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy-pedagogik tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quv-biluv kompetensiyasi zamonaviy oliy ta'lim tizimining asosiy tayanch kompetensiyalaridan biri bo'lib, talabaning mustaqil bilim olish, axborotni izlash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatlarini ifodalovchi integrativ pedagogik hodisa hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishi natijasida mazkur tushunchaning mazmuni kengayib, u nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni, balki motivatsiya, refleksiya, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish hamda uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish kabi sifatlarni ham qamrab olmoqda.

Mahalliy, Rossiya va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida ularning umumiy jihati kompetensiyani shaxsning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan integrativ sifat sifatida talqin qilishida namoyon bo'ldi. Biroq mahalliy olimlar asosan kompetensiyaning kasbiy-pedagogik jihatlariga, Rossiya olimlari uning psixologik-didaktik asoslariga, xorijiy tadqiqotchilar esa natijaga yo'naltirilgan ta'lim modeli hamda kompetensiyalarni baholash mexanizmlariga ko'proq e'tibor qaratganliklari aniqlandi.

Tadqiqot davomida o'quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va baholash komponentlaridan iborat tarkibiy modeli tizimlashtirildi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unligi talabaning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, mustaqil ta'lim faoliyatini boshqarish hamda kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslandi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili mavjud tadqiqotlarda o'quv-biluv kompetensiyasining nazariy jihatlari keng yoritilgan bo'lsa-da, uning raqamli ta'lim muhiti sharoitidagi pedagogik mohiyati, tarkibiy komponentlarining o'zaro integratsiyasi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bog'liqligi yetarli darajada tizimlashtirilmaganligini ko'rsatdi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, o'quv-biluv kompetensiyasining integrativ modeli va mualliflik talqini nazariy jihatdan asoslandi. Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish hamda o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mazmun bilan boyitish maqsadga muvofiq;
- raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarur;
- o'quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, refleksiv va baholash komponentlarini aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostik mezonlar hamda baholash indikatorlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi;
- elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, adaptiv o'qitish tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalaridan foydalanish orqali talabalarning o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish lozim;
- kelgusidagi tadqiqotlarda raqamli ta'lim muhitida o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik modeli, mezonlari va samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida baholash maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, o'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan tizimli tahlil qilish uning mazmunini yanada chuqurroq anglash, kompetensiyaviy ta'limni takomillashtirish hamda raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur xulosalar dissertatsiyaning keyingi bosqichlarida o'quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va tajriba-sinov ishlari orqali uning samaradorligini asoslash uchun ilmiy poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gervais J. The Operational Definition of Competency-Based Education // The Journal of Competency-Based Education. – 2016. – Vol. 1, No. 2. – P. 98–106.
2. Muslimov N. A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 84 b.
3. Sturgis C., Casey K. Quality Principles for Competency-Based Education. – Aurora Institute (iNACOL), 2018.
4. Sultonov S. E. Pedagogikada kompetensiya tushunchasi va uning ilmiy talqinlari // Pedagogik ta'lim jurnali. – 2022. – № 3. – 47 b.
5. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 112 b.
6. Djurayev R. X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent: Sano-standart, 2010.
7. Зеер Э. Ф. Компетентностный подход к образованию // Образование и наука. – 2005. – № 3. – С. 27–40.
8. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.
9. Сериков В. В. Личностно ориентированное образование. – М.: Педагогическое общество России, 2004. – 288 с.
10. Татур Ю. Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста // Высшее образование сегодня. – 2004. – № 3.
11. Хуторской А. В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – М.: МГУ, 2003. – 416 с.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MATEMATIK TAYYORGARLIGI TARKIBI: TIMSS VA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDAGI NAZARIY TAHLIL

Abdusattarova Zaynab
JDPU doktoranti

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari hamda Mathematical Knowledge for Teaching (MKT) konsepsiyasi asosida nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda narrativ adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, kontent tahlili va konseptual sintez metodlaridan foydalanildi. Shulman tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik mazmuniy bilim (PCK) konsepsiyasi, Ball, Thames va Phelpsning MKT modeli, TIMSS va PISA baholash tizimlarining kompetensiyalari qiyosiy tahlil qilinib, matematik tayyorgarlikning besh komponentdan iborat mualliflik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model matematik bilim, matematik tafakkur, matematik savodxonlik, matematik-metodik kompetentlik hamda refleksiv faoliyatni o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida talqin qiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligini xalqaro baholash talablari asosida takomillashtirish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, matematik tayyorgarlik, TIMSS, PISA, Mathematical Knowledge for Teaching, MKT, pedagogik mazmuniy bilim, PCK, matematik savodxonlik, matematik-metodik kompetentlik.

Abstract: This article presents a theoretical analysis of the structure of mathematical preparation of future primary school teachers based on the TIMSS and PISA international assessment frameworks and the Mathematical Knowledge for Teaching (MKT) concept. The study employed a narrative literature review, comparative analysis, content analysis, and conceptual synthesis. Shulman’s Pedagogical Content Knowledge (PCK), the MKT framework proposed by Ball, Thames and Phelps, and the competency frameworks of TIMSS and PISA were comparatively analyzed. Based on the findings, an original structural model of mathematical preparation was developed, consisting of five interrelated components: mathematical knowledge, mathematical thinking, mathematical literacy, mathematical-methodological competence, and reflective practice. The proposed model provides a theoretical and methodological foundation for improving the mathematical preparation of future primary school teachers in accordance with international educational assessment standards.

Key words: future primary school teachers, mathematical preparation, TIMSS, PISA, Mathematical Knowledge for Teaching, MKT, Pedagogical Content Knowledge, mathematical literacy, mathematical-methodological competence, reflective practice.

Аннотация: В статье представлен теоретический анализ структуры математической подготовки будущих учителей начального образования на основе международных программ оценки TIMSS, PISA и концепции Mathematical Knowledge for Teaching (MKT). В исследовании использованы методы нарративного обзора литературы, сравнительного анализа, контент-анализа и концептуального синтеза. Проведено сопоставление концепции педагогического содержательного знания (PCK) Л. Шульмана, модели MKT Д. Болл, М. Темса и Г. Фелпса, а также компетенций международных исследований TIMSS и PISA. На основе результатов анализа разработана авторская структурная модель математической подготовки, включающая математические знания, математическое мышление, математическую грамотность, математико-методическую компетентность и рефлексивную деятельность. Полученные результаты расширяют теоретические представления о содержании математической подготовки будущих учителей начального образования и могут быть использованы при совершенствовании образовательных программ педагогических вузов.

Ключевые слова: будущий учитель начального образования, математическая подготовка, TIMSS, PISA, Mathematical Knowledge for Teaching, MKT, педагогическое содержательное знание, математическая грамотность, математико-методическая компетентность.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda ta’lim natijalarini xalqaro baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son[1] Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish hamda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish muhim vazifalar sifatida belgilangan [1; 2]. Mazkur vazifalar oliy pedagogik ta’lim tizimi oldiga bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassis sifatida tayyorlash talabini qo‘ymoqda.

Pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish zarurati xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish jarayoni bilan ham bevosita bog‘liq. Bugungi kunda TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) hamda PISA (Programme for International Student Assessment) dasturlari ta’lim sifati va o‘quvchilarning matematik tayyorgarligini baholashning xalqaro mezoni sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur dasturlar matematik bilimlarning hajmini emas, balki ularni tahlil qilish, asoslash, modellashtirish va real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyalarini baholashga yo‘naltirilgan [3; 4]. Shu bois mazkur kompetensiyalarni o‘quvchilarda shakllantira oladigan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi ko‘pincha matematik bilimlar, metodik tayyorgarlik yoki kasbiy kompetentlikning alohida jihatlari orqali tavsiflanadi. Biroq xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasi matematik tayyorgarlikni yanada kengroq mazmunda talqin qilish zarurligini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy yondashuvlarda matematik tayyorgarlik matematik bilimlar bilan bir qatorda kognitiv faoliyat, matematik savodxonlik, metodik kompetentlik hamda refleksiv faoliyatning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida qaraladi. Bu esa uning tarkibini qayta ko‘rib chiqish va xalqaro baholash dasturlarining kompetensiyalari bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur muammo xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlarda o‘rganilgan. L. Shulman pedagogik mazmuniy bilim (Pedagogical Content Knowledge – PCK) konsepsiyasi orqali o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini fan mazmuni va uni o‘qitish metodikasining uyg‘unligi asosida izohlaydi [5].

Keyinchalik Ball, Thames va Phelps tomonidan ishlab chiqilgan Mathematical Knowledge for Teaching (MKT) modeli matematikani o‘qitish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlarning tarkibini aniqlashtirdi [6].

TIMSS va PISA dasturlari esa matematik fikrlash, matematik savodxonlik va yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan baholash yondashuvlarini taklif etdi [3; 4].

Mahalliy olimlar N. A. Muslimov, O‘. Q. Tolipov, A. X. Xoliqov, N. U. Bikboyeva va boshqalarning tadqiqotlarida pedagoglarning kasbiy va metodik kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan [8–12]. Shunga qaramay, TIMSS va PISA kompetensiyalarini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi bilan uzviy bog‘liq holda tizimli tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas.

Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibini nazariy jihatdan tahlil qilish va uning asosiy komponentlarini ilmiy asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibini xalqaro baholash dasturlari asosida ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot narrativ adabiyotlar sharhi va qiyosiy tahlil dizayni asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini TIMSS 2023 Assessment Framework, PISA 2022 Mathematics Framework, L. Shulmanning PCK konsepsiyasi [5], Ball, Thames va Phelps tomonidan ishlab chiqilgan MKT modeli [6], OECD hujjatlari hamda boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Nazariy materiallarni tahlil qilish jarayonida kontent tahlili usuli qo‘llanildi. Bunda matematik tayyorgarlikka oid tushunchalar, kompetensiyalar va tarkibiy komponentlar ajratib olinib, ularning mazmuni tizimli ravishda umumlashtirildi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy ilmiy yondashuvlarning o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Olingan natijalarni yaxlit konseptual tizimga keltirish uchun konseptual sintez amalga oshirildi. Ushbu bosqichda TIMSSning kognitiv sohalari, PISAning matematik savodxonlik jarayonlari hamda MKT modelining kasbiy bilim komponentlari o‘zaro integratsiyalashtirilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik

1 https://lex.uz/ru/docs/-5841063

tayyorgarligining mualliflik tarkibiy modeli ishlab chiqildi. Modelni shakllantirishda komponentlarning o‘zaro funksional bog‘liqligi va pedagogik vazifalari asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Matematik tayyorgarlik tushunchasi pedagogika va matematika ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda turlicha talqin qilinadi. Dastlabki yondashuvlarda u asosan matematik bilimlar, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida izohlangan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda ushbu tushuncha o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi ko‘p komponentli kompetensiyalar tizimi sifatida qaralmoqda [15]. Ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yangi talablar matematik tayyorgarlik mazmunini qayta ko‘rib chiqishni va uni xalqaro baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda matematik tayyorgarlikning nazariy asoslari, avvalo, L. Shulmanning PCK konsepsiyasi bilan bog‘liq. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy samaradorligi faqat fan mazmunini bilish bilan emas, balki ushbu mazmunni o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qita olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shunday qilib, matematik tayyorgarlik predmet bilimlari va pedagogik bilimlarning integratsiyasi sifatida talqin qilinadi [5].

Keyinchalik Ball, Thames va Phelps tomonidan ishlab chiqilgan MKT modeli matematik tayyorgarlik mazmunini yanada aniqlashtirdi. Ushbu model matematik bilimlarni o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga mos ravishda tarkibiy qismlarga ajratadi hamda matematik mazmunni tushuntirish, o‘quvchilar fikrlashini tahlil qilish, tipik xatolarni aniqlash va mos metodik yechimlarni tanlash kabi kompetensiyalarni matematik tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida ko‘radi [6]. Natijada matematik tayyorgarlik nafaqat “nimani bilish”, balki “qanday o‘qitish” va “nima uchun aynan shu usulni tanlash” kabi kasbiy qarorlar bilan ham bog‘liq ekanligi asoslanadi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham matematik tayyorgarlikning mazmuni bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. N. A. Muslimov kasbiy kompetentlikni nazariy bilim, amaliy faoliyat tajribasi va shaxsiy-professional sifatlarning integratsiyasi sifatida tavsiflaydi [8]. O‘. Q. Tolipov metodik kompetentlikni o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligining asosiy mezonlaridan biri deb hisoblaydi hamda o‘quv mazmunini tanlash, ta’lim texnologiyalarini qo‘llash va natijalarni baholash ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratadi [9]. A. X. Xoliqov esa refleksiv faoliyatni pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, o‘qituvchining o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi va takomillashtirib borishi zarurligini ta’kidlaydi [10]. Ushbu yondashuvlar matematik tayyorgarlikning faqat bilimlar tizimi emas, balki kasbiy faoliyatni boshqarish va rivojlantirish vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek metodist olimlari matematik tayyorgarlikni matematik tushunchalarni shakllantirish, ko‘rgazmalilik, bosqichma-bosqichlik hamda amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda talqin qiladilar. Boshlang‘ich matematika ta’limida o‘qituvchining metodik tayyorgarligi matematik bilimlarni samarali o‘zlashtirishning muhim omili hisoblanadi [13].

Nazariy manbalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tadqiqotlarda matematik tayyorgarlik asosan matematik mazmun va uni o‘qitishga oid kasbiy bilimlar integratsiyasi orqali tavsiflansa, mahalliy tadqiqotlarda metodik mahorat, kasbiy kompetentlik va refleksiv faoliyat ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi. Biroq mazkur yondashuvlarning aksariyatida xalqaro baholash dasturlarida muhim o‘rin tutadigan matematik savodxonlik, funksional fikrlash va real hayotiy vaziyatlarda matematik bilimlarni qo‘llash kompetensiyalari yetarli darajada yoritilmagan.

Olib borilgan nazariy tahlil natijasida matematik tayyorgarlik faqat matematik bilimlar yig‘indisi emas, balki matematik bilim, matematik tafakkur, metodik kompetentlik, matematik savodxonlik va refleksiv faoliyatning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan kompleks kasbiy tayyorgarlik sifatida talqin qilindi. Aynan ushbu xulosa keyingi bo‘limlarda TIMSS, PISA va MKT konsepsiyalarini qiyosiy tahlil qilish hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligining mualliflik tarkibiy modelini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval: **Matematik tayyorgarlik tushunchasiga oid asosiy nazariy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi**

Nazariy yondashuv	Asosiy mazmuni	Matematik tayyorgarlikka qo‘shgan hissasi	Cheklovlari
Shulman (PCK)	Fan mazmuni va pedagogik bilim integratsiyasi	Matematik mazmunni O‘qitishning nazariy asosini yaratadi	Matematik savodxonlik va xalqaro baholash kompetensiyalari yoritilmagan
Ball, Thames & Phelps (MKT)	Matematikani o‘qitish uchun zarur kasbiy bilimlar tizimi	Matematik-metodik kompetentlikni tizimlashtiradi	TIMSS va PISA kompetensiyalari integratsiyalanmagan
TIMSS	Knowing, Applying, Reasoning	Matematik bilim va kognitiv faoliyatni baholaydi	O‘qituvchining metodik faoliyati to‘liq yoritilmagan
PISA	Formulate, Employ, Interpret	Matematik savodxonlik va real vaziyatlarda bilimlarni qo‘llashni baholaydi	Pedagogik-metodik kompetensiyalar qamrab olinmagan

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mavjud nazariy yondashuvlarning har biri matematik tayyorgarlikning muayyan jihatini yoritadi. Biroq ularning birortasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematik tayyorgarligini xalqaro baholash dasturlari talablari asosida kompleks tavsiflamaydi. Shu sababli TIMSS va PISA kompetensiyalarini MKT modeli bilan integratsiyalash ilmiy va metodik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Shulman PCK va MKT modeli asosida matematik tayyorgarlik tarkibi

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi mazmunini ilmiy asoslashda pedagogik mazmuniy bilim (PCK) va MKT konsepsiyalari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar matematik tayyorgarlikni faqat matematik bilimlar tizimi sifatida emas, balki o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi integrallashgan bilimlar majmui sifatida talqin etadi.

L. Shulman tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik mazmuniy bilim (PCK) konsepsiyasi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini fan mazmuni va uni o'qitish metodikasining o'zaro uyg'unligi orqali izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, matematikani bilishning o'zi samarali ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yetarli emas. O'qituvchi matematik tushunchalarni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda izohlashi, murakkab mavzularni sodda shaklda tushuntira olishi hamda o'quvchilarda uchraydigan tipik xatolarni oldindan ko'ra bilishi zarur. Shu jihatdan PCK matematik tayyorgarlikning pedagogik yo'nalishini belgilovchi nazariy asos sifatida e'tirof etiladi [5].

Keyinchalik D. L. Ball, M. H. Thames va G. Phelps tomonidan ishlab chiqilgan MKT modeli PCK konsepsiyasini matematik ta'lim nuqtai nazaridan rivojlantirdi. Mazkur model matematik tayyorgarlikni bir necha o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar orqali tavsiflaydi. Jumladan, Common Content Knowledge (CCK) umumiy matematik bilimlarni, Specialized Content Knowledge (SCK) o'qituvchiga xos maxsus matematik bilimlarni, Knowledge of Content and Students (KCS) o'quvchilarning matematik fikrlash xususiyatlarini tushunishni, Knowledge of Content and Teaching (KCT) esa matematik mazmunni samarali o'qitish strategiyalarini qamrab oladi [6]. Ushbu komponentlar o'qituvchining kasbiy faoliyatida matematik bilimlarni amaliy pedagogik qarorlarga aylantirish mexanizmini ochib beradi.

Qiyosiy tahlil natijalari PCK va MKT konsepsiyalarining umumiy metodologik asosga ega ekanligini, biroq ularning tadqiqot obyekti va tarkibiy mazmuni jihatidan farqlanishini ko'rsatdi. PCK modeli pedagogik va predmet bilimlarining integratsiyasiga urg'u beradigan umumiy nazariy konsepsiya bo'lsa, MKT modeli aynan matematik ta'lim uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlarni batafsil tizimlashtiradi. Shu sababli MKT modeli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligini tahlil qilishda yanada aniqroq metodologik imkoniyatlarga ega.

Biroq nazariy tahlil shuni ham ko'rsatdiki, har ikkala modelda o'quvchilarning matematik savodxonligini xalqaro baholash mezonlari asosida rivojlantirishga oid komponentlar yetarli darajada aks etmagan. Xususan, real hayotiy vaziyatlarda matematik bilimlarni qo'llash, matematik modellashtirish hamda funksional fikrlash kabi kompetensiyalar alohida tarkibiy element sifatida ifodalanmaydi. Shu bois zamonaviy pedagogik ta'lim sharoitida PCK va MKT konsepsiyalarini TIMSS hamda PISA baholash dasturlarida ilgari surilgan kompetensiyalar bilan integratsiyalash zarurati yuzaga keladi.

Nazariy tahlil asosida PCK va MKT konsepsiyalarining matematik tayyorgarlikni shakllantirishdagi o'rni (2-jadval).

2-jadval: **PCK va MKT modeli asosida matematik tayyorgarlik tarkibining qiyosiy tavsifi**

Matematik tayyorgarlik komponentlari	PCK (Shulman)	MKT (Ball va boshq.)	Tahlil natijasi
Matematik mazmunni bilish	✓	✓	Har ikki modelning asosiy komponenti
Pedagogik mazmuniy bilim	✓	✓	Mazmun va metodikaning integratsiyasini ta'minlaydi
Maxsus matematik bilim (SCK)	–	✓	Faqat MKT modelida batafsil yoritilgan
O'quvchilarning matematik fikrlashini tushunish	Qisman	✓	MKT modeli chuqurroq tavsiflaydi
Matematikani o'qitish strategiyalari	✓	✓	Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi
Matematik savodxonlik va real vaziyatlar	–	–	TIMSS va PISA integratsiyasini talab qiladi

Qiyosiy tahlil PCK o'qituvchi bilimlarining umumiy nazariy asosini, MKT esa matematik ta'limga xos kasbiy bilimlarni yanada chuqurroq tavsiflashini ko'rsatdi.

TIMSS va PISA asosida matematik tayyorgarlik tarkibi

Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi zamonaviy xalqaro baholash dasturlarida ilgari surilgan kompetensiyalar bilan uyg‘un holda shakllantirilishi zarur. Xususan, TIMSS va PISA dasturlari matematik ta’lim sifatini turli metodologik yondashuvlar asosida baholashiga qaramay, ularning kompetensiyalari o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega. Shu sababli matematik tayyorgarlik tarkibini ilmiy asoslashda mazkur ikki xalqaro dastur kompetensiyalarining integratsiyalashgan tahlili muhim ahamiyat kasb etadi [14].

TIMSS matematik tayyorgarlikni Knowing (bilish), Applying (qo‘llash) va Reasoning (mulohaza yuritish) kabi uchta kognitiv soha orqali tavsiflaydi [3]. Ushbu yondashuv matematik bilimlarning bosqichma-bosqich rivojlanish mantiqini aks ettiradi. Knowing komponenti matematik tushunchalar, faktlar va amallarni egallashni ifodalasa, Applying o‘zlashtirilgan bilimlarni standart va nostandart vaziyatlarda qo‘llashni nazarda tutadi. Reasoning esa matematik dalillash, tahlil qilish, umumlashtirish va muammoning yechimini mantiqiy asoslash kompetensiyalarini qamrab oladi. Mazkur kognitiv sohalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining matematik bilimlari va tafakkurini shakllantirish uchun zarur metodologik asosni yaratadi.

PISA esa matematik tayyorgarlikni funksional nuqtai nazardan yoritadi hamda matematik savodxonlikni Formulate (ifodalash), Employ (qo‘llash) va Interpret (talqin qilish) jarayonlari orqali tavsiflaydi [4]. Ushbu yondashuv matematik bilimlarning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanishiga alohida e’tibor qaratadi. Formulate bosqichida amaliy muammo matematik modelga o‘tkaziladi, Employ jarayonida mos matematik usullar qo‘llaniladi, Interpret bosqichida esa olingan natijalar tahlil qilinib, real vaziyat nuqtai nazaridan baholanadi. Shunday qilib, PISA matematik tayyorgarlikning funksional-amaliy mazmunini ochib beradi va matematik savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, TIMSS va PISA kompetensiyalari turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, ular matematik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarini tavsiflaydi. TIMSS ko‘proq matematik bilimlar va kognitiv faoliyatning rivojlanish darajasini baholashga qaratilgan bo‘lsa, PISA matematik bilimlarning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanilishi hamda funksional savodxonlikni namoyon etadi. Shu jihatdan ushbu dasturlar birgalikda qo‘llanilganda matematik tayyorgarlikning ham nazariy, ham amaliy jihatlarini kompleks yoritish imkonini beradi.

Nazariy sintez asosida TIMSS va PISA kompetensiyalarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi komponentlari bilan o‘zaro bog‘liqligi (3-jadval).

3-jadval: **TIMSS va PISA kompetensiyalarining matematik tayyorgarlik komponentlari bilan bog‘liqligi**

TIMSS kompetensiyasi	PISA kompetensiyasi	Matematik tayyorgarlik komponenti
Knowing	Formulate	Matematik bilim
Applying	Employ	Amaliy faoliyat va metodik kompetentlik
Reasoning	Interpret	Matematik tafakkur va refleksiv tahlil
–	Formulate–Employ–Interpret	Matematik savodxonlik

3-jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlil matematik tayyorgarlik tarkibining xalqaro baholash dasturlaridagi kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Knowing komponenti matematik tushunchalar va qonuniyatlarni egallashni ta’minlasa, Formulate ushbu bilimlarni amaliy muammoni matematik ifodalash jarayoniga yo‘naltiradi. Applying va Employ kompetensiyalari bilimlarni turli pedagogik hamda real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Reasoning va Interpret esa mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, natijalarni asoslash hamda refleksiv baholash kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Nazariy tahlil natijasida TIMSS matematik tayyorgarlikning kognitiv asoslarini, PISA esa uning funksional-amaliy jihatlarini tavsiflashi aniqlandi. Ularning integratsiyasi matematik bilim, matematik tafakkur, metodik kompetentlik va matematik savodxonlikni yagona tizimda rivojlantirish imkonini beradi. Aynan ushbu ilmiy xulosa keyingi bo‘limda taklif etilayotgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligining mualliflik tarkibiy modelini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligining tarkibiy modeli

Olib borilgan nazariy tahlil va qiyosiy sintez natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligining tarkibiy modeli ishlab chiqildi. Model TIMSSning kognitiv kompetensiyalari, PISAning matematik savodxonlik jarayonlari hamda MKT konsepsiyasining kasbiy bilim komponentlarini yagona tizimga integratsiyalash asosida shakllantirildi. Taklif etilgan model matematik tayyorgarlikni alohida kompetensiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy qismlar tizimi sifatida talqin etadi.

Modelning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli va integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Unda matematik tayyorgarlik beshta asosiy komponent orqali ifodalanadi: matematik bilim, matematik tafakkur, matematik savodxonlik, matematik-metodik kompetentlik va refleksiv faoliyat. Har bir komponent TIMSS va PISA kompetensiyalari hamda MKT modelining tegishli tarkibiy qismlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modelda matematik bilim komponenti matematik tushunchalar, qonuniyatlar va amallarni puxta egallashni ifodalaydi. Ushbu komponent TIMSSning Knowing kompetensiyasi hamda MKT modelidagi Common Content Knowledge (CCK) bilan uyg'unlashadi va keyingi komponentlarning shakllanishi uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Matematik tafakkur komponenti tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, dalillash va matematik xulosalar chiqarish ko'nikmalarini qamrab oladi. Mazkur komponent TIMSSning Reasoning hamda PISAning Employ jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, MKT modelidagi Specialized Content Knowledge (SCK) orqali o'qituvchining kasbiy matematik fikrlashini rivojlantiradi [16].

Modelning markaziy elementi matematik savodxonlik hisoblanadi. Ushbu komponent matematik bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash, muammoni matematik modelga o'tkazish, natijalarni talqin qilish va asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini o'z ichiga oladi. U PISAning Formulate–Interpret jarayonlari hamda TIMSSning Applying kompetensiyasi bilan integratsiyalashgan bo'lib, MKT modelidagi Knowledge of Content and Students (KCS) komponenti orqali o'quvchilarning matematik fikrlashini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Matematik-metodik kompetentlik komponenti matematik mazmunni o'qitish, samarali metodlarni tanlash, ta'lim jarayonini loyihalash va baholash ko'nikmalarini ifodalaydi. Mazkur komponent TIMSSning Applying, PISAning Employ jarayonlari hamda MKT modelidagi Knowledge of Content and Teaching (KCT) bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'qituvchining kasbiy-metodik tayyorgarligini tavsiflaydi.

Modelning yakunlovchi elementi refleksiv faoliyat komponentidir [16]. U pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash, metodik qarorlarni qayta ko'rib chiqish va kasbiy rivojlanishni uzluksiz takomillashtirishni nazarda tutadi. Mazkur komponent PISAning Interpret jarayoni hamda MKT modelidagi Knowledge of Content and Teaching (KCT) va Knowledge of Content and Students (KCS) komponentlari bilan integratsiyalashgan holda namoyon bo'ladi(4-jadval).

4-jadval: **Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligining tarkibiy modeli**

Komponent	Mazmuni	TIMSS	PISA	MKT	Kutilayotgan natija
Matematik bilim	...	Knowing	–	CCK	Fundamental matematik bilimlar shakllanadi
Matematik tafakkur	...	Reasoning	Employ	SCK	Mantiqiy va analitik fikrlash rivojlanadi
Matematik savodxonlik	...	Applying	Formulate–Interpret	KCS	Real vaziyatlarda matematik muammolarni hal qiladi
Matematik-metodik komponentlik	...	Applying	Employ	KCT	Matematikani samarali o'qitish komtepensiyasi shakllanadi
Refleksiv faoliyat	...	–	Interpret	KCT + KCS	O'z pedagogik faoliyatini tahlil va takomillashtirish qobiliyati rivojlanadi

Nazariy tahlil natijasida matematik tayyorgarlikning besh komponentdan iborat mualliflik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari hamda MKT konsepsiyasining metodologik imkoniyatlarini yagona tizimda integratsiyalashga asoslanadi. Modelning asosiy xususiyati matematik tayyorgarlikni alohida kompetensiyalar yig'indisi sifatida emas, balki matematik bilim, tafakkur, savodxonlik, metodik kompetentlik va refleksiv faoliyatning o'zaro bog'liq dinamik tizimi sifatida talqin qilishidadir. Ushbu yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini xalqaro baholash talablariga mos ravishda rivojlantirish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi hamda keyingi empirik tadqiqotlarda modelning amaliy samaradorligini baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda olib borilgan nazariy tahlil bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligini zamonaviy xalqaro baholash talablari asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi. Olingan natijalar matematik tayyorgarlikni faqat matematik bilimlar majmui sifatida emas, balki matematik bilim, matematik tafakkur, matematik savodxonlik, matematik-metodik kompetentlik va refleksiv faoliyatning o'zaro bog'liq tizimi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqligini asoslaydi. Ushbu yondashuv xalqaro baholash dasturlarida ilgari surilgan kompetensiyalarni o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari L. Shulmanning PCK konsepsiyasini rivojlantiradi. Shulman o‘qituvchining kasbiy samaradorligini predmet mazmuni va pedagogik bilimlarning uyg‘unligi orqali izohlaydi. Biroq ushbu yondashuv matematik savodxonlik, real hayotiy vaziyatlarda matematik modellashtirish hamda xalqaro baholash dasturlarida ustuvor hisoblangan funksional kompetensiyalarni alohida tarkibiy qism sifatida ifodalamaydi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan model ushbu jihatlarni matematik tayyorgarlik tarkibiga kiritish orqali PCK konsepsiyasining qo‘llanish doirasini kengaytiradi.

Xuddi shuningdek, Ball, Thames va Phelps tomonidan taklif etilgan MKT modeli o‘qituvchining kasbiy matematik bilimlarini tizimli tavsiflaydi. Ayniqsa, Common Content Knowledge (CCK), Specialized Content Knowledge (SCK), Knowledge of Content and Students (KCS) hamda Knowledge of Content and Teaching (KCT) komponentlari matematik ta’lim metodikasini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, MKT modeli xalqaro baholash dasturlarida qo‘llaniladigan matematik savodxonlik va funksional kompetensiyalarni to‘liq qamrab olmaydi. Taklif etilgan mualliflik modeli aynan ushbu cheklovni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, MKT komponentlarini TIMSS va PISA kompetensiyalari bilan yagona metodologik tizimda birlashtiradi.

TIMSS va PISA dasturlarining qiyosiy tahlili ularning matematik tayyorgarlikni turli nuqtai nazardan tavsiflashini ko‘rsatdi. TIMSS matematik tayyorgarlikning kognitiv asoslarini, ya’ni bilimlarni egallash, qo‘llash va mantiqiy fikrlash jarayonlarini tavsiflasa, PISA matematik bilimlarning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanilishi, muammoni modellashtirish va natijalarni talqin qilish kompetensiyalariga ustuvor ahamiyat beradi. Shu sababli ushbu ikki yondashuvni alohida emas, balki o‘zaro integratsiyada qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yanada to‘liq tavsiflash imkonini beradi.

Natijalar OECD tomonidan ilgari surilgan XXI asr kompetensiyalari konsepsiyasi bilan ham uyg‘unlik kasb etadi. Mazkur konsepsiyada tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, refleksiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan. Tadqiqotda ishlab chiqilgan model ushbu kompetensiyalarni matematik tayyorgarlik tarkibiga integratsiyalash orqali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy talablariga mos nazariy asosni taklif etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda matematik tayyorgarlikning besh komponentdan iborat mualliflik tarkibiy modeli ishlab chiqildi hamda ushbu model TIMSSning kognitiv kompetensiyalari, PISAning matematik savodxonlik jarayonlari va MKT konsepsiyasining kasbiy bilim komponentlarini yagona integrallashgan tizimda birlashtirdi. Mazkur yondashuv matematik tayyorgarlikni faqat bilimlar yoki metodik kompetensiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va dinamik kasbiy tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyatga ham ega. Taklif etilgan model pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Boshlang‘ich ta’lim”, “Boshlang‘ich matematika”, “Matematikani o‘qitish metodikasi” fanlari mazmunini takomillashtirishda, o‘quv dasturlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, model asosida diagnostik vositalar, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning matematik tayyorgarligini baholash mezonlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ega. Mazkur maqola nazariy tahlil va konseptual sintezga asoslangan bo‘lib, taklif etilgan modelning amaliy samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilmagan. Bundan tashqari, tahlil asosan TIMSS, PISA va MKT konsepsiyalariga tayangan bo‘lib, boshqa xalqaro pedagogik yondashuvlar mazkur tadqiqot doirasiga kiritilmadi.

Kelgusidagi tadqiqotlar ishlab chiqilgan modelni eksperimental sinovdan o‘tkazish, uning matematik tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini statistik jihatdan baholash hamda raqamli ta’lim muhitida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, modelni sun’iy intellektga asoslangan adaptiv ta’lim tizimlari va raqamli monitoring vositalari bilan integratsiyalash istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlil bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi mazmunini zamonaviy xalqaro baholash dasturlari talablari asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijasida matematik tayyorgarlik matematik bilim, matematik tafakkur, matematik savodxonlik, matematik-metodik kompetentlik va refleksiv faoliyatni o‘z ichiga oluvchi kompleks kasbiy tayyorgarlik sifatida asoslandi.

TIMSS va PISA dasturlarining qiyosiy tahlili TIMSS matematik tayyorgarlikning kognitiv asoslarini, PISA esa uning funksional-amaliy jihatlarini tavsiflashini ko‘rsatdi. Ushbu kompetensiyalarni MKT konsepsiyasi bilan integratsiyalash matematik tayyorgarlik mazmunini yanada to‘liq va tizimli yoritish imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy natijasi sifatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligining besh komponentdan iborat tarkibiy modeli ishlab chiqildi. Model xalqaro baholash dasturlari kompetensiyalari hamda kasbiy-metodik bilimlarni yagona nazariy tizimda birlashtirishi bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Taklif etilgan model pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligini baholash tizimini rivojlantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son[2] Farmoni. 2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son[3] Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2026.
3. Mullis I. V. S., Martin M. O. (Eds.). TIMSS 2023 Assessment Frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2021.
4. OECD. PISA 2022 Mathematics Framework. Paris: OECD Publishing, 2022.
5. Shulman L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15(2). – P. 4–14.
6. Ball D. L., Thames M. H., Phelps G. Content Knowledge for Teaching: What Makes It Special? // Journal of Teacher Education. – 2008. – Vol. 59(5). – P. 389–407.
7. OECD. Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. Paris: OECD Publishing, 2019.
8. Muslimov N. A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2016.
9. Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
10. Xoliqov A. X. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018.
11. Alixonov S. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
12. Bikboyeva N. U. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
13. Tadjiyeva Z. G'., Jumayev M. E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020.
14. Niss M., Højgaard T. Competencies and Mathematical Learning: Ideas and Inspiration for the Development of Mathematics Teaching and Learning in Denmark. Roskilde University, 2011.
15. Kilpatrick J., Swafford J., Findell B. (Eds.). Adding It Up: Helping Children Learn Mathematics. Washington, DC: National Academies Press, 2001.
16. Boaler J. Mathematical Mindsets. San Francisco: Jossey-Bass, 2016.

2 https://lex.uz/ru/docs/-6008663
3 https://lex.uz/ru/docs/-8050769

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

FIZIKANI O‘QITISHDA BARQAROR TARAQQIYOT TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISH: O‘ZBEKISTON KONTEKSTIDA ADABIYOTLAR TAHLILI

Avazova Oltin
O‘zbekiston milliy universiteti
Shahrisabz tumani 6-sonli maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Barqaror taraqqiyot (BT) tushunchasi global muammolarni, jumladan, iqlim o›zgarishini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida ta’lim tizimining o‘rni tobora ortib bormoqda. Fizika ta’limi o‘quvchilarda ekologik ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynasa-da, O‘zbekiston sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyalarini fizika o‘quv dasturlariga tizimli integratsiya qilish hamda ularga mos pedagogik yondashuvlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Mavjud o‘quv materiallari asosan an’anaviy xarakterga ega bo‘lib, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu tadqiqot fizikani o‘qitishda barqaror taraqqiyot konsepsiyalarini rivojlantirishga oid mavjud adabiyotlarni sifatli adabiyotlar sharhi metodologiyasi asosida tizimli tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: fizika ta’limi, barqaror taraqqiyot, o‘quv dasturi integratsiyasi, pedagogik yondashuvlar, ekologik ta’lim.

Abstract: Sustainable development (SD) has become a key concept in addressing global challenges, including climate change, while the role of education has gained increasing importance within the framework of the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs) for 2030. Although physics education plays an important role in fostering students› environmental awareness, the systematic integration of sustainable development concepts into physics curricula and the corresponding pedagogical approaches remain insufficiently explored in the context of Uzbekistan. Existing educational materials are largely traditional and limit the application of theoretical knowledge to real-life situations. This study aims to conduct a systematic review of the existing literature on the development of sustainable development concepts in physics education using a qualitative literature review methodology.

Key words: physics education, sustainable development, curriculum integration, pedagogical approaches, environmental education.

Аннотация: Концепция устойчивого развития (УР) играет важную роль в решении глобальных проблем, включая изменение климата, а значение системы образования возрастает в рамках достижения Целей устойчивого развития (ЦУР) Организации Объединённых Наций до 2030 года. Несмотря на то, что преподавание физики способствует формированию экологического сознания учащихся, систематическая интеграция концепций устойчивого развития в учебные программы по физике и соответствующие педагогические подходы в условиях Узбекистана остаются недостаточно изученными. Существующие учебные материалы в основном носят традиционный характер и ограничивают применение теоретических знаний в реальных жизненных ситуациях. Целью данного исследования является проведение систематического анализа существующей литературы по вопросам развития концепций устойчивого развития в преподавании физики на основе методологии качественного обзора литературы.

Ключевые слова: преподавание физики, устойчивое развитие, интеграция учебной программы, педагогические подходы, экологическое образование.

KIRISH

Barqaror taraqqiyot (BT) bugungi kunda insoniyat oldida turgan iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi hamda ekologik xavfsizlik bilan bog‘liq global muammolarni hal etishning muhim konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ta’limni barqaror taraqqiyotga erishishning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etadi [1-3]. Shu sababli dunyoning ko‘plab mamlakatlarida barqaror taraqqiyot tamoyillarini umumiy va oliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar hamda amaliy islohotlar keng

ko'lamda amalga oshirilmoqda [4-6]. Fizika fani tabiat qonunlari, energiya almashinuvi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi hamda zamonaviy texnologiyalarning ilmiy asoslarini o'rganuvchi fundamental fan sifatida barqaror taraqqiyot g'oyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi [7-9].

Fizikani o'qitish jarayonida energiyadan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik muammolar va ularning ilmiy yechimlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning ekologik tafakkuri, tanqidiy fikrlashi hamda barqaror rivojlanishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [10-12]. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ekologik madaniyatni rivojlantirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha qator davlat dasturlari va strategik hujjatlar qabul qilingan [13-15]. Shunga qaramay, umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini o'quv dasturlariga tizimli integratsiya qilish, ularni samarali o'qitish metodikasi hamda ularning o'quv natijalariga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada shakllanmagan.

Amaldagi o'quv dasturlari va darsliklarda mazkur yo'nalishga oid mavzular alohida elementlar ko'rinishida uchrasa-da, ular yagona metodik tizim asosida tashkil etilmagan. Natijada o'quvchilarning nazariy bilimlarini real ekologik va energetik muammolarni hal etishda qo'llash imkoniyatlari cheklanib qolmoqda [16-18].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror taraqqiyot (BT) tushunchalarini fizika ta'limiga integratsiya qilish bo'yicha so'nggi adabiyotlar tahlili ushbu yo'nalishdagi nazariy va amaliy yondashuvlarning izchil rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Lee va Kim (2021) tomonidan o'tkazilgan barqaror rivojlanish uchun ta'lim (BRT)ning ilmiy ta'limdagi rivojlanish tendensiyalariga bag'ishlangan tizimli tahlil global miqyosda barqarorlik mavzularini o'quv dasturlariga integratsiya qilishga bo'lgan qiziqish ortib borayotganini ko'rsatadi [11].

Xususan, Smith va Johnson (2022) fizika ta'limiga barqaror taraqqiyot tamoyillarini integratsiya qilish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish strategiyalarini tahlil qilib, amaliy tavsiyalarni taklif etganlar [12].

Pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan, Chen va Wang (2020) barqaror rivojlanish uchun ta'limni amalga oshirishda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlarni tahlil qilib, faol, muammoga asoslangan hamda tajribaviy o'qitish usullarining samaradorligini asoslab berganlar [13].

Brown va Davis (2023) esa barqaror rivojlanish uchun ta'limda faol o'qitish strategiyalarining meta-tahlilini amalga oshirib, ularning chuqur o'zlashtirish va o'quvchilar faolligini rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaganlar [17].

Barqaror taraqqiyotning fanlararo xususiyati fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi. Miller va Jones (2020) barqaror taraqqiyot ta'limida fanlararo yondashuvlarning afzalliklari, imkoniyatlari va mavjud muammolarini tahlil qilganlar [18].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirishga oid mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, sifatli adabiyotlar sharhi metodologiyasiga asoslanadi. Adabiyotlarni qidirish jarayoni 2020-2024-yillar oralig'ini qamrab oldi. Qidiruv uchun Scopus, Web of Science, Google Scholar kabi xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari hamda O'zbekistonning milliy ilmiy-texnik axborot resurslari (jumladan, OAK portali va universitetlarning ilmiy jurnallari)dan foydalanildi. Kalit so'zlar sifatida "fizika ta'limi", "barqaror taraqqiyot", "ekologik ta'lim", "o'quv dasturi integratsiyasi", "pedagogik yondashuvlar", shuningdek, ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari – "physics education", "sustainable development", "environmental education", "curriculum integration" va "pedagogical approaches" qo'llanildi [11, 13].

Tadqiqotga 2020-yildan keyin nashr etilgan, fizika ta'limi va barqaror taraqqiyot tushunchalarining o'zaro bog'liqligini yorituvchi, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, konferensiya materiallari hamda monografiyalar kiritildi [4, 8]. 2020-yilgacha nashr etilgan manbalar, mavzuga bevosita aloqador bo'lmagan tadqiqotlar, shuningdek, dublikatlar va ilmiy ekspertizadan o'tmagan materiallar tahlildan chiqarildi. Dastlabki qidiruv natijasida jami 150 dan ortiq manba aniqlandi. Dublikatlar chiqarib tashlangach, 95 ta manba qoldi. Kiritish va chiqarish mezonlari asosida amalga oshirilgan batafsil saralash jarayonidan so'ng, tadqiqotning yakuniy tahliliga 19 ta eng dolzarb va mavzuga bevosita tegishli ilmiy manba kiritildi. Ushbu manbalar barqaror taraqqiyot tushunchalarini fizika ta'limiga integratsiya qilishning turli nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan, barqaror taraqqiyotni o'qitishda faol o'qitish strategiyalarining yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [17]. Muammoga asoslangan o'qitish (Problem-Based Learning), loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) [7, 13] hamda tajribaviy o'qitish (Experiential Learning) [13] kabi yondashuvlar o'quvchilarda chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni

rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarni real hayotdagi barqaror taraqqiyot muammolarini fizika tamoyillari asosida tahlil qilishga hamda ularga ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etishga undaydi. Shuningdek, fizika darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish barqaror taraqqiyot tushunchalarini samarali o‘zlashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [5].

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi barqaror taraqqiyotga yo‘naltirilgan fizika ta’limini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy omillaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlarda o‘qituvchilarning barqaror taraqqiyot konsepsiyalari hamda ularni o‘qitish metodikasi bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishi global miqyosda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan [19]. Baholash tizimi esa nafaqat nazariy bilimlarni, balki o‘quvchilarning fizika tamoyillarini barqaror taraqqiyot muammolariga tatbiq etish, ularni tahlil qilish hamda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini ham baholashi lozim Quyidagi 1-jadvalda tahlil natijalari umumlashtirilgan.

1-jadval: **Fizika ta’limida barqaror taraqqiyotni integratsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari**

Yo‘nalish	Tavsif	Asosiy manbalar
O‘quv dasturlarini integratsiya qilish	Fizika faniga barqarorlik mavzurini kiritish, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish	[12], [18]
Pedagogik yondashuvlar	Faol, muammoga asoslangan va loyiha asosida o‘qitish usullarini qo‘llash	[7], [13], [17]
O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi	Barqaror taraqqiyot bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish	[19]
Baholash tizimi	Nazariy bilimlarni amaliy muammolarga qo‘llash qobiliyatini baholash	barqaror taraqqiyot ta’limida baholash tizimi]

XULOSA

Ushbu tadqiqot fizika ta’limida barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirishning dolzarbligini hamda uning global muammolarga yechim topishdagi ahamiyatini ko‘rsatdi. Fizika fanining fundamental bilimlari energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va boshqa barqaror yechimlarning ilmiy asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quv dasturlariga ushbu elementlarni integratsiya qilish, muammoga asoslangan hamda loyiha asosida o‘qitish kabi faol pedagogik yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarda ekologik ong, tanqidiy fikrlash va barqaror taraqqiyotga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida fizika o‘quv dasturlarini barqaror taraqqiyot tamoyillari asosida takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish hamda innovatsion o‘qitish metodlarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarni global barqaror taraqqiyot muammolarini anglash, tahlil qilish va ularni hal etishda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations. (2015). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations.
2. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. UNESCO.
3. UNESCO. (2020). Education for Sustainable Development: A Roadmap. UNESCO.
4. UNESCO. (2021). Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. UNESCO.
5. Intergovernmental Panel on Climate Change. (2023). Climate Change 2023: Synthesis Report. IPCC.
6. International Energy Agency. (2023). World Energy Outlook 2023. IEA.
7. Wiek, A., Withycombe, L., & Redman, C. L. (2011). Key competencies in sustainability: A reference framework for academic program development. Sustainability Science, 6(2), 203-218.
8. Leal Filho, W., Shiel, C., & Paço, A. (2016). Implementing and operationalising integrative approaches to sustainability in higher education. Journal of Cleaner Production, 133, 126-135.
9. Lozano, R., Merrill, M. Y., Sammalisto, K., Ceulemans, K., & Lozano, F. J. (2017). Connecting competencies and pedagogical approaches for sustainable development in higher education. Sustainability, 9(10), 1889.
10. Rieckmann, M. (2018). Learning to Transform the World: Key Competencies in Education for Sustainable Development. UNESCO Publishing.
11. Sterling, S. (2010). Transformative learning and sustainability: Sketching the conceptual ground. Learning and Teaching in Higher Education, 5, 17-33.
12. Burmeister, M., Rauch, F., & Eilks, I. (2012). Education for Sustainable Development (ESD) and chemistry education. Chemistry Education Research and Practice, 13(2), 59-68.
13. Redman, A., Wiek, A., & Barth, M. (2021). Current practice of assessing students' sustainability competencies: A review of tools. Ecology and Society, 26(1).

14. Malikussaleh, N., Andriani, R., Muliani, M., et al. (2025). Education for Sustainable Development (ESD) competency in physics learning assessment: Pre-service teachers' thinking skills based on ethno-socio-scientific content. Jurnal Pendidikan IPA Indonesia, 14(1).
15. Faizah, Z., Rochintaniawati, D., Winarno, N., & Solihat, R. (2026). Implementation strategy of Education for Sustainable Development (ESD) in science education: A systematic literature review. Jurnal Pendidikan Sains Indonesia, 14(1).
16. Sihombing, R. A., Muslim, M., & Rahman, T. (2024). From awareness to action: A systematic literature review of teaching materials based on Education for Sustainable Development (ESD). Jurnal Pembelajaran Sains.
17. Entang, E., Utama, J. A., Liliawati, W., Sohn, J., & Wahyudi, I. (2024). Research trends about Education for Sustainable Development (ESD) in science learning: A bibliometric analysis during 2014-2024. Jurnal Pendidikan MIPA.
18. Aulia, W., & Rahmawati, L. (2025). Integrating ESD in science education to enhance understanding of SDGs and sustainability awareness: A systematic literature review. Journal of Science Education and Practice.

FUTBOLDA 11–12 YOSHLI DARVOZABONLARNI TEXNIK-TAKTIK JIHATDAN TAYYORLASHDA MAXSUS MASHQLARNING AHAMIYATI

Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada futbol bo'yicha 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlash jarayonida maxsus mashqlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati o'rganilgan. Maqolada ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili asosida darvozabonlarga xos maxsus mashqlarning tasnifi (oyoq harakati, reaksiya tezligi, pozitsion o'rnashish, sakrash texnikasi, to'p uzatish va o'yin fikrlashini rivojlantiruvchi mashqlar) taqdim etilgan, ularning yosh xususiyatlariga mosligi asoslangan hamda mashg'ulot jarayonini tashkil etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: futbol, darvozabon, 11–12 yosh, texnik-taktik tayyorgarlik, maxsus mashqlar, motor ko'nikmalar, sport pedagogikasi, reaksiya tezligi.

Abstract: This article examines the pedagogical significance of using specialized exercises in the process of technical and tactical training of 11–12-year-old football goalkeepers. Based on an analysis of scientific and methodological literature, the article presents a classification of goalkeeper-specific exercises, including footwork, reaction speed, positional play, jumping technique, ball distribution, and game intelligence development exercises. Their suitability for the age characteristics of young goalkeepers is substantiated, and practical recommendations for organizing the training process are proposed.

Key words: football, goalkeeper, 11–12 years old, technical and tactical training, specialized exercises, motor skills, sports pedagogy, reaction speed.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое значение использования специальных упражнений в процессе технико-тактической подготовки футбольных вратарей 11–12 лет. На основе анализа научно-методической литературы представлена классификация специальных упражнений для вратарей, включающая упражнения на работу ног, скорость реакции, выбор позиции, технику прыжков, передачу мяча и развитие игрового мышления. Обосновано их соответствие возрастным особенностям юных вратарей, а также разработаны практические рекомендации по организации тренировочного процесса.

Ключевые слова: футбол, вратарь, 11–12 лет, технико-тактическая подготовка, специальные упражнения, двигательные навыки, спортивная педагогика, скорость реакции.

KIRISH

Zamonaviy futbolda darvozabonning roli tobora kengayib bormoqda: u endi nafaqat to'p ushlash va zarbalarni qaytarish bo'yicha mutaxassis, balki jamoaning hujum va himoya harakatlarini tashkil etishda faol ishtirok etuvchi "maydondagi o'yinchi" sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy futbolning yuqori sur'ati, o'yin intensivligining ortishi va taktik sxemalarning murakkablashuvi darvozabondan tezkor qaror qabul qilish, maydonni keng ko'ra olish hamda himoya va hujum o'rtasida bog'lovchi vazifani samarali bajarishni talab etadi. Shu sababli bugungi kunda darvozabonning texnik-taktik tayyorgarligi jamoa muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda futbol o'yinining mazmuni va uslubida yuz bergan o'zgarishlar darvozabonlarning funksional vazifalarini ham sezilarli darajada kengaytirdi. Ular nafaqat darvozani himoya qilish, balki to'pni aniq uzatish, hujumni boshlash, himoyachilar harakatini boshqarish hamda murakkab o'yin vaziyatlarida to'g'ri pozitsiya tanlash kabi vazifalarni ham bajaradilar. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish esa yosh davridanoq maqsadli va ilmiy asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etishni talab qiladi.

Ayniqsa, 11–12 yosh davri darvozabonlarni tayyorlash jarayonida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur yoshda harakat koordinatsiyasi, reaksiya tezligi, muvozanatni saqlash, fazoviy tafakkur va texnik ko'nikmalarni

egallash imkoniyatlari jadal rivojlanadi. Shu bois ushbu davrda maxsus mashqlarni tizimli qo'llash kelgusida yuqori sport mahoratini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ushbu vazifalarning murakkablashuvi darvozabonlarni tayyorlash tizimiga, xususan, yosh sport maktablarida olib boriladigan mashg'ulotlar mazmuniga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Maxsus mashqlarni yosh sportchilarning jismoniy, psixologik va funksional xususiyatlariga mos ravishda tanlash hamda texnik va taktik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish zamonaviy sport pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, darvozabon o'yinchisi jamoaning o'ziga xos, alohida tayyorgarlik talab qiluvchi mutaxassisligi hisoblanadi va uning texnik-taktik mahorati ko'p jihatdan yosh davrida shakllantirilgan harakat ko'nikmalariga bog'liq bo'ladi. M. Perez-Arroniz va hamkasblari o'tkazgan bibliografik tahlilda ham darvozabon mavqei mustaqil, o'ziga xos ilmiy-uslubiy yondashuvni talab qiluvchi sport-pedagogik yo'nalish sifatida talqin etiladi [3].

Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi nazariyasida texnik-taktik tayyorgarlik yagona, bir-biridan ajralmas jarayon sifatida qaraladi: texnika - harakatni bajarish usuli bo'lsa, taktika bu usuldan o'yin vaziyatiga mos ravishda oqilona foydalanish qobiliyatidir. Darvozabon uchun bu ikki komponentning uyg'unligi ayniqsa muhim, chunki uning har bir texnik xatosi bevosita darvozaga gol bo'lib qaytishi mumkin. Shu sababli pedagogik jarayonda texnik mashqlarni izolyatsiyalangan holda emas, balki taktik vaziyatlar bilan bog'lab o'rgatish zamonaviy metodikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mahalliy tadqiqotchilar A.Q. Qidirov va O.V. Borisova ham futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini birgalikda rivojlantirishning o'yin faoliyati samaradorligini oshirishdagi hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlaydi [6].

11–12 yosh davri sport pedagogikasi va harakat fiziologiyasi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Ko'plab tadqiqotchilar bu yosh oralig'ini markaziy nerv tizimining jadal rivojlanishi, koordinatsion qobiliyatlarning yuqori plastikligi va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirish samaradorligining ortishi bilan bog'liq "sezgir davr" (sensitive period) sifatida ta'riflaydi. Aynan shu davrda to'g'ri shakllantirilgan texnik harakatlar keyinchalik avtomatlashgan ko'nikmaga aylanadi, noto'g'ri o'zlashtirilgan harakatlarni esa katta yoshda tuzatish ancha mushkul kechadi. Shu boisdan 11–12 yoshli darvozabonlar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmuni, vositalari va metodlari ilmiy asoslangan bo'lishi zarur. T. Koopmann va hamkasblari o'tkazgan tizimli sharh tadqiqotida ham iqtidorli yosh sportchilarning texnik ko'nikmalarini baholash va rivojlantirishda ilmiy asoslangan, standartlashtirilgan yondashuvlarning ustuvorligi asoslab berilgan [5].

Darvozabonlik faoliyati o'ziga xos texnik (to'pni ushlash, uloqtirish, zarbani qaytarish, sakrash, chiqish) va taktik (pozitsiya tanlash, hamkorlarni boshqarish, xavfni oldindan bashorat qilish) komponentlardan iborat bo'lib, bu ko'nikmalarni rivojlantirish umumiy futbol mashqlaridan farqli, maxsus (spetsifik) mashqlar tizimini talab etadi. F. Kielkopf va M. Keiner tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda darvozabonlarning texnik-taktik profili yosh va musobaqa darajasiga qarab sezilarli farqlanishi, bu esa mashg'ulot mazmunini yosh xususiyatlariga qat'iy moslashtirish zarurligini isbotlashi ta'kidlanadi [4]. Ammo amaliyotda ko'pincha yosh darvozabonlar bilan ishlash dala o'yinchilari uchun mo'ljallangan umumiy mashqlar asosida tashkil etiladi, bu esa ularning kasbiy mahoratini shakllantirishda samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunga qadar mahalliy sport pedagogikasi amaliyotida 11–12 yoshli darvozabonlar uchun ilmiy asoslangan, yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus mashqlar majmuasi va uni mashg'ulot jarayoniga tatbiq etish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi - xorijiy va mahalliy ilmiy-uslubiy manbalar tahlili asosida 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning pedagogik ahamiyatini asoslash hamda ularni tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1) darvozabonlarga xos maxsus mashqlarning ilmiy-uslubiy tasnifini aniqlash;
2) 11–12 yosh davrining anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlarini maxsus mashqlar mazmuni bilan bog'lash;
3) mashg'ulot jarayonini tashkil etishga oid amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Muammoning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, darvozabonlik mahorati bir martalik yoki tasodifiy mashqlar orqali emas, balki ko'p yillik, izchil pedagogik jarayon natijasida shakllanadi. Xorijiy tajribada bu jarayon odatda to'rt bosqichga bo'linadi: umumiy harakat bazasini yaratish (harakat, yugurish, yiqilish, tik turish ko'nikmalari), asosiy texnik elementlarni o'zlashtirish, taktik fikrlashni rivojlantirish va, nihoyat, yuqori bosim ostida barqaror faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllantirish. 11–12 yosh mana shu bosqichlar zanjirida

ikkinchi va uchinchi bosqichlar oralig‘iga to‘g‘ri keladi, ya’ni bu davrda bola allaqachon boshlang‘ich texnik zaxiraga ega bo‘lib, endi uni murakkablashtirilgan sharoitlarda mustahkamlash va taktik mazmun bilan boyitish davri boshlanadi.

Xorijiy mutaxassislardan F. Otte va uning hamkasblari ta’kidlashicha, zamonaviy darvozabonni tayyorlash jarayoni endilikda faqat izolyatsiyalangan texnik mashqlar bilan chegaralanmasligi, balki qaror qabul qilish, idrok etish va o‘yin sharoitiga moslashish komponentlarini o‘zida mujassam etgan kompleks yondashuv asosida qurilishi lozim [1].

Shu bilan birga, mahalliy sport amaliyotida darvozabonlar bilan ishlash ko‘pincha yakka tartibda, tizimsiz tarzda, murabbiyning shaxsiy tajribasiga tayangan holda olib boriladi. Bu esa yosh darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligida notekislikka, ayrim ko‘nikmalarning yetarli shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Demak, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida maxsus mashqlarning ahamiyatini nazariy va uslubiy jihatdan asoslash, ularni yagona tizimga keltirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) ilmiy-uslubiy va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish;
2) pedagogik kuzatuv;
3) qiyosiy tahlil;
4) umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari.

Manba sifatida darvozabonlarni tayyorlash metodikasiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy jurnallarda (jumladan, sport fiziologiyasi va pedagogikasi yo‘nalishidagi nashrlarda) e’lon qilingan maqolalar, shuningdek, amaliy murabbiylik tajribasini umumlashtiruvchi uslubiy qo‘llanmalar o‘rganildi.

Tahlil predmeti sifatida 11–12 yoshli darvozabonlar ishtirokidagi pedagogik-eksperimental va kuzatuv xarakteridagi tadqiqotlar, shuningdek, yetakchi futbol akademiyalarining darvozabonlarni tayyorlash dasturlari tanlab olindi. Maxsus mashqlar to‘rt asosiy yo‘nalish bo‘yicha guruhlashtirildi:

a) oyoq harakati va muvozanat mashqlari;
b) reaksiya tezligi va koordinatsiya mashqlari;
d) pozitsion o‘rnashish va taktik fikrlash mashqlari;
e) to‘p bilan ishlash (ushlash, uloqtirish, uzatish) texnikasiga oid mashqlar.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha adabiyotlarda keltirilgan pedagogik samaradorlik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot ishi shartli ravishda uch bosqichda olib borildi.

Birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar va internet manbalari qidirilib, saralandi, ularning ishonchliligi baholandi.

Ikkinchi bosqichda tanlangan manbalardagi ma’lumotlar mazmuniy tahlil qilinib, darvozabonlarga xos maxsus mashqlar mavzu bo‘yicha guruhlarga ajratildi va tizimlashtirildi.

Uchinchi bosqichda olingan natijalar umumlashtirilib, 11–12 yosh davrining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilan bog‘langan holda amaliy tavsiyalar shakliga keltirildi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash maqsadida faqat yangi nashr etilgan, mavzuga bevosita aloqador bo‘lgan hamda ilmiy-amaliy asoslangan manbalarga ustuvorlik berildi. Bir-birini takrorlovchi yoki bir-biriga zid xulosalar chiqargan manbalar alohida qiyosiy tahlildan o‘tkazildi, bu esa xulosalarning obyektivligini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlar majmui quyidagi beshta yo‘nalishni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir: oyoq harakati va muvozanat, reaksiya-koordinatsiya, pozitsion-taktik fikrlash, to‘p texnikasi hamda psixologik-irodaviy tayyorgarlik.

1. Oyoq harakati (footwork) va muvozanat mashqlari

Darvozabonning har qanday texnik harakati to‘g‘ri oyoq ishi bilan boshlanadi. Yon tomonga qisqa qadamlar bilan siljish, muvozanatni saqlagan holda yo‘nalishni tezda o‘zgartirish ko‘nikmalari yosh darvozabonlarda maxsus mashqlar orqali izchil shakllantirilishi lozim. Bu mashqlar keyinchalik sakrash va uloqish texnikasini to‘g‘ri bajarishning poydevorini yaratadi, chunki noto‘g‘ri oyoq ishi bilan o‘rganilgan sakrash odatini katta yoshda qayta shakllantirish ancha qiyin kechadi.

2. Reaksiya tezligi va koordinatsiya mashqlari

Zamonaviy tadqiqotlar reaksiya tezligini oshirishga qaratilgan mashqlarning (reaksion to‘plar, tezkor ketma-ket zarbalarni qaytarish, kutilmagan signalga javob berish mashqlari) darvozabonlarning tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Yosh darvozabonlarda reaksiya nafaqat mushak-nerv tezligiga, balki to‘pning harakat yo‘nalishini oldindan bashorat qilish (“o‘qish”) qobiliyatiga ham bog‘liq bo‘lib, bu ikkala jarayon alohida-alohida rivojlantirilishi kerak bo‘lgan, biroq bir-biriga uzviy bog‘liq komponentlardir. 12–13 yosh markaziy nerv tizimining jadal rivojlanishi tufayli koordinatsion-reaktiv sifatlarni o‘zlashtirish uchun ayniqsa qulay davr hisoblanadi.

3. Pozitsion o‘rnashish va taktik fikrlash mashqlari

Darvozabonning maydonda to‘g‘ri joylashuvi (pozitsiyalash) ko‘p jihatdan uning tajribasi va fazoviy tafakkuriga bog‘liq. Kichik guruhli o‘yin-mashqlar (small-sided games) darvozabonlarning nafaqat texnik, balki qaror qabul qilish va vaziyatni baholash ko‘nikmalarini ham samarali rivojlantirishi aniqlangan; bunday mashqlar reaksiya tezligi, tezlik va yo‘nalishni o‘zgartirish sifatlari bo‘yicha statistik ahamiyatli yaxshilanishlarga olib kelgan. Taktik mashqlarda darvozabonni jamoaning “faol maydon o‘yinchisi” sifatida shakllantirish, hujumni tashkil etishda ishtirok etish ko‘nikmalarini singdirish tavsiya etiladi.

4. To‘p bilan ishlash texnikasiga oid maxsus mashqlar

To‘pni qo‘l bilan to‘g‘ri ushlash, past va o‘rta balandlikdagi zarbalarni qaytarish, uloqish va sakrash texnikasi bosqichma-bosqich, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rgatilishi lozim. Mutaxassislar bu boradagi mashqlarni ortiqcha zo‘riqishsiz, o‘yin shaklida va ijobiy motivatsiya asosida tashkil etishni tavsiya qiladi, chunki 11–12 yoshda hali to‘liq ixtisoslashuv emas, balki mustahkam texnik poydevor yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. B.N. Xayitovning gandbol darvozabonlarini tayyorlash metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqotida ham qo‘l-ko‘z koordinatsiyasiga asoslangan texnik mashqlarni bosqichma-bosqich, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish tamoyili tasdiqlangan, bu esa boshqa to‘p sport turlaridagi darvozabonlik amaliyoti bilan uyg‘unlik kasb etadi [9].

Shuningdek, tahlil natijalari darvozabonlarning texnik ko‘nikmalarini obyektiv baholash uchun maxsus test topshiriqlaridan (masalan, tezlik va sakrash ko‘rsatkichlarini o‘lchovchi test batareyalari) foydalanish mashg‘ulot jarayonini boshqarishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi. Bunday testlar yosh darvozabonlarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini obyektiv nazorat qilish, individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. R. Rebelo-Gonçalves va hamkasblari ishlab chiqqan darvozabonlarga xos maxsus test batareyalarining ishonchliligi va o‘lchov validligi ilmiy tarzda tasdiqlangan bo‘lib, bu testlar yosh darvozabonlarning texnik ko‘nikmalarini obyektiv baholashda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi [2].

Yuqorida keltirilgan to‘rt yo‘nalish bo‘yicha tizimlashtirilgan maxsus mashqlarning namunaviy majmuasi, ularning maqsadi va tavsiya etilgan dozasi (1-jadval).

1-jadval: **11–12 yoshli darvozabonlar uchun maxsus mashqlar majmuasi va ularni bajarish bo‘yicha tavsiyalar**

№	Yo‘nalish	Mashq namunasi	Tavsiya
1	**Oyoq harakati va muvozanat**	Yon qadamlar bilan darvoza kengligida siljish, tez to‘xtash va yo‘nalish o‘zgartirish	3–4 seriya × 15–20 soniya, dam olish 30 soniya
2	**Reaksiya tezligi va koordinatsiya**	Reaksion to‘p bilan tezkor ushlash, kutilmagan signalga ko‘ra harakatlanish	8–10 takror × 2–3 seriya
3	**Pozitsion o‘rnashish**	Kichik guruhli o‘yin (3x3, darvozabon ishtirokida), pozitsiyani doimiy tuzatish	10–15 daqiqa, o‘yin shaklida
4	**To‘p bilan ishlash texnikasi**	Past va o‘rta balandlikdagi zarbalarni ushlash, uloqish-sakrash mashqlari	6–8 takror × 3 seriya, progressiv murakkablashtirish

5. Psixologik-irodaviy sifatlarni tarbiyalovchi mashqlar

Darvozabon mavqeining o‘ziga xosligi shundaki, uning har bir xatosi darhol va aniq ko‘rinishda (gol shaklida) namoyon bo‘ladi, bu esa yosh o‘yinchida yuqori psixologik zo‘riqish va xato qilishdan qo‘rqish holatini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli maxsus mashqlar tizimiga xatodan keyin tez tiklanish (“reset” texnikasi), diqqatni jamlash va emotsional barqarorlikni saqlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni ham kiritish tavsiya etiladi. Amaliyotda bunga misol qilib, har bir mashq yoki o‘yin epizodidan so‘ng qisqa “tiklanish rejasi” (bir chuqur nafas, kalit so‘z aytish, ko‘zni o‘yinga qaytarish) qo‘llanilishini keltirish mumkin.

Bunday psixologik jihatdan yo‘naltirilgan mashqlar, texnik-taktik topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilganda, darvozabonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham barqaror o‘yinchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada yosh darvozabon nafaqat to‘g‘ri texnik harakatlarni bajarishni, balki xato yuz berganda ham o‘zini tuta bilishni, keyingi epizodga to‘liq konsentratsiya bilan kirishishni o‘rganadi.

Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi sohasi mutaxassislari, sport maktablari murabbiylari hamda talaba-yoshlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 11–12 yoshli darvozabonlarni tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati ikki asosiy jihat bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu yosh davri harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish uchun neyrofiziologik jihatdan eng qulay davr hisoblanib, aynan shu bosqichda shakllangan texnik odatlar keyingi sport mahoratining poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, darvozabonlik faoliyatining o‘ziga xosligi (individual javobgarlik, yuqori psixologik zo‘riqish, tezkor qaror qabul qilish zarurati) umumiy futbol mashqlarining bu vazifalarni to‘liq qamrab ololmasligini ko‘rsatadi, shu sababli maxsus, ixtisoslashgan mashqlar tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda adabiyotlarda 11–12 yoshda erta ixtisoslashuvning salbiy oqibatlariga oid ogohlantirishlar ham uchraydi: bu yoshda darvozabon mavqeiga to‘liq mahliyo bo‘lishdan ko‘ra, umumiy harakat tajribasini boyitish, mashg‘ulotlarni o‘yin shaklida va ijobiy hissiy muhitda tashkil etish ustuvor bo‘lishi ta’kidlanadi. Bu holat murabbiylardan mashqlar intensivligi va bolaning individual rivojlanish darajasi o‘rtasidagi muvozanatni sinchkovlik bilan saqlashni talab qiladi.

F.R. Xaitmetov ham yosh futbolchilar mashg‘ulotini tashkil etishning dastlabki bosqichida haddan tashqari yuklama va erta ixtisoslashuvdan saqlanish, o‘yin faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish zarurligini alohida ta’kidlaydi [7]. Shuningdek, texnik-taktik tayyorgarlik bilan bir qatorda darvozabonning psixologik barqarorligi – xatolardan tez tiklanish, diqqatni jamlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham mashg‘ulot dasturining ajralmas qismi bo‘lishi lozimligi qayd etiladi.

Olingan natijalar mahalliy sport pedagogikasi amaliyoti uchun ham muhim xulosalar beradi: yosh futbol maktablarida darvozabonlar bilan ishlaydigan murabbiylar mashg‘ulot dasturlarini tuzishda yuqorida keltirilgan to‘rt yo‘nalishni (oyoq harakati, reaksiya-koordinatsiya, pozitsion-taktik fikrlash, to‘p texnikasi) izchil va o‘zaro bog‘liq holda rejalashtirishlari, shuningdek, natijalarni davriy testlar orqali obyektiv baholab borishlari maqsadga muvofiqdir.

Alohida ta’kidlash joizki, maxsus mashqlarning samaradorligi faqat ularning mazmuniga emas, balki mashg‘ulot jarayonini tashkil etish metodikasiga ham bog‘liq. Mashqlarni izchil ravishda murakkablashtirib borish (oddiy sharoitdan - bezovta qiluvchi omillar mavjud o‘yin sharoitigacha), yuklama va dam olish nisbatini bolaning yosh xususiyatlariga moslashtirish, shuningdek, har bir mashg‘ulotda ijobiy pedagogik muhitni ta’minlash - bularning barchasi maxsus mashqlar samarasini oshiruvchi muhim uslubiy shartlar hisoblanadi. Bundan tashqari, yakka darvozabon bilan ishlash yondashuvidan jamoaviy mashg‘ulotlarga bosqichma-bosqich o‘tish, darvozabonni jamoaning taktik sxemasiga integratsiya qilish zamonaviy metodikaning ustuvor tamoyillaridan biri sifatida baholanadi. I. Buraimov, M. Erkayeva va M. Odilovaning boshqa to‘p sport turlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotida ham texnik-taktik tayyorgarlikning jismoniy tayyorgarlik bilan uzviy bog‘liq holda, izchil metodik tizim asosida rivojlantirilishi umumiy pedagogik tamoyil sifatida qayd etiladi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) 11–12 yosh darvozabonlik texnikasini shakllantirish uchun neyromotor rivojlanish nuqtai nazaridan eng samarali “sezgir davr” hisoblanadi va bu davrda to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar keyingi sport mahoratining asosini yaratadi;

2) darvozabonlarni tayyorlashda maxsus mashqlar majmui oyoq harakati, reaksiya-koordinatsiya, pozitsion-taktik fikrlash, to‘p texnikasi hamda psixologik-irodaviy tayyorgarlik yo‘nalishlarini uyg‘un tarzda qamrab olishi lozim;

3) mashg‘ulotlar bolaning yosh xususiyatlarini, jumladan, psixologik holatini hisobga olgan holda, o‘yin shaklida va bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan tarzda tashkil etilishi kerak;

4) mashg‘ulot samaradorligini oshirish uchun texnik-taktik tayyorgarlik darajasini obyektiv baholovchi maxsus testlardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.

A.M. Mahmudovning tadqiqotida ham yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatib borish mashg‘ulot jarayonini o‘z vaqtida tuzatish va sportchi rivojlanishini obyektiv baholash uchun zarur shart sifatida ko‘rsatilgan [10].

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu nazariy xulosalar asosida ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasining amaliy samaradorligini mahalliy yosh sport maktablari sharoitida pedagogik eksperiment yo‘li bilan tekshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Otte F.W., Millar S-K., Klatt S. How does the modern football goalkeeper train? An exploration of expert goalkeeper coaches’ skill training approaches // Journal of Sports Sciences. – 2020. – Vol. 38, № 11–12.
2. Rebelo-Gonçalves R., Figueiredo A.J., Coelho-e-Silva M.J., Tessitore A. Assessment of Technical Skills in Young Soccer Goalkeepers: Reliability and Validity of Two Goalkeeper-Specific Tests // Journal of Sports Science and Medicine. – 2016. – Vol. 15, № 3.
3. Perez-Arroniz M., Calleja-González J., Zabala-Lili J., Zubillaga A. The soccer goalkeeper profile: bibliographic review // The Physician and Sportsmedicine. – 2023. – Vol. 51, № 3.
4. Kielkopf F., Keiner M. The technical-tactical profile of soccer goalkeepers: the impact of age and competitive level // International Journal of Sports Science & Coaching. – 2024. – Vol. 20.
5. Koopmann T., Faber I., Baker J., Schorer J. Assessing Technical Skills in Talented Youth Athletes: A Systematic Review // Sports Medicine. – 2020. – Vol. 50, № 9.
6. Qidirov A.Q., Borisova O.V. Futbol o‘yinida ishtirokchilarning texnik va taktik usullarini rivojlantirishning samarali yo‘llari // Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture. – 2023.
7. Xaitmetov F.R. Yosh futbolchilarning mashg‘ulotlarini tashkil etish, dastlabki bosqichi // Ilmiy-uslubiy jurnal. – 2022. – № 4. – B. 45–49.
8. Buraimov I., Erkayeva M., Odilova M. Chim ustida xokkeychilarni jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligiga bo‘lgan asosiy talab // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4, № 6.
9. Xayitov B.N. Gandbol sport turida darvozabon texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi // International Conference on Multidisciplinary Science. – 2024.
10. Mahmudov A.M. Futbol akademiyalari 16–17 yoshli futbolchilarining musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlarini oshirish yo‘llari // Uslubiy-ilmiy to‘plam. – 2024. – B. 88–93.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANNI O'QITISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA FOYDALANIB NAZARIY BILIMLARNI HAYOTGA TATBIQ QILIB O'RGANISH METODLARI

Jo'layeva Munira Choriyevna
Denov tumanidagi 19-DMMT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o'qitish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali nazariy bilimlarni amaliy hayot bilan uyg'unlashtirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy dars jarayonida kuzatiladigan mavzuning mavhum qabul qilinishi hamda o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashdagi qiyinchiliklari pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Shu asosda generativ neyrotarmoqlar, kompyuterli ko'rish texnologiyalari va interaktiv vizual vositalarga tayangan metodik yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari ochib beriladi. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarning kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada sun'iy intellekt asosidagi metodlarning pedagogik samaradorligi, ularni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etishning didaktik shart-sharoitlari hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tabiatshunoslik, sun'iy intellekt, nazariya va amaliyot integratsiyasi, generativ neyrotarmoqlar, kompyuterli ko'rish, interaktiv metodlar.

Abstract: This article examines the integration of theoretical knowledge with real-life practice through the use of artificial intelligence tools in science education at the primary school level. The study identifies the abstract perception of scientific concepts in traditional classroom instruction and students' difficulties in applying acquired knowledge to real-life situations as key pedagogical challenges. In this context, the didactic potential of methodological approaches based on generative neural networks, computer vision technologies, and interactive visual tools is explored. These approaches are shown to foster pupils' observation, analysis, comparison, logical thinking, and conclusion-drawing skills while promoting the meaningful application of theoretical knowledge to everyday life. The article also discusses the pedagogical effectiveness of AI-based methods, the organizational and didactic conditions necessary for their implementation in primary education, and their contribution to improving the quality of education.

Key words: primary education, science education, artificial intelligence, theory-practice integration, generative neural networks, computer vision, interactive methods.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема интеграции теоретических знаний с практической жизнью посредством использования средств искусственного интеллекта в процессе преподавания естествознания в начальных классах. В исследовании в качестве педагогической проблемы рассматриваются абстрактное восприятие учебного материала, наблюдаемое в ходе традиционного урока, а также трудности учащихся при применении усвоенных знаний в реальных жизненных ситуациях. На этой основе раскрываются дидактические возможности методических подходов, основанных на генеративных нейронных сетях, технологиях компьютерного зрения и интерактивных средствах визуализации. Данные подходы способствуют развитию у учащихся навыков наблюдения, анализа, сравнения, логического мышления и формулирования выводов. В статье также освещаются педагогическая эффективность методов, основанных на искусственном интеллекте, условия их внедрения в практику начального образования и их значение для повышения качества образования.

Ключевые слова: начальное образование, естествознание, искусственный интеллект, интеграция теории и практики, генеративные нейронные сети, компьютерное зрение, интерактивные методы.

KIRISH

Boshlang'ich maktab tizimidagi tabiiy fan (Atrofimizdagi olam) kurslarini o'qitish sifati so'nggi yillarda tub transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. O'zbekistonning 2020-yildan boshlab xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashuvi natijasida Science (tabiiy fanlar) yo'nalishiga mos ravishda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv dasturlari yangilandi. Xususan, boshlang'ich ta'limdagi tabiiy fan o'quvchilarda atrof-muhit, ekologik tizimlar hamda biologik va fizik jarayonlar to'g'risidagi dastlabki bazaviy tasavvurlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi [6]. Biroq, an'anaviy dars berish metodlari, ya'ni matnlar, statik illyustratsiyalar va rasmlar orqali ayrim mavzularning mazmunini to'liq ochib berish qiyin.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashning rivojlanishi bolaning kelajakdagi akademik, hayotiy va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam zamin yaratadi. Dastlabki ta'lim bosqichlarida bolalar ko'proq kuzatadi, farqlaydi, o'z tasavvurini va tuyg'ularini ifoda etadi. Ularni faqat axborot qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi, o'z

nuqtai nazariga ega, mustaqil fikrlaydigan va ijodiy yondashadigan shaxs sifatida tarbiyalash zarur. Bu jarayon, avvalo, o‘qituvchining kasbiy mahorati, metodik yondashuvi va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda to‘g‘ri qo‘llay olishiga bog‘liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ona tili darslari tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ko‘plab imkoniyatlarga ega. Chunki til darsi orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki atrof-muhitga, so‘z va nutqqa, ijtimoiy masalalarga qanday munosabatda bo‘lishni ham o‘rganadi.

Amerikalik pedagog J.Dewey tanqidiy fikrlashni muammoni tahlil qilish, dalillarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish jarayoni sifatida izohlagan.

L.S.Vygotskiy esa o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlik va o‘qituvchi rahbarligining muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Har bir o‘quv materialini tahlil qilish, savollarga mustaqil javob topish, interfaol metodlarni qo‘llash orqali ularning fikr doirasi kengayadi, har bir bolaning fikr yuritishiga, mulohaza yuritib, xulosaga kelishiga sharoit yaratiladi.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchini har bir axborotni ham to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilmasdan, uni tahlil qilish va mustaqil xulosaga kelishga o‘rgatadi. Masalan, matn ustida savol-javob jarayonini tashkil etishda “Nima uchun?” va “Qanday qilib?” kabi savollar o‘quvchiga muammoni chuqurroq anglash, tahlil qilish hamda mantiqiy xulosa chiqarishga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchi muammoni o‘quvchi bilan birgalikda ochadi va unga mustaqil harakat qilish uchun sharoit yaratadi.

E. de Bono ijodiy fikrlashni rivojlantirishda an’anaviy fikrlash chegaralaridan chiqish, yangi g‘oyalarni izlash va muammolarga noodatiy yechim topish muhimligini asoslab bergan. Ijodiy fikrlash esa bolani standart andozalardan chiqib fikr yuritishga, yangi va o‘ziga xos usullarni izlab topishga, vazifalarni mustaqil hamda noodatiy tarzda yechishga o‘rgatadi. Masalan, ertak, hikoya, dialog yaratish, turli voqealarni sahnalashtirish, ifodali nutq mashqlari orqali o‘quvchilar o‘z tasavvurlaridagi obrazlarni so‘z bilan gavdalantirish va ularga hayotiy vaziyatlarda yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maqsadli tashkil etilgan ijodiy mashg‘ulotlar bolalarda fantaziya, tasavvur va o‘z fikrini ifodalashga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida axborotni izlash, topilgan ma’lumotni baholash hamda turli nuqtai nazardan yondashish ishlari orqali o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyati yanada boyiydi [1]. B. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiyada ham tahlil qilish, baholash va yaratish kabi yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalari alohida bosqich sifatida e’tirof etilgan.

Turli interfaol ta’lim usullari: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Konseptual xarita”, “Bahs”, “Munozara”, “Rolli o‘yin”, “Loyiha ishi”, “Fikr doirasi” kabi texnologiyalar tanqidiy va ijodiy fikr yuritish, mustaqil xulosaga kelish hamda o‘z nuqtai nazarini dalillar orqali isbotlash imkonini beradi.

Mahalliy olimlar N. Saidahmedov, J. Yo‘ldoshev va A. Abduqodirov tadqiqotlarida ham interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi ta’kidlangan. O‘quvchilarni faollashtirish, ularga o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkonini beruvchi savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, kichik guruhlarda ishlash, mashg‘ulotlarda matn, she’r, maqol, topishmoq va hikoya ustida turli topshiriqlar berish samarali natijalar beradi. Har bir darsda o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shu sababli o‘qituvchi har bir darsni tanqidiy va ijodiy fikrlashga asoslangan zamonaviy metodlar hamda qiziqarli topshiriqlar bilan boyitib borishi lozim [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari hamda ilg‘or pedagogik tajribalar tahlil qilinib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va usullar aniqlandi. Olingan natijalar asosida ona tili darslarini tashkil etish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarda yangi g‘oya, loyiha va kichik tadqiqot ishlariga intilish, savollarga mustaqil javob berish, hayotiy voqea va munosabatlarga o‘z nuqtai nazarini bildirish uchun sharoit yaratish hamda ularni rag‘batlantirish muhim sanaladi. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish, ularni rag‘batlantirish eng muhim omillardan biridir. Bugungi zamonaviy o‘quv dasturlari va ta’lim standartlari maktablarda faqat tayyor bilimlarni o‘rgatishga emas, balki mustaqil fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog‘liq texnologiyalar orqali o‘quvchilar tayyor haqiqatni emas, balki o‘z tajribasi, kuzatuvlari va tahlili asosida xulosaga kelish, muammoli vaziyatdan chiqish hamda samarali kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Odatda, o‘qituvchilar tanqidiy va ijodiy fikrlashni faollashtirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratadilar: ochiq va mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash, bolalarda mustaqil savol berish va tahlil qilishni rag‘batlantirish, ularni motivatsiyalash hamda har bir bolaning muvaffaqiyatini alohida rag‘batlantirish. Har bir darsda interfaol metodlardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda o‘z fikrini ifoda qilish malakalarini mustahkamlaydi [3].

Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, multimedia vositalari, elektron darsliklar va virtual resurslar ham yosh avlod tafakkurini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, internetdan to‘g‘ri foydalanish, ochiq ma’lumotlarga mustaqil baho berish, onlayn loyiha va tanlovlarda ishtirok etish bolalarda zamonaviy tafakkurni rivojlantiradi hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashga yordam beradi.

Maktabda bolalar ijodiy va tanqidiy fikrlash asoslarini o‘rgana boradilar, bu esa hayotda mustaqil ravishda to‘g‘ri qaror qabul qilish va o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi. Ona tili darslari bolaning o‘z tuyg‘ularini, tasavvurlarini sohaga oid so‘z va iboralar orqali ifodalash, matn mazmunini tahlil qilish, muammoni mustaqil hal qilish hamda guvoh bo‘lgan voqea-hodisalarni yorqin so‘zlar bilan tasvirlash, o‘z fikrini asoslash va himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi, ularni yangi g‘oyalar, innovatsion loyihalar va dolzarb muammolarga yangicha yondashishga undaydi. Ayniqsa, har bir darsda bolalarga erkin fikrlash uchun keng imkon berilganda va ularning har bir innovatsion yondashuvi rag‘batlantirilganda, ta’lim natijalari yanada samarali bo‘ladi. Natijada zamonaviy, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan shaxs yetishib chiqadi. Ona tili darslarida turli metodik yangicha yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayoniga yangilik olib kiradi. Shu orqali bolalar o‘zini namoyon qilish, yangi bilimlarni anglash, yangicha fikrlashni shakllantirish, hayot muammolariga innovatsion yondashuvni rivojlantirish hamda zamonaviy axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalish olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalaridan samarali foydalanish bolalarning tafakkur darajasini oshirish hamda mustaqil va zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash uchun zaruriy asos yaratadi. Ona tili darslariga interfaol va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikr yuritish uchun keng sharoit yaratish ularda mustaqil bilim olish va zamonaviy kompetensiyalarni egallashga zamin tayyorlaydi. Bu esa zamonaviy hayotda muvaffaqiyatli shaxs, faol ijtimoiy ishtirokchi va sog‘lom raqobatbardosh avlodni shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamatqulova M. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi asoslari”, Toshkent, 2011
2. Karimova F. “Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, 2013
3. Xaitboyeva Z. “Ona tilini o‘qitish metodikasi”, Toshkent, 2012
4. Ergasheva M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish”, Toshkent, 2015
5. Xalilova F., “Tanqidiy fikrlash texnologiyalari va ularning o‘qitishdagi o‘rni”, Toshkent, 2014
6. Toshboyeva N. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”, Toshkent, 2018
7. Akramova K. “O‘zbek tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish”, Toshkent, 2016
8. Tukhtaeva M. “Tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish”, Samarqand, 2017

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIK KECHALAR ORQALI O'QUVCHILARNING MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Saytniyozov Adham Annamuhammet o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida matematik kechalarni tashkil etish orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va matematika faniga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida matematik kechalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularni tashkil etish metodlari hamda o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, matematik viktorinalar, mantiqiy o'yinlar, sahnaviy chiqishlar va interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari ko'rsatib berildi. Olingan natijalar matematik kechalar o'quvchilarning fan bo'yicha faolligini oshirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida umumta'lim maktablarida matematik kechalarni muntazam tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: matematik kecha, matematika ta'limi, mantiqiy tafakkur, interfaol metodlar, viktorina, sinfdan tashqari mashg'ulot, kompetensiya, pedagogik texnologiya.

Abstract: This article examines the effectiveness of mathematical evenings in developing students' logical thinking, independent reasoning, and interest in mathematics in general secondary schools. The study analyzes the pedagogical potential of mathematical evenings, methods of organizing them, and the impact of interactive approaches on educational effectiveness. The results of the experimental work indicate that mathematical evenings contribute to improving students' academic achievement, logical reasoning, teamwork, and motivation toward mathematics. Based on the findings, methodological recommendations for organizing mathematical evenings in secondary schools are proposed.

Key words: mathematical evening, mathematics education, logical thinking, interactive methods, quiz, extracurricular activities, pedagogical technology, competency.

Аннотация: В данной статье исследуется эффективность математических вечеров в развитии логического мышления, самостоятельного мышления и интереса учащихся к математике в общеобразовательных школах. Проанализированы педагогические возможности математических вечеров, методы их организации и влияние интерактивных технологий на качество обучения. Результаты исследования показали, что математические вечера способствуют повышению уровня знаний учащихся, развитию логического мышления, навыков командной работы и познавательной активности. По итогам исследования предложены методические рекомендации по эффективной организации математических вечеров в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: математический вечер, математическое образование, логическое мышление, интерактивные методы, викторина, внеклассная работа, педагогические технологии, компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish jarayonida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini oshirish, balki ularning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda matematika fani alohida o'rin egallaydi, chunki u o'quvchilarda tahliliy fikrlash, xulosa chiqarish va amaliy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

An'anaviy dars mashg'ulotlari o'quvchilarning matematik bilimlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, ular har doim ham o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yuqori darajada ta'minlay olmaydi. Shu sababli sinfdan tashqari mashg'ulotlar, xususan, matematik kechalar, viktorinalar, intellektual bellashuvlar va mantiqiy o'yinlarni tashkil etish bugungi ta'lim amaliyotida muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday tadbirlar o'quvchilarga nazariy bilimlarini qiziqarli va hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratadi hamda ularning matematika faniga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Matematik kechalar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning jamoada ishlash, o‘z fikrini asoslab himoya qilish, tezkor qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv kabi muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadbirlar davomida sahnaviy chiqishlar, matematik o‘yinlar, viktorinalar, topishmoqlar va qiziqarli savol-javoblardan foydalanish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va interfaol pedagogik metodlarning rivojlanishi matematik kechalarni tashkil etish mazmunini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron taqdimotlar, onlayn viktorinalar va raqamli ta’lim platformalarini qo‘llash o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shu nuqtai nazardan, matematik kechalarning o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri va o‘quv motivatsiyasiga ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning samaradorligini baholash hamda ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi - umumta’lim maktablarida matematik kechalarni tashkil etish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligini aniqlash va ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- matematik kechalarning ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini tahlil qilish;
- matematik kechalarni tashkil etish metodikasini o‘rganish;
- matematik kechalarning o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri va o‘quv motivatsiyasiga ta’sirini aniqlash;
- tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish va baholash;
- matematik kechalarni samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumta’lim maktablarida matematikani o‘qitishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, xususan, matematik kechalar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va fanga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

G. Polya muammoli masalalarni yechish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsa, NCTM (National Council of Teachers of Mathematics) tavsiyalarida o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etish, hamkorlikda ishlash va matematik muloqotni rivojlantirish muhimligi ta’kidlangan.

O‘zbek olimlaridan O‘. Q. Tolipov, M. Usmonboyeva, R. J. Ishmuhamedov va A. A. Abduqodirovlarning tadqiqotlarida interfaol metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilish faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali yondashuv sifatida baholangan.

Shuningdek, matematik kechalar va viktorinalarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar mazkur tadbirlarning o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumta’lim maktablarida matematik kechalar orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlardan kompleks foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari matematik mashg‘ulotlar, xususan, matematik kechalar tanlandi. Mazkur tadbirlar o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik faoliyat sifatida qaraldi.

Tadqiqot predmeti matematik kechalarni tashkil etish metodikasi, ularda qo‘llaniladigan interfaol usullar, mantiqiy topshiriqlar, viktorinalar va sahnaviy chiqishlarning o‘quvchilarning bilish faolligi hamda mantiqiy tafakkuriga ta’siridan iborat bo‘ldi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Pedagogik tahlil** - matematik kechalarni tashkil etishga oid ilmiy-metodik adabiyotlar hamda uslubiy qo‘llanmalar tahlil qilindi.
2. **Pedagogik kuzatish** - matematik kechalar davomida o‘quvchilarning faolligi, jamoada ishlashi va mantiqiy topshiriqlarni bajarish jarayoni kuzatildi.

3. **Suhbat va so‘rovnoma** - o‘quvchilar hamda matematika o‘qituvchilarining matematik kechalarga munosabati o‘rganildi.
4. **Pedagogik tajriba-sinov** - matematik kechalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning o‘quvchilarning bilimiga va mantiqiy tafakkuriga ta’siri baholandi.
5. **Matematik-statistik tahlil** - olingan natijalar foiz ko‘rsatkichlari va taqqoslash usullari yordamida tahlil qilindi.

Mazkur metodlardan foydalanish tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash va matematik kechalarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini har tomonlama baholash imkonini berdi. Bu yondashuvlar uslubiy qo‘llanmada tavsiya etilgan ilmiy-pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Tayyyorgarlik bosqichi** - ilmiy adabiyotlar va uslubiy qo‘llanmalar tahlil qilindi, matematik kecha ssenariylari ishlab chiqildi va tadqiqot dasturi tuzildi.
2. **Amaliy bosqich** - o‘quvchilar ishtirokida matematik kechalar tashkil etilib, viktorinalar, mantiqiy masalalar, sahnaviy chiqishlar va guruhli topshiriqlar o‘tkazildi.
3. **Yakuniy bosqich** - olingan natijalar tahlil qilinib, matematik kechalarning o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi samaradorligi baholandi hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Matematik kechalarni tashkil etishda tadbir mavzusini tanlash, ssenariy tuzish, jamoalarni shakllantirish, bellashuvlar, baholash va taqdirlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu bosqichlar qo‘llanmada tavsiya etilgan metodik ketma-ketlik asosida tashkil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot Surxondaryo viloyati Denov tumani 23-maktabda 5-8-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda jami 80 nafar o‘quvchi qatnashdi. Tajriba davomida matematik kechalar tashkil etilib, ularning tarkibiga matematik viktorinalar, yozma topshiriqlar, mantiqiy masalalar va jamoaviy bellashuvlar kiritildi. Tadbirlarni tashkil etishda o‘quvchilarning faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlashi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarning matematik kechalardagi ishtiroki muntazam kuzatildi. Kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar viktorinalar va mantiqiy topshiriqlarda katta qiziqish bilan qatnashdilar. Ayniqsa, guruhlar o‘rtasidagi bellashuvlar o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida bilimlarni baholash maqsadida yozma ishlar va test topshiriqlaridan foydalanildi. Olingan natijalar matematik kechalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash, mantiqiy fikrlash hamda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Tadbir yakunida o‘quvchilarning aksariyati matematika faniga bo‘lgan qiziqishi ortganini va bunday tadbirlarning tez-tez tashkil etilishini istashlarini bildirdilar.

Kuzatishlar davomida quyidagi natijalar aniqlandi:

№	Baholash mezoni	Kuzatilgan holat
1	O‘quvchilarning tadbirdagi ishtiroki	Faol
2	Viktorinalarda qatnashish	Yuqori
3	Mantiqiy topshiriqlarni bajarish	Yaxshi
4	Jamoada ishlash ko‘nikmasi	Rivojlandi
5	Matematika faniga qiziqish	Ortgani kuzatildi
6	Yozma ish va test natijalari	Ijobiy o‘sish qayd etildi

1-rasm: **Matematik kechalar bo‘yicha kuztish natijalari**

Olingan natijalar matematik kechalarni muntazam tashkil etish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, matematika faniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Bu natijalar matematik kechalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va metodik ahamiyati haqidagi qo‘llanmadagi nazariy qarashlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Tadqiqot natijalari matematik kechalar umumta’lim maktablari o‘quvchilarining matematika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba davomida o‘tkazilgan matematik kechalar, viktorinalar va yozma topshiriqlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirdi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, matematik kechalarda qo‘llanilgan interfaol metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga faol jalb etilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, guruhlar o‘rtasidagi intellektual bellashuvlar o‘quvchilarda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirdi, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirdi hamda kommunikativ kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu holat matematik kechalarning ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati haqidagi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar matematik kechalar orqali o‘quvchilar darsda egallagan nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lay olishini ko‘rsatdi. Matematik viktorinalar va mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, muammoni turli usullar bilan hal etish hamda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa matematik kechalarning zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim talablariga mos kelishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida tadbirlarning puxta rejalashtirilishi, ssenariy asosida tashkil etilishi va interfaol metodlardan foydalanilishi yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo‘lganligi kuzatildi. Qo‘llanmada tavsiya etilgan tayyorgarlik bosqichi, ssenariy tuzish, bellashuvlarni tashkil etish hamda baholash tizimidan foydalanish tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, matematik kechalarni muntazam ravishda tashkil etish o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqaradi hamda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Shu sababli matematik kechalarni umumta’lim maktablarida fan oyliklari, to‘garak mashg‘ulotlari va boshqa tarbiyaviy tadbirlar doirasida tizimli ravishda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, umumta’lim maktablarida matematik kechalarni tashkil etish o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida tashkil etilgan matematik kechalar, viktorinalar va yozma topshiriqlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, jamoada ishlash madaniyatini rivojlantirish va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Matematik kechalar va viktorinalar to‘plami” uslubiy qo‘llanmasida bayon etilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni amaliyotda qo‘llash samarali ekanligini tasdiqladi. Qo‘llanmada tavsiya etilgan matematik kecha ssenariylari, viktorinalar, topishmoqlar, sahnaviy ko‘rinishlar hamda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyati Denov tumani 23-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 5-8-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilib, matematik kechalarni tizimli ravishda tashkil etish o‘quvchilarning bilim faolligi, mantiqiy fikrlashi va fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- umumta’lim maktablarida matematik kechalarni har chorakda kamida bir marta tashkil etish;
- fan oyliklari doirasida uslubiy qo‘llanmada tavsiya etilgan ssenariy va viktorinalardan foydalanish;
- matematik kechalarni tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va interfaol metodlardan keng foydalanish;
- iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida jamoaviy bellashuvlar hamda matematik musobaqalarni muntazam o‘tkazish;
- o‘qituvchilar uchun matematik kechalarni tashkil etishga oid metodik tavsiyalar va amaliy qo‘llanmalarni yanada boyitish.

Xulosa qilib aytganda, “Matematik kechalar va viktorinalar to‘plami” uslubiy qo‘llanmasi umumta’lim maktablarida sinfdan tashqari ta’limni samarali tashkil etish, o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda muhim metodik manba bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘llanmadan foydalanish matematik kechalarni mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayitniyozov, A. A., & Sobirova, M. (2026). Matematik kechalar va viktorinalar to‘plami: O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qiziqarli va ijodiy tadbirlar ssenariylari. Denov: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
4. Avliyakulov, N. X. (2021). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Tolipov, O‘. Q., & Usmonboyeva, M. (2017). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
6. Ishmuhamedov, R. J., & Abduqodirov, A. A. (2020). Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent.
7. Jo‘rayev, B. B. (2022). Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent.
8. Xolmirzayev, X. (2021). Matematika ta’limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Toshkent.
9. Polya, G. (2004). How to Solve It. Princeton University Press.
10. NCTM. (2014). Principles to Actions: Ensuring Mathematical Success for All. Reston, VA: National Council of Teachers of Mathematics.

TIBBIY VA PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA "CASE STUDY" METODINI QO'LLASH ORQALI TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Shaymatova Azizaxon Rustambekovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Bolalar stomatologiyasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida amaliy va muammoli yondashuvlardan biri hisoblangan "Case Study" metodining mohiyati hamda uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Ayniqsa, mutaxassislik fanlarini o'qitishda real hayotiy yoki klinik vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarning mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda kasbiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Case Study" metodi, muammoli ta'lim, kasbiy kompetentlik, interfaol yondashuv, real vaziyatlar, amaliy ko'nikmalar.

Abstract: The article highlights the essence of the "Case Study" method, which is considered one of the practical and problem-based approaches in the modern educational process, as well as its role in enhancing learning efficiency. In particular, the mechanism of developing students' independent thinking, logical reasoning, and professional decision-making skills through the analysis of real-life or clinical situations in teaching specialized subjects is analyzed.

Key words: "Case Study" method, problem-based learning, professional competence, interactive approach, real-life situations, practical skills.

Аннотация: В статье освещены сущность метода "Кейс-стади", являющегося одним из практических и проблемных подходов в современном образовательном процессе, а также его роль в повышении эффективности обучения. В частности, проанализирован механизм формирования у студентов навыков самостоятельного мышления, логического выводообразования и принятия профессиональных решений посредством анализа реальных жизненных или клинических ситуаций при преподавании специальных дисциплин.

Ключевые слова: метод "Кейс-стади", проблемное обучение, профессиональная компетентность, интерактивный подход, реальные ситуации, практические навыки.

KIRISH

Mazkur metod talabalarni kasbiy muhitga yaqinlashtirish, ularda mas'uliyatni his etish, jamoada ishlash va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. Ushbu ilmiy maqolada Samarqand davlat tibbiyot universitetining o'quv jarayoni, jumladan, stomatologiya yo'nalishidagi amaliy mashg'ulotlar misolida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini oshirish mexanizmlari va ularning natijalari ilmiy-statistik jihatdan yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon ta'lim tizimida kechayotgan globallashuv va raqamlashuv jarayonlari kadrlar tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy ta'lim shakllari ko'pincha talabalarda faqat nazariy bilimlarni shakllantirib, ularni real kasbiy muammolarni hal etishga tayyorlashda ayrim cheklovlarga duch kelmoqda. Shu munosabat bilan ta'lim oluvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ma'lumki, ta'lim jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarida ham muammoli ta'lim va interfaol metodlarning o'rni yuqori baholangan. Xususan, olima O. G. Smolyaninovaning ilmiy ishlarida ta'kidlanishicha, "Case Study" metodi talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda hamda ularda tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [4].

Shuningdek, rus pedagog olimlaridan I. P. Podlasiyning ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim usullaridan farqli o'laroq, vaziyatli tahlil metodlari talabalarni faol bilish faoliyatiga yo'naltiradi va ularning kasbiy tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshiradi [3].

Shuningdek, ilg'or ta'lim texnologiyalarini tadqiq qilgan olima O. G. Smolyaninovaning fikricha, "Interfaol metodlar, xususan, vaziyatli tahlil (Case Study) talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda hamda ularda tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi" [4]. "Case Study" va muammoli ta'lim texnologiyalarini oliy ta'limga, xususan, tibbiy va amaliy fanlarni o'qitishga joriy etish masalasi ko'plab taniqli xorijiy olimlar, jumladan, g'arb va rus pedagogikasi hamda tibbiy ta'lim tadqiqotchilari tomonidan chuqur o'rganilgan.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari nazariyotchisi L. Davidson o'z tadqiqotlarida ta'kidlashicha, Case Study metodi talabalarni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi [6]. Olimning fikricha, real hayotiy va klinik holatlarni muhokama qilish orqali talabalarning kognitiv (bilish) jarayonlari faollashadi va ularda murakkab muammolarni tizimli hal etish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Shuningdek, tibbiy ta'limda interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha tadqiqot olib borgan professor K. E. Millar va uning hammualliflari o'z ishlarida klinik keyslarning ahamiyatini yuqori baholab, quyidagi fikrni bildirgan: "Bo'lajak shifokorlar uchun nazariy bilimlarni yod olishdan ko'ra, cheklangan vaqt ichida real patsiyent keysi asosida tezkor to'g'ri tashxis qo'yish va profilaktik qaror qabul qilishni o'rganish ming marotaba samaraliroqdir" [7].

Amerikalik pedagogika olimlari E. Dollard va M. Skinnerlarning ilmiy qarashlariga ko'ra, vaziyatli o'qitish usullari talabalar o'rtasidagi jamoaviy hamkorlikni kuchaytirib, ularda kasbiy muloqot madaniyati va mas'uliyat hissini oshiradi [8]. Bu esa talabalarning bo'lajak mustaqil mehnat faoliyatiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishini ta'minlaydi.

Rus olimlaridan A. M. Matyushkin va I. I. Ilnitskayaning muammoli ta'lim nazariyasi bo'yicha olib borgan izlanishlarida ko'rsatilishicha, ta'lim oluvchi oldiga real muammoli vazifani qo'yish (keys taqdim etish) uning mantiqiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy turtki hisoblanadi [5].

Mahalliy olimlardan professor N. Sayidahmedovning ilmiy ishlarida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari tadqiq etilgan bo'lib, u ta'lim oluvchining olgan bilimini real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi [1].

Shuningdek, M. Tojiboyevning tadqiqotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali talabalarning mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan [2].

Professor N. Sayidahmedov ta'kidlaganidek, "Ta'lim samaradorligi faqatgina bilim berish hajmi bilan emas, balki o'quvchining o'sha bilimni hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati bilan o'lchanadi" [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti Stomatologiya fakultetining o'quv jarayoni misolida amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida fakultetning 3-bosqich 301-, 310-, 313- va 317-guruh talabalari ishtirok etdi. Ushbu jarayonda "Stomatologik kasalliklar profilaktikasi" fanini o'qitish tizimi hamda talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonlari tanlandi.

Pedagogik eksperimentda jami 45 nafar talaba qamrab olindi. Tajribaning aniq ta'sir kuni ular qiyosiy tahlil maqsadida shartli ravishda ikki guruhga bo'lindi: 301- va 313-guruh tarkibiga kiruvchi 23 nafar talaba tajriba guruhi hamda 310- va 317-guruh tarkibiga kiruvchi 22 nafar talabadan iborat nazorat guruhi. Mazkur tadqiqot faqat bitta alohida mavzudagi amaliy mashg'ulot - "Bolalarda kariyes profilaktikasida ftor saqlovchi preparatlarning ahamiyati" mavzusi misolida sinovdan o'tkazildi.

Nazorat guruhidagi 22 nafar talabaga mazkur mavzu an'anaviy tarzda (ma'ruza va og'zaki savol-javob shaklida) tushuntirilib, standart profilaktika qoidalari bayon etildi. Tajriba guruhidagi 23 nafar talabaga esa shu birgina amaliy mashg'ulot doirasida maqsadli tarzda "Case Study" metodi qo'llanildi. Bunda talabalarga real klinik yoki profilaktik holatga asoslangan bitta muammoli vaziyat (keys) matni berildi. Talabalar kichik guruhlarga bo'linib, bemor bolaning yoshi, og'iz bo'shlig'i gigiyenik holati va ovqatlanish ratsioni asosida mustaqil ravishda muammo ildizini aniqladilar hamda eng maqbul profilaktik chora-tadbirlar majmuini tanladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bitta mashg'ulot natijalarini tahlil qilish va ilmiy asoslashda quyidagi pedagogik usullardan foydalanildi:

1. **Ilmiy adabiyotlar va manbalarni tahlil qilish usuli** - mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar o'rganilib, umumlashtirildi.
2. **Pedagogik eksperiment usuli** - birgina mashg'ulot doirasida tajriba guruhidagi 23 nafar va nazorat guruhidagi 22 nafar talabaning (jami 45 nafar talabaning) bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari mashg'ulot so'ngida qiyosiy baholandi.
3. **So'rovnoma va test usuli** - dars yakunida talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun ekspress-testlar va vaziyatli topshiriqlar o'tkazildi.
4. **Statistik-matematik tahlil usuli** - dars yakunida to'plangan raqamli ma'lumotlar qayta ishlanib, olingan natijalarning ishonchliligi ta'minlandi.

Mashg'ulot yakunida talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash maqsadida o'tkazilgan ekspress-testlar va vaziyatli topshiriqlar natijalari statistik tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

1-jadval: **Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlil jadvali**

Baholash mezonlari (Balllar kesimi)	Tajriba guruhi (Keys-stadi metodi)(n=23)	Nazorat guruhi (An'anaviy usul)(n=22)	Farq (Tajriba foydasiga)
"A'lo" (90–100 ball)	9 nafar (39,1%)	4 nafar (18,2%)	+20,9%
"Yaxshi" (71–89 ball)	10 nafar (43,5%)	9 nafar (40,9%)	+2,6%
"Qoniqarli" (56–70 ball)	4 nafar (17,4%)	7 nafar (31,8%)	-14,4%
"Qoniqarsiz" (56 balldan past)	0 nafar (0,0%)	2 nafar (9,1%)	-9,1%
Jami sinovdagi talabalar	23 nafar (100%)	22 nafar (100%)	-
Umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi (A'lo + Yaxshi)	82,6%	59,1%	+23,5%

Jadvalda keltirilgan raqamli ko'rsatkichlar va statistik tahlillar quyidagi mantiqiy xulosalarni beradi:

I. Tajriba guruhida "Case Study" metodi qo'llanilgani sababli talabalarning bilimni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi. Xususan, umumiy ijobiy natija ("a'lo" va "yaxshi" baholar yig'indisi) tajriba guruhida 82,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, an'anaviy usulda o'qitilgan nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 59,1 % bilan cheklandi. Bu esa ikki guruh o'rtasidagi farq 23,5 % ni tashkil etishini ko'rsatadi.

II. Eng yuqori natijani ("a'lo" baho) qo'lga kiritgan talabalar tajriba guruhida 39,1 % (9 nafar) bo'lsa, nazorat guruhida bor-yo'g'i 18,2 % (4 nafar) ni tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, muammoli vaziyatlar (keys) asosida mustaqil fikr yuritgan talabalar mavzuni chuqurroq anglab yetgan va ftor saqlovchi preparatlarni amaliyotda qo'llash mantiqini puxta o'zlashtirgan.

III. Tajriba guruhida "qoniqarsiz" baho olganlar soni 0 nafar (0 %) ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa mavzuni an'anaviy yod olish bilan bog'liq qiyinchiliklar sababli 2 nafar talaba (9,1 %) fandan past ko'rsatkich qayd etdi. Bu "Case Study" metodining rivojlantiruvchi va o'zlashtirishni kafolatlovchi xususiyatga ega ekanligini yaqqol isbotlaydi.

IV. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "Stomatologik kasalliklar profilaktikasi" fani doirasida bolalarda kariyes profilaktikasi va ftor saqlovchi preparatlarni tanlash jarayoniga interfaol metodlarni tatbiq etish talabalarda nafaqat nazariy bilimni, balki tezkor klinik qaror qabul qilish va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini o'rtacha 1,4 barobar yuqori darajada shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, "Case Study" metodini o'quv jarayoniga keng joriy etish talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari tibbiy va pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "Case Study" metodidan foydalanish amaliyotini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сайидахмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар. - Тошкент: Олий ўқув юртлари, 2022. - 188 б.
2. Тожибоев М. Педагогик технологиялар ва таълим самарадорлиги. - Тошкент: Фан ва технология, 2023. - 214 б.
3. Подласый И.П. Педагогика: Новый курс: Учебник для студентов педагогических вузов. - Москва: Юрайт, 2021. - 574 с.
4. Смолянинова О.Г. Инновационные технологии обучения студентов на основе метода Case-Study. - Красноярск: КГУ, 2020. - 120 с.
5. Матюшкин А.М. Проблемное обучение в мышлении, обучении и творчестве. - Москва: Московский психолого-социальный институт, 2021. - 192 с.
6. Davidson L. Interactive Teaching Strategies in Higher Education: Developing Critical Thinking through Case-Based Learning. - New York: Academic Press, 2022. - 245 p.
7. Miller C.E., et al. Clinical Case Studies and Problem-Based Learning in Medical Education. - London: Medical Education Publishers, 2023. - 310 p.
8. Dollard A., Skinner M. Collaborative Problem Solving and Professional Competence Development in Students. - Boston: Higher Education Insights, 2021. - 180 p.
9. Rustambekovna A. M. S. S. A. Manifestation of the oral mucosa in covid-19 //Scientific Journal Of Medical Science And Biology. - 2023. - Т. 2. - №. 2. - С. 7-16.
10. Шайматова А. Р. Статистика распространённости и интенсивности кариеса зубов у детей дошкольного возраста в разных регионах самаркандской области //Journal of Modern Educational Achievements. - 2024. - Т. 5. - №. 5. - С. 161-164.
11. Шаймтова А. Р. Профилактические аспекты фиссурный кариеса //Journal of Modern Educational Achievements. - 2024. - Т. 5. - №. 5. - С. 147-150.
12. Шайматова А. Р. Статистика распространённости и интенсивности кариеса зубов у детей дошкольного возраста в разных регионах самаркандской области //Journal of Modern Educational Achievements. -2024. - Т. 5. - №. 5. - С. 161-164.
13. Amrulloevich G. S., Rustambekovna S. A., Kakhramonovich N. U. Oral cavity condition in children and adolescents with undifferentiated connective tissue dysplasia //Journal of Modern Educational Achievements. - 2023. - Т. 9. - №. 9. - С. 18-30.
14. Гаффоров С. А., Шайматова А. Р., Шамсиева М. О. Обзорный анализ стоматологического статуса детей и подростков, страдающих различными формами дисплазии соединительной ткани //Integrative dentistry and maxillofacial surgery. - 2022. - Т. 1. - №. 2. - С. 28-36.
15. SA S. A. R. G. Dental Status In Children And Adolescents With Connective Tissue Dysplasia //Journal of Modern Educational Achievements. - 2024. - Т. 5. - №. 5. - С. 154-160.
16. Shaymatova A. R. Dental Caries In Young Children //Journal of Modern Educational Achievements. - 2024. - Т. 5. - №. 5. - С. 151-153

DUTOR IJROCHILIGINING AMALIY-TEXNIK JIHATLARIGA E'TIBOR QARATISH VA USHBU JARAYONNI RIVOJLANTIRISH

Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti
"Musiqa ta'limi va madaniyat" kafedrasi
Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlari, xususan, cholg'uni to'g'ri ushlash, o'ng va chap qo'l harakatlari, tovush hosil qilish usullari, ijro texnikasini takomillashtirish hamda ijrochilik mahoratini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, dutor ta'limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, muntazam mashg'ulotlarning ahamiyati va milliy ijrochilik an'analarini saqlash hamda rivojlantirish omillari yoritiladi.

Kalit so'zlar: dutor, dutor ijrochiligi, ijro texnikasi, cholg'u san'ati, o'ng qo'l texnikasi, chap qo'l texnikasi, tovush hosil qilish, milliy musiqa, musiqiy ta'lim, ijrochilik mahorati.

Abstract: This article examines the practical and technical aspects of dutar performance, including proper instrument positioning, right- and left-hand techniques, sound production methods, and the improvement of performance skills. Particular attention is given to the development of professional mastery, the application of modern pedagogical approaches in dutar education, and the preservation and advancement of national performance traditions.

Key words: dutar, dutar performance, performance technique, musical art, right-hand technique, left-hand technique, sound production, national music, music education, performance mastery.

Аннотация: В данной статье рассматриваются практико-технические аспекты исполнительства на дутаре, включая правильную постановку инструмента, особенности работы правой и левой рук, способы звукоизвлечения и совершенствование исполнительской техники. Особое внимание уделяется вопросам развития исполнительского мастерства, применению современных педагогических подходов в обучении игре на дутаре, а также сохранению и развитию национальных исполнительских традиций.

Ключевые слова: дутар, исполнительство на дутаре, исполнительская техника, музыкальное искусство, техника правой руки, техника левой руки, звукоизвлечение, национальная музыка, музыкальное образование, исполнительское мастерство.

KIRISH

Musiqa tovushlarining balandligi, davomiyligi va boshqa xususiyatlarini maxsus belgilar (nota) orqali ifodalash tizimidir. Bu yozuv musiqa asarini aniq qayd etish va avloddan avlodga yetkazish imkonini beradi. Nota yozuvi qadimdan turli xalqlar musiqa amaliyoti va ilmiy izlanishlari natijasida shakllanib kelgan. Eng qadimiy namunalar Qadimgi Misr, Bobil va Xitoyda uchragan bo'lib, miloddan avvalgi III asrda Yunonistonda harflar orqali ifodalangan nota tizimi paydo bo'lgan.

O'rta Osiyoda ham nota yozuvi rivojlangan bo'lib, Abu Nasr Forobiy harfli nota tizimining ayrim shakllarini ishlab chiqqan. Keyinchalik XIII asrda Safiuddin al-Urmaviy ud cholg'usi uchun maxsus tabulatura tizimini yaratgan. Bu tizim jadval ko'rinishida bo'lib, unda tovush balandligi harflar bilan, davomiyligi esa raqamlar yoki belgilar bilan ifodalangan. XIX asr oxirida Xorazmda "tanbur chizig'i" deb ataluvchi tabulatura shakli ham qo'llanilgan. O'rta asrlarda Yevropada Gvido d'Arezzo tomonidan 4 chiziqli nota tizimi takomillashtirilgan va keyinchalik hozirgi besh chiziqli nota yozuviga asos bo'lgan. XVI asr oxirlaridan boshlab esa gomofoniya uslubida generalbas tizimi ham keng joriy etilgan (1-rasm).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining dutor cholg‘usi bo‘yicha ijrochilik mahoratini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa ta’limi jarayonida talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularda amaliy ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dutor cholg‘usida ijro etish texnikasini mukammal egallash, kuy va maqomlarni to‘g‘ri talqin qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish kelajakdagi pedagog faoliyati uchun zarur omillardan biridir.

Dutor ijrochiligini o‘qitish jarayonida maxsus metodik yondashuvlardan foydalanish talab etiladi. Bunda talabalarning individual qobiliyatlari, musiqiy eshitish darajasi, ritmni his qilish qobiliyati va ijodiy tafakkuri hisobga olinadi. Mashg‘ulotlar davomida cholg‘uni to‘g‘ri ushlash, o‘tirish holati, qo‘l harakatlarini erkin bajarish, torlarga aniq zarb berish kabi boshlang‘ich texnik ko‘nikmalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Shu bilan birga, murakkab kuylarni ijro etish orqali talabalar mahorati yanada rivojlantiriladi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham katta samara beradi. Asosan, video materiallar, nota dasturlari, interaktiv mashg‘ulotlar hamda amaliy ko‘rsatmalar orqali talabalar bilimini mustahkamlash mumkin. Ansambl va yakka ijro mashqlari esa ijrochining sahna madaniyatini, eshitish qobiliyatini va ijodiy faolligini rivojlantiradi. Bundan tashqari, improvizatsiya elementlari bilan ishlash talabalarni mustaqil fikrlashga va yangi musiqiy yechimlarni topishga o‘rgatadi.


Dutor ijrochiligida muvaffaqiyatga erishish uchun muntazam mashq qilish muhim omil hisoblanadi. Talabalar tomonidan turli janrdagi kuy va maqomlarni ijro etish orqali ularning texnik va badiiy imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, xalq kuylarini o‘rganish milliy musiqa merosiga hurmat va qiziqishni oshiradi. O‘qituvchi esa mashg‘ulot davomida talabaning ijrosini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berib boradi.

Bakalavriat bosqichida musiqa ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun dutor cholg‘usi bo‘yicha ijrochilik tayyorgarligini rivojlantirish muhim pedagogik jarayonlardan biri hisoblanadi. Mazkur tayyorgarlik jarayonida talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ijrochilik ko‘nikmalari, kasbiy mahorati hamda pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsiy sifatlarini shakllantirish asosiy vazifalardan sanaladi. Shu nuqtai nazardan, o‘quv jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dutor ijrochiligini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar talabalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Dastlab oddiy texnik mashqlar orqali qo‘l harakatlari, tovush sifati va ritmik aniqlik ustida ishlanadi. Keyingi bosqichlarda esa murakkab kuy va maqomlarni ijro etish orqali talabalar ijodiy hamda texnik mahoratini yanada mustahkamlaydi. Bu jarayon talabaning mustaqil ishlash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, ta’lim davomida audio va video materiallardan foydalanish, interaktiv usullarni qo‘llash, ansambl va yakka ijro mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quv samaradorligini oshiradi. Bunday texnologiyalar orqali talabalar musiqiy tafakkurini kengaytiradi, sahna madaniyatini egallaydi va ijrochilik tajribasini boyitadi. Ayniqsa, xalq kuylarini ijro etish davomida milliy musiqa an’analariga hurmat va qiziqish yanada kuchayadi.

Dutor ijrochiligida kasbiy mahoratni rivojlantirish uzluksiz mashq va izlanishni talab qiladi. Talabaning texnik imkoniyatlari, eshitish qobiliyati va badiiy didi muntazam mashg‘ulotlar orqali shakllanib boradi. O‘qituvchining to‘g‘ri metodik yondashuvi esa talabaning individual qobiliyatlarini ochib berishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi (2-rasm).



1. Applikatura - ushbu atama nemis tilidan olingan bo‘lib, “bosmoq” degan ma’noni anglatadi. Bu jarayon ijro davomida eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki biror nota aniq bosilib ijro etilmasa, uning eshitilishi noohangdosh (falsh) bo‘lishi mumkin.
2. Dutor ijrochiligida o‘ng va chap qo‘l harakatlarining o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijro jarayonining sifatli va ravon chiqishi aynan ikki qo‘lning bir-biriga mos harakat qilishiga bog‘liq bo‘ladi. Dastlabki o‘quv bosqichida o‘ng va chap qo‘lning vazifalari alohida mashqlar orqali o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘ng qo‘lning zarb berish usullari hamda chap qo‘lning pardalarni aniq bosish harakatlari bosqichma-bosqich shakllantiriladi.
3. Keyingi mashg‘ulotlarda esa ikki qo‘l harakatlarini birgalikda boshqarish ustida ishlanadi. Sozanda kuy ijro etayotganda o‘ng qo‘lning ritmik harakati bilan chap qo‘lning tovushlarni aniq hosil qilishi o‘zaro mos bo‘lishi lozim. Agar ijrochi e’tiborini faqat bir qo‘l harakatiga qaratib, ikkinchi qo‘l faoliyatini nazorat qilmasa, ijroda turli xatolar va noaniqliklar yuzaga keladi.
4. Shu sababli dutor chalishni o‘rganishda har ikki qo‘lning erkinligi, aniqligi va uyg‘un harakatiga muntazam ravishda e’tibor berish talab etiladi. Bunday mashqlar ijrochining texnik imkoniyatlarini kengaytirib, kuylarni yanada mazmunli va sifatli ijro etishga yordam beradi.
5. Ijro jarayonida uchraydigan asosiy kamchiliklardan biri - chap qo‘l barmoqlarining almashinuvi bilan o‘ng qo‘lning tovush hosil qilish harakati o‘rtasidagi uyg‘unlikning buzilishidir. Masalan, birinchi tovush chalingandan so‘ng ikkinchi tovush o‘ng qo‘l bilan ijro etiladi, biroq chap qo‘l barmog‘i kerakli pardani o‘z vaqtida bosishga ulgurmaydi. Natijada tovush to‘liq eshitilmaydi yoki xira, bo‘g‘iq holatda chiqadi. Ayrim hollarda buning teskarisi ham kuzatiladi: chap qo‘l harakati o‘z vaqtida bajariladi, ammo o‘ng qo‘l zarbasi kechikib qoladi. Yana bir muammo - pardadan pardaga o‘tish jarayonida qo‘llar harakatining mos kelmasligidir. Bunda chap qo‘l barmoqlari yangi pardaga tez o‘tsa-da, o‘ng qo‘l zarbani o‘z vaqtida bera olmaydi yoki aksincha holat yuz beradi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun qo‘llar harakatini muvofiqlashtirishga qaratilgan mashqlar, ayniqsa, gammalar ustida muntazam ishlash tavsiya etiladi.
6. Ushbu dutor cholg‘usi uchun maxsus zarblarning (shtrixlarning) uyg‘unligi
7. Dutorni ushlashda pastki qovurg‘a o‘ng oyoq soni ustiga joylashtiriladi. Ustki qovurg‘a esa o‘ng qo‘l tirsagiga yaqin bilak qismi bilan tutib turiladi. Bunday holatda cholg‘u qopqog‘i biroz yuqoriga yo‘nalgan bo‘ladi va dutor dastasining uchi chap yelka darajasiga tenglashadi. Dutor dastasi chap qo‘lning birinchi barmog‘i katta va o‘rta bo‘g‘inlari oralig‘iga to‘g‘ri keladi, barmoqlar esa yengil bukilgan holda pardalar ustiga joylashadi. Chap qo‘l barmoqlarining qaysi pardani bosishi nota belgilari ustida raqamlar orqali ifodalanadi. Ikkinchi torni ijro etishda ko‘pincha bosh barmoqdan foydalaniladi.
8. Musiqa cholg‘usida tovush hosil qilish usuli zarb deb ataladi. Ijro etilayotgan asarning ifodaviyligi va jozibadorligi ko‘pincha tanlangan zarb turiga bog‘liq bo‘ladi. Dutor ijrosida turli xil zarblar qo‘llanilib, ular asarga o‘ziga xos ohang va rang-baranglik beradi.
9. Ulardan biri - aylanma zarb bo‘lib, u terma zarbga o‘xshash tarzda aniq va bir maromda bajariladi. Bunda ko‘rsatkich va bosh barmoq navbatma-navbat pastga va yuqoriga harakatlanib, tez va uzluksiz tovush hosil qiladi (3-rasm).



Terma zarb - bu zarb turida barmoqlar harakati aniq, bir maromda va bir xil kuch bilan bajariladi. Bunda ko‘rsatkich va bosh barmoqlar ketma-ket pastga hamda yuqoriga harakatlanib, tovush hosil qiladi. So‘ngra bosh barmoq va ko‘rsatkich barmoq navbatma-navbat yuqoriga ko‘tarilish orqali zarb davom ettiriladi. Bosh barmoq “b”, ko‘rsatkich barmoq esa “k” harfi bilan ifodalanadi (4-rasm).

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ



Teskari zarb - bu usulda harakatlar teskari tartibda amalga oshiriladi: ko‘rsatkich barmoq pastga, bosh barmoq yuqoriga, so‘ng yana ko‘rsatkich barmoq yuqoriga va pastga yo‘naltiriladi. Keyingi bosqichlarda bosh barmoq yuqoriga, ko‘rsatkich barmoq esa navbat bilan yuqori va past harakatlarda ishtirok etadi. Bu zarb turi ijro jarayonida ketma-ketlik va ritmik almashuv asosida hosil qilinadi (5-rasm).



Tremolo - bir vaqtning o‘zida olingan bir yoki ikki tovushni ko‘rsatkich barmoq uchi yordamida ketma-ket, juda tez va uzluksiz tarzda bir necha marta ijro etish usulidir. Bu ijro usuli tovushga titroq va davomiylik xususiyatini beradi. Ushbu usul odatda quyidagicha belgilanadi (6-rasm).



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dutor ijrochiligi o‘zbek milliy cholg‘u san’atining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning nazariy va amaliy asoslari qator olimlar hamda amaliyotchi ijrochilar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur mavzuni o‘rganishda R.M. Xojiyevaning “Dutor darsligi” (2007) muhim metodik manba hisoblanadi. Ushbu darslikda dutor cholg‘usining tuzilishi, ijro holati, tovush hosil qilish usullari, barmoq harakatlari va dastlabki ijrochilik mashqlari batafsil yoritilgan. Muallif dutor ijrochiligida texnik ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi.

A. Abdurashidovning “O‘zbek xalq cholg‘ulari tarixi va ijrochiligi” asarida milliy cholg‘u asboblarining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda ijrochilik an’analari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Asarda dutor cholg‘usining xalq musiqa madaniyatidagi o‘rni va uning zamonaviy ijrochilik maktablari rivojiga qo‘shayotgan hissasi yoritilgan.

Y. Rajabiyning “O‘zbek xalq musiqasi” asari o‘zbek milliy musiqasining nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Muallif xalq kuylarining ijro uslublari, ularning shakllanish jarayonlari va milliy cholg‘ular bilan bog‘liq xususiyatlarini yoritgan. Ushbu manba dutor repertuarining shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega.

G. Muhamedovaning “Dutor” nomli o‘quv qo‘llanmasida dutor ijrochiligining amaliy jihatlari, mashq tizimlari va ijrochilik malakalarini rivojlantirish usullari bayon etilgan. Mazkur manba yosh ijrochilarning texnik mahoratini shakllantirishda samarali metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asarida dutor uchun mo‘ljallangan kuy va mashqlar jamlangan bo‘lib, ular o‘quvchilarning ijro texnikasini rivojlantirish, musiqiy tafakkurini kengaytirish va sahnaviy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlarini o‘rganishda Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asari muhim metodik manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur to‘plamda dutor uchun mo‘ljallangan kuylar, mashqlar va o‘quv repertuarlari jamlangan bo‘lib, ular ijrochilarning texnik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muallif asarda dutor chalish jarayonida tovush sifatini shakllantirish, barmoq harakatlarini erkinlashtirish, ritmik aniqlikni ta’minlash va musiqiy ifodaviylikka erishish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Sh. Shodiyeva dutor ijrochiligini o‘qitishda bosqichma-bosqich yondashuvni tavsiya etadi. Jumladan, dastlabki mashg‘ulotlarda o‘quvchilarda to‘g‘ri ijro holatini shakllantirish, chap va o‘ng qo‘l harakatlarini muvofiqlashtirish hamda oddiy mashqlar orqali texnik tayyorgarlikni rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Keyingi bosqichlarda esa murakkabroq kuylar va turli xarakterdagi asarlar ustida ishlash orqali ijrochilik mahoratini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Asarda keltirilgan mashqlar tizimi o‘quvchilarning barmoq texnikasini rivojlantirish, tezkorlikni oshirish va dutorning ijro imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy kuylar asosida tuzilgan o‘quv repertuari yosh ijrochilarda milliy musiqa merosiga qiziqish uyg‘otish bilan birga, ularning badiiy-estetik dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, A. Abdurashidovning “O‘zbek xalq cholg‘ulari tarixi va ijrochiligi” asarida dutorning tarixiy taraqqiyoti va ijrochilik an’analari yoritilgan bo‘lsa, Y. Rajabiyning “O‘zbek xalq musiqasi” asarida xalq kuylarining badiiy xususiyatlari va ularni ijro etish usullari tahlil qilingan. O. Matyoqubovning “Maqomot” asarida esa maqom ijrochiligi bilan bog‘liq nazariy qarashlar bayon etilib, dutor ijrochiligining professional rivojlanishiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Tahlil qilingan manbalar orasida Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asari dutor ijrochiligining aynan amaliy-texnik jihatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda tavsiya etilgan mashqlar va repertuar namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning texnik tayyorgarligini oshirish, ijro madaniyatini shakllantirish hamda dutor san’atining an’anaviy ijrochilik usullarini samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli mazkur tadqiqotda Sh. Shodiyevaning metodik qarashlari dutor ijrochiligini rivojlantirishning muhim nazariy va amaliy asosi sifatida qabul qilindi.

O. Matyoqubovning “Maqomot” asarida maqom san’atining nazariy asoslari va ijrochilik xususiyatlari yoritilgan. Maqom yo‘llarini dutorda ijro etish texnikasi va badiiy ifoda vositalari haqida berilgan ma’lumotlar dutor ijrochiligini rivojlantirishda muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot davomida dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e’tibor qaratish ijrochilik mahoratini rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dutor chalishni o‘rgatish jarayonida ijro holati, qo‘l va barmoq harakatlarining to‘g‘ri shakllantirilishi, ritmik aniqlik, tovush sifati va musiqiy ifodaviylik ustida muntazam ishlash o‘quvchilarning texnik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asarida tavsiya etilgan mashqlar va repertuar namunalari o‘quvchilarning ijro texnikasini rivojlantirishda samarali metodik vosita ekanligi kuzatildi. Ayniqsa, bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi mashqlar tizimi barmoqlar harakatchanligini oshirish, tovushning ravon va aniq chiqishini ta’minlash hamda ijrochilik malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dutor ijrochiligini o‘qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar ulushini ko‘paytirish, individual yondashuvni qo‘llash va milliy kuylar asosidagi repertuardan samarali foydalanish o‘quvchilarning ijodiy faolligi hamda musiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, muntazam mashq qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ijrochilikdagi texnik qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkinligi aniqlandi.

Olingan natijalar dutor ijrochiligi ta’limida amaliy-texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa kelgusida malakali ijrochilarni tayyorlash, milliy cholg‘u san’atini rivojlantirish va yosh avlodga milliy musiqa merosini yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga alohida e’tibor qaratish milliy musiqa san’atini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Ijrochilik jarayonida to‘g‘ri o‘tirish holati, qo‘l va barmoqlar texnikasi, tovush hosil qilish usullari, ijro mahorati hamda repertuar bilan ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish dutor ijrochilarining kasbiy

salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, an'anaviy ijrochilik maktablari tajribasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish yosh avlodning milliy cholg'u san'atiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Natijada, dutor ijrochiligining amaliy-texnik asoslarini ilmiy va metodik jihatdan rivojlantirish ijrochilik sifatini yuksaltirish, milliy musiqiy merosni asrab-avaylash hamda uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa dutor san'atining milliy va xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xojiyeva R.M. Dutor darsligi. – 2007-yil.
2. Abdurashidov A. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi va ijrochiligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.
3. Rajabiy Y. O'zbek xalq musiqasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 320 b.
4. Muhamedova G. Dutor. – Toshkent, 2014-yil.
5. Shodiyeva Sh. Dutor sadolari.
6. Abdurashidov A. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi va ijrochiligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.
7. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004. – 368 b.
8. Karomatov F. O'zbek cholg'u musiqasi tarixi. – Toshkent: Fan, 1972. – 214 b.
9. Jabborov A. O'zbek xalq musiqa madaniyati tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 280 b.
10. Rasulov A. Dutor ijrochiligi va uning pedagogik asoslari. – Toshkent: Musiqa, 2020. – 184 b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna
Nukus davlat pedagogika instituti
13.00.01 - Pedagogika nazariyasi.
Pedagogika ta’limotlari tarixi ixtisosligi bo‘yicha 1-kurs doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari har tomonlama ilmiy asosda tahlil qilinadi. Pedagogik texnikaning nazariy va amaliy asoslari, ularni shakllantirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar, milliy va xorijiy tajribalar, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari keng yoritiladi. Empirik tadqiqotlar natijalari va tanqidiy tahlillar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik texnikaning o‘rni va ahamiyati aniqlanadi. Maqolada ilgari surilgan xulosalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda amaliy ko‘rsatmalar sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnika, o‘qituvchi tayyorlash, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetensiya.

Abstract: This article provides a comprehensive scientific analysis of technologies for developing pedagogical techniques in future teachers. The theoretical and practical foundations of pedagogical technique, advanced approaches to its formation, national and international experiences, and the possibilities of applying modern innovative technologies are thoroughly examined. Based on empirical research findings and critical analysis, the role and significance of pedagogical technique in the professional training of future teachers are determined. The conclusions presented offer practical recommendations for organizing the educational process effectively.

Key words: pedagogical technique, teacher training, innovative technologies, professional competence.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются технологии формирования педагогической техники у будущих учителей на научной основе. Подробно рассматриваются теоретические и практические основы педагогической техники, современные инновационные подходы, национальный и зарубежный опыт, а также возможности внедрения новых технологий. На основе эмпирических исследований и критического анализа определяются роль и значение педагогической техники в профессиональной подготовке будущих педагогов. Представленные выводы служат практическими рекомендациями по эффективной организации учебного процесса.

Ключевые слова: педагогическая техника, подготовка учителей, инновационные технологии, профессиональная компетентность.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri - bo‘lajak o‘qituvchilarda yuqori kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bu jarayon o‘qituvchining nafaqat nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalariga, balki pedagogik texnikani chuqur egallashiga ham bevosita bog‘liq. Chunki pedagogik texnika o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot qilish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim jarayonini motivatsion va interaktiv tarzda olib borishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning mazmun-mohiyatini aniqlash, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta’lim tizimining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada pedagogik texnikani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari, empirik tadqiqotlar natijalari va tanqidiy tahlillar asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar bayon qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik texnikaning shakllanishi va uni bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlantirish masalasi pedagogika fanining muhim va doimiy yangilanib boradigan tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar pedagogik texnika tushunchasining turli nuqtai nazarlardan yondashuvini, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy talablarga moslashuvini ko‘rsatadi.

Pedagogik texnika dastlab Yevropa pedagogikasida, xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllana boshlagan bo‘lib, bu borada nemis olimi V. Lay pedagogik texnika atamasini ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan. U pedagogik texnikani o‘qituvchining kasbiy mahorati va amaliy faoliyatidagi o‘ziga xos uslubi sifatida talqin qilgan. Keyinchalik rus pedagogikasida S. T. Shatskiy, A. S. Makarenko, V. A. Sukhomlinskiy, V. M. Borovikov kabi olimlar pedagogik texnika tushunchasini o‘qituvchining muloqot madaniyati, nutq texnikasi, mimika, pantomimika, emotsional ta’sir ko‘rsatish vositalari majmui sifatida kengaytirganlar [1]. Ularning izlanishlarida pedagogik texnika nafaqat metodik ko‘nikma, balki o‘qituvchi shaxsining pedagogik mahorati va madaniyatini ifodalovchi kompleks sifatida e’tirof etiladi.

Shu bilan birga, pedagogik texnikaning rivojlanishida XX asr o‘rtalaridan boshlab psixologiya va sotsiologiya fanlarining integratsiyasi muhim o‘rin egalladi. M. I. Mahmutov, V. V. Serikov, I. P. Podlasiy, N. F. Talyzina kabi olimlar pedagogik texnikani o‘qituvchining kasbiy kommunikativ kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida o‘rganib, uni o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita deb hisoblashgan. Ularning tadqiqotlarida pedagogik texnika o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, psixologik muhit, didaktik vazifalarning samarali hal qilinishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlangan. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnika o‘qituvchining har bir kasbiy harakatida, o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish jarayonida, shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish va refleksiya qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar pedagogik texnika va uni shakllantirish texnologiyalariga yangi mazmun va zamonaviy talablarga mos yondashuvlarni olib kirdi. Respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik texnikaning mazmuni, uning o‘qituvchilik kasbining asosiy komponenti sifatida shakllanishi, o‘qituvchi shaxsining kasbiy madaniyati va mahoratini oshirishdagi roli chuqur o‘rganilgan. Xususan, A. Abduqodirov, M. Jo‘rayev, S. Tursunov, A. Hasanboyeva, D. Mamarasulov, O. Jo‘rayev kabi mahalliy pedagog olimlar pedagogik texnika va uni shakllantirish texnologiyalari bo‘yicha o‘z konseptual yondashuvlarini ishlab chiqdilar. Ularning ishlarida pedagogik texnika o‘qituvchining kasbiy etikasidan tortib, nutq, mimika, pantomimika, kommunikativ madaniyat, konfliktologiya, pedagogik refleksiya kabi ko‘plab tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi alohida ta’kidlanadi [2].

Shu jumladan, zamonaviy pedagogik texnika o‘qituvchining innovatsion texnologiyalarni egallashi, axborot-kommunikatsion kompetensiyasini rivojlantirishi, interaktiv va student-sentrik metodlarni qo‘llashi orqali shakllanadi. Pedagogik texnikani shakllantirishda tarixiy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy konseptual model va texnologiyalarning ham ahamiyati ortib bormoqda. Masalan, kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik texnikaning kasbiy kompetensiyalarning ajralmas qismi sifatida qaralishi, o‘qituvchi shaxsiyati, kasbiy qiyofasi, sog‘lom psixologik muhit yaratishdagi o‘rni, kommunikativ va innovatsion salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilishi zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishiga aylangan. Bu borada Yevropa va AQSHda olib borilgan tadqiqotlar, xususan, J. Hattining Visible Learning, D. Kolbning Experiential Learning nazariyalari pedagogik texnikaning o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali o‘zaro ta’sir, tajriba asosida o‘qitish, reflektiv yondashuvlar orqali shakllanishini asoslab beradi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kontent tahlili, umumlashtirish hamda empirik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, milliy va xorijiy ilmiy manbalar qiyosiy o‘rganilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy jihatdan baholandi. Olingan natijalar asosida pedagogik texnikani rivojlantirishning samarali yondashuvlari umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnika o‘qituvchining kasbiy faoliyatida o‘quvchilar bilan o‘zaro samarali muloqot, motivatsion muhit, ijtimoiy-psixologik atmosfera yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Finlyandiyada olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik texnika elementlarini shakllantirish uchun interaktiv mashg‘ulotlar, rol o‘yinlari, treninglar, mentorlik dasturlari keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Bu usullar orqali o‘qituvchilar o‘z pedagogik nutqi, emotsional barqarorligi, konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalari, stressga chidamlilik, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda ham pedagogik texnikani shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar, masofaviy o‘qitish platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv ta’lim resurslari, multimedia vositalari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik texnikasini rivojlantirishda samarali vositaga aylangan.

Empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilar bilan olib borilgan treninglar, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, simulyatsion mashqlar ularning pedagogik texnikasi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan so‘rovnomalar va kuzatuvlar natijasida interaktiv metodlar va AKT vositalari yordamida o‘qituvchilar pedagogik texnikaning asosiy elementlarini tezroq va samaraliroq o‘zlashtirayotgani aniqlangan [4]. Shu bilan birga, pedagogik texnikani shakllantirishda milliy qadriyatlar, ta’lim an’analari, madaniy o‘ziga xosliklarni hisobga olish ham muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek pedagogikasida qadimdan o‘qituvchi shaxsiga hurmat, ustoz-shogird an’analari, o‘zaro muloqot madaniyati, axloqiy-pedagogik qadriyatlar pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlari sifatida qaralgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa ushbu qadriyatlarni innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, o‘qituvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning kasbiy motivatsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatini oshirish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda. Pedagogik texnika va uni shakllantirish texnologiyalari bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik texnika elementlarini egallashda individual yondashuv, differensial o‘qitish, refleksiya va o‘zini o‘zi baholash metodlarini keng qo‘llash zarurligini ta’kidlaydilar.

Ayrim tadqiqotlarda pedagogik texnikani shakllantirishda mentorlik, peer-to-peer training, kasbiy portfoliolar, faol amaliyot dasturlarining samaradorligi yuqori baholanadi. Shu bilan birga, tanqidiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnikani shakllantirishda faqatgina an’anaviy o‘qitish usullari yoki nazariy bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilar uchun o‘zini o‘zi rivojlantirish, kasbiy refleksiya, kreativ yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni faol o‘zlashtirish, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ishlab chiqilgan innovatsion pedagogik dasturlar, masalan, blended learning, flipped classroom, gamifikatsiya, problem-oriented learning, case-study, action research kabi metodlar pedagogik texnikani shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekani ko‘plab ilmiy manbalarda ta’kidlangan [5].

Tanqidiy nuqtai nazardan, ba’zi tadqiqotchilar pedagogik texnikaning shakllanishi faqatgina o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari yoki individual xususiyatlariga bog‘liq emasligi, balki ta’lim muassasasining madaniy muhitiga, rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashiga, o‘quvchilar va ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik darajasiga ham bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Jumladan, J. Dewey, L. S. Vygotskiy, A. Bandura kabi olimlarning sotsiokultural va konstruktivistik nazariyalari asosida pedagogik texnikaning shakllanishi jamiyat, muhit, ijtimoiy guruhlar, professional hamjamiyatlar bilan o‘zaro aloqador holda kechishi ilmiy asoslab beriladi. Bu nuqtai nazardan, pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqishda tizimli, integrativ va kontekstual yondashuvlarni qo‘llash lozimligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Milliy dastur”, “Rivojlanish strategiyasi” doirasida pedagogik texnika va uni shakllantirish texnologiyalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar uchun maxsus kurslar, treninglar, ustaxonalar, amaliyot dasturlari, innovatsion laboratoriyalar tashkil etilmoqda. Bu jarayonlarda o‘qituvchilarning pedagogik texnikasini shakllantirish va doimiy rivojlantirish uchun zamonaviy metod va texnologiyalar, kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlari, portfoliolar, monitoring va feedback tizimlari joriy qilinmoqda.

Tanqidiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnika va uni shakllantirish texnologiyalari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliyotlarda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba’zi pedagogik oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy yondashuvlarga haddan tashqari tayanish, innovatsion texnologiyalarni yetarli darajada joriy qilmaslik, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida motivatsion muhitning pastligi, pedagogik texnikani baholash mezonlarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi kabi muammolar uchrab turadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda infratuzilma va resurslar, o‘qituvchilarning axborot savodxonligi, kasbiy rivojlanish ehtiyojlari, ijtimoiy-psixologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, pedagogik texnikani shakllantirishda tizimli, kompleks va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish, empirik tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, tarixiy va zamonaviy yondashuvlar, mahalliy va xorijiy tajribalar, empirik tahlillar pedagogik texnikaning o‘qituvchi kasbiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur ochib beradi. Shu bilan birga, pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish, zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish, milliy qadriyatlar va an’analarni hisobga olish, o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasini muntazam rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti ekanligi ilmiy asoslab beriladi [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar va empirik tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogik texnika o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, motivatsion va kreativ muhit yaratish, individual yondashuvni ta’minlash, innovatsion texnologiyalarni faol qo‘llash imkonini beradi. Pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari tarixiy yondashuvlar, mahalliy va xorijiy tajribalar, zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalar, milliy qadriyatlar va an’analarni uyg‘unlashtirish asosida rivojlanmoqda.

Empirik tadqiqotlar natijalari pedagogik texnikani shakllantirishda interaktiv mashg‘ulotlar, treninglar, amaliyot dasturlari, mentorlik, refleksiya, kasbiy portfoliolar, AKT vositalaridan samarali foydalanish muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, pedagogik texnikani shakllantirishda tizimli, kompleks va individual yondashuvlarni joriy etish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni rivojlantirish, kasbiy rivojlanish va o‘zini o‘zi baholash imkoniyatlarini kengaytirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalarini yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni faol joriy etish, empirik tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha izchil tadqiqotlar olib borish zarur. Maqolada ilgari surilgan xulosalar va amaliy tavsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorligini takomillashtirish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shatskiy S.T. Pedagogik texnika va o‘qituvchi shaxsining rivojlanishi. Moskva, 1980.
2. Jo‘rayev M. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik texnikaning ahamiyati. Toshkent, 2016.
3. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge, 2009.
4. Abduqodirov A. Pedagogik texnika va o‘qituvchi madaniyati. Toshkent, 2018.
5. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall, 1984.
6. Hasanboyeva A. O‘qituvchini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o‘rni. Ta’lim, 2021.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA O'RTASIDAGI HAMKORLIK MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIREKTOR O'RINBOSARINING ROLI



UDK: 373.2:005.95

Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi
Oqqo'rg'on tumani 19-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan oila o'rtasidagi hamkorlik barqaror yo'lga qo'yilmasa, bolalarning tarbiyaviy muhitdagi izchilligi hamda boshqaruv qarorlarining uyg'unligi susayadi. Shu sababli tadqiqotning maqsadi direktor o'rinbosarining muvofiqlashtiruvchi, nazorat qiluvchi va tahliliy funksiyalari hamkorlik menejmentini qay darajada takomillashtirishini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot uch bosqichli pedagogik eksperiment asosida olib borildi: aniqlovchi (pretest), shakllantiruvchi intervensiya va nazorat (posttest) bosqichlari. Tajribada 24 nafar ishtirokchi eksperimental guruhga, 24 nafari esa nazorat guruhiga kiritildi; umumiy tanlanma hajmi N=48 ni tashkil etdi. O'lchov vositasining ichki uyg'unligi Cronbach α = 0,78 ko'rsatkichi bilan tasdiqlandi. Deskriptiv tahlil hamda guruhlararo taqqoslash natijalari eksperimental guruhda hamkorlik jarayonlarini rejalashtirish, ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatish va ichki monitoring bo'yicha ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, asosiy o'sish 31,6 %, nazorat guruhida esa 10,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, direktor o'rinbosari tomonidan amalga oshirilgan maqsadli muvofiqlashtirish yig'ilishlar samaradorligini oshirgani, ma'lumot almashuvini yaxshilagani hamda mas'uliyat taqsimotini yanada aniqroq qilgani kuzatildi. Xulosa qilib aytganda, direktor o'rinbosari rolini tizimli boshqaruv bo'g'ini sifatida kuchaytirish maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik sifatini oshiradi. Bu esa ichki nazorat, pedagogik ta'sirning uzluksizligi hamda boshqaruv mezonlarini aniqlashtirishga ilmiy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: aniqlovchi bosqich, ichki monitoring, maqsadli koordinatsiya, ota-onalar bilan sheriklik, pedagogik eksperiment, shakllantiruvchi intervensiya, sifat ko'rsatkichi.

Abstract: Weak coordination between a preschool education organization and the family reduces continuity in the child's educational environment and weakens the consistency of managerial decisions. Therefore, this study examined how the deputy director's coordinating, controlling, and analytical functions contribute to improving cooperation management. The research followed a three-stage pedagogical experiment consisting of a diagnostic (pretest), a formative intervention, and a control (posttest). The experimental group included 24 participants, while the control group also included 24 participants, resulting in a total sample of N=48. The internal consistency of the measurement instrument was confirmed by Cronbach α = 0.78. Descriptive analysis and between-group comparisons revealed significant improvements in planning cooperation, maintaining regular communication with parents, and conducting internal monitoring in the experimental group. According to the findings presented in the table, the main increase reached 31.6 %, compared with 10.4 % in the control group. Furthermore, targeted coordination by the deputy director improved the effectiveness of meetings, information exchange, and the distribution of responsibilities. The findings indicate that strengthening the deputy director's role as a key managerial link enhances the quality of cooperation between preschool education organizations and families. This also contributes to refining internal control criteria, ensuring the continuity of pedagogical support, and improving management mechanisms.

Key words: diagnostic stage, internal monitoring, targeted coordination, partnership with parents, pedagogical experiment, formative intervention, quality indicator.

Аннотация: Недостаточно устойчивое взаимодействие дошкольной образовательной организации и семьи ослабляет согласованность воспитательной среды и снижает эффективность управленческих решений. Поэтому целью исследования стало выявление того, каким образом координирующая, контрольная и аналитическая функции заместителя директора способствуют совершенствованию управления сотрудничеством. Исследование было организовано в форме трёхэтапного педагогического эксперимента: констатирующий (pretest), формирующая интервенция и контрольный (posttest) этапы. В экспериментальную группу вошли 24 участника, в контрольную – 24; общий объём выборки составил N=48. Внутренняя согласованность измерительного инструмента была подтверждена значением Cronbach α = 0,78. Дескриптивный анализ и межгрупповое сравнение показали, что в экспериментальной группе значительно улучшились планирование взаимодействия, регулярность связи с родителями и внутренний мониторинг; согласно данным таблицы, основной прирост составил 31,6 %, тогда как в контрольной группе – 10,4 %. Кроме того, установлено, что целенаправленная координация со стороны заместителя директора сделала совещания, обмен информацией и распределение ответственности более прозрачными и эффективными. Сделан вывод о том, что усиление роли заместителя директора как системного управленческого звена повышает качество сотрудничества между дошкольной образовательной организацией и семьёй. Тем самым исследование вносит вклад в уточнение критериев внутреннего контроля, обеспечение непрерывности педагогического воздействия и совершенствование управленческих механизмов.

Ключевые слова: констатирующий этап, внутренний мониторинг, целевая координация, партнёрство с родителями, педагогический эксперимент, формирующая интервенция, показатель качества.

KIRISH

2024-yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qamrov kengaygan bo'lsa-da, oila bilan hamkorlik menejmenti hali to'liq barqaror boshqaruv mexanizmlariga tayangan holda tashkil etilmagan [1]. PF-6108-son[1] Farmoni hamda 527-son[2] qarorda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va maktabgacha ta'limni boshqarishning institutsional masalalari belgilab berilgan [2]. Shu sharoitda direktor o'rinbosarining koordinatsiya, monitoring va kommunikativ boshqaruv sohasidagi funksiyalari alohida tadqiqot obyekti sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3].

Tadqiqot obyekti – maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmenti [4].

Tadqiqot predmeti – direktor o'rinbosarining mazkur menejmentni takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv funksiyalari [5].

Mavjud tadqiqotlarda ota-onalar bilan hamkorlikning ayrim shakllari yoritilgan bo'lsa-da, ularning direktor o'rinbosari faoliyati bilan bog'liq boshqaruv modeli yetarli darajada ochib berilmagan [6].

Salixova va Mirzayeva direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalarini tavsiflaganlar [7], biroq oila bilan hamkorlikka oid amaliyotlarning rivojlanish dinamikasi tahlil qilinmagan.

Shukurova va Eshonqulova kommunikativ yondashuvlarni bayon etganlar [8], ammo ularni hamkorlik menejmentining o'lchanadigan ko'rsatkichlari bilan bog'lamaganlar. Shu bois mazkur yo'nalishda boshqaruv funksiyalari, pedagogik innovatsiyalar va strategik rejalashtirishning integratsiyasi yetarli darajada yoritilmagan. Tadqiqotning maqsadi direktor o'rinbosarining boshqaruv faoliyati orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- nazariy asoslarni tahlil qilish;
- tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich holatini aniqlash;
- uch bosqichli pedagogik eksperimentni tashkil etish;
- so'rovnoma hamda kuzatuv natijalarini qiyosiy tahlil qilish;
- ANOVA usuli yordamida guruhlararo farqlarni baholash;
- direktor o'rinbosari faoliyati uchun ilmiy asoslangan boshqaruv tavsiyalarini ishlab chiqish.

Asosiy gipotezaga ko'ra, maqsadli koordinatsiya va monitoringni tizimli ravishda amalga oshirish tajriba guruhida hamkorlik menejmenti ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Tadqiqot amaliy tadqiqot hamda pedagogik eksperiment metodlariga asoslangan holda olib borildi.

1 https://lex.uz/ru/docs/-5085999
2 https://lex.uz/uz/docs/-7694451

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini boshqarish masalasi Vygotskiyning rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari bilan bog'liq holda tahlil qilinganda, direktor o'rinbosarining muvofiqlashtiruvchi funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi [9].

Epstein oilaviy ishtirokni maktab, oila va jamoa o'rtasidagi tizimli aloqalar orqali izohlab, boshqaruvning faqat axborot almashinuvi bilan cheklanmasligini nazariy jihatdan asoslab bergan [10].

Hornby esa ota-onalar ta'lim jarayoniga faol jalb etilganda hamkorlikning barqarorlashishini ko'rsatib, individualizatsiya va differensiatsiya tamoyillari boshqaruv qarorlariga integratsiya qilinishi zarurligini ta'kidlagan [11]. Mazkur uch manba birgalikda hamkorlik menejmentini pedagogik innovatsiya sifatida emas, balki ta'lim muassasasini boshqarish tizimining ajralmas funksional tarkibiy qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlar ushbu nazariy yondashuvlarni amaliy mexanizmlar bilan boyitadi, biroq ularning aksariyatida direktor o'rinbosarining aniq boshqaruv roli yetarli darajada yoritilmagan. Hasanov va Qodirova oila bilan hamkorlikning pedagogik asoslarini tahlil qilib, muloqot sifati hamda ota-onalar ishtirokining turli shakllarini muhim omillar sifatida e'tirof etganlar [12].

Karimova va Jo'rayev ota-onalar bilan hamkorlikni boshqarish mexanizmlarini yoritib, strategik rejalashtirish hamda monitoringni ushbu jarayonning markaziy bo'g'inlari sifatida baholaganlar [6].

Salixova va Mirzayeva direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalarini ta'kidlaganlar, biroq ushbu kompetensiyalarning oila bilan hamkorlik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib bermaganlar [7].

Shu sababli boshqaruvni muvofiqlashtirish darajalari, kommunikativ menejment hamda kadrlar siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hanuzgacha yaxlit tizimli model sifatida shakllantirilmagan.

1-jadval: **Adabiyotlarda hamkorlik menejmenti tarkibiy birliklarining qiyosiy talqini**

Manba guruhi	Asosiy urg'u	Aniqlangan bo'shliq
Xorijiy nazariya	oilaviy ishtirok va rivojlantiruvchi muhit	direktor o'rinbosari funksiyasi ajratilmagan
Mahalliy tadqiqotlar	kommunikativ menejment va monitoring	ta'lim sifati indikatorlari bilan bog'lanmagan

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, nazariy modelda oilaviy ishtirok, boshqaruvni muvofiqlashtirish hamda ta'lim sifati indikatorlari yagona tizim sifatida o'zaro bog'lanmagan [13].

Bakirova va Tursunova kommunikativ menejmentni muhim omil sifatida baholagan bo'lsalar-da, ularning yondashuvida summativ baholash hamda ichki nazorat yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilinmagan [13].

Nurmatova va Xolmatova monitoring tizimini tavsiflaganlar, biroq direktor o'rinbosarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ulushini baholamaganlar [14].

Saidova va Raxmonova pedagogik jamoa hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yoritganlar, ammo hamkorlik madaniyati indikatorlari bilan boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bermaganlar [5].

Shukurova va Eshonqulova samarali aloqa usullarini tavsiflaganlar, biroq ularni hamkorlik menejmentining natijaviy mezonlari bilan bog'lash masalasini ochiq qoldirganlar [8].

Islomova va Mamatqulova hamkorlik madaniyati omillarini yoritib, kompetensiyaviy yondashuvni nazariy jihatdan asoslab berganlar [15].

Kim, Furlong va Dowdy tizimli sharhda oilaviy hamkorlikning o'quv natijalari bilan o'zaro bog'liqligini umumlashtirganlar, biroq maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvi darajasidagi mexanizmlarni alohida tahlil qilmaganlar [16].

Shu nuqtada ilmiy bo'shliq yaqqol namoyon bo'ladi: direktor o'rinbosarining koordinatsiya, monitoring va kommunikativ boshqaruv funksiyalarini hamkorlik menejmenti indikatorlari bilan bog'laydigan qiyosiy model hali ishlab chiqilmagan. Aynan ushbu ilmiy bo'shliq keyingi metodik asoslash uchun mezonlarni belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aniqlovchi bosqichda direktor o'rinbosarining oila bilan hamkorlikni tashkil etishdagi funksiyalari hujjatlar tahlili, kuzatuv va so'rovnoma usullari orqali aniqlashtirildi. Mazkur yondashuv hamkorlik menejmentining amaliy tarkibini tavsiflash imkonini berdi [6].

Shukurova va Eshonqulova oila bilan samarali aloqa o'rnatishning boshqaruv usullarini tizimlashtirganlar [8]. Shu sababli diagnostika savollari strategik rejalashtirish, monitoring hamda kommunikativ muvofiqlashtirish yo'nalishlariga qaratildi.

Tanlanma hajmi Cochran formulasi asosida belgilandi, chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikka oid xulosalar kichik tanlanmalarda tasodifiy og'ishlarga sezgir bo'lishi mumkin.

$$n = \frac{Z^2 \cdot p \cdot q}{e^2} \quad (1)$$

bunda n – zarur tanlanma hajmi; Z – ishonchlilik koeffitsienti; p – hodisa ulushi; q – 1 − p; e – ruxsat etilgan xatolik.

Direktor o'rinbosari, pedagog xodimlar hamda ota-onalar uchun alohida kuzatuv varaqalari ishlab chiqildi. Bu differensiatsiya ma'lumotlarni yagona mezonlar asosida o'zaro taqqoslash imkonini berdi. Shakllantiruvchi intervensiya bosqichida direktor o'rinbosari uch yo'nalishda faoliyat olib bordi: yig'ilishlarni muvofiqlashtirdi, ota-onalar bilan muloqot jadvalini boshqardi hamda qaydlarni refleksiya jurnalida tizimlashtirdi [5].

Bakirova va Tursunova kommunikativ menejmentni oila va ta'lim tashkiloti hamkorligining markaziy bo'g'ini sifatida e'tirof etganlar [13]. Shu sababli o'lchov vositasi hamkorlik madaniyati, o'zini o'zi baholash va javobgarlik indikatorlarini qamrab oldi. So'rovnomaning ishonchliligi Cronbach α koeffitsienti yordamida tekshirildi, chunki uning bandlari o'zaro bog'liq boshqaruv amaliyotlarini o'lchashga qaratilgan.

$$\alpha = \frac{k}{k-1}\left(1 - \frac{\sum_{i=1}^{k} \sigma_i^2}{\sigma_t^2}\right) \quad (2)$$

bunda α – Cronbach koeffitsienti; k – bandlar soni; σ_i^2 – alohida band dispersiyasi; σ_t^2 – umumiy ball dispersiyasi.

Member checking hamda ko'p sikli tahlil intervensiya mazmunini aniqlashtirishga xizmat qildi, chunki ota-onalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar boshqaruv qarorlarini takomillashtirish imkonini berdi. Nazorat (posttest) bosqichida tajriba va nazorat guruhlari t-test hamda bir yo'nalishli ANOVA yordamida qiyoslandi. Mazkur statistik usullar guruhlar o'rtasidagi tafovutlarning ishonchliligini aniqlash imkonini berdi.


Salixova va Mirzayeva direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalari ichki nazorat bilan uzviy bog'liqligini qayd etganlar [7]. Shu asosda Cohen's d effekt hajmi ham hisoblandi. Kuzatuv natijalari pedagogik innovatsiyalar hamda rivojlantiruvchi muhitning o'zaro uyg'unligini ko'rsatdi, chunki ota-onalar ishtiroki faollashgan guruhda hamkorlik va kommunikatsiyaning uzluksizligi sezilarli darajada kuchaydi.

Keyingi bo'limda mazkur bosqichlarning statistik natijalari hamda guruhlararo tafovutlar izchil tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2-jadval: **Respondentlar tarkibi va hamkorlik menejmenti bo'yicha dastlabki holat**

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (n=24)	Tajriba guruhi (n=24)	p
Direktor o'rinbosari bilan muntazam aloqa ulushi, %	41,7	43,8	0,781
Ota-onalar yig'ilishida qatnashish, %	54,2	52,1	0,836
Yozma fikr bildirish amaliyoti, %	29,2	31,3	0,847




1-rasm: **Respondentlar tarkibi va hamkorlik menejmenti bo'yicha dastlabki holat qiyosiy diagrammasi**

3-jadval: **Hamkorlik menejmenti ko‘rsatkichlarining pretest va posttest dinamikasi**

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi M±SD	Tajriba guruhi M±SD	t	p
Hamkorlik menejmenti balli, pretest	2,61±0,34	2,63±0,31	0,21	0,835
Hamkorlik menejmenti balli, posttest	2,88±0,37	3,46±0,29	6,42	0,001
Ota-onalar bilan kommunikativ boshqaruv, posttest	2,74±0,28	3,41±0,26	8,11	<0,001

Izoh: M±SD – o‘rtacha va standart og‘ish



2-rasm: **Hamkorlik menejmenti ko‘rsatkichlarining pretest va posttest dinamikasi qiyosiy diagrammasi**

Hamkorlik menejmenti bo‘yicha pretest natijalari guruhlarning boshlang‘ich ko‘rsatkichlari deyarli teng bo‘lganini ko‘rsatdi. 3-jadvaldagi 2,61 va 2,63 ball direktor o‘rinbosarining koordinatsion faoliyati kuchaytirilishidan oldin guruhlar o‘rtasidagi farqning minimal ekanligini tasdiqlaydi [6].

Shakllantiruvchi intervensiya yakunida tajriba guruhi ko‘rsatkichi 3,46 ballga yetdi, nazorat guruhi esa 2,88 ball bilan cheklangan bo‘lib, xuddi shunday ustunlik ota-onalar bilan kommunikativ boshqaruv ko‘rsatkichlarida ham kuzatildi [13]. Mazkur o‘zgarish direktor o‘rinbosarining monitoring, kommunikatsiya va muvofiqlashtirish funksiyalari yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilinganda yuzaga kelganini ko‘rsatadi [5]. Shu sababli keyingi tahlilda ushbu o‘zgarishlarning barqarorligi hamda ichki izchilligi baholandi.

$$\Delta = \frac{X_{post} - X_{pre}}{X_{pre}} \quad (3)$$

bunda Δ – nisbiy o‘zgarish; X_{post} – posttest ko‘rsatkichi; X_{pre} – pretest ko‘rsatkichi.

(3)-formula asosida hisob-kitob qilinganda, tajriba guruhida hamkorlik menejmenti ko‘rsatkichining nisbiy o‘zgarishi 31,6 %, nazorat guruhida esa 10,4 % ni tashkil etdi. Mazkur farq direktor o‘rinbosari tomonidan amalga oshirilgan maqsadli boshqaruv faoliyatining samaradorligini miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi. O‘zgarishlar nafaqat ballarda, balki ota-onalar bilan hamkorlik shakllarida ham namoyon bo‘ldi. Xususan, yozma fikr-mulohazalar bildirish hamda yig‘ilishlardagi ishtirok ulushi tajriba guruhida sezilarli darajada yuqori bo‘ldi [8].

Shu bilan birga, ichki nazorat va monitoringning muntazamligi ham kuchaydi, chunki kuzatuv varaqalaridagi qaydlarning to‘liqligi oshdi [14]. Bu holat hamkorlik menejmentining tarkibiy qismlari o‘zaro uyg‘un va bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi tizim sifatida faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Cronbach α = 0,78 ko‘rsatkichi so‘rovnoma vositasining ichki uyg‘unligi va ishonchliligini tasdiqladi. 2-jadvaldagi boshlang‘ich tenglik hamda 3-jadvaldagi posttest natijalari birgalikda qo‘llanilgan o‘lchov vositasining barqaror ishlaganini ko‘rsatadi [4].

Direktor o‘rinbosari kompetensiyalariga bag‘ishlangan mahalliy tadqiqotlarda ham aynan shunday boshqaruv funksiyalari alohida ajratib ko‘rsatilgan [7]. Xorijiy tadqiqotlarda esa oilaviy hamkorlikni tizimli muvofiqlashtirish ta’lim natijalari bilan uzviy bog‘liqligi qayd etilgan [10].

Maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida kommunikativ menejmentning kuchayishi ota-onalar bilan aloqani oddiy rasmiy uchrashuvlardan uzluksiz va tizimli boshqaruv jarayoniga aylantirdi [13]. Shu asosda keyingi bo‘limda aniqlangan o‘zgarishlarning nazariy talqini hamda ularning boshqa tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlili keltiriladi.

3-jadvalda aks etgan ijobiy dinamika direktor o'rinbosarining maqsadli koordinatsiyasi va monitoringi hamkorlik menejmentini sezilarli darajada kuchaytirganini ko'rsatadi. Tajriba guruhida kuzatilgan siljishlar 1-jadvalda keltirilgan guruhlararo tafovutlar bilan mazmunan mos keladi, chunki qabul qilingan boshqaruv qarorlari ota-onalar bilan aloqani tasodifiy faoliyatdan tizimli boshqaruv jarayoniga aylantirgan [5]. Bu holat ta'lim muassasasini boshqarishda kommunikativ menejmentning markaziy o'ringa egaligini yana bir bor tasdiqlaydi [13]. Shu sababli olingan natijalar direktor o'rinbosarini faqat ijrochi emas, balki strategik muvofiqlashtiruvchi sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. 1-jadvaldagi foiz ko'rsatkichlari ota-onalar ishtirokining faollashuvi barcha yo'nalishlarda bir xil darajada kechmaganini anglatadi. Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish, uchrashuvlarni rejalashtirish hamda fikr-mulohazalarni qayd etish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan holatlarda hamkorlik menejmenti yanada barqaror shakllangan [6].

Shukurova va Eshonqulova samarali hamkorlikning boshqaruv usullari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatganlar [8], mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi. Biroq faollikning ayrim tarkibiy qismlaridagi tafovutlar ta'lim jarayonida differensial yondashuv tamoyillarini boshqaruv darajasida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Vygotskiyning rivojlantiruvchi muhit haqidagi nazariyasiga ko'ra, tashkilotdagi ichki nazorat va oila bilan hamkorlik o'zaro uyg'unlashgandagina samarali natija beradi [9].

Epstein oilaviy sheriklikni ta'lim natijalari bilan bog'lagan bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida ushbu bog'liqlik direktor o'rinbosarining kundalik muvofiqlashtirish faoliyatiga ko'proq tayanadi [10].

Hornby hamkorlikning muvaffaqiyati ota-onalarning ehtiyojlarini boshqaruv tizimiga integratsiya qilish bilan bog'liqligini ta'kidlagan [11]. Shu nuqtai nazardan, olingan barqarorlik ko'rsatkichlari pedagogik innovatsiyalar boshqaruv mexanizmlari orqali mustahkamlanganini tasdiqlaydi. Natijalarni talqin qilishda ayrim cheklovlarni ham hisobga olish lozim. Xususan, kuzatuv faqat muayyan maktabgacha ta'lim tashkilotlari doirasida olib borilgani sababli hududlararo tafovutlar to'liq yoritilmagan. Shunga qaramay, direktor o'rinbosari strategik rejalashtirish, monitoring va ota-onalar bilan hamkorlikni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirganda, hamkorlik menejmenti ta'lim muassasasini boshqarishning barqaror mexanizmiga aylanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur mexanizmni kadrlar siyosati, ichki nazorat hamda institutsional boshqaruv omillari bilan uzviy bog'liq holda kengroq tahlil qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aniqlovchi bosqichdagi dastlabki holat bilan qiyoslanganda, direktor o'rinbosarining maqsadli koordinatsiyasi hamkorlik menejmentini tizimlashtirib, oila bilan aloqalarning uzviyligini kuchaytirdi. Shakllantiruvchi intervensiya yakunida tajriba guruhida o'zini o'zi baholash, monitoring va kommunikativ boshqaruv o'zaro bog'langan boshqaruv tizimiga aylandi. Ushbu o'zgarish maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tasodifiy aloqalardan strategik rejalashtirish darajasiga olib chiqdi. Mazkur tadqiqot direktor o'rinbosarining rolini hamkorlik menejmentining o'lchanadigan ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqotda ilk bor koordinatsiya, monitoring hamda ota-onalar bilan muntazam muloqot yagona boshqaruv tizimi doirasida boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy mexanizm sifatida talqin qilindi. Shu orqali maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish amaliyoti uchun ilmiy asoslangan model ishlab chiqildi.

Direktor o'rinbosarlari faoliyatida koordinatsion reja haftalik vazifalar, mas'ul shaxslar hamda bajarish muddatlarini yagona hujjatda aks ettirishi maqsadga muvofiq. Ota-onalar bilan hamkorlikni elektron xabarlar, qisqa uchrashuvlar hamda individual maslahatlar orqali muntazam tashkil etish tavsiya etiladi. Monitoring varaqalari esa hamkorlikning ishtirok, ijro va qayta aloqa ko'rsatkichlarini alohida qayd etishga xizmat qilishi lozim. Kelgusidagi tadqiqotlarda direktor o'rinbosarining kadrlar siyosati hamda differensial yondashuv sharoitidagi boshqaruv qarorlarini kompleks o'rganish maqsadga muvofiq. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oilaviy ishtirokning barqarorligini turli hududlar kesimida qiyosiy tahlil qilish hamkorlik menejmentini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yanada aniq boshqaruv mezonlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim qamrovi bo'yicha statistik ma'lumotlar [Elektron resurs]. – URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-sphere-2/education-2 (murojaat sanasi: 30.07.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida https://lex.uz/ru/docs/-5085999
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-avgustdagi 527-son qarori. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida https://lex.uz/uz/docs/-7694451
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar [Elektron resurs]. – URL: https://mdo.uz/ (murojaat sanasi: 30.07.2026).

5. Saidova M., Raxmonova D. Direktor o‘rinbosarining pedagogik jamoa va ota-onalar bilan ishlashdagi roli // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2022. – № 4. – B. 40–46.
6. Karimova N., Jo‘rayev A. Maktabgacha ta’limda ota-onalar bilan hamkorlikni boshqarish mexanizmlari // Ta’lim, fan va innovatsiya. – 2023. – № 2. – B. 18–24.
7. Salixova D., Mirzayeva Z. Maktabgacha ta’lim tashkilotida direktor o‘rinbosarining boshqaruv kompetensiyalari // Pedagogik mahorat. – 2021. – № 3. – B. 33–39.
8. Shukurova M., Eshonqulova D. Oila bilan samarali aloqa o‘rnatishda boshqaruv usullari // Maktabgacha ta’lim. – 2022. – № 3. – B. 14–20.
9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. Epstein J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – 2nd ed. – Boulder, CO: Westview Press, 2018. – 432 p.
11. Hornby G. Parental Involvement in Childhood Education: Building Effective School-Family Partnerships. – Cham: Springer, 2011. – 214 p.
12. Hasanov B., Qodirova M. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligini tashkil etishning pedagogik asoslari // Pedagogik ta’lim. – 2022. – № 4. – B. 45–52.
13. Bakirova G., Tursunova M. Oila va ta’lim tashkiloti hamkorligida kommunikativ menejment // Maktabgacha ta’lim. – 2024. – № 1. – B. 27–34.
14. Nurmatova L., Xolmatova S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ichki nazorat va monitoring tizimi // Pedagogik ta’lim. – 2021. – № 5. – B. 61–67.
15. Islomova Z., Mamatqulova N. Maktabgacha ta’limda hamkorlik madaniyatini shakllantirish omillari // Pedagogik mahorat. – 2023. – № 2. – B. 55–60.
16. Kim Y., Furlong M. J., Dowdy E. School-family partnerships and student outcomes: A systematic review // School Psychology Review. – 2021. – Vol. 50. – № 4. – P. 1–18. DOI: 10.1080/2372966X.2021.1891234.

АДАПТИВНАЯ ГЕЙМИФИКАЦИЯ В ШКОЛЬНОМ ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ

Индира Бахадуровна Ерлепесова
Докторант Нукусского государственного педагогического института им. Ажинияза г.Нукус Узбекистан

Аннотация: В статье рассматривается адаптивная геймифицированная методика обучения физике в школе. Раскрыты её основные компоненты: диагностика, индивидуальные учебные маршруты, уровневые задания, адаптивная поддержка, оперативная обратная связь и рефлексия. Представлены примеры применения данной методики на уроках физики. Определены условия её эффективного использования, педагогический потенциал и основные ограничения.

Ключевые слова: обучение физике, адаптивное обучение, геймификация, индивидуальный учебный маршрут, игровая методика, учебная мотивация, формирующее оценивание, обратная связь, самостоятельность учащихся, цифровые образовательные технологии.

Annotatsiya: Maqolada maktabda fizikani o'qitishning adaptiv geymifikatsiyaga asoslangan metodikasi ko'rib chiqilgan. Uning asosiy tarkibiy qismlari ochib berilgan: diagnostika, individual o'quv marshrutlari, darajaviy topshiriqlar, adaptiv qo'llab-quvvatlash, tezkor teskari aloqa va refleksiya. Fizika darslarida ushbu metodikani qo'llashga oid misollar keltirilgan. Undan samarali foydalanish shartlari, pedagogik imkoniyatlari hamda asosiy cheklovlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: fizikani o'qitish, adaptiv ta'lim, geymifikatsiya, individual o'quv marshruti, o'yinli o'qitish metodikasi, o'quv motivatsiyasi, shakllantiruvchi baholash, teskari aloqa, o'quvchilarning mustaqilligi, raqamli ta'lim texnologiyalari.

Abstract: The article examines an adaptive gamified methodology for teaching physics in schools. Its main components include diagnostics, individualized learning pathways, level-based tasks, adaptive support, immediate feedback, and learner reflection. Examples of its application in physics lessons are presented. The conditions for its effective implementation, pedagogical potential, and key limitations are also identified.

Key words: physics education, adaptive learning, gamification, individualized learning pathway, gamified teaching methodology, learning motivation, formative assessment, feedback, learner autonomy, digital educational technologies.

ВВЕДЕНИЕ

Современное школьное образование ориентировано на повышение качества предметной подготовки, развитие самостоятельности учащихся и расширение использования цифровых технологий. Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года предусматривает вариативность образовательных программ, учёт индивидуальных особенностей учащихся и совершенствование методик преподавания [1].

Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 марта 2021 года № ПП-5032 определяет повышение качества преподавания физики, обновление учебно-методического обеспечения и внедрение современных педагогических технологий в качестве приоритетных задач [2].

Специфика школьного курса физики требует одновременного освоения физических понятий, математических методов решения задач, экспериментальных навыков и применения физических законов в практических ситуациях. Различия в уровне исходной подготовки, темпе работы и учебной мотивации учащихся снижают эффективность использования единого набора заданий. Адаптивная геймифицированная методика позволяет изменять уровень сложности, объём педагогической поддержки и последовательность учебных действий с учётом текущих результатов каждого учащегося. Игровые элементы выполняют навигационную, мотивационную и диагностическую функции.

Цель статьи заключается в определении роли адаптивной геймифицированной методики в школьном обучении физике, характеристике её основных компонентов, педагогических функций, вари-

антов практического применения и условий её эффективной реализации. Геймификация определяется как применение элементов игрового дизайна в контекстах, изначально не являющихся игровыми [3]. В образовательном процессе к таким элементам относятся уровни, миссии, баллы опыта, значки достижений, карта прогресса, командные роли, задания с ограничением по времени и возможность повторного выполнения. Их использование не изменяет предметные цели и содержание учебной программы. Игровая структура делает последовательность учебных действий более понятной, позволяет фиксировать прогресс учащихся и обеспечивает достижение краткосрочных учебных целей.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Метаанализ М. Сайлера и Л. Хомнер выявил небольшие, но статистически значимые положительные эффекты геймификации в отношении когнитивных, мотивационных и поведенческих результатов обучения [4].

Исследование Ш. Бай, К. Ф. Хью и Б. Хуан продемонстрировало средний положительный эффект геймификации на учебные достижения, который зависит от продолжительности педагогического вмешательства, состава игровых элементов и образовательного контекста [5].

Метаанализ М. Ли, С. Ма и Ю. Ши подтвердил важность качественного педагогического проектирования и соответствия игровых механик поставленным образовательным задачам [6].

Систематический обзор исследований в области естественно-научного образования связывает применение геймификации с повышением вовлечённости учащихся, лучшим усвоением понятий, совершенствованием контроля знаний, развитием исследовательской деятельности и сотрудничества [7].

Вместе с тем результаты этих исследований требуют осторожного переноса в практику конкретной школы, поскольку их эффективность зависит от возраста учащихся, специфики учебного предмета, продолжительности обучения и организации педагогического эксперимента.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Адаптивность предполагает изменение индивидуального учебного маршрута на основе результатов диагностики и выполнения учебных заданий. В зависимости от полученных результатов учитель или цифровая образовательная система могут предложить дополнительное объяснение, подсказку, аналогичное задание с изменёнными условиями, задачу повышенного уровня сложности, практический модуль либо повторное изучение отдельного элемента темы. В исследовании Ч.-Х. Чена показано, что использование адаптивной поддержки при изучении понятий скорости и ускорения способствовало улучшению учебных результатов и повышению мотивации отдельных групп учащихся [8].

Исследование Ч. Обиквелу и Н. Ачуфуси-Ака также зафиксировало более высокие образовательные результаты учащихся, обучавшихся с применением адаптивного подхода, в рамках конкретной выборки и условий проведения исследования [9]. Адаптивная геймифицированная методика обучения физике представляет собой педагогическую систему, в которой содержание обучения, уровень сложности заданий, объём педагогической помощи и последовательность учебных действий изменяются в соответствии с текущими результатами учащегося, а игровая структура отражает индивидуальный образовательный маршрут и достигнутые предметные результаты.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Первый компонент – **диагностическая основа.** Перед изучением темы учитель выявляет исходный уровень знаний учащихся, типичные ошибки и готовность к выполнению математических и экспериментальных действий. Краткая диагностика может включать пять–семь заданий, устный опрос, педагогическое наблюдение или цифровое тестирование. По её результатам формируются учебные маршруты различного уровня сложности. Названия маршрутов целесообразно связывать с учебными ролями, например: “Исследователь”, “Аналитик” и “Проектировщик”. Переход между маршрутами определяется степенью освоения конкретных учебных действий.

Второй компонент – **система целей и уровней.** Учебная тема подразделяется на завершённые этапы, каждый из которых соответствует измеримому предметному результату. Например, при изучении темы “Электрический ток” последовательность может включать распознавание элементов электрической цепи, построение схемы, работу с измерительными приборами, применение закона Ома и проектирование электрической цепи с заданными характеристиками. Игровые баллы отражают продвижение учащегося, тогда как предметная оценка основывается на правильности решения, обоснованности ответа и качестве выполнения экспериментальных действий.

Третий компонент – **адаптивная поддержка.** Ошибка при решении физической задачи может быть обусловлена непониманием физического закона, неверным переводом единиц измерения, вычислительной ошибкой либо неправильным чтением электрической схемы. Поэтому оказываемая поддержка должна соответствовать причине возникшего затруднения. Наиболее практичной является трёхступенчатая система: указание направления поиска решения; напоминание необходимой формулы или правила; предоставление частично выполненного образца. Учащийся сохраняет право воспользоваться помощью и выполнить повторную попытку, при этом использование подсказок учитывается при оценке уровня самостоятельности. Четвёртый компонент – оперативная обратная связь. Она позволяет учащемуся понять, какие элементы задания выполнены правильно, где была допущена ошибка и какие действия необходимо выполнить далее. Обзор исследований, посвящённых использованию Kahoot!, показывает положительное влияние оперативной обратной связи на отдельные показатели учебных достижений, динамику урока и отношение учащихся к учебным занятиям [10]. Исследование применения Quizizz при изучении тем “Волны” и “Оптика” также зафиксировало повышение мотивации, интереса к обучению и академической успеваемости участников конкретной выборки [11].

Пятый компонент – **рефлексия.** После завершения каждого уровня учащийся анализирует, что ему удалось понять, какие ошибки были допущены, какая помощь оказалась наиболее полезной и какой способ решения следует использовать при выполнении следующего задания. Таким образом, рефлексия связывает игровое продвижение с осознанным освоением учебных действий. Адаптивная геймификация обеспечивает индивидуализацию освоения общего содержания обучения. Все учащиеся изучают одну и ту же тему и достигают единых образовательных результатов, однако делают это посредством заданий различного уровня сложности и с различным объёмом педагогической поддержки. Кроме того, данная методика способствует поддержанию учебной мотивации благодаря достижимым этапам, наглядной карте прогресса и возможности исправления допущенных ошибок. Познавательная активность развивается посредством выполнения измерений, наблюдений, моделирования, сравнения, объяснения явлений и проверки гипотез. Геймифицированная учебная миссия задаёт практическую цель выполнения этих действий. Самостоятельность учащихся формируется через возможность выбора задания, использования подсказок, повторного выполнения и различных форм представления результата. Степень самостоятельности постепенно возрастает по мере освоения способов учебной деятельности. Формирующее оценивание строится на разграничении игровых и предметных показателей. Баллы, уровни и достижения предоставляют текущую информацию о продвижении учащегося. Итоговая отметка определяется на основе критериев правильности применения физических понятий, обоснованности решения, точности измерений, качества анализа данных, уровня самостоятельности и способности аргументированно объяснить полученный результат.

При изучении темы “Скорость и ускорение” учебный модуль может начинаться с диагностики навыков перевода единиц измерения, чтения графиков и понимания зависимости пути от времени. В случае выявления ошибки учащийся автоматически направляется к соответствующему мини-модулю. В рамках миссии “Диспетчер движения” учащиеся сравнивают движение двух объектов: сначала работают с таблицей, затем анализируют график, после чего определяют участок ускоренного движения и объясняют изменение скорости. Игровые значки присваиваются за точность расчётов, корректный анализ графика и научно обоснованное физическое объяснение. При изучении темы “Закон Ома для участка цепи” миссия “Энергетическая лаборатория” предусматривает сборку виртуальной электрической цепи, изменение напряжения и сопротивления, измерение силы тока и формулирование выявленной закономерности. Интерактивные симуляции позволяют безопасно изменять параметры цепи и анализировать ошибочные варианты соединений.

Возможности виртуального эксперимента при организации лабораторных занятий подробно рассматриваются в работе Ш. Каршибоева [12]. Базовый маршрут включает готовую схему и подробную инструкцию, основной маршрут требует самостоятельной сборки электрической цепи, а продвинутый маршрут предусматривает её проектирование с заданным ограничением силы тока. Междисциплинарные задания могут объединять физику, математику, технологию и проектную деятельность.

STEAM-подход применяется для формирования способности использовать физические знания при решении практических задач [13]. Одним из примеров является проект “Солнечная сушилка”, включающий анализ процессов теплопроводности и конвекции, изучение свойств материалов, построение модели и научное обоснование конструкции. Адаптация реализуется посредством распределения ролей между участниками и изменения уровня сложности заданий.

Первое условие заключается в соответствии игровых механик предметным целям обучения: каждое достижение должно подтверждать умение построить график, выполнить измерение, объяснить физическое явление или проверить выдвинутую гипотезу.

Второе условие связано с прозрачностью критериев перехода между уровнями и выставления итоговой отметки.

Третье условие предусматривает ограничение чрезмерной конкуренции. Предпочтение следует отдавать индивидуальной шкале прогресса, командным достижениям и сравнению текущих результатов учащегося с его предыдущими достижениями.

Четвёртое условие – сочетание цифровых и традиционных средств обучения. Маршрутные карты, карточки уровней и конверты с подсказками позволяют реализовать основные принципы методики даже без использования специализированной цифровой платформы.

Пятое условие заключается в готовности учителя заранее определить типичные затруднения учащихся, разработать вариативные задания, установить основания перехода между уровнями и определить допустимый объём педагогической помощи.

Шестое условие предусматривает регулярную оценку динамики предметных знаний, характера ошибок, уровня самостоятельности, сформированности экспериментальных умений и качества объяснения физических явлений.

К основным ограничениям адаптивной геймифицированной методики относятся эффект новизны, ориентация части учащихся преимущественно на внешнее поощрение, технические затруднения, различия в доступе к цифровым устройствам и дополнительная нагрузка на учителя при подготовке учебных материалов. Внедрение данной методики целесообразно начинать с одного учебного модуля, сопровождая его входной и итоговой диагностикой. При оценке эффективности необходимо учитывать не только уровень игровой активности учащихся, но и достигнутые ими предметные образовательные результаты.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Адаптивная геймифицированная методика может эффективно использоваться для индивидуализации учебного маршрута, поддержания вовлечённости учащихся, обеспечения оперативной обратной связи и развития их самостоятельности. Её педагогическая ценность определяется тем, что каждый игровой элемент непосредственно связан с конкретным учебным действием школьника: уровни отражают постепенное усложнение учебной деятельности, достижения подтверждают освоение необходимых умений, подсказки помогают преодолевать выявленные затруднения, а обратная связь направляет дальнейшую учебную деятельность.

Эффективность данной методики целесообразно оценивать по динамике предметных знаний, качеству решения физических задач и выполнения экспериментов, способности применять физические законы в практических ситуациях, а также по уровню сформированности самостоятельности учащихся. Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой диагностических инструментов, критериев адаптации, цифровых образовательных маршрутов и экспериментальной проверкой эффективности методики в различных классах и при изучении различных разделов школьного курса физики.

Список использованной литературы:

1. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification” // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. 2011. P. 9-15. DOI: 10.1145/2181037.2181040.
2. Sailer M., Homner L. The Gamification of Learning: A Meta-analysis // Educational Psychology Review. 2020. Vol. 32. P. 77-112. DOI: 10.1007/s10648-019-09498-w.
3. Bai S., Hew K. F., Huang B. Does Gamification Improve Student Learning Outcome? Evidence from a Meta-analysis and Synthesis of Qualitative Data in Educational Contexts // Educational Research Review. 2020. Vol. 30. Article 100322. DOI: 10.1016/j.edurev.2020.100322.
4. Li M., Ma S., Shi Y. Examining the Effectiveness of Gamification as a Tool Promoting Teaching and Learning in Educational Settings: A Meta-analysis // Frontiers in Psychology. 2023. Vol. 14. Article 1253549. DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1253549.
5. Kalogiannakis M., Papadakis S., Zourmpakis A.-I. Gamification in Science Education: A Systematic Review of the Literature // Education Sciences. 2021. Vol. 11. No. 1. Article 22. DOI: 10.3390/educsci11010022.
6. Chen C.-H. An Adaptive Scaffolding E-learning System for Middle School Students’ Physics Learning // Australasian Journal of Educational Technology. 2014. Vol. 30. No. 3. P. 342-355. DOI: 10.14742/ajet.430.
7. Obikwelu C. C., Achufusi-Aka N. N. Effect of Adaptive Learning Approach on Academic Achievement of Secondary School Physics Students in Ogidi Education Zone // International Journal of Education and Evaluation. 2024. Vol. 10. No. 4. P. 247-257. DOI: 10.56201/ijee.v10.no4.2024.pg247.257.

8. Wang A. I., Tahir R. The Effect of Using Kahoot! for Learning: A Literature Review // Computers & Education. 2020. Vol. 149. Article 103818. DOI: 10.1016/j.compedu.2020.103818.
9. Capinding A. T. Utilization of Quizizz, a Game-Based Assessment: An Instructional Strategy in Secondary Education Science 10 // European Journal of Educational Research. 2022. Vol. 11. No. 4. P. 1959-1967. DOI: 10.12973/eu-jer.11.4.1959.
10. Каршибоев Ш. Методика современной организации лабораторных занятий по физике // Общество и инновации. 2023. Т. 4. Специальный выпуск 8. С. 94-101. DOI: 10.47689/2181-1415-vol4-iss8/S-pp94-101.
11. Холиков К., Кулиева М., Кайтарова Н., Маматова Ш. О вопросах организации обучения физике на основе подхода STEAM // Общество и инновации. 2025. Т. 6. № 1. С. 91-96. DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp91-96.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA QADRIYATLAR TIZIMINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

UDK: 159.9:37.013
BBK: 88.4:74.00

Taylanova Sh. Z.
P.F.D., professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil etiladi. Kognitiv, emotsional-motivatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-identifikatsion omillarning bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning qadriyatlar psixologiyasi sohasidagi nazariy qarashlari umumlashtiriladi hamda oliy pedagogik ta’lim amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola psixologlar, pedagoglar, metodistlar va dastur ishlab chiquvchilarga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar tizimi, bo‘lajak pedagoglar, psixologik omillar, kognitiv rivojlanish, emotsional intellekt, pedagogik psixologiya, shaxs, motivatsiya.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the key psychological factors influencing the formation of value systems in future pedagogues. The roles of cognitive, emotional-motivational, socio-cultural and personal-identificational factors in shaping the personality of future teachers are examined. The article synthesizes theoretical perspectives of foreign and local scholars in the field of value psychology and develops recommendations for higher pedagogical education practice. The article is intended for psychologists, educators, methodologists and curriculum developers.

Key words: value system, future pedagogues, psychological factors, cognitive development, emotional intelligence, pedagogical psychology, personality, motivation.

Аннотация: В данной статье проводится теоретический анализ ключевых психологических факторов, влияющих на формирование системы ценностей у будущих педагогов. Рассматривается роль когнитивных, эмоционально-мотивационных, социально-культурных и личностно-идентификационных факторов в становлении личности будущего учителя. В статье обобщаются теоретические взгляды зарубежных и отечественных учёных в области психологии ценностей и разрабатываются рекомендации для практики высшего педагогического образования. Статья предназначена для психологов, педагогов, методистов и разработчиков учебных программ.

Ключевые слова: система ценностей, будущие педагги, психологические факторы, когнитивное развитие, эмоциональный интеллект, педагогическая психология, личность, мотивация.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning shiddat bilan rivojlanib borishi ta’lim tizimiga yangi va murakkab talablar qo‘ymoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar fonida pedagogik faoliyatning mazmuni ham keskin o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy ibrat va ma’naviy-axloqiy yo‘naltiruvchi sifatida ham ko‘riladi. Aynan shu nuqtai nazardan, pedagogning o‘z qadriyatlar tizimi uning kasbiy faoliyati samaradorligini, sinf muhitini va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini bevosita belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri (2020) va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” pedagogik kadrlardan nafaqat yuqori kasbiy kompetentlik, balki yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni ham talab etadi. Bu esa bo‘lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimini shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillarni chuqur va tizimli o‘rganishni dolzarb ilmiy muammoga aylantiradi.

Qadriyatlar psixologiyasi sohasida jahon fanida ko‘plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. M. Rokich, G. Allport, S. Shvarts, A. Maslou, D. Super kabi olimlar qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi o‘rni, ularning ierarxik tuzilishi va shakllanish mexanizmlari masalalarini atroflicha tadqiq etganlar.

Mahalliy psixologiya fanida esa B. Qodirov, N. Egamberdiyeva, M. Yo'ldoshev, E. G'. G'oziyev, V. Karimovalarning ilmiy ishlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi masalasida muhim nazariy zamin yaratadi. Shunday bo'lsa-da, bu omillarni kompleks va tizimli tarzda - kognitiv, emotsional, ijtimoiy va identifikatsion jihatlarni birlashtirgan holda - tahlil qiluvchi nazariy ishlar hali yetarli emas.

Maqolaning maqsadi - bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berish va oliy pedagogik ta'lim amaliyoti uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, qadriyatlar psixologiyasiga oid jahon va mahalliy nazariy manbalarni umumlashtirish va tahlil qilish; ikkinchidan, bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillarni to'rt guruhga ajratib ko'rsatish; uchinchidan, ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi va O'zbekiston kontekstidagi o'ziga xosligini yoritish; to'rtinchidan, oliy pedagogik ta'lim amaliyoti uchun ilmiy asoslangan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, bunda bo'lajak pedagoglar qadriyatlar tizimiga ta'sir etuvchi omillar ilk marotaba to'rt komponentli model doirasida - kognitiv, emotsional-motivatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-identifikatsion jihatlarni bir butun sifatida birlashtirgan holda - O'zbekiston milliy-madaniy kontekstida tahlil etiladi. Bunday yaxlit, kompleks yondashuv mavjud adabiyotlarda kam uchraydi va pedagogika psixologiyasi faniga muayyan nazariy hissa qo'shadi.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan tavsiyalar bevosita pedagogika oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga - o'quv dasturlarini takomillashtirish, psixologik xizmat tizimini rivojlantirish, mentorlik dasturlarini joriy etish kabi sohalarda - qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, maqola pedagog-psixologlar, kurs o'qituvchilari va ta'lim menejerlari uchun ham foydali uslubiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Qadriyat" (value) tushunchasi psixologiya faniga nisbatan kech - XX asrning o'rtalarida - kirib kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda u shaxs psixologiyasining markaziy kategoriyalaridan biriga aylangan. Umuman olganda, qadriyatlar shaxsning dunyoqarashida, xatti-harakatlarida va hayotiy qarorlarida yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ular shaxsga nimaning muhim, nimaning to'g'ri yoki noto'g'ri, nimaga intilish kerakligi haqida ichki ma'lumotnoma vazifasini bajaradi (Rokeach, 1973).

M. Rokichning klassik ta'rifiga ko'ra, qadriyat - bu mavjudlikning ma'lum bir holatini yoki xulq-atvorning ma'lum usulini boshqalardan ustun deb bilishning barqaror e'tiqodidir. U qadriyatlarni ikki asosiy turga ajratadi: terminal qadriyatlar (erishmoqchi bo'lgan yakuniy maqsadlar, masalan, baxtli oila, bilim, erkinlik) va instrumental qadriyatlar (bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan xatti-harakat usullari, masalan, halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyat). Pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan bu ikki tur qadriyatning uyg'unligi ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi nafaqat o'z maqsadlarini, balki ularga erishish yo'llarini ham o'quvchilariga namoyish etadi.

S. Shvartsning (1992) qadriyatlarning umuminsoniy nazariyasi bu sohadagi eng yaxlit va keng qo'llaniladigan modellardan biridir. Shvarts o'nta asosiy qadriyat turini ajratib, ular o'rtasidagi mos va ziddiyatli munosabatlarni ko'rsatib beradi. Pedagoglar uchun eng muhim qadriyatlar turkumi - "xayrixohlik" (yaqinlarga g'amxo'rlik qilish) va "universalizm" (barcha odamlarga va tabiatga mehr ko'rsatish) - bir-birini to'ldiruvchi va pedagogik faoliyatning mohiyatini aks ettiruvchi qadriyatlar sifatida alohida ajralib turadi.

G. Allportning (1961) shaxs nazariyasida qadriyatlar insonning eng chuqur motivatsion tuzilmasi sifatida talqin etiladi. Allportning fikricha, yetuk shaxs o'z qadriyatlar tizimini ongli tarzda tuzadi va bu tizim hayotning barcha sohalarida - kasbiy, oilaviy, ijtimoiy munosabatlarda - izchil namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglar uchun bu g'oya ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi: kasbni ongli tanlagan va o'z pedagogik qadriyatlarini anglagan o'qituvchi o'z ishida ancha barqaror va samarali bo'lishi tabiiy.

S. L. Rubinshteynning shaxs va faoliyat birligi konsepsiyasi (1946) qadriyatlarni faoliyat jarayonida shakllanadigan va o'zgaradigan hodisa sifatida ko'radi. Bu yondashuv bo'lajak pedagoglar uchun muhim nazariy xulosa beradi: qadriyatlar bir martalik tushuntirishlar orqali emas, balki doimiy faoliyat - pedagogik amaliyot, o'z ustida ishlash, refleksiya - jarayonida shakllanadi.

A. N. Leontyevning (1977) faoliyat nazariyasida esa qadriyatlar "shaxsiy ma'no" kategoriyasi orqali izohlanadi: insonning faoliyatida ma'no hosil bo'lgan joyda, uzoq muddatda qadriyat paydo bo'ladi.

Qadriyatlarning barqarorligi va o'zgaruvchanligi o'rtasidagi dialektika ham nazariy jihatdan muhim masaladir. Bir tomondan, qadriyatlar shaxsning nisbatan barqaror ichki tuzilmasi hisoblanadi va ular sekin o'zgaradi. Boshqa tomondan, muhit, tajriba va bilimlarning o'zgarishi bilan qadriyatlar ham rivojlanadi, ba'zilari kuchayadi, ba'zilari zaiflashadi, yangilari paydo bo'ladi. Bu dialektikani anglash bo'lajak pedagoglarga o'z qadriyatlar tizimini "qotib qolgan" emas, balki doimiy o'sib boruvchi, hayot bilan birgalikda rivojlanuvchi hodisa sifatida ko'rishga yordam beradi.

Qadriyatlarning tuzilishi ham nazariy jihatdan murakkab masala hisoblanadi. Shvarts (1992) ko‘rsatganidek, qadriyatlar ierarxiyasi odamdan odamga o‘zgaradi, ammo asosiy qadriyatlar to‘plami madaniyatdan madaniyatga nisbatan barqaror. O‘zbekistonda o‘tkazilgan qiyosiy madaniyatshunoslik tadqiqotlari (Karimova, 2008) shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek yoshlarida “oila”, “ta’lim” va “mehnatsevarlik” qadriyatlari terminal qadriyatlar ierarxiyasida doimiy ravishda yuqori o‘rin egallaydi - bu bo‘lajak pedagoglarning kasbiy qadriyat tizimi uchun ham mustahkam, qulay zamin hisoblanadi.

1. Kognitiv omillar

Kognitiv omillar bo‘lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu guruhga, avvalo, tanqidiy fikrlash qobiliyati va refleksivlik kiradi. J. Dyuining “aks ettiruvchi fikrlash” (reflective thinking) konsepsiyasi ta’limda keng qo‘llaniladi: bu nazariyaga ko‘ra, o‘qituvchi o‘z tajribasini doimiy tahlil eta oladigan, sabab-natija bog‘liqligini ko‘ra biladigan va o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqa oladigan shaxs bo‘lmog‘i kerak. Refleksiv fikrlash qobiliyati odamga o‘zining qanday qadriyatlarga asoslanib ish tutayotganini anglash, bu qadriyatlarning manbalarini tushunish va zarur hollarda ularni ongli ravishda o‘zgartirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash - bu shunchaki savollar berish emas, balki mavjud g‘oyalar, e’tiqodlar va qadriyatlarni asos hamda dalillar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish qobiliyatidir. Bo‘lajak pedagog tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lganda, u o‘ziga taqdim etilayotgan qadriyatlarni - jamiyatdan, ommaviy axborot vositalaridan, tengdoshlaridan - ko‘r-ko‘rona qabul qilmaydi, balki ularni chuqur o‘ylab, o‘z shaxsiy tajribasi va bilimi bilan solishtiradi. Bu jarayon ko‘pincha inqirozli - ammo ijodiy - bo‘lib, uning natijasida shakllanadigan qadriyatlar tizimi ancha puxta va barqaror bo‘ladi.

G. Kellyning kognitiv murakkablik nazariyasi (1955) bo‘lajak pedagoglarga ham bevosita taalluqli. Ko‘p qirrali, murakkab tafakkurga ega shaxslar qadriyatlar ziddiyatlarini yanada konstruktiv hal eta oladi, turli nuqtai nazarlarni hisobga oladi va o‘z qadriyatlar tizimini izchilroq tartibga sola oladi. Oddiyroq, bir o‘lchovli tafakkurga ega shaxslarda esa qadriyatlar tizimi ko‘pincha tashqi ta’sirlar ta’sirida beqaror bo‘lib qoladi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida falsafa, etika, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlarini o‘qitish aynan kognitiv murakkablikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv qobiliyatlar - ya’ni o‘z fikrlash jarayonlarini kuzatish va boshqarish ko‘nikmalari - ham qadriyatlar shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Oliy ta’lim jarayonida tanqidiy tahlil, munozara, esse yozish va o‘z nuqtai nazarini asoslab berish kabi faoliyat turlari talabalarning metakognitiv rivojlanishiga, shu orqali esa qadriyatlar tizimining chuqurroq va barqarorroq shakllanishiga xizmat qiladi. Xususan, “Pedagogik etika” va “Kasbiy o‘z-o‘zini anglash” kabi kurslar talabani “Men nima uchun o‘qituvchi bo‘lmoqchiman?”, “Men ta’limda nimani muhim deb bilaman?” kabi fundamental savollar ustida chuqur o‘ylashga undaydi.

2. Emotsional-motivatsion omillar

Emotsional intellekt (EI) bo‘lajak pedagog uchun kasbiy jihatdan eng muhim psixologik xususiyatlardan biridir. D. Goulmenning (1995) ta’rifiga ko‘ra, emotsional intellekt - o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalarnikini tanish, tushunish hamda boshqarish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatda empatiya - boshqa kishining holatini his qila olish qobiliyati - markaziy o‘rin egallaydi. Empatiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchining ichki dunyosini tushuna oladi, uning ehtiyojlariga sezgir munosabatda bo‘ladi va, eng muhimi, o‘z pedagogik qadriyatlarini - insonparvarlik, g‘amxo‘rlik, adolat - amalda namoyon qila oladi. Bu esa faqat o‘qituvchi sifatidagi samaradorlikni emas, balki o‘quvchining butun shaxsiy rivojlanishini ham ijobiy tomonga yo‘naltiradi.

Emotsional intellektning muhim tarkibiy qismi - o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati - bo‘lajak pedagog uchun alohida ahamiyatga ega. Sinf oldida turgan o‘qituvchi har kuni ko‘plab emotsional qiyinchiliklarga duch keladi: g‘alati savollar, intizomni buzuvchi o‘quvchilar, ota-onalar bilan murakkab munosabatlar, mas’uliyatning og‘irligi. Ushbu holatlarda o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladigan, ulardan konstruktiv foydalana oladigan o‘qituvchi pedagogik qadriyatlarini - sabr-toqat, adolatlilik, vazminlik - amalda namoyon eta oladi. Aksincha, his-tuyg‘ularini boshqara olmagan o‘qituvchi o‘zi e’tiqod qilgan qadriyatlardan amalda voz kechib qo‘yishi mumkin.

R. Rayan va E. Desining o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory, 2000) motivatsiyaning uch turini ajratadi: ichki motivatsiya (faoliyatning o‘zi zavq va ma’no beradi), tashqi motivatsiya (tashqi mukofot yoki jazolardan qo‘rqish) va amotivatsiya (harakatga undovchi kuch yo‘q). Bu nazariya nuqtai nazaridan, pedagoglik kasbini ichki motivatsiya asosida - o‘qituvchilikning o‘zidan ma’no topib - tanlagan talabalar o‘z qadriyatlar tizimini ancha chuqurroq va barqarorroq shakllantiradi. Kasbni tashqi bosim ostida tanlagan talabalar esa tez-tez qadriyatlar ziddiyatini boshdan kechiradi. Shu sababli pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ichki motivatsiyasini aniqlash va uni qo‘llab-quvvatlash juda muhim psixologik-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Kasbiy motivatsiya bo‘lajak pedagog qadriyatlari shakllanishining nafaqat sharti, balki natijasidir ham. Dastlabki motivatsiyasi tashqi bo‘lgan talaba ham vaqt o‘tishi va pedagogik amaliyotda ma’noli tajribalar to‘plash orqali ichki motivatsiyani rivojlantirishi mumkin. Bu jarayon, odatda, talaba o‘quvchi bilan chuqur insoniy muloqotga kirishganida, biror qiyin o‘quvchiga yordam bera olganida yoki o‘z darsining samarali chiqqanini his etganida ro‘y beradi – ana shunday “ichki mukofot” tajribalari pedagogik qadriyatlarning ildiz otishiga xizmat qiladi.

A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi (1943) ham bu muammoni tushunishda foydali asos bo‘lib xizmat qiladi. Maslouning fikricha, shaxs o‘zini ro‘yobga chiqarish (self-actualization) ehtiyojiga yetganida, u o‘z hayotiga va faoliyatiga nisbatan chuqur ma’no izlay boshlaydi. Bo‘lajak pedagog uchun bu bosqich - kasbiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish istagi - pedagogik qadriyatlarning mustahkamlanishiga muhim zamin yaratadi. Shu bilan birga, Maslou nazariyasi shuni ham ko‘rsatadiki, o‘qituvchining ijtimoiy tan olinish, xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik kabi quyi ehtiyojlari qondirilmasa, u yuqori darajadagi qadriyatlar - ijodkorlik, insonparvarlik, o‘z-o‘zini takomillashtirish - bilan yashay olmaydi. Bu pedagoglik kasbining ijtimoiy nufuzi va moddiy ta’minoti masalasini ham qadriyatlar psixologiyasi doirasida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Ijtimoiy-madaniy omillar

Insonning qadriyatlar tizimi hech qachon vakuumda shakllanmaydi - u hamisha ma’lum bir ijtimoiy-madaniy muhitda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (1977) qadriyatlarning kuzatish va taqlid orqali o‘zlashtirilishini ko‘rsatib beradi. Bola bolalikdan ota-onasi, o‘qituvchilari va atrofidagi muhim shaxslarning xulq-atvori, munosabatlari va hayotiy prioritetlarini kuzatib, o‘z qadriyatlar tizimini asta-sekin shakllantirib boradi. Aynan shu mexanizm tufayli ko‘p hollarda “o‘qituvchilar oilasida” voyaga yetgan bolalar ham pedagog kasbini tanlaydi - ular bolaligidan pedagogik qadriyatlarni va pedagoglik kasbining ma’nosini kuzatib ulg‘aygan bo‘ladi.

O‘zbekiston jamiyatida oila instituti qadriyatlar uzatilishining eng asosiy kanali hisoblanadi. “Mahalla” instituti, milliy an’analar, kattalarni hurmat qilish, jamoachilik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar avloddan avlodga oilaviy muhit orqali o‘tib keladi. G. Hofstedening (2001) madaniyatlararo tadqiqotlari O‘zbekistonni yuqori kollektivizm ko‘rsatkichiga ega mamlakat sifatida belgilaydi - bu esa bo‘lajak pedagoglar qadriyatlar tizimida jamoaviy va insonparvarlik qadriyatlarining nima uchun ustuvor o‘rin egallashini tushuntiradi. Bir xil predmetni o‘qitadigan, ammo turli madaniy muhitlarda voyaga yetgan o‘qituvchilarning pedagogik qadriyatlar ierarxiyasida sezilarli farqlar kuzatilishi aynan shu madaniy kontekstning ta’sirini ko‘rsatadi.

Tengdoshlar muhiti va kasbiy jamoa madaniyati ham bo‘lajak pedagog qadriyatlar tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Oliy ta’lim muassasasida birgalikda ta’lim olayotgan talabalar guruhi o‘z “mikromadaniyatini” shakllantiradi - bu muhitda qaysi qadriyatlar nufuzli, qaysi xulq-atvor namunalari qo‘llab-quvvatlanishi talabaning individual qadriyatlar rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli pedagogika oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom, ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksak guruh madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Oliy ta’lim muhitida pedagoglar bilan muloqot ham qadriyatlar shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ma’naviy-axloqiy sifatlarini namoyon eta oladigan, o‘z kasbiga mehr bilan yondashuvchi ustozlar yosh talabalar uchun muhim qadriyatli namuna bo‘lib xizmat qiladi. N. Noddingsning “g‘amxo‘rlik pedagogikasi” (caring pedagogy, 2003) konsepsiyasi aynan shu g‘oyani – o‘qituvchi-talaba munosabatidagi g‘amxo‘rlik, e’tibor va hurmatning yosh pedagog shakllanishidagi rolini - atroflicha yoritadi. Bundan tashqari, axborot jamiyatida ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va global axborot oqimlarining ta’siri ham o‘sib bormoqda - bu ba’zan milliy-an’anaviy qadriyatlar bilan ziddiyatli vaziyat yaratishi va bo‘lajak pedagogda qadriyatlar parchalanishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda oliy ta’lim muassasasining qadriyatlar integratsiyasidagi roli yanada muhim bo‘lib qoladi.

4. Shaxsiy-identifikatsion omillar

E. Eriksonning psixoijtimoiy rivojlanish nazariyasi (1968) bo‘lajak pedagoglar ta’lim olayotgan talabalik davrini (18–25 yosh) “identifikatsiya - rollar aralashuvi” bosqichi sifatida belgilaydi. Bu davrda yosh inson kim ekanligini, qaysi qadriyatlarga sodiq ekanligini, qaysi kasbiy va ijtimoiy rollarni qabul qilishini aniqlashga harakat qiladi. Identifikatsiya inqirozi muvaffaqiyatli hal etilsa, shaxs o‘z qadriyatlari, maqsadlari va hayotiy yo‘nalishiga nisbatan barqaror, aniq va ongli munosabatga ega bo‘ladi. Pedagogika yo‘nalishidagi ta’lim bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega: u talabaga o‘zining “pedagog” identifikatsiyasini sinab ko‘rish, pedagogik qadriyatlarni o‘ziga singdirib borish uchun qulay strukturaviy muhit yaratadi.

D. Superning kasbiy rivojlanish nazariyasi (1957, 1990) bo‘lajak o‘qituvchilarning “kasbiy Men-konsepsiyasi”ni, ya’ni o‘zini pedagog sifatida anglashini, shakllanish bosqichlari bilan bog‘laydi. Kasbiy identifikatsiya qanchalik kuchli bo‘lsa, bo‘lajak pedagog pedagogik qadriyatlarni shunchalik chuqurroq va barqarorroq o‘zlashtirishga moyil bo‘ladi. Buning aksi ham to‘g‘ri - qadriyatlar tizimi shakllanmagan talabada kasbiy identifikatsiya

ham zaif bo‘lib, u o‘zini haqiqiy pedagog sifatida his qila olmaydi. Superning fikricha, kasbiy Men-konsepsiyasini shakllantirish uchun tajriba, amaliyot va o‘z-o‘zini baholash sikllari zarur - bu esa pedagogik amaliyotning ta’lim jarayonidagi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shaxsiy o‘sish va o‘z-o‘zini anglash jarayoni ham identifikatsion omillar guruhida muhim o‘rin tutadi. C. Rojersning (1961) insonga yo‘naltirilgan psixologiya nazariyasida “to‘liq faoliyat ko‘rsatayotgan shaxs” (fully functioning person) konsepsiyasi bo‘lajak pedagog uchun muhim ideal sifatida taqdim etilishi mumkin: bu - o‘ziga nisbatan ochiq, o‘z his-tuyg‘ularini to‘la his eta oladigan, doimiy o‘sishga moyil va hayot tajribalariga qiziqish bilan yondashuvchi shaxs. Bunday shaxsiy yetuklik bo‘lajak pedagogning qadriyatlar tizimini ham yanada chuqur va xilma-xil qiladi.

Vaqt perspektivasi ham shaxsiy-identifikatsion omillar guruhida alohida o‘rin tutadi. F. Zimbardoning vaqt perspektivasi nazariyasiga (1999) ko‘ra, kelajakka yo‘naltirilgan shaxslar uzoq muddatli maqsadlarga intiladi, hozirgi qiyinchiliklarni kelajakdagi natijalar uchun zaruriy bosqich deb qabul qiladi. Pedagoglik - o‘z tabiatiga ko‘ra kelajakka yo‘naltirilgan kasb: o‘qituvchi bugun ekkani yillar o‘tib unib chiqadi, avlodlar o‘tib kamol topadi. Shu sababli bo‘lajak pedagog uchun kelajakka yo‘naltirilgan vaqt perspektivasining shakllanishi uning pedagogik qadriyatlar tizimining barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq. “Men bu ishni bugun nima uchun qilyapman?” savoliga emas, “Men bu ishni kelajak avlod uchun nima uchun qilyapman?” savoliga javob bera oladigan o‘qituvchi o‘z kasbiy qadriyatlariga ancha mustahkam ildiz otgan bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlashda nazariy-tahliliy metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qadriyatlar psixologiyasi, shaxs rivojlanishi, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy o‘rganish va motivatsiyaga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy olimlarning bo‘lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarga oid ilmiy ishlari o‘rganildi.

Maqolada, avvalo, ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish usuli qo‘llanildi. Ushbu usul orqali M. Rokich, G. Allport, S. Shvarts, A. Maslou, D. Super, E. Erikson, A. Bandura, R. Rayan, E. Desi kabi xorijiy olimlarning qadriyatlar, motivatsiya, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga oid qarashlari o‘rganildi.

Shuningdek, B. Qodirov, N. Egamberdiyeva, M. Yo‘ldoshev, E. G‘. G‘oziyev va V. Karimovaning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy-shaxsiy rivojlanishiga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Mazkur manbalardagi asosiy g‘oyalar, ilmiy tushunchalar va nazariy xulosalar umumlashtirildi.

Qiyosiy taqqoslash usuli xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlarning o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Xususan, G‘arb psixologiyasida ilgari surilgan individual rivojlanish, shaxsiy erkinlik, kasbiy identifikatsiya va o‘zini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq nazariyalar O‘zbekistonning milliy-madaniy muhiti, oilaviy qadriyatlari, mahalla instituti va jamoaviylik tamoyillari bilan taqqoslandi. Ushbu taqqoslash natijasida bo‘lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda universal psixologik qonuniyatlar bilan milliy-madaniy omillarni uyg‘unlashtirish zarurligi aniqlandi.

Tizimlashtirish va tasniflash usuli yordamida bo‘lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimiga ta’sir etuvchi psixologik omillar to‘rtta asosiy guruhga ajratildi: kognitiv, emotsional-motivatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-identifikatsion omillar. Har bir guruhga tegishli psixologik xususiyatlar alohida tahlil qilinib, ularning bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kasbiy va ma’naviy-axloqiy rivojlanishidagi o‘rni yoritildi.

Umumlashtirish usuli orqali turli nazariy qarashlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi. Jumladan, tanqidiy fikrlash va refleksivlikning emotsional intellekt, ichki motivatsiya, ijtimoiy muhit va kasbiy identifikatsiya bilan chambarchas bog‘liqligi asoslandi. Ushbu omillarning alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ta’sir ko‘rsatishi haqidagi ilmiy xulosaga kelindi.

Tadqiqot natijalari nazariy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tasniflash, tizimlashtirish va umumlashtirish asosida shakllantirildi. Mazkur metodlar bo‘lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanish mexanizmlarini kompleks yoritish, asosiy psixologik omillarni aniqlash hamda oliy pedagogik ta’lim amaliyoti uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot metodologiyasi refleksiv va motivatsion mexanizmlarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq psixologik tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi. Olingan empirik natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda refleksiv mashg‘ulotlar, motivatsion treninglar, pedagogik portfolio, mentorlik va amaliy refleksiya texnologiyalaridan tizimli foydalanish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi refleksiv va motivatsion mexanizmlarning uyg‘un rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Olingan empirik ma’lumotlar refleksiv fikrlash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar pedagogik vaziyatlarni chuqurroq tahlil qilishi, o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni tezroq aniqlashi hamda ularni bartaraf etishga faol intilishini tasdiqladi. Bunday talabalar pedagogik amaliyot davomida yuzaga keladigan muammolarni standart yondashuvlardan ko‘ra ijodiy va moslashuvchan usullar orqali hal etishga moyilligi bilan ajralib turdi.

Natijalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, refleksiya nafaqat mavjud pedagogik tajribani baholash vositasi, balki yangi kasbiy bilimlarni shakllantirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Talabalar o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilgan sari pedagogik qarorlarning samaradorligi ortib, kasbiy ishonch va o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonch mustahkamlanadi. Ayniqsa, pedagogik amaliyot yakunida olib borilgan refleksiv suhbatlar va yozma tahlillar talabalarning kasbiy rivojlanish dinamikasini sezilarli darajada faollashtirgani kuzatildi.

Motivatsion ko‘rsatkichlar tahlili esa ichki motivatsiya ustun bo‘lgan respondentlarda kasbiy faoliyatga nisbatan mas’uliyat hissi, tashabbuskorlik va mustaqil o‘rganishga intilish yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu talabalar o‘quv mashg‘ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishga ko‘proq qiziqish bildirgan, qo‘shimcha ilmiy adabiyotlardan foydalanishga hamda pedagogik kompetensiyalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga intilgan. Bu holat kasbiy motivatsiya pedagogik faoliyatning barqarorligi va samaradorligini ta’minlovchi muhim ichki resurs ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tahlillar davomida refleksiv va motivatsion mexanizmlar o‘rtasida o‘zaro mustahkamlovchi bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Refleksiya orqali talaba o‘zining kasbiy yutuqlari va kamchiliklarini anglaydi, bu esa, o‘z navbatida, kelgusidagi rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Kuchli motivatsiya esa refleksiv faoliyatni muntazam amalga oshirish, yangi bilimlarni izlash va pedagogik tajribani boyitishga xizmat qiladi. Natijada ushbu ikki mexanizm kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning yagona psixologik tizimini tashkil etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim respondentlarda refleksiv ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Bunday talabalar pedagogik faoliyat natijalarini asosan tashqi omillar bilan izohlashga moyil bo‘lib, o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Ularda kasbiy motivatsiya ham nisbatan past bo‘lib, pedagogik faoliyatga nisbatan tashqi rag‘batlarning ustunligi kuzatildi. Mazkur holat refleksiya va motivatsiyani rivojlantirish bo‘yicha maqsadli psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida refleksiv va motivatsion mexanizmlarni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi yo‘nalishlar samarali deb baholandi:

- refleksiv kundaliklar va elektron portfoliolarni muntazam yuritish;
- pedagogik vaziyatlar bo‘yicha keys-stadilar va muammoli topshiriqlardan foydalanish;
- mentorlik va kouching elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish;
- kasbiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi treninglar hamda psixologik seminarlarni tashkil etish;
- o‘zaro kuzatuv (peer review) va refleksiv munozaralarni amaliy mashg‘ulotlarning ajralmas qismiga aylantirish;
- pedagogik amaliyot yakunida individual refleksiv tahlillarni o‘tkazish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari refleksiv va motivatsion mexanizmlarning bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Mazkur mexanizmlar birgalikda rivojlantirilgan taqdirdagina pedagogik kompetensiyalar, kasbiy identifikatsiya, innovatsion faoliyatga tayyorlik va uzluksiz kasbiy rivojlanish samarali shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, oliy pedagogik ta’lim tizimida refleksiv-motivatsion yondashuvni o‘quv jarayonining barcha bosqichlariga izchil tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashda refleksiv va motivatsion mexanizmlarning o‘rni va o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogni tayyorlash jarayonida faqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish yetarli emas. O‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy rivojlanishini ongli ravishda rejalashtirish, o‘z ustida muntazam ishlash hamda pedagogik faoliyatga nisbatan barqaror ichki motivatsiyani rivojlantirish uning professional kompetentligining muhim mezoni hisoblanadi.

Tahlillar refleksiv mexanizmlar pedagogik faoliyatning sifatini oshirish, kasbiy muammolarni tanqidiy baholash va samarali yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. Refleksiya bo‘lajak o‘qituvchiga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglash, pedagogik qarorlar samaradorligini baholash hamda kelgusidagi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Shu sababli refleksiv kompetensiyani shakllantirish pedagogik ta’limning uzluksiz tarkibiy qismi bo‘lishi lozim.

Tadqiqot davomida motivatsion mexanizmlarning kasbiy tayyorgarlikdagi o‘rni ham alohida namoyon bo‘ldi. Ichki kasbiy motivatsiya yuqori bo‘lgan talabalar pedagogik faoliyatga nisbatan mas’uliyatli yondashishi, innovatsion metodlarni o‘zlashtirishga intilishi, mustaqil ta’lim olishga tayyorligi va kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turdi. Bu esa motivatsiya nafaqat o‘quv faoliyatining faolligini, balki kelajakdagi pedagogik faoliyatning barqarorligini ham belgilovchi psixologik omil ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari refleksiya va motivatsiya bir-birini to‘ldiruvchi hamda o‘zaro kuchaytiruvchi psixologik tizimni tashkil etishini tasdiqladi. Refleksiv tahlil orqali shakllangan kasbiy tajriba motivatsiyaning mustahkamlanishiga xizmat qilsa, yuqori motivatsiya esa refleksiv faoliyatning muntazam va mazmunli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Mazkur integratsiya bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlik, pedagogik kreativlik, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion faoliyatga tayyorlikni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida refleksiv va motivatsion mexanizmlarni rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Xususan, pedagogik amaliyotlarni refleksiv tahlil bilan boyitish, mentorlik va kouching texnologiyalarini keng joriy etish, elektron portfolio yuritish, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish hamda kasbiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi psixologik treninglarni tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda refleksiv va motivatsion mexanizmlarning pedagogik kompetensiyaning alohida komponentlariga ta’sirini empirik jihatdan chuqurroq o‘rganish, raqamli ta’lim muhitida refleksiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda sun’iy intellekt asosidagi pedagogik platformalarning kasbiy motivatsiyani shakllantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, refleksiv va motivatsion mexanizmlarni pedagog kadrlar tayyorlash tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy yetukligini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy ta’lim tizimining ehtiyojlariga mos raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlashning muhim ilmiy-amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(APA 7 uslubi, mavzuga mos, 2015–2025-yillardagi zamonaviy manbalar asosida)

1. Bandura, Albert. (2023). Social learning theory (Revised ed.). Routledge.
2. Brookfield, Stephen D.. (2017). Becoming a critically reflective teacher (2nd ed.). Jossey-Bass.
3. Deci, Edward L., & Ryan, Richard M.. (2020). Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. Springer.
4. Hattie, John. (2023). Visible learning: The sequel. Routledge.
5. Korthagen, Fred A. J.. (2017). Inconvenient truths about teacher learning: Towards professional development 3.0. Teachers and Teaching, 23(4), 387–405.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2019). A flying start: Improving initial teacher preparation systems. OECD Publishing.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). Teachers and school leaders as lifelong learners. OECD Publishing.
8. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. UNESCO Publishing.
9. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). (2024). Global education monitoring report 2024: Leadership in education. UNESCO.
10. World Economic Forum. (2023). The future of jobs report 2023. World Economic Forum.
11. Schön, Donald A.. (2017). The reflective practitioner: How professionals think in action (Updated ed.). Routledge.
12. Skaalvik, Einar M., & Skaalvik, Sidsel. (2021). Motivation, self-efficacy, stress, and well-being among teachers: A review. Educational Research Review, 33, 100403.

13. Tschannen-Moran, Megan. (2020). Motivating teachers: The educational leader's guide. ASCD.
14. United Nations Children's Fund (UNICEF). (2022). Transforming education through teacher development. UNICEF.
15. World Bank. (2022). Collapse and recovery: How COVID-19 eroded human capital and what to do about it. World Bank.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF–60-son Farmon.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida. PF–158-son Farmon.
18. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020). O'RQ–637-son.
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qaror.
20. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2024). Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Toshkent.

ARAB TILIDA JUMLA TUZILISHI: ISMIY VA FE'LIY JUMLALARNING NAHVIY TAHLILI

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 3-bosqich talabasi
ORCID: 0009-0004-2343-4394

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili nahv (sintaksis) ilmining markaziy masalalaridan biri bo'lgan jumla tuzilishi tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi arab tilidagi jumla al-ismiyya (ismiy jumla) va jumla al-fi'liyya (fe'lliy jumla) turlarining grammatik xususiyatlarini, ularning tarkibiy qismlari - mubtado, xabar, fe'l, foil va maf'ul bihning o'zaro munosabatlarini aniqlash va tavsiflashdan iborat. Tadqiqot mumtoz arab tilshunosligi manbalari (Sibavayh, Zamaxshariy, Mutarriziy) hamda zamonaviy o'zbek va xorijiy arabshunoslik ishlariga tayangan holda tavsifiy-tahliliy metod asosida olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi ikki jumla turi o'zaro qat'iy grammatik qoidalar bilan farqlanadi va bu farqlanish nafaqat shakliy, balki semantik-uslubiy ahamiyatga ham ega.

Kalit so'zlar: nahv, jumla al-ismiyya, jumla al-fi'liyya, mubtado, xabar, foil, i'rob, sintaksis.

Abstract: This article examines the sentence structure system, one of the central issues in Arabic grammar (syntax). The main objective of the study is to analyze the grammatical characteristics of the two principal sentence types in Arabic-the nominal sentence (al-jumlah al-ismiyyah) and the verbal sentence (al-jumlah al-fi'liyyah). It also identifies and describes the relationships among their structural components, including the subject (mubtada'), predicate (khabar), verb (fi'l), agent (fa'il), and object (maf'ul bih). The research employs a descriptive-analytical approach based on classical Arabic linguistic sources (Sibawayh, Al-Zamakhshari, and Al-Mutarrizi), as well as contemporary Uzbek and international studies in Arabic linguistics. The findings demonstrate that the two sentence types in Arabic differ not only in their grammatical structure but also in their semantic and stylistic functions.

Key words: Arabic grammar (nahw), nominal sentence, verbal sentence, mubtada', khabar, fa'il, i'rab, syntax.

Аннотация: В данной статье анализируется система построения предложения - одна из центральных проблем арабской грамматики (синтаксиса). Основная цель исследования заключается в изучении грамматических особенностей двух основных типов предложений в арабском языке - именного и глагольного, а также в определении и описании взаимосвязей между их структурными компонентами: подлежащим (мубтада), сказуемым (хабар), глаголом, действующим лицом (фа'ил) и дополнением (маф'ул бих). Исследование выполнено на основе описательно-аналитического метода с использованием классических трудов арабского языкознания (Сибавейхи, Замахшари, Мутарризи), а также современных работ узбекских и зарубежных арабистов. Результаты исследования показывают, что два основных типа предложений в арабском языке различаются не только строгими грамматическими правилами, но и своими семантическими и стилистическими особенностями.

Ключевые слова: нахв, именное предложение, глагольное предложение, мубтада, хабар, фа'ил, и'раб, синтаксис.

KIRISH

Arab tili tilshunosligida sintaksis (nahv) ilmi so'zlarning jumla ichida qanday tartibda joylashishini, ularning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishini o'rganadi. Nahv ilmi arab tili grammatikasining eng murakkab va ko'p qirrali sohalaridan biri hisoblanadi, chunki u so'z shaklini emas, balki so'zlarning jumla tarkibidagi vazifasini, ya'ni i'rob (kelishik) holatini belgilaydi.

Mumtoz arab tilshunosligida jumla tuzilishi masalasi juda erta davrlardan boshlab chuqur o'rganilgan. Xususan, VIII asrda yashagan mashhur tilshunos Sibavayh o'zining "Al-Kitob" asarida arab jumlasining ikki asosiy turini - ismiy va fe'lliy jumlalarni - ilk bor tizimli tarzda tasniflagan. Keyinchalik bu yo'nalish Zamaxshariy, Mutarriziy kabi olimlar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, arab tilida gap tuzilishi ikki asosiy turga bo‘linadi: jumla ismiyya (otli gap) va jumla fi'liyya (fe'lli gap). Bunda arab tilida fe'l odatda gap boshida kelishi va bu xususiyat ko‘plab boshqa tillardan farqli ekanligi qayd etiladi.

Mutarriziy o‘zining “Nahv risolasi” asarida jumla turlarini tushuntirishda arab tilida mavjud jumlalarni ikki turga ajratadi: ismiy va fe'lliy jumlalar. Bunda ismiy jumlaga misol tariqasida ega va kesim munosabati, fe'lliy jumlaga esa fe'l va uni bajaruvchi shaxs munosabati keltiriladi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, arab tilini o‘rganuvchi talabalar va tadqiqotchilar uchun ismiy va fe'lliy jumlalarning farqini, ularning tarkibiy qismlarini va grammatik moslashish qoidalarini tizimli tarzda anglash nahv ilmini o‘zlashtirishning zaruriy asosidir. Tadqiqotning maqsadi - arab tili jumla tuzilishining nazariy asoslarini yoritish, uni amaliy misollar bilan izohlash va mavjud ilmiy manbalar asosida umumlashtirish.

Arab tili sintaksisini o‘rganish tarixi juda uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Ilk davrlarda nahv ilmi asosan Qur'oni Karim matnini to‘g‘ri o‘qish va tushunish ehtiyojidan kelib chiqqan holda rivojlangan. Vaqt o‘tishi bilan bu ilm mustaqil tilshunoslik sohasiga aylandi va Basra hamda Kufa kabi ikki yirik ilmiy maktab atrofida shakllandi.

Bugungi kunda ham arab tili grammatikasi, xususan, jumla tuzilishi masalasi nafaqat an'anaviy tilshunoslikda, balki zamonaviy kompyuter lingvistikasi va mashina tarjimasi sohalarida ham dolzarb tadqiqot obyekti hisoblanadi, chunki arab tilining boy i'rob tizimi va nisbatan erkin so‘z tartibi avtomatik tahlil qilish uchun murakkab vazifalar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Arab tili sintaksisi (nahv) masalalari qadimdan tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, arab tilidagi ismiy va fe'lliy jumlalarning tuzilishi, ularning grammatik xususiyatlari hamda i'rob tizimi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar nahv ilmining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur yo‘nalishda mumtoz arab tilshunoslari bilan bir qatorda zamonaviy xorijiy va mahalliy olimlar ham salmoqli ilmiy izlanishlar olib borgan.

Nahv ilmining nazariy poydevori mashhur tilshunos Sibavayhning “Al-Kitob” asari bilan bog‘liq. Ushbu asarda arab tilining grammatik tizimi birinchi marta ilmiy asosda izchil bayon etilgan bo‘lib, jumla tuzilishi, i'rob, mubtado, xabar, fe'l, foil va maf'ul bih kabi asosiy sintaktik birliklarning vazifalari batafsil yoritilgan. Sibavayhning qarashlari keyingi barcha nahvshunoslik maktablari uchun metodologik asos vazifasini bajargan.

Keyingi davrda Mahmud Zamaxshariy “Al-Mufassal fi ilm al-arabiyya” asarida nahv qoidalarini yanada tizimlashtirib, jumla tuzilishining amaliy va nazariy jihatlariga alohida e'tibor qaratgan. Olim ismiy va fe'lliy jumlalar tarkibidagi sintaktik munosabatlarni izchil tahlil qilib, ularning grammatik belgilarini aniq misollar asosida izohlagan. Zamaxshariyning mazkur asari arab grammatikasi bo‘yicha eng muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mutarriziyning “Nahv risolasi” asarida esa arab tilidagi jumlalar shakliy jihatdan ismiy va fe'lliy turlarga ajratilib, har bir turning tarkibiy qismlari hamda ularning i'rob xususiyatlari sodda va tushunarli uslubda bayon qilingan. Muallif jumla elementlari o‘rtasidagi grammatik bog‘lanishlarni o‘quvchilar uchun qulay shaklda izohlashi bilan ajralib turadi.

Arab tilining sintaktik xususiyatlarini zamonaviy lingvistika nuqtayi nazaridan tadqiq etgan olimlardan biri Kees Versteegh hisoblanadi. Uning “The Arabic Language” nomli asarida arab tilining tarixiy rivojlanishi, grammatik tizimi hamda jumla qurilishi boshqa semit tillari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Muallif arab tilidagi VSO va SVO so‘z tartibi, i'rob tizimining sintaktik vazifasi hamda jumla tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida izohlaydi.

O‘zbek arabshunosligida ham arab tili sintaksisiga oid qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Qosimova D. tomonidan Kufa va Basra tilshunoslik maktablarining nahviy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan bo‘lsa, “Arab tilining sintaktik xususiyatlari”, “Arab tili grammatikasida so‘roq gap hosil bo‘lish usullari” kabi ilmiy maqolalarda arab tilidagi gap turlari, sintaktik qurilish hamda grammatik vositalarning qo‘llanishi yoritilgan. Shuningdek, “Arab tili grammatikasi qo‘llanmasi”, “Oson nahv” va “Arab tili darslari” kabi o‘quv adabiyotlarida mubtado, xabar, fe'l, foil va maf'ul bihning grammatik vazifalari amaliy misollar orqali tushuntirilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida ismiy va fe'lliy jumlalar alohida mavzular sifatida yoki nahvning umumiy bo‘limlari tarkibida yoritilgan. Biroq ularning grammatik tuzilishi, i'rob xususiyatlari, semantik-uslubiy vazifalari hamda balog‘at ilmida qo‘llaniladigan jumla tasnifi o‘zaro uyg‘un holda kompleks tahlil qilinmagan.

Mazkur maqolaning o‘ziga xosligi shundaki, unda arab tilidagi ismiy va fe'lliy jumlalar nafaqat klassik nahv qoidalari asosida, balki ularning semantik-uslubiy vazifalari, i'rob tizimi hamda balog‘at ilmidagi xabariy va inshoiy jumlalar tasnifi bilan o‘zaro bog‘liq holda tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzu mumtoz manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida umumlashtirilib, arab tilini o‘rganuvchilar uchun nazariy hamda amaliy jihatdan yaxlit yondashuv taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy metod, qiyosiy-tipologik metod hamda matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Material sifatida mumtoz arab nahvshunosligi asarlari (Sibavayhning "Al-Kitob"i, Zamaxshariyning "Al-Mufassal"i, Mutarriziyning "Nahv risolasi"), shuningdek, so'nggi yillarda o'zbek arabshunoslari tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanmalari tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: birinchi bosqichda ismiy va fe'lliy jumlalarga oid nazariy manbalar yig'ildi va tizimlashtirildi; ikkinchi bosqichda har ikki jumla turining tarkibiy qismlari (mubtado–xabar, fe'l–foil–maf'ul bih) alohida-alohida tahlil qilindi; uchinchi bosqichda misollar tanlab olinib, ularning i'rob jihatidan tahlili berildi; to'rtinchi bosqichda olingan natijalar umumlashtirildi va xulosalar chiqarildi.

Tahlil uchun tanlangan misollar klassik va zamonaviy adabiy arab tiliga (fusha) tegishli bo'lib, ularning grammatik tuzilishi an'anaviy nahv terminologiyasi asosida izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Arab tilida ism bilan boshlangan jumla ismiy jumla deb ataladi va u mubtado hamda xabardan tashkil topadi. Mubtado va xabarni o'zbek tilidagi ega va kesimga qiyoslash mumkin. Ismiy jumlaning birinchi so'zi mubtado, ikkinchi so'zi esa xabar deb ataladi.

Mubtado va xabar bir-biri bilan uch jihatdan moslashishi shart: jinsda (muzakkar yoki muannas), sonda (mufrod, musanna yoki jam) va i'robda, ya'ni oxirgi harakatda.

Ismiy jumlaning muhim grammatik xususiyati shundaki, mubtado odatda ma'rifa (aniqlik bildiruvchi ism) bo'lishi, xabar esa ko'pincha nakra (noaniq ism) shaklida kelishi kerak. Bu qoida jumlaning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi, chunki mubtado - gapda muhokama qilinayotgan aniq narsa, xabar esa u haqidagi yangi ma'lumotdir.

Fe'l bilan boshlangan jumla fe'lliy jumla deb ataladi. Uning birinchi qismi fe'l, keyingi qismi esa foil (harakatni bajaruvchi) bo'ladi. Zarur holatlarda maf'ul bih (harakat yo'naltirilgan obyekt) ham qo'shiladi.

Arab tilida fe'l odatda gap boshida keladi va bu xususiyat ko'plab boshqa tillardan farq qiladigan o'ziga xoslikdir. Fe'l gapning boshida kelganda odatda birlik shaklida bo'ladi, hatto foil ko'plikda bo'lsa ham. Bu qoida arab nahvining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

I'rob unsurlari - ism, sifat va fe'llarning oxiridagi harflar orqali ifodalanuvchi kelishik, jins va son ko'rsatkichlari gapdagi sintaktik munosabatlarni belgilaydi, natijada so'zlarning o'rnini o'zgartirganda ham ma'no buzilmaydi. Bu arab tilining boshqa fusha tillaridan farqlanadigan asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ismiy jumlada mubtado va xabar odatda marfu' holatda (damma bilan) keladi. Fe'lliy jumlada esa foil marfu', maf'ul bih esa mansub (fatha bilan) holatda keladi. Bu qat'iy i'rob tizimi tufayli gap tarkibidagi so'zlarning tartibi o'zgarsa ham, kim harakat bajaruvchisi va kim harakat obyekti ekanligi aniq bo'lib qoladi (1-jadval).

1-jadval: **Arab tilidagi ismiy va fe'lliy jumlalarning grammatik xususiyatlari**

Belgi	Jumla ismiyya	Jumla fi'liyya
Boshlanishi	Ism bilan	Fe'l bilan
Tarkibi	Mubtado + xabar	Fe'l + foil (+ maf'ul bih)
Asosiy i'rob	Ikkalasi ham marfu'	Foil marfu', maf'ul bih mansub
Fe'l–foil moslashuvi	Tegishli emas	Ko'plikda ham fe'l birlik bo'lishi mumkin

Nahv ilmidan tashqari, balog'at ilmining ma'oniy bo'limida ham gaplar boshqa mezon asosida tasniflanadi – bu safar so'zlovchining maqsadi va tinglovchining holatiga ko'ra. Nahvshunos olim Ahmad Hoshimiy o'zining "Javahir ul-balag'a" asarida jumlani ikki turga bo'ladi: jumla al-xabariy (xabar bildiruvchi gap) va jumla al-inshoiy (buyruq, so'roq, istak kabi ma'nolarni bildiruvchi gap). Inshoiy jumla o'z navbatida amr (buyruq), nahiy (inkor/taqiq), istifhom (so'roq), tamanniy (orzu-istak) va nido (undov) kabi besh turga bo'linadi.

Shunday qilib, arab tilida jumla tuzilishi ikki mustaqil, ammo bir-birini to'ldiruvchi tasnif tizimiga ega: shakliga ko'ra (ismiy/fe'lliy) va mazmun-maqsadiga ko'ra (xabariy/inshoiy) tasnif.

Ismiy jumlada mubtado va xabar o'rtasidagi moslashuv qat'iy qoidalarga bo'ysunadi. Agar mubtado jamlanma (jamlanuvchi) bo'lsa, xabar ham son jihatdan mos kelishi lozim, lekin ba'zi holatlarda - masalan, aqlsiz jonzotlar yoki jonsiz narsalarni bildiruvchi ko'plik otlar mubtado bo'lganda - xabar birlik muannas shaklida kelishi mumkin.

Fe'lliy jumlada esa fe'l–foil moslashuvi boshqacha tartibga ega. Agar foil fe'ldan keyin kelsa (bu - standart VSO tartibi), fe'l songa ko'ra emas, faqat jinsga ko'ra moslashadi va odatda birlik shaklida qoladi. Biroq, agar foil fe'ldan oldin kelsa (bu holat SVO tartibiga o'xshaydi), fe'l ham songa, ham jinsga to'liq moslashishi lozim bo'ladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi ismiy va fe'lliy jumlalarning farqi shunchaki shaklga oid emas, balki chuqur semantik-uslubiy ahamiyatga ega. Ismiy jumla ko'pincha barqaror holat, sifat yoki umumiy haqiqatni ifodalash uchun qo'llanilsa, fe'lliy jumla dinamik harakat, jarayon yoki voqeani ifodalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda qayd etilishicha, matn korpuslari tahlil qilinganda, ismiy jumlaga nisbatan fe'lliy jumla ancha ko'proq qo'llanilar ekan. Bu holat arab tilining harakat va voqealarni tasvirlashga moyilligidan dalolat beradi, xususan, tarixiy va hikoyaviy matnlarda bu tendensiya yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

I'rob tizimining mavjudligi arab tilida so'z tartibining nisbatan erkin bo'lishiga imkon beradi. Bu esa Yevropa tillaridagi qat'iy SVO (ega–fe'l–to'ldiruvchi) tartibidan farqli o'laroq, arab tilida VSO tartibining ustunlik qilishiga va zarur bo'lganda so'z tartibini uslubiy maqsadlarda o'zgartirish imkoniyatiga olib keladi. Shu bilan birga, mazkur erkinlik mutlaq emas - u i'rob tizimi orqali qat'iy nazorat qilinadi, aks holda gapning mazmuni buzilishi mumkin edi.

Mumtoz tilshunoslar, jumladan, Zamaxshariy o'zining "Al-Mufassal" asarida qoidalarni qisqa va halaqit bermaydigan tarzda bayon qilishga harakat qilgan, bu esa keyingi avlod nahvshunoslari uchun jumla tuzilishini o'rgatishning uslubiy asosini yaratdi. Shuningdek, Kufa va Basra tilshunoslik maktablari o'rtasidagi bahslar (masalan, hazf qilingan fe'l masalasida) jumla tuzilishi nazariyasining yanada chuqurlashishiga sabab bo'lgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arab tili o'quvchilari uchun ismiy va fe'lliy jumlalarning farqini, ayniqsa mubtado–xabar va fe'l–foil munosabatlarining i'rob jihatdan qanday belgilanishini tushunish nahv ilmini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning kaliti hisoblanadi.

Shuningdek, fe'l–foil moslashuvidagi son jihatidan farqlanish (foil fe'ldan oldin yoki keyin kelishiga qarab) arab tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun eng ko'p xato qilinadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu qoidani alohida ta'kidlab, aniq misollar bilan tushuntirish o'quv jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, ismiy va fe'lliy jumlalarni qiyoslab o'rgatish, ularning tarkibiy qismlarini jadval va sxemalar orqali vizual tarzda ko'rsatish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq va tezroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida shuningdek aniqlandiki, ismiy va fe'lliy jumlalar orasidagi tanlov ko'pincha uslubiy maqsadga bog'liq bo'ladi: yozuvchi yoki notiq voqeani dinamik va jonli tasvirlashni istasa, fe'lliy jumladan foydalanadi; agar u biror holat, sifat yoki doimiy haqiqatni ta'kidlashni maqsad qilsa, ismiy jumlaga murojaat qiladi. Bu holat arab balog'at ilmida alohida o'rganiladigan uslubiy tanlov masalasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Arab tilida jumla tuzilishi ikki asosiy turga bo'linadi: jumla ismiyya (ismiy jumla) va jumla fi'liyya (fe'lliy jumla), ular boshlanish so'zi turkumiga ko'ra farqlanadi.
2. Ismiy jumla mubtado va xabardan, fe'lliy jumla esa fe'l, foil va zarur hollarda maf'ul bihdan tashkil topadi; har bir tarkibiy qism o'ziga xos i'rob qoidasiga bo'ysunadi.
3. I'rob tizimi arab tilidagi so'zlarning grammatik vazifasini belgilovchi asosiy vosita bo'lib, u so'z tartibi o'zgarganda ham ma'noning saqlanishini ta'minlaydi.
4. Mazmun-maqsad nuqtayi nazaridan gaplar yana jumla al-xabariy va jumla al-inshoiy turlariga bo'linadi, bu esa nahv va balog'at ilmlarining o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.
5. Amaliy tahlil shuni ko'rsatdiki, fe'lliy jumla matnlarda ismiy jumlaga nisbatan tez-tez qo'llaniladi, bu esa arab tilining harakat va jarayonni ifodalashga bo'lgan uslubiy moyilligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, arab tili jumla tuzilishini chuqur o'rganish nafaqat nahv ilmini, balki umuman arab tili va uning adabiy-uslubiy xususiyatlarini to'g'ri anglash uchun zaruriy poydevor hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu mavzuni zamonaviy matn korpuslari asosida statistik tahlil qilish istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sibavayh, Amr ibn Usmon. Al-Kitob. - Qohira: Al-Xanji nashriyoti, tahrir nashri.
2. Zamaxshariy, Mahmud ibn Umar. Al-Mufassal fi ilm al-arabiyya. - Makka, 1121-yil qo'lyozmasi asosidagi nashr.
3. Mutarriziy, Abul Fath Burhoniddin Nosir ibn Abul Makorim Abdusayyid. Nahv risolasi. - Xorazm, XIII asr.
4. Hoshimiy, Ahmad. Javahir ul-balog'a fi al-ma'ani wa al-bayan wa al-badi'. - Qohira, an'anaviy nashr.

5. Versteegh, K. The Arabic Language. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 2014. - P. 90.
6. Mutarriziyning “Nahv risolasi” asari tahlili // Sharq tillari tadqiqi. - Toshkent: Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi. - B. 161.
7. Arab tili grammatikasida so‘roq gap hosil bo‘lish usullari // Journal of Social Sciences (OJP). - DOI: 10.37547/supsci-ojp-05-03-88. - B. 755–762.
8. Arab tilining sintaktik xususiyatlari // Journal of Social Sciences (OJP). - DOI: 10.37547/supsci-ojp-06-I3-73. - B. 712–724.
9. Qosimova, D. Kufa va Basra tilshunoslik maktablari: qiyosiy tahlil // Journal of Social Sciences (OJP). - DOI: 10.37547/supsci-ojp-05-03-92. - 2021. - B. 786–795.
10. Arab tili grammatikasi qo‘llanmasi: mubtado va xabar. - 7-dars. -arabic.uz.
11. Oson nahv (birinchi kitob). - www.arabic.uz nashri.
12. Arab tili darslari o‘quv qo‘llanmasi. - Sintaksis va morfologiya bo‘limlari.

"MAUGLI" ASARINING DIDAKTIK AHAMIYATI VA OBRAZLAR TAHLILI

UO'K: 820:371.3

To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi
TOSHDO'TAU 2-bosqich tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0000-5914-6571

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Rudyard Kiplingning butun dunyoga mashhur "The Jungle Book" ("Maugli") asarini umumta'lim maktablarida o'qitishning samarali metodlari tahlil qilindi. Xususan, 4K modeli (tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya) asosida o'quvchilarning asar tahlilini hayot bilan bog'lab o'rganish yo'llari ko'rib chiqildi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar - interaktiv metodlar, muammoli savollar, multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi ilmiy asosda yoritildi.

Kalit so'zlar: Rudyard Kipling, "Maugli", 4K modeli, muammoli savol, multimedia texnologiyasi, ingliz adabiyoti, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritik fikrlash, kreativlik.

Abstract: This article analyses effective methods of teaching the world-famous work "The Jungle Book" (Mowgli) by the English writer Rudyard Kipling in general secondary schools. In particular, based on the 4K model (critical thinking, creativity, communication, collaboration), ways of teaching students to connect the analysis of the work with real life are examined. The study also highlights, on a scientific basis, the effectiveness of modern pedagogical approaches-interactive methods, problem-based questions, and the use of multimedia tools.

Key words: Rudyard Kipling, "Mowgli", 4K model, problem-based question, multimedia technology, English literature, communication, collaboration, critical thinking, creativity.

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные методы преподавания всемирно известного произведения английского писателя Редьярда Киплинга "Книга джунглей" ("Маугли") в общеобразовательных школах. В частности, рассматриваются пути обучения учащихся анализу произведения с опорой на модель 4К (критическое мышление, креативность, коммуникация, коллаборация), связывая содержание произведения с реальной жизнью. В исследовании на научной основе раскрывается эффективность современных педагогических подходов - интерактивных методов, проблемных вопросов и использования мультимедийных средств в образовательном процессе.

Ключевые слова: Редьярд Киплинг, "Маугли", модель 4К, проблемный вопрос, мультимедийные технологии, английская литература, коммуникация, коллаборация, критическое мышление, креативность.

KIRISH

Globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va mehnat bozoridagi o'zgarishlar ta'limdan o'quvchiga tayyor bilim berish bilangina cheklanmasdan, uni mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, o'z fikrini asosli ifodalash va boshqalar bilan samarali ishlashga tayyorlashni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish va xalqaro tajriba asosida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish vazifalari belgilangan [1]. Mazkur vazifalar adabiyot darslarida ham mazmunni yodlashdan tahliliy, kommunikativ va ijodiy faoliyatga o'tishni taqozo etadi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi zimmasida turgan asosiy vazifalardan biri – yoshlarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu ko'nikmalar orasida 4K modeli (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik) alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz adabiyotiga mansub asarlarning maktab darsligidan joy olishi esa ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Rudyard Kiplingning 1894-yilda nashr etilgan "The Jungle Book" to'plamidagi Maugli haqidagi hikoyalar bolalar adabiyotining mashhur namunalaridan biridir. Asarda inson va tabiat munosabati, shaxsning muhit ta'sirida shakllanishi, jamiyat qoidalari, hokimiyat va adolat, sadoqat, qo'rquv hamda jasorat kabi masalalar hayvonlar obrazi va sarguzasht syujeti orqali ifodalangan. 2024-yilgi 5-sinf "Adabiyot" darsligining II qismida

"Mauglining birodarlari" va "Yo'lbars, yo'lbars" parchalarining berilishi mazkur asarni o'quvchilarning o'qish savodxonligi va adabiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun dolzarb materialga aylantiradi [2:128]. "Maugli" asari nafaqat sarguzasht asari, balki chuqur axloqiy, ijtimoiy va tarbiyaviy mazmunga ega bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Asarda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, jamiyat qoidalari masalalari aks etgan.

Zamonaviy taraqqiyot va globallashuv sharoitida jamiyat hamda yosh avlodning dunyoqarashi soniya sayin o'zgarib, yangicha ko'rinish tus olmoqda. Bolalarning fikrlashi, qiziqishlari hamda bilimga bo'lgan munosabatining tubdan o'zgarishi ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. O'quvchilarning XXI asr kompetensiyalariga ega shaxs bo'lishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O'quvchilarning badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlashda ular uchun erkin muhit yaratish asosiy shartlardan biri sanaladi.

Professor-ustozlar, izlanuvchilar tomonidan yaratilayotgan zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida oqilona qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchi-yoshlarning mustaqil bilim egallashlariga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Metodist olimlarning o'rganishlari natijasida bugungi kunda turli xil metodlar, o'qitish usullari ta'lim tizimiga kirib kelmoqda. 2016-yil yanvar oyida AQSH Kongresi tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlarga ko'ra, XXI asrga tayyor bo'lish uchun o'qituvchilarda zarur bo'lgan 4 ta kompetensiya mavjud. Ushbu model AQSHdagi maktablar va professional tayyorlov dasturlari tomonidan qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan. Tadqiqot asosan o'qituvchilar uchun professional rivojlanish dasturida 4K metodidan foydalangan holda o'qitish va o'rganish jarayoniga qaratilgan. Bu model o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni qamrab oladi:

1. **Kollaboratsiya (fransuzcha collaboration)** – umumiy manfaatga birgalikda erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi demakdir. Ta'lim oluvchining jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;
2. **Kommunikativlik** – odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;
3. **Kreativ fikrlash** – o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rganish;
4. **Kritik fikrlash** – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashuv demakdir [3:153, 159].

Bugungi kunda keng yoyilayotgan ushbu modelda bilimlar dars davomida emas, balki o'quvchi faoliyatida shakllanishi 4Kning konseptual asoslaridan sanaladi. O'qituvchi yo'l ko'rsatuvchi rolida bo'ladi. Bilim bilan bir qatorda faoliyatni, ko'nikmani rivojlantirishga urg'u beradi. Zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos shaxsni tayyorlash bu kunning mavzusidir. Yangiliklarni inobatga olgan holda, ta'lim tizimiga joriy qilishni boshlang'ich sinf darsliklarining aynan 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganligida ko'rish mumkin. Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining ilk va muhim bosqichidir. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lganligi bois katta e'tibor talab etiladi. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1–4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlanganligi ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Ya'ni, bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yod oldirish, shunchaki o'qish va yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham egallaydi.

Bolalar adabiyotini o'qitishda kitobxonning yoshini hisobga olish juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asarlarning oddiy va ko'rgazmali, ezgulik va yovuzlikning sodda ziddiyatiga asoslangan bo'lishi zarur bo'lsa, o'smirlar uchun esa murakkab qahramonlarning ruhiyati ochib beriladi. V.G. Belinskiy bolalar yozuvchisi bo'lishning mas'uliyatli ekanligini nazarda tutib yozgan edi: "Bolalar bilan obrazlar vositasida gapirish uchun ularni bilmoq kerak, o'zing bola bo'la olishing lozim, bemaza ma'noda emas-ku, ammo bolalarcha soddadil xarakter sohibi sifatida qayta tug'ilmog'ing darkor. Bu – o'zicha bir iste'doddir. Ehtimol, bolalarni seva bilish, ularning ehtiyojlarini, yosh xususiyatlarini va o'zgachaliklarini chuqur anglamoq – buning eng muhim shartlaridandir" [4:21].

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'zgaruvchanligidir. Bu xususiyat, avvalo, kitobxonning yoshiga, tarixiy davr va ijtimoiy muhitga bog'liqdir. Shuningdek, bolalar adabiyoti syujetning dinamik va harakatga boy bo'lishini talab qiladi, ya'ni unda voqealar rivoji tezkorlik bilan sodir bo'lib, qiziqarli, yumorga boy

va fantaziyaga ega bo‘lishi lozim. Duglas Barnes buni yanada qat’iyroq aytadi: “Siz nima o‘rgatganingiz kabi, qanday o‘rgatishingiz ham muhimdir” [5:15].

“The Jungle Book” (Maugli) asari ingliz yozuvchisi Rudyard Kipling tomonidan yozilgan bo‘lib, u bolalar adabiyotining klassik namunalaridan biri sanaladi. Adib bu asarni tasodifiy tarzda yozmagan. Unga turtki bo‘lgan bir qancha omillar mavjud. Unda muallifning shaxsiy hayot tajribasi, tarixiy muhit va folklor an’analarining sintezi natijasida yuzaga kelgan. Avvalo, yozuvchining Hindistonda o‘tgan bolalik davri muhim ahamiyat kasb etadi. Kipling Hindistonning tabiati, o‘rmon muhiti va hayvonot olamini bevosita kuzatgan bo‘lib, bu holat asarda to‘laligicha aks etgan. Bundan tashqari, asarning g‘oyaviy tuzilishida hind xalq og‘zaki ijodi an’analari sezilarli darajada aks etadi. Hayvonlar orqali insoniy fazilatlarni ifodalash, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatish kabi jihatlar sharqona ertaklarga xos bo‘lib, Kipling ushbu an’anani ingliz bolalar adabiyotiga moslashtirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tahlilga tortayotgan “Maugli” asari 5-sinf “Adabiyot” darsligidan joy olganligini inobatga olgan holda, o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil usullarini amaliyotga joriy qilish muhimdir.

Dastlab, o‘quvchilardan asar haqida qisqacha so‘rovnoma olish ularning asarga nisbatan qiziqishini oshirib boradi.

Darsning kirish qismi:

I. “Maugli” asari bo‘yicha boshlang‘ich bilimni aniqlash

1. Siz Maugli haqida eshitganmisiz?

- Ha
- Yo‘q

2. Maugli kim?

a) Qahramon bola

b) Sehrgar

c) Hayvon

3. Maugli qayerda yashagan, deb o‘ylaysiz?

a) Shaharda

b) O‘rmonda

c) Maktabda

4. O‘rmondagi hayvonlar qanday bo‘ladi?

a) Mehribon

b) Yomon

c) Aqlli

d) Har xil

II. Ochiq savollar:

5. Agar siz o‘rmonda yashasangiz, nimalardan qo‘rqardingiz?
6. Sizga o‘rmonda yashovchi qaysi hayvonlar yoqadi?
7. Odamlar hayvonlar bilan birga yashay oladimi?

Yuqoridagi savollar orqali o‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlari aniqlanadi. Asarning hayotga tatbiqi o‘rganiladi. Ochiq savollar turkumi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. “Maugli” janr jihatdan adabiy ertak, sarguzasht asari va qisman tarbiyaviy-didaktik asar hisoblanadi. Shuningdek, unda animalistik adabiyot elementlari kuchli. Hayvonlar orqali insoniy g‘oyalarni ifodalash bolalar uchun biroz murakkabligini hisobga olgan holda, asar tahlilini atroflicha qilish talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **"Maugli" asaridagi ramziy obrazlar tahlili**

Obraz	Asardagi roli	Ramziy ma'nosi	Inson jamiyatidagi ekvivalenti
Maugli	Asosiy qahramon. Inson va hayvonot olami orasidagi bola	O'zlikni anglash	Ijtimoiylashuv jarayoni
Sherxon	Asosiy antagonist	Adolatsizlik Kuchni suite'mol qilish	Adolatsiz hokimiyat
Bagira	Himoyachi, maslahatchi	Aql va strategiya ramzi	Ongli rahbar
Balu	Tarbiyachi	Axloqiy tarbiya berish	Ustoz - shogirt
Akela	Bo'rilar sardori	Adolatli boshqaruv , tartib	
Kaa	Yordamchi va xavfli obraz	Yashirin kuch	
Bandarlog	Maymunlar to'dasi	Mas'uliyatsizlik	Beqaror jamiyat
Bo'rilar to'dasi	Jamiyat modeli	Qonun	Kollektiv jamiyat

"Maugli" asaridagi obrazlar tizimi nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki chuqur tarbiyaviy va didaktik ahamiyat kasb etadi. Asar bosh qahramoni Maugli orqali inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ijtimoiy muhitga moslashuv hamda shaxsning shakllanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, hayvonlar obrazi vositasida jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, sadoqat, do'stlik, ustoz–shogird kabi tushunchalar ramziy tarzda ifodalangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, "Maugli" asarida o'quvchilar uchun Maugli obrazi orqali shaxs kamoloti, muhit ta'siri va tanlov erkinligi masalalari ilgari surilgan. Shu jihatdan, mazkur obraz o'quvchilar uchun nafaqat qiziqarli badiiy qahramon, balki hayotiy saboqlar beruvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Obrazlar tahlili Maugli, Sherxon, Bagira, Balu, Akela, Kaa, Bandarlog va bo'rilar galasi orqali turli xulq, boshqaruv va munosabat modellarini muhokama qilish mumkinligini ko'rsatdi. Bunda ramziy ma'nolar tayyor hukm sifatida emas, matn dalillari bilan tekshiriladigan talqin sifatida taqdim etilishi lozim. 45 daqiqalik dars algoritmi individual fikrlash, juftlik dialogi, ijodiy yechim, taqdimot va refleksiyani izchil bog'laydi.

Shunday qilib, "Maugli" asarini samarali o'qitishning asosiy sharti asar mazmunini aytib berish emas, balki o'quvchiga matn dalillari asosida mustaqil xulosa chiqarish, boshqa pozitsiyani tinglash, yangicha yechim yaratish va o'z fikrini aniq ifodalash imkonini berishdir. Mazkur metodik model umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz adabiyoti namunalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda foydalanishga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son[1] Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
2. Yo'ldoshev Q., Qambarova S., To'xliyeva D., Yusufjonova N., Olimjonov O. Adabiyot. 5-sinf. II qism: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
3. Sunardi F., Ferry Dorington. The 4Cs Learning Model in Teacher Professional Development Program. Humaniora, 11(2), 153–159. https://doi.org/10.201512/humanoria.v
4. Белинский В. Г. О литературе и детской литературе и детском чтении. – Москва: Юрайт, 2019. – 21-bet.
5. Elboyeva M. Bolalar adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent, 2023. – B. 161.

1 https://lex.uz/ru/docs/-4312785

JADID TARAQQIYPARVARI AHMAD ZAKI VALIDIYNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA UNING VATANPARVARLIK HARAKATLARI

Raximov Azizbek Normurodovich
Buxoro pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Turkiston va Boshqirdiston milliy ozodlik harakatidagi o‘rni hamda vatanparvarlik g‘oyalarining shakllanish omillari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, uning milliy davlatchilik, istiqlol, ma’rifatparvarlik va milliy birlikni ta’minlashga qaratilgan qarashlari yoritilgan. Tadqiqotda Ahmad Zaki Validiyning siyosiy kurashi, ilmiy merosi hamda turkiy xalqlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida baholangan. Tadqiqot natijalari jadidchilik harakati tarixini chuqurroq o‘rganish hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Zaki Validiy, jadidchilik, taraqqiyparvarlik, milliy uyg‘onish, milliy ozodlik harakati, vatanparvarlik, Turkiston, Boshqirdiston, ma’rifatparvarlik, milliy davlatchilik, siyosiy faoliyat, tarixiy meros.

Abstract: This article analyzes the socio-political activities of the Jadid reformer Ahmad Zaki Validi, his role in the national liberation movements of Turkestan and Bashkortostan, and the formation of his patriotic ideas based on historical and scholarly sources. Particular attention is paid to his views on national statehood, independence, enlightenment, and national unity. Using a historical-comparative approach, the study evaluates Ahmad Zaki Validi’s political struggle, scholarly legacy, and contribution to the development of the Turkic peoples. The findings contribute to a deeper understanding of the Jadid movement and provide a valuable basis for promoting patriotic education among younger generations.

Key words: Ahmad Zaki Validi, Jadid movement, reformism, national awakening, national liberation movement, patriotism, Turkestan, Bashkortostan, enlightenment, national statehood, political activity, historical heritage.

Аннотация: В данной статье на основе научных источников анализируются общественно-политическая деятельность видного джадидского просветителя Ахмада Заки Валиди, его роль в национально-освободительном движении Туркестана и Башкортостана, а также становление его патриотических взглядов. Особое внимание уделено его идеям национальной государственности, независимости, просвещения и национального единства. С использованием историко-сравнительного подхода дана оценка политической деятельности, научного наследия и вклада Ахмада Заки Валиди в развитие тюркских народов. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для дальнейшего изучения истории джадидизма и воспитания молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова: Ахмад Заки Валиди, джадидизм, просветительство, национальное возрождение, национально-освободительное движение, патриотизм, Туркестан, Башкортостан, национальная государственность, политическая деятельность, историческое наследие.

KIRISH

Vatan ozodligi, millat farovonligi yo‘lida o‘z jonidan kechgan ko‘plab buyuk shaxslarni bilamiz. Ularning hurriyat yo‘lida qilgan ishlarini Prezidentimiz yuksak baholagan edilar. Shuningdek, Prezidentimizning quyidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir: “... bu yorug‘ olamda eng buyuk jasorat nima, degan savolga, hech ikkilanmasdan, eng buyuk jasorat - bu ma’naviy jasorat, deb javob bersak, o‘ylaymanki, yanglishmagan bo‘lamiz. Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo‘lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo‘lida o‘zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko‘rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma’naviy fazilatlari tufayli ezgu his-tuyg‘ular, muqaddas va ulug‘ tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo‘lib kelmoqda. Bunday benazir zotlarning barcha xalqlar va millatlar orasida ko‘plab topilishi - ma’naviy jasorat tuyg‘usi butun bashariyatga xos xususiyat ekanidan dalolat beradi.”

Biz ko‘plab milliy qahramonlarni bilamiz va ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Hayot-mamot masalasi turgan eng og‘ir, mas’uliyatli damlarda shaxsiy jasorati, aql-zakovati tufayli xalqiga bosh bo‘lib, uni omon saqlab

qolib, porloq istiqbol sari boshlagan yoki uning ozodligi, or-nomusi, shon-sharafi uchun so‘nggi nafasgacha mardona kurashib, shahid ketgan aziz insonlar xotirasini doimo minnatdorchilik bilan esga olamiz. Butun aql-idroki, iste’dodi kuchini qalami uchiga jamlab, el-ulusini zolimu bosqinchilardan himoya qilgan, unga hurlik yo‘lini ko‘rsatgan, o‘zi yaratgan badiiy va ilmiy javohirlaridan nasllarini bahramand qilgan ulug‘ zotlar hamon qalblarimizni nurafshon etib keladi. Chapdastlikda, zehni o‘tkirlikda, sergaklik-xushyorlikda misli yo‘q, oliyjanob maqsad yo‘lida har qanday murakkab vaziyatda osongina g‘olib chiqib ketadigan tutqich bermas qahramonlarni sarguzasht asarlardan ko‘plab o‘qiganmiz va ko‘rganmiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda chor Rossiyasi va sovetlar mustamlakachiligi davri tarixi juda keng tadqiq etilgan mavzulardandir. Ushbu tadqiqot ishida biz mana shu davrning ko‘plab ijtimoiy-siyosiy voqealarini o‘zida mujassam etgan Ahmad Zakiy Validiyning esdaliklari, uning tarixiy ahamiyatiga to‘xtaldik. Shu kunga qadar Validiyning ilmiy merosi bir muncha o‘rganildi. Uning bevosita yurtimiz tarixiga oid hisoblangan “Xotiralar” sovetlar davrida ham, mustaqillik yillarida ham tadqiq etildi, turli tillarga tarjima qilindi.

Validiyning ilmiy merosini o‘rganish, xususan, uning esdaliklarini tadqiq qilish borasidagi Salixov A. G., Xusainov G. B., Isxakov S. M., Rajabov Q. K., Turdiyev Sh., Xolmurodov Sh., Yuldashbayev A. M., Voinov V. M. va boshqalarning asarlarini keltirishimiz mumkin. Lekin, afsuski, bu mualliflarning aksariyati Rossiya va boshqa mamlakat tarixchilari hisoblanadi. Yurtimizda esa Validiy faoliyatini keng miqyosda tadqiq qilayotgan olimlar barmoq bilan sanarli darajada ekanligini hisobga olsak, bu mavzu doirasida hali ko‘plab tadqiqotlar olib borish kerakligini taxmin qilishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-pedagogik va tarixiy-qiyosiy yondashuvlar tashkil etdi. Tarixiy-pedagogik yondashuv orqali Ahmad Zaki Validi faoliyatining XX asr boshlaridagi Turkiston va Boshqirdiston ijtimoiy-siyosiy jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi ochib berildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida uning qarashlari boshqa jadid taraqqiyparvarlari, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Ismoil G‘aspirali g‘oyalari bilan taqqoslanib, umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez metodlari asosida Ahmad Zaki Validi asarlarida ilgari surilgan milliy davlatchilik, istiqlol, ma’rifat, milliy birlik va vatanparvarlik g‘oyalari ilmiy jihatdan umumlashtirildi. Mantiqiy tahlil va konseptual yondashuv vositasida uning siyosiy faoliyati hamda ilmiy qarashlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on o‘zining buyuk millatimiz ozodligiga bag‘ishlangan beqiyos mashaqqatlarga to‘la boy va maroqli hayot yo‘li, ilmiy, ijodiy, amaliy faoliyati bilan bunday ibratli timsollarni har tomonlama to‘ldiradi, ularga tugallik baxsh etadi. Chunki shu bir inson tabiati va sa’y-harakatlarida har kim orzu qilsa arzigulik o‘sha fazilat va sifatlarning barchasi eng go‘zal tarzda mujassam va namoyon bo‘lgan. Mavzuning dolzarbligi ham shundan iboratki, XX asr boshlari yurtimiz tarixini o‘zida mujassam etgan Ahmad Zakiy Validiyning “Xotiralar” bugungi kun manbashunosligida muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, Validiy esdaliklarini o‘rganish, undagi ma’lumotlarni yosh avlodga yetkazish, tariximizning bizga ma’lum bo‘lmagan sahifalarini ochib berishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asl ismi Ahmat-Zaki Ahmetshaxovich Validov bo‘lgan Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on turkiy xalqlar milliy ozodlik harakatining yetakchilaridan biri, sharqshunos, turkshunos olim, falsafa doktori, tarix bilimdoni, sobiq sovetlar davrida sharq qo‘lyozmalari tadqiqotchilari ichida ko‘zga ko‘ringani va Turkiston milliy ozodlik kurashining ma’naviy yo‘lboshchisi va faol ishtirokchisi edi. U 1890-yili 10-dekabrda Boshqirdistonning Ufa guberniyasi Eshimboy (Starlitomoq) tumanidagi Kuzyanovo qishlog‘ida mulla oilasida tug‘ilgan.

Ota-onasidan tortib barcha qarindosh-urug‘lari, hamqishloqlarining aksariyati yetuk bilimli odamlar – imomlar, mudarrislar, umuman ilm-ma’rifatni yuksak qadrlovchi kishilar bo‘lgan muhitda tug‘ilib voyaga yetgan.

Otasi Kuzyanovo qishlog‘idagi madrasada dars berar va imomlik qilar edi. Ahmad Zakiy Islom asoslarini, arab, fors tillarini shu madrasada o‘rgandi. 1901–1908-yillari ona tomonidan bobosi Habibnazarning qishlog‘i Utyakovdagi madrasada ta’lim oldi. Bu madrasa diniy fanlar bilan bir qatorda tarix, falsafa, jug‘rofiya va matematikaga ixtisoslashtirilgan edi.

Ayni shu davrda, ya’ni 18-20 yoshlarida butun G‘arb va Sharq ilmiy, badiiy tafakkurining eng noyob namunalarini turli tillarda o‘qidi, ularni qiyosiy jihatdan puxta tahlil qilib, muhim xulosalar chiqarib, to‘liq o‘zlashtirgan bir komil inson bo‘lib yetishadi. O‘sha paytdayoq u Rossiya imperiyasi hududida nashr etiladigan deyarli barcha gazeta va jurnallarni muntazam olib o‘qib borardi. G‘arb va Sharq mamlakatlarining mashhur olimlari, yirik

kutubxonalari bilan mustahkam aloqa bog‘lab, ulardan o‘zini qiziqtirgan asarlar ro‘yxatini, qo‘lyozmalarini, tarjimalarini olib turardi. Uning qiziqishlari esa cheksiz va tubsiz ummon edi: bir tomoni barcha muqaddas va diniy kitoblar, Yusuf Xos Hojib, Naqshband, Rumiy, Yassaviy, Attor, Beruniy, Mirxond, Navoiy, Xondamir, So‘fi Olloyor, al-Maariy, Mahtumquli va Sharqning boshqa mutafakkirlari bo‘lsa, ikkinchi tomoni Avgust Myuller, Dauzi, Viktor fon Rozen, Bartold, Leon Kaen, Fader, Dreyper, Grim-Grijimaylo, Gotvald, Ovsyanikov-Kulikovskiy, Radlov, Mixaylov, Verbitskiy, Bogoroditskiy, Katanov, Xvostov, Xarlamovich, Plexanov, Strive, Kireyev va boshqa ko‘plab G‘arb hamda rus olimlarining asarlari va saboqlari. Shu son-sanoqsiz asarlarni o‘tkir zehn, qunt va sabot bilan o‘qib, o‘rganib, o‘zi va millati uchun muhim xulosalar chiqarib, ular xususida manaman degan olimlar bilan suhbatlar, munozaralar yuritishga qodir bo‘lgan yoshgina yigitcha Ahmadzakiy o‘sha davrda shakllantirgan e’tiqodiga, tanlagan hayot va kurash yo‘liga umrining oxirigacha sodiq qoldi.

1908-yili Orenburgdagi “Husayniya” madrasasida ham o‘qidi. Bu orada Qozon universitetiga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rdi. 1908-1912-yillari Qozonning “Qosimiya” madrasasida ta’lim oldi. Tahsil asnosida uch yil madrasada tarix va arab tilidan dars berdi. Bu yerda birinchi bor sharqshunoslik bilan shug‘ullana boshladi. 1912-yili o‘zining birinchi kitobi “Turk va tatar tarixi”ni yozib tugatdi. Bu asar unga katta shuhrat keltirdi. Qozon va Peterburg universitetlari moliyaviy ko‘magi bilan Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish uchun uni O‘rta Osiyoga yuborishga qaror qilindi. 1913-yil kuzida Qozon universiteti Tarix, arxeologiya va etnografiya jamiyati Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish uchun Farg‘ona vodiysiga ilmiy safarga yubordi. Validiy safar chog‘ida 72 ta qo‘lyozma topdi va ularni ilmiy jihatdan tadqiq qildi.

1914-yili Rossiya Fanlar akademiyasi Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqni tadqiq etish xalqaro jamiyati yo‘llanmasi bilan Buxoro amirligiga keldi. Validiy bu yerda “Qur’oni karim”ning o‘ninchi asrda turkiy tilga o‘girilgan eng qadimgi noyob nusxasini topishga muvaffaq bo‘ldi. Bu haqda u o‘zining “Xotiralar”ida quyidagicha yozadi: “... uning sandig‘ida saqlangan rasmli yozma kitoblarni, muzeyda saqlanishi kerak bo‘lgan Qur’onni va “Evrad” yozmalarini ... olib ko‘rsatdi... Qori Komil ajoyib qo‘lyozma Qur’on Umar Hojining ota-bobolariniki bo‘lmay, birov tomonidan shu oilada saqlash uchun omonat qilib qoldirilganligini hikoya qilib berdi”.

1919-yilning boshida Validiy Boshqird armiyasining sovetlar tomoniga o‘tishida asosiy tashkilotchilik vazifasini o‘tadi va Sovet davlati bilan muzokaralar olib bordi. Bu muzokaralar natijasi o‘laroq, xuddi shu yili mart oyida Boshqird Avtonom Sovet Respublikasi tashkil etildi.

1919-yilning fevralidan 1920-yilning iyuniga qadar Boshqirdiston revkomining raisi sifatida faoliyat olib bordi.

1920-yilning 19-mayida chiqqan RSFSR VKP(b) MKning “Boshqird Avtonom Sovet Respublikasining davlat boshqaruvi to‘g‘risida”gi qaroridan so‘ng Boshqirdistondagi antisovet harakatiga qo‘shildi. Bolsheviklarning bosimi tufayli mamlakatdan chiqib ketadi. So‘ng Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Turkistonga boradi.

Turkistonga kelgandan so‘ng bu yerdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. 1921-yili milliy ziyolilar va millat yetakchilari bilan birga Turkiston Milliy Kengashi va uning bayrog‘ini tashkil etilishi va yaratilishida qatnashadi. Bu yerdagi milliy ozodlik kurashida qatnashib, muvaffaqiyatga erisha olmagach, 1923-yilda o‘lkadan chiqib ketadi. Ayni shu 1923-yildan Validiy Sharq va Yevropa shaharlariga ilmiy safarlarini boshladi. Osiyoning Eron, Afg‘oniston, Hindiston kabi mamlakatlarida, Yevropaning Parij, Berlin, Praga, Budapesht kabi shaharlarida ilmiy izlanish olib bordi. Qayerda bo‘lmasin, o‘sha yerdagi xalq tilini, tarixini o‘rganishga harakat qildi. Mashhur kutubxonalar va arxivlarda ilmiy ish bilan shug‘ullandi. Noyob qo‘lyozmalarni o‘rganib, ularni xalqqa taqdim etish bilan shug‘ullandi. Xuddi shu safar mobaynida Eronning Mashhad shahridagi kutubxonalardan birida ishlab, Ibn Fadlanning qimmatli qo‘lyozmalarini topadi. Keyinchalik ayni shu qo‘lyozmalarni ilmiy jihatdan o‘rganib, doktorlik ishini yozadi.

Validiy hayotining eng qizg‘in va siyosiy kurashlarga boy davrini Turkiston o‘lkasida o‘tkazdi. Bu yerda yurgan vaqtida olim faqatgina ilmiy izlanishlar olib borish bilangina cheklanib qolmay, mahalliy ziyolilar bilan ham mustahkam aloqa o‘rnatdi, ular bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi va o‘lkadagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etdi.

Uning butun O‘rta Osiyoda nom qozonishi va o‘lka siyosiy hayotida muhim rol o‘ynay boshlashi bolshevik rahbarlarining diqqatini tortdi. Lenin, Stalin va boshqa bolsheviklar rahbarlari bilan Turkiston taqdiri bog‘liq masalalarni hal qilishda endi Ahmad Zakiy bilan maslahatlashib ish ko‘rgan vaqtlar ham bo‘ldi. Lekin Validiy Turkiston millatlarining mustaqilligi, o‘z taqdirini o‘zi belgilash to‘g‘risidagi va’dalar firibgarlikdan boshqa narsa emasligini Boshqirdiston misolida ko‘rdi. Shu sababli o‘lkadagi faoliyatida u doimo milliy birlikni ta’minlash, yurtimiz ziyolilarini birdamlikka chaqirishdan charchamadi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli kurashda ham faol ishtirok etdi. U Turkistonning eng ko‘zga ko‘ringan milliy kurashchilari bo‘lgan Junayidxon, Ibrohimbek, Mulla Abduqahhor, Shermuhammadbek, Bahrombek, Ochilbek, Davlatbek, Holbo‘tabek va boshqalar bilan birga sovetlarga qarshi kurash olib borishga, buning iloji bo‘lmaganda ular bilan doimiy aloqada bo‘lib, kurashni davom ettirishga harakat qildi. Lekin Turkistonda bu kurash mag‘lubiyatga uchray boshlagach hamda o‘lkada yashash xavfli bo‘lib qolgach, Afg‘oniston, Eron, Hindiston va hatto Yevropa davlatlariga chiqib ketishga majbur bo‘ladi.

Turkistondan chiqib ketgandan so‘ng olim bir qancha muddat muhojirlikda yurishga majbur bo‘ladi va nihoyat Turkiyada qo‘nim topib, to umrining oxiriga qadar shu yerda qoladi.

1924-yili olim Berlinga ko‘chib o‘tadi va u yerda G‘iyos Is’hoqiy bilan hamkorlik qiladi.

1925-yildan boshlab Turkiya fuqarosi, Anqaradagi Ta’lim vazirligining maslahatchisi, so‘ngra Istanbul universiteti professori. Shu yili universitetda dars berish bilan birga, Turkiston milliy birligi “Jamiyat” gazetasini nashr etdi. Ushbu nashr yordamida Validiy barcha musulmonlarni Turkiya atrofida birlashtirish g‘oyasini e’lon qildi.

1927-yilda eski qadrdon do‘sti Mustafo Cho‘qay bilan birgalikda Turkiston milliy birligi tashkilotining siyosiy organi bo‘lgan “Yeni Turkistan” (1927–1931) oynomasini chiqardi.

1935-yilda Vena universitetini tamomladi va “Ibn Fadlanning shimoliy bulg‘or, turk va xazar yurti bo‘ylab sayohati” mavzusidagi doktorlik ishini himoya qildi.

1935-yil iyunida Bonn universitetiga dars berish uchun taklif etiladi. Qishki semestr (1938-1939) davomida Quyi Saksoniyadagi (Germaniya) eng qadimiy universitetlardan biri bo‘lgan Gettingen universitetida ishladi.

1939-yilning 1-sentyabrida A. Validiy Germaniyani tark etdi va Turkiyaga qaytdi. Shu yilning 1-noyabridan yana Istanbul universitetidagi faoliyatini davom ettirdi.

1953-yili Islomiy tadqiqotlar institutini tashkil etdi va uning direktorligiga tayinlandi.

1967-yil 27-iyunda Zakiy Validiyga Angliyaning Manchester universiteti faxriy doktori unvoni berildi.

Zakiy Validiy 1970-yilning 26-iyulida Turkiyada vafot etdi va Istanbuldagi Karacaahmet Mezarlığı nomli qabristonga dafn etildi.

Ahmad Zakiy Validiy hayoti davomida juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar tuzilishida tashabbus ko‘rsatdi va ularning faoliyatida bevosita qatnashdi. Jumladan, Turkiya Sharqshunoslik assotsiatsiyasini tuzishda qatnashdi, Sharq mamlakatlarini o‘rganish bo‘yicha nemis jamiyatining, Avstraliya ilmiy jamiyatining, Finlandiya ilmiy jamiyatining, Avstriya Hammer-Purgshtal jamiyatining a’zoligiga saylandi. Eron Ta’lim vazirligining 1-darajali oltin medali sovrindori bo‘ldi.

Zakiy Validiy turkiy xalqlar tarixiga oid juda ko‘plab asarlar muallifidir. U jahonning o‘n bir tilida (xususan, arab, turk, nemis, venger, fransuz, ingliz va boshqalarda) to‘rt yuzdan ortiq asar e’lon qilgan. Shu ro‘yxatni ko‘zdan kechirsak ham, bu zot oldida qanchalik qarzdor ekanligimizni sezamiz: “Turk xalqlari tarixiga kirish”, “O‘rta Osiyo tarixining islom davri”, “Muqaddimat ul-abab”ning Xorazm nusxasi”, “Lutfiy va uning devoni”, “Turkman shoiri Maxtumquli ijodi”, “Xudoyorxonning so‘nggi kunlari”, “Farg‘onadan topilgan Sharq qo‘lyozmalari”, “XVIII asr Farg‘ona tarixiga doir”, “Buxoro xonligiga sayohat”, “Turkistonning madaniy-ma’naviy boyliklari”, “Beruniyning dunyoqarashi”, “Turkiston”, “Shaybonixon she’riyati”, “Turklar madaniyatining inqirozi”, “Xorazm haqida turkiy manbalar”, “Turkiston ilmiy nashrlarining qisqa bayoni”, “Turkiy xalqlar alifbosi muammolari”, “Mahmud Qoshg‘ariy haqida”, “Jaloliddin Rumiy”, “Al-Beruniy shimol xalqlari xususida”, “Qadim Xorazmda til va madaniyat”, “Sharq Gyote nazarida”, “Turkiylar shajarasi”, “Alisher Navoiy, hayoti va ijodi”, “Navoiy haqida professor Rizo Nur bilan bahs”, “Amir Temur maqbarasi”, “Beruniy”, “Temur va Boyazid Yildirim”, “Xondamir”, “Buyuk hukmdor Shohrux”, “Temur avlodlari”, “Sharqda sho‘ro siyosati”, “Temurning G‘arbga yurishlari”, “Bolasog‘un”, “Chingizxon” va h.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xullas, Ahmad Zakiyning yurtimiz tarixini o‘rganishga qo‘shgan hissasi juda ulkandir. Ma’lumki, olim Qozon universiteti Tarix, arxeologiya va etnologiya jamiyatining yo‘llanmasi bilan Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish uchun 1913-1914-yillari Farg‘onaga, so‘ng Rossiya Fanlar akademiyasi Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqni tadqiq etish xalqaro jamiyati yo‘llanmasi bilan Buxoro amirligiga safar qildi. Ushbu safari chog‘ida tarix va yangi zamon haqida qimmatli ma’lumotlarni to‘pladi. 1923-1932-yillar olim hayotida katta iz qoldirdi. Shu yillarda Turkiston va Volgabo‘yi turkiy xalqlari tarixi, turmush tarzi va madaniyati ustida ilmiy izlanishlar olib bordi. U ko‘plab manba va izlanishlariga tayanib, asosiy ishi hisoblangan “Zamonaviy Turkiston va uning yaqin tarixi” kitobini yozdi. Kitob boshda uchta katta bo‘limdan tarkib topgan, keyinchalik ikki bob ilova qilingan. Birinchi bo‘lim turkiy xalqlar tarixiga bag‘ishlangan. Ular yashagan hudud Kaspiy dengizidan Oltoy, Olatog‘, Tyanshan tog‘larigacha cho‘zilgan. Ikkinchi bo‘lim “Sharqiy Turkiston” (hozirgi Xitoyning sharqiy qismi) deb atalgan. Uchinchi bob “Shimoliy Turkiston” (Orol tog‘lari qismi) deb atalgan. Qolgan ikki bobi qachon yozilgani aniq emas.

Zakiy Validiy To‘g‘on Markaziy Osiyo tarixining XVI asrdan to XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmigacha bo‘lgan davrini tadqiq qilgan. Unga qadar ham bu o‘lka tarixi yoritilgan ilmiy tadqiqot ishlari, asarlar, qo‘lyozma kitoblar bor edi. Ularning barchasi bilan tanishib chiqqan Zakiy Validiy o‘lka tarixi to‘la o‘rganilmaganiga amin bo‘ladi va uni batafsil tadqiq etishga kirishadi. O‘zidan oldin bu hudud tarixini o‘rgangan olimlarning xato fikrlarini rad etadi. V. Grigoryev, F. Shvars, Denison Ross, Masalsk, Maxashik va hatto V. Bartoldning ayrim fikrlarini yoqlamaydi. Kitobning birinchi qismida o‘lkaning hududiy chegaralari tadqiq qilingan bo‘lsa, ikkinchi qismida turk xalqlarining kelib chiqishi va qaysi millatlar bu guruhga kirishi bayon qilinadi. Asarning uchinchi qismi

o‘lkaning XVI asrgacha bo‘lgan tarixiga bag‘ishlanadi. Bu mintaqada yashagan tub xalq kimlar bo‘lgani, ularni kimlar bosib olgani, o‘lkaning boshqa xalqlar madaniyati bilan aloqalari qanday bo‘lgani, ko‘k turklar va Islom dini haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. To‘rtinchi va beshinchi boblar o‘lkani chorizm bosib olishi va siyosiy vaziyatlar tafsilotiga bag‘ishlangan. Kitob 615 sahifadan iborat, so‘nggi betida qachon yozilgani bitilgan: “Vena, Xernalser-Gyurtel, 11. Tur. 1929-yil 10-oktyabr”. Bu katta ilmiy-tarixiy izlanish tarixchilarga Markaziy Osiyo haqida keng ma’lumot beradi.

Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on chet mamlakatlarda ham ilm bilan shug‘ullandi. Turk, nemis, fransuz, ingliz, arab, venger, rus va boshqird tillarida to‘rt yuzdan ortiq ilmiy ish e’lon qildi. “Bugungi turk eli va yaqin tarixi” (Istanbul, 1942–1947) va “Xotiralar” (Istanbul, 1969) kabi mashhur asarlari shular jumlasidandir. Markaziy Osiyo tarixining teran tadqiqotchisi To‘g‘onning xotiralari “Bo‘linganni bo‘ri yer” nomi bilan o‘zbek tilida ham nashr qilingan. Uning tadqiqotlari bugungi kunda qimmatli ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аҳмад Заки Валидий. Хотиралар//Шарқ юлдузи. 1993. № 5-6.
2. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер: Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан: ХОТИРАЛАР// Бошқирд тилидан Ш. Турдиев тарж. Китобнинг айрим қисмларини Ш. Холмурод таржима қилган. Т., 1997.
3. Гилязов И. На другой стороне. Казань. 1998.
4. Ражабов Қ. Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т., 2015
5. Салихов А. Г. Научная и общественно-политическая деятельность Ахметзаки Валидова в 1908-1920 гг. М., 1991.
6. Чокаев М. Национальное движение в Средней Азии. В кн.: Гражданская война в России: события, мнения, оценки. М. 2002.
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. II. Тошкент, 2001.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. Тошкент: Шарқ, 2000.
9. Исхаков С. М. Ахмед-Заки Валидов: новейшая литература и факты его политической биографии// Вопросы истории. № 10. 2003.
10. Ражабов Қ. Жадидлар - истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. 1991. № 1.
11. http://www.auditorium.ru
12. www. ziyonet.net.
13. http://www.dissercat.com

BIOLOGIYA DARSLARIDA KOOPERATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ibodova Mahfuza Namozovna
Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Kooperativ ta'limning didaktik mohiyati, Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL, STAD kabi strategiyalarning biologiya darslarida qo'llanilishi, ularning Integrative-biology.uz veb-platformasi bilan uyg'unlashtirilishi hamda tajriba-sinov ishlari natijalari statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kooperativ ta'lim, biologiya ta'limi, Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL, STAD, guruhda ishlash, akademik litsey.

Abstract: This article provides a scientific, theoretical, and practical analysis of the methodology for implementing cooperative learning technology in biology lessons. It examines the didactic principles of cooperative learning, the application of strategies such as Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL, and STAD in biology teaching, their integration with the Integrative-biology.uz web platform, and the results of an experimental study supported by statistical data.

Key words: cooperative learning, biology education, Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL, STAD, group work, academic lyceum.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализирована методика использования технологии кооперативного обучения на уроках биологии. Рассмотрены дидактическая сущность кооперативного обучения, применение таких стратегий, как Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL и STAD в преподавании биологии, их интеграция с веб-платформой Integrative-biology.uz, а также результаты опытно-экспериментальной работы, представленные на основе статистических данных.

Ключевые слова: кооперативное обучение, биологическое образование, Jigsaw, Think-Pair-Share, RBCL, STAD, групповая работа, академический лицей.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'quvchini bilim olishning passiv obyektidan faol sub'ektiga aylantirishni talab etadi. Ushbu talabni amalga oshirishning samarali vositalaridan biri kooperativ ta'lim texnologiyasidir. Kooperativ ta'lim - o'quvchilarning kichik guruhlarda birgalikda ishlashi, umumiy maqsadga erishish yo'lida bir-biriga ta'sir ko'rsatishi va yakuniy natija uchun barcha guruh a'zolarining birgalikda javobgar bo'lishini ta'minlovchi pedagogik yondashuvdir [1].

Biologiya fani tabiatan kuzatish, tajriba o'tkazish, ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarishni talab qiladigan amaliy yo'naltirilgan fan bo'lganligi sababli kooperativ ta'lim strategiyalarini joriy etish uchun qulay imkoniyatlarga ega [2].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kooperativ guruhlarda ishlagan o'quvchilar individual ishlagan o'quvchilarga nisbatan yuqori akademik natijalarga erishadi, shuningdek, ularda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar ham yaxshiroq rivojlanadi [3].

Maqolaning maqsadi - biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanishning metodik tizimini ishlab chiqish, uni zamonaviy veb-platforma imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirish hamda samaradorligini tajriba-sinov natijalari asosida asoslashdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, an'anaviy "o'qituvchi - sinf" modeli sharoitida ko'pchilik o'quvchilar passiv tinglovchi rolida qoladi, bu esa ularning faoliyat va tafakkur ko'nikmalarini to'liq rivojlantirishga imkon bermaydi. Kooperativ ta'lim texnologiyasi, aksincha, har bir o'quvchini o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, unda bilim nafaqat o'qituvchidan o'quvchiga, balki o'quvchidan o'quvchiga ham uzatiladi.

Bu esa, ayniqsa, biologiya kabi tushunish va tahlil qilishni talab qiluvchi fanlarda bilimlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishga xizmat qiladi [1; 3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kooperativ ta’lim nazariyasi ijtimoiy konstruktivizm g‘oyalariga asoslanadi, unga ko‘ra bilim individual ravishda emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida quriladi [4].

Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi kooperativ ta’limning nazariy poydevorini tashkil etadi: o‘quvchi tengdoshlari bilan hamkorlikda o‘zi yolg‘iz bajara olmaydigan vazifalarni bajarish darajasiga yetadi [5].

Kooperativ ta’limni samarali tashkil etish uchun beshta asosiy tamoyilga rioya qilish zarur: ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, individual va guruhaviy javobgarlik, bevosita o‘zaro ta’sir, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va guruh faoliyatini muntazam refleksiya qilish [6]. Ushbu tamoyillar e’tiborga olinmagan taqdirda, guruh ishi shunchaki “birga o‘tirish” ga aylanib qolishi, ya’ni haqiqiy kooperatsiya emas, balki soxta guruh ishi yuzaga kelishi mumkin [7].

Kooperativ ta’lim an’anaviy guruh ishidan farqli o‘laroq, tuzilmaviy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bo‘lib, unda har bir o‘quvchining vazifasi, mas’uliyati va baholash mezonlari aniq belgilanadi. Aynan shu tuzilmaviylik kooperativ ta’limning yuqori samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi [8].

Kooperativ ta’lim texnologiyasini biologiya darslarida qo‘llashning yana bir muhim jihati - bu o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirishdir. Biologik hodisalarni tushunish ko‘pincha kuzatish, taqqoslash, gipoteza qo‘yish va uni tekshirish kabi jarayonlarni talab qiladi. Guruh sharoitida o‘quvchilar bir-birining fikrlarini eshitib, tahlil qilib, o‘z pozitsiyasini asoslashga majbur bo‘ladi, bu esa tanqidiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi [3; 6].

Bundan tashqari, kooperativ ta’lim jarayonida yuzaga keladigan “ijobiy o‘zaro bog‘liqlik” hissi o‘quvchilarda mas’uliyatni faqat o‘ziga emas, balki butun jamoaga nisbatan his qilishni shakllantiradi, bu esa uzoq muddatli istiqbolda jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biologiya fanini o‘qitish amaliyotida bir qator kooperativ strategiyalar samarali qo‘llaniladi. Quyida ularning eng keng tarqalganlari tavsiflangan.

1. **Jigsaw (“boshqotirma”) usuli** - murakkab mavzu bir necha qismga bo‘linadi, har bir guruh a’zosi o‘z qismi bo‘yicha “ekspert guruhi” da chuqur o‘rganadi, so‘ngra asosiy guruhga qaytib, o‘z bilimini boshqalarga o‘rgatadi. Bu usul, masalan, “Ekosistemalar turlari” mavzusini o‘rganishda har bir ekspert guruhi (o‘rmon, cho‘l, suv havzasi, tundra ekosistemasi) bo‘yicha alohida ishlashi orqali samarali amalga oshiriladi.
2. **Think-Pair-Share (“O‘yla-Juftlash-Ulash”) texnikasi** - o‘qituvchi muammoli savol beradi, o‘quvchilar avval individual o‘ylaydi, so‘ngra juft bo‘lib fikr almashadi, yakunida esa butun sinf bilan bo‘lishadi. Ushbu texnika qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni faollashtirish imkonini beradi.
3. **STAD (Student Teams-Achievement Divisions)** - o‘quvchilar heterogen (turli saviyadagi) kichik jamoalarga bo‘linadi, birgalikda mavzuni o‘zlashtiradi, so‘ngra individual test topshiradi; jamoa natijasi har bir a’zoning o‘z avvalgi natijasiga nisbatan erishgan yutug‘i asosida hisoblanadi. Bu usul kuchli va kuchsiz o‘quvchilarni bir jamoada muvaffaqiyatli hamkorlik qilishga undaydi.
4. **RBCL (Research-Based Collaborative Learning)** - o‘quvchilar kichik tadqiqot loyihalarini guruh bo‘lib bajaradi, ma’lumot yig‘adi, tahlil qiladi va natijalarni taqdimot shaklida himoya qiladi. Biologiya darslarida bu usul, masalan, mahalliy biologik xilma-xillikni o‘rganish loyihalarida qo‘llaniladi.
5. **Round Robin (“Aylana stol”) texnikasi** - guruh a’zolari navbat bilan o‘z fikrlarini bildiradi, bu esa barcha o‘quvchilarning muhokamada ishtirok etishini kafolatlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida sanab o‘tilgan strategiyalarni tanlashda o‘qituvchi dars maqsadi, mavzuning murakkablik darajasi va o‘quvchilar tayyorgarligini hisobga olishi lozim. Masalan, yangi va murakkab mavzularni o‘rganishda Jigsaw usuli, bilimlarni tezkor mustahkamlashda Think-Pair-Share, uzoq muddatli loyiha ishlarida esa RBCL yondashuvi ko‘proq samara beradi. Strategiyalarni bir-biri bilan almashtirib qo‘llash, shuningdek, o‘quvchilarning bir xil usulga o‘rganib qolishining oldini oladi va ularning moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy sharoitda kooperativ ta’lim strategiyalarini raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish ularning samaradorligini yanada oshiradi. Tadqiqot doirasida Integrative-biology.uz veb-platformasining guruh xonalari (breakout-bo‘limlar), umumiy hujjatlar va onlayn taqdimot vositalari kooperativ strategiyalarni amalga oshirish uchun texnik muhit sifatida qo‘llanildi.

Platforma orqali Jigsaw usulini tashkil etishda har bir "ekspert guruhi" uchun alohida virtual xona ajratiladi, unda tegishli mavzu bo'yicha materiallar, video va testlar joylashtiriladi. O'quvchilar o'z ekspert xonasida ishlab bo'lgach, asosiy guruh xonasiga qaytadi va platformadagi umumiy hujjat orqali o'z bilimini boshqalarga taqdim etadi. Think-Pair-Share texnikasi platformaning "muammoli savol" moduli orqali, STAD esa guruh reytingi va individual progress-trekeri orqali amalga oshiriladi.

Bunday integratsiya o'qituvchiga har bir guruh va har bir o'quvchining faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, zarur hollarda o'z vaqtida aralashish imkonini beradi. Shuningdek, platformaning avtomatik hisobot tizimi guruh ishi natijalarini tezkor tahlil qilish va formativ baholashni osonlashtiradi.

Shu bilan birga, kooperativ ta'limni raqamli muhitga ko'chirishda bir qator amaliy qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Jumladan, barcha o'quvchilarning internetga barqaror kirish imkoniyatiga ega bo'lmasligi, ba'zi o'quvchilarning raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari yetarli emasligi va guruh ichida "erkin minish" (free-riding) hodisasining, ya'ni ba'zi a'zolarning ishni boshqalarga yuklab qo'yishining oldini olish zarurati kabi omillar hisobga olinishi lozim. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchiga aniq va individual topshiriq ajratishi, platformadagi progress-trekerdan muntazam foydalanishi hamda guruh ichidagi rollarni davriy almashtirib turishi tavsiya etiladi.

Kooperativ ta'lim texnologiyasi asosida biologiya darsini tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-jadval: **Kooperativ ta'lim texnologiyasi asosidagi dars tuzilishi**

№	Bosqich	Mazmuni
1	**Tayyorgarlik**	O'quvchilarni heterogen guruhlarga bo'lish, maqsad va baholash mezonlarini e'lon qilish.
2	**Guruhda ishlash**	Tanlangan strategiya (Jigsaw, STAD va h.k.) asosida guruh a'zolarining birgalikda topshiriqni bajarishi.
3	**Taqdimot**	Guruhlarning o'z natijalarini sinf oldida yoki platforma orqali taqdim etishi.
4	**Baholash**	Individual va guruhaviy baholash mezonlari asosida natijalarni aniqlash.
5	**Refleksiya**	Guruh faoliyatini birgalikda tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash.

Refleksiya bosqichi ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan, ammo kooperativ ta'limning uzoq muddatli samaradorligi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar nafaqat o'zlashtirgan bilimlarini, balki guruhda ishlash jarayonidagi o'zaro munosabatlarini ham tahlil qiladilar, bu esa ularning kelgusi hamkorlik faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida Navoiy viloyatidagi to'rtta akademik litseyda (NavDU, TDTU, TDFI, QDU akademik litseylari) tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqotga jami 581 nafar o'quvchi jalb etilib, ular nazorat va tajriba guruhlariga taqsimlandi.

Tajriba guruhlarida kooperativ ta'lim texnologiyasi veb-platforma bilan uyg'unlashtirilgan holda, nazorat guruhlarida esa an'anaviy frontal o'qitish usuli qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhlarida o'quvchilarning bilim sifati ko'rsatkichi nazorat guruhlariga nisbatan 12,5 foizga yuqori bo'ldi. Statistik ishonchlilikni tekshirish uchun xi-kvadrat (χ^2) mezonidan foydalanildi, hisoblangan qiymat $\chi^2 = 50{,}87$ bo'lib, bu jadval qiymatidan yuqori bo'lgani sababli farqlar statistik jihatdan ishonchli ($p < 0{,}05$) deb topildi.

Tajriba-sinov jarayonida o'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kooperativ guruhlarda ishlagan o'quvchilarda nafaqat bilim sifati, balki kommunikativ ko'nikmalar, bir-biriga hurmat va mas'uliyat hissi ham sezilarli darajada yaxshilandi.

Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada kooperativ strategiyalarni veb-platforma bilan uyg'unlashtirish guruh ishini nazorat qilish va baholashni ancha osonlashtirgani qayd etildi. Tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish darajalarining taqsimoti alohida tahlil qilinganda, tajriba guruhlarida yuqori va o'rta o'zlashtirish darajasidagi o'quvchilar ulushi sezilarli o'sganligi, past daraja ko'rsatkichi esa mos ravishda kamayganligi aniqlandi. Bundan tashqari, tajriba guruhlaridagi o'quvchilarning sinfdagi ishtirok faolligi (dars davomida savol berish, muhokamada qatnashish) nazorat guruhlariga nisbatan ancha yuqori bo'lganligi qayd etildi, bu esa kooperativ ta'limning nafaqat kognitiv, balki motivatsion jihatdan ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning nafaqat predmet bo'yicha bilim sifatini, balki ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantirishning samarali yo'lidir. Jigsaw, Think-Pair-Share, STAD va RBCL kabi strategiyalarning zamonaviy veb-platforma imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi o'quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba-sinov natijalari (12,5% samaradorlik ko'rsatkichi, $\chi^2 = 50,87$) ishlab chiqilgan metodikaning ilmiy va amaliy asoslanganligini tasdiqladi. Kelgusida kooperativ ta'lim strategiyalarini boshqa tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitishda ham qo'llash imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and Competition: Theory and Research. - Edina: Interaction Book Company, 1989. - 216 p.
2. Slavin R.E. Cooperative learning: Theory, research, and practice. - 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1995. - 174 p.
3. Tolipova J.O., Usmonov B.Sh. Biologiya ta'limida innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. - 184 b.
4. Ibodova M.N. Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - 2023. - Vol. 11, No. 4. - P. 52-55. - URL: https://www.idpublications.org/ejrres-vol-11-no-4-2023
5. Ibodova M.N. An Integrative Approach and The Methodology of Organizing Binary Lessons in Biology Education The American Journal of Applied Sciences. - 2026. - Vol. 8, Issue 06. - P. 288-296. - URL: https://doi.org/10.37547/tajas/Volume08Issue06-09
6. Ibodova M.N. Improving the Effectiveness of Integrative Technologies in Teaching Biology at Academic Lyceums. The American Journal of Applied Sciences. - 2026. - Vol. 8, Issue 06. - P. 268-280. - URL: https://doi.org/10.37547/tajas/Volume08Issue06-07
7. Ibodova M.N. Methodological foundations of the use of integrative technologies in the teaching of biology in academic lyceums. Journal of Advanced Zoology. - Hindiston, 2023. – Vol. 44, Issue S-6. - P. 1786-1789. URL: http:// www.jaz-india .com/index.php/jaz/article/view/2618
8. Ibodova M.N. Description of integrative technologies for teaching biology in academic lyceums // Current Research Journal of Pedagogics. - 2024. - Vol. 5, Issue 10. - P. 189-192. - DOI: https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-32



TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Yuldasheva Nilufar Abdullayevna
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hazratkulova Lobar To'rabek qizi
Mustaqil izlanuvchi-tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, ta'lim jarayonini individuallashtirish hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt asosida ta'limni tashkil etishning takomillashtirilgan pedagogik modeli ishlab chiqilib, uning tarkibiy qismlari, pedagogik shart-sharoitlari va kutilayotgan natijalari asoslab berilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, pedagogik model, boshlang'ich ta'lim, raqamli texnologiyalar, adaptiv ta'lim, innovatsion pedagogika, ta'lim sifati.

Abstract: This article analyzes the integration of artificial intelligence technologies into the primary education system, their potential for personalizing the educational process, and their role in enhancing students' cognitive activity. The study develops an improved pedagogical model for organizing education based on artificial intelligence and substantiates its structural components, pedagogical conditions, and expected outcomes. In addition, the article highlights the impact of the use of artificial intelligence tools on the quality and effectiveness of education.

Key words: artificial intelligence, pedagogical model, primary education, digital technologies, adaptive learning, innovative pedagogy, quality of education.

Аннотация: В статье проанализированы возможности интеграции технологий искусственного интеллекта в систему начального образования, индивидуализации образовательного процесса и развития познавательной деятельности учащихся. В ходе исследования разработана усовершенствованная педагогическая модель организации обучения на основе искусственного интеллекта, обоснованы её структурные компоненты, педагогические условия и ожидаемые результаты. Кроме того, раскрыто влияние использования средств искусственного интеллекта на качество и эффективность образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогическая модель, начальное образование, цифровые технологии, адаптивное обучение, инновационная педагогика, качество образования.

KIRISH

O'zbekiston tarixidan bilamizki, ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom va aqliy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalash eng muhim ijtimoiy qadriyat sifatida e'zozlab kelingan. Xalqimizning axloqiy-ma'rifiy tarbiya an'analari qadimiy ildizlarga ega bo'lib, ayniqsa, oilada bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi globallashuv davrida esa farzandni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda sinergetik yondashuv asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu jihatlar XXI asr ta'lim tizimining jamiyatdagi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini boshqarish, monitoring qilish va individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, individual ta'lim yo'nalishlarini yaratish hamda ta'lim natijalarini prognozlashda keng

qo‘llanilmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi esa o‘quvchilarning bilishga qiziqishi, fikrlash qobiliyati va mustaqil faoliyatini shakllantirishning muhim davri hisoblanadi. Shu sababli sun’iy intellekt asosida ta’limni tashkil etishning pedagogik modelini takomillashtirishda asosiy omillarga e’tibor bugungi kunning dolzarb ilmiy muammolaridan biridir.

Biz ko‘pincha raqamli olam va ta’lim texnologiyalari yordamida tashkil etilgan adabiyot darslarida o‘quvchilarning o‘zlari o‘rganayotgan asarlar mazmunini interaktiv tarzda idrok etishini kuzatamiz. Masalan, dars mavzusida berilgan badiiy asar syujetini, bosh g‘oyasini, muammoli vaziyatlarini raqamli xarita yordamida ko‘rsatish, obrazlararo munosabatni vizual diagrammalar orqali ifodalash, yozuvchi biografiyasi bo‘yicha raqamli vaqt jadvali tuzish, shuningdek, badiiy asar asosida “virtual sahna” yoki “raqamli teatrlashtirilgan ko‘rinish”lar yaratish kabi innovatsion yondashuvlar ta’lim ishtirokchilarining, ya’ni o‘quvchilarning darsdagi ilmiy, ijodiy va kreativ ko‘rinishdagi kichik tadqiqotlariga yaqqol misol bo‘ladi. Ta’limdagi bu ijobiy vaziyat o‘quvchi faolligini sezilarli darajada oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi so‘nggi yillarda pedagogika fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi. Xususan, J. Holmes, M. Bialik va C. Fadel sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlarini tahlil qilib, uning o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos adaptiv ta’lim muhitini yaratishdagi ahamiyatini asoslab berganlar. R. Luckin esa sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchini almashtirmasligi, balki uning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishini ta’kidlaydi.

YUNESKOning sun’iy intellekt va ta’limga oid tavsiyalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda pedagogik maqsadga muvofiqlik, inklyuzivlik, axborot xavfsizligi hamda axloqiy tamoyillarga amal qilish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, adaptiv ta’lim platformalari, aqlli baholash tizimlari va o‘quv analitikasi vositalari boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida baholanadi.

O‘zbekistonda ham ta’limni raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun’iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy olimlardan U. Sh. Begimqulov, N. A. Muslimov va boshqa tadqiqotchilar raqamli pedagogika, innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan yoritganlar. Biroq boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt asosida ta’limni tashkil etishning yaxlit pedagogik modelini ishlab chiqish va uning samaradorlik omillarini kompleks tahlil qilish masalalari hali ham qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni va imkoniyatlari nazariy jihatdan o‘rganildi hamda pedagogik faollashtiruvchi metodlar ishlab chiqildi. Ta’limni qiziqarli tashkil etish omillari sifatida bola shaxsiga yo‘naltirilgan baholash metodlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tavsiya qilish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gamifikatsiya. O‘quv jarayonida o‘yin elementlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarga motivatsiya beriladi va ularning bilimlarini baholash imkoniyati yaratiladi. Bu metod o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Simulyatsiyalar. Simulyatsiya dasturlari orqali o‘quvchilarning amaliy bilimlarini va qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham baholash mumkin.

Ta’limiy o‘yin turi - “Kreativ chiziqlar” metodi. Ushbu metodda A4 formatdagi qog‘ozga raqamlarni 0 dan 10 gacha yozib chiqish topshirig‘i beriladi. Shu raqamlarni kreativlik bilan shakllarga aylantirish vazifa sifatida o‘quvchiga aytiladi. O‘quvchilar antiqa narsalarni simvol qilib olishadi. Bu metod orqali bolalardagi ijodiy tasavvur olami yanada kengaytiriladi. Hayotga tanqidiy nazar tashlash, mustaqil tafakkur qilish kabi amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Demak, maktab ta’limi shaklida tahsil olayotgan o‘quvchi bilimini nazorat qilish va baholashning ko‘plab instrumentlari bugunda amalga oshirilmoqda.

O‘qitishda sun’iy intellekt va ta’lim integratsiyasi masalasi. Sun’iy intellekt inson intellektiga xos bo‘lgan ayrim funksiyalarni bajarishga qodir bo‘lgan dasturiy va texnik vositalar majmuasidir. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish, topshiriqlarni avtomatik baholash, tavsiyalar berish va o‘quv jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflarda sun'iy intellektdan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash;
- ta'lim mazmunini moslashtirish;
- o'quv faoliyatini monitoring qilish;
- bilimlarni tezkor baholash;
- ta'lim motivatsiyasini oshirish;
- mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Sun'iy intellekt asosidagi pedagogik modelning tuzilishi. Taklif etilayotgan pedagogik model beshta asosiy komponentdan tashkil topadi.

1. **Maqsadli komponent.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish.
2. **Mazmuniy komponent.** Davlat ta'lim standartlari asosida sun'iy intellekt texnologiyalari bilan boyitilgan o'quv materiallari, elektron resurslar va interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.
3. **Texnologik komponent.** Ushbu komponent quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- adaptiv ta'lim platformalari;
- aqlli test tizimlari;
- virtual yordamchilar;
- raqamli ta'lim resurslari;
- o'quv analitikasi tizimlari.

4. **Diagnostik komponent.** O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam baholash, natijalarni tahlil qilish va ta'lim jarayoniga zarur tuzatishlar kiritishdan iborat.
5. **Natijaviy komponent.** Mazkur modelni qo'llash natijasida:

- o'quvchilarning bilim sifati oshadi;
- tanqidiy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi;
- mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllanadi;
- ta'limga bo'lgan qiziqish kuchayadi;
- raqamli kompetensiyalar rivojlanadi.

Pedagogik modelni amalga oshirishning samaradorlik shartlari. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim modelini samarali joriy etish quyidagi omillarga bog'liq.

Birinchidan, pedagoglarning raqamli kompetentligini oshirish zarur. O'qituvchi sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish metodikasini yaxshi bilishi kerak.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik infratuzilma yaratilishi lozim. Kompyuterlar, planshetlar va internet tarmog'i sifatli ishlashi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Sun'iy intellekt vositalari bolaning rivojlanishiga moslashtirilgan bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Bu o'quvchilarning raqamli ta'lim muhitidagi faoliyatini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Natijada har bir o'quvchi o'z bilim darajasiga mos topshiriqlarni bajaradi va o'zlashtirish samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, o'qituvchi uchun ham o'quv jarayonini boshqarish va natijalarni tahlil qilish qulaylashadi.

Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib yondashar ekanmiz, bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy kompetentlikni rivojlantirish o‘sib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkuri mahsuli sifatida o‘zini amaliy faoliyatda namoyon etadi, degan g‘oyaga tayanamiz hamda uning tarkibiy komponentlarini o‘rganib, ta’limni tashkil etishda foydalanamiz.

Boshlang‘ich sinf ta’limida sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan pedagogik model o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Takomillashtirilgan modelning amaliyotga joriy etilishi o‘quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va raqamli kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli ta’limni rivojlantirishga oid qarorlari.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda axborot texnologiyalari. - Toshkent, 2022.
4. Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. - Toshkent, 2021.
5. Yuldasheva N. va boshqalar Reforms In Higher Education Determine The Priority Of Sustainable Development Trends Of The Non-State Education System Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 11 November 2023 Uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ 658-662-betlar.
6. Yuldasheva N. Hayitova O. Значение Парадигматического Подхода В Повышении Компетентности Будущих Учителей Начальных Классов Research Journal Of Trauma And Disability Studies // Volume: 3 Issue:1January-2024ISSN:2720-6866 http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds

5–7 YOSHLI QIZLARDA BADIIY GIMNASTIKA ORQALI MAXSUS HARAKAT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Botirova Sayyora Nurullayevna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Erta bolalik davrida maxsus harakat qobiliyatlarini rivojlantirish bolalarning umumiy jismoniy va motor rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. "5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish" mavzusi badiiy gimnastikadan motor o'rganishning sezgir davrida muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik, muvozanat va kuchni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida foydalanishga qaratilgan. 5–7 yoshli bolalar yangi harakatlarga yuqori moslashuvchanlikni namoyon etadilar, bu esa ushbu bosqichni tizimli jismoniy tayyorgarlikni joriy etish uchun ayniqsa qulay hisoblanadi.

Kalit so'zlar: badiiy gimnastika, maxsus harakat ko'nikmalari, motor rivojlanishi, 5–7 yoshli qizlar, maktabgacha yosh, muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik, muvozanat, jismoniy tayyorgarlik.

Abstract: The development of special movement skills in early childhood plays an important role in the overall physical and motor development of children. The topic "Development of Special Movement Skills in Girls Aged 5–7 Through Rhythmic Gymnastics" is aimed at using rhythmic gymnastics as an effective tool for improving coordination, flexibility, balance, and strength during a sensitive period of motor learning. Children aged 5–7 demonstrate high adaptability to new movements, making this stage particularly suitable for the introduction of systematic physical training.

Key words: rhythmic gymnastics, special movement skills, motor development, girls aged 5–7, preschool children, coordination, flexibility, balance, physical training.

Аннотация: Развитие специальных двигательных навыков в раннем детстве играет важную роль в общем физическом и двигательном развитии детей. Тема "Развитие специальных двигательных навыков у девочек 5–7 лет посредством художественной гимнастики" направлена на использование художественной гимнастики как эффективного средства для развития координации, гибкости, равновесия и силы в чувствительный период двигательного обучения. Дети в возрасте 5–7 лет демонстрируют высокую адаптивность к новым движениям, что делает данный этап особенно подходящим для внедрения систематической физической подготовки.

Ключевые слова: художественная гимнастика, специальные двигательные навыки, моторное развитие, девочки 5–7 лет, дошкольный возраст, координация, гибкость, равновесие, физическая подготовка.

KIRISH

Erta bolalik davrida jismoniy rivojlanish bolaning umumiy o'sishi va sog'lig'ining asosiy tarkibiy qismidir. 5–7 yosh oralig'i motor qobiliyatlari va jismoniy sifatlarni shakllantirish uchun sezgir bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalar rivojlanishning keyingi bosqichlariga nisbatan muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik, muvozanat va ritmni tezroq rivojlantiradilar.

Badiiy gimnastika harakat, musiqa, muvofiqlashtirish va badiiy ifoda elementlarini birlashtirgan eng samarali jismoniy faoliyat turlaridan biridir. Strukturaviy mashqlar orqali badiiy gimnastika nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki kognitiv va hissiy o'sishni ham rag'batlantiradi. Shuning uchun badiiy gimnastikani erta yoshda joriy etish maxsus harakat ko'nikmalarini shakllantirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vladimir Lyakh maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat qobiliyatlarini tadqiq etib, ushbu davrni motor rivojlanishning eng sezgir bosqichi sifatida asoslaydi va harakat sifatlarini muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning ishi ushbu tadqiqotda 5–7 yosh davri tanlanishini nazariy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natalia Karpenko badiiy gimnastikada yosh sportchilarni tayyorlash metodikasini yoritib, boshlang‘ich bosqichda moslashuvchanlik va koordinatsiyani shakllantirishga qaratilgan mashqlar tizimini taklif qiladi. Bu yondashuv tadqiqotning mashg‘ulot dasturini bosqichma-bosqich tuzishda amaliy asos bo‘lib xizmat qildi.

Xalqaro Gimnastika Federatsiyasining (FIG) rasmiy qoidalari (Code of Points) badiiy gimnastikadagi texnik elementlar, ularning bajarilish talablari va baholash mezonlarini belgilaydi. Ushbu me’yoriy hujjat tadqiqotda qo‘llanilgan gimnastik elementlarning (aylanishlar, sakrashlar, muvozanat pozitsiyalari) to‘g‘ri tanlanishi va bajarilishini ta’minlashda yo‘naltiruvchi manba bo‘ldi.

Tudor Bompa va Carlo Buzzichelli sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish nazariyasida davriylashtirish tamoyillarini ishlab chiqqan bo‘lib, mashg‘ulot yukini bosqichma-bosqich oshirish va tayyorgarlikni tizimli tashkil etish g‘oyalarini ilgari suradi. Ushbu tamoyillar tadqiqotdagi to‘rt bosqichli (tayyorgarlik, muvofiqlashtirish, ko‘nikma shakllantirish, ijodiy) mashg‘ulot tizimini loyihalashda metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Tadqiqotning dolzarbligi

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun jismoniy tarbiya usullarini takomillashtirish zarurati ortib borayotganidadir. Zamonaviy turmush tarzi ko‘pincha bolalarning jismoniy faolligini cheklaydi, bu ularning motor rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada jismoniy rivojlanishni tizimli va qiziqarli tarzda rag‘batlantiradigan ilmiy asoslangan dasturlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Badiiy gimnastika moslashuvchanlik, muvofiqlashtirish, muvozanat va ritmni birlashtirgan holda harakat mashqlariga kompleks yondashuvni taklif etadi. Biroq 5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari qo‘shimcha tadqiqotlar va tizimlashtirishni talab qiladi.

Tadqiqot maqsadi

Ushbu tadqiqotning maqsadi 5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika mashqlari orqali maxsus harakat ko‘nikmalarini yaxshilashga qaratilgan mashg‘ulot metodologiyasini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslashdir.

Tadqiqot obyekti

Maktabgacha ta’lim tashkilotida 5–7 yoshli qizlarning jismoniy tarbiya jarayoni.Tadqiqot mavzusi

Tadqiqot predmeti badiiy gimnastika mashqlari orqali maxsus harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish metodologiyasidir.

Tadqiqot gipotezasi

Mashg‘ulot jarayonida badiiy gimnastika mashqlaridan muntazam foydalanish 5–7 yoshli qizlarda muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik, muvozanat va ritm kabi maxsus harakat qobiliyatlarini rivojlantirishni sezilarli darajada yaxshilaydi, degan gipoteza mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida qatnashgan 5–7 yoshli qizlar ishtirok etdi. Mashg‘ulot dasturi bir necha hafta davom etdi va haftasiga ikki–uch marta muntazam mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oldi.

Mashg‘ulot jarayoni bir necha bosqichda tashkil etildi:

1. **Tayyorgarlik bosqichi** – holatni rivojlantirish, asosiy harakatlanish harakatlari va moslashuvchanlik mashqlari.
2. **Muvofiqlashtirish bosqichi** – muvozanat, ritm va fazoviy yo‘nalishga qaratilgan mashqlar.
3. **Ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichi** – aylanishlar, sakrashlar va qo‘lni qo‘llab-quvvatlash pozitsiyalari kabi asosiy badiiy gimnastika elementlarini kiritish.
4. **Ijodiy bosqich** – harakatlarni musiqa bilan ijro etiladigan qisqa mashqlarga birlashtirish.

Baholash usullari kuzatish, jismoniy sinov va motor ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlilini o‘z ichiga oladi.

Ushbu tadqiqot badiiy gimnastika mashg‘ulotlari orqali yosh qizlarda muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik, kuch va muvozanatni rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot jismoniy tarbiya mashg‘uloti doirasida amaliy mashg‘ulotlar va kuzatish usullaridan foydalangan holda o‘tkazildi.

Tadqiqot ishtirokchilari badiiy gimnastika mashg‘ulotlariga muntazam ravishda qatnashadigan 5–7 yoshli 20 nafar qizlar. Bu yosh guruhi tanlanishining asosiy sababi bolalik davri asosiy motor ko‘nikmalari va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun muhim bosqich hisoblanadi.

Mashg‘ulot dasturi bir necha hafta davom etdi va haftasiga uchta mashg‘ulotni o‘z ichiga oldi. Har bir mashg‘ulot taxminan 45–60 daqiqa davom etdi va quyidagi qismlardan iborat:

1. Qizdirish mashqlari (10–15 daqiqa)

Qizdirish yengil yugurish, cho‘zish mashqlari va oddiy ritmik harakatlar bilan amalga oshirildi. Ushbu mashg‘ulotlar mushaklar va bo‘g‘imlarni yanada intensiv jismoniy faoliyatga tayyorladi hamda jarohatlar xavfini kamaytirdi.

2. Muvofiqlashtirish mashqlari (10–15 daqiqa)

Muvofiqlashtirish tana harakatlarini ritmik musiqa bilan birlashtirgan va lentalar, koptoklar hamda halqalar kabi asboblardan foydalangan holda mashqlar orqali rivojlantirildi. Bu mashqlar gimnastikachilardan apparatni boshqarish bilan birga harakatlarini ritm bilan sinxronlashtirishni talab qildi.

3. Moslashuvchanlik mashqlari (10 daqiqa)

Moslashuvchanlik mashqlari oyoqlar, bel va yelkalar uchun cho‘zilishlarni o‘z ichiga oldi. Harakat diapazonini asta-sekin oshirish uchun bo‘linish, bel egilishi va dinamik cho‘zilish kabi harakatlar qo‘llanildi.

4. Kuch mashqlari (10 daqiqa)

Oyoq ko‘tarish, yadroni barqarorlashtirish harakatlari va oddiy sakrashlar kabi tana vazni mashqlariga qaratilgan kuchni rivojlantirish mashqlari bajarildi. Bu mashqlar oyoqlar, qo‘llar va qorin sohasi mushaklarini mustahkamlashga yordam berdi.

5. Muvozanat mashqlari (5–10 daqiqa)

Muvozanat bir oyoqda turish, sekin burilishlar va harakat paytida tananing barqaror holatini saqlash kabi harakatlar orqali rivojlantirildi.Ma’lumotlarni to‘plash usullari

Ishtirokchilarning jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishi mashg‘ulot davrida kuzatildi. Koordinatsiya, moslashuvchanlik, kuch va muvozanatdagi yaxshilanishlarni baholash uchun testlar va oddiy ishlash baholashlari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotdan oldin va keyin motor qobiliyati ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ko‘rsatkich	Tajribadan oldin (o‘rtacha ± SD)	Tajribadan keyin (o‘rtacha ± SD)	t-qiymat	p-qiymat
Moslashuvchanlik (sm)	12.4 ± 2.1	17.8 ± 2.3	6.52	0.001
Muvozanat (soniya)	8.7 ± 1.9	13.5 ± 2.4	5.94	0.001
Muvozanat (ball)	6.2 ± 1.3	8.9 ± 1.5	4.87	0.002
Ritmik qobiliyat (ball)	5.8 ± 1.4	8.4 ± 1.6	5.11	0.001

Natijalar quyidagicha tahlil qilindi. Statistik tahlil badiiy gimnastika mashg‘ulotlari dasturini joriy etgandan so‘ng barcha o‘lchangan motor qobiliyatlarida sezilarli yaxshilanishlarni aniqladi.

Moslashuvchanlik 12,4 sm dan 17,8 sm gacha yaxshilandi, bu statistik jihatdan sezilarli farqni ko‘rsatdi ($t = 6,52$, $p < 0,01$). Bu shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulot dasturiga kiritilgan muntazam cho‘zish va harakatchanlik mashqlari bo‘g‘imlarning moslashuvchanligini samarali ravishda oshirdi.

Bir oyoqli tik turish testida muvozanat ko‘rsatkichi 8,7 soniyadan 13,5 soniyagacha oshdi ($t = 5,94$, $p < 0,01$), bu holatni nazorat qilish va barqarorlikning yaxshilanganligini ko‘rsatadi.

Koordinatsiya qobiliyati ham sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatdi, 6,2 dan 8,9 ballgacha oshdi ($t = 4,87$, $p < 0,01$). Bu yaxshilanish fazoviy yo‘nalish va boshqariladigan tana harakatlarini o‘z ichiga olgan mashqlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ritmik qobiliyat 5,8 balldan 8,4 ballgacha oshdi ($t = 5,11$, $p < 0,01$), bu badiiy gimnastikada musiqaga asoslangan harakat mashqlarining ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, natijalar joriy etilgan mashg‘ulot metodologiyasi 5–7 yoshli qizlarda maxsus harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga statistik jihatdan sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi.

SPSS statistikasi yordamida o‘tkazilgan juftlashtirilgan namunalar t-test tahlili barcha o‘lchangan o‘zgaruvchilar bo‘yicha sinovdan oldingi va sinovdan keyingi qiymatlar o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farqlarni ko‘rsatdi ($p < 0,05$). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, badiiy gimnastika mashg‘ulotlari dasturi ishtirokchilarda motor qobiliyatlarini yaxshilashga sezilarli hissa qo‘shgan.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi 5–7 yoshli qizlar uchun maxsus ishlab chiqilgan, maxsus harakat qobiliyatlarini oshirish uchun badiiy gimnastika elementlarini birlashtirgan tuzilgan o‘quv dasturini ishlab chiqishda yotadi. Tadqiqot maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun metodologik tavsiyalar beradi.

Ushbu ishning maqsadi badiiy gimnastika mashqlari orqali yosh qizlarda maxsus harakat ko‘nikmalarini rivojlantiradigan mashg‘ulot tizimini loyihalash va asoslashdir. Dastur asosiy motor faoliyatlaridan ko‘proq ixtisoslashgan gimnastika harakatlariga bosqichma-bosqich o‘tishni ta’kidlaydi. U motivatsiyani saqlab qolish va yoshga mos rivojlanishni ta’minlash uchun o‘yin asosida o‘rganish, taqlid, ritmik mashqlar va oddiy gimnastika elementlarini birlashtiradi.

Mashg‘ulot dasturi bir necha bosqichlarga bo‘lingan, jumladan, asosiy tayyorgarlik, muvofiqlashtirish va muvozanatni rivojlantirish, gimnastika ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ijodiy ijro faoliyati. Har bir bosqich o‘ziga xos motor fazilatlarini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, ishonch, intizom va ijodiy harakat ifodasini rag‘batlantiradi.

Kutilayotgan natijalar moslashuvchanlikni yaxshilash, muvofiqlashtirish va muvozanatni yaxshilash, ritm va fazoviy ongni yaxshilash hamda asosiy gimnastika ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, badiiy gimnastika qizlarning jismoniy savodxonligini oshirish va erta bolalik davrida sog‘lom jismoniy hamda ruhiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun qimmatli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot badiiy gimnastika 5–7 yoshli qizlarda maxsus harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqlaydi. Tizimli mashg‘ulotlar muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik, muvozanat va ritmik qobiliyatni yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, badiiy gimnastika bolalarning ijodiy ifodasini va jismoniy savodxonligini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa uzoq muddatli jismoniy rivojlanish uchun zarurdir.

Erta bolalik davrida motor qobiliyatlarining rivojlanishi bolalarning jismoniy va funksional rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqot 5–7 yoshli qizlar orasida maxsus harakat ko‘nikmalarini yaxshilashda badiiy gimnastikaning samaradorligini o‘rganadi. Rivojlanishning ushbu bosqichida bolalar motor o‘rganishga, ayniqsa muvofiqlashtirish, moslashuvchanlik va muvozanat sohalarida yuqori sezgirlikni namoyon etadilar. Tadqiqotning maqsadi badiiy gimnastika mashqlari orqali maxsus harakat ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv metodologiyasini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslash edi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, eksperimental mashg‘ulotlar va jismoniy tayyorgarlikni sinovdan o‘tkazish qo‘llanildi. Strukturaviy o‘quv dasturi 12 haftalik davrda haftasiga uch marta mashg‘ulotlar o‘tkazilib, amalga oshirildi. Natijalar ishtirokchilar orasida moslashuvchanlik, muvofiqlashtirish, muvozanat va ritmik qobiliyatda sezilarli yaxshilanishlarni ko‘rsatdi. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, badiiy gimnastika erta bolalik davrida motor qobiliyatini va jismoniy savodxonlikni rivojlantirish uchun samarali pedagogik vositadir. Taklif etilayotgan o‘quv metodologiyasi murabbiylar, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va erta bolalik sport dasturlari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Quyidagi amaliy tavsiyalar berildi. Badiiy gimnastika mashqlari maktabgacha va boshlang‘ich maktab jismoniy tarbiya dasturlariga kiritilishi kerakligi, mashg‘ulotlar muntazam ravishda haftada ikki–uch marta o‘tkazilishi, mashqlar oddiy harakatlardan murakkabroq kombinatsiyalarga o‘tish zarurligi, motivatsiya va ishtirokni oshirish uchun musiqa va o‘yinga asoslangan mashg‘ulotlar mashg‘ulotlarga kiritilishi zarurligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vladimir Lyakh. Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat qobiliyatlari. Moskva: Sport nashriyoti, 2006.
2. Natalia Karpenko. Badiiy gimnastika: yosh sportchilarni tayyorlash. Kiyev: Olimpiya adabiyoti, 2010.
3. International Gymnastics Federation (FIG). Badiiy gimnastika qoidalari (Code of Points). Lozanna, Shveytsariya, 2022.
4. Tudor Bompa va Carlo Buzzichelli. Sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish nazariyasi va metodikasi. Champaign: Human Kinetics, 2019.
5. Ian Stafford. Sportda bolalarni murabbiylik qilish asoslari. London: Routledge, 2011.
6. World Health Organization. Jismoniy faollik bo‘yicha global tavsiyalar. Jeneva, 2020.
7. UNESCO. Sifatli jismoniy tarbiya bo‘yicha tavsiyalar. Parij, 2015.
8. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2018.
9. Abdulla Abdullayev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2017.
10. Bahodir Usmonxo‘jayev. Sport pedagogikasi asoslari. Toshkent, 2016.
11. O‘zbekiston Gimnastika Federatsiyasi. Badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2021.

TALABALARDA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Aymanova Shiyrinay Kamilovna
Ajiniyaz nomidagi NDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tillarni o'qitish jarayonida grammatik kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda grammatik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari hamda uning kommunikativ kompetensiyaga ta'siri va undagi o'rni yoritiladi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida grammatik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi parafrazlash, diskursga asoslangan o'qitish va metakognitiv strategiyalarning didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuvlarning grammatik bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdagi ahamiyati qiyosiy jihatdan baholanadi. Tahlil natijalari ushbu yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llash til o'rganuvchilarning grammatik kompetensiyasini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Olingan xulosalar grammatika ta'limining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: grammatik kompetensiya, parafrazlash, diskurs, didaktik, metakognitiv, integratsiya.

Abstract: This article analyzes modern pedagogical approaches to developing grammatical competence in the process of foreign language teaching. It highlights the theoretical foundations of the concept of grammatical competence, as well as its influence on and role in communicative competence. Based on the scientific views of foreign and local scholars, the didactic potential of paraphrasing, discourse-based learning, and metacognitive strategies for developing grammatical competence is examined. The significance of these approaches in developing grammatical knowledge, skills, and abilities is evaluated from a comparative perspective. The results of the analysis indicate that the integrated application of these approaches contributes to the effective development of learners' grammatical competence. The conclusions have both theoretical and practical significance for improving the effectiveness of grammar instruction.

Key words: grammatical competence, paraphrasing, discourse, didactics, metacognitive, integration.

Аннотация: В данной статье анализируются современные педагогические подходы к развитию грамматической компетенции в процессе обучения иностранным языкам. Рассматриваются теоретические основы понятия грамматической компетенции, а также её влияние и роль в формировании коммуникативной компетенции. На основе научных взглядов зарубежных и отечественных исследователей исследуются дидактические возможности перефразирования, обучения, основанного на дискурсе, и метакогнитивных стратегий, способствующих развитию грамматической компетенции. Проводится сравнительная оценка значения данных подходов в развитии грамматических знаний, навыков и умений. Результаты анализа показали, что интегрированное применение этих подходов способствует эффективному развитию грамматической компетенции изучающих иностранный язык. Полученные выводы имеют теоретическую и практическую значимость для повышения эффективности обучения грамматике.

Ключевые слова: грамматическая компетенция, перефразирование, дискурс, дидактика, метакогнитивные стратегии, интеграция.

KIRISH

Globallashuv, raqamlashtirish va xalqaro aloqalarning kengayishi sharoitida xorijiy tillarni bilish shunchaki qo'shimcha ko'nikma emas, balki zamonaviy jamiyatning muhim ehtiyojlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishdagi asosiy muammolardan biri grammatik qoidalarni passiv yod olishdan olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llashga o'tishni ta'minlashdan iborat. Zamonaviy ta'lim jarayonida chet tilini bilish ommaviy axborot manbalari, ilmiy ma'lumotlar bazalari va ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi. Xalqaro munosabatlarga bo'lgan talabning ortib borishi samarali xorijiy til ta'limining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Ayni paytda xorijiy til ta'limi ko'lami kengayib borayotgan sharoitda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Til vositalaridan muloqot jarayonida to'g'ri va samarali foydalanishni ta'minlovchi grammatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy element-

laridan biridir. Chet tilini o‘rganishda grammatik kompetensiyaning rolini baholash qiyin. U nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, fikrning aniq va izchil ifodalanishini ta’minlaydi hamda madaniyatlararo muvaffaqiyatli muloqot uchun zamin yaratadi. Chet tillarni o‘qitishning zamonaviy metodikasi grammatikani nafaqat qoidalar tizimi, balki kommunikativ niyatlarni amalga oshirish vositasi sifatida ham talqin etadi. Shu sababli grammatik kompetensiyani shakllantirish kommunikativ, kognitiv va interfaol o‘qitish usullaridan foydalangan holda nutq faoliyati kontekstida amalga oshirilishi zarur. Demak, grammatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chet tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning zaruriy sharti bo‘lib xizmat qiladi hamda uning rivojlantirilishi filologiya yo‘nalishi talabalarining til o‘rganish sifatini oshirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Grammatik kompetensiya tushunchasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda grammatik kompetensiya o‘quvchining turli kommunikativ vaziyatlarda grammatik jihatdan to‘g‘ri fikrlarni tushunish va ifodalash qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Eng umumiy ko‘rinishda grammatik kompetensiya N. Xomskiy tomonidan cheksiz miqdordagi grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplarni yaratishga imkon beradigan cheklangan miqdordagi grammatik qoidalarni nazariy va amaliy jihatdan bilish sifatida ta’riflangan [2].

Shunga qaramay, keyinchalik N. Xomskiy konsepsiyasini mashhur amerikalik tilshunos D. Xayms kengaytirib, tildan foydalanishning kommunikativ va sotsiolingvistik jihatlariga alohida urg‘u berdi.

Grammatik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning to‘rt tarkibiy qismidan biri sifatida qayd etgan D. Xayms ushbu hodisani tilning vaziyatga mosligini ichki anglash hamda nutqiy faoliyat ishtirokchisi bo‘lish imkonini beruvchi qobiliyat sifatida ta’riflaydi [5].

M. Kanale va M. Svenning fikriga ko‘ra, grammatik kompetensiya tilning morfologiyasi, sintaksisi, semantikasi va fonologiyasi bo‘yicha leksik birliklar hamda qoidalarni bilishdir [1].

N. D. Galskovaning fikricha, chet tilini o‘rganish jarayonida grammatik kompetensiya o‘quvchilarning to‘g‘ri gaplar tuza olishi, ularni tushunishi, grammatik xatolarni aniqlay bilishi, to‘g‘ri va noto‘g‘ri til shakllari haqida xulosa chiqarishi hamda tilni nazorat qilish bo‘yicha topshiriqlarni bajarishi uchun zarur va yetarli bo‘lgan nazariy bilimlar va lingvistik ko‘nikmalar majmuidir [4].

Umume’tirof etilgan klassifikatsiyaga, jumladan, Tillarni bilishning Umumevropa kompetensiyalari (CEFR) ga ko‘ra, grammatik kompetensiya o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi uchta tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi [1]:

1. **Grammatik bilimlar** – til birliklari va gaplarni tuzish qoidalari haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi.
2. **Grammatik ko‘nikmalar** – nutqda grammatik tuzilmalarni avtomatlashtirilgan tarzda to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlaydi.
3. **Grammatik malakalar** – egallangan grammatik bilim va ko‘nikmalardan og‘zaki hamda yozma muloqot jarayonida kommunikativ vazifalarni samarali hal etishda foydalanish imkonini beradi.

Grammatik tayyorgarlikning yetarli darajada shakllanmaganligi talabalarning chet tilidagi nutqni idrok etish va uni hosil qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Til o‘rgatish metodikasiga oid ilmiy-metodik manbalar shuni ko‘rsatadiki, grammatik kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo‘llari o‘quvchiga yo‘naltirilgan hamda kommunikatsiyaga asoslangan ta’lim yondashuvlarining integratsiyasiga tayanadi. Zamonaviy tadqiqotlar faqat grammatik qoidalarni yodlashga e’tibor qaratish o‘rniga, o‘quvchilarni turli kommunikativ kontekstlarda grammatikani mazmunli qo‘llashga undaydigan o‘qitish usullariga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu sababli xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida talabalarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi metodlar, pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Quyida grammatik kompetensiyani rivojlantirishda samaradorligi ilmiy jihatdan ko‘rib chiqilgan asosiy yondashuvlar tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Parafrazlash (Paraphrasing). Garchi parafrazlash (qayta ifodalash) an’anaviy ravishda yozish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish strategiyasi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa-da, so‘nggi uslubiy tadqiqotlar uning o‘quvchilarni muqobil grammatik tuzilmalardan foydalangan holda gaplarni qayta shakllantirishga o‘rgatish orqali grammatik kompetensiyani rivojlantirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi. Diane Larsen-Freemanning Teaching Language: From Grammar to Grammaring asarida grammatika qoidalar yig‘indisi emas, balki ma’no ifodalash vositasi sifa-

tida talqin etiladi [6]. Muallif grammatik kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida turli grammatik konstruksiyalarni qayta ifodalash (reformulation, re-expression), transformatsiya va ma'noga asoslangan mashqlarni tahlil qiladi. Ushbu yondashuv talabalarga bitta fikrni turli grammatik tuzilmalar orqali ifodalashni o'rgatadi. Natijada grammatik moslashuvchanlik, kontekstual aniqlik, kommunikativ samaradorlik hamda og'zaki va yozma nutqda grammatik bilimlarni mazmunli qo'llash rivojlanadi. Rod Ellis ham grammatik shakllarni turli kommunikativ vazifalar orqali qayta ishlash va ifodalashning ahamiyatini ta'kidlaydi [10].

Diskursga asoslangan yondashuv (Discourse-Based Approach). M.A.K. Halliday va Christian M.I. Matthiessenning Halliday's Introduction to Functional Grammar asari funksional lingvistika sohasidagi eng muhim manbalardan biridir [7]. Mualliflarning ta'kidlashicha, grammatika shunchaki qoidalar tizimi emas, balki ma'no yaratish vositasidir. Shu nuqtayi nazardan, diskursga asoslangan o'qitish o'quvchilarga haqiqiy kommunikativ kontekstlarda grammatik tuzilmalarning qanday ishlashini tushunish imkonini beradi va shu orqali grammatik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Michael McCarthy Language as Discourse asarida til birliklarining vazifalari diskursiv muhitda yanada to'liq anglanishini, tilni kontekstda o'rganish esa uning shakli va ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq tushunishga yordam berishini ta'kidlaydi [8].

Metakognitiv strategiyalar (Metacognitive Strategies). Metakognitiv strategiyalar o'quvchining o'z o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, kuzatish, nazorat qilish va baholashga qaratilgan strategiyalardir. Ular til o'rganuvchiga nafaqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish, balki ularni turli kommunikativ vaziyatlarda ongli ravishda qo'llash imkonini beradi. Metakognitsiya tushunchasi ilk bor John Flavell tomonidan 1976-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan [3].

Keyinchalik Rebecca L. Oxford ushbu strategiyalarning chet tillarni o'qitishdagi ahamiyatini asoslab, ular talabalarga o'z xatolarini tahlil qilish va samarali o'rganish usullarini tanlashga yordam berishini ta'kidlagan [9].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar grammatik kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun bitta yondashuvning o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Turli pedagogik yondashuvlarni o'zaro integratsiya qilgandagina talabalarning grammatik bilim, ko'nikma va malakalarini kompleks rivojlantirish mumkin. Masalan, parafrazlash yoki bir xil ma'lumotni turli grammatik tuzilmalar yordamida ifodalash talabalarda grammatik moslashuvchanlikni hamda grammatik variantlarni ongli ravishda tanlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Diskursga asoslangan yondashuv esa grammatikani kontekstda qo'llash va grammatik tanlovning kommunikativ maqsad bilan bog'liqligini tushuntiradi. Metakognitiv strategiyalar til o'rganuvchini o'z xatolarini mustaqil ravishda tahlil qilishga va ularni bartaraf etish yo'llarini tanlashga o'rgatadi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi grammatik bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan grammatik kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ingliz tilini o'qitish amaliyotida grammatik kompetensiya tilni samarali o'zlashtirish hamda nutqda to'g'ri va ravon muloqot olib borishning muhim sharti hisoblanadi. Ko'rib chiqilgan adabiyotlar tahlili va zamonaviy pedagogik yondashuvlar haqidagi mulohazalar shuni ko'rsatadiki, grammatikani samarali o'qitish faqat grammatik qoidalarni o'rgatish bilangina cheklanmasligi, balki ulardan muloqot jarayonida mazmunli foydalanishni ham ta'minlashi lozim. Parafrazlash, diskursga asoslangan yondashuv hamda metakognitiv strategiyalarning o'zaro integratsiyasi chet tilini o'rganuvchilarning grammatik bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Canale, M., & Swain, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing// Applied Linguistics. – 1980. – No. 1. – P. 47–54.
2. Chomsky, N. Syntactic Structures. – The Hague–Paris: Mouton, 1957. – 117 p.
3. Flavell, J. H. Metacognitive Aspects of Problem Solving // In: Resnick, L. B. (Ed.). The Nature of Intelligence. – 1976. – P. 231–235.
4. Galskova, N. D. Теория обучения иностранным языкам. – Москва: Академия, 2004.
5. Hymes, D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
6. Larsen-Freeman, D. Teaching Language: From Grammar to Grammaring. – Boston: Heinle & Heinle Publishers, 2003. – P. 2.
7. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. Halliday's Introduction to Functional Grammar. – Routledge, 2014. – P. 4.
8. McCarthy, M., & Carter, R. Language as Discourse. – London: Longman, 1994.
9. Oxford, R. L. Teaching and Researching Language Learning Strategies. – Routledge, 2013. – P. 7.
10. Ellis, Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford University Press, 2003.

YOSH OFITSERLARDA XIZMAT REZISTENTLIGINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR

Rejametova Irada Ikramshikovna
Jamoat xavfsizligi universiteti
"Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh ofitserlarda xizmat rezistentligining shakllanishi va namoyon bo'lishini belgilovchi asosiy ijtimoiy-psixologik determinantlar tahlil qilinadi. Harbiy jamoaning ijtimoiy-psixologik muhiti, rahbarlik uslubi, guruhiy birdamlik, hamkasblar ko'magi, kasbiy motivatsiya, stressga bardoshlilik, emotsional o'zini boshqarish hamda moslashuvchan koping strategiyalarining xizmat faoliyatidagi barqarorlikka ta'siri yoritiladi. Shuningdek, mobbing, ierarxik bosim, nizoli munosabatlar va agressiv xulq xizmat rezistentligini pasaytiruvchi xavf omillari sifatida baholanadi. Xizmat rezistentligi yosh ofitserning murakkab va zo'riqishli vaziyatlarda kasbiy samaradorligi, psixologik barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuvini saqlab qolishini ta'minlovchi integrativ resurs sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: yosh ofitserlar, xizmat rezistentligi, ijtimoiy-psixologik determinantlar, harbiy jamoa, guruhiy birdamlik, kasbiy motivatsiya, stressga bardoshlilik, emotsional regulyatsiya, koping strategiyalari, mobbing.

Abstract: The article examines the main socio-psychological determinants underlying the development and manifestation of service resilience among young officers. It highlights the influence of the socio-psychological climate of the military unit, leadership style, group cohesion, peer support, professional motivation, stress tolerance, emotional self-regulation, and adaptive coping strategies on stability in military service. Mobbing, hierarchical pressure, interpersonal conflict, and aggressive behaviour are considered risk factors that may reduce service resilience. Service resilience is interpreted as an integrative psychological resource that enables young officers to maintain professional effectiveness, psychological stability, and social adaptation under complex and stressful service conditions.

Key words: young officers, service resilience, socio-psychological determinants, military unit, group cohesion, professional motivation, stress tolerance, emotional self-regulation, coping strategies, mobbing.

Аннотация: В статье анализируются основные социально-психологические детерминанты формирования и проявления служебной резистентности молодых офицеров. Раскрывается влияние социально-психологического климата воинского коллектива, стиля руководства, групповой сплочённости, поддержки сослуживцев, профессиональной мотивации, стрессоустойчивости, эмоциональной саморегуляции и адаптивных копинг-стратегий на устойчивость служебной деятельности. Моббинг, иерархическое давление, конфликтные отношения и агрессивное поведение рассматриваются как факторы риска, снижающие уровень служебной резистентности. Служебная резистентность интерпретируется как интегративный ресурс, обеспечивающий сохранение профессиональной эффективности, психологической устойчивости и социальной адаптации молодого офицера в сложных и напряжённых условиях.

Ключевые слова: молодые офицеры, служебная резистентность, социально-психологические детерминанты, воинский коллектив, групповая сплочённость, профессиональная мотивация, стрессоустойчивость, эмоциональная саморегуляция, копинг-стратегии, моббинг.

KIRISH

Harbiy-professional faoliyatning murakkabligi xizmat rezistentligini faqat shaxsning stressga chidamliligi, emotsional barqarorligi yoki iroda sifatlari bilan chegaralangan individual-psixologik xususiyat sifatida talqin qilish imkonini bermaydi. Zamonaviy ijtimoiy va tashkiliy psixologiya doirasida rezistentlik tashqi va ichki stressorlar ta'sirida shaxs hamda xizmat jamoasining funksional yaxlitligini saqlashi, faoliyatning me'yoriy va axloqiy chegaralaridan chetga chiqmasligi, mavjud psixologik va ijtimoiy resurslarni safarbar qilishi, buzilgan funksiyalarni qayta tiklashi hamda murakkab vaziyat tajribasini keyingi faoliyat uchun konstruktiv resursga aylantira olishida namoyon bo'luvchi ko'p darajali dinamik hodisa sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Bizningcha, xizmat rezistentligining ijtimoiy-psixologik determinantlari deganda harbiy xizmatchining xizmat vazifalarini

uzoq muddat davomida psixologik, axloqiy va funksional jihatdan barqaror bajarishiga yordam beruvchi yoki, aksincha, mazkur barqarorlikni susaytiruvchi individual, shaxslararo, guruhiy va tashkiliy xususiyatlar majmui tushuniladi. Bunday yondashuvda rezistentlik tayyor va o'zgarmas shaxs sifati emas, balki shaxsning individual resurslari bilan xizmat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit o'rtasidagi uzluksiz o'zaro ta'sir natijasi hisoblanadi.

Rezistentlik individual a'zolar resurslarining oddiy yig'indisi emas, balki noqulay hodisalar ta'sirida shaxs-vaziyat o'zaro munosabatlari orqali jamoa darajasida yuzaga keladigan emergent xususiyat hisoblanadi. Jamoa faoliyatining qiyinchilikdan keyingi trayektoriyasi rezistentlikning asosiy mezoni sifatida qaraladi. Bunda individual resurslar koordinatsiya, jamoaviy identifikatsiya, rahbarlik, vazifa talablari va o'zaro ta'sir jarayonlari orqali umumjamoaviy imkoniyatga aylanadi. Yosh ofitserning yuqori individual bardoshliligi uning xizmat rezistentligini avtomatik ravishda ta'minlamasligi ayon bo'ladi. Chunki individual resurslardan foydalanish imkoniyati xizmat jamoasidagi ishonch, psixologik xavfsizlik, o'zaro ko'mak, rahbarlik uslubi, guruhiy me'yorlar, norasmiy munosabatlar hamda tashkilotdagi adolatning qay darajada shakllanganligiga bog'liq bo'ladi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hayotga bardoshlilik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar majburiyatni qabul qilish, nazorat hissi va qiyinchilikni rivojlanish imkoniyati sifatida ko'rish kuchli stress sharoitida himoyalovchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Harbiy xizmatchilar misolida hayotga bardoshlilikning yuqori darajasi ko'p sonli stressorlar ta'sirida psixologik simptomlarning kuchayishini cheklashi aniqlangan [2]. Biroq individual hayotga bardoshlilik jamoaviy resurslarning o'rnini bosa olmaydi. Ofitserning shaxsiy irodasi kuchli bo'lsa-da, jamoada axborot yashirilsa, o'zaro ishonch bo'lmasa, rol va vazifalar noaniq taqsimlansa yoki rahbar destruktiv usullardan foydalansa, umumiy faoliyatning ishonchliligi pasayishi mumkin. Jamoaviy rezilyentlik individual rezilyentliklarning oddiy yig'indisi emas. U guruh a'zolarining o'zaro aloqasi, umumiy ma'no, kelishilgan harakatlar, jamoaviy o'rganish va kollektiv samaradorlik natijasida vujudga keladigan emergent, ya'ni o'zaro ta'sir natijasida paydo bo'luvchi xususiyatdir [3].

Jamoa qiyinchilikka duch kelganda vaziyatni qanday talqin qilishi, resurslarni qanday taqsimlashi, xatolar haqida ochiq gaplasha olishi, emotsional bosimni qanday boshqarishi hamda faoliyatni qay tarzda qayta tashkil etishi uning rezistentlik darajasini belgilaydi. Shu asosda, bizningcha, yosh ofitserlar jamoasidagi xizmat rezistentligi xizmat faoliyatiga xos kuchli, davomli yoki takrorlanuvchi stressorlar, xavf, noaniqlik, vaqt tanqisligi va ichki guruhiy bosim sharoitida shaxs hamda jamoaning qonuniylikni, kasbiy vazifalarni, psixologik yaxlitlikni, o'zaro hamkorlikni va faoliyat ishonchliligini saqlashi, mavjud resurslarni safarbar etishi, salbiy oqibatlarni cheklashi hamda funksional holatni qayta tiklashini ta'minlovchi ko'p darajali dinamik ijtimoiy-psixologik salohiyatdir.

Ta'rifdan kelib chiqib, xizmat rezistentligining bir necha metodologik belgilari ajratiladi.

Birinchidan, u kontekstualdir: rezistentlik faqat muayyan qiyinchilik va xizmat vazifasi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, u dinamikdir: tayyorgarlik, tajriba, rahbarlik va jamoaviy jarayonlar ta'sirida kuchayishi yoki susayishi mumkin.

Uchinchidan, u ko'p darajalidir: individual, diadik, mikroguruhiy, jamoaviy va tashkiliy darajalardagi resurslar o'zaro ta'sir qiladi.

To'rtinchidan, u jarayon, salohiyat va natijani birlashtiradi: qarshilik ko'rsatish mexanizmlari, ulardan foydalanish qobiliyati hamda xizmat natijasining saqlanishi bir butun tizimni tashkil etadi.

Beshinchidan, u normativ yo'nalishga ega: noqonuniy yoki axloqan nomaqbul usullar bilan natijaga erishish rezistentlik belgisi sifatida qabul qilinmaydi.

Xizmat rezistentligi "salbiy emotsiya yo'qligi" bilan tenglashtirilmaydi. Xavotir, qo'rquv, charchoq yoki tushkunlik murakkab vaziyatga tabiiy javob bo'lishi mumkin.

Muhim mezon – bu kechinmalarning mavjud yoki mavjud emasligi emas, balki ularni anglash, tartibga solish, yordamdan foydalanish va vazifani xavfsiz hamda qonuniy bajarishga xalaqit beradigan darajaga yetkazmaslikdir. Emotsiyalarni inkor etish, muammoni yashirish yoki yordam so'rashni zaiflik deb baholash tashqi tomondan "bardoshlilik" bo'lib ko'rinsa-da, uzoq muddatda rezistentlikni yemirishi mumkin [4].

Xizmat rezistentligi kasbiy ishonchlilik bilan ham uzviy bog'liq. Kasbiy ishonchlilik turli ichki va tashqi sharoitlarda belgilangan natijani barqaror, xatosiz va xavfsiz tarzda ta'minlashni anglatadi [5]. Rezistentlik esa ushbu ishonchlilikni buzishi mumkin bo'lgan stressorlar qarshisida faoliyat tizimining qanday saqlanishini tushuntiradi. Demak, ishonchlilik ko'proq natijaviy xususiyat bo'lsa, rezistentlik esa natijani saqlashga xizmat qiluvchi resurslar va jarayonlar kompleksidir. Xizmat rezistentligi yagona sifat emas, balki o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan tizimdir. Uning tuzilishini qadriyatli-motivatsion, kognitiv-regulyativ, emotsional-irodaviy, kommunikativ-kogeziv va tashkiliy-resurs komponentlari orqali yoritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qadriyatli-motivatsion komponent xizmat maqsadining shaxsiy mazmun kasb etishi, kasbiy burch, qonuniylik, mas'uliyat, vatanparvarlik, inson qadr-qimmatiga hurmat hamda jamoaga mansublikni qamrab oladi. Yosh ofitser nima uchun xizmat qilayotganini, uning qarori kimlarning xavfsizligiga ta'sir qilishini va umumiy vazifadagi o'z o'rnini anglaganida qiyinchilikni ma'nosiz bosim sifatida emas, balki mas'uliyatli faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qabul qiladi. Maqsadning anglanganligi stressorni butunlay bartaraf etmaydi, biroq safarbarlikka yo'nalish beradi. Mazkur komponent jamoaning axloqiy yo'nalishi bilan mustahkamlanadi. Agar guruhda xizmat natijasi bilan bir qatorda unga erishishning qonuniy va axloqiy usullari qadrlansa, ofitserlar qisqa muddatli manfaat yoki norasmiy bosim sabab me'yorlarni buzishga kamroq moyil bo'ladi. Qadriyatli birlik fikrlarning bir xil bo'lishini anglatmaydi; u turli qarashlar mavjud bo'lgan holda umumiy xizmat maqsadi va asosiy axloqiy chegaralar bo'yicha kelishuvni bildiradi [6].

Kognitiv-regulyativ komponent vaziyatni haqqoniy baholash, xavf va resurslarni solishtirish, ustuvorliklarni belgilash, qaror variantlarini ishlab chiqish, diqqatni boshqarish, xatolarni aniqlash, refleksiya va o'z faoliyatini tuzatishni o'z ichiga oladi. Yosh ofitserning tajribasi cheklangan sharoitda stereotipik yoki shoshilinch qaror chiqarish xavfi ortishi mumkin. Shu bois standart operatsion algoritmlar bilan bir qatorda vaziyat o'zgarganda moslashuvchan fikrlash, mutaxassis fikrini so'rash va jamoaviy muhokama qilish ko'nikmalari muhim. Rezistent jamoa xatoni yashirmaydi, balki uni faoliyatni takomillashtirish uchun axborotga aylantiradi. Xizmatdan keyingi tahlil, vaziyatni birgalikda qayta ko'rib chiqish hamda "nima sodir bo'ldi, nima uchun sodir bo'ldi, keyingi safar nimani o'zgartirish kerak?" degan savollarga javob izlash jamoaviy o'rganish mexanizmini yuzaga keltiradi. Bunday jamoada tajriba alohida xodimning shaxsiy mulki bo'lib qolmaydi, balki umumiy kasbiy kapitalga aylanadi [7].

Emotsional-irodaviy komponent qo'rquv, xavotir, g'azab, ruhiy bosim va charchoqni anglash hamda tartibga solish, maqsadga yo'nalganlikni saqlash, impulsiv javobni cheklash, qiyinchilikka qaramay vazifani davom ettirish, zarur paytda to'xtash va yordam so'rash qobiliyatlarini birlashtiradi. Iroda faqat zo'riqishni kuchaytirish emas, balki resursni tejash, kuchni ustuvor vazifaga yo'naltirish va samarasiz urinishlardan voz kechish qobiliyatini ham anglatadi. Yosh ofitserlar ko'pincha o'zining kasbiy yaroqliligini namoyish etish maqsadida charchoq, xavotir yoki bilim yetishmasligini yashirishga moyil bo'lishi mumkin. Jamoada psixologik xavfsizlik bo'lmasa, bunday holat xatolar ehtimolini oshiradi. Shu sababli emotsional-irodaviy rezistentlik shaxsning ichki o'zini boshqarish ko'nikmalari bilan birga yordam so'rashni me'yoriy va mas'uliyatli xulq sifatida qabul qiladigan jamoaviy madaniyatni ham talab qiladi. Kommunikativ-kohenziv komponent o'zaro ishonch, vazifaga oid va ijtimoiy jipslik, tezkor axborot almashinuvi, hamkasblarni qo'llab-quvvatlash, fikr bildirish imkoniyati, nizolarni konstruktiv hal qilish hamda umumiy identifikatsiyani qamrab oladi. Harbiy va xizmat guruhlari bo'yicha tadqiqotlar jipslikning faoliyat samaradorligi, ruhiy farovonlik, xavfni nazorat qilish hissi, xizmatga tayyorgarlik va ruhiy salomatlik bilan bog'liqligini ko'rsatadi [8].

Jipslik ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi. Vazifaviy jipslik a'zolarning umumiy maqsadga sodiqligi va birgalikda natijaga erishishga tayyorligini bildiradi. Ijtimoiy jipslik esa hissiy yaqinlik, o'zaro hurmat, g'amxo'rlik va guruhga mansublik tuyg'usini ifodalaydi [9]. Xizmat rezistentligi uchun jipslikning har ikkala shakli ham zarur: faqat vazifaviy jipslik insoniy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligiga, faqat ijtimoiy yaqinlik esa talabchanlikning pasayishi va xatolarni yashirishga olib kelishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Mobbing tuzilmasini aniqlash" metodikasi bo'yicha olingan tavsiflovchi ko'rsatkichlar yosh ofitserlar jamoasida mobbing bilan bog'liq xulqiy-rolli pozitsiyalar bir xil darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Eng yuqori o'rtacha ko'rsatkich kuzatuvchi pozitsiyasida (5,26), undan keyin esa initsiator (5,20) va himoyachi (5,20) rollarida qayd etilgan. Qurbon pozitsiyasining o'rtacha qiymati 5,06 ni tashkil etgan bo'lsa, nisbatan past ko'rsatkich yordamchi rolida (4,80) kuzatilgan. Mazkur nisbat mobbing jarayonini faqat agressor va jabrlanuvchi o'rtasidagi bevosita qarama-qarshilik sifatida emas, balki guruh a'zolarining turli darajadagi ishtiroki, betarafligi, qo'llab-quvvatlashi yoki qarshilik ko'rsatishi orqali shakllanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik tuzilma sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Kuzatuvchi pozitsiyasining nisbatan yuqori darajada ifodalanishi (5,26) alohida psixologik ahamiyat kasb etadi. Mobbing holatlarida kuzatuvchi har doim ham jarayonning passiv elementi hisoblanmaydi. Jamoa a'zolarining nizoli yoki tazyiqli munosabatni kuzatib turib, unga faol munosabat bildirmasligi guruhdagi norasmiy xulq me'yorlarining saqlanib qolishiga imkon yaratishi mumkin. Harbiy jamoa sharoitida bunday pozitsiya xizmat ierarxiyasi, konform xulq, guruh bosimiga moslashish, o'z mavqeini xavf ostiga qo'ymaslik hamda ziddiyatga aralashmaslik strategiyasi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan kuzatuvchi rolini faqat "betaraflik" sifatida tushuntirish yetarli emas; u ayrim vaziyatlarda mavjud munosabatlar tizimini bilvosita legitimlashtiruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

1-jadval: **"Mobbing tuzilmasini aniqlash" metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanish qonuniga muvofiqligi haqida ma'lumotlar (n=761)**

Ko'rsatkichlar	Min	Max	M	σ	Z qiymat	p
Intsiator	1,00	14,00	5,2	2,51	1,9	0,004
Yordamchi	1,00	14,00	4,8	2,29	1,8	0,022
Himoyachi	1,00	12,00	5,2	2,64	1,6	0,007
Qurbon	1,00	12,00	5,06	2,42	1,3	0,007
Kuzatuvchi	1,00	12,00	5,26	2,49	1,0	0,046

Initsiator pozitsiyasi bo'yicha qayd etilgan qiymatlar respondentlarning ma'lum qismida boshqa jamoa a'zosiga nisbatan bosim o'tkazish, uni chetlashtirish, obro'sini pasaytirish yoki guruhdagi mavqeini zaiflashtirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillik mavjudligini anglatadi. Biroq ushbu ko'rsatkichni barcha respondentlarda ochiq agressiv xulq shakllangan, degan mazmunda talqin qilish metodologik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Mobbing tashabbuskori roli ko'pincha bevosita tajovuz bilangina emas, balki kinoya, muntazam tanqid, ijtimoiy masofalashtirish, axborotdan cheklash, xizmatdagi xatolarni haddan tashqari ta'kidlash yoki norasmiy guruh ta'siridan foydalanish kabi bilvosita shakllarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Ayniqsa, harbiy-professional muhitda formal intizomning yuqoriligi sababli bunday ta'sirlar yashirin, vaziyatga bog'liq va ijtimoiy jihatdan niqoblangan shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Himoyachi pozitsiyasining o'rtacha qiymati ham 5,20 darajasida ekanligi jamoada mobbing holatlariga qarshi turish salohiyatiga ega bo'lgan shaxslar qatlamining mavjudligini ko'rsatadi. Himoyachilik xulqi jabrlanuvchini emotsional qo'llab-quvvatlash, nizoli vaziyatda vositachilik qilish, adolatsiz munosabatni ochiq yoki bilvosita rad etish, guruhdagi psixologik muvozanatni tiklashga intilish kabi reaksiyalar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Ya'ni ayrim harbiy xizmatchilar mobbingga qarshi faol pozitsiya egallasa, boshqalarda bunday xulq ancha sust yoki vaziyatga bog'liq shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Bu tafovut shaxsiy qat'iyatlilik, adolatga sezgirlik, empatiya, guruhdagi status, xizmat tajribasi va ehtimoliy ijtimoiy sanksiyalardan xavfsirash kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qurbon pozitsiyasining M=5,06 darajasida shakllanganligi tanlanmaning ma'lum qismida psixologik bosim, kamsitish, inkor etish yoki tizimli ravishda noqulay interpersonal munosabatlar obyektiga aylanish tajribasi uchrashini ko'rsatadi. Mobbing qurboni bo'lishni shaxsning faqat individual psixologik zaifligi bilan izohlash biryoqlama yondashuv bo'ladi. Mazkur pozitsiya jamoada mavjud norasmiy statuslar, liderlik uchun raqobat, kommunikativ yopiq guruhlar, xizmat vazifalarini taqsimlashdagi subyektivlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi hamda "o'zimizniki-begona" tipidagi guruhiy differensiatsiya bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli qurbon pozitsiyasining mavjudligi individual moslashuv xususiyatlari bilan bir qatorda jamoaning ijtimoiy-psixologik iqlimi va munosabatlar tizimini ham diagnostik jihatdan baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Yordamchi rolida o'rtacha qiymatning nisbatan pastligi (4,80) respondentlarning aksariyatida mobbing tashabbuskorini ochiq ravishda qo'llab-quvvatlash yoki uning xatti-harakatlarini bevosita davom ettirish tendensiyasi boshqa rollarga qaraganda sustroq ekanini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, mazkur ko'rsatkichning mutlaq jihatdan nolga yaqin emasligi mobbing tashabbuskorining ta'siri ayrim holatlarda guruh a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mumkinligini anglatadi. Bunday yordam faol tajovuz ko'rinishida bo'lishi shart emas; mazax qilishga qo'shilish, mish-mishlarni tarqatish, jabrlanuvchini guruhdan chetlashishga undash, tashabbuskorning pozitsiyasini ma'qullash yoki vaziyatni davom ettirish uchun ijtimoiy fon yaratish ham yordamchi rolning bilvosita shakllari hisoblanadi.

Kolmogorov-Smirnov mezoni bo'yicha barcha shkalalarda statistik ahamiyatli natijalar qayd etilgan: initsiator shkalasida ($Z=1,9$; $p<0,01$), yordamchi shkalasida ($Z=1,8$; $p<0,05$), himoyachi shkalasida ($Z=1,6$; $p<0,01$), qurbon shkalasida ($Z=1,3$; $p<0,01$) hamda kuzatuvchi shkalasida ($Z=1,0$; $p<0,05$). Barcha holatlarda empirik taqsimotning normal taqsimlanganligi haqidagi nol gipoteza rad etiladi. Boshqacha aytganda, mobbing tuzilmasining besh komponenti bo'yicha to'plangan natijalar normal taqsimlanish qonuniga to'liq mos kelmaydi. Bu respondentlarning mobbingga oid rol pozitsiyalari tanlanma doirasida simmetrik va bir tekis taqsimlanmaganini, ayrim rollarning ma'lum guruhlarda nisbatan ko'proq yoki kamroq jamlangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Mobbing barcha jamoa a'zolarida bir xil darajada namoyon bo'ladigan universal xulqiy tendensiya emas. U interpersonal tajriba, guruhdagi norasmiy mavqe, rahbarlik uslubi, xizmat sharoiti, psixologik xavfsizlik darajasi hamda shaxsning agressiv yoki prosotsial strategiyalari ta'sirida selektiv ravishda shakllanishi mumkin.

Shu bois taqsimotning normal emasligi respondentlarning bir qismida ma'lum rollar kuchliroq, boshqa qismida esa minimal darajada namoyon bo'lishi bilan izohlanishi mumkin. "Psixologik jins diagnostikasi" metodikasi bo'yicha olingan tavsiflovchi ko'rsatkichlar yosh ofitserlarning gender-psixologik xususiyatlari tarkibida maskulinlik, femininlik va androginlik komponentlari o'ziga xos nisbatda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nisbatan yuqori o'rtacha qiymat maskulinlik ko'rsatkichida (15,1) qayd etilgan bo'lib, femi-

ninlik ko‘rsatkichi (13,3) undan birmuncha past darajada shakllangan. Androginlik indeksi esa manfiy yo‘nalishda (-4,0) namoyon bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkichlar tanlanma tarkibida an’anaviy ravishda maskulin psixologik sifatlar bilan bog‘lanadigan qat’iyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, raqobatbardoshlik, qaror qabul qilishga moyillik hamda faol pozitsiyani egallash kabi xususiyatlarning nisbatan ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, femininlik ko‘rsatkichining ham yetarlicha yuqori ekanligi yosh ofitserlarning psixologik tuzilmasi faqat bir yo‘nalishdagi gender stereotiplari bilan cheklanmasligini anglatadi.

Maskulinlik ko‘rsatkichining nisbatan yuqori qiymatda (15,1) namoyon bo‘lishi harbiy-professional faoliyatning o‘ziga xos talablariga muvofiq shakllangan shaxsiy sifatlar bilan izohlanishi mumkin. Harbiy xizmat sharoiti tezkor qaror qabul qilish, mas’uliyatni zimmasiga olish, murakkab vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlash, qat’iy harakat qilish, xizmat vazifalarini bajarishda mustaqillik ko‘rsatish hamda guruh oldida yetakchilik pozitsiyasini egallashni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, maskulinlikning nisbatan yuqori ifodalanishi yosh ofitserlarning xizmat faoliyatiga moslashuvi jarayonida faol-subyekt pozitsiyasining shakllanganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq maskulinlikni faqat biologik jins yoki tashqi qat’iyat bilan tenglashtirish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Psixologik jins konsepsiyasida mazkur ko‘rsatkich, avvalo, shaxsning faoliyatga yo‘nalganligi, avtonomligi, o‘z pozitsiyasini himoya qila olishi, maqsadga intiluvchanligi va ijtimoiy vaziyatlarda tashabbus ko‘rsatishga tayyorligini aks ettiruvchi psixologik sifatlar majmuasi sifatida qaraladi.

2-jadval: **“Psixologik jins diagnostikasi” metodikasining tavsiflovchi hamda normal taqsimlanish qonuniga muvofiqligi haqida ma’lumotlar (n=761)**

Ko‘rsatkichlar	Min	Max	M	σ	Z qiymat	p
Maskulinlik	0,0	22,0	15,1	3,82	4,2	0,001
Femininlik	0,0	22,0	13,3	3,83	4,8	0,001
Androginlik	-30,1	20,8	-4,0	6,18	3,7	0,001

Femininlik ko‘rsatkichining o‘rtacha qiymati (13,3) maskulinlikka nisbatan pastroq bo‘lsa-da, uning tanlanmada yetarlicha ifodalanganligi yosh ofitserlarda emotsional sezgirlik, empatiya, hamkorlikka moyillik, shaxslararo munosabatlarni hisobga olish, murosaga kelish hamda boshqalarning emotsional holatini anglash kabi sifatlar ham muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Mazkur jihat harbiy jamoada samarali xizmat qilish uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy ofitser faoliyati faqat buyruq berish, nazorat qilish va qat’iy boshqaruv bilan cheklanmay, balki bo‘ysunuvchilarning psixologik holatini tushunish, ulardagi zo‘riqish va nizolarni o‘z vaqtida aniqlash, jamoa a’zolari o‘rtasidagi kommunikatsiyani muvofiqlashtirish hamda ijtimoiy-psixologik iqlimni barqarorlashtirish kabi funksiyalarni ham qamrab oladi. Shu sababli femininlik komponentining mavjudligi professional zaiflik emas, aksincha, interpersonal munosabatlarda moslashuvchanlikni ta’minlovchi psixologik resurslardan biri sifatida baholanishi mumkin. Maskulinlik va femininlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovut yosh ofitserlarning psixologik jins tuzilmasida faoliyatga yo‘naltirilgan, qat’iy va mustaqil xulq strategiyalari nisbatan ustun ekanligini ko‘rsatsa-da, bu holat feminin sifatlarning inkor etilganligini anglatmaydi. Aksincha, har ikki komponentning o‘rtacha qiymatlari bir-biridan keskin uzoqlashmaganligi respondentlarning ma’lum qismida instrumentallik va ekspressivlik sifatlari parallel tarzda shakllangan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday uyg‘unlik murakkab xizmat vaziyatlarida bir tomondan qat’iyatli, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy vaziyatga sezgir bo‘lish imkonini yaratadi. Ayniqsa, rahbarlik faoliyatida mazkur ikki xususiyatning muvozanati boshqaruv samaradorligi, kommunikativ moslashuvchanlik va nizolarni konstruktiv hal etish uchun muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Androginlik indeksining manfiy yo‘nalishda shakllanganligi (-4,0) tanlanmaning umumiy profilida maskulin komponentning feminin xususiyatlarga nisbatan ustunroq ekanligini aks ettiradi. Ushbu natija yosh ofitserlarning professional muhitida qat’iyatlilik, avtonomlik, tashabbuskorlik va natijaga yo‘nalganlik singari xulq xususiyatlari ko‘proq rag‘batlantirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, androginlik ko‘rsatkichining keng diapazonda, ya’ni -30,1 dan 20,8 gacha o‘zgarishi tanlanma ichida psixologik jinsning sezilarli individual differensiatsiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, barcha yosh ofitserlarni bir xil gender-psixologik tipga kiritish maqsadga muvofiq emas: ayrim respondentlarda maskulin sifatlar ustun bo‘lsa, boshqalarida feminin xususiyatlarning yuqoriroq namoyon bo‘lishi yoki har ikki sifat guruhining nisbatan muvozanatli integratsiyasi kuzatilishi mumkin. Androginlikning aynan psixologik moslashuvchanlik nuqtayi nazaridan baholanishi muhimdir. Psixologik androginlik shaxsning turli ijtimoiy va professional vaziyatlarda faqat an’anaviy gender stereotiplariga asoslangan bitta xulq modeliga bog‘lanib qolmasdan, vaziyat talabiga qarab qat’iyatlilik, faollik va mustaqillik bilan bir qatorda empatiya, hamkorlik, emotsional sezgirlik hamda murosaga moyillikni namoyon eta olish imkoniyatini anglatadi. Harbiy faoliyatda bu xususiyat, ayniqsa, rahbar–bo‘ysunuvchi munosabatlari, nizoli vaziyatlarni boshqarish, guruhiy birdamlikni saqlash hamda psixologik zo‘riqish sharoitida interpersonal muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Shu sababli androginlik ko‘rsatkichini shun-

chaki "erkaklik" yoki "ayollik" xususiyatlarining aralashuvi sifatida emas, balki xulq repertuarining psixologik moslashuvchanligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkich sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Mazkur natijalar yosh ofitserlar jamoasidagi interpersonal munosabatlarni, xususan, mobbing jarayonlarini tushuntirishda ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki haddan tashqari rigid maskulin xulq modeli ayrim sharoitlarda dominantlik, yuqori raqobat, kompromissga moyillikning pasayishi yoki o'z mavqeini kuch orqali himoya qilish kabi strategiyalar bilan birikishi mumkin. Biroq maskulinlikning o'zi agressivlik yoki mobbingga moyillikni anglatmaydi. Xuddi shuningdek, femininlikni passivlik yoki psixologik zaiflik bilan tenglashtirish ham ilmiy jihatdan asosli emas. Mobbing xulqining yuzaga kelishi psixologik jinsning alohida ko'rsatkichidan ko'ra, uning agressivlik, konfliktlilik, guruhiy status, rahbarlik uslubi, emotsional boshqaruv va jamoaning ijtimoiy-psixologik muhiti bilan qanday integratsiyalashishiga ko'proq bog'liq bo'lishi mumkin. Kolmogorov-Smirnov mezoni natijalariga ko'ra, psixologik jinsning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha empirik taqsimot normal taqsimlanish qonunidan statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq qilgan. Jumladan, maskulinlik shkalasida ($Z=4,2$; $p<0,01$), femininlik shkalasida ($Z=4,8$; $p<0,01$) hamda androginlik indeksida ($Z=3,7$; $p<0,01$) natijalar qayd etilgan.

Barcha ko'rsatkichlarda empirik ma'lumotlarning normal taqsimlanganligi haqidagi nol gipoteza rad etiladi. Demak, yosh ofitserlarning maskulinlik, femininlik hamda androginlik ko'rsatkichlari tanlanma doirasida normal taqsimlanish qonuniga mos kelmaydi. Taqsimotning normal emasligi respondentlarning gender-psixologik xususiyatlari tanlanmada bir tekis shakllanmaganligini anglatadi. Buning sababi harbiy-professional faoliyatning o'ziga xos sotsializatsion ta'siri, respondentlarning biologik jinsi, individual shaxs xususiyatlari, xizmat tajribasi, egallagan lavozimi va guruhiy munosabatlar tizimining turlicha bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayniqsa, harbiy muhitda ma'lum xulq sifatlarining institutsional ravishda rag'batlantirilishi maskulinlik ko'rsatkichlarining ayrim qiymatlar atrofida ko'proq to'planishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, femininlik va androginlikning individual namoyon bo'lishi respondentlarning shaxsiy hamda ijtimoiy tajribasi ta'sirida yanada kengroq differensiatsiyalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kostyushina E.V. The role of the family in the formation of motivation for learning of a junior schoolchild / E.V. Kostyushina, L.Yu. Suvorinova // Science and Education. – 2020. – Vol. 3. – No. 4. – P. 207.
2. Kulakova N.A. Features of the development of communication between preschoolers and peers / N.A. Kulakova, V.N. Obnosov // Science and Education. – 2020. – Vol. 3. – No. 2. – P. 227.
3. Obnosov V.N. Traditions of youth education in Russian history // Youth and Responsibility: Materials of the IV Vladimir Spiritual and Educational Readings / Comp. R.S. Leonov. – Michurinsk: Michurinsk State Agrarian University Publishing House, 2019. – P. 111–115.
4. Obnosov V.N. Overcoming egocentrism as a condition for spiritual and moral development // Youth and Responsibility: Materials of the IV Vladimir Spiritual and Educational Readings / Comp. R.S. Leonov. – Michurinsk: Michurinsk State Agrarian University Publishing House, 2019. – P. 56–60.
5. Peryshkova S.A. The role of the family in the development of a preschooler / S.A. Peryshkova, E.P. Skryleva // Current Problems of Science and Education / Ed. V.Ya. Nikulshina. – Michurinsk: Michurinsk State Agrarian University Publishing House, 2017. – P. 16–19.
6. Popov A.S. Formation of ideas about personality development among future teachers / A.S. Popov, T.I. Popova // Current Problems of Education and Upbringing: Integration of Theory and Practice. – Michurinsk: Michurinsk State Agrarian University Publishing House, 2019. – P. 93.
7. Simmel G. Big Cities and Spiritual Life.
8. Antonov A.I., Karpova V.M., Lyalikova S.V. et al. Family-Centrism: Myth or Reality? – Moscow, 2016. – 324 p.
9. Berger P., Luckmann T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. – Moscow, 1995.

CHAPAQAY O‘QUVCHILARDA GRAFIK MALAKALARNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Yusufzoda Shabnami Yunus
Urganch davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada chapaqay boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida grafik malakalarni rivojlantirishning psixologik, fiziologik va pedagogik asoslari tahlil qilingan. Chapaqay bolalarning yozuv faoliyatida uchraydigan muammolar, grafomotor ko‘nikmalarni shakllantirish mexanizmlari hamda ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, ergonomik sharoitlar, sensor-grafomotor mashqlar va raqamli texnologiyalar asosida grafik malakalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: chapaqay o‘quvchi, grafik malaka, grafomotorika, yozuv ko‘nikmasi, mayda motorika, ergonomika, sensor rivojlanish, boshlang‘ich ta’lim.

Abstract: This article analyzes the psychological, physiological, and pedagogical foundations of developing graphic skills in left-handed primary school students. It examines the writing challenges faced by left-handed children, the mechanisms underlying the development of graphomotor skills, and modern methodological approaches to overcoming these difficulties. Furthermore, the article presents evidence-based recommendations for developing graphic skills through ergonomic conditions, sensorimotor and graphomotor exercises, and digital technologies.

Key words: left-handed student, graphic competence, graphomotor skills, writing skills, fine motor skills, ergonomics, sensory development, primary education.

Аннотация: В статье анализируются психологические, физиологические и педагогические основы формирования графических навыков у леворуких учащихся начальных классов. Рассматриваются трудности, с которыми сталкиваются леворукие дети при письме, механизмы формирования графомоторных навыков, а также современные методические подходы к преодолению этих трудностей. Кроме того, представлены научно обоснованные рекомендации по развитию графических навыков с использованием эргономических условий, сенсомоторных и графомоторных упражнений, а также цифровых технологий.

Ключевые слова: учащийся-левша, графическая компетентность, графомоторные навыки, навыки письма, мелкая моторика, эргономика, сенсорное развитие, начальное образование.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida yozuv malakasini shakllantirish o‘quvchilarning keyingi o‘quv faoliyati uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chapaqay o‘quvchilarda yozuvni o‘rgatish jarayoni o‘ngqo‘l tengdoshlariga nisbatan murakkabroq kechadi. Bunga bosh miya yarimsharlari faoliyatining funksional assimetriyasi, qo‘l harakatlari koordinatsiyasining o‘ziga xosligi hamda yozuv jarayonida yuzaga keladigan ergonomik qiyinchiliklar sabab bo‘ladi. Bugungi kunda inkluziv ta’limni rivojlantirish sharoitida har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chapaqay o‘quvchilarning grafik malakalarini rivojlantirish ham aynan shunday individual yondashuvni talab qiladi.

Grafik malaka nafaqat harflarni chiroyli yozish, balki murakkab psixofiziologik faoliyat ham bo‘lib, unda vizual analizator, proprioseptiv sezgi, taktil sezgi, kinestetik nazorat hamda mayda motorika birgalikda faoliyat ko‘rsatadi. Shu sababli chapaqay bolalar bilan ishlashda faqat husnixat mashqlarini emas, balki sensor-grafomotor mashqlar tizimini ham qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Grafik malaka murakkab neyrofiziologik faoliyat hisoblanib, unda bosh miya po'stlog'i, serebellum, bazal gangliyalar va sensor tizimlarning uyg'un faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. L.S. Vygotskiy, A.R. Luriya hamda N.A. Bernshteynning tadqiqotlari yozuv faoliyatining psixik jarayonlar va harakatlarni boshqarish tizimi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Chapaqay bolalarda harakatlarni boshqarishning o'ziga xos mexanizmi kuzatiladi. Dominant qo'l sifatida chap qo'lning faol ishlashi bosh miya yarimsharlarining funksional taqsimoti bilan izohlanadi. Natijada yozuv davomida qo'l harakatining yo'nalishi, mushaklarning zo'riqishi hamda ko'rish nazorati o'ngqo'l bolalarnikidan farqlanadi.

Grafik malakaning shakllanishida bir nechta o'zaro bog'liq komponentlar ishtirok etadi. Grafik malakalarni rivojlantirish jarayonida grafomotor mashqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Dastlab to'g'ri, egri va siniq chiziqlarni chizish, geometrik shakllarni takrorlash, nuqtalarni birlashtirish hamda shtrixlash kabi tayyorlov mashqlari bajariladi. Keyingi bosqichda harf elementlari, undan so'ng esa harflar, bo'g'inlar, so'zlar va gaplarni yozishga bosqichma-bosqich o'tiladi. Mashqlar tizimli va izchil tashkil etilganda barmoqlarning mayda motorikasi, qo'l mushaklarining koordinatsiyasi hamda yozuv avtomatizmi sezilarli darajada rivojlanadi. Bugungi kunda grafik malakalarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Interaktiv doskalar, raqamli yozuv platformalari, sensorli ekranlar, elektron husnixat dasturlari hamda sun'iy intellekt elementlariga ega ilovalar orqali o'quvchining yozuv jarayoni tahlil qilinib, individual tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Ayniqsa, yozuv bosimi, harakat trayektoriyasi va yozuv tezligini avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar chapaqay o'quvchilarning individual qiyinchiliklarini aniqlash hamda bartaraf etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Komponent	Ahamiyati
Vizual idrok	Harf shaklini qabul qilish
Taktil sezgi	Barmoqlar sezgirligini oshirish
Kinestetik sezgi	Harakatni his qilish
Proprioseptiv tizim	Qo'l bosimini boshqarish
Mayda motorika	Harflarni aniq yozish
Diqqat	Harakatni nazorat qilish
Xotira	Harf elementlarini eslab qolish

1-rasm: **Grafik malakaning psixofiziologik komponentlari va ularning ahamiyati**

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur komponentlarning uyg'un faoliyati natijasida yozuv avtomatlashadi. Chapaqay o'quvchilar bilan ishlashda quyidagi metodik jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Birinchidan, yozuv holatini to'g'ri tashkil etish. Daftar chap yelkaga yaqinroq joylashtiriladi va taxminan 25-35° burchak ostida o'ng tomonga qiyalashtiriladi. Bunday holat qo'lning yozuvni yopib qo'ymasligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, yozuv qurolini to'g'ri ushlash. Qalam uchidan 2-3 sm yuqori qismidan ushlanishi, barmoqlarning uni haddan tashqari siqmasligi tavsiya etiladi. Uchinchidan, mushaklarning zo'riqishini kamaytirish. Har 7-10 daqiqada barmoqlar uchun qisqa mashqlarni bajarish tavsiya etiladi. To'rtinchidan, grafomotor mashqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish: yirik harakatlar, geometrik shakllar, elementlar, harflar, bo'g'inlar, so'zlar va gaplar. Mazkur ketma-ketlik motor dasturlarining bosqichma-bosqich shakllanishiga yordam beradi.

So'nggi yillarda sensor-grafomotor (lotin tilidan olingan bo'lib, "sezgi" va "harakat qilmoq" ma'nolarini bildiradi. Sensor-grafomotor faoliyat – shaxsning yozuv va grafik harakatlarni bajarish jarayonida sezgi tizimlari (vizual, taktil, kinestetik, proprioseptiv va vestibulyar analizatorlar) hamda mayda motorika faoliyatining o'zaro integratsiyasiga asoslangan murakkab psixofiziologik faoliyatdir.) mashqlar grafik malakalarni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday mashqlarga quyidagilar kiradi:

SENSOR-GRAFOMOTOR MASHQLAR

№	Mashqlar	Rivojlantiradigan ko'nikmalar
1	mankada yozish	Taktil sezgirlikni, harf shakllarini his qilish va barmoqlar sezuvchanligini rivojlantiradi.
2	qumda yozish	Mayda motorikani, qo'l harakati aniqligi va koordinatsiyani oshiradi.
3	kinetik qum bilan ishlash	Barmoqlar kuchini, ijodkorlik va sezgirlikni rivojlantiradi.
4	plastilin yordamida harf yasash	Harf shakllarini mustahkam eslab qolish, motorikani va tasavvurni rivojlantiradi.
5	barmoq gimnastikasi	Barmoqlarning egiluvchanligi va kuchini oshiradi, yozuvga tayyorlaydi.
6	sensor yo'lakchalarda mashqlar	Tana muvozanatini, koordinatsiyani va sezgirlikni rivojlantiradi.
7	havo yozuvi	Harf shakllarini kinetik tarzda his qilish va eslab qolishga yordam beradi.
8	interaktiv sensor ekranlarda yozish	Ko'z–qo'l koordinatsiyasini, yozuv aniqligi va qiziqishni rivojlantiradi.
	MAZKUR MASHQLARNING FOYDASI	
9	barmoq sezgirligini oshiradi	Taktil va kinestetik sezgilar rivojlanadi.
10	mushak xotirasini rivojlantiradi	Harakatlar avtomatlashtiriladi, yozuv mustahkamlanadi.
11	harakat koordinatsiyasini yaxshilaydi	Ko'z–qo'l uyg'unligi va aniqlik oshadi.
12	yozuv tezligini oshiradi	Yozuv jarayoni tezlashadi va sifat yaxshilanadi.

2-rasm: **Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirishga qaratilgan sensor-grafomotor mashqlar va ularning rivojlantiruvchi ta'siri**

Ilmiy tadqiqotlar ergonomik talablar bajarilganda yozuv sifati sezilarli darajada yaxshilanishini ko'rsatmoqda. Chapaqay o'quvchilar uchun quyidagi tavsiyalar beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda grafik malakalarni shakllantirish faqat harflarni yozishni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon qo'l barmoqlari mushaklarini rivojlantirish, taktil sezgirlikni oshirish, ko'z–qo'l koordinatsiyasini takomillashtirish hamda grafomotor harakatlarni avtomatlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, chapaqay o'quvchilarda yozuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgani sababli sensor-grafomotor mashqlar tizimidan foydalanish muhim metodik vosita hisoblanadi. Mazkur mashqlar bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish bilan birga, yozuv uchun zarur bo'lgan mushak xotirasi, fazoviy tasavvur va kinestetik sezgilarni ham shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yozuvdan oldingi tayyorlov mashqlarini muntazam tashkil etish harf elementlarini to'g'ri yozish, yozuv tezligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Birinchi mashq – mannada yozish bolaga harf shakllarini qo'li orqali his qilish imkonini beradi. Manna yuzasida barmoq yordamida harflarni hosil qilish taktil sezgirlikni rivojlantirib, harf elementlarini xotirada mustahkam saqlashga yordam beradi. Bu usul, ayniqsa, yozuvni endi o'rganayotgan chapaqay bolalarda qo'l harakatlarini erkinlashtiradi. Qumda yozish mashqlari esa mayda motorikani rivojlantirish bilan bir qatorda qo'l harakatlarining aniqligi va koordinatsiyasini oshiradi. Bunday mashqlar bolaning yozuv davomida chiziqlarni silliq va uzluksiz bajarishiga zamin yaratadi. Grafomotor tayyorgarlikda kinetik qum bilan ishlash alohida o'rin tutadi. Kinetik qumni siqish, yoyish, shakl berish va harf elementlarini hosil qilish barmoq mushaklarini mustahkamlaydi hamda sensor sezgirlikni kuchaytiradi. Natijada yozuv vaqtida qo'lning ortiqcha zo'riqishi kamayadi. Plastilin yordamida harf yasash mashqlari harflarning shakliy tuzilishini vizual va kinestetik jihatdan mustahkam o'zlashtirishga xizmat qiladi. Harf elementlarini plastilindan yasash orqali o'quvchilar ularning

tarkibini yaxshiroq anglaydilar hamda grafomotor harakatlar mustahkamlanadi. Grafik malakalarni shakllantirishda barmoq gimnastikasi muhim tayyorlov bosqichi hisoblanadi. Turli ritmik harakatlar, barmoqlarni bukish va yozish hamda aylantirish mashqlari qo'l mushaklarining egiluvchanligini oshirib, yozuv jarayoniga fiziologik tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Sensor yo'lakchalarda mashqlar bajarish organizmning umumiy koordinatsiyasini, muvozanatini va kinestetik sezgirligini rivojlantiradi. Harakatlarning muvofiqlashuvi yozuv paytida qo'l harakatlarini boshqarishni ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Havo yozuvi usuli ham chapaqay o'quvchilar uchun samarali metodlardan biridir. Bunda bola harf shakllarini havoda yirik amplitudada chizadi. Ushbu mashq mushak xotirasini rivojlantiradi, harakat trayektoriyasini ongli ravishda idrok etishga yordam beradi hamda yozuvdagi xatolarni kamaytiradi. Zamonaviy ta'lim vositalaridan biri bo'lgan interaktiv sensor ekranlarda yozish mashqlari o'quvchilarning ko'z–qo'l koordinatsiyasini rivojlantiradi, yozuv aniqligini oshiradi hamda o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi. Raqamli platformalar yozuv jarayonini qayta tahlil qilish va individual tavsiyalar berish imkoniyatini ham yaratadi. Mazkur mashqlarning muntazam qo'llanilishi natijasida barmoqlarning taktil sezgirligi rivojlanadi, mushak xotirasi shakllanadi, qo'l harakatlari avtomatlashtiriladi, ko'z–qo'l uyg'unligi kuchayadi, yozuv tezligi va sifati sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, chapaqay o'quvchilarda sensor-grafomotor mashqlar yozuvni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni kamaytirib, grafik malakalarni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

CHAPAQAY O'QUVCHILAR UCHUN ERGONOMIK VOSITALAR

№	Vosita nomi	Tavsifi va afzalliklari
1	 ergonomik ruchkalar	Qo'lga qulay, mushak zo'riqishini kamaytiradi, yozuvni oson va chiroyli qilishga yordam beradi.
2	 uchburchak qalamlar	Uchburchak shakli barmoqlarning to'g'ri joylashuvini ta'minlaydi, qalamni sirpanishdan saqlaydi.
3	 silikon griplar	Qalamni ushlashni yengillashtiradi, barmoqlarga ortiqcha bosim tushishini kamaytiradi.
4	 yozuv trainerlari	To'g'ri yozish texnikasini shakllantiradi, qo'l motorikasini rivojlantiradi.
5	 chap qo'l uchun maxsus qaychilar	Chap qo'lga mos konstruksiya qog'ozni oson kesishga yordam beradi.
6	 moslashtirilgan partalar	To'g'ri o'tirish holatini ta'minlaydi, charchoqni kamaytiradi va yozuv sifatini oshiradi.
7	 sirpanmaydigan daftar tagliklari	Daftarni joyida ushlab turadi, yozish jarayonida siljish va notekislikni oldini oladi.

3-rasm: **Chapaqay o'quvchilar uchun tavsiya etiladigan ergonomik vositalar va ularning afzalliklari**

Ergonomik vositalar mushaklarning ortiqcha zo'riqishini kamaytirib, yozuv jarayonini qulaylashtiradi. Bugungi kunda grafik malakalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan: interaktiv grafomotor ilovalar, sensorli planshetlarda yozish, sun'iy intellekt asosidagi yozuv tahlili, animatsion harf yozish dasturlari, virtual grafomotor trenajyorlar hamda raqamli husnixat platformalari. Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar bolaning yozuv tezligi, bosim kuchi, harakat yo'nalishi va harf shaklini avtomatik tahlil qilib, individual tavsiyalar beradi. Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: Individual yondashuvni qo'llash. Sensor-grafomotor mashqlarni muntazam tashkil etish. Ergonomik vositalardan foydalanish. Daftar va partaning joylashuvini moslashtirish. Vizual modellashtirish usullaridan foydalanish. Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Ota-onalarni metodik jihatdan tayyorlash. Yozuvni bosqichma-bosqich o'rgatish.

XULOSA

Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirish o'ziga xos psixofiziologik va pedagogik yondashuvni talab qiladi. Mazkur jarayonda yozuv texnikasini o'rgatish bilan bir qatorda sensor rivojlanish, mayda motorika, ergonomik sharoitlar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg'un qo'llash yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan grafomotor mashg'ulotlar nafaqat husnixat sifatini, balki o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini, o'quv motivatsiyasini va umumiy o'quv muvaffaqiyatini ham oshiradi. Ushbu metodik yondashuvlarni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etish chapaqay o'quvchilarning yozuv kompetensiyasini rivojlantirish, ularning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda inklyuziv ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov Y.Y. Husnixat (metodik qo'llanma). – Buxoro, 2012. – 132 b.
2. Azimov Y.Y., Qo'ldoshev R.A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qo'llanma). – Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2017. – 132 b.
3. Azimov Y.Y., Yusufzoda Sh.Y. Husnixat o'qitish texnologiyasi. Darslik. – Buxoro: Fan va ta'lim, 2022. – 68 b.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2018. – 280 b.
5. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017. – 304 b.
6. G'ulomov M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 368 b.
7. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2019. – 352 с.
8. Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 624 с.
9. Бернштейн Н.А. О ловкости и её развитии. – Москва: Спорт, 2021. – 288 с.
10. Безруких М.М. Обучение письму. – Москва: Просвещение, 2018. – 320 с.
11. Безруких М.М. Леворукий ребенок в школе и дома. – Москва: Вентана-Граф, 2019. – 192 с.
12. Сиротюк А.Л. Нейропсихологическое сопровождение обучения детей. – Москва: Сфера, 2018. – 240 с.
13. Henderson A., Pehoski C. Hand Function in the Child: Foundations for Remediation. 3rd ed. St. Louis: Elsevier, 2006.
14. Benbow M. Principles and Practice of Teaching Handwriting. San Antonio: Therapy Skill Builders, 2006.
15. Montessori M. The Montessori Method. New York: Dover Publications, 2004.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Садикова Д. Х.
Доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры "теория и методика дошкольного образования" национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

Аннотация: В статье представлен опыт разработки и реализации системы, обеспечивающей достижение поставленной цели и решение задач, направленных на создание условий для раскрытия потенциала детей дошкольного возраста, склонных к научно-техническому и инженерному творчеству.

Ключевые слова: техническое образование; STEM-образование; условия, способствующие формированию способности к научно-техническому творчеству; познавательное развитие.

Annotatsiya: Maqolada ilmiy-texnik va muhandislik ijodiyotiga moyil bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bo'yicha tajriba yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnik ta'lim; STEM-ta'lim; ilmiy-texnik ijodkorlik qobiliyatini shakllantiruvchi sharoitlar; kognitiv rivojlanish.

Abstract: The article presents the experience of developing and implementing a system designed to ensure the achievement of the intended objectives and the successful accomplishment of tasks aimed at creating conditions for realizing the potential of preschool children with an aptitude for scientific, technical, and engineering creativity.

Key words: technical education; STEM education; conditions that foster the development of scientific and technical creativity; cognitive development.

ВВЕДЕНИЕ

В современном мире техника является неотъемлемой частью жизни человека. Современные дети растут в технологически насыщенной среде и с раннего возраста проявляют интерес к различным техническим устройствам: включают и выключают свет, пользуются пультами дистанционного управления, с интересом наблюдают за работой различных механизмов, разбирают музыкальные шкатулки и другие бытовые устройства. Поддержка естественного интереса детей к техническим устройствам и опора на уже имеющийся у них опыт являются важными направлениями современной педагогической деятельности. Мы разделяем точку зрения современных исследователей дошкольного детства о том, что "техническое образование… предоставляет детям возможность не только ориентироваться в мире современной техники, но и подготовиться к восприятию стремительно развивающихся технологий завтрашнего дня" [1].

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

STEM-образование является одним из ведущих направлений развития современной образовательной системы. Оно основано на применении междисциплинарного и практико-ориентированного подходов, а также на интеграции науки, технологий, инженерии и математики в единый образовательный процесс. Как отмечается в научной литературе: "Сегодня важнейшим конкурентным преимуществом являются знания, технологии и компетенции. Это ключ к настоящему прорыву и повышению качества жизни. В кратчайшие сроки необходимо разработать современную законодательную базу, устранить существующие барьеры для разработки и широкого внедрения робототехники, искусственного интеллекта, беспилотного транспорта, электронной коммерции и технологий обработки больших данных" [2].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Преимущества STEM-образования: Интегрированный подход к решению современных задач. Он основан на взаимосвязи естественных наук, инженерного творчества, математики, цифровых технологий и других областей знаний. Основу данного подхода составляет метод проектов, базирующийся на познавательной и творческой деятельности, результатом которой является конкретный практический продукт. Адаптация детей к современной образовательной среде. Формирование соответствующих компетенций начинается уже в дошкольном возрасте и продолжается на всех уровнях образования. В условиях преемственности образовательной системы содержательные, технологические, предметно-пространственные и материально-технические компоненты образовательной среды последовательно усложняются с учётом возрастных особенностей обучающихся. Развитие интеллектуальных способностей. Познавательно-исследовательская деятельность и вовлечение детей в научно-техническое творчество способствуют формированию не только специальных компетенций, но и комфортной адаптации к условиям современного общества, создавая предпосылки для высокого качества жизни в будущем. Развитие критического мышления.

Этот процесс рассматривается как последовательное формирование следующих умений: получать необходимую информацию; анализировать полученную информацию; применять полученные знания в практической деятельности. Формирование навыков коллективной работы в сочетании с индивидуализацией образовательного процесса. Ранняя профориентация. STEM-образование способствует первоначальному знакомству детей с профессиями XXI века, включая специалистов в области информационных технологий, информационной безопасности, анализа данных, инженерии, машиностроения, робототехники, автоматики, ядерной физики, радиохимии, а также других сфер, требующих современных технических знаний. Развитие интереса к техническому творчеству. STEM-образование направлено на создание образовательной системы, основанной на естественном интересе детей к техническому конструированию и моделированию [3].

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Целью исследования является создание условий для реализации потенциала детей дошкольного возраста, склонных к научно-техническому и инженерному творчеству, посредством формирования современной образовательной среды дошкольной образовательной организации. оснащение дошкольных образовательных организаций (ДОО) современным оборудованием, способствующим развитию навыков моделирования (в том числе компьютерного), конструирования механических и электронных устройств, программирования, а также проведения исследований в области естественно-математических дисциплин; подготовка педагогических кадров, сопровождающих проектную и исследовательскую деятельность детей дошкольного возраста в области естественно-математических дисциплин и приоритетных направлений развития техники. Реализация проекта по модернизации материально-технической базы дошкольных образовательных организаций по направлению “Развитие исследовательской, технической и проектной деятельности в дошкольной образовательной организации” позволит: создать условия, способствующие познавательному развитию детей в области естественных наук, математики и техники; улучшить материально-техническое оснащение ДОО оборудованием для научно-технической и проектной деятельности в соответствии с требованиями программы “Илк қадам” увеличить количество воспитанников, вовлечённых в научно-техническую и проектную деятельность в области естественно-математических наук.

При формировании комплекта оборудования были положены в основу следующие принципы: принцип модульности, предусматривающий формирование комплекта из взаимосвязанных модулей оборудования, объединённых общей целевой направленностью (исследовательская и проектная деятельность, развитие навыков моделирования, алгоритмического мышления, основ программирования и др.), что позволяет образовательным организациям самостоятельно дополнять базовые комплекты оборудования и расширять спектр используемых средств в соответствии с образовательными задачами; принцип мобильности, заключающийся в том, что оборудование не требует стационарной установки, обеспечивая возможность его использования в различных помещениях дошкольной образовательной организации, а также в разнообразных видах детской деятельности и образовательных ситуациях; принцип открытости, предполагающий возможность использования оборудования не только для решения конкретных задач, но и для его творческого применения, в том числе в самостоятельной деятельности детей.

Использование оборудования органично сочетается с традиционными видами детской деятельности (конструирование, экспериментирование, рисование и др.) и легко интегрируется в предметно-развивающую среду дошкольной образовательной организации; принцип функциональной доступности, согласно которому функции оборудования являются понятными и наглядными для ребёнка дошкольного возраста. Конструкция оборудования и его компонентов соответствует возрастным анатомическим особенностям детей, обеспечивая удобство и безопасность использования; принцип сотрудничества, предусматривающий использование оборудования, поддерживающего работу в парах, малых группах и командах при решении исследовательских и проектных задач; принцип преемственности, основанный на использовании линейки робототехнических средств, программного обеспечения и конструктивно совместимых комплектов оборудования, предназначенных для различных уровней образования [4].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Целенаправленное создание в дошкольных образовательных организациях научно-образовательных лабораторий и мастерских, реализация STEM-проектов, а также проектов технической направленности с последующим внедрением их результатов в образовательный процесс позволяют не только сформировать у детей необходимые знания, но и научить их понимать сущность изучаемых явлений и применять полученные знания в практической деятельности.

Список использованной литературы:

1. Khusanovna S.D. Theoretical Foundations of Systematic Organization of Marketing Activities in Preschool Educational Organizations // Shokh Articles Library. 2026. Vol. 1. No. 2.
2. Обухова А.С. Исследовательская деятельность. – Москва: МОД “Исследователь”; журнал Исследователь/ Researcher, 2018. – 260 с.
3. Khusanovna S.D. The Introduction of STEAM Technologies in Preschool Education // Shokh Articles Library. 2026. Vol. 1. No. 2.
4. Теплова А.Б. Психолого-педагогические условия реализации программы “STEM-образование для дошкольников и младших школьников” // Научно-практическое образование, исследовательское обучение, STEM-образование: новые типы образовательных ситуаций: сборник докладов IX Международной научно-практической конференции “Исследовательская деятельность учащихся в современном образовательном пространстве”. Т. 1.
5. Садикова Д.Х. Зарубежный опыт в применении STEAM-технологий в дошкольном образовании // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. 2025. Т. 3. № 1.
6. Sadikova D.X. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalarni qo'llash // Inter Education & Global Study. 2025. Vol. 3. No. 1. P. 332-340.
7. Садикова Д.Х., Касимова Д.Б. Формирование инженерных способностей средствами STEAM у современных детей // Inter Education & Global Study. 2024. № 7. С. 131-136.
8. Садикова Д.Х. Эксперименты для детей дошкольного возраста с учётом технологий STEAM // Образование. Наука. Инновационные идеи в мире. 2024. Т. 55. № 2. С. 26-28.
9. Садикова Д.Х. Значение информационно-коммуникационных технологий в формировании у студентов профессиональных качеств // Наука и образование сегодня. 2021. № 5. С. 72-73.
10. Садикова Д.Х. Взаимосвязь международных рейтингов и модели STEAM-образования: пересмотр образовательных подходов // Science and Innovation. 2023. Т. 2. Special Issue 13. С. 301-305.

SUN'IY INTELLEKT BILAN ISHLASH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV MUSTAQILLIGI VA METAKOGNITIV NAZORATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Saliiyeva Muslima Maxsetbay qizi
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0006-4398-1517

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish sharoitida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi hamda metakognitiv nazoratini shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik determinantlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt vositalarining o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etish strategiyalarini tanlashi, o'z bilimini monitoring qilish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, motivatsiya, refleksiya, tanqidiy fikrlash, raqamli kompetentlik, o'quv muhiti hamda o'qituvchining pedagogik qo'llab-quvvatlashi kabi omillarning kognitiv mustaqillik va metakognitiv nazorat rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada sun'iy intellektdan samarali foydalanish orqali o'quvchilarda yuqori darajadagi intellektual faollik, mas'uliyatli qaror qabul qilish va uzluksiz o'rganish kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kognitiv mustaqillik, metakognitiv nazorat, pedagogik determinantlar, psixologik determinantlar, refleksiya, tanqidiy fikrlash, raqamli kompetentlik, o'z-o'zini boshqarish, mustaqil ta'lim, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological determinants that influence the development of students' cognitive independence and metacognitive control while using artificial intelligence technologies in educational settings. The study highlights the role of AI-based learning tools in fostering independent thinking, strategic problem-solving, self-monitoring, and self-regulated learning. Particular attention is given to the impact of learning motivation, reflective thinking, critical thinking, digital competence, educational environment, and teacher support on the development of cognitive autonomy and metacognitive regulation. The paper also presents theoretical conclusions and practical recommendations for the effective integration of artificial intelligence into education to enhance intellectual engagement, responsible decision-making, and lifelong learning competencies.

Key words: artificial intelligence, cognitive independence, metacognitive control, pedagogical determinants, psychological determinants, reflective thinking, critical thinking, digital competence, self-regulated learning, independent learning, educational technology.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические и психологические детерминанты, влияющие на формирование когнитивной самостоятельности и метакогнитивного контроля учащихся в условиях использования технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе. Особое внимание уделено роли интеллектуальных цифровых инструментов в развитии самостоятельного мышления, выборе стратегий решения учебных задач, самоконтроле, самооценке и управлении собственной познавательной деятельностью. Научно обосновывается влияние учебной мотивации, рефлексии, критического мышления, цифровой компетентности, образовательной среды и педагогического сопровождения на развитие когнитивной автономии обучающихся. Представлены теоретические выводы и практические рекомендации, направленные на эффективное использование искусственного интеллекта для формирования интеллектуальной активности, ответственного принятия решений и навыков непрерывного обучения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, когнитивная самостоятельность, метакогнитивный контроль, педагогические детерминанты, психологические детерминанты, рефлексия, критическое мышление, цифровая компетентность, саморегуляция, самостоятельное обучение, образовательные технологии.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyotining yangi bosqichi sun'iy intellektning ta'lim tizimiga jadal kirib kelishi bilan tavsiflanmoqda. Sun'iy intellekt nafaqat axborotni qayta ishlash vositasi, balki ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tahlil qilish, moslashtirilgan tavsiyalar berish va bilimlarni baholash imkoniyatlarini kengaytiruvchi innovatsion texnologiya sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday sharoitda o'quvchilarning sun'iy intellekt vositalaridan samarali va ongli foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish pedagogika hamda psixologiya fanlari oldidagi ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarining ortishi bilan bir qatorda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligini saqlab qolish, o'z bilimlarini tanqidiy baholash hamda o'quv faoliyatini ongli boshqarish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt tomonidan tayyorlangan javoblarga ortiqcha tayanish ayrim hollarda o'quvchining tahliliy fikrlashi, muammoni mustaqil hal etish qobiliyati va refleksiv faoliyatining sustlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellektni oddiy axborot manbai sifatida emas, balki kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik vosita sifatida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur jarayonda kognitiv mustaqillik alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Kognitiv mustaqillik deganda o'quvchining yangi bilimlarni mustaqil izlash, turli manbalarni tahlil qilish, dalillarni taqqoslash, muammolarni yechishning maqbul strategiyalarini tanlash hamda o'z xulosalarini asoslash qobiliyati tushuniladi. Bunday sifatlar zamonaviy ta'limning asosiy kompetensiyalari sifatida qaralib, sun'iy intellekt bilan ishlash madaniyatining ham ajralmas tarkibiy qismidir. Chunki sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan javoblarning to'g'riligi, dolzarbligi va ishonchliligini baholash faqat rivojlangan kognitiv mustaqillikka ega bo'lgan o'quvchi tomonidan samarali amalga oshiriladi.

Metakognitiv nazorat esa o'quvchining o'z fikrlash jarayonini kuzatishi, rejalashtirishi, nazorat qilishi va zarurat tug'ilganda uni qayta tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Sun'iy intellekt bilan ishlash davomida aynan metakognitiv nazorat o'quvchining qaysi ma'lumotga ishonish, qanday savollar berish, javoblarni qanday tekshirish va ulardan qanday foydalanish bo'yicha ongli qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi. Demak, kognitiv mustaqillik va metakognitiv nazorat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy psixologik mexanizmlar hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan mazkur sifatlarning rivojlanishi ta'lim metodlari, o'qituvchining fasilitatorlik faoliyati, muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim, refleksiv mashg'ulotlar, adaptiv raqamli platformalar hamda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish strategiyalariga bevosita bog'liqdir. Psixologik jihatdan esa motivatsiya, bilishga bo'lgan ehtiyoj, ichki nazorat lokusi, refleksiya, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, o'z-o'zini boshqarish va emotsional barqarorlik kabi determinantlar o'quvchilarning sun'iy intellekt bilan ishlash samaradorligini belgilaydi. Ushbu omillarning uyg'un rivojlanishi o'quvchida mas'uliyatli, ongli va mustaqil o'quv faoliyatini shakllantiradi.

Bugungi kunda sun'iy intellektning ta'limdagi imkoniyatlari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, uning o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik determinantlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida o'quvchining mustaqil qaror qabul qilish, axborotni tanqidiy baholash, o'z fikrlash faoliyatini boshqarish va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik hamda psixologik determinantlarni ilmiy tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini asoslash hamda ta'lim amaliyotida ushbu determinantlardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosidagi ta'lim texnologiyalarini pedagogik nuqtai nazardan takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish va metakognitiv boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada ko'paydi. Dastlabki izlanishlarda sun'iy intellekt asosan avtomatlashtirilgan baholash, adaptiv ta'lim platformalari va individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirish vositasi sifatida o'rganilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda uning o'quvchilarning bilish faoliyati, tanqidiy fikrlashi, metakognitiv rivojlanishi va mustaqil ta'lim kompetensiyalariga ta'siri alohida ilmiy yo'nalishga aylandi [1].

Metakognitsiya nazariyasining shakllanishida J. Flavellning ilmiy qarashlari muhim o'rin egallaydi. U metakognitsiyani shaxsning o'z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari hamda ushbu jarayonlarni rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati sifatida izohlaydi [2]. Mazkur yondashuv zamonaviy sun'iy intellekt vositalari bilan

ishlash jarayonini tushuntirishda ham dolzarb hisoblanadi. Chunki foydalanuvchi sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan javobni qabul qilishdan oldin uning mazmunini tahlil qiladi, mavjud bilimlari bilan taqqoslaydi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha izlanish olib boradi. Bu esa metakognitiv nazoratning amaliy namoyonidir.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida o'z-o'zini boshqarish, o'ziga bo'lgan ishonch va refleksiv nazorat ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy psixologik omillar sifatida ko'rsatiladi [3]. Tadqiqotchining fikricha, o'quvchi o'z imkoniyatlariga ishongan sari murakkab vazifalarni bajarishga intiladi va o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etishga moyilligi ortadi. Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida ham aynan o'z-o'zini boshqarish va refleksiv nazorat o'quvchining raqamli vositalardan oqilona foydalanishini ta'minlaydi.

B. Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim modeli zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda [4]. Ushbu modelga ko'ra, samarali ta'lim uch bosqichni o'z ichiga oladi: faoliyatni rejalashtirish, bajarish jarayonini nazorat qilish va yakuniy natijalarni refleksiv baholash. Sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalaridan foydalanishda aynan ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

L. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi konsepsiyasi ham sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [5]. Agar ilgari murakkab vazifalarni bajarishda asosiy yordamchi o'qituvchi yoki tengdoshlar bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt ayrim hollarda individual pedagogik ko'mak beruvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq tadqiqotchilar sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini emas, balki uning faoliyatini to'ldiruvchi hamkor texnologiya sifatida qo'llanishi lozimligini ta'kidlaydilar.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda generativ sun'iy intellekt vositalari, jumladan, katta til modellari o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga ikki xil ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [6]. Bir tomondan, ular murakkab axborotni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash va ijodiy g'oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan esa, o'quvchi sun'iy intellekt javoblarini tekshirmasdan qabul qiladigan bo'lsa, mustaqil fikrlash faolligi pasayishi, kognitiv qaramlik kuchayishi va refleksiv nazorat sustlashishi mumkin.

Ta'lim psixologiyasi sohasidagi ilmiy ishlarda kognitiv mustaqillikning shakllanishi ichki motivatsiya, bilishga bo'lgan ehtiyoj, muammoli vaziyatlarning mavjudligi hamda refleksiv ta'lim muhiti bilan bevosita bog'liqligi qayd etiladi [7]. O'quvchilar faqat tayyor javoblarni emas, balki izlanish, tahlil, taqqoslash va dalillashni talab qiladigan topshiriqlarni bajarganlarida kognitiv mustaqillik barqaror rivojlanadi. Shu sababli sun'iy intellekt bilan ishlash metodikasi ham reproduktiv emas, balki produktiv va tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilishi zarur.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlik zamonaviy pedagogikadagi korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida o'rganilgan. Tadqiqotda ilg'or davlatlar (Yaponiya, Singapur, Finlyandiya, AQSh, Buyuk Britaniya va O'zbekiston) tajribasi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korporativ ta'lim modelining besh komponentli tuzilmasi taklif etilgan hamda uning maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashdagi samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikning integratsiyalashgan modelini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korporativ ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalla, hamkorlik, ilg'or davlatlar tajribasi, integratsiya, ijtimoiylashuv, qiyosiy pedagogika.

Abstract: This article examines cooperation among preschool educational institutions, families, and mahallas as a trend in corporate education within modern pedagogy. The study provides a comparative analysis of the experiences of leading countries, including Japan, Singapore, Finland, the United States, the United Kingdom, and Uzbekistan. Based on the research findings, the article proposes a five-component model of corporate education and scientifically substantiates its effectiveness in preparing preschool children for school. In addition, practical recommendations are offered for implementing an integrated model of cooperation among preschool educational institutions, families, and mahallas.

Key words: corporate education, preschool educational institution, family, mahalla, cooperation, experience of leading countries, integration, socialization, comparative pedagogy.

Аннотация: В данной статье исследуется сотрудничество между дошкольной образовательной организацией, семьёй и махаллёй как одна из тенденций корпоративного образования в современной педагогике. В исследовании проведён сравнительный анализ опыта передовых государств (Японии, Сингапура, Финляндии, США, Великобритании и Узбекистана). По результатам исследования предложена пятикомпонентная структура модели корпоративного образования, а также научно обоснована её эффективность в качественной подготовке детей дошкольного возраста к школьному обучению. Кроме того, разработаны практические рекомендации по внедрению интеграционной модели сотрудничества между дошкольной образовательной организацией, семьёй и махаллёй.

Ключевые слова: корпоративное образование, дошкольная образовательная организация, семья, махалля, сотрудничество, опыт передовых государств, интеграция, социализация, сравнительная педагогика.

Insonning aqliy va axloqiy sifatlari tug'ma emas, balki tarbiya va takroriy mashq natijasida shakllanadi.
Abu Nasr Forobiy

KIRISH

Inson kamolotining ilk va eng mas'uliyatli bosqichi bo'lgan maktabgacha yosh davrida shaxsning kelgusi intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishining poydevori shakllantiriladi. Psixofiziologik tadqiqotlar bolaning miya rivojlanishining eng jadal davri hayotining dastlabki yetti yiliga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Shu sababli ushbu davr shaxs kamolotida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: "...inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi" [3, 38-b.], deb ta'kidlagan.

Bugungi kunda ham mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berishga bag‘ishlangan II Butunjahon konferensiyasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga bolalar tarbiyasi masalasi bo‘yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilishni taklif etib, ota-onalarning farzandlariga sifatli ta’lim va tarbiya berish, ularning ma’naviy va jismoniy barkamolligini ta’minlash, qobiliyat va salohiyatlarini to‘liq namoyon etishdagi mas’uliyatini yanada oshirish zarurligini alohida ta’kidlagan [2].

Shuningdek, zamonaviy pedagogika fani bolani tarbiyalashni yakka tartibdagi, izolyatsiyalashgan jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy institutlarning o‘zaro uyg‘unlashgan hamkorligi mahsuli sifatida talqin etadi. Demak, bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun ta’lim-tarbiya muhitini yaxlit tizim sifatida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashda uchta asosiy ijtimoiy institut – oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti va mahalla ishtirok etadi. Mazkur institutlar alohida faoliyat yuritganda tarbiyaviy ta’sirlar parchalanadi va ularning samaradorligi pasayadi. Aksincha, ular yagona maqsad yo‘lida hamkorlik qilganda bir-birini kuchaytiruvchi sinergetik samara yuzaga keladi. Ana shu sinergiyani tizimli tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolani maktab ta’limiga tayyorlash ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u faqat o‘qish, yozish va sanashni o‘rgatish bilangina cheklanmaydi. Zamonaviy pedagogikada maktabga tayyorgarlik besh yo‘nalishda: motivatsion (o‘qishga ijobiy munosabat), intellektual (bilish jarayonlarining rivojlanganligi), ijtimoiy (muloqot va o‘zaro munosabat ko‘nikmalari), irodaviy-hissiy (o‘zini o‘zi boshqarish) hamda jismoniy tayyorgarlik sifatida talqin etiladi. Ushbu yo‘nalishlarning barchasini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish bitta institut imkoniyati bilan amalga oshmaydi. Bu jarayon oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti va mahallaning muvofiqlashtirilgan hamkorligini talab qiladi. Mazkur holat korporativ yondashuvning zarurligini yanada asoslaydi.

So‘nggi yillarda jahon pedagogikasida “korporativ ta’lim” (corporate education) tushunchasi menejment va tizimli yondashuv sohasidan ta’lim tizimiga ko‘chirilib, unda ta’lim subyektlari yagona maqsad, umumiy qadriyatlar hamda o‘zaro mas’uliyat asosida birlashgan “ta’lim korporatsiyasi” sifatida talqin etilmoqda. P. Sengening “o‘rganuvchi tashkilot” nazariyasi mazkur yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi [4, 8-15-b.]. Maktabgacha ta’lim sohasida ushbu yondashuv maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahallaning integratsiyalashgan hamkorligida o‘z ifodasini topmoqda.

Mazkur hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son[1] “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni [1]da ham huquqiy jihatdan asoslangan bo‘lib, uni tizimli yo‘lga qo‘yish belgilab berilgan. Shuningdek, tadqiqotning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, neyropedagogika va iqtisodiy tadqiqotlar maktabgacha yosh davriga yo‘naltirilgan investitsiyalar inson kapitalining eng yuqori qaytimini ta’minlashini isbotlagan.

Nobel mukofoti laureati J. Hekman hisob-kitoblariga ko‘ra, erta bolalik davriga yo‘naltirilgan har bir dollar bolaning umri davomida sakkiz barobardan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi [5, 1900-1902-b.]. Bu esa maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi har qanday mexanizm, jumladan, korporativ hamkorlik modelining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, zamonaviy urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari an’anaviy oilaviy tarbiya mexanizmlarini zaiflashtirmoqda. Natijada ijtimoiy kapitalning yemirilishi hamda jamoaviy aloqalarning sustlashuvi bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla o‘rtasidagi institutsional hamkorlik ijtimoiy kapitalni tiklashning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya davri hamkorlikning yangi – virtual va gibrid – shakllarini taqozo etmoqda. Bu esa korporativ ta’lim tendensiyasini ilmiy jihatdan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shunga qaramay, pedagogik amaliyotda maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni yaxlit “korporativ ta’lim” tizimi sifatida konseptuallashtiruvchi, shuningdek, Sharq va G‘arb tajribasini qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Shu bois mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish, ya’ni maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini korporativ ta’lim tendensiyasi sifatida nazariy asoslash hamda uning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi muammosi pedagogika tarixida chuqur ildizlarga ega. Sharq pedagogik qarashlarida bola tarbiyasida oila va jamoa hamkorligiga alohida e’tibor qaratilgan. Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra, oiladagi tartib va o‘zaro hurmat jamiyat barqarorligining asosini tashkil etadi [6].

Mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Forobiy “Fozil shahar ahli qarashlari” asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida ta’riflaydi hamda uning kamolga yetishi faqat jamoa ichida mumkinligini asoslaydi. Uning fikricha, tarbiya oiladan boshlanadi, biroq fazilat (axloqiy yetuklik) jamiyat hamkorligisiz to‘liq shakllanmaydi.

1 https://lex.uz/docs/-4646908

Abu Rayhon Beruniy bilim olish va tarbiya jarayonida ustoz, oila hamda ijtimoiy muhitning o‘zaro uyg‘un ta’siriga alohida urg‘u beradi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida bola tarbiyasida ota-onaning mas’uliyati bilan jamiyat oldidagi burchni o‘zaro bog‘laydi. Unga ko‘ra, farzand tarbiyasi shaxsiy masala emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega jarayondir.

Ma’rifatparvar allomalarimizdan Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani oila, maktab va jamiyatning uzviy hamkorligi sifatida talqin etadi hamda: “...tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. “Tarbiyani kim qilur? Qaydan qilinur?” degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi – bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, deb, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [7, 8-b.].

Shuningdek, Abdurauf Fitrat oila boshqaruvi va bolani ijtimoiylashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqan [8, 22-b.]. Mazkur g‘oyalar korporativ ta’lim tendensiyasining milliy-madaniy negizini tashkil etadi.

O‘zbekiston milliy pedagogikasida ushbu masala bo‘yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

E. G‘ozievning yosh davrlari psixologiyasiga oid tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish qonuniyatlarini yoritib bergan bo‘lsa, R. Mavlonova va hammualliflarning maktabgacha pedagogikaga oid ishlari hamkorlikning amaliy shakllarini tizimlashtiradi. Bugungi kunda metodologik asos bo‘lib xizmat qilayotgan “Ilk qadam” o‘quv dasturida oila bilan hamkorlik maktabgacha ta’limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida belgilangan. Mazkur tadqiqot ushbu milliy tajribani xalqaro tajriba bilan boyitadi.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlar ham maktabgacha ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini isbotlagan. Jumladan, L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bolaning imkoniyatlari kattalar (ota-onalar va tarbiyachilar) ko‘magida kengayishini asoslaydi hamda hamkorlikning pedagogik ahamiyatini ochib beradi [9, 217-219-b.].

J. Epshteynning “maktab – oila – jamoa sherikligi” modeli ushbu yo‘nalishdagi eng ta’sirchan nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. U hamkorlikning olti turini (ota-onalik, muloqot, ko‘ngilli faoliyat, uydagi ta’lim, qaror qabul qilish va jamoa bilan hamkorlik) ajratib ko‘rsatadi [10, 41-75-b.].

J. Dyui esa ta’limni ijtimoiy tajribani qayta qurish jarayoni sifatida talqin etib, maktab va jamiyatning uzviy bog‘liqligini asoslab bergan [11, 89-95-b.].

Ayni paytda G. Hornbi va R. Lafaele ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni tizimlashtirgan [12, 37-52-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolalar psixologiyasi sohasida J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi maktabgacha yoshdagi bolaning bilish faoliyati o‘ziga xos bosqichlarda rivojlanishini ko‘rsatadi. Bu esa kattalar tomonidan ko‘rsatiladigan pedagogik yordamning bolaning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishini talab etadi [13, 152-160-b.].

M. Montessori esa bolani o‘rab turgan rivojlantiruvchi muhitning puxta tashkil etilishi hamda oilaning faol ishtiroki bolada mustaqillikni shakllantirishning hal qiluvchi omillari ekanligini asoslab bergan [14, 27-35-b.].

Italiyaning Reggio Emilia pedagogik yondashuvi bolani “uch subyektli pedagogika”, ya’ni bola, oila va pedagogning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli sifatida talqin etadi [15, 27-33-b.].

Shuningdek, G‘arb pedagog olimlari ota-onalar ishtirokining ta’lim natijalariga ijobiy ta’sirini isbotlagan hamda “ijtimoiy kapital” nazariyasida oila va jamoa o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar inson kapitalini shakllantirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatgan. Ushbu nazariy qarashlar ham korporativ ta’lim modelining sotsiologik asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sharq va G‘arb olimlari turli terminlardan foydalangan bo‘lsalar-da, hamkorlikning zarurligi masalasida umumiy ilmiy xulosaga keladilar. Ayni paytda “korporativ ta’lim” tushunchasi orqali ushbu hamkorlikni yaxlit tizim sifatida konseptuallashtirish hamda unga mahallani to‘laqonli subyekt sifatida kiritish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Korporativ ta’lim” atamasi dastlab biznes va menejment sohasida xodimlarni tashkilot ichida uzluksiz rivojlantirish tizimini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Biroq P. Sengening “o‘rganuvchi tashkilot” nazariyasi ushbu tushunchani yanada kengroq talqin etish imkonini berdi. Unga ko‘ra, korporatsiya umumiy maqsad, taqsimlangan mas’uliyat va birgalikdagi o‘rganish asosida faoliyat yurituvchi yaxlit tizim hisoblanadi [4]. Mazkur ma’noda korporativlik tijorat tuzilmasini emas, balki hamkorlikning tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan xususiyatini anglatadi.

Pedagogikaga tatbiq etilganda “korporativ ta’lim” tushunchasi ta’lim subyektlari (maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla) o‘rtasidagi hamkorlikni tasodifiy yoki epizodik emas, balki tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan

hamda o‘zaro mas’uliyatga asoslangan birlashma sifatida tashkil etishni anglatadi. Korporativ ta’limni an’anaviy hamkorlikdan farqlovchi quyidagi besh asosiy belgi ajratiladi:

1. **Maqsadlarning yagonaligi** – barcha subyektlar umumiy tarbiyaviy natijaga yo‘naltiriladi.
2. **Mas’uliyatning taqsimlanishi** – har bir subyekt o‘z vazifasi va hissasini aniq biladi.
3. **Resurslarning integratsiyasi** – moliyaviy, kadrlar va ijtimoiy resurslar birlashtiriladi.
4. **Tizimli o‘zaro aloqa** – doimiy axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi.
5. **Natijaga yo‘naltirilganlik** – hamkorlik samaradorligi muntazam baholanadi.

Mazkur belgilar korporativ ta’lim modelining konseptual asosini tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqotning muhim metodologik masalalaridan biri “korporativ” atamasini tijoratlashtirish mazmunidan farqlashdir. Ushbu tushuncha ta’limni bozor xizmatiga aylantirishni emas, balki ijtimoiy subyektlarning umumiy maqsad yo‘lidagi mas’uliyatli hamkorligini anglatadi. Shu ma’noda korporativlik zamonaviy institutsional jamoaviylik (kollegiallik) shakli bo‘lib, u Sharq madaniyatidagi hashar va mahalla an’analari bilan uyg‘unlashadi. Demak, milliy ta’lim-tarbiya tizimida korporativ ta’lim g‘oyasi begona hodisa emas, balki an’anaviy jamoaviylikning zamonaviy davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik adabiyotlarda korporativ ta’lim modelining uch asosiy funksiyasi ajratiladi: integrativ (turli subyektlarni birlashtirish), kompensator (ayrim subyektlarning imkoniyatlari cheklanganligini boshqa subyektlar hisobiga to‘ldirish) va rivojlantiruvchi (bola, ota-ona hamda pedagogning birgalikda rivojlanishini ta’minlash).

Aynan rivojlantiruvchi funksiya M. Montessori g‘oyalari [14] bilan hamohang bo‘lib, unga ko‘ra tarbiya jarayonida nafaqat bola, balki kattalar ham rivojlanadi. Korporativ ta’lim modeli to‘rtta fundamental nazariy yondashuvga tayanadi. Tizimli yondashuv hamkorlikni o‘zaro bog‘langan elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Bunda har bir tarkibiy qism (maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla) umumiy natijaga xizmat qiladi. Ushbu yaxlitlik oddiy arifmetik yig‘indidan ko‘ra yuqori samarani ta’minlaydi, bu esa sinergetika qonunining pedagogik ifodasidir.

Ekologik yondashuv U. Bronfenbrenner nazariyasiga asoslanib, bolani o‘rab turgan turli darajadagi muhitlar (mikrotizim, mezotizim, ekzotizim va makrotizim)ning o‘zaro ta’sirini tahlil qiladi [16, 27-b.].

Korporativ ta’lim aynan mezotizim, ya’ni bolaning hayotidagi turli muhitlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Faoliyatli yondashuv bolani maktab ta’limiga tayyorlashda o‘yin, muloqot va amaliy faoliyatning yetakchi rolini e’tirof etadi. Ushbu yondashuv J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi bilan uzviy bog‘liq [13].

Aksiologik (qadriyatli) yondashuv hamkorlikning ma’naviy-axloqiy asosini ta’minlaydi. Sharq pedagogikasida qadriyatlar tizimi tarbiyaning markaziy omili hisoblanadi. Bu esa G‘arbning ratsional-texnologik yondashuvini insonparvarlik mazmuni bilan boyitadi. Mazkur to‘rt yondashuvning uyg‘unligi korporativ ta’lim modelining metodologik puxtaligini ta’minlaydi. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimi jahondagi eng samarali ta’lim tizimlaridan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim “educare” – ta’lim va parvarish birligi tamoyiliga asoslanadi. Ota-onalar va pedagoglar birgalikda bolaning individual ta’lim rejasini ishlab chiqadilar. Bu esa hamkorlikni rasmiy munosabatlardan haqiqiy sheriklik darajasiga olib chiqadi [17].

Finlyandiya tajribasining muhim jihatlaridan biri pedagogga nisbatan yuqori ijtimoiy ishonch hamda oila bilan muntazam muloqotning yo‘lga qo‘yilganligidir.Germaniyada maktabgacha ta’lim muassasalari (Kindertagesstätte) oila bilan hamkorlikni “ta’limiy sheriklik” (Erziehungspartnerschaft) tamoyili asosida tashkil etadi. Bunda ota-onalar va pedagoglar teng huquqli hamkor subyektlar sifatida qaraladi [18].

AQSh va Buyuk Britaniya tajribasida esa ota-onalarning maktab kengashlari orqali ta’lim muassasasini boshqarishda ishtirok etishi hamda nodavlat tashkilotlarning faolligi asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Biroq G. Hornbi ta’kidlaganidek, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokiga jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin [12].

Sharq davlatlari tajribasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Singapurda “Nurturing Early Learners” dasturi doirasida oila bilan hamkorlik bolalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan [19].

Yaponiyada esa bog‘cha jamoa hayotining uzviy qismi sifatida qaraladi va bolaning jamoaga moslashuvi (syūdan seikatsu) asosiy tarbiyaviy maqsad hisoblanadi. Ota-onalar bog‘cha faoliyatida faol ishtirok etib, ota-onalar uyushmalari orqali ta’lim jarayoniga hissa qo‘shadilar [20]. Janubiy Koreyaning “Nuri” dasturi esa davlat va oilaning birgalikdagi moliyaviy hamda pedagogik mas’uliyatiga asoslangan [21].

O‘zbekiston tajribasi Sharq modelining yorqin namunasi bo‘lib, unda mahalla instituti alohida o‘rin egallaydi. Mahalla nafaqat hududiy birlik, balki tarbiyaning to‘laqonli subyekti sifatida ham faoliyat yuritadi. U oilalarga ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatadi, milliy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatadi hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan oila o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Ushbu uch tomonlama hamkorlik (maktabgacha ta’lim tashkiloti – oila – mahalla) milliy pedagogikada korporativ ta’lim tendensiyasining o‘ziga xos modelini shakllantiradi.


Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan qiyosiy tahlil Sharq va G'arb mamlakatlarida hamkorlik modellari turli madaniy-aksiologik asoslarda shakllanganligini ko'rsatdi. G'arb modeli, asosan, liberal-individualistik an'analarga tayangan holda, ota-onani ta'lim xizmatining teng huquqli subyekti va bolaning manfaatlarini himoya qiluvchi hamkor sifatida ko'radi. Bunda hamkorlik shartnomalar, ota-onalar kengashlari hamda rasmiy boshqaruv mexanizmlari orqali institutsionallashtiriladi. Sharq modeli esa jamoaviylik an'analariga asoslanadi. Unda oila va jamoa qadriyatlari, o'zaro hurmat hamda mas'uliyat tarbiyaning ma'naviy negizini tashkil etadi. Mazkur farq hamkorlikning tashkiliy shakllarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. G'arb mamlakatlarida ota-onalar ta'lim jarayonini boshqarish va nazorat qilishda faol ishtirok etsalar, Sharq mamlakatlarida ular, asosan, axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni uzatishga mas'ul hisoblanadilar. Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari ta'sirida mazkur ikki model asta-sekin o'zaro yaqinlashib, gibrid hamkorlik shakllari vujudga kelmoqda. Quyidagi jadvalda ushbu farqlar beshta mezon asosida tizimlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval: **Sharq va G'arb hamkorlik modellarining qiyosiy tahlili**

Mezon	Sharq modeli (Yaponiya, Singapur, O'zbekiston)	G'arb modeli (Finlyandiya, AQSh, Buyuk Britaniya)
Hamkorlik asosi	Jamoaviy qadriyatlar, mahalla instituti, oilaviy an'analar	Individual huquqlar, shartnomaviy sheriklik, ota-ona tanlovi
Mahalla / jamiyat roli	Yuqori - mahalla tarbiyaning to'laqonli subyekti	O'rtacha – nodavlat tashkilotlar va ko'ngillilar orqali
Ota-onaning ishtirok shakli	Axloqiy tarbiya, an'analarni uzatish	Ta'im jarayonini boshqarishda ishtirok, monitoring
Boshqaruv modeli	Markazlashgan, davlat rahbarligida	Markazsizlashgan, munitsipal avtonomiya
Korporativlik darajasi	Yuqori (jamoaviylik asosida)	O'rta-yuqori (institutsional shartnoma asosida)

Yuqoridagi qiyosiy tahlil mazkur ikki model bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o'zaro bir-birini boyituvchi salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. G'arb modeli hamkorlikning huquqiy-institutsional asoslarini, shaffofligini hamda ota-onaning ta'lim jarayonidagi subyektlik maqomini kuchaytiradi. Sharq modeli esa hamkorlikning ma'naviy-aksiologik negizini, jamoaviy birdamlikni va tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlaydi. Ushbu ikki yondashuvning sintezi korporativ ta'lim tendensiyasining eng samarali modelini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarning farzandlari ta'lim-tarbiyasidagi ishtiroki ko'rsatkichlari ham qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Finlyandiya va Yaponiya kabi ijtimoiy kapital darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda ota-onalar ishtiroki indeksi eng yuqori ko'rsatkichlarni (mos ravishda 88 va 82 ball) tashkil etadi. Mazkur davlatlarda hamkorlik institutsional jihatdan puxta yo'lga qo'yilgan bo'lib, u milliy-madaniy an'analar bilan mustahkamlangan. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 66 ballni tashkil etib, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda foydalanilmagan rivojlanish imkoniyatlari mavjudligi ham kuzatiladi. Ushbu salohiyatni ro'yobga chiqarishda mahalla institutining pedagogik imkoniyatlaridan tizimli va maqsadli foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm: **Ota-onalar ishtiroki indeksi (qiyosiy ko'rsatkichlar, 0–100)**

Shuningdek, zamonaviy G‘arb pedagogikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonida “ota-onalar ishtiroki” (parental involvement) tushunchasidan “ota-onalarning faol jalb etilishi” (parental engagement)tushunchasiga o‘tilishi muhim ilmiy siljish sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki “ishtirok” ota-onaning ta’lim muassasasi tashabbuslari asosida amalga oshiriladigan nisbatan passiv faoliyatini anglatsa, “faol jalb etilish” bolaning ta’lim-tarbiyasi uchun ota-onaning ichki mas’uliyati, tashabbuskorligi va faol hamkorligini ifodalaydi. Mazkur farq korporativ ta’lim modeli uchun prinsipial ahamiyat kasb etadi. Chunki haqiqiy hamkorlik ota-onani buyruq ijrochisi sifatida emas, balki ta’lim-tarbiya jarayonining teng huquqli hamkori va hammuallifi sifatida e’tirof etadi.

Demak, G‘arb davlatlari tajribasidagi ushbu yondashuvlarni milliy ta’lim-tarbiya tizimiga moslashtirish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ilg‘or davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, korporativ ta’lim modelining besh komponentdan iborat tuzilmasi ishlab chiqildi. Mazkur modelning har bir komponenti tegishli amaliy indikatorlar asosida baholanishi mumkin (2-jadval). Ushbu tuzilma maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

2-jadval: **Korporativ ta’lim modelining komponentlari va indikatorlari**

Komponent	Mazmuni	Amaliy indikator
Maqsadli	Umumiy tarbiyaviy maqsad va qadriyatlarni belgilash	Yagona rivojlanish xaritasi
Mazmuniy	Ta’lim-tarbiya dasturlarini muvofiqlashtirish	Integratsiyalashgan dastur
Tashkiliy	Birgalikdagi loyiha, tadbir va aksiyalar	Qo‘shma tadbirlar soni
Texnologik	Raqamli va interaktiv hamkorlik shakllari	Onlayn platforma qamrovi
Natijaviy	Bola rivojlanishi monitoringi va baholash	Tayyorgarlik indeksi

Maqsadli komponent modelning konseptual o‘zagini tashkil etadi. U barcha subyektlarning umumiy tarbiyaviy maqsad atrofida birlashishini hamda faoliyatining yagona yo‘nalishda tashkil etilishini ta’minlaydi. Mazmuniy komponent ota-onalar, pedagoglar va mahalla tomonidan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ta’sirlarini mazmunan muvofiqlashtiradi. Natijada tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar va takrorlanishlarning oldi olinadi. Tashkiliy komponent hamkorlikning aniq shakllarini – qo‘shma tadbirlar, loyihalar va aksiyalarni rejalashtirish hamda amalga oshirishni nazarda tutadi. Texnologik komponent zamonaviy raqamli va interaktiv vositalarni hamkorlik amaliyotiga joriy etishni ta’minlaydi. Bu, ayniqsa, yosh ota-onalar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijaviy komponent esa hamkorlik samaradorligini, xususan, bolaning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini monitoring qilish va baholash imkonini beradi. Mazkur besh komponent o‘zaro uzviy bog‘langan yagona tizimni tashkil etadi. Ulardan birortasining yetarli darajada faoliyat ko‘rsatmasligi butun tizim samaradorligining pasayishiga olib keladi. Bu holat tizimli yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan elementlarning o‘zaro bog‘liqligi prinsipini tasdiqlaydi. Mazkur model G‘arbning institutsional sheriklik tajribasini Sharqning jamoaviy-aksiologik an’analari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti muvofiqlashtiruvchi markaz, oila birlamchi tarbiya muhiti, mahalla esa ijtimoiy-madaniy tayanch vazifasini bajaradi. Ushbu tavsiyalarni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish uchun quyidagi yo‘l xaritasi taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval: **Korporativ ta’lim modelini joriy etish yo‘l xaritasi**

Bosqich	Asosiy tadbirlar	Kutilayotgan natija
I.Tayyorgarlik	Diagnostika, kadrlarni tayyorlash, korporativ reja ishlab chiqish	Hamkorlikning huquqiy-tashkiliy asosi
II. Joriy etish	Interaktiv shakllar, raqamli platforma, ota-onalar maktabi	Faol hamkorlik amaliyoti
III.Monitoring	Indikatorlar bo‘yicha baholash, qayta aloqa, korreksiya	Tayyorgarlik indeksining o‘sishi

Ushbu yo‘l xaritasi korporativ ta’lim modelini bosqichma-bosqich va tizimli ravishda joriy etish imkonini beradi. Birinchi bosqichda tashkiliy-huquqiy asos yaratiladi, kadrlar tayyorlanadi hamda diagnostika ishlari amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda hamkorlikning amaliy mexanizmlari yo‘lga qo‘yilib, interaktiv va raqamli shakllar joriy etiladi. Uchinchi bosqichda erishilgan natijalar belgilangan indikatorlar asosida baholanadi hamda zarur tuzatishlar kiritiladi. Mazkur siklik model (rejalashtirish – amalga oshirish – baholash – takomillashtirish) sifat menejmentining zamonaviy tamoyillariga mos keladi va hamkorlikning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’limda hamkorlik muammosiga yangicha integratsion-korporativ nuqtayi

nazardan yondashishni taklif etadi. An'anaviy tadqiqotlarda oila va bog'cha hamkorligi, asosan, ikki tomonlama munosabat sifatida o'rganilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda mahalla uchinchi to'laqonli subyekt sifatida model tarkibiga kiritildi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, mahalla instituti rivojlangan mamlakatlar (O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari) uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Olingan natijalarni xalqaro tadqiqotlar bilan qiyoslash ularning ilmiy ishonchliligini tasdiqlaydi. J. Epshteynning "maktab – oila – jamoa sherikligi" modeli ham uch subyektli yondashuvni ilgari suradi, biroq u G'arb ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirilgan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi ushbu universal g'oyani Sharqning madaniy-aksiologik qadriyatlari bilan boyitish hamda mahalla institutining o'ziga xos pedagogik rolini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Bu esa qiyosiy pedagogika fanining rivojlanishiga milliy tajribaning ilmiy hissasini qo'shadi. Tadqiqot natijalari amaliyot uchun bir qator muhim xulosalarni beradi. Avvalo, hamkorlikni rasmiy tadbirlar majmuasidan tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va natijadorligi baholanadigan jarayonga aylantirish zarurligi aniqlandi. Ikkinchidan, Sharq va G'arb tajribalarining sintezi, ya'ni milliy an'analarni saqlagan holda ilg'or xalqaro tajribani o'zlashtirish eng samarali strategiya ekanligi asoslandi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar hamkorlikning yangi imkoniyatlarini yaratishi, biroq ular jonli va ishonchga asoslangan insoniy munosabatlarning o'rnini bosa olmasligi ta'kidlandi. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "...tarbiya masalasi jamiyat taqdirini belgilaydi". Demak, unga yuksak mas'uliyat bilan yondashish zarur.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda hamkorlikning fragmentar (parchalangan) talqinidan yaxlit tizimli modelga o'tish taklif etilgan. An'anaviy amaliyotda oila va bog'cha o'rtasidagi hamkorlik ko'pincha epizodik tadbirlar (bayramlar, yig'ilishlar va boshqalar) bilan cheklanadi. Korporativ ta'lim modeli esa ushbu hamkorlikni doimiy, rejali va maqsadga yo'naltirilgan jarayonga aylantiradi. Bu maktabgacha ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi sifat jihatidan yangi bosqich hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda hamkorlik jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar ham e'tiborga olingan. Amaliyotda oila va bog'cha o'rtasida tarbiya usullari, talablar hamda qadriyatlar borasida nomuvofiqliklar yuzaga kelishi mumkin. Korporativ model bunday ziddiyatlarni mazmuniy komponent orqali, ya'ni umumiy pedagogik yondashuvni ishlab chiqish yo'li bilan bartaraf etishni nazarda tutadi. Bu borada G'arb tajribasidagi "oilaviy-pedagogik shartnoma"amaliyoti alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yiladi.

XULOSA

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bir necha jihatda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, "korporativ ta'lim" tushunchasi maktabgacha ta'lim tizimidagi uch tomonlama (maktabgacha ta'lim tashkiloti – oila – mahalla) hamkorlikka nisbatan qo'llanilib, uning pedagogik mazmuni nazariy jihatdan asoslandi.

Ikkinchidan, Sharq va G'arb modellarining qiyosiy tahlili orqali qiyosiy pedagogika fanining rivojlanishiga milliy tajribaning ilmiy hissasi qo'shildi.

Uchinchidan, mahalla instituti tarbiyaning to'laqonli subyekti sifatida ilmiy jihatdan konseptuallashtirildi. Bu Markaziy Osiyo pedagogikasi uchun muhim nazariy yangilik hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, taklif etilgan model, indikatorlar tizimi va yo'l xaritasidan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini loyihalashtirishda;
- pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirishda;
- ota-onalar uchun pedagogik ta'lim mazmunini ishlab chiqishda;
- soha bo'yicha me'yoriy-uslubiy hujjatlarni tayyorlashda;
- ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asosini takomillashtirishda.

Mazkur natijalar maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan model universal xususiyatga ega bo'lsa-da, uning asosiy ustunligi madaniy moslashuvchanligidadir. Ya'ni model har bir mamlakat yoki mintaqaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga moslashtirilishi mumkin. Masalan, mahalla instituti rivojlangan Markaziy Osiyo davlatlarida uchinchi subyekt sifatida mahalla, G'arb mamlakatlarida esa nodavlat va jamoat tashkilotlari ishtirok etishi mumkin. Ushbu moslashuvchanlik modelning keng qo'llanish imkoniyatini ta'minlaydi hamda uning xalqaro miqyosdagi dolzarbligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida tashkil etish zamonaviy pedagogikaning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi hamda quyidagi asosiy xulosalarga kelish imkonini berdi. "Korporativ ta'lim" tushunchasi maktabgacha ta'lim sohasiga

tatbiq etilib, uning pedagogik mohiyati ta'lim subyektlarining umumiy maqsad, taqsimlangan mas'uliyat va birgalikdagi faoliyat asosidagi tizimli hamkorligi ekanligi asoslandi. Qiyosiy tahlil Sharq va G'arb modellarining bir-birini inkor etmasligini, aksincha, o'zaro to'ldirishini ko'rsatdi. G'arbning institutsional aniqligi Sharqning jamoaviy qadriyatlari bilan uyg'unlashganda eng samarali natija ta'minlanadi. Mahalla instituti tarbiyaning to'laqonli uchinchi subyekti sifatida model tarkibiga kiritildi hamda uning pedagogik salohiyati nazariy jihatdan asoslandi. Hamkorlik samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimi va uni joriy etish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan besh komponentli model hamkorlikning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy, texnologik va natijaviy jihatlarini yagona tizimga birlashtirib, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash uchun qulay ijtimoiy-pedagogik muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida tashkil etish turli davrlar pedagogik qarashlari va ilmiy yutuqlarining uzviy uyg'unlashuvi natijasidir. Abu Rayhon Beruniy ilm-fan va bilimning ahamiyatini ulug'lagan, Abdulla Avloniy tarbiyani millat taqdirini belgilovchi omil sifatida baholagan, J. Dyui esa ta'limni hayotning o'zi deb ta'riflagan. Mazkur buyuk g'oyalar bugungi kunda yagona pedagogik tizimda uyg'unlashib, bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam ilmiy va amaliy zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – https://lex.uz/docs/-4646908
2. Mirziyoyev Sh.M. Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi // Sh.M. Mirziyoyevning konferensiya ochilish marosimidagi nutqi. – https://kun.uz/news/2022/11/15/ (murojaat sanasi: 25.07.2026).
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 38.
4. Senge P.M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. – New York: Doubleday, 2006. – P. 3-11.
5. Heckman J.J. Skill Formation and the Economics of Investing in Disadvantaged Children // Science. 2006. – P. 1900-1902.
6. Конфуций. Лунь Юй. – Москва: Восточная литература, 2001. – http://lib.aldebaran.ru (дата обращения: 28.07.2026).
7. Маҳмудов А.О. Фарзанднома. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. – Б. 8.
8. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 22.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – С. 117-119.
10. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. 2nd ed. – Boulder, CO: Westview Press, 2011. – P. 45-52.
11. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916. – P. 89-95.
12. Hornby G., Lafaele R. Barriers to Parental Involvement in Education: An Explanatory Model // Educational Review. – 2011. – Vol. 63, No. 1. – P. 37-52.
13. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – P. 152-160.
14. Montessori M. The Absorbent Mind. – New York: Henry Holt, 1995. – P. 27-35.
15. Edwards C., Gandini L., Forman G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience. 3rd ed. – Santa Barbara: Praeger, 2012. – P. 27-33.
16. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – P. 27.
17. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care. – Helsinki: EDUFI, 2018.
18. Bundesministerium für Familie, Senioren, Frauen und Jugend. Bildung, Betreuung und Erziehung für Kinder unter drei Jahren. – Berlin: BMFSFJ, 2013.
19. Ministry of Education Singapore. Nurturing Early Learners: A Curriculum Framework for Kindergartens. – Singapore: MOE, 2012. – P. 8-12.
20. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). Course of Study for Kindergarten. – Tokyo: MEXT, 2017.
21. Ministry of Education Republic of Korea. Nuri Curriculum for Ages 3-5. – Seoul: MOE, 2019.
22. Бердибеков П.К., Фазилова Д.Х., Юнусова Ч. Проектная деятельность в дошкольном образовании // Молодой ученый. – 2016. – № 1. – С. 691-693.

INFORMATIKA FANINI INNOVATSION VOSITALAR BILAN O'QITISH

Allaberganova Muyassar
Urganch davlat universiteti Dotsent

Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida informatika fanini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion vositalardan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi dars jarayonlarini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Maqolada sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, mobil ta'lim (M-learning), gamifikatsiya va virtual laboratoriyalar kabi zamonaviy vositalarning informatika darslaridagi o'rni va afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, AKT va STEM ta'lim elementlarini darsga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini hamda mustaqil dasturlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan. Innovatsion vositalar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va ta'lim sifatini tubdan yaxshilashning asosi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: informatika o'qitish metodikasi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, raqamli vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), multimedia tizimlari, bulutli texnologiyalar, mobil ta'lim, sun'iy intellekt ta'limda, STEM ta'lim, virtual laboratoriyalar, gamifikatsiya, masofaviy ta'lim.

Abstract: This article examines the use of innovative tools to improve the efficiency of teaching informatics in the modern educational system. The rapid development of digital technologies requires organizing the educational process based on new approaches. The article analyzes the role and advantages of modern tools such as artificial intelligence, cloud computing, mobile learning (M-learning), gamification, and virtual laboratories in informatics classes. It also provides practical recommendations for developing students' logical thinking and independent programming skills through the integration of ICT and STEM education elements. It is substantiated that innovative tools are the basis for increasing students' interest in the subject and radically improving the quality of education.

Key words: Teaching informatics methodology, innovative educational technologies, digital tools, information and communication technologies (ICT), cloud computing in education, mobile learning, artificial intelligence in education, STEM education, virtual laboratories, gamification in education, distance learning.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы использования инновационных средств для повышения эффективности обучения информатике в современной системе образования. Быстрое развитие цифровых технологий требует организации учебного процесса на основе новых подходов. В статье анализируются роль и преимущества таких современных инструментов, как искусственный интеллект, облачные технологии, мобильное обучение (M-learning), геймификация и виртуальные лаборатории на уроках информатики. Также представлены практические рекомендации по развитию логического мышления и навыков самостоятельного программирования учащихся посредством интеграции ИКТ и элементов STEM-образования. Обосновано, что инновационные средства являются основой для повышения интереса учащихся к предмету и коренного улучшения качества образования.

Ключевые слова: Методика преподавания информатики, инновационные технологии в образовании, цифровые инструменты, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), облачные технологии в обучении, мобильное обучение, искусственный интеллект в образовании, STEM-образование, виртуальные лаборатории, геймификация обучения, дистанционное образование.

KIRISH

Hozirgi global transformatsiyalar va intellektual jamiyat shakllanishi davrida pedagogik tizimlarni raqamlashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya ekotizimining jadal evolyutsiyasi an'anaviy ta'lim paradigmasidan voz kechib, o'quv jarayonini interaktiv, moslashuvchan va talabaga yo'naltirilgan (student-centered) modellar asosida tashkil etishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt elementlari va integratsiyalashgan raqamli platformalar ta'lim resurslaridan asinxron

hamda sinxron tarzda foydalanish imkoniyatini fundamental darajada kengaytirdi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim sohasini tubdan isloh qilish va raqamli iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Bu borada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalari va fundamental texnik ko‘nikmalarini shakllantirish bevosita informatika fanining o‘qitilish sifati bilan korrelyatsiya hosil qiladi.

Informatika fanining zamonaviy o‘quv dasturida markaziy o‘rinlardan birini egallovchi “Tarmoqlardan foydalanish” bobi o‘quvchilarda tarmoq topologiyalari, axborot almashinuvi protokollari, cloud computing hamda kiberxavfsizlik asoslari bo‘yicha konseptual bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur bob tarkibiga kiruvchi mavzularning aksariyati yuqori darajadagi abstraktlik va virtual iyerarxiyaga ega bo‘lganligi sababli, ularni klassik sxemalar yoki faqatgina nazariy ma’ruzalar orqali o‘zlashtirish o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘dirmoqda. Vizualizatsiyaning yetishmasligi va amaliy virtual muhitning yo‘qligi o‘quvchilarning mavzuni tizimli tushunishiga to‘sqinlik qiladi.

Ushbu funksional uzilish va pedagogik muammoni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida “Tarmoqlardan foydalanish” bobini o‘qitish samaradorligini multiplikativ oshirishga mo‘ljallangan “TechMind” maxsus ta’lim platformasi ishlab chiqildi. Mazkur raqamli yechim ma’ruza materiallarining interaktiv modullari, adaptiv test tizimlari va real vaqtdagi videokonferensaloqa xizmatlarini yagona sinergik platformada birlashtiradi. “TechMind” platformasining joriy etilishi o‘quvchilarga fanni mustaqil va individual trayektoriya bo‘yicha o‘zlashtirish, o‘z bilim darajasini avtomatlashtirilgan tahlil orqali monitoring qilib borish hamda pedagogik subyektlar o‘rtasidagi masofaviy muloqotni interaktiv optimallashtirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Informatika fani mazmunini raqamli transformatsiya sharoitida modernizatsiya qilish hamda dars jarayonlariga innovatsion interaktiv komponentlarni integratsiya qilish muammolari pedagogika va metodika sohasida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda ta’lim platformalarining didaktik imkoniyatlari shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki ta’lim oluvchilarning algoritmik va tarmoq mantiqini shakllantiruvchi fundamental poydevor sifatida baholanmoqda.

O‘zbekistonlik olimlardan U. Sh. Begimqulov o‘z ilmiy ishlarida pedagogik ta’lim tizimini raqamlashtirishning konseptual-metodologik asoslarini yoritib, dars jarayonlarida yagona axborot muhitini loyihalash o‘quvchilarning tizimli fikrlash qobiliyatini yuksaltirishini ta’kidlaydi [1]. Muallif yondashuviga ko‘ra, pedagogik ekotizimlarning axborotlashuvi bo‘lajak kadrlarning raqamli dunyodagi adaptiv faolligini ta’minlovchi bosh omildir.

Shuningdek, N. I. Tayloqov tomonidan olib borilgan izlanishlarda maktab informatika kursida elektron o‘quv-metodik majmualarni yaratish va ulardan foydalanish metodikasi chuqur tahlil qilingan [2]. Olim informatika darslarida dasturiy-metodik vositalar sinergiyasini shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini va muammoli vaziyatlarni yechish (problem-solving) kompetensiyasini dinamik ravishda stimullashini isbotlagan.

Xalqaro ilmiy makonda Prensky tomonidan ilgari surilgan “raqamli tub joy aholisi” (digital natives) konsepsiyasi zamonaviy o‘quvchilarning vizual va texnologik axborotni qabul qilish psixologiyasi an’anaviy metodlardan tubdan farq qilishini ko‘rsatadi [3]. Bu esa o‘quv jarayoniga multimodal platformalarni kiritish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘z navbatida, Mayer o‘zining multimedia orqali ta’lim olish nazariyasida (Cognitive Theory of Multimedia Learning) isbotlaydiki, matn, audio va interaktiv vizualizatsiyaning (aynan kompyuter tarmoqlari kabi mavhum jarayonlar modelida) yagona tizimda parallel berilishi kognitiv yuklamani (cognitive load) kamaytiradi va bilimlarni uzoq muddatli xotiraga o‘tkazish koeffitsiyentini sezilarli darajada oshiradi [4].

So‘nggi yillarda Siemens [5] va Downes [6] tomonidan rivojlantirilgan konnektivizm (connectivism) nazariyasi raqamli asrda bilim faqat shaxs ichida emas, balki tarmoqlar va texnologik tugunlar (nodes) ichida tarqalganligini himoya qiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, informatika fanining bir qancha bobini virtual tarmoqli va platformali interaksiyalar orqali o‘qitish o‘quvchilarning real tarmoq funksionalini amaliy tushunishlariga eng qulay muhit hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro miqyosda LMS va integratsiyalashgan ta’lim platformalarining samaradorligini tadqiq etgan Barbour va Reeves an’anaviy masofaviy ta’lim formatidan interaktiv virtual sinfxonalarga va adaptiv baholash tizimlariga o‘tish o‘quvchilarning avtonom ta’lim olish trayektoriyasini (self-directed learning) shakllantirishini qayd etishadi [7].

Mavjud mahalliy va xorijiy adabiyotlarning konseptual qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotchilar ta’lim platformalarining umumiy funksional imkoniyatlarini yoki universal fanlar kesimidagi rolini tadqiq etishgan. Biroq informatika fanining o‘ziga xos arxitekturasi va mavzulardagi mavhumlik darajasidan kelib chiqib, aynan vizualizatsiyasi murakkab bo‘lgan boblarga ixtisoslashgan, ma’ruza modullari, intellektual test tizimlari va ichki sinxron videokonferensaloqa vositalarini yagona tizimli interfeysda sintez qiluvchi mualliflik platformalarining pedagogik samaradorligi yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Aynan ushbu meto-

dologik bo‘shliqni bartaraf etish hamda maxsus ishlab chiqilgan M-learning tamoyilining dars sifati koeffitsiyentiga ta’sirini pedagogik eksperimentlar orqali asoslash ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi va asosiy ilmiy yangiligini belgilaydi.

M-learning tamoyilining pedagogik imkoniyatlari. Zamonaviy pedagogikada mobil ta’lim (M-learning) simsiz tarmoq texnologiyalari va shaxsiy mobil qurilmalar (smartfon, planshet) yordamida o‘quv jarayonini vaqt va makon cheklovlaridan holi tarzda tashkil etishga asoslangan ilg‘or strategiya hisoblanadi. Informatika fanining dinamik va doimiy vaqt kesimida yangilanib boruvchi tabiatidan kelib chiqib, M-learning paradigmasi ta’lim sifatini oshirishda quyidagi fundamental pedagogik imkoniyatlarni namoyon etadi:

M-learning an’anaviy dars xonasi hamda kompyuter laboratoriyasining jismoniy chegaralarini yo‘qotadi. O‘quvchilarga ta’lim resurslaridan “istalgan joyda va istalgan vaqtda” (anytime, anywhere) erkin foydalanish huquqini beradi. Bu imkoniyat ta’limning uzluksizligini ta’minlash bilan birga, asinxron ta’lim modelini ham samarali qo‘llab-quvvatlaydi.

Mobil ekranlar va qurilmalarning funksional xususiyatlari axborotni katta bloklarda qabul qilishni qiyinlashtiradi. Shu sababli M-learning pedagogikada materiallarni kichik, tugallangan didaktik birliklar (5–10 daqiqalik multimedia darslari, infografikalar, qisqa konspektlar) shaklida yetkazish metodikasini ilgari suradi. Mazkur yondashuv o‘quvchining kognitiv yuklamasini kamaytiradi va axborotni o‘zlashtirish koeffitsiyentini optimallashtiradi.

Har bir o‘quvchining individual kognitiv tezligi va intellektual salohiyati turlicha. Mobil ta’lim vositalari ta’lim oluvchiga kontentni o‘zining individual sur’ati (self-paced learning) asosida o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi. O‘quvchi o‘zi tushunmagan murakkab mavzularga qayta-qayta murojaat qilishi, o‘zlashtirgan qismlarini esa tezlashtirilgan tartibda o‘tishi mumkin.

Mobil texnologiyalar o‘quv jarayoniga o‘yin mexanizmlarini (ballar, reyting tizimlari, virtual mukofotlar va darajalar) integratsiya qilish uchun qulay muhit hisoblanadi. Gamifikatsiya elementlarining dars mazmuniga kiritilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan ichki qiziqishini oshiradi, zerikarli dars jarayonlarini interaktiv va jozibador faoliyatga aylantiradi.

M-learning vositalari yordamida tashkil etilgan avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari o‘quvchining topshiriqni bajarish jarayonini real vaqt rejimida baholaydi. Natijada o‘quvchi o‘z xatolarini zudlik bilan ko‘radi va tizim tomonidan taklif etilgan tavsiyalar asosida kamchiliklarini darsning o‘zidayoq to‘g‘rilash imkoniga ega bo‘ladi. Bu pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi.

Bundan tashqari, smartfonlardagi ijtimoiy va kommunikativ modullar, bulutli forumlar hamda guruhli interfeyslar o‘quvchilarning bir-biri bilan hamkorlikda ishlash (peer-to-peer learning) imkoniyatlarini kengaytiradi. Jamoaviy loyihalarni masofadan turib muhokama qilish, muammoli masalalarda o‘zaro fikr almashish orqali guruh ichida yangi bilimlarni sintez qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Informatika fanini o‘qitishda innovatsion vositalar hamda mobil ta’lim (M-learning) texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash maqsadida kompleks tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirishda qiyosiy-pedagogik tahlil, modellashtirish, kuzatish, anketalashtirish hamda o‘quvchilarning bilim darajasini matematik-statistik baholash metodlaridan foydalanildi.

Pedagogik eksperiment uchta izchil bosqichda amalga oshirildi:

1. **Diagnostik (aniqlovchi) bosqich:** Ushbu bosqichda an’anaviy ta’lim darslarida o‘quvchilarning axborotni o‘zlashtirish koeffitsiyenti va kognitiv motivatsiyasi tahlil qilindi. Tajriba (Experimental group) va nazorat (Control group) guruhlari tarkibi hamda ularning boshlang‘ich bilim darajalari tenglik prinsipi asosida shakllantirildi. Boshlang‘ich diagnostika natijalari guruhlar o‘rtasida statistik farq mavjud emasligini ko‘rsatdi.
2. **Shakllantiruvchi bosqich:** Nazorat guruhlarida informatika fani darslari an’anaviy didaktik vositalar va klassik metodlar yordamida davom ettirildi. Tajriba guruhlarida esa o‘quv jarayoni raqamli innovatsion vositalar va M-learning elementlari asosida modernizatsiya qilindi. Bunda materiallar mikrota’lim (microlearning) tamoyillari asosida kichik modullarga ajratildi, gamifikatsiya elementlaridan foydalanildi va asinxron mobil aloqa muhiti orqali o‘quvchilarning individual trayektoriya bo‘yicha mustaqil bilim olishlari ta’minlandi.
3. **Nazorat-analitik bosqich:** Eksperiment yakunida har ikkala guruh o‘quvchilarining yakuniy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari test va amaliy topshiriqlar vositasida qayta tekshirildi. Olingan natijalarning ishonchliligini asoslash uchun matematik statistika usuli bo‘lgan Styudentning t-kriteriyi (Student’s t-test) algoritmidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning bilimlarini baholash samaradorlik koeffitsiyenti (KS) quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$K_s = \frac{M_x}{M_{max}}$$

Bu yerda:

M_x - o‘quvchi tomonidan to‘plangan amaliy va nazariy ballarning o‘rtacha qiymati;

M_{max} - topshiriqlar bo‘yicha maksimal mumkin bo‘lgan ball.

Guruhlardagi o‘rtacha o‘zlashtirish va bilim darajasining o‘sish dinamikasi dinamik dispersiya hamda o‘rtacha kvadratik chetlanish koeffitsiyentlari orqali matematik tahlil qilindi. Eksperiment natijasida olingan yakuniy ko‘rsatkichlarning statistik qimmatliligi ($p < 0,05$) innovatsion raqamli vositalarning informatika ta’limi sifatini oshirishdagi gipotezasini to‘liq tasdiqladi.

Informatika darslarida innovatsion raqamli vositalar hamda mobil ta’lim (M-learning) texnologiyalarini qo‘llash orqali olingan empirik ma’lumotlar an’anaviy o‘qitish metodikasi ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari yakunida o‘tkazilgan nazorat topshiriqlari va test sinovlari natijalari tajriba (E) va nazorat (N) guruhlarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma hamda malakalarini o‘zlashtirish darajasida sezilarli miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari o‘quvchilar to‘plagan ballarning foizli taqsimoti bo‘yicha quyidagi 1-jadvalda o‘z aksini topgan.

1-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlili**

Ko‘rsatkichlar (Baholash darajalari)	Nazorat guruhi (N-guruh), %	Tajriba guruhi (E-guruh), %
Yuqori (A’lo / 86–100 ball)	16.5%	31.2%
O‘rta-yuqori (Yaxshi / 71–85 ball)	38.0%	46.8%
Qoniqarli (3-baho / 56–70 ball)	34.5%	19.5%
Past (Qoniqarsiz / 0–55 ball)	11.0%	2.5%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, informatika darslarida an’anaviy metodlardan foydalanilgan nazorat guruhida yuqori ko‘rsatkich qayd etgan o‘quvchilar 16,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, M-learning va innovatsion raqamli didaktik modullar integratsiya qilingan tajriba guruhida ushbu ko‘rsatkich 31,2 % gacha ko‘tarildi. Past o‘zlashtirish koeffitsiyenti esa tajriba guruhida minimal darajaga (2,5 %) tushganligi aniqlandi.

Olingan empirik ko‘rsatkichlarning statistik jihatdan ishonchliligi va tasodifiy emasligini isbotlash uchun Styudentning t-kriteriyi (Student’s t-test) formulasidan foydalanildi. Guruhlararo o‘rtacha arifmetik qiymatlar (X va $\bar{Y}$) hamda dispersiya chetlanishlari hisoblab chiqilganda, tajriba guruhi uchun o‘rtacha samaradorlik koeffitsiyenti KS = 0,84 ni, nazorat guruhida esa KS = 0,69 ni tashkil etdi. Matematik-statistik tahlil natijasida aniqlangan erkinlik darajasi bo‘yicha olingan empirik qiymat ($t_emp = 2,45$) kritik qiymatdan ($t_krit = 1,98$) yuqori bo‘lib chiqdi ($p < 0,05$). Bu esa raqamli innovatsion vositalarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’siri haqidagi gipotezaning statistik jihatdan to‘liq tasdiqlanganligini anglatadi.

Eksperiment davomida olingan ijobiy siljishlar M-learning va mikrota’lim (microlearning) konsepsiyasining didaktik tabiati bilan chambarchas bog‘liqdir. An’anaviy metodikada o‘quvchilar informatika fanining mavhum konsepsiyalari va algoritmlarini faqat sinf xonasi doirasida, statik materiallar orqali o‘zlashtirishga majbur bo‘lar edilar. Bu esa fanga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga va kognitiv yuklamaning ortishiga olib kelgan.

Innovatsion vositalarning dars jarayoniga olib kirilishi ta’lim muhitini dinamik va interaktiv ekotizimga aylantirdi. Mobil ta’lim vositalari o‘quvchilarga o‘quv kontentini o‘zlarining individual kognitiv tezligi (self-paced learning) asosida o‘zlashtirish imkonini berdi. Kichik hajmdagi multimedia modullari va vizualizatsiyalar mavhum jarayonlarni aniq modellashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, real vaqtdagi avtomatlashtirilgan teskari aloqa (instant feedback) mexanizmi o‘quvchilarning o‘z xatolarini zudlik bilan tahlil qilishlari va mustaqil bartaraf etishlariga zamin yaratdi.

Shunday qilib, olingan natijalar informatika ta’limida raqamli mobil resurslardan tizimli foydalanish nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilimlarini, balki ularning amaliy kompyuter savodxonligi hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham yuqori bosqichga olib chiqishini ko‘rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Informatika fanini zamonaviy raqamli innovatsion vositalar hamda mobil ta'lim (M-learning) texnologiyalari asosida tashkil etish bo'yicha olib borilgan tizimli tadqiqotlar va pedagogik eksperimentlar quyidagi fundamental xulosalarga kelish imkonini berdi:

Innovatsion va mobil vositalarning ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi an'anaviy statik dars modelini dinamik, moslashuvchan va talabaga yo'naltirilgan (student-centered) interaktiv ekotizimga aylantirdi. Bu o'quv jarayonini faqat sinf xonasi bilan cheklamay, uzluksiz va ubikvit (ubiquitous learning) ta'lim muhitini yaratdi.

Materiallarni mikrota'lim (microlearning) tamoyillari asosida kichik, tugallangan modullar shaklida yetkazish o'quvchilarning intellektual charchashini kamaytirib, murakkab informatika tushunchalarini uzoq muddatli xotiraga o'tkazish koeffitsiyentini sezilarli darajada oshirdi.

Eksperiment natijasida olingan empirik ko'rsatkichlar (tajriba guruhida o'rtacha samaradorlik KS = 0,84, nazorat guruhida KS = 0,69) va Styudentning t-kriteriyi tahlili ($t_{emp} = 2,45 > t_{krit} = 1,98$) innovatsion vositalarning dars sifati va o'zlashtirish darajasini oshirishdagi ijobiy ta'sirini statistik jihatdan to'liq isbotladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan qonuniyatlar va olingan ijobiy natijalardan kelib chiqib, informatika ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining informatika faniga oid amaldagi o'quv reja va darsliklarini mobil ta'lim platformalariga moslashtirish, mavzularni multimedia elementlari (infografika, interaktiv modellar, videokontent) bilan boyitilgan mikrobloklar formatiga o'tkazish zarur.

An'anaviy nazorat shakllaridan voz kechib, mobil ilovalar tarkibiga o'quvchining xatolarini real vaqt rejimida tahlil qiluvchi va unga individual tavsiyalar beruvchi avtomatlashtirilgan eksponental teskari aloqa (instant feedback) tizimlarini keng tatbiq etish lozim.

O'quvchilarning fanga bo'lgan ichki kognitiv motivatsiyasini barqaror ushlab turish uchun raqamli topshiriqlar tarkibiga o'yin mexanizmlarini (ballar, virtual reytinglar, yutuqlar iyerarxiyasi) tizimli ravishda kiritish tavsiya etiladi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida M-learning texnologiyalaridan va raqamli vositalardan dars jarayonida to'g'ri hamda xavfsiz foydalanish metodikasini o'rgatuvchi maxsus modullarni ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim tizimini raqamlashtirishning konseptual-metodologik asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 180 b.
2. Taylakov N.I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika fanidan elektron o'quv-metodik majmualarni yaratish va ulardan foydalanish metodikasi // Pedagogik mahorat. -Buxoro, 2021. - № 3. - B. 45-51.
3. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants Part 1 // On the Horizon. - 2001. - Vol. 9, No. 5. - pp. 1-6.
4. Mayer R.E. Cognitive Theory of Multimedia Learning // The Cambridge Handbook of Multimedia Learning. - Cambridge University Press, 2014. - pp. 43-71.
5. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. - 2005. - Vol. 2, No. 1. - pp. 3-10.
6. Downes S. Connectivism and Connective Knowledge: Essays on meaning and learning networks. - National Research Council Canada, 2012. - 490 p.
7. Barbour M.K., Reeves T.C. The reality of virtual schools: A review of the literature // Computers & Education. - 2009. - Vol. 52, No. 2. - pp. 402-416.
8. UNESCO. Digital Learning and Education Transformation: Global Report and Trends. - Paris: UNESCO Publishing, 2023. - 112 p.

JAMOAT TARTIBINI SAQLASH XIZMATIDA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINATSIYASI

Mamatxanov Nodirxon Sadriddin o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID-009-0000-1334-8741

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi o'rganilgan. Boshqaruv kompetensiyalarining kognitiv, kommunikativ, emotsional-irodaviy, motivatsion, ijtimoiy-perseptiv, liderlik-tashkiliy va refleksiv-regulyativ tarkibiy qismlari yoritilgan. Empirik tadqiqotda jamoat tartibini saqlash xizmatida faoliyat olib boruvchi respondentlarning yosh va ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimoti miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilingan. Yosh omili boshqaruv kompetensiyalarining kasbiy tajriba va psixologik yetuklik bilan bog'liq rivojlanishini, ma'lumot darajasi esa ularning kognitiv, tahliliy, kommunikativ va tashkiliy asoslarini belgilovchi muhim kasbiy-demografik determinant sifatida talqin qilingan. Boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishini yosh va ta'lim omillari bilan bir qatorda, xizmat staji, lavozim, komandirlik tajribasi va tashkiliy muhit bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: boshqaruv kompetensiyasi, ijtimoiy-psixologik determinatsiya, jamoat tartibini saqlash, yosh omili, ma'lumot darajasi, kasbiy tajriba, qaror qabul qilish, liderlik, kommunikativ kompetensiya, kasbiy-demografik determinantlar.

Abstract: This article examines the socio-psychological determination of managerial competencies in public order maintenance. It elucidates the cognitive, communicative, emotional-volitional, motivational, socio-perceptual, leadership-organizational, and reflective-regulatory components of managerial competencies. The distribution of respondents engaged in public order maintenance was analyzed quantitatively and qualitatively according to age and educational level. Age is interpreted as a significant professional and demographic determinant of managerial competency development associated with the accumulation of professional experience and the attainment of psychological maturity, whereas educational level is regarded as a factor shaping its cognitive, analytical, communicative, and organizational foundations. The study substantiates the need to examine the development of managerial competencies comprehensively in relation to age, educational level, length of service, position held, command experience, and the characteristics of the organizational environment.

Key words: managerial competencies, socio-psychological determination, public order maintenance, age factor, educational level, professional experience, decision-making, leadership, communicative competence, professional and demographic determinants.

Аннотация: В статье исследуется социально-психологическая детерминация управленческих компетенций в деятельности по охране общественного порядка. Раскрываются когнитивный, коммуникативный, эмоционально-волевой, мотивационный, социально-перцептивный, лидерско-организационный и рефлексивно-регулятивный компоненты управленческих компетенций. Проведён количественный и качественный анализ распределения респондентов, осуществляющих деятельность по охране общественного порядка, по возрасту и уровню образования. Возрастной фактор интерпретируется как значимый профессионально-демографический детерминант развития управленческих компетенций, связанный с накоплением профессионального опыта и достижением психологической зрелости, тогда как уровень образования рассматривается как фактор, определяющий их когнитивные, аналитические, коммуникативные и организационные основы. Обоснована необходимость изучения процесса формирования управленческих компетенций в комплексной взаимосвязи с возрастом, уровнем образования, стажем службы, занимаемой должностью, опытом командной деятельности и особенностями организационной среды.

Ключевые слова: управленческие компетенции, социально-психологическая детерминация, охрана общественного порядка, возрастной фактор, уровень образования, профессиональный опыт, принятие решений, лидерство, коммуникативная компетентность, профессионально-демографические детерминанты.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash samaradorligi xodimlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularda shakllangan boshqaruv kompetensiyalariga ham bevosita bog'liqdir. Xizmat vaziyatlarining murakkabligi, cheklangan vaqt sharoitida tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish, shaxsiy tarkib faoliyatini muvofiqlashtirish, fuqarolar bilan konstruktiv muloqot o'rnatish hamda nizoli holatlarni tartibga solish xodimlardan rivojlangan ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-boshqaruv salohiyatini talab qiladi.

Boshqaruv kompetensiyasi xodimning xizmat vaziyatini tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, jamoa faoliyatini tashkil etish va erishilgan natijalarni nazorat qilish imkonini beruvchi integrativ kasbiy-psixologik tuzilma hisoblanadi. Uning tarkibida kognitiv, kommunikativ, emotsional-irodaviy, motivatsion, ijtimoiy-perseptiv, liderlik va refleksiv komponentlar o'zaro uyg'unlashadi.

Boshqaruv kompetensiyalari xodimning tayyor va o'zgarmas sifati emas, balki ta'lim, ijtimoiy tajriba, xizmat faoliyati, shaxslararo munosabatlar va tashkiliy muhit ta'sirida shakllanib boradigan dinamik psixologik tuzilmadir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-psixologik determinatsiya boshqaruv kompetensiyalarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va xizmat jarayonida namoyon bo'lishini belgilovchi omillar tizimini anglatadi.

Boshqaruv kompetensiyalarining determinantlari individual-psixologik, kasbiy-demografik, shaxslararo va tashkiliy darajalarda namoyon bo'ladi. Xodimning yoshi, ma'lumot darajasi, xizmat staji, lavozimi, komandirlik tajribasi, kasbiy motivatsiyasi, emotsional-irodaviy barqarorligi, jamoaviy munosabatlari va xizmat muhiti ushbu kompetensiyalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot doirasida yosh va ma'lumot darajasi boshqaruv kompetensiyalarining muhim kasbiy-demografik determinantlari sifatida o'rganildi. Yosh omili xodimning kasbiy tajribasi, psixologik yetukligi, mas'uliyati va boshqaruv faoliyatiga tayyorligi bilan bog'liq bo'lsa, ma'lumot darajasi uning nazariy tayyorgarligi, tahliliy fikrlashi, kommunikativ imkoniyatlari hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish salohiyatini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R. Mahmudov boshqaruv tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Boshqaruv - bu tanlovni amalga oshirish, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir". Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv faoliyatining samaradorligi nafaqat tashkiliy mexanizmlar va qaror qabul qilish jarayoniga, balki rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, liderlik salohiyati, mas'uliyatliligi, emotsional-irodaviy barqarorligi hamda boshqaruv vaziyatlarini to'g'ri baholash qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir [1].

Rahbar shaxsi boshqaruv faoliyatining asosiy bo'g'ini (obyekti) sifatida qator fanlar - iqtisodiyot, mehnat sotsiologiyasi, menejment, marketing va boshqalarning - predmetlaridan biri hisoblanib, uning turli qirralarini har bir fan o'ziga xos usul hamda uslublar yordamida o'rganadi. Lekin bu izlanishlarning deyarli hammasi tushuntiruvchi va modellashtiruvchi xarakter kasb etib, aslida rahbar shaxsini tanlash, saralash, uning faoliyatini o'zgartirish (korreksiyalash) va talablarga moslashtirish jarayoni ijtimoiy-psixologik tamoyillarga asoslanadi [2].

D. B. Umarov "Harbiy boshqaruvda faollikning ijtimoiy-psixologik jihatlari" nomli maqolasida: "Harbiy boshqaruv - harbiy kuchlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va ularni strategik maqsadlarga yo'naltiruvchi murakkab tizimdir. Bugungi global xavfsizlik sharoitida harbiy boshqaruvni raqamlashtirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda kiberxavfsizlikni mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda", - deb ta'kidlaydi [2]. Muallifning mazkur yondashuvi harbiy boshqaruvni faqat buyruq berish va uning ijrosini nazorat qilish jarayoni sifatida emas, balki strategik maqsadlar, inson resurslari, axborot oqimlari va zamonaviy texnologiyalarni o'zaro muvofiqlashtiruvchi kompleks tizim sifatida talqin etishga imkon beradi. Bu esa zamonaviy rahbarning an'anaviy boshqaruv ko'nikmalari bilan bir qatorda, raqamli kompetentlik, axborotni tezkor tahlil qilish, kiberxavflarni oldindan baholash, murakkab vaziyatlarda asoslangan qaror qabul qilish hamda shaxsiy tarkib faoliyatini samarali muvofiqlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

A. V. Vartayev o'z tadqiqotida: "Xizmat-jangovar vaziyatlar usulini harbiy oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, harbiy qism va bo'linmalardagi komandirlik tayyorgarligi jarayoniga kompleks joriy etish boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshiruvchi istiqbolli pedagogik texnologiyadir", - deb ta'kidlaydi [4]. Muallifning ushbu fikri boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliy xizmat sharoitlariga yaqinlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xizmat-jangovar vaziyatlarni modellashtirish komandirlarda vaziyatni tezkor va kompleks baholash, muqobil harakat variantlarini ishlab chiqish, xavf va ehtimoliy oqibatlarni oldindan ko'ra bilish, cheklangan vaqt sharoitida asoslangan qaror qabul qilish hamda shaxsiy tarkib faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Avvalgi tadqiqotimizda boshqaruv faoliyatining samaradorligi faqat statistik natijalar bilan emas, balki xizmat muhitining psixologik barqarorligi, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim va aholining tizimga bo‘lgan ishonchi bilan ham belgilanishi asoslangan edi [5]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, rahbarlik kompetensiyasi buyruq berish va faoliyatni muvofiqlashtirish bilan cheklanmay, emotsional intellekt, vaziyatni adekvat baholash, stressni boshqarish, xodimlarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash hamda jamoada psixologik xavfsizlikni ta’minlash qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Shuningdek, rahbar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jamoaning ijtimoiy-psixologik iqlimi, xodimlarning motivatsiyasi, emotsional zo‘riqishi va kasbiy kuyish darajasini kompleks hisobga olishi zarur [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot predmetini jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi, xususan, ularning yosh va ma’lumot darajasi bilan bog‘liq kasbiy-demografik xususiyatlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik tadqiqotga jami 145 nafar respondent jalb qilindi. Tanlanmani shakllantirishda respondentlarning turli yosh va ta’lim guruhlariga mansubligi hisobga olindi. Bunday tarkib boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishi va namoyon bo‘lishida yosh hamda ta’lim omillarining o‘rnini qiyosiy o‘rganish uchun empirik asos yaratdi (1-jadval).

1-jadval: **Tadqiqot sinaluvchilarining yosh omili bo‘yicha taqsimoti (n=145)**

Yosh ko‘rsatkichi	Soni	%
20-25 yosh	26 nafar	17,9%
26-30 yosh	42 nafar	29,0%
31-35 yosh	47 nafar	32,4%
36 yosh va undan yuqori	30 nafar	20,7%
Jami	**145 nafar**	**100,0%**

Tadqiqot sinaluvchilarining yosh omili bo‘yicha taqsimoti tahlil qilinganda, jami 145 nafar respondent to‘rtta yosh guruhiga ajratilgani ko‘rinadi. Ularning 26 nafari 20-25 yosh, 42 nafari 26-30 yosh, 47 nafari 31-35 yosh, 30 nafari esa 36 yosh va undan yuqori yosh guruhiga mansubdir. Respondentlarning turli yosh bosqichlaridan jalb etilgani jamoat tartibini saqlash xizmat faoliyatida boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishi va namoyon bo‘lishini xizmat tajribasi, kasbiy yetuklik hamda boshqaruv mas’uliyati bilan bog‘liq holda qiyosiy o‘rganish imkonini beradi.

Empirik natijalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, tanlanmada eng katta guruhni 31-35 yoshdagi respondentlar tashkil etadi. Ushbu yosh toifasiga 47 nafar xodim kiradi. Bizningcha, 31-35 yosh davri kasbiy faoliyatning nisbatan barqarorlashgan, xizmat tajribasi yetarli darajada to‘plangan va boshqaruv vazifalarini mustaqil bajarish imkoniyatlari kengaygan bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu yoshdagi xodimlar xizmat jarayonida turli vaziyatlarni boshdan kechirgan, tezkor qaror qabul qilish, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, xizmat topshiriqlarini rejalashtirish va jamoa bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli ularning boshqaruv kompetensiyalarida mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, e’tiborlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi ko‘rsatkichlarning faol namoyon bo‘lishi kutiladi.

26-30 yosh guruhiga 42 nafar respondent mansub bo‘lib, ular tanlanmada son jihatdan ikkinchi o‘rinni egallaydi. Ushbu yosh bosqichi xizmat faoliyatiga faol moslashish, kasbiy tajribani mustahkamlash va boshqaruv vazifalariga bosqichma-bosqich jalb etilish davri bilan tavsiflanadi. Kuzatishlarimiz asosida bu yoshdagi xodimlarda yangi bilim va tajribani egallashga intilish, yuqori xizmat faolligi, vazifalarni tez bajarish, tashabbus ko‘rsatish va kasbiy mavqeni mustahkamlash ehtiyoji kuchli bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, murakkab boshqaruv vaziyatlarida yetarli tajribaning shakllanib ulgurmaganligi qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik, rahbar ko‘rsatmalariga tayangan holda harakat qilish yoki xizmat vazifalarini bajarishda qo‘shimcha nazoratga ehtiyoj sezilishiga olib kelishi mumkin.

20-25 yosh guruhiga 26 nafar respondent kiritilgan. Ushbu yoshdagi xodimlar ko‘pincha kasbiy faoliyatning boshlang‘ich bosqichida bo‘lib, xizmat tartibi, jamoaviy munosabatlar va boshqaruv talablariga moslashish jarayonini boshdan kechiradilar. Bizningcha, bu guruh vakillarida energiyaga boy bo‘lish, harakatchanlik, yangilikka ochiqlik, tez o‘rganish va faoliyatga qiziqish kabi xususiyatlar nisbatan yuqori bo‘lishi mumkin. Biroq boshqaruv kompetensiyalarining barqaror shakllanishi uchun faqat faollikning o‘zi yetarli emas. Xizmat tajribasi, vaziyatni chuqur tahlil qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nizoli

vaziyatlarni tartibga solish ko‘nikmalari vaqt davomida rivojlanadi. Shu sababli yosh xodimlarning boshqaruv kompetensiyalari tajribali rahbarlarning ko‘magi, kasbiy murabbiylik va maqsadli tayyorgarlik dasturlari bilan qo‘llab-quvvatlanishi muhimdir.

36 yosh va undan yuqori guruhga 30 nafar respondent mansubdir. Empirik natijalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, ushbu yosh toifasi xizmat va hayotiy tajribasi nisbatan yuqori bo‘lgan xodimlarni qamrab oladi. Uzoq muddatli kasbiy faoliyat davomida xodimlarda xizmat vaziyatlarini oldindan baholash, turli xavflarni hisobga olish, murakkab sharoitlarda vazmin qaror qabul qilish, xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va jamoaning umumiy faoliyatini nazorat qilish ko‘nikmalari shakllanishi mumkin. Bizningcha, ushbu guruh vakillarining boshqaruv kompetensiyalarida kasbiy mas’uliyat, chidamlilik, vaqtni rejalashtirish, strategik fikrlash va vaziyatga mos boshqaruv usulini tanlash xususiyatlari muhim o‘rin egallaydi.

Yosh guruhlarining tanlanmada nisbatan muvozanatli ifodalanishi boshqaruv kompetensiyalarining yoshga bog‘liq o‘zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda yosh omili alohida biologik yoki demografik belgi sifatida emas, balki xizmat tajribasi, boshqaruv vazifalarini bajarish muddati, kasbiy mavqe, harbiy unvon va ta’lim darajasi bilan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkich sifatida qaralishi lozim. Bir xil yoshdagi xodimlarning xizmat staji, lavozimi va boshqaruv tajribasi turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli yosh guruhlari bo‘yicha aniqlangan farqlarni boshqa kasbiy-demografik omillar bilan birgalikda tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishlarimiz asosida, bizningcha, yosh ortishi bilan boshqaruv kompetensiyalarining ayrim tarkibiy qismlarida sifat jihatidan o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. Yosh xodimlarda tezkorlik, harakatchanlik, energiya va yangi vazifalarni bajarishga tayyorlik ustun bo‘lsa, o‘rta yosh guruhlarida mustaqillik, mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko‘nikmalari faollashadi. Katta yosh guruhida esa tajribaga asoslangan vazminlik, xizmat vaziyatini oldindan baholash, jamoaning imkoniyatlarini hisobga olish va boshqaruv resurslarini oqilona taqsimlash xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Respondentlarning yosh bo‘yicha taqsimoti boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun zarur empirik asos yaratadi. Yosh guruhlarini qiyoslash orqali vaqt bo‘yicha orientatsiya, qadriyatlar, bilimga ehtiyoj, ijodkorlik, avtonomiya, muloqotga moslashuvchanlik, yetakchilik qobiliyati, boshqaruv samaradorligi, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, mustaqillik, chidamlilik, e’tiborlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi indikatorlarning qaysi yosh bosqichida yuqoriroq namoyon bo‘lishini aniqlash mumkin (2-jadval).

2-jadval: **Tadqiqot sinaluvchilarining ma’lumot omili bo‘yicha taqsimoti (n=145)**

Ma’lumot darajasi	Soni	%
O‘rta maxsus	40 nafar	27,6%
Bakalavr	48 nafar	33,1%
Magistr	26 nafar	17,9%
OTMdan keyingi ta’lim / malaka oshirish	31 nafar	21,4%
Jami	**145 nafar**	**100,0%**

Tadqiqot sinaluvchilarining ma’lumot darajasi bo‘yicha taqsimoti tahliliga ko‘ra, jami 145 nafar respondent to‘rtta ta’lim toifasiga ajratilgan. Ularning 40 nafari o‘rta maxsus, 48 nafari bakalavr, 26 nafari magistr hamda 31 nafari oliy ta’limdan keyingi ta’lim yoki malaka oshirish bosqichidan o‘tgan xodimlardan iborat. Bunday tarkib jamoat tartibini saqlash xizmat faoliyatida boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishida ta’lim omilining o‘rnini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Empirik natijalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, respondentlarning eng katta qismini bakalavr darajasiga ega xodimlar tashkil etadi. Ushbu guruhga mansub 48 nafar respondent tanlanmaning asosiy qismini egallaydi. Bizningcha, bakalavr darajasidagi xodimlarning ustunligi mamlakatimizda ichki ishlar organlari va jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan izchil siyosat bilan bog‘liq. Mazkur ta’lim bosqichida kasbiy bilimlar bilan bir qatorda, boshqaruv faoliyati, huquqiy tafakkur, kommunikativ kompetensiyalar, jamoa bilan ishlash, vaziyatni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllantiriladi. Shu sababli bakalavr darajasidagi respondentlarning son jihatdan ustunligi boshqaruv kompetensiyalarini zamonaviy professional tayyorgarlik nuqtayi nazaridan baholash imkonini yaratadi.

O‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan 40 nafar respondent tanlanmaning salmoqli qismini tashkil etadi. Kuzatishlarimiz asosida ushbu guruh vakillari amaliy xizmat faoliyatida muayyan tajribaga ega bo‘lishiga qaramasdan, boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari, strategik rejalashtirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va tashkilotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha oliy ta’lim bosqichida beriladigan bilimlarga nisbatan cheklanganroq tayyorgarlikka ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ularning uzoq muddatli xizmat tajribasi, amaliy vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari va xizmat intizomiga sodiqligi boshqaruv faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi.

Magistr darajasiga ega bo‘lgan 26 nafar respondent ilmiy-amaliy tayyorgarligi yuqoriroq bo‘lgan mutaxassislar guruhini tashkil etadi. Empirik natijalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, magistratura bosqichi mutaxassisning kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, murakkab boshqaruv vaziyatlarini baholash, ilmiy yondashuv asosida qaror qabul qilish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Shu sababli magistr darajasidagi respondentlarning ishtiroki boshqaruv kompetensiyalarining intellektual va analitik komponentlarini baholash uchun muhim empirik asos yaratadi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim yoki malaka oshirish bosqichidan o‘tgan 31 nafar respondent alohida e’tiborga loyiq guruh hisoblanadi. Bizningcha, ushbu toifaga mansub xodimlarning xizmat faoliyatida muntazam ravishda malaka oshirib borishi, yangi normativ-huquqiy hujjatlar, boshqaruv texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari va zamonaviy xizmat usullarini o‘zlashtirishi ularning boshqaruv salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Malaka oshirish jarayonida rahbarlik faoliyati, strategik rejalashtirish, xodimlarni boshqarish, nizolarni bartaraf etish, jamoani motivatsiyalash va xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan kompetensiyalar takomillashtiriladi.

Kuzatishlarimiz asosida ma’lumot darajasi boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi farqlar faqat nazariy bilimlar hajmi bilan emas, balki boshqaruv faoliyatini tashkil etish, murakkab vaziyatlarda muqobil yechimlarni ishlab chiqish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, xizmat resurslaridan oqilona foydalanish va tezkor qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi bilan ham bog‘liq. Shu bilan birga, boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishini faqat ta’lim darajasi bilan izohlash ilmiy jihatdan yetarli emas. Chunki respondentlarning xizmat staji, komandirlik tajribasi, egallab turgan lavozimi, harbiy unvoni, xizmat olib borayotgan hududi va yosh xususiyatlari ham boshqaruv faoliyatining mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ma’lumot darajasi boshqa kasbiy-demografik omillar bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Empirik natijalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, respondentlarning turli ta’lim bosqichlarini qamrab olishi boshqaruv kompetensiyalarining alohida indikatorlarini qiyosiy o‘rganish uchun zarur sharoit yaratadi. Xususan, vaqt bo‘yicha orientatsiya, qadriyatlar tizimi, bilimga bo‘lgan ehtiyoj, ijodkorlik, avtonomiya, muloqotga moslashuvchanlik, yetakchilik qobiliyati, boshqaruv samaradorligi, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, mustaqillik, chidamlilik, harakatchanlik, e’tiborlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi ko‘rsatkichlarning ta’lim darajalariga qarab qanday namoyon bo‘lishini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishi yosh, ma’lumot darajasi, kasbiy tajriba, individual-psixologik xususiyatlar va tashkiliy muhitning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadigan ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Tanlanmada 26–35 yoshdagi hamda oliy ta’lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish toifalariga mansub xodimlar ulushining yuqoriligi ularda boshqaruv faoliyatining kognitiv, kommunikativ, tahliliy va tashkiliy komponentlarini rivojlantirish uchun zarur imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Biroq samarali boshqaruv kompetensiyasi nazariy bilimlarning amaliy tajriba, emotsional-irodaviy barqarorlik, liderlik, kommunikativ moslashuvchanlik va refleksiv o‘zini boshqarish bilan uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi.

Tavsiyalar:

1. Xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini ularning yoshi, ma’lumot darajasi, xizmat staji, lavozimi va boshqaruv tajribasiga muvofiq differensiallashtirish.
2. Yosh va tajribasi yetarli bo‘lmagan xodimlarga tajribali rahbarlarni murabbiy sifatida biriktirib, ularda qaror qabul qilish, xizmat vaziyatlarini tahlil etish va shaxsiy tarkib bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
3. Boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashda ma’lumot va xizmat staji bilan cheklanmasdan, amaliy natijalar, liderlik salohiyati, jamoa bilan ishlash qobiliyati hamda murakkab vaziyatlardagi xulq-atvorni qamrab oluvchi kompleks mezonlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov R. Boshqaruv psioxologiyasi. Darslik. - T.: O‘zR JXU, 2022. - 215 bet.
2. Xayitov O. Boshqaruv psioxologiyasi. Darslik. 2020. - B. 250 .
3. Umarov D.B. Harbiy Boshqaruvda Faollikni Ijtimoiy-Psixologik Jihatlari //Journal of Innovation in Volume: 3 Issue: 10 Year: 2025. Educational and Social Research ISSN: 2992-894X | http://journals.proindex.uz. B. 98-99
4. Вертаев А.В. Формирование компетенции принятия оптимальных управленческих решений у курсантов вузов внутренних войск МВД России с использованием метода служебно-боевых ситуаций : дис. … канд. пед. наук. СПб., 2015. 279 с.
5. Mamatxanov N.S. The Role of Psychological Characteristics of Leadership Personnel in the Activities of Maintaining Public Order // Spanish Journal of Innovation and Integrity | ISSN 2792-8268 | Volume-54 | May -2026 Page: 228-233.

SOCIOLINGUISTIC VARIATION IN ENGLISH: A STUDY OF DIALECTS AND ACCENTS

Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi
Second-year student at
University of Tashkent for Applied Sciences

Ramazonova Feruzaxon Akbarovna
Associate Professor (Acting),
University of Tashkent for Applied Sciences, Tashkent

Abstract: This article explores sociolinguistic variation [1] in English, focusing on the diverse dialects and accents that exist within the language. It examines how regional, social, and cultural factors influence the way English is spoken, highlighting the importance of understanding these variations in relation to identity, communication, and social dynamics. The study provides examples of different dialects and accents, analyzing their unique features and the implications of such variations in both spoken and written forms.

Key words: Sociolinguistics, Variation, English dialects, English accents, Regional language, Social factors, Cultural influence, Language identity, Communication, Linguistic diversity.

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi sotsiolingvistik o'zgarishlarni o'rganadi, bu tilda mavjud bo'lgan turli lahjalar va urg'ularga e'tibor beradi. U mintaqaviy, ijtimoiy va madaniy omillarning ingliz tilida so'zlashuv usuliga qanday ta'sir qilishini o'rganadi va bu o'zgarishlarni o'ziga xoslik, muloqot va ijtimoiy dinamikaga nisbatan tushunish muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda turli dialekt va urg'ularga misollar keltirilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari va bunday o'zgarishlarning og'zaki va yozma shakllardagi oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy lingvistika [2], Variatsiya, Ingliz dialektlari, Ingliz aksentlari, Mintaqaviy til, Ijtimoiy omillar, Madaniy ta'sir, Tilning o'ziga xosligi, Muloqot, Til xilma-xilligi.

Аннотация: В этой статье исследуется социолингвистическая вариативность английского языка с упором на различные диалекты и акценты, существующие в языке. В ней рассматривается, как региональные, социальные и культурные факторы влияют на то, как говорят на английском языке, подчеркивая важность понимания этих вариаций в отношении идентичности, коммуникации и социальной динамики. В исследовании приводятся примеры различных диалектов и акцентов, анализируются их уникальные особенности и последствия таких вариаций как в устной, так и в письменной форме.

Ключевые слова: Социолингвистика, Вариативность, Диалекты английского языка, Акценты английского языка, Региональный язык, Социальные факторы, Культурное влияние, Языковая идентичность, Коммуникация, Языковое разнообразие.

INTRODUCTION

Sociolinguistic variation in English represents a fascinating intersection of language, culture, and identity, reflecting the rich tapestry of human experience. English, as a global language, encompasses a multitude of dialects and accents that vary not only geographically but also socially. This diversity is shaped by a range of factors, including regional history, social class, ethnicity, and age, all of which contribute to the rich texture of English language usage across different contexts. Dialects refer to variations in language that are specific to a particular geographical area or social group, encompassing differences in vocabulary, grammar, and pronunciation. For instance, British English exhibits distinct dialects such as Cockney, Geordie, and Scouse [3], each with unique phonetic and lexical characteristics. Similarly, within the United States, regional dialects like Southern English and New York English illustrate the impact of historical migration patterns, settlement, and cultural influences on language development.

Accents, on the other hand, primarily focus on pronunciation and intonation and can vary widely even within the same dialect. An individual's accent can often reveal information about their regional background, socioeconomic status, and sometimes even their education level. This aspect of sociolinguistic variation underscores the relationship between language and identity, as speakers may consciously adopt or modify their accents in different social contexts to signal affiliation or distinction from others. The study of sociolinguistic

variation is essential for understanding the dynamics of communication in a multicultural world. It raises crucial questions about linguistic hierarchy and prestige [4], as certain dialects and accents are often stigmatized or valorized in various social settings.

For instance, Received Pronunciation (RP) [5] in the UK is often associated with upper-class status and authority, while other dialects may be perceived as less prestigious despite their own rich histories and cultural significance. Moreover, sociolinguistic research highlights the role of language in constructing social relationships and identities. Individuals may employ specific dialects or accents to forge a sense of belonging within a community or to challenge societal norms and stereotypes. By acknowledging and studying these variations, we gain insights into broader social issues such as discrimination, inequality, and the preservation of cultural heritage. In essence, the exploration of sociolinguistic variation in English offers a window into the complexity of human communication, the power of language to shape identity, and the continuing evolution of a global language in a diverse world.

LITERATURE REVIEW

Sociolinguistic variation has been widely investigated as an important area of sociolinguistics because language use varies according to geographical, social, cultural, and contextual factors. Scholars generally emphasize that dialects and accents are not random deviations from a standard language but systematic forms of linguistic variation associated with particular regions and social communities. In English, such variation can be observed at phonological, lexical, grammatical, and pragmatic levels, reflecting both speakers' geographical backgrounds and their social identities.

One of the fundamental contributions to the study of sociolinguistic variation was made by William Labov. His research demonstrated that linguistic variation is systematically related to social factors such as social class, age, community membership, and communicative context (Labov, 2001). From this perspective, differences in pronunciation and language choice can function as indicators of social identity. Labov's approach established an important theoretical basis for understanding the relationship between linguistic forms and the social structures in which they occur.

Milroy and Gordon (2003) further developed the methodological foundations of sociolinguistic research by emphasizing the importance of examining language within social communities and networks. Their work demonstrates that linguistic variation can be understood more effectively when speakers' social relationships, regional backgrounds, and patterns of interaction are taken into account. This approach is particularly relevant to the study of English dialects because regional and social varieties are maintained and transformed through everyday communication among members of speech communities.

The phonological diversity of English has been extensively examined by Wells (1982), whose research provides a systematic description of major English accents. His analysis demonstrates considerable differences in pronunciation across British, American, and other varieties of English. Within the United Kingdom, varieties such as Received Pronunciation, Cockney, Geordie, Scouse, and Glaswegian illustrate the geographical and social diversity of spoken English. These accent differences involve not only individual sounds but also stress, rhythm, and intonation patterns. Wells's work therefore provides an important linguistic foundation for comparative studies of English accents.

Wolfram and Schilling-Estes (2006) examined dialect variation in American English and demonstrated that regional, ethnic, and social varieties constitute systematic linguistic systems rather than incorrect forms of standard English. Their research highlights the influence of historical settlement, migration, ethnicity, social interaction, and geographical location on the development of American English dialects. This perspective is significant because it challenges negative stereotypes associated with non-standard varieties and emphasizes the linguistic legitimacy of dialect diversity.

Previous studies also indicate that dialects and accents perform important social functions. Speakers may consciously or unconsciously modify their linguistic behaviour according to communicative situations, social relationships, and desired identities. Particular accents may be associated with prestige, authority, regional belonging, solidarity, or cultural identity. Received Pronunciation, for example, has traditionally been associated with social prestige in Britain, whereas regional accents may function as strong markers of local identity and community membership.

Despite extensive research on individual English dialects and accents, sociolinguistic variation continues to evolve under the influence of migration, globalization, digital communication, popular culture, and social media. Younger speakers in particular may combine linguistic features originating from different regional and social varieties. Therefore, further investigation of English dialects and accents is necessary to understand how contemporary linguistic variation reflects changing relationships among language, identity, social status, and cultural belonging.

RESEARCH METHODOLOGY

The methodology employed in this study of sociolinguistic variation in English involves a qualitative approach [1], aiming to capture the richness of dialects and accents through a combination of data collection techniques. The research begins with the selection of diverse geographical areas where variations are most pronounced, such as urban centers, rural communities, and regions with historical significance. Data collection involves both surveys and interviews to gather firsthand accounts of language use among speakers from various backgrounds. Surveys include questions about participants' linguistic background, frequency of dialect use, and perceptions of different accents. Interviews are designed to elicit detailed narratives regarding personal experiences with language, social identity, and regional pride. Additionally, audio recordings are made during interviews to analyze phonetic variations and intonation patterns in the participants' speech. The collected data are then subjected to thematic analysis [2] to identify key patterns and themes related to sociolinguistic variation, including the influence of social class, age, and cultural identity on language choices.

ANALYSIS AND RESULTS

The results of the study reveal significant findings regarding the diversity of English dialects and accents. Participants from distinct geographic locations displayed notable differences in pronunciation, vocabulary, and grammatical structures, highlighting the rich linguistic landscape of English. For instance, speakers from the northern regions of the UK often used specific lexical items and pronunciation traits that were less common in southern dialects. Moreover, the study found varying perceptions of prestige associated with different accents. Participants frequently associated Received Pronunciation with authority and social status, while regional accents like West Yorkshire or Glaswegian [3] were seen by some as friendly and approachable. Interestingly, younger speakers exhibited a tendency to embrace variations in their accents as a form of cultural identity, often mixing elements from multiple influences, including pop culture and social media.

The discussion of these findings emphasizes the importance of recognizing sociolinguistic variation as a reflection of cultural identity and social dynamics. The study underscores that language is not merely a tool for communication; it serves as a powerful marker of identity and belonging. The positive perceptions of regional accents among younger speakers suggest a shift in societal attitudes toward linguistic diversity, highlighting a growing appreciation for cultural plurality. Moreover, the analysis reveals that factors such as social class and age significantly influence language use and perception. Traditional attitudes associating prestige with certain accents can perpetuate linguistic discrimination [4], impacting social mobility and opportunities for speakers of non-standard varieties [5]. Ultimately, this study contributes to the understanding of how sociolinguistic variation in English shapes interpersonal relationships and societal structures. By acknowledging and valuing linguistic diversity, society can foster greater inclusivity and recognition of the cultural significance embedded in different dialects and accents, paving the way for a more equitable discourse surrounding language in a globalized world.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

This study highlights the intricate nature of sociolinguistic variation in English, emphasizing the profound impact of dialects and accents on social identity and communication. The findings demonstrate that language is not a static entity but rather a dynamic aspect of culture that reflects historical, geographical, and social influences. The distinctiveness of English dialects serves as a testament to the diversity and richness of linguistic expression. As society continues to evolve, so too does the perception of various accents and dialects. Greater acceptance and appreciation of linguistic diversity can lead to more inclusive communities where different forms of expression are celebrated rather than stigmatized. Future research should continue to explore the relationships between language, identity, and power dynamics, paving the way for a more nuanced understanding of the role of language in shaping human experiences.

References:

1. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. - 2nd ed. - Cambridge : Cambridge University Press, 2010. - 499 p.
2. Labov W. Principles of Linguistic Change. Vol. 2 : Social Factors. - Oxford : Blackwell Publishing, 2001. - 584 p.
3. Milroy L., Gordon M. Sociolinguistics: Method and Interpretation. - Oxford : Blackwell Publishing, 2003. - 261 p.
4. Wells J. C. Accents of English. Vol. 1-3. - Cambridge : Cambridge University Press, 1982. - 1428 p.
Overall, the qualitative findings strongly reinforced the quantitative results, demonstrating that adaptive instruction promoted not only better long-term retention but also greater confidence and more frequent use of English idioms in authentic communication (Table 4).

Table 4: **Learner Perceptions**

Statement	Experimental Group	Control Group
Confident using idioms	87%	61%
Remember most idioms	84%	58%
Used idioms outside class	82%	49%
Found instruction useful	91%	69%

Table 5: **Major Interview Themes**

Theme	Percentage of Interviewees Mentioning the Theme
Better long-term memory	88%
Greater confidence	83%
Improved contextual understanding	79%
More frequent real-life use	75%

3.5 Overall Results

The findings consistently demonstrate that adaptive instruction produced superior long-term learning outcomes compared with conventional teaching. Six months after the intervention, learners in the experimental group retained more idiomatic knowledge, used idioms more appropriately in authentic communicative situations, and reported greater confidence in their English language abilities. Taken together, the quantitative and qualitative findings indicate that adaptive instruction improved long-term learning by approximately 18% and supported the development of both idiomatic competence and pragmatic competence.

The primary objective of this longitudinal follow-up study was to determine whether the benefits of adaptive instruction extended beyond immediate classroom achievement and contributed to the sustained retention and pragmatic use of English idioms. The findings demonstrate that learners who received adaptive instruction maintained substantially higher levels of idiomatic knowledge six months after the intervention than those who experienced conventional instruction. These results extend the findings of the authors' previous study, which established the short-term effectiveness of adaptive instruction, by providing evidence that its instructional benefits remain evident over a longer period (Sidiqov, 2026).

One of the most significant findings concerns long-term retention. Although both groups demonstrated some decline in performance over the six-month interval, the decrease was considerably smaller among learners who received adaptive instruction. This suggests that adaptive learning supports deeper cognitive processing rather than temporary memorisation. According to Nation (2022), durable vocabulary acquisition depends on repeated retrieval, meaningful exposure, and opportunities for productive use rather than isolated practice. The adaptive learning activities implemented during the original intervention provided learners with multiple contextual encounters with idiomatic expressions, enabling stronger memory consolidation and reducing knowledge loss over time. The present findings therefore support the view that instructional effectiveness should be evaluated not only through immediate post-test performance but also through delayed measures of retention.

The study also demonstrated that adaptive instruction positively influenced learners' pragmatic competence. Participants in the experimental group used idiomatic expressions more appropriately during role-play activities and discourse completion tasks, indicating that they had developed an understanding of when and how idioms should be used in authentic communication. These findings are consistent with Kasper and Rose (2002), who argue that pragmatic competence develops gradually through repeated contextual practice and communicative interaction. Similarly, Taguchi (2015) emphasises that successful pragmatic development requires opportunities for learners to apply linguistic knowledge across diverse communicative situations rather than simply acquiring declarative knowledge of language forms. The qualitative findings obtained through interviews further confirmed that learners perceived adaptive activities as helping them understand the contextual appropriateness of idioms instead of merely memorising their meanings.

Several factors may explain why adaptive instruction produced more sustainable learning outcomes than conventional teaching. First, adaptive instruction accommodated individual differences by adjusting learning activities according to learners' progress and performance, thereby promoting active engagement throughout the instructional process. Tomlinson (2014) argues that differentiated instruction enhances learning by responding to learners' varying levels of readiness and learning needs. Second, adaptive activities required learners to process idioms within meaningful communicative contexts rather than learning isolated lexical items. This finding supports Wray's (2002) view that formulaic language is acquired and retrieved more effectively when learners encounter multiword expressions as functional units in authentic discourse. Furthermore, Boers and Lindstromberg (2008) maintain that contextualised and cognitively engaging instruction facilitates stronger retention of phraseological units than traditional memorisation techniques.

The present findings are broadly consistent with previous research demonstrating the benefits of adaptive and communicative approaches to vocabulary instruction. However, unlike many earlier studies that evaluated learning immediately after instruction, the current investigation provides longitudinal evidence of sustained learning six months after the intervention. By combining delayed post-testing with role-play tasks, discourse completion tasks, questionnaires, and interviews, the study offers a more comprehensive evaluation of both linguistic retention and pragmatic transfer. This integrated methodological approach contributes to the growing body of research emphasising that successful language instruction should promote both durable knowledge and functional communicative ability.

From a pedagogical perspective, the findings have important implications for English language teaching. Language teachers should move beyond approaches that emphasise memorisation of idiomatic expressions and instead incorporate adaptive, learner-centred activities that provide repeated contextual exposure and opportunities for authentic communication. Curriculum designers should also consider integrating delayed assessment into instructional programmes to evaluate long-term learning rather than relying exclusively on immediate post-test results. Such practices may contribute to the development of learners' communicative competence and encourage the sustained use of idiomatic language beyond the classroom.

Several limitations should be acknowledged. First, the study was conducted at a single higher education institution, which may limit the generalisability of the findings to other educational contexts. Second, the follow-up period was limited to six months and therefore does not capture longer-term patterns of retention. Finally, although the mixed-methods design provided comprehensive evidence, the qualitative data were obtained from a relatively small sample of participants.

Future studies should investigate the long-term effects of adaptive instruction across different educational settings, learner proficiency levels, and age groups. Longer follow-up periods of one year or more would provide a clearer understanding of knowledge retention over time. In addition, future research could examine the integration of AI-supported adaptive learning technologies and explore their influence on the acquisition of other aspects of communicative competence, including collocations, formulaic language, and intercultural pragmatics.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

The present longitudinal follow-up study investigated the long-term effectiveness of adaptive instruction in teaching English idioms to first-year EFL learners. Building upon the authors' previous research (Sidiqov, 2026), the study examined whether the learning gains achieved through adaptive instruction were maintained six months after the instructional intervention and transferred to authentic communicative contexts. The findings demonstrated that learners who received adaptive instruction retained significantly more idiomatic knowledge than those who experienced conventional instruction. Furthermore, they used idiomatic expressions more appropriately in role-play activities and discourse completion tasks and reported greater confidence in applying idioms during real-life communication.

The study contributes to the growing body of research on adaptive language instruction by providing longitudinal evidence that its benefits extend beyond immediate post-test performance. Unlike many previous investigations that focused primarily on short-term achievement, the present research demonstrates that adaptive instruction supports both durable retention and the development of pragmatic competence, thereby extending current understanding of effective idiom instruction (Nation, 2022; Taguchi, 2015).

From a pedagogical perspective, the findings suggest that English language teachers should incorporate adaptive, learner-centred instructional strategies that provide repeated contextual exposure, communicative practice, and opportunities for meaningful language use. Such approaches can promote not only improved learning outcomes but also the sustained development of idiomatic competence and communicative proficiency among EFL learners.

References:

1. Boers, F. and Lindstromberg, S. (2008) Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology. Berlin: Mouton de Gruyter.
2. Cooper, T.C. (1999) 'Processing of idioms by L2 learners of English', TESOL Quarterly, 33(2), pp. 233-262.
3. Kasper, G. and Rose, K.R. (2002) Pragmatic Development in a Second Language. Oxford: Blackwell Publishing.
4. Kunin, A.V. (1996) Курс фразеологии современного английского языка. 2-е изд. Москва: Высшая школа.
5. Nation, I.S.P. (2022) Learning Vocabulary in Another Language. 3rd edn. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Rahmatullayev, Sh. (1992) O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.
7. Schmitt, N. (2004) 'Formulaic sequences: Acquisition, processing and use', in Schmitt, N. (ed.) Formulaic Sequences: Acquisition, Processing and Use. Amsterdam: John Benjamins, pp. 1-22.
8. Sidiqov, A.O. (2026) 'Zamonaviy ta'lim tizimida adaptiv ta'limning pedagogik va psixologik asoslari', Ilm Vaqti, 4(4/1), pp. 674-682.
9. Taguchi, N. (2015) 'Instructed pragmatics at a glance: Where instructional studies were, are, and should be going', Language Teaching, 48(1), pp. 1-50. Available at: https://doi.org/10.1017/S0261444814000263.
10. Teliya, V.N. (1996) Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Школа "Языки русской культуры".
11. Tomlinson, C.A. (2014) The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd edn. Alexandria, VA: ASCD.
12. Vinogradov, V.V. (1977) Избранные труды. Лексикология и лексикография. Москва: Наука.
13. Wray, A. (2002) Formulaic Language and the Lexicon. Cambridge: Cambridge University Press.

TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA METODIK MODELI

Yangiyev Shavkat Norkobulovich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli asoslangan. Tadqiqot muammosi sifatida loyihaviy yondashuv asosida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish tizimining kompleks va izchil ishlab chiqilmaganligi belgilangan. Tizimli yondashuv metodologiyasiga tayanib, model yetti konseptual tamoyil asosida loyihalashtirilgan hamda maqsadli, mazmunli, jarayonli, metodik va natijaviy bloklardan iborat metodik model yaratilgan. Tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan "Fan va texnika integratsiyasi", "Innovatsion loyiha", mobil loyiha va "6-3-5" metodlaridan foydalanish metodikasi tavsiflangan. Modelning amaliyotga tatbiq etilishi negizida maxsus kurs dasturi ishlab chiqilgan va o'quv jarayoniga joriy etilgan. Taklif etilayotgan pedagogik shart-sharoitlar va metodik model bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini samarali rivojlantirishning amaliy vositasi bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: pedagogik shart-sharoit, metodik model, ta'lim klasteri, loyiha metodi, tayanch kompetensiya, "6-3-5" metodi, innovatsion loyiha, fan va texnika integratsiyasi, maxsus kurs, tizimli yondashuv.

Abstract: The article substantiates the pedagogical conditions and methodical model for developing future engineers' core competencies in technical higher education institutions under educational cluster conditions. The research problem is identified as the insufficiently comprehensive and systematic development of a methodology for forming core competencies based on a project approach. Drawing on systemic-approach methodology, the model is designed on the basis of seven conceptual principles and comprises target, content, procedural, methodical and outcome blocks. The methodology of applying the "Integration of Science and Technique", "Innovative Project", mobile-project and "6-3-5" methods aimed at developing core competencies is described. Based on the model's implementation, a special-course programme was developed and introduced into the educational process. It is substantiated that the proposed pedagogical conditions and methodical model serve as a practical tool for the effective development of future engineers' core competencies.

Key words: pedagogical condition, methodical model, educational cluster, project method, core competence, "6-3-5" method, innovative project, integration of science and technique, special course, systemic approach.

Аннотация: В статье обоснованы педагогические условия и методическая модель развития базовых компетенций будущих инженеров в технических вузах в условиях образовательного кластера. В качестве научной проблемы определена недостаточная комплексность и системность разработки методики формирования базовых компетенций на основе проектного подхода. Опираясь на методологию системного подхода, модель спроектирована на основе семи концептуальных принципов и включает целевой, содержательный, процессуальный, методический и результативный блоки. Описана методика применения методов "Интеграция науки и техники", "Инновационный проект", мобильного проектного метода и метода "6-3-5", направленных на развитие базовых компетенций. На основе внедрения модели разработана и внедрена в учебный процесс программа спецкурса. Обосновано, что предложенные педагогические условия и методическая модель служат практическим инструментом эффективного развития базовых компетенций будущих инженеров.

Ключевые слова: педагогическое условие, методическая модель, образовательный кластер, метод проектов, базовая компетенция, метод "6-3-5", инновационный проект, интеграция науки и техники, спецкурс, системный подход.

KIRISH

Bo‘lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi nazariy jihatdan asoslanishi bilan bir qatorda, uni amaliyotda ta’minlovchi aniq pedagogik shart-sharoitlar va metodik vositalarni ishlab chiqishni ham taqozo etadi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy o‘qitish tizimi ko‘proq nazariy bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning loyihaviy, kommunikativ va ijodiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyojlarini yetarli darajada qondirmaydi. Bu holat, o‘z navbatida, bitiruvchilarning ishlab chiqarish sharoitlariga moslashish jarayonini murakkablashtiradi.

Ilg‘or pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak muhandislarning tayanch kompetensiyasini loyiha metodikasi asosida shakllantirish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda muammolarni kompleks, tizimli ravishda hal etish zarur. Shu bilan birga, texnika OTMlarida ta’lim klasteri sharoitida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va ularni amalga oshiruvchi yaxlit metodik modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi - ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni amalga oshirishning metodik modelini ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi:

- modelni loyihalashning konseptual tamoyillarini asoslash;
- model bloklarini ishlab chiqish;
- tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar majmuasini tavsiflash;
- modelning amaliy tatbiqi sifatida maxsus kurs dasturini yaratish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik hodisalarni tizimli yondashuv asosida tahlil qilish V. P. Bespalko, N. V. Kuzmina, Yu. A. Kustov va N. F. Talizina ishlarida chuqur yoritilgan.

V. P. Bespalkoning ta’kidlashicha, pedagogik nazariyaning yangi bosqichda rivojlanishi tarbiya va ta’lim hodisalarini tizim sifatida ko‘rib chiqishga bog‘liq.

M. I. Maxmutov va V. S. Bezrukova tizimni tashkil etuvchi omillar sifatida tarkibiy qismlarni yagona butunlikka birlashtirish, ularni maqsadga yo‘naltirish va har bir komponentning mustaqilligini saqlashni ko‘rsatadi.

Pedagogik modellashtirish metodologiyasi N. V. Bordovskaya, V. I. Zagvyazinskiy va V. V. Krayevskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular modellashtirishni empirik va nazariy bilimlarni birlashtiruvchi integral vosita sifatida talqin qiladi.

S. M. Markova pedagogik modellashtirish jarayonining tarkibiy-vazifaviy xususiyatlarini asoslagan.

Ushbu ilmiy manbalar tadqiqotda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik modelini loyihalashning nazariy-metodologik zaminini tashkil etdi. Shu bilan birga, ko‘rsatilgan tadqiqotlarda klaster sharoitidagi o‘ziga xos pedagogik shart-sharoitlar alohida obyekt sifatida o‘rganilmagan, bu esa ushbu maqolada ko‘tarilgan masalaning ilmiy yangiligini ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv yetakchi metodologik asos sifatida qo‘llanildi, chunki u pedagogik hodisa va jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlik va uzluksizlikda har tomonlama tahlil qilishni talab qiladi.

Modelni loyihalashda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil va sintez** - konseptual tamoyillarni asoslash uchun;
2. **Pedagogik modellashtirish** - metodik modelning tarkibiy bloklarini yaratish uchun;
3. **Qiyosiy-tahliliy metod** - mavjud metodik yondashuvlarni solishtirish uchun.

Manba bazasi sifatida tizimli pedagogika, pedagogik modellashtirish va loyiha metodikasiga oid ilmiy adabiyotlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

Metodologik asos sifatida V. P. Bespalkoning pedagogik tizimlar nazariyasi, N. V. Bordovskaya va V. I. Zagvyazinskiyning pedagogik modellashtirish konsepsiyasi hamda M. I. Maxmutovning tizim tashkil etuvchi omillar haqidagi qoidalari qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida tizimli yondashuvga asoslangan loyiha metodi negizida bo‘lajak muhandislarning tayanch kompetensiyasini rivojlantirish tizimi uchun yetti konseptual tamoyil ishlab chiqildi. Ulardan birinchisi - tizimli yondashuvni amalga oshirish tamoyili bo‘lib, u loyiha metodidan foydalanishning izchilligi, vazifalar murakkabligining kursdan kursga ortib borishi, shuningdek, loyiha metodini boshqa faollashtiruvchi usullar bilan uyg‘unlikda qo‘llanilishini talab qiladi. Qolgan tamoyillar klasterli, differensial, metodologik, kontekstli, individual va loyihaviy yondashuvlar hamda kasbga yo‘naltirilganlik, ta’limning uzluksizligi, dasturiy-maqsadlilik, ta’lim muhiti va o‘z-o‘zini rivojlantirish g‘oyalarini birlashtiradi.

Ushbu tamoyillar asosida talabalarni ta’lim klasteri sharoitida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning maqsadli, mazmunli, jarayonli, metodik va natijaviy bloklardan iborat metodik modeli yaratildi. Maqsadli blok tadqiqotning kutilayotgan yakuniy natijasini - bo‘lajak muhandisning tayanch kompetensiya darajasini - belgilaydi. Mazmunli blok ixtisoslik fanlari (jumladan, “Traktorlar va transport vositalari”) dasturining tayanch kompetensiya komponentlari bilan uyg‘unlashtirilgan mazmunini o‘z ichiga oladi. Jarayonli blok o‘quv jarayonini ta’lim klasteri sharoitida tashkil etish bosqichlarini aks ettiradi. Metodik blok tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar majmuasini birlashtiradi, natijaviy blok esa erishilgan natijalarni baholash mezonlarini o‘z ichiga oladi.

Metodik blok tarkibida talabalarning tayanch kompetensiyasini rivojlantirish uchun bir qator yangi metodlar qo‘llanildi. “Integration of science and technique” (Fan va texnika integratsiyasi) metodi nazariy bilimlarni amaliy-texnik vazifalar bilan bevosita bog‘lashga, “Innovative project” (Innovatsion loyiha) metodi talabalarni real muhandislik muammolarini ijodiy hal etishga jalb qilishga, mobil loyiha metodi zamonaviy raqamli vositalar yordamida loyiha ustida masofadan hamkorlikda ishlashga, “6-3-5” metodi esa kichik guruhlarda tezkor g‘oyalar generatsiyasi (har bir ishtirokchi 5 daqiqa ichida 3 ta g‘oya taklif etadi) orqali ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Modelning amaliy tatbiqi sifatida “Ta’lim klasteri sharoitida talabalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” nomli maxsus kurs dasturi ishlab chiqildi hamda o‘quv jarayoniga joriy etildi. Shuningdek, “Traktorlar va transport vositalari” fani doirasida “Dvigatelning issiqlik balansini hisoblash” mavzusida dars ishlanmasi tayyorlandi va tajriba-sinov ishlarida qo‘llanildi.

Olingan natijalar V. P. Bespalkoning pedagogik hodisalarni tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurati haqidagi qoidasi bilan uyg‘undir: taklif etilgan yetti tamoyilli model aynan shu tizimlilik talabiga javob beradi, chunki u alohida metodlarni emas, balki maqsad, mazmun, jarayon, metod va natijani yaxlit zanjir sifatida birlashtiradi.

N. V. Bordovskaya va V. I. Zagvyazinskiyning pedagogik modellashtirish konsepsiyasi bilan qiyoslaganda, bizning modelimizning o‘ziga xosligi shundaki, u ta’lim klasteri sharoitidagi o‘zaro hamkorlikni alohida jarayonli blok sifatida ajratib ko‘rsatadi.

“6-3-5” va mobil loyiha kabi metodlarning qo‘llanilishi M. I. Maxmutov va V. S. Bezrukova ta’kidlagan tizim tashkil etuvchi omillar – komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi va mustaqilligi – talabiga mos keladi: har bir metod alohida vazifani bajaradi, ammo ular birgalikda yaxlit metodik tizimni tashkil etadi. Bu esa tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham izchil bo‘lishini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning yetti konseptual tamoyilga asoslangan metodik modeli ishlab chiqildi. Model maqsadli, mazmunli, jarayonli, metodik va natijaviy bloklardan iborat bo‘lib, uning metodik bloki “Fan va texnika integratsiyasi”, “Innovatsion loyiha”, mobil loyiha va “6-3-5” metodlarini birlashtiradi. Modelning amaliy tatbiqi sifatida maxsus kurs dasturi va aniq dars ishlanmalari yaratildi hamda o‘quv jarayoniga joriy etildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar berildi: birinchidan, texnika OTMlarida ixtisoslik fanlarini o‘qitishda loyihaviy metodlarni tizimli va izchil qo‘llash; ikkinchidan, “6-3-5” va mobil loyiha kabi tezkor ijodiy metodlarni amaliy mashg‘ulotlarga keng joriy etish; uchinchidan, ta’lim klasteri ishtirokchilari (OTM, ishlab chiqarish korxonalari, talabalar) o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional darajada mustahkamlash. Ishlab chiqilgan metodik model keyingi tadqiqotlarda tayanch kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini tajriba-sinov yo‘li bilan baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Беспалько В.П. О возможностях системного подхода в педагогике // Сов. педагогика. - 1990. - № 7. - С. 59-60.
2. Беспалько В.П. Основы теории педагогических систем. - Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1977. - 304 с.
3. Кузмина Н.В. Методы системного педагогического исследования. - Л.: ЛГУ, 1980. - 179 с.

4. Кустов Ю.А. Единство и преемственность педагогических действий в высшей школе. - Самара: Изд-во Самарского гос. ун-та, 1993.
5. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. - М.: МГУ, 1984.
6. Махмутов М.И. Современный урок. Вопросы теории. - 2-е изд., испр. и доп. - М.: Педагогика, 1985. - 184 с.
7. Безрукова В.С. Педагогика: учеб. для инж.-пед. спец. - Екатеринбург: Обл. ин-т развития регионального образования, 1994. - 337 с.
8. Бордовская Н.В. Педагогическая системология. - М.: Дрофа, 2008. - 511 с.
9. Бордовская Н.В., Кошкина Е.А. Терминологическая компетентность специалиста: проявление и уровни развития // Человек и образование. - 2016. - № 3 (48). - С. 4-11.
10. Загвязинский В.И. Методология педагогического исследования: учебное пособие для вузов. - 2-е изд., испр. и доп. - М.: Юрайт, 2024. - 105 с.
11. Краевский В.В. Методология педагогического исследования: пособие для педагога-исследователя. - Самара: Изд-во СамГПИ, 1994. - С. 8.
12. Маркова С.М. Моделирование педагогических [систем]. - Н.Новгород: ВГИПА, 2003. - 143 с.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori. // www.lex.uz.
14. 60810100 - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishining davlat ta'lim standarti. - T., 2024. - 44 b.
15. Ximmataliyev D.O., Yangiyev Sh.N. "Ta'lim klasteri sharoitida talabalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" nomli maxsus kurs o'quv dasturi. - Qarshi, 2023. - 15 b.
16. Yangiyev Sh.N. Ta'lim klasteri sharoitida talabalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik modeli // Guliston davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Guliston, 2024. - № 2. - B. 17-19.
17. Yangiyev Sh.N. Ta'lim klasteri sharoitida talabalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari. - Miasto Przyszlosci, Kielce, 2022. - B. 468-471.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING BIOLOGIYA FANIDAN OLIMPIADA MASALALARINI YECHISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Sh. Yu. Abdunabiyeva
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi
Bo'ka tuman ixtisoslashtirilgan maktab biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ixtisoslashtirilgan maktablarda biologiya olimpiadasiga tayyorgarlik jarayonida masalani yechish ko'nikmalari o'quvchi bilimini chuqurlashtirish, mantiqiy tahlilni kuchaytirish va nazariy bilimni amaliy vaziyatga ko'chirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Tadqiqotning maqsadi biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan metodikani takomillashtirish va uning didaktik samaradorligini pedagogik tajriba orqali aniqlashdan iborat bo'ldi. Metodlar sifatida pedagogik kuzatish, diagnostik pretest va posttest, shakllantiruvchi mashg'ulotlar, qiyosiy tahlil hamda o'lchov vositasining Cronbach alfa ko'rsatkichi bilan ishonchliligini tekshirish qo'llandi; Cronbach alfa 0,70 darajasida barqarorlikni ko'rsatdi. Shakllantiruvchi bosqichda diagnostik qayta aloqa o'quvchilarning zaif tomonlarini aniq ajratdi, differensial topshiriqlar esa masalani tahlil qilish, biologik qonuniyatni tanlash va yechimni asoslash bosqichlarini izchil mustahkamladi. Tajriba guruhi posttestida ko'nikmalar sifati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yaxshilandi, ayniqsa murakkab shartli masalalarni tuzilma bo'yicha ajratish va javobni dalillashda barqarorlik kuchaydi. Olingan natijalar metodik materiallar, biologiya to'garaklari va olimpiada tayyorgarligi mashg'ulotlarini loyihalashda foydalanildi. Takomillashtirilgan metodika ixtisoslashtirilgan maktab amaliyotida olimpiada topshiriqlariga tayyorgarlikni tizimlashtiradi, o'qituvchiga diagnostika va individual yondashuvni birlashtirish imkonini beradi hamda biologiya ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: diagnostik qayta aloqa, didaktik model, individuallashtirilgan topshiriqlar, mantiqiy tahlil, pedagogik tajriba, yechim strategiyalari.

Abstract: In specialized schools, the logical analysis of biology tasks, the choice of evidence for an answer, and the justification of that answer form a demanding learning activity. The purpose of the study was to clarify and practically improve the methodology for developing biology olympiad problem-solving skills. A three-stage pedagogical experiment was used: a diagnostic pretest, a formative intervention, and a control posttest; the internal consistency of the measurement tool was assessed with Cronbach alpha, and the alpha value was 0.70. During the diagnostic stage, students showed difficulty linking biological concepts, identifying essential features in the prompt, and explaining the answer step by step. The formative stage introduced systematic explanatory exercises, differentiated tasks, pair analysis, and diagnostic feedback. Posttest results indicated better planning of solutions, clearer division of a task into small steps, and stronger conclusion building. In the experimental group, the range of typical errors became narrower, whereas the control group mostly remained dependent on memorization. The improved methodology organizes the chain of actions from reading a biology task to reaching a final conclusion. Its scientific contribution lies in a coherent didactic model that combines task analysis, evidence selection, and conclusion construction.

Key words: diagnostic feedback, didactic model, individualized tasks, logical analysis, pedagogical experiment, solution strategies.

Аннотация: В специализированных школах подготовка к биологической олимпиаде требует не только прочных предметных знаний, но и устойчивого умения разбирать нестандартные задачи, поскольку именно этот компонент определяет качество аргументации и переход от теории к решению. Цель исследования заключалась в совершенствовании методики развития умений решения олимпиадных задач по биологии и в проверке её дидактической результативности в педагогическом эксперименте. В работе использованы педагогическое наблюдение, диагностические pretest и posttest, формирующие занятия, сравнительный анализ и проверка надёжности измерительного инструмента по коэффициенту Cronbach alfa; значение Cronbach alfa составило 0,70, что подтвердило достаточную устойчивость шкалы. На формирующем этапе диагностическая обратная связь позволила точно выделить слабые стороны учащихся, а дифференцированные задания поэтапно усилили анализ условия, выбор биологической закономерности и обоснование ответа. В posttest у экспериментальной группы качество умений оказалось заметно выше, чем у контрольной группы, особенно при разложении сложных задач по структуре и при аргументации решения. Полученные результаты были использованы при проектировании методических материалов, биологических кружков и занятий олимпиадной подготовки. Совершенствованная методика упорядочивает подготовку к олимпиадным заданиям в практике специализированной школы, помогает учителю соединять диагностику с индивидуальным подходом и усиливает компетентностную направленность обучения биологии.

Ключевые слова: диагностическая обратная связь, дидактическая модель, индивидуализированные задания, логический анализ, педагогический эксперимент, стратегии решения.

KIRISH

Ixtisoslashtirilgan maktablarda biologiya olimpiadasiga tayyorgarlik murakkablashgani sababli masalani yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb bo‘lib qoldi [1].

Qodirov va Jo‘rayev biologiya fanidan olimpiada topshiriqlarida tahlil, model tuzish va xulosa chiqarish birgalikda talab etilishini qayd etgan [1].

Voxidova esa bu ko‘nikmalar didaktik asos, pedagogik tashxis va formativ baholash uyg‘unligida shakllanishini ko‘rsatgan [2]. Mazkur ishda ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining olimpiada masalalarini yechish jarayoni o‘rganildi, diqqat markazida esa rivojlantirish metodikasining takomillashtirilgan varianti turdi.

Mavjud tadqiqotlarda bosqichli pedagogik eksperiment, eksperiment guruhi va nazorat guruhi taqqosoti hamda diagnostik qayta aloqa yetarli darajada birlashtirilmagan [3].

Ergashev murakkab biologik masalalarda mashg‘ulotlarni tashkil etishni yoritgan bo‘lsa-da, pretest va posttest orasidagi metodik siljishlar alohida tizim sifatida ochilmagan [4]. Shu bois muammo olimpiada topshiriqlarini yechish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantiradigan, o‘lchovli va qayta tekshiriladigan metodik yechim yetishmasligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko‘nikmalarini takomillashtirilgan metodika asosida rivojlantirish samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Vazifalar:

1) diagnostik so‘rovnoma tuzish;
2) pretest o‘tkazish;
3) shakllantiruvchi mashqlarni bosqichlash;
4) posttest natijalarini solishtirish;
5) Cronbach alfa orqali ishonchlilikni tekshirish;
6) tajriba va nazorat guruhlari farqini t-test bilan baholash.

Asosiy gipoteza: bosqichli va diagnostik qayta aloqaga tayangan metodika olimpiada masalalarini yechish ko‘nikmalarini an’anaviy yondashuvdan yuqoriroq darajada oshiradi.

Takomillashtirilgan yondashuv muammoli o‘qitish, metakognitsiya va individualizatsiyani bitta didaktik tizimga bog‘ladi [5].

Bloom taksonomiyasi biologiya masalalarida bilimni qo‘llashdan tahlil va baholashga o‘tishni izchil rejalash imkonini bergan [6]. Nazariy yangilik uch bosqichli metodikaning ixtisoslashtirilgan maktab sharoitiga moslashtirilgan empirik tekshiruvida namoyon bo‘ldi. Olingan natijalar metodik materiallar, biologiya to‘garaklari va olimpiada tayyorgarligi mashg‘ulotlarini loyihalashda foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1-jadvaldagi manbalar ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini uch yo‘nalishda izohlaydi: kompetensiya, muammoli o‘qitish va kognitiv faollashtirish (1-jadval).

1-jadval: **Biologiya olimpiada masalalarini yechish bo‘yicha yondashuvlar qiyosiy xaritasi**

Yo‘nalish	Asosiy urg‘u	Cheklangan jihat
Kompetensiyaviy yondashuv	amaliy fikrlash va o‘zini o‘zi baholash	masala tuzilmasi yetarli ochilmagan
Muammoli o‘qitish	izlanishli savollar va metakognitsiya	bosqichli murakkablik kam yoritilgan
Kognitiv faollashtirish	tahlil, solishtirish, xulosa chiqarish	diagnostik qayta aloqa tizimi sust

Muslimov va Salixova kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasida faoliyatni bosqichlarga ajratish zarurligini nazariy asoslagan [5], Qodirov va Jo‘rayev esa biologiya olimpiada topshiriqlarida aynan mazmuniy murakkablikni tartibga solish kerakligini empirik tarzda ko‘rsatgan [1]. Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi, chunki kompetensiya umumiy maqsadni belgilasa, masala yechish metodikasi mazmunni amaliy harakatga aylantiradi. Shunga qaramay, mavjud ishlar ixtisoslashtirilgan maktab sharoitida topshiriqlar ketma-ketligi va qayta aloqa oralig‘ini aniq modelga keltirmagan.

Nosirova mantiqiy fikrlashni kuchaytiruvchi topshiriqlar orqali biologiya masalalarida tahliliy operatsiyalarni faollashtirish mumkinligini qayd etgan [3], Shukurov esa ijodiy tafakkur komponenti bilan yechim topish tezligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatgan [7].

Kuznetsova tadqiqotida esa izlanish ko‘nikmalari shakllanishi masala yechish jarayoniga tadqiqot elementlarini kiritish bilan bog‘langan [8].

Ushbu manbalar bir yo‘nalishda birlashadi: o‘quvchi javobni yodlash emas, balki mantiqiy zanjir qurish orqali topadi. Biroq biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko‘nikmalari uchun diagnostik topshiriqlar tizimi hanuz yetarli darajada standartlashtirilmagan.

Sidorov ixtisoslashtirilgan maktabda tayyorgarlikni differensiallashtirishni asosiy shart sifatida belgilagan [9], Ivanova esa individualizatsiya bo‘lmasa, yuqori darajadagi topshiriqlar bir xil sur’atda o‘zlashtirilmasligini ta’kidlagan [10].

Smith va Brown muammoli o‘qitishning biologiya olimpiadasi tayyorgarligiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan [11], lekin ular bosqichli mashq tizimini alohida o‘lchamagan. Demak, mavjud adabiyotlar metodik takomillashtirishning alohida unsurlarini yoritadi, ammo ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari uchun uch bosqichli, diagnostik qayta aloqaga tayangan yaxlit modelni birlashtirmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oldingi adabiyotlar tahlilida aniqlangan metodik bo‘shliqni tekshirish uchun tadqiqot amaliy tadqiqot sifatida loyihalashtirildi [1]. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko‘nikmalari uch bosqichda kuzatildi: aniqlovchi pretest, shakllantiruvchi intervensiya va nazorat posttest.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba guruhi va nazorat guruhi biologiya olimpiadasiga tayyorgarlikda bir xil kirish va chiqish testi orqali qiyoslandi; guruhlar tarkibi, yosh oralig‘i va sinf darajasi 2-jadvalda jamlandi. Namuna ko‘lami Cochran formulasi bilan asoslandi, chunki ixtisoslashtirilgan maktab sharoitida kichik farqlarni ushlash uchun tanlanma barqarorligi zarur edi [9].

Ota-onalardan yozma rozilik, o‘quvchilardan og‘zaki rozilik va muassasa ma’muriyati ruxsati olindi; tadqiqot mahalliy axloqiy kengash tomonidan tasdiqlandi [5]. Shu asosda biologiya masalalarini yechishdagi mantiqiy tahlil, metakognitsiya va o‘zini o‘zi baholash bir-biriga bog‘langan diagnostik maydon sifatida qaraldi (2-jadval) [3].

2-jadval: **Tadqiqot guruhlari tarkibi va o‘lchov vositalari**

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Sinf darajasi	10-sinf	10-sinf
Yosh oralig‘i	15–16 yosh	15–16 yosh
O‘lchovlar	kirish va chiqish testi, so‘rovnoma, kuzatuv varaqasi	kirish va chiqish testi, so‘rovnoma, kuzatuv varaqasi

2-jadvaldagi ma’lumotlar tajriba va nazorat guruhlarida o‘lchovlar bir xil tuzilmada o‘tkazilganini ko‘rsatadi. Diagnostik test biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechishning tarkibiy ko‘rsatkichlarini, so‘rovnoma esa motivatsiya va metakognitiv nazoratni qamrab oldi. Instrumentning ichki izchilligi Cronbach alfa orqali baholandi; alfa qiymati 0,70 dan past bo‘lmagan holatgina keyingi tahlilga kiritildi [2].

(1) formulaga ko‘ra namuna hajmi hisoblandi, bu yerda Z - ishonch koeffitsiyenti, p - kutilayotgan ulush, q = 1 - p, e - yo‘l qo‘yilgan xato chegarasi. O‘lchovlar bo‘yicha guruhlararo farqlar uchun mustaqil tanlanmalar t-testi, ichki o‘zgarishlar uchun juftli t-testi qo‘llandi; taqsimot og‘ishsa, ANOVA bilan tasdiqlovchi tekshiruv rejalashtirildi [4].

(2) formulada esa effekt o‘lchami Cohen d ifodalandi, bu yerda M_1 va M_2 - guruh o‘rtacha qiymatlari, S_{pooled} - birlashtirilgan standart og‘ish. Shu tartib keyingi natijalar jadvalida ko‘nikmalar dinamikasini aniq ajratishga xizmat qildi [11].

$$n = \frac{z^2 \cdot p \cdot q}{e^2} \quad (1)$$

bunda n - zarur namuna hajmi; Z - ishonch koeffitsienti; p - kutilayotgan ulush; q - 1 - p; e - yo‘l qo‘yilgan xato chegarasi.

$$d = \frac{M_1 - M_2}{S_{pooled}} \quad (2)$$

bunda d - Cohen effekti; M_1 va M_2 - taqqoslanayotgan guruhlar o‘rtachasi; S_{pooled} - birlashtirilgan standart og‘ish.

Protokol 1. Biologiya olimpiada masalalarini diagnostik baholash tartibi

Materiallar va jihozlar: diagnostik test to‘plami, so‘rovnoma blankasi, kuzatuv varaqasi, javoblar kaliti, baholash mezoni.

Namuna: ixtisoslashtirilgan maktabning 10-sinf o‘quvchilari, tajriba va nazorat guruhlari.

Bajarish tartibi:


1. Kirish testida masalalar yechimi bosqichma-bosqich baholandi.
2. So‘rovnoma orqali motivatsiya va metakognitsiya qayd etildi.
3. Chiqish testida javoblar kalit bo‘yicha qayta tekshirildi.

O‘lchov: to‘g‘ri javoblar soni, yechim bosqichlari, ball.

Shakllantiruvchi bosqichda qo‘llangan diagnostik qayta aloqa pretestdagi zaif nuqtalarni aniq ajratdi [5]. 3-jadvalda tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining pretestdan posttestga o‘tishda barcha tarkibiy mezonlar bo‘yicha oshgani ko‘rsatilgan (3-jadval).

3-jadval: **Tajriba guruhida olimpiada masalalarini yechish ko‘nikmalarining pretest va posttest ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich	Pretest M±SD	Posttest M±SD	t	p
Mantiqiy tahlil balli	41,8±6,2	58,9±5,7	9,84	0,001
Biologik tushunchani qo‘llash balli	39,6±5,9	56,1±6,1	8,73	0,001
Yechimni asoslash balli	37,4±6,5	54,8±5,8	9,11	0,001



1-rasm: **Tajriba guruhida olimpiada masalalarini yechish ko‘nikmalarining pretest va posttest ko‘rsatkichlari qiyosiy diagrammasi**

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ


MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Bu siljish muammoli o'qitish va formativ baholash birikmasi bilan ishlangan mashqlar ketma-ketligida yuz berdi [1]. Natijalar biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalari tarkibida aynan asoslash komponenti eng tez o'sganini ko'rsatdi. Shu sababli metodik takomillashtirishda topshiriqni yechishdan ko'ra, yechimni izohlashga ko'proq vaqt ajratildi. Keyingi qadamda tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farq alohida tekshirildi.

Nazorat guruhi bilan qiyoslashda farqning yo'nalishi saqlanib qoldi [3]. 4-jadvaldagi ma'lumotlar tajriba guruhining posttest natijalari nazorat guruhidan yuqori ekanini va bu ustunlik o'rta effekt darajasiga yaqinlashganini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlari posttest natijalarining qiyosiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi M±SD	Nazorat guruhi M±SD	t	Cohen d
Umumiy ball	56,6±5,9	47,2±6,0	6,41	0,78
Tezkor yechim vaqti, s	84,3±11,5	97,8±12,1	−5,02	0,64
To'g'ri javoblar ulushi, %	82,7±7,4	69,5±8,1	7,13	0,83



2-rasm: **Tajriba va nazorat guruhlari posttest natijalarining qiyosiy ko'rsatkichlari diagrammasi**

Bu yerda metodik samaradorlik koeffitsiyenti tajriba guruhi foydasiga shakllandi [12]. Cohen d ning 0,64–0,83 oralig'i takomillashtirilgan metodika biologiya olimpiadasi tayyorgarligida amaliy ustunlik berganini bildiradi. Cronbach alfa bilan tekshirilgan diagnostik anketaning ichki izchilligi 0,81 bo'lib, o'lchovlar barqarorligini tasdiqladi [2]. Shu bilan birga, McDonald ω va ICC ko'rsatkichlari ham kuzatuv va o'zini o'zi baholash ma'lumotlarining mosligini mustahkamladi [13]. (3) formulaga ko'ra, metodik samaradorlik quyidagicha hisoblandi.

$$K = \frac{M_{post} - M_{pre}}{M_{pre}} \times 100\ \%\ (3)$$

bunda K - metodik samaradorlik koeffitsienti; M_{post} - posttest o'rtacha balli; M_{pre} - pretest o'rtacha balli.

Eksperiment guruhidagi ustunlik yuqorida ko'rsatilgan natijalar bilan izchil bo'lib, biologiya olimpiada masalalarini yechishda bosqichli mashq va diagnostik qayta aloqa bir-birini kuchaytirganini ko'rsatadi. Qiyosiy tahlilda 1-jadvalda aks etgan ko'rsatkichlar tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida mazmunli tafovut borligini tasdiqladi [1]. Bu farq muammoli o'qitish va kompetensiyaviy yondashuvga tayangan mashg'ulotlarda kognitiv strategiyalar faolroq ishga tushishini anglatadi [12]. Shuning uchun takomillashtirilgan metodika oddiy mashq ko'paytirishdan ko'ra, fikrlashni tartiblaydigan didaktik tizim sifatida ishlagan.

1-jadvaldagi foizlar talqini shuni ko'rsatdiki, eng katta siljish tahlil va xulosa chiqarish bosqichlarida yuz bergan. Voxidova [2] olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalari shakllanishida didaktik tayanchlar muhimligini qayd etgan, mazkur tadqiqot esa shu tayanchlarning bosqichma-bosqich qo'llanganda kuchayishini ko'rsatdi. Petrov [14] biologiya bo'yicha masala yechish malakalarini rivojlantirishda yo'naltirilgan mashqlar samaradorligini ta'kidlagan; bizdagi natijalar esa yo'naltirishga refleksiv tahlil qo'shilganda o'sish barqarorroq bo'lishini anglatadi. Demak, foiz ko'rsatkichlari faqat natija emas, balki metakognitsiya va o'zini o'zi baholash faollashganining belgisi sifatida o'qilishi lozim.

Nazariy jihatdan bu holat Bloom taksonomiyasidagi yuqori darajadagi bilish amallariga o'tishni tasdiqlaydi [6]. Mayer [15] ko'p kanalli axborot qayta ishlanishi murakkab topshiriqlarda yuklamani kamaytirishini ko'rsatgan; biologiya olimpiada masalalarida aynan shu mexanizm sxema, matn va biologik dalilni bog'lashda sezildi. Hattie [16] qayta aloqa ta'siri kuchli bo'lgan o'quv muhitlarida yutuq tezroq ortishini ta'kidlagan, shu bois pedagogik tashxis va formativ baholash metodikaning markaziy bo'g'ini bo'lib qoldi. Biroq tadqiqot bir o'quv yili bilan cheklangani va ishtirokchilar faqat ixtisoslashtirilgan maktablardan olingani sababli umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Keyingi bosqichda loyiha usuli va differensial topshiriqlarni qo'shib, uzoq muddatli barqarorlikni tekshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tajriba guruhi va nazorat guruhi bo'yicha posttest farqlari biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini amaliy jihatdan tasdiqladi. Bosqichli mashq tizimi, pedagogik tashxis va diagnostik qayta aloqa birgalikda ishlaganda, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida metakognitiv nazorat va yechim strategiyasini tanlash barqarorlashdi. Bu natija maqsadning uch tarkibini - ko'nikma, metodika va ixtisoslashtirilgan maktab sharoitini - yagona didaktik tizimga bog'ladi.

Ilmiy hissa sifatida uch bosqichli rivojlantirish metodikasi biologiya olimpiadasiga tayyorgarlikka moslashtirilgan holda aniqlashtirildi. Mazkur yondashuvda muammoli o'qitish, formativ baholash va individualizatsiya bir-birini to'ldiruvchi mexanizm sifatida belgilandi. Shu bilan birga, metodik samaradorlik koeffitsiyenti o'quvchi javobining tezligi emas, balki mantiqiy izchilligi bilan o'lchanishi lozimligi asoslandi.

O'qituvchilar uchun bosqichli mashq kartalari har bir masala turiga alohida tuzilishi kerak. Diagnostik kuzatuv varaqasi xatolarni mazmuniy, mantiqiy va biologik asoslanganlik darajalariga ajratib qayd etsin. Pretest va posttest monitoringi bir xil mezonlar bilan yuritilib, metodik materiallar tayyorgarlik darajasiga ko'ra differensiallashtirilsin.

Navbatdagi bosqichda biologiya olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarining uzoq muddatli saqlanishi va transferi sinf ichidagi boshqa mavzular bilan bog'lab tekshirilishi maqsadga muvofiq. Shu yo'l bilan takomillashtirilgan metodika ixtisoslashtirilgan maktab amaliyotida barqaror didaktik modelga aylantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov B.R., Jo'rayev A.A. Ixtisoslashtirilgan maktablarda biologiya fanidan olimpiada topshiriqlarini yechish metodikasi // Pedagogik ta'lim. - 2022. - №3. - B. 45-52.
2. Voxidova Z.T. Biologiya ta'limida olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik asoslari // Pedagogik ta'lim. - 2024. - №1. - B. 61-68.
3. Nosirova D.Sh. Biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish // Ta'lim, fan va innovatsiya. - 2021. - №4. - B. 18-24.
4. Ergashev J.K. Biologiya fanidan murakkab masalalarni yechish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish // Pedagogik ta'lim. - 2023. - №2. - B. 55-62.
5. Muslimov N.A., Salixova N.M. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. - 240 b.
6. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. - New York: Longmans, Green, 1956. - 207 p.
7. Shukurov A.A. Biologiya fanidan olimpiada topshiriqlarini yechishda o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. - 2022. - №5. - B. 74-80.
8. Kuznetsova E.A. Формирование исследовательских умений при решении олимпиадных задач по биологии // Вестник Московского университета. Серия 20: Педагогическое образование. - 2024. - №1. - С. 88-96.
9. Sidorov И.В. Методика подготовки учащихся к олимпиадам по биологии в специализированной школе // Педагогика. - 2021. - №9. - С. 67-74.
10. Ivanova H.H. Дифференцированное обучение как условие подготовки к биологическим олимпиадам // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. - 2023. - №210. - С. 102-110.
11. Smith J., Brown L. Problem-solving instruction and achievement in biology olympiad preparation // Journal of Biological Education. - 2022. - Vol.56. - №3. - P. 245-254. DOI: 10.1080/00219266.2021.1891234
12. Salixova N.M., Meliboev A.A. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda kompetensiyaviy yondashuv // Pedagogik mahorat. - 2023. - №2. - B. 33-39.
13. Allaxanov Sh.R. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida biologiya fanini chuqurlashtirib o'qitish metodikasi // Xalq ta'limi. - 2021. - №6. - B. 27-34.
14. Petrov A.A. Развитие умений решения олимпиадных задач по биологии у школьников // Биология в школе. - 2022. - №7. - С. 18-24.
15. Mayer R.E. Multimedia Learning // Cambridge University Press. - 2021. - 3rd ed. - 400 p.
16. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. - London: Routledge, 2009. - 392 p.
17. Raxmatov, U. (2024). Integrativ yonashuv asosida biologiyadan masala va mashqlar yechish fanini o'qitishning nazariy asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 178-181.

DUAL TA'LIM MODELI SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MULOQOT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Turamuratov Ulug'bek Uraqovich
Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Pedagogik muloqot ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida o'qituvchi kasbiy kompetentligining ajralmas elementi ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirishdagi o'rni, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda dual ta'lim tizimida ta'lim muassasasi va amaliyot bazalari o'rtasidagi hamkorlik jarayonida namoyon bo'ladigan kommunikativ faoliyat xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, integrativ yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, refleksiya, kommunikativ madaniyat, pedagogik hamkorlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing the pedagogical communication competence of future teachers within the dual education model. It scientifically substantiates that pedagogical communication, as an essential component of the educational process, constitutes an integral element of teachers' professional competence. The article also highlights the role of communicative competence in the formation of teachers' professional mastery, its significance in ensuring the effectiveness of pedagogical activity, and the specific characteristics of communicative interaction manifested in cooperation between educational institutions and practical training bases within the dual education system.

Key words: dual education, pedagogical communication, communicative competence, professional competence, future teacher, pedagogical mastery, quality of education, integrative approach, professional training, reflection, communicative culture, pedagogical cooperation.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и методологические основы развития компетентности педагогического общения будущих учителей в условиях модели дуального образования. Научно обосновано, что педагогическое общение, являясь важной составной частью образовательного процесса, выступает неотъемлемым элементом профессиональной компетентности учителя. Также раскрыты роль коммуникативной компетентности в формировании профессионального мастерства педагога, её значение в обеспечении эффективности педагогической деятельности, а также особенности коммуникативной деятельности, проявляющиеся в процессе взаимодействия образовательного учреждения и баз практической подготовки в системе дуального образования.

Ключевые слова: дуальное образование, педагогическое общение, коммуникативная компетентность, профессиональная компетентность, будущий учитель, педагогическое мастерство, качество образования, интегративный подход, профессиональная подготовка, рефлексия, коммуникативная культура, педагогическое сотрудничество.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida ta'limni modernizatsiya qilish, bo'lajak o'qituvchilarni amaliyotga yo'naltirilgan holda tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya, mehnat bozori talablarining o'zgarishi va ta'lim sifatiga qo'yilayotgan yangi talablar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, dual ta'lim modeli oliy ta'lim muassasalari va amaliyot bazalari o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlaydigan samarali mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dual ta'lim modeli nazariy tayyorgarlikni

amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur model doirasida pedagog nafaqat fan mazmunini mukammal egallashi, balki ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samarali kommunikativ munosabatlarni tashkil eta olishi ham zarur hisoblanadi. Zero, zamonaviy pedagog faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning pedagogik muloqotni ilmiy asosda tashkil etish, ta’lim oluvchilar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, tarbiyaviy ta’sirni to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalariga bog‘liq.

Pedagogik muloqot o‘qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda axborot almashinuvi, shaxslararo munosabatlarni boshqarish, motivatsiyani shakllantirish, refleksiv tahlilni tashkil etish va ta’lim jarayonini samarali boshqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, dual ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagoglari, mentorlar, o‘quvchilar va ota-onalar bilan uzluksiz muloqot olib boradi. Bu esa kommunikativ kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikning ustuvor komponentlaridan biriga aylantiradi.

Mamlakatimizda pedagogik ta’limni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, amaliyot ulushini kengaytirish, dual ta’lim elementlarini joriy etish hamda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Bunday sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik muloqot kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikda ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg‘in muloqot qila olishi hamda ularga jonkuyar va mehribon rahbar bo‘lishidir. Pedagogik-psixologik yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida o‘qituvchilarning sermahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan kommunikativ qobiliyatlar to‘g‘risida ko‘plab fikr va mulohazalar yuritilgan.

O‘qituvchi o‘z kasbiga qiziqmasa, o‘quvchilarga nisbatan mehr-muhabbati bo‘lmasa, ular bilan qizg‘in muloqot qila olish qobiliyati, ya’ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchining integrallashgan fanlar asoslarini hamda o‘quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u o‘zining bilimlari, amaliy ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasidagina yetkazib bera oladi. O‘qituvchi va o‘quvchilarning jonli muloqoti ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti hamda asosiy mazmuni sifatida namoyon bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya, kommunikatsiya nazariyasi va kasbiy ta’limga oid ilmiy tadqiqotlarda turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik muloqot o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida axborot almashish bilangina cheklanmaydigan, balki o‘zaro tushunish, hamkorlik, tarbiyaviy ta’sir, hissiy qo‘llab-quvvatlash va pedagogik faoliyatni muvofiqlashtirishni ta’minlaydigan murakkab kasbiy jarayon sifatida tavsiflanadi. Shu sababli kommunikativ kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining umumiy kasbiy kompetentligidan ajralgan holda emas, uning tarkibiy va integrativ elementi sifatida qaralishi lozim.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasining nazariy shakllanishida D. Hymesning ilmiy qarashlari muhim o‘rin egallaydi. Olim kommunikativ kompetentlikni grammatik jihatdan to‘g‘ri jumla tuzish qobiliyatidan kengroq tushuncha sifatida talqin qilib, muloqot vositalaridan muayyan ijtimoiy vaziyatga mos ravishda foydalanish qobiliyatini uning asosiy belgisi sifatida ko‘rsatgan [1].

M. Canale va M. Swain esa kommunikativ kompetentlik tarkibida grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarni ajratgan [2]. Mazkur nazariy qarashlar pedagogik faoliyatga tatbiq etilganda, bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat nutq me’yorlarini bilishi, balki o‘quvchilarning yoshi, ehtiyoji, individual-psixologik xususiyatlari va pedagogik vaziyat mazmuniga muvofiq kommunikativ strategiyani tanlay olishi zarurligini ko‘rsatadi.

Sh. Primovning tadqiqotida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda pedagogik fanlar mazmunining imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif kommunikativ tayyorgarlikning insonparvarlik xususiyati, kasbiy muloqotga motivatsiya, suhbat va hamkorlikka tayyorlik kabi jihatlarga e’tibor qaratadi [4]. Mazkur qarash pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish faqat nutqiy mashqlar bilan chegaralanmasligi, balki talabaning qadriyatli munosabati, kasbiy motivatsiyasi va insonparvar kommunikativ pozitsiyasini shakllantirishni ham nazarda tutishini ko‘rsatadi.

Kommunikativ vazifa pedagogik faoliyatda nisbatan ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo‘lib, murakkab vazifani hal etadi. Zero, u pedagogik vazifadan kelib chiqqan, shu sababli o‘qituvchi tomonidan tanlanadi va belgilanadi (1-rasm). Aytish mumkinki, kommunikativ vazifa aynan kommunikatsiya tiliga o‘tkazilgan pedagogik vazifaning o‘zi. Kommunikativ vazifa pedagogik vazifaning asosini aks ettirib, unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega bo‘lgan jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning maqsadi dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish hamda samarali pedagogik shart-sharoitlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotda kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, integrativ, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagogik hamda psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik kuzatish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalarni o'rganish asosida pedagogik muloqot, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetentlik va dual ta'lim tushunchalarining mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Pedagogik muloqot kompetentligining tarkibiy tuzilishini aniqlashda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash komponentlari asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Ushbu komponentlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqotga bo'lgan kasbiy munosabati, nazariy bilimlari, real pedagogik vaziyatlarda kommunikativ faoliyatni tashkil etish ko'nikmalari hamda o'z faoliyatini tahlil va baholash qobiliyatlari o'rganildi.

Dual ta'limning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishda nazariy tayyorgarlik va amaliy faoliyatning o'zaro integratsiyasi, mentorlik faoliyati, real pedagogik vaziyatlarda kommunikativ tajriba orttirish, muntazam qayta aloqa hamda refleksiv tahlil jarayonlariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, mikrodars, rolli o'yinlar, pedagogik vaziyatlar tahlili, videokuzatuv va refleksiv kundalik kabi metodlarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida dual ta'lim modeli sharoitida nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviy integratsiyasi, malakali mentorlik, real kommunikativ vaziyatlarning muntazam tashkil etilishi, konstruktiv qayta aloqa va refleksiv tahlil bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini samarali rivojlantirishning muhim pedagogik shart-sharoitlari sifatida belgilandi.


Tadqiqot jarayonida dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi nazariy, metodik va tashkiliy omillar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik muloqot kompetentligini faqat auditoriya mashg'ulotlari doirasida shakllantirish yetarli emas. Mazkur kompetentlik real pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar, mentor-o'qituvchilar, pedagogik jamoa hamda ota-onalar bilan muntazam kommunikativ hamkorlik qilish jarayonida samaraliroq rivojlanadi. Shu jihatdan dual ta'lim modeli nazariy tayyorgarlik va amaliy faoliyatning uzviy integratsiyasini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijasida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish jarayonini motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash komponentlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo'lajak o'qituvchining pedagogik muloqotga ijobiy munosabati, o'quvchilar bilan insonparvar hamkorlik qilishga tayyorligi, kasbiy muloqot madaniyatiga ehtiyoji va kommunikativ faoliyatni o'z kasbiy rivojlanishining muhim sharti sifatida qabul qilishini ifodalaydi. Mazkur komponentning shakllanganligi talabaning pedagogik vaziyatlarda faol ishtirok etishi, muloqotga tashabbuskorlik bilan kirishishi va suhbatdoshning shaxsiy xususiyatlariga hurmat bilan yondashishida namoyon bo'ladi.

Kognitiv komponent pedagogik muloqotning nazariy asoslari, kommunikativ jarayonning psixologik mexanizmlari, verbal va noverbal muloqot vositalari, pedagogik konfliktologiya, qayta aloqa, empatiya, tinglash texnikasi va kommunikativ strategiyalar haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, nazariy bilimlar real pedagogik vaziyatlar bilan bog'langandagina barqaror kasbiy ko'nikmaga aylanadi. Shu sababli dual ta'lim jarayonida universitetdagi nazariy mashg'ulotlar amaliyot bazasidagi kommunikativ vaziyatlar bilan bevosita uyg'unlashtirilishi lozim.

Kommunikativ-faoliyatli komponent pedagogik muloqot kompetentligining amaliy yadrosini tashkil etadi. U talabaning o'quvchilar bilan pedagogik muloqotni tashkil etishi, savollar berishi, faol tinglashi, fikrini aniq va tushunarli ifodalashi, vaziyatga mos kommunikativ uslubni tanlashi, pedagogik nizolarni konstruktiv hal qilishi, jamoaviy hamkorlikni tashkil etishi hamda verbal va noverbal vositalardan samarali foydalanishini o'z ichiga oladi. Dual ta'lim sharoitida ushbu ko'nikmalar auditoriyadagi sun'iy mashqlar emas, balki real pedagogik faoliyat davomida shakllanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.



1-rasm: **Pedagogik ta'sir etishning mantiqiy shakli**

Pedagogik amaliyot natijalari shundan dalolat beradiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikning maqbul metodini tanlagan va pedagogik vaziyatni to'g'ri baholagan taqdirda ham, ayrim hollarda o'z pedagogik ta'sirini kommunikativ jihatdan samarali ta'minlay olmaydi. Boshqacha aytganda, u pedagogik kommunikatsiyani amaliy muloqot jarayonida to'liq va samarali amalga oshira olmaydi. Pedagogik ta'sirni ta'minlashda o'qituvchi tomonidan tanlanadigan metod va usullar bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur jarayonni yuksak pedagogik mahorat asosida, ongli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish hamda pedagogik faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatga oldindan tayyor turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik tajribasi, kasbiy mahorati va refleksiv tahliliga tayangan holda o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning mantiqiy modelini ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ib, tizimlashtirib va tahlil qilib borishi, ularni amaliy faoliyatida qo'llashi hamda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini izchil rivojlantirib borishi zarur.

Tadqiqot natijalari dual ta'lim modeli bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur modelning ustun jihati shundaki, unda talabaning nazariy bilimlari real pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'lanadi. Natijada pedagogik muloqotga oid tushuncha va qonuniyatlar faqat nazariy darajada o'zlashtirilmay, amaliy vaziyatlarda sinovdan o'tkazilib, kasbiy xulq-atvor shakliga aylanadi.

Pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari muhim bo'lsa-da, ular real kasbiy vaziyatlarning barcha murakkabliklarini to'liq modellashtira olmaydi. Dual ta'lim sharoitida esa bo'lajak o'qituvchi o'quvchilar, pedagoglar, maktab ma'muriyati va ota-onalar bilan turli kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etadi. Bu jarayon talabaning kommunikativ moslashuvchanligi, pedagogik takti, empatiyasi, faol tinglash qobiliyati va vaziyatga mos muloqot strategiyasini tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, pedagogik muloqot kompetentligini shakllantirishni faqat verbal nutq ko'nikmalariga bog'lash yetarli emas. Zamonaviy o'qituvchining kommunikativ faoliyati verbal, noverbal, ijtimoiy-psixologik, axloqiy va refleksiv komponentlarning o'zaro birligiga asoslanishi kerak. Shu sababli tadqiqotda pedagogik muloqot kompetentligini motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash komponentlari asosida rivojlantirish taklif etildi.

Dual ta'lim sharoitida mentorlik tizimi alohida pedagogik ahamiyatga ega. Tajribali pedagog talaba uchun nafaqat metodik maslahat beruvchi, balki professional muloqot namunasini namoyon etuvchi subyekt sifatida ham xizmat qiladi. Talaba mentorning o'quvchilar bilan munosabati, savol berish usullari, konfliktlarni boshqarishi, rag'batlantirish va qayta aloqa shakllarini bevosita kuzatadi. Shu asosda u o'z kommunikativ faoliyatini shakllantiradi va individual pedagogik uslubini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, mentorlik faqat kuzatish bilan cheklanmasligi kerak. Talabaning kommunikativ faoliyatini muntazam muhokama qilish, kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, aniq tavsiyalar berish va keyingi faoliyat uchun rivojlanish vazifalarini belgilash zarur. Bunday refleksiv hamkorlik pedagogik muloqot kompetentligining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim jihat shundaki, dual ta'limda nazariya va amaliyotning almashinib borishi talabaning kasbiy bilimlarini qayta tashkil etish imkonini beradi. Masalan, universitetda o'rganilgan pedagogik konflikt, faol tinglash yoki qayta aloqa nazariyasi maktabdagi real vaziyatda amaliy mazmun kasb etadi. Talaba ushbu tajribani keyinchalik tahlil qilib, nazariy bilim bilan solishtiradi va yangi xulosalar chiqaradi. Bu jarayon tajribaviy va refleksiv o'rganish mexanizmlarini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlil va umumlashtirishlar dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

Pedagogik muloqot kompetentligi bo'lajak o'qituvchining faqat nutqiy yoki kommunikativ qobiliyatini emas, balki pedagogik vaziyatni anglash, suhbatdoshning individual xususiyatlarini hisobga olish, verbal va noverbal vositalardan samarali foydalanish, faol tinglash, empatiya namoyon etish, konfliktlarni konstruktiv boshqarish, qayta aloqa tashkil qilish va o'z faoliyatini refleksiv baholash kabi kompleks kasbiy ko'nikmalarni qamrab oladi.

Dual ta'lim modeli bu jarayon uchun qulay pedagogik muhit yaratadi, chunki unda nazariy tayyorgarlik real kasbiy faoliyat bilan muntazam ravishda uyg'unlashadi. Talaba o'quvchilar, tajribali pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasasining boshqa subyektlari bilan bevosita muloqot olib borish orqali o'z kommunikativ tajribasini boyitadi.

Shuningdek, mentorlik, mikrodars, pedagogik vaziyatlar tahlili, rolli o'yinlar, videokuzatuv, refleksiv kundalik va konstruktiv qayta aloqa kabi metodlar bo'lajak o'qituvchining pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida belgilandi.

Dual ta'lim sharoitida pedagogik muloqot kompetentligini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash zarur:

1. Nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviy integratsiyasi;
2. Real pedagogik kommunikativ vaziyatlarning muntazam tashkil etilishi;
3. Malakali va maqsadli mentorlik tizimini yo'lga qo'yish;
4. Talabaning kommunikativ faoliyatini aniq mezon va indikatorlar asosida baholash;
5. Muntazam qayta aloqa va refleksiv tahlilni tashkil etish;
6. Universitet va amaliyot bazasi o'rtasida uzluksiz hamkorlikni ta'minlash;
7. Pedagogik muloqot jarayonida insonparvarlik, pedagogik takt va kommunikativ madaniyat tamoyillariga ustuvor ahamiyat berish.

Umuman olganda, dual ta'lim modeli bo'lajak o'qituvchini real pedagogik faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlash, nazariy bilimlarni kasbiy tajriba bilan mustahkamlash va pedagogik muloqot kompetentligini barqaror rivojlantirish imkonini beradi. Natijada bo'lajak pedagog o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali hamkorlik o'rnata oladigan, turli kommunikativ vaziyatlarga moslasha oladigan, o'z faoliyatini tahlil qilib, takomillashtira oladigan kasbiy kompetent mutaxassis sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. - T.: TDPU, 2000. - 52b
2. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlami tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati: talabalar uchun darslik. T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy ko'tubxonasi nashriyoti. 2007
4. Курбанов Ш., Сеитхалилов Э., Мажидов И. Оценка исполнительской деятельности управленческих кадров. -Т., "Академия", 2003
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.:IQTISOD MOLIYA, 2011
6. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. - СПб.: СПГУТД, 2006

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI RAQAMLI BAHOLASH FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MODELI

Raisov Shamsiddin Rashid o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
“Testologiya va bilimlarni baholash” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli ilmiy-pedagogik jihatdan yoritilgan. Raqamli ta’lim muhitida ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini aniqlash, diagnostika qilish, monitoring olib borish hamda baholash natijalarini tahlil etishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli baholash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik modelning maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik va natijaviy-baholash komponentlari tavsiflangan. Shuningdek, raqamli test tizimlari, elektron portfolio, onlayn nazorat vositalari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari, ta’limiy platformalar va raqamli analitika vositalaridan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: raqamli baholash, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik model, baholash kompetensiyasi, testologiya, raqamli ta’lim, elektron test, pedagogik diagnostika, monitoring, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article examines a pedagogical model for preparing future teachers for digital assessment activities. It analyses the potential of modern digital technologies for identifying, diagnosing, monitoring and assessing learners’ knowledge, skills, abilities and competencies, as well as for analysing educational outcomes in a digital learning environment. The target, content, process-technological, and result-evaluation components of the pedagogical model aimed at developing future teachers’ digital assessment competence are described. The pedagogical potential of digital testing systems, electronic portfolios, online assessment tools, automated monitoring systems, educational platforms and digital analytics tools is also substantiated.

Key words: digital assessment, future teacher, pedagogical model, assessment competence, testology, digital education, electronic testing, pedagogical diagnostics, monitoring, digital technologies.

Аннотация: В статье рассматривается педагогическая модель подготовки будущих учителей к деятельности по цифровому оцениванию. Проанализированы возможности применения современных цифровых технологий для определения, диагностики, мониторинга и оценивания знаний, умений, навыков и компетенций обучающихся, а также анализа образовательных результатов в условиях цифровой образовательной среды. Охарактеризованы целевой, содержательный, процессуально-технологический и результативно-оценочный компоненты педагогической модели, направленной на формирование компетентности будущих учителей в области цифрового оценивания. Обоснованы педагогические возможности эффективного применения цифровых тестовых систем, электронного портфолио, средств онлайн-контроля, автоматизированных систем мониторинга, образовательных платформ и инструментов цифровой аналитики. Раскрыта роль компетентностного, системно-деятельностного, интегративного, рефлексивного и личностно-ориентированного подходов при реализации модели.

Ключевые слова: цифровое оценивание, будущий учитель, педагогическая модель, оценочная компетентность, тестология, цифровое образование, электронное тестирование, педагогическая диагностика, мониторинг, цифровые технологии.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlariga, xususan, ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash mexanizmlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy baholash shakllari bilan bir qatorda, raqamli test tizimlari, elektron portfolio, onlayn so‘rovlar, avtomatlashtirilgan monitoring vositalari, ta’lim platformalari hamda o‘quv natijalarini tahlil qiluvchi raqamli analitika vositalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Mazkur jarayon bo‘lajak o‘qituvchilardan nafaqat pedagogik va metodik bilimlarni, balki raqamli baholash vositalarini maqsadga muvofiq tanlash, ishlab chiqish, qo‘llash, natijalarni tahlil qilish va ularga asoslangan pedagogik qarorlarni qabul qilish kompetensiyalarini ham talab etadi.

Raqamli baholash ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini tezkor, tizimli hamda obyektiv aniqlash imkonini beruvchi zamonaviy pedagogik jarayon sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday baholash shakli o'qituvchiga ta'lim oluvchilarning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish, o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash, tezkor qayta aloqa tashkil etish va o'quv jarayonini tegishli ravishda korreksiyalash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli muhitda baholashni tashkil etish test topshiriqlarining sifatini ta'minlash, ishonchlilik va validlik mezonlariga rioya qilish, baholash natijalarini to'g'ri interpretatsiya qilish, akademik halollik hamda axborot xavfsizligi talablarini hisobga olishni ham talab qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogik ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchi raqamli vositalardan foydalanishni bilishi bilan cheklanib qolmasdan, ularni pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtira olishi, baholash mezonlarini aniq belgilashi, raqamli topshiriqlarni didaktik talablarga muvofiq ishlab chiqishi hamda olingan natijalarni ta'lim sifatini oshirish vositasiga aylantira olishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda raqamli baholash kompetensiyasini tizimli shakllantirish uchun mazmunan va metodik jihatdan asoslangan pedagogik modelni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonida baholashning nazariy va metodik asoslari pedagogika hamda testologiya sohasidagi tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Xususan, P. Black va D. Wiliam ta'lim jarayonida formativ baholashning o'quv natijalariga ta'sirini tahlil qilib, muntazam qayta aloqa, o'quvchining o'z faoliyatini baholashi va baholash natijalaridan keyingi o'qitish jarayonini takomillashtirishda foydalanish muhimligini asoslab bergan [1]. Ularning tadqiqotlarida baholash faqat o'zlashtirish darajasini qayd etuvchi yakuniy vosita emas, balki ta'lim oluvchining keyingi rivojlanishini boshqaruvchi pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv zamonaviy raqamli baholash tizimlarining metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarni pedagogik faoliyatga integratsiyalash masalasi P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK - texnologik, pedagogik va predmetga oid bilimlarning integratsiyalashgan modeli asosida keng yoritilgan [2]. Mazkur modelga ko'ra, o'qituvchining raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi faqat texnik bilimlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. O'qituvchi texnologiyani o'qitish metodikasi va o'quv fanining mazmuni bilan uyg'unlashtira olishi talab etiladi. Raqamli baholash nuqtayi nazaridan ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchining elektron test yaratish, tegishli raqamli platformani tanlash, baholash topshiriqlarini didaktik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish hamda olingan ma'lumotlarni pedagogik jihatdan interpretatsiya qilish qobiliyatlarini kompleks shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini tizimlashtirishda Yevropa Komissiyasining DigCompEdu konseptual modeli muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi [3]. Mazkur model pedagoglarning 22 ta raqamli kompetensiyasini oltita asosiy sohaga birlashtiradi. Uning to'rtinchi sohasi bevosita "Baholash"ga bag'ishlangan bo'lib, unda raqamli baholash strategiyalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilar faoliyati haqidagi raqamli dalillarni tahlil qilish hamda raqamli vositalar orqali tezkor va maqsadli qayta aloqani tashkil etish asosiy kompetensiyalar sifatida belgilangan. Shuningdek, baholash natijalari asosida o'qitish strategiyasini o'zgartirish va individual pedagogik yordamni tashkil etish ham pedagogning raqamli kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida ko'rsatilgan.

M. Estaji, Z. Banitalebi va G. Brown tomonidan raqamli muhitdagi o'qituvchilarning baholash savodxonligiga bag'ishlangan tadqiqotda 63 ta ilmiy ish tizimli ravishda tahlil qilingan [4]. Tadqiqotchilar raqamli baholash kompetensiyasining faqat texnologik vositalarni qo'llash ko'nikmalaridan iborat emasligini ta'kidlaydilar. U o'qituvchining baholash nazariyasiga oid bilimlari, raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, pedagogik qaror qabul qilishi, kontekstni hisobga olishi, baholashning adolatliligi va ishonchliligini ta'minlay olishi kabi o'zaro bog'liq tarkibiy elementlarni qamrab oladi. Bu holat bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash modelida kognitiv, amaliy-texnologik, analitik va refleksiv komponentlarni o'zaro integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modelini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, uning tarkibiy komponentlari, bosqichlari va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, integrativ, refleksiv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida belgilandi.

Tadqiqotda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish hamda raqamli baholash vositalarining didaktik imkoniyatlarini o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish orqali raqamli baholash, baholash kompetensiyasi, testologiya, pedagogik diagnostika va raqamli ta'lim tushunchalarining mazmuni aniqlashtirildi.

Pedagogik modellashtirish metodi asosida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash modeli ishlab chiqilib, uning maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik va natijaviy-baholash komponentlari o'zaro uzviy bog'liqlikda belgilandi. Shuningdek, raqamli baholash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, amaliy-texnologik, analitik va refleksiv mezonlari ajratildi.

Tadqiqot metodologiyasida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash jarayoni diagnostik, nazariy-tayyorgarlik, amaliy-texnologik, analitik-refleksiv va natijaviy-korreksion bosqichlar asosida tashkil etildi. Mazkur bosqichlar orqali talabalarning raqamli baholashga oid nazariy-testologik bilimlari, elektron baholash vositalaridan foydalanish ko'nikmalari, baholash natijalarini tahlil va interpretatsiya qilish hamda ular asosida pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini izchil rivojlantirish nazarda tutildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda raqamli baholash vositalarining pedagogik maqsadga muvofiqligi, baholashning validligi, ishonchliligi va obyektivligi, tezkor qayta aloqa imkoniyati, ta'lim natijalarini tahlil qilish samaradorligi hamda bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari asosiy mezonlar sifatida qabul qilindi. Shu asosda ishlab chiqilgan pedagogik modelning bo'lajak o'qituvchilarda yaxlit raqamli baholash kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tuzilmasi asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik faoliyatda baholash faqat o'quv natijalarini aniqlash vositasi bo'lib qolmay, balki ta'lim jarayonini boshqarish, individual rivojlanish dinamikasini kuzatish, tezkor qayta aloqa tashkil etish hamda pedagogik qarorlar qabul qilishning muhim mexanizmiga aylanmoqda. Shu sababli bo'lajak o'qituvchining raqamli baholash kompetensiyasi nazariy bilimlar, texnologik ko'nikmalar, tahliliy faoliyat, metodik tayyorgarlik va refleksiv qobiliyatlarning o'zaro integratsiyasiga asoslanishi lozim.

Tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli tarkibiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijasida modelning maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik va natijaviy-baholash komponentlari o'zaro uzviy bog'liq holda shakllantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Modelning maqsadli komponenti bo'lajak o'qituvchilarda raqamli baholash faoliyatini mustaqil loyihalash, tashkil etish va boshqarishga imkon beruvchi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Mazkur komponent doirasida talabaning raqamli baholashning nazariy asoslarini bilishi, baholash maqsadini belgilashi, mezon va indikatorlarni ishlab chiqishi, raqamli vositalardan foydalanishi hamda baholash natijalari asosida asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilishi asosiy natija sifatida belgilanadi.

Mazmuniy komponent raqamli baholashga oid nazariy va amaliy bilimlar majmuasini qamrab oladi. Uning tarkibiga pedagogik diagnostika, testologiya asoslari, formativ va summativ baholash, mezonli baholash, test topshiriqlarini loyihalash, validlik, ishonchlilik, obyektivlik, raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash hamda natijalarni interpretatsiya qilish kabi yo'nalishlar kiritiladi. Shu bilan birga, elektron test tizimlari, elektron portfolio, onlayn so'rovlar, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va ta'limiy platformalardan foydalanishga oid amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ham ushbu komponentning muhim mazmunini tashkil etadi.

Tahlil natijalari bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashda faqat tayyor platformalardan foydalanishni o'rgatish yetarli emasligini ko'rsatdi. Talaba raqamli baholash vositasini pedagogik maqsadga mos tanlashi, baholash topshirig'ining sifatini nazorat qilishi, mezonlarni oldindan belgilashi, olingan ma'lumotlarning ishonchliligini baholashi va natijalardan ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun foydalanishni bilishi zarur.

Modelning jarayonli-texnologik komponenti bo'lajak o'qituvchilarning raqamli baholash kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga asoslanadi. Ushbu jarayonni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. **Diagnostik bosqich** - talabalarning raqamli savodxonligi, testologik bilimlari va baholash vositalaridan foydalanish bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik darajasini aniqlash.
2. **Nazariy-tayyorgarlik bosqichi** - raqamli baholashning pedagogik, metodik va testologik asoslarini o'zlashtirish.
3. **Amaliy-texnologik bosqich** - raqamli testlar, rubrikalar, elektron portfolio, onlayn topshiriqlar va avtomatlashtirilgan baholash vositalarini yaratish hamda qo'llash.
4. **Analitik-refleksiv bosqich** - olingan natijalarni tahlil qilish, interpretatsiya qilish, baholashdagi kamchiliklarni aniqlash va o'z faoliyatiga refleksiv baho berish.

5. **Natijaviy-korreksion bosqich** - baholash natijalari asosida o'qitish strategiyasini takomillashtirish va individual pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur bosqichlarning izchil tashkil etilishi talabaning oddiy raqamli foydalanuvchidan raqamli baholash faoliyatini mustaqil boshqara oluvchi pedagog darajasiga o'tishini ta'minlaydi.

O. Viberg va hammualliflarning tadqiqotlari zamonaviy raqamli baholash autentik, hammabop, avtomatlashtirilgan, uzluksiz va mas'uliyatli xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi [5]. Ushbu xususiyatlar taklif etilayotgan pedagogik model mazmunini yanada aniqlashtirish imkonini beradi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilar faqat elektron testlarni yaratish emas, balki real kasbiy va o'quv vaziyatlarini aks ettiruvchi autentik topshiriqlar ishlab chiqish, barcha ta'lim oluvchilar uchun foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish, avtomatlashtirilgan baholash natijalarini tanqidiy tekshirish va raqamli ma'lumotlardan mas'uliyatli foydalanishga tayyorlanishi kerak.

B. Haleem, Fakhar-Ul-Zaman va M. Anwerning bo'lajak o'qituvchilar raqamli baholash kompetensiyalariga bag'ishlangan tadqiqoti ham raqamli savodxonlik bilan pedagogik baholash ko'nikmalarini integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi [6]. Bu yondashuv tadqiqotimizda ajratilgan amaliy-texnologik va analitik komponentlarning o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi. Ya'ni talaba raqamli baholash vositasini yaratish bilan bir qatorda, uning yordamida olingan ma'lumotlarni o'quvchining rivojlanishi nuqtayi nazaridan sharhlashni ham bilishi zarur.

W. Admiraal va hammualliflar elektron baholash texnologiyalari bo'lajak pedagoglarning kompetensiyalarini turli manbalar va faoliyat natijalari asosida kompleks baholash imkoniyatini yaratishini qayd etganlar [7]. Elektron portfolio, raqamli kuzatuv natijalari, amaliy topshiriqlar va testlarni birgalikda qo'llash o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi haqida to'liqroq ma'lumot olish imkonini beradi. Shu sababli taklif etilayotgan pedagogik modelda baholashning bir nechta raqamli shakllaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

So'nggi tadqiqotlar oliy ta'lim pedagoglarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda DigCompEdu va TPACK kabi konseptual modellar yetakchi o'rin tutayotganini, shu bilan birga, pedagoglarning raqamli tayyorgarligi, infratuzilma, metodik integratsiya va hammaboplik masalalarida muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda [8]. Bu holat raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning samaradorligi faqat talabaning individual bilim va ko'nikmalariga emas, balki ta'lim muassasasidagi tegishli raqamli infratuzilma, metodik ta'minot va amaliy mashg'ulotlar tizimiga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Muhokama natijasida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modelida beshta muhim kompetensiyaviy yo'nalishni o'zaro integratsiyalash maqsadga muvofiq deb hisoblandi: motivatsion, kognitiv, amaliy-texnologik, analitik va refleksiv. Ushbu tarkibiy qismlarning birortasini alohida rivojlantirish raqamli baholash faoliyatiga to'liq tayyorgarlikni ta'minlamaydi. Masalan, yuqori darajadagi texnik ko'nikma testologik bilim va pedagogik interpretatsiyasiz baholashning metodik sifatini kafolatlamaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'limning raqamlashtirilishi o'qituvchidan an'anaviy nazorat va baholash usullarini bilish bilan bir qatorda, elektron testlar, raqamli rubrikalar, elektron portfolio, avtomatlashtirilgan monitoring vositalari va ta'lim analitikasi imkoniyatlaridan pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanishni talab etmoqda.

Tadqiqot natijasida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash jarayonini maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik va natijaviy-baholash komponentlari o'zaro bog'langan pedagogik tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Mazkur model bo'lajak o'qituvchining raqamli baholash vositalaridan foydalanish bo'yicha alohida texnik ko'nikmalarini emas, balki yaxlit raqamli baholash kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Raqamli baholash faoliyatiga tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, amaliy-texnologik, analitik va refleksiv mezonlari belgilandi. Ushbu mezonlar bo'lajak o'qituvchilarning raqamli baholashga bo'lgan kasbiy munosabati, nazariy-testologik bilimlari, raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari, baholash ma'lumotlarini tahlil qilish qobiliyati hamda o'z pedagogik faoliyatiga refleksiv yondashishini kompleks baholash imkonini beradi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlash jarayonini diagnostik, nazariy-tayyorgarlik, amaliy-texnologik, analitik-refleksiv va natijaviy-korreksion bosqichlarda tashkil etish samarali metodik mexanizm sifatida tavsiya etiladi. Bosqichlarning izchil amalga oshirilishi bo'lajak o'qituvchining raqamli baholash faoliyatini mustaqil loyihalash, baholash vositalarini ishlab chiqish, natijalarni qayta ishlash va ularga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida raqamli baholash mazmunini kasbiy-pedagogik fanlar bilan integratsiyalash, amaliy faoliyatni real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirish, raqamli baholash vositalaridan uzluksiz foydalanish, mustaqil va refleksiv faoliyatni rag'batlantirish model samaradorligini ta'minlovchi asosiy pedagogik shart-sharoitlar sifatida belgilandi.

Shunday qilib, taklif etilgan pedagogik model bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli baholash vositalarini tanlash, loyihalash, qo‘llash, natijalarni tahlil va interpretatsiya qilish, qayta aloqa tashkil etish hamda dalillarga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu modelni pedagogik ta’lim dasturlariga integratsiyalash bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy raqamli ta’lim muhiti talablariga mos kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Black, P., Wiliam, D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. - 1998. - Vol. 5, No. 1. -P. 7–74. DOI: 10.1080/0969595980050102.
2. Mishra, P., Koehler, M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. - 2006. - Vol. 108, No. 6. - P. 1017-1054. DOI: 10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x.
3. Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Y. Punie (ed.). - Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p. DOI: 10.2760/159770.
4. Estaji, M., Banitalebi, Z., Brown, G.T.L. The key competencies and components of teacher assessment literacy in digital environments: A scoping review // Teaching and Teacher Education. - 2024. - Vol. 141. - Article 104497. DOI: 10.1016/j.tate.2024.104497.
5. Viberg, O., Mutimukwe, C., Hrastinski, S., Cerratto-Pargman, T., Lilliesköld, J. Exploring teachers’ (future) digital assessment practices in higher education: Instrument and model development // British Journal of Educational Technology. - 2024. - Vol. 55, No. 6. - P. 2597-2616. DOI: 10.1111/bjet.13462.
6. Haleem, B., Fakhar-Ul-Zaman, Anwer, M. Developing Assessment Competencies in Pre-Service Teachers through Digital Literacy Framework // Pakistan Journal of Education. - 2024. - Vol. 41, No. 2. DOI: 10.30971/pje.v41i2.3344.
7. Admiraal, W., Janssen, T.M., Huizenga, J., Kranenburg, F.A.N., Taconis, R., Corda, A. E-assessment of student-teachers’ competence as new teachers // Turkish Online Journal of Educational Technology. - 2014. - Vol. 13, No. 4. - P. 21-29.
8. Moraes, R., Santos, C., Pedro, N. Teacher Digital Competences in Online Higher Education: A Systematic Literature Review // Ubiquity Proceedings. - 2025. - Vol. 6, No. 1. - Article 53. DOI: 10.5334/uproc.221.

BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI

Radjapov Aybek Allaberganovich
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0000-2630-3622

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli pedagogik texnologiyalarning bo'lajak informatika o'qituvchilarida kreativ fikrlash, muqobil yechim ishlab chiqish, original raqamli mahsulot yaratish va pedagogik muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv platformalar, multimedia vositalari, hamkorlikdagi dasturlash, loyiha topshiriqlari va raqamli refleksiya usullarining bo'lajak pedagoglarning kasbiy hamda ijodiy kompetentligiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak informatika o'qituvchisi, kreativ fikrlash, raqamli pedagogik texnologiyalar, interaktiv platforma, multimedia vositalari, hamkorlikdagi dasturlash, loyiha faoliyati, raqamli kompetentlik, pedagogik innovatsiya, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of digital pedagogical technologies in developing creative thinking, the ability to generate alternative solutions, create original digital products, and independently solve pedagogical problems among future informatics teachers. It also examines the influence of interactive platforms, multimedia tools, collaborative programming, project-based tasks, and digital reflection methods on the professional and creative competence of future educators.

Key words: future informatics teacher, creative thinking, digital pedagogical technologies, interactive platform, multimedia tools, collaborative programming, project-based learning, digital competence, pedagogical innovation, professional training.

Аннотация: В статье анализируется эффективность цифровых педагогических технологий в развитии у будущих учителей информатики креативного мышления, способности разрабатывать альтернативные решения, создавать оригинальные цифровые продукты и самостоятельно решать педагогические проблемы. Также освещается влияние интерактивных платформ, мультимедийных средств, совместного программирования, проектных заданий и методов цифровой рефлексии на профессиональную и творческую компетентность будущих педагогов.

Ключевые слова: будущий учитель информатики, креативное мышление, цифровые педагогические технологии, интерактивная платформа, мультимедийные средства, совместное программирование, проектная деятельность, цифровая компетентность, педагогическая инновация, профессиональная подготовка.

KIRISH

Raqamli pedagogik texnologiyalar bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida bilimlarni o'zlashtirish vositasi bo'lish bilan birga, mustaqil g'oya yaratish va yangi pedagogik yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladigan ijodiy muhitni shakllantiradi. Zamonaviy informatika o'qituvchisi dasturiy vositalardan foydalanishni bilishi bilan cheklanmay, ularning didaktik imkoniyatlarini baholashi, ta'limiy vazifalarga moslashtirishi va o'quvchilar ehtiyojiga muvofiq raqamli resurslar yaratishi zarur. Elektron ta'lim muhiti talabaga nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda sinash, mavjud usullarni qayta ko'rib chiqish va bir muammoning bir nechta yechimini ishlab chiqish imkonini beradi. Bunday muhitda talaba tayyor ko'rsatmalarni takrorlovchi ijrochi emas, balki o'quv jarayonining mazmuni, vositalari va shakllarini mustaqil loyihalovchi faol subyektga aylanadi.

Muammoli raqamli topshiriqlar noma'lum vaziyatni tahlil qilish, muhim belgilarni ajratish, taxminlarni ilgari surish va ulardan eng maqbulini tanlash orqali tafakkurning moslashuvchanligini kuchaytiradi. Dasturlash platformalari, multimedia muharrirlari, bulutli xizmatlar va interaktiv simulyatorlar texnik bilimlarni tasviriy

ifoda, pedagogik dizayn hamda mualliflik g‘oyasi bilan uyg‘unlashtirishga sharoit yaratadi. Raqamli vositalarning tezkor qayta aloqa imkoniyati talabaning yaratgan mahsuloti qanday ishlayotganini darhol ko‘rishi, kamchiliklarni aniqlashi va loyihani yangi qarorlar asosida takomillashtirishiga yordam beradi. Xatolarni qayta ishlash jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilish bo‘lajak o‘qituvchida ijodiy tavakkalchilik, qat’iyatlilik va noodatiy usullarni sinab ko‘rishga tayyorlikni shakllantiradi. Shu jarayonda kreativ fikrlash originallik bilangina belgilanmay, balki g‘oyalar ravonligi, yechimlar xilma-xilligi, mazmunni qayta tuzish va yaratilgan mahsulotni batafsil ishlab chiqish qobiliyatlari bilan boyiydi. Raqamli pedagogik yondashuvlar talabaning kasbiy tasavvurini kengaytirib, odatiy informatika darsini izlanish, tajriba va raqamli ijodga asoslangan faol o‘quv maydoniga aylantirish imkonini beradi.

Mazkur texnologiyalarning samaradorligi ularning tashqi jozibadorligi yoki texnik murakkabligi bilan emas, balki talabaning mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi va mualliflik mahsulotini yaratishiga qanchalik imkon berishi bilan belgilanadi. Loyiha asosidagi raqamli mashg‘ulotlarda bo‘lajak informatika o‘qituvchilari ta’limiy muammoni aniqlaydi, maqsadga mos vositalarni tanlaydi, dasturiy mahsulotni ishlab chiqadi va uning pedagogik qiymatini tahlil qiladi. Hamkorlikka yo‘naltirilgan onlayn muhitlar talabalar o‘rtasida g‘oya almashish, turli qarashlarni qiyoslash va birgalikda original yechim ishlab chiqish jarayonini kuchaytiradi. Virtual doskalar, elektron portfoliolar va raqamli loyiha maydonlari har bir talabaning fikrlash yo‘lini ko‘rinadigan holga keltirib, o‘z faoliyatiga refleksiv munosabat bildirishiga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. U. Mahkamovaning bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotida raqamli pedagogik vositalar kasbiy ijodkorlikni shakllantiruvchi metodik muhit sifatida yoritilgan [1, B. 331–333]. Tadqiqotchi kreativlikni yangi g‘oyalar yaratish, muammoni odatiy bo‘lmagan yo‘l bilan hal qilish va ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni olib kirish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Uning metodik tahlilida interaktiv ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, dasturlash, multimedia va o‘yinlashtirilgan mashg‘ulotlar bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida ko‘rsatiladi. Guruhli muhokama, hamkorlikdagi topshiriq va muammoli vaziyatlar bo‘lajak pedagogning boshqa ishtirokchilar fikrini qayta ishlashi hamda bir masalaning turli yechimlarini ishlab chiqishiga yordam beradi. Loyiha asosidagi faoliyat talabani tayyor topshiriq ijrochisidan ta’limiy muammoni aniqlaydigan, raqamli mahsulot tuzilishini belgilaydigan va o‘z qarorini himoya qiladigan muallifga aylantiradi. Dasturlashga oid ijodiy vazifalar algoritmning bir necha variantini sinash, koddagi kamchiliklarni topish va dastlabki fikrni yangi mantiqiy tuzilma asosida qayta qurish ko‘nikmasini kuchaytiradi.

Multimedia vositalari matn, tasvir, ovoz va animatsiyani yagona didaktik mahsulotda uyg‘unlashtirish orqali talabaning tasavvuri hamda mazmunni noodatiy ifodalash qobiliyatini faollashtiradi. O‘yinlashtirilgan mashg‘ulotlar esa murakkab vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish, turli strategiyalarni qiyoslash va xatodan cho‘chimasdan tajriba o‘tkazishga undaydi. Onlayn dasturlash platformalari va internet resurslari talabaning faqat tayyor materialni o‘zlashtirishiga emas, balki yangi raqamli vositalarni mustaqil izlash va ularni pedagogik maqsadga moslashtirishiga sharoit yaratadi. Mahkamovaning yondashuvi raqamli texnologiyaning samarasi uning texnik imkoniyatida emas, balki talabaning faol tanlovi, ijodiy izlanishi va mualliflik mahsulotini yaratishiga xizmat qiladigan metodik tashkil etilishida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [1].

R. Atamuratov va A. K. Xushvaqtovning ilmiy ishida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini innovatsion texnologiyalar vositasida tayyorlashning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq qilingan [2, B. 647–652]. Mualliflar dasturlash asoslarini o‘rgatishda hamkorlikdagi ta’lim texnologiyasidan foydalanishga alohida e’tibor qaratib, uni raqamli va dasturiy-texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog‘laydi. Mazkur texnologiyada talaba algoritmni yolg‘iz bajarish bilan cheklanmay, umumiy muammoni tahlil qilish, vazifalarni taqsimlash va guruh tomonidan taklif etilgan yechimlarni qiyoslash jarayonida ishtirok etadi. Hamkorlikdagi dasturlash turli fikrlarning to‘qnashuvi va qayta birlashishi uchun sharoit yaratib, dastlabki yechimdan farq qiluvchi yangi algoritmik qarorlarning yuzaga kelishiga yordam beradi. Tadqiqotchilar bo‘lajak informatika o‘qituvchisining raqamli kompetentligini dasturlarni boshqarish malakasi bilangina emas, axborot vositalarini pedagogik vazifaga mos tanlash va yangicha qo‘llash qobiliyati bilan ham bog‘laydi. Ular kasbiy fanlarning mazmunini zamonaviy texnologik talablar asosida muntazam yangilash talabaning mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda ishlatish imkoniyatini kengaytirishini ta’kidlaydi.

Tadqiqotda mustaqil fikrlash, muammoga tanqidiy yondashish, oqilona yechim topish va yangi g‘oyalarni ilgari surish bo‘lajak mutaxassisning muhim kasbiy sifatlari qatorida ko‘rsatilgan. Fanlararo integratsiya dasturlash, pedagogika va metodikaga oid bilimlarni yagona amaliy topshiriqda birlashtirib, talabani muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rishga yo‘naltiradi. Mualliflarning qarashidan kelib chiqib, raqamli pedagogik texnologiya kreativ fikrlashni faqat yangi dastur bilan tanishtirish orqali emas, balki talabaning faol muloqoti, tanlovi va amaliy qaroriga tayangan holda rivojlantirishi mumkin. Atamuratov va Xushvaqtov taklif etgan yondashuv bo‘lajak informatika o‘qituvchisini tayyor algoritmlarni takrorlovchi ijrochidan o‘z metodik yechimini yaratadigan va uni hamkorlikda takomillashtiradigan ijodkor mutaxassisga aylantirishga qaratilgan [2].

Sh. A. Abduraxmanova va S. A. Saydivosilovning tadqiqotida O'zbekistonda bo'lajak informatika o'qituvchilarining raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati kasbiy tayyorgarlikning muhim yo'nalishi sifatida asoslangan [3, B. 64–67]. Mualliflar raqamli jamiyatdagi zamonaviy kasblar mutaxassisning intellektual salohiyati va texnologik o'zgarishlarga moslashish qobiliyatiga yuqori talab qo'yishini qayd etadi. Ularning fikricha, axborot texnologiyalari, ayniqsa multimedia vositalari, talabaning axborotni turli shakllarda idrok etishi, qayta tuzishi va amaliy vazifada qo'llashiga yordam beradi. Multimedia muhitida matn, tasvir, ovoz va interaktiv elementlarning birlashishi bo'lajak pedagogga bir mazmunning bir nechta taqdimot variantini ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur qarash raqamli savodxonlikni texnik amallar majmui sifatida emas, axborotni tanlash, tushuntirish, qayta ifodalash va undan yangi mahsulot yaratishda foydalanish qobiliyati sifatida tushunishga asos bo'ladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi dasturiy vositaning imkoniyatlarini bilish bilan birga, uning o'quv materiali, auditoriya ehtiyoji va belgilangan didaktik maqsadga mosligini ham aniqlay olishi zarur. Raqamli platformalardagi moslashuvchan topshiriqlar talabaga turli vositalarni sinab ko'rish, ularning afzalliklarini qiyoslash va o'z faoliyatiga mos variantni tanlash imkonini beradi. Bunday sharoitda mustaqil qaror chiqarish, axborot manbalarini tahlil qilish va mavjud resursdan yangicha usulda foydalanish kreativ tafakkurning amaliy ko'rinishiga aylanadi. Tadqiqotchilarning pozitsiyasidan kelib chiqadigan metodik fikr shundan iboratki, raqamli ko'nikmalar amaliy vaziyatlarda qo'llanilgandagina bo'lajak o'qituvchining intellektual faolligi va ijodiy mustaqilligiga xizmat qiladi. Shu yondashuvda raqamli pedagogik texnologiyalar talabaning texnik tayyorgarligini kengaytirish bilan cheklanmay, uning kelajak darslari uchun o'ziga xos axborot muhiti va metodik yechim yaratish salohiyatini ham rivojlantiradi [3].

D. O. Khimmataliev, R. V. Salomova, R. M. Makhsumov va ularning hamkorlari bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik kompetentligini klasterli ta'lim modeli asosida rivojlantirish bo'yicha keng miqyosli pedagogik tajriba olib borgan [4, B. 24–30]. Tadqiqot bir nechta oliy ta'lim muassasasida tashkil etilib, unda o'yin asosidagi ta'lim, virtual simulyatsiyalar, teskari sinf, loyihalar, masofaviy laboratoriyalar va tengdoshlararo o'qitish kabi usullar uyg'unlashtirilgan. Ushbu metodlar talabalarni tayyor axborotni qabul qilishdan ko'ra, dasturiy vositalarni tanlash, muammoli vaziyatni modellashtirish va amaliy yechim ishlab chiqishga yo'naltirgan. Mualliflar axborot-texnologik tayyorgarlikni baholashda kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatga oid va kreativ mezonlardan foydalangan. Kreativ mezon doirasida modellashtirilayotgan obyektni tanqidiy tahlil qilish, loyiha va dasturlash jarayonidagi o'z tayyorgarligini baholash hamda yaratilgan modelning vazifaga mosligini aniqlash nazarda tutilgan.

Tajriba mashg'ulotlarida qatnashgan talabalar orasida yuqori va o'rta tayyorgarlik darajalarining ortishi, quyi ko'rsatkichlarning esa sezilarli kamayishi qayd etilgan. An'anaviy tartibda ta'lim olgan guruhda o'zgarishlar ancha cheklangan bo'lib, bu innovatsion usullar majmuasining amaliy ustunligini ko'rsatgan. Mazkur tafovut raqamli pedagogik texnologiyalar talabaning dasturiy vositani bilishidan tashqari, muammoni mustaqil tahlil qilishi, qaror qabul qilishi va yangi model yaratish qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Tadqiqotda loyihalash, virtual sinov va hamkorlikdagi faoliyatning birlashtirilishi bo'lajak informatika o'qituvchisida kreativ fikrlashni kasbiy vazifalar bilan bog'langan holda rivojlantirish imkonini bergan. Khimmataliev va hamkorlarining tajribasi raqamli pedagogik texnologiyalarni tizimli, muammoli va hamkorlikka asoslangan metodika bilan qo'llash kreativ hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun empirik asos yaratishini ko'rsatadi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash uchun tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki hamda yakuniy diagnostika natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Namunaviy tadqiqotda yetmish ikki nafar talaba ishtirok etib, ularning o'ttiz olti nafari tajriba guruhiga, qolgan o'ttiz olti nafari nazorat guruhiga ajratildi. Tajriba guruhidagi mashg'ulotlarda interaktiv platformalar, vizual dasturlash muhiti, bulutli xizmatlar, multimedia loyihalari, raqamli portfoliolar va hamkorlikdagi topshiriqlardan tizimli foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **Raqamli pedagogik texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlardan oldin va keyin kreativ fikrlash ko'rsatkichlarining o'zgarishi.**

Kreativ fikrlash ko'rsatkichlari	TG oldin M±SD	TG keyin M±SD	t	Cohen d	NG oldin M±SD	NG keyin M±SD	Yakuniy TG–NG t
Fikrlar ravonligi	18,4±3,2	24,8±3,1	11,52	1,92	19,0±3,3	20,3±3,2	6,06
Fikrlash moslashuvchanligi	16,9±2,9	22,7±3,0	10,88	1,81	17,1±2,8	18,0±2,9	6,76
G'oyalar originalligi	15,7±2,7	22,1±2,8	12,14	2,02	15,9±2,6	16,8±2,7	8,18

G'oyani batafsil ishlab chiqish	17,8±3,0	23,6±3,1	10,63	1,77	18,0±3,0	18,9±3,1	6,43
Raqamli-pedagogik loyihalash	19,2±3,4	26,5±3,3	12,47	2,08	19,5±3,5	20,8±3,4	7,22
Integrativ kreativlik indeksi	88,0±11,8	119,7±12,1	13,31	2,22	89,5±11,9	94,8±12,0	8,77

Izoh: M - o'rtacha qiymat; SD - standart og'ish; t - Student mezoni; d - Cohen ta'sir kattaligi; TG - tajriba guruhi; NG - nazorat guruhi. Tajriba guruhidagi va yakuniy guruhlararo farqlar $p < 0,001$ darajada statistik ahamiyatli.

Dastlabki diagnostikada tajriba va nazorat guruhlarining kreativ fikrlash ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin bo'lgan. Raqamli pedagogik texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlardan keyin tajriba guruhida fikrlar ravonligi 18,4 balldan 24,8 ballga, fikrlash moslashuvchanligi 16,9 balldan 22,7 ballga va g'oyalar originalligi 15,7 balldan 22,1 ballga oshgan. Ushbu o'zgarishlar talabalarning ko'proq g'oya ishlab chiqishi, muqobil usullarni tanlashi va original pedagogik mahsulot yaratish qobiliyati rivojlanganini ko'rsatadi.

G'oyani batafsil ishlab chiqish ko'rsatkichi 17,8 balldan 23,6 ballga, raqamli-pedagogik loyihalash esa 19,2 balldan 26,5 ballga ko'tarilgan. Bu talabalar elektron dars ishlanmasi, multimedia mahsuloti va interaktiv topshiriqlarni yaratish hamda takomillashtirish ko'nikmalarini egallaganini bildiradi. Cohen mezonlarining 1,77–2,08 oralig'ida qayd etilishi pedagogik ta'sirning juda katta ekanini tasdiqlaydi.

Integrativ kreativlik indeksi tajriba guruhida 88,0 balldan 119,7 ballga oshgan, nazorat guruhida esa o'sish ancha past bo'lgan. Tajriba yakunidagi guruhlararo farq $t = 8,77$; $p < 0,001$ darajada tajriba guruhi foydasiga qayd etilgan. Natijalar raqamli pedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llash bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ va kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli pedagogik texnologiyalarning maqsadli qo'llanilishi bo'lajak informatika o'qituvchilarining yangi g'oya ishlab chiqishi, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishi va raqamli mahsulotni mustaqil loyihalashiga xizmat qiladi. Ularning samaradorligi texnik vositalar soni bilan emas, balki talabaning tanlov qilishi, tajriba o'tkazishi, hamkorlikda fikr almashishi va o'z faoliyatini tahlil etishiga imkon beradigan metodik tashkil etilish bilan belgilanadi. Interaktiv platformalar, hamkorlikdagi dasturlash, multimedia vositalari, virtual simulyatsiyalar va loyiha topshiriqlarining uyg'unligi kreativ fikrlashni kasbiy-pedagogik vazifalar bilan bog'laydi. Bunday faoliyat davomida fikrlar ravonligi, moslashuvchanlik, originallik, muammoni qayta ifodalash va dastlabki g'oyani batafsil takomillashtirish kabi sifatlar bir butun tarzda rivojlanadi.

O'zbek tadqiqotchilarining ishlari innovatsion va klasterli ta'lim modellarida loyiha, teskari sinf, virtual simulyatsiya, masofaviy laboratoriya hamda hamkorlikdagi o'qitish usullari bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot-texnologik va ijodiy tayyorgarligini kuchaytirishini ko'rsatadi. Shu sababli kasbiy tayyorgarlik dasturlarida raqamli pedagogika mazmunini alohida nazariy mavzu bilan cheklamasdan, dasturlash, informatika o'qitish metodikasi va pedagogik amaliyotga integratsiyalash maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlarda talabalarga tayyor raqamli resurslardan foydalanish bilan birga, ochiq yechimli topshiriqlar, elektron dars ishlanmalari, interaktiv modellar va mualliflik platforma loyihalarini yaratish imkoniyati berilishi zarur.

Har bir loyiha g'oyaning yangiligi, pedagogik maqsadga mosligi, texnik barqarorligi, foydalanuvchi uchun qulayligi va qayta takomillashtirish darajasi bo'yicha baholanishi tavsiya etiladi. Talabalarning kreativ rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun muntazam refleksiya, tengdoshlar ekspertizasi, raqamli portfolio va muammoli vaziyatlarga asoslangan diagnostika usullaridan foydalanish lozim. Mazkur shartlar izchil ta'minlanganda bo'lajak informatika o'qituvchisi mavjud texnologiyani takroriy qo'llovchi mutaxassis emas, balki uni yangi didaktik mazmun bilan boyitib, o'quvchilar uchun o'ziga xos raqamli ta'lim tajribasini yarata oladigan ijodkor pedagog sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahkamova M. U. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi // Muǵallim hám úzliksiz bilimlendiriw. - 2024. - T. 1, № 6/4. - B. 331–333.
2. Atamuratov R., Xushvaqtov A. Preparing Future Computer Science Teachers Through Using Innovative Technologies // Bulletin of Science and Practice. - 2024. - Vol. 10, No. 5. - P. 647–652. - DOI: 10.33619/2414-2948/102/88.
3. Abduraxmanova Sh. A., Saydivosilov S. A. The Need to Develop the Digital Technology Skills of Future Computer Science Teachers in Uzbekistan // World Bulletin of Management and Law. - 2023. - Vol. 23. - P. 64-67.
4. Khimmataliev D. O., Salomova R. V., Makhsumov R. M., Khakimov Zh. O., Normurodova A. K., Togaev B. E., Obidjanov U. I., Omonova N. P., Fitrilia T. Enhancing ICT Competence of Future Computer Science Teachers Through Cluster-Based Education Models // Journal of Engineering Science and Technology. - 2025. - Vol. 20, No. 4, Special Issue on ISCoE 2024. - P. 24–30.
5. Xolmurodov B. B., Sherriyev M. A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining ijobiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash // Science Shine. - 2025. - T. 1, № 8(43). - B. 144–148.

MIYA FALAJIGA CHALINGAN BOLALAR BILAN QILICHBOZLIK MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH UCHUN MOSLASHUVCHAN DASTURNI ISHLAB CHIQISH VA RAQAMLI USLUBIY YORDAM

Davranova Maftunabonu Elyorovna
Qo'qon davlat universiteti San'at va sport fakulteti
Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi 2-kurs 02/24-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg'ulotlarini tashkil etish uchun moslashuvchan dastur va raqamli uslubiy yordamni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi - bolalarning individual jismoniy va harakat imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali mashg'ulot metodikasini yaratishdan iborat.

Ishlab chiqilgan dastur koordinatsiya, muvozanat, harakat aniqligi va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Raqamli uslubiy vositalardan foydalanish mashg'ulot jarayonini individuallashtirish, nazorat qilish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari adaptiv qilichbozlik mashg'ulotlari miya falajiga chalingan bolalarning jismoniy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: miya falaji, adaptiv sport, inklyuziv jismoniy tarbiya, qilichbozlik, moslashuvchan dastur, raqamli uslubiy yordam, koordinatsiya, reabilitatsiya.

Abstract: This article examines the development of an adaptive fencing training program and a system of digital methodological support for children with cerebral palsy (CP). The aim of the study was to develop an effective instructional methodology for conducting fencing training sessions that takes into account the individual physical and motor capabilities of children.

The developed program is designed to improve coordination, balance, movement accuracy, and independent motor activity. The integration of digital methodological tools makes it possible to individualize the training process, monitor participants' progress, and enhance the overall effectiveness of training sessions.

The findings demonstrate that adaptive fencing training has a positive impact on the physical development, motor performance, and social adaptation of children with cerebral palsy.

Key words: cerebral palsy; adaptive sports; inclusive physical education; fencing; adaptive training program; digital methodological support; coordination abilities; rehabilitation.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы разработки адаптивной программы и цифрового методического сопровождения занятий по фехтованию с детьми, имеющими детский церебральный паралич. Цель исследования заключается в создании эффективной методики проведения занятий с учетом индивидуальных физических и двигательных возможностей детей.

Разработанная программа направлена на развитие координации, равновесия, точности движений и самостоятельной двигательной активности. Использование цифровых методических средств позволяет индивидуализировать тренировочный процесс, осуществлять мониторинг и повышать эффективность занятий.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что адаптивные занятия по фехтованию оказывают положительное влияние на физическое развитие, двигательную активность и социальную адаптацию детей с детским церебральным параличом.

Ключевые слова: детский церебральный паралич, адаптивный спорт, инклюзивное физическое воспитание, фехтование, адаптивная программа, цифровое методическое сопровождение, координационные способности, реабилитация.

KIRISH

Bolalar serebral falaji (miya falaji) eng ko‘p uchraydigan nevrologik kasalliklardan biri bo‘lib, u harakat funksiyalari, koordinatsiya, muvozanat va fazoviy orientatsiyaning barqaror buzilishlari bilan tavsiflanadi. Bunday buzilishlar bolaning harakat faolligini sezilarli darajada cheklaydi, yangi harakat ko‘nikmalarini egallashni qiyinlashtiradi hamda uning ijtimoiy moslashuv darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning individual funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan muntazam jismoniy faollik harakatlarni boshqarish qobiliyatini yaxshilash, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adaptiv jismoniy tarbiyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri qilichbozlik elementlaridan foydalanish hisoblanadi. Ushbu sport turi an’anaviy ravishda musobaqa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning moslashtirilgan mashqlari katta rivojlantiruvchi va korreksion salohiyatga ega. Maxsus tanlangan harakat mashqlarini bajarish ko‘rish-harakat koordinatsiyasini, muvozanatni, harakat aniqligini, sensor-motor reaksiyalar tezligini va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, qilichbozlik mashg‘ulotlari bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning muntazam jismoniy faollikka bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi hamda inklyuziv sport muhitida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta’lim va sportni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Elektron uslubiy materiallar, videodarslar, harakat faolligini raqamli monitoring qilish hamda teskari aloqa vositalaridan foydalanish mashg‘ulotlarni individuallashtirish, erishilgan natijalarni xolis baholash va murabbiy, bola hamda ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Biroq miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg‘ulotlarini tashkil etishda raqamli uslubiy yordamni kompleks qo‘llash masalalari hozirgi kunga qadar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Shu munosabat bilan miya falajiga chalingan bolalar uchun ilmiy asoslangan moslashuvchan qilichbozlik dasturi va zamonaviy raqamli uslubiy yordamni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv bolalarning jismoniy rivojlanishi, harakat funksiyalarini takomillashtirish hamda ijtimoiy moslashuv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Miya falajiga chalingan bolalarni jismoniy reabilitatsiya qilish va ularning harakat qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi adaptiv jismoniy tarbiya, reabilitatsiya pedagogikasi hamda sport tibbiyoti yo‘nalishlarida keng tadqiq etilgan. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda jismoniy mashqlar, adaptiv sport turlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning motor funksiyalarni tiklash hamda bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

P. Rosenbaum, N. Paneth, A. Leviton va hammualliflar miya falajining klinik tasnifi hamda diagnostik mezonlarini ishlab chiqib, mazkur kasallikning harakat faoliyatiga ta’siri va reabilitatsiya jarayonida individual yondashuv zarurligini asoslab berganlar [4]. Mualliflarning ta’kidlashicha, har bir bolaning funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan mashg‘ulot dasturlari reabilitatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

I. Novak, C. Morgan va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tizimli tahlilda miya falajiga chalingan bolalar bilan ishlashda jismoniy faollikka asoslangan mashg‘ulotlar eng samarali reabilitatsiya usullaridan biri ekanligi qayd etilgan [5]. Tadqiqotchilar koordinatsiya, muvozanat va harakat aniqligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bolalarning funksional mustaqilligini oshirishini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, ular reabilitatsiya jarayonida innovatsion texnologiyalar va individual yondashuvning ahamiyatini alohida ko‘rsatadilar.

D. L. Damiano miya falajiga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilishda faol harakatga asoslangan mashg‘ulotlar passiv davolash usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan [6]. Muallifning fikricha, muntazam jismoniy mashqlar bolaning harakat koordinatsiyasi, mushak faoliyati va kundalik hayotdagi mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O. Verschuren, M. D. Peterson va hammualliflar esa jismoniy mashqlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqib, adaptiv sport mashg‘ulotlari bolalarning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning psixologik holati va hayot sifatini ham yaxshilashini ko‘rsatganlar [7].

K. Shikako-Thomas, A. Majnemer va hammualliflar bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish hamda sport faoliyatida ishtirok etish miya falajiga chalingan bolalarning ijtimoiy moslashuvi va jamiyat hayotidagi faolligini oshirishini qayd etganlar [8]. L. J. Lieberman va C. Houston-Wilson inklyuziv jismoniy tarbiya bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida adaptiv sport mashg‘ulotlarini tashkil etishda individual yondashuv, moslashtirilgan metodika va xavfsiz mashg‘ulot muhitining muhimligini asoslab berganlar [9].

Mahalliy olim G. R. Muratova koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga oid tadqiqotlarida maxsus harakat mashqlari o‘quvchilarning muvozanati, tezkorligi va fazoviy mo‘ljal olish qobiliyatini rivojlantirishini ko‘rsatgan [10].

Keyingi ilmiy ishlarida esa zamonaviy sport mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash sportchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi [11]. Mazkur ilmiy qarashlar adaptiv sport mashg'ulotlarini tashkil etishda ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati miya falajiga chalingan bolalarni umumiy reabilitatsiya qilish, adaptiv jismoniy tarbiya va jismoniy faollikni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Biroq miya falajiga chalingan bolalar uchun qilichbozlik mashg'ulotlarining moslashuvchan dasturini ishlab chiqish, uni raqamli uslubiy ta'minot bilan integratsiyalash hamda mashg'ulotlarni individuallashtirish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi aynan moslashtirilgan qilichbozlik mashg'ulotlari dasturi va raqamli uslubiy ta'minotni yagona pedagogik tizim sifatida ishlab chiqish hamda uning bolalarning koordinatsiyasi, harakat aniqligi, mustaqil motor faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini kompleks baholashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Miya falajiga chalingan bolalar uchun qilichbozlik mashg'ulotlarining moslashuvchan dasturi va raqamli uslubiy ta'minotini ishlab chiqish, ularning ilmiy asoslarini yaratish hamda mazkur dastur va metodik yondashuvning harakat qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishdagi samaradorligini baholash.

Tadqiqot adaptiv jismoniy tarbiya, inklyuziv sport, qilichbozlik hamda miya falajiga chalingan bolalarni reabilitatsiya qilish bo'yicha milliy va xalqaro ilmiy adabiyotlarni kompleks tahlil qilish asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda asosiy ilmiy usullar sifatida nazariy tahlil, pedagogik loyihalash, modellashtirish, ilmiy manbalarni umumlashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida miya falajiga chalingan bolalarning yosh va funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda qilichbozlik bo'yicha moslashuvchan mashg'ulot dasturi ishlab chiqildi. Dastur xavfsiz sport anjomlari va moslashtirilgan mashg'ulot usullaridan foydalangan holda koordinatsiya, muvozanat, harakat faolligi hamda fazoviy orientatsiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqilgan moslashuvchan qilichbozlik mashg'ulotlari dasturi va raqamli uslubiy ta'minot tizimining samaradorligini baholash maqsadida adaptiv jismoniy tarbiya muassasasida pedagogik tajriba o'tkazildi. Tadqiqotda Qo'qon shahridagi 1-son sport maktabida qilichbozlik bilan shug'ullanayotgan, miya falaji (serebral falaj) tashxisi qo'yilgan 8–12 yoshdagi 24 nafar bola (o'rtacha yosh 10,1 ± 1,4 yil) ishtirok etdi.

Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga ajratildi:

1. **Tajriba guruhi (TG)** - ishlab chiqilgan moslashuvchan qilichbozlik dasturi va raqamli uslubiy ta'minot asosida mashg'ulot olib borgan 12 nafar bola;
2. **Nazorat guruhi (NG)** - adaptiv jismoniy tarbiyaning an'anaviy dasturi bo'yicha shug'ullangan 12 nafar bola.

Tadqiqotda ishtirok etgan bolalarda miya falajining quyidagi klinik shakllari kuzatildi:

- spastik diplegiya - 14 nafar (58,3%);
- gemiparetik shakl - 7 nafar (29,2%);
- spastik gemiparez - 3 nafar (12,5%).

Pedagogik tajriba 6 oy (24 hafta) davom etdi. Mashg'ulotlar haftasiga 3 marta, har biri 45 daqiqa davomida o'tkazildi. Ishlab chiqilgan dastur moslashtirilgan qilichbozlik elementlari, muvozanatni saqlash, koordinatsiya, harakat aniqligi, ko'rish-harakat (vizual-motor) reaksiyasi hamda fazoviy orientatsiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini o'z ichiga oldi.

Dastur samaradorligi quyidagi testlar yordamida baholandi:

- statik muvozanat testi;
- koordinatsion qobiliyatlarni baholash uchun "to'g'ri chiziq bo'ylab yurish" testi;
- harakat aniqligini aniqlash testi (nishonga aniq tegizish);
- ko'rish-harakat (vizual-motor) reaksiyasi testi;
- mashqlarni mustaqil bajarish darajasini mutaxassislar tomonidan ekspert baholash.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **Adaptiv dasturni amalga oshirishdan oldin va keyin tajriba guruhi bolalarida motor fitnes ko'rsatkichlarining dinamikasi (n = 12).**

Ko'rsatkichlar	Tajribadan oldingi ko'rsatkichlar	Tajribadan keyingi ko'rsatkichlar	O'sish foizi
Statik muvozanat (soniya)	9,2±1,3	15,4±1,8	+67,4%
Harakat koordinatsiyasi (nuqtalar)	5,1±0,7	7,9±0,6	+54,9%
Harakat aniqligi (nuqtalar)	6,3±0,8	9,1±0,7	+44,4%
Vizual-motor reaksiya vaqti (ms)	625±48	492±39	21,3% yaxshilanish
Mashqlarni bajarishda mustaqillik (ball)	4,6±0,6	7,5±0,5	+63,0%

Tadqiqot natijalari tajriba guruhidagi barcha baholangan parametrlar bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Eng katta yaxshilanishlar statik muvozanatda (+67,4%), motor vazifalarini mustaqil bajarishda (+63,0%) va muvofiqlashtirish qobiliyatlarida (+54,9%) qayd etildi (2-jadval).

2-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlarining qiyosiy dinamikasi**

Ko'rsatkich	Tajriba guruh (o'sish %)	Nazorat guruhi (o'sish %)
Muvozanat	67,4	18,6
Muvozanat	54,9	16,8
Harakat aniqligi	44,4	14,5
Reaksiya tezligi	21,3	7,2
Barqarorlik	63,0	19,4

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi yaxshilanish darajasi nazorat guruhidagidan sezilarli darajada oshib ketdi. Bu an'anaviy jismoniy reabilitatsiya vositalariga nisbatan moslashtirilgan qilichbozlik elementlaridan foydalanish samaradorligining yuqoriligidan dalolat beradi.

Farqlarning statistik ahamiyatini aniqlash uchun Student t-testi qo'llanildi. Tahlil pedagogik tajriba tugagandan so'ng tajriba guruhining ko'rsatkichlarida statistik jihatdan sezilarli yaxshilanishlarni aniqladi.

Muvozanat	t	p
Muvozanat	4,12	<0,001
Harakat aniqligi	3,76	<0,01
Reaksiya tezligi	3,41	<0,01
Barqarorlik	2,89	<0,05
Muvozanat	4,05	<0,001

Shunday qilib, o'quv tajribasi natijalari miya falaji bilan og'rigan bolalar uchun ishlab chiqilgan adaptiv qilichbozlik dasturi va raqamli metodologik yordamning samaradorligini tasdiqlaydi. Maxsus moslashtirilgan mashqlardan foydalanish nogironligi bo'lgan bolalarning motor ko'nikmalarini yaxshilashga, mustaqillikni oshirishga va ijtimoiy integratsiya imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Olingan natijalar miya falaji (MS) bilan og'rigan bolalar uchun ishlab chiqilgan adaptiv qilichbozlik mashg'ulotlari dasturining samaradorligini tasdiqlaydi. Muvofiqlashtirish, muvozanat, harakat aniqligi va mashqlarni mustaqil bajarishdagi ijobiy dinamika adaptiv jismoniy tarbiya tizimida qilichbozlik elementlaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Taklif etilayotgan dasturning o'ziga xos xususiyati individual yondashuv, maxsus tanlangan motor mashqlari va raqamli metodologik yordamning uyg'unligi bo'lib, bu har bir bolaning funksional qobiliyatlarini hisobga olish va mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qilichbozlikni nafaqat sport intizomi sifatida, balki miya falaji bilan og'rigan bolalarda motor va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Raqamli resurslarni joriy etish mashg'ulotlarni monitoring qilish, tuzatish va individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan adaptiv dastur inklyuziv sportni rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishni ifodalaydi va adaptiv jismoniy tarbiya muassasalari, sport maktablari hamda reabilitatsiya markazlarida joriy etish uchun tavsiya etilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Miya falaji (MS) bilan og'rigan bolalar uchun ishlab chiqilgan adaptiv qilichbozlik mashg'ulotlari dasturi va raqamli metodologik qo'llab-quvvatlash tizimi ishtirokchilarda motor qobiliyatlari, muvofiqlashtirish va mustaqillikni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Olingan natijalar moslashtirilgan qilichbozlikning inklyuziv sport va adaptiv jismoniy tarbiya sohasida istiqbolli yo'nalish sifatidagi salohiyatini tasdiqlaydi. Taklif etilayotgan modelni sport va reabilitatsiya muassasalarida miya falaji bilan og'rigan bolalarning jismoniy rivojlanish sifatini, ijtimoiy integratsiyasini va umumiy rivojlanishini yaxshilash uchun amalga oshirish mumkin.

Tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Adaptiv qilichbozlik mashg'ulotlari dasturlarini adaptiv jismoniy tarbiya tizimiga, sport maktablariga, reabilitatsiya markazlariga hamda nogironligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim muassasalariga joriy etish tavsiya etiladi.
2. Mashg'ulot jarayoni har bir bolaning yoshi, miya falaji (serebral falaj) shakli, harakat imkoniyatlari darajasi, funksional holati va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirish sur'atini hisobga olgan holda individuallashtirilishi lozim. Mashqlarni tanlash qulaylik, xavfsizlik va jismoniy yuklamani bosqichma-bosqich oshirish tamoyillariga asoslanishi kerak.
3. Qilichbozlik elementlaridan miya falaji bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Mashg'ulotlar nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, balki diqqatni jamlash, reaksiya tezligi, fazoviy mo'ljal olish, o'ziga ishonch va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga ham yo'naltirilishi zarur.
4. Raqamli metodik ta'minotdan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi. Jumladan, elektron o'quv-uslubiy materiallar, video yo'riqnomalar, raqamli kuzatuv kundaliklari va individual rivojlanish monitoringi tizimlarini qo'llash mashg'ulot jarayonini nazorat qilish sifatini oshirish hamda murabbiylar, mutaxassislar, ota-onalar va bolalar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi.
5. Adaptiv qilichbozlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimini yaratish zarur. Mazkur tizim murabbiylar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va reabilitatsiya mutaxassislarini miya falajining turli shakllariga ega bolalar bilan ishlashning zamonaviy usullariga o'qitishni o'z ichiga olishi lozim.
6. Adaptiv qilichbozlikning bolalarning jismoniy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga uzoq muddatli ta'sirini aniqlash maqsadida ishtirokchilar sonini ko'paytirgan holda, yosh chegaralarini kengaytirib va natijalarni uzoq muddat davomida monitoring qilish orqali qo'shimcha eksperimental tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.
7. Nogironligi bo'lgan bolalar uchun qilichbozlik mashg'ulotlarining ommabopligini ta'minlash, moslashtirilgan sport musobaqalarini tashkil etish hamda ularning jamiyat sport hayotidagi ishtirokini kengaytirish orqali inklyuziv sport harakatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozim.

Taklif etilgan tavsiyalar adaptiv sport tizimini yanada rivojlantirishga hamda miya falaji bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalash va reabilitatsiya qilish amaliyotiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son1 "Ta'lim to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 24.03.2026 yildagi O'RQ-1123-son2 "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.05.2021 yildagi PQ-5114-son3 "Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. Rosenbaum, P., Paneth, N., Leviton, A., Goldstein, M., & Bax, M. (2007). A report: The definition and classification of cerebral palsy. Developmental Medicine & Child Neurology, 49(S109), 8–14.
5. Novak, I., Morgan, C., Fahey, M., Finch-Edmondson, M., Galea, C., Hines, A., et al. (2017). State of the evidence traffic lights 2019: Systematic review of interventions for preventing and treating children with cerebral palsy. Current Neurology and Neuroscience Reports, 19, 1–22.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/uz/docs/-8093787
3 https://lex.uz/ru/docs/-5426278

6. Damiano, D. L. (2006). Activity, activity, activity: Rethinking our physical therapy approach to cerebral palsy. Physical Therapy, 86(11), 1534–1540.
7. Verschuren, O., Peterson, M. D., Balemans, A. C. J., & Hurvitz, E. A. (2016). Exercise and physical activity recommendations for people with cerebral palsy. Developmental Medicine & Child Neurology, 58(8), 798–808.
8. Shikako-Thomas, K., Majnemer, A., Law, M., & Lach, L. (2008). Determinants of participation in leisure activities in children and youth with cerebral palsy. Disability and Rehabilitation, 30(20–22), 1511–1520.
9. Lieberman, L. J., & Houston-Wilson, C. (2018). Strategies for Inclusion: A Handbook for Physical Educators. Champaign, IL: Human Kinetics.
10. Муратова, Г. Р. "О некоторых аспектах развития координационных способностей учащихся." Образование. Наука. Карьера. 2018.
11. Muratova, G. R. "Some aspects of the development of modern student sports in the republic of uzbekistan." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.4 (2023): 903-905.

MAXSUS PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARI KASBIY MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Xalimova Ozoda
Namangan davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maxsus pedagogika yo'nalishidagi talabalarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning nazariy asoslari, ta'sir etuvchi omillar, amaliy usullar va bu jarayonning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi hamda ular haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mas'uliyat, pedagogika, komponent, insonparvarlik, tashabbuskorlik, psixologiya, emotsional-kommunikativ, irodaviy, motivatsiya, nazariy-amaliy, logoped, tayyorgarlik, mehribonlik, nogiron, me'yor.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the formation of professional responsibility in students of special pedagogy, influencing factors, practical methods and the pedagogical significance of this process, and provides information about them.

Key words: professional responsibility, pedagogy, component, humanity, initiative, psychology, emotional-communicative, volitional, motivation, theoretical-practical, speech therapist, preparation, kindness, disabled, norm.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы формирования профессиональной ответственности у студентов специальной педагогики, влияющие факторы, практические методы и педагогическое значение этого процесса, а также предоставляется информация о них.

Ключевые слова: профессиональная ответственность, педагогика, компонент, гуманистика, инициатива, психология, эмоционально-коммуникативный, волевой, мотивация, теоретико-практический, логопед, подготовка, доброта, инвалид, норма.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida sodir bo'layotgan juda ko'p islohotlar, ayniqsa, maxsus pedagogika sohasining o'sib borayotgan roli, ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi mutaxassislardan yuqori kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat hissining yetuk bo'lishini talab qilmoqda. Shu qarashdan kasbiy pedagogik mas'uliyat tushunchasini ilmiy-nazariy asosda ilmiy izlanish olib borish, tahlil qilish, uning mazmun-mohiyatini pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan chuqur o'rganish dolzarbdir.

Maxsus ta'lim tizimi tobora takomillashib borayotgan bir davrda, ushbu sohada faoliyat yuritadigan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va mas'uliyat darajasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar va nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlovchi pedagogik xodimlarning kasbiy mahorati bilan bir qatorda, ularning shaxsiy fazilatlari - sabr-toqat, empatiya, mehr-shafqat, ijtimoiy ong va, albatta, kasbiy mas'uliyat kabi jihatlar muhim o'rinni egallaydi. Maxsus pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki kasbiy qadriyatlar va mas'uliyat hissi bilan boyitish, ularni o'z kelajak kasbiga nisbatan chuqur yondashuvga o'rgatish ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Kasbiy mas'uliyat - pedagogik faoliyatdagi har bir qaror va harakatning natijalarini oldindan ko'ra bilish, o'z ishiga sadoqat va ijtimoiy mas'uliyat bilan yondashish deganidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy mas'uliyat tushunchasining mazmuni

Kasbiy mas'uliyat - bu shaxsning o'z kasbiy faoliyatidagi harakatlari uchun javobgarlikni his etishi, mehnat jarayonida doimiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, shaxsiy va ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lishi bilan tavsiflanadi. Maxsus pedagogikada bu tushuncha yanada chuqurroq ma'noga ega, chunki ushbu soha vakillari insonning nozik dunyosi bilan ishlaydilar.

Kasbiy mas'uliyat quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- etik me'yorlarga amal qilish (mehribonlik, xolislik, insonparvarlik);
- kasbga sadoqat (faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat);
- ijodkorlik va tashabbuskorlik;
- natijalarga nisbatan mas'uliyat.

Maxsus pedagogikada kasbiy mas'uliyatning o'rni

Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashda pedagog faqat o'qituvchi emas, balki psixolog va tarbiyachi vazifasini ham bajaradi. Shunday sharoitda pedagogik mas'uliyat nafaqat professional jihatdan, balki axloqiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mas'uliyatsizlik holatlari bolaning psixologik holatiga, rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli talabalik davridan boshlab kasbiy mas'uliyatning mohiyatini to'liq anglash va unga rioya qilish madaniyatini shakllantirish zarur. Kasbiy mas'uliyatning shakllanishida pedagogik-psixologik omillar muhim rol o'ynaydi.

Jumladan, V. A. Slastyonin, L. M. Mitina, G. S. Abramova kabi olimlar ta'kidlaganidek, pedagogik kasb o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy-psixologik faollikni, insonparvarlikni, o'zini boshqalar o'rniga qo'yib ko'rishni (empatiya), madaniy kommunikatsiyani hamda ichki axloqiy me'yorlar asosida harakat qilishni talab etadi.[1] Bu esa, o'z navbatida, kasbiy mas'uliyatning psixologik asoslari sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik nazariyotda kasbiy mas'uliyat quyidagi asosiy tarkibiy qismlarda ko'riladi:

1. **Kognitiv komponent:** pedagogik faoliyatga doir nazariy bilimlar, axloqiy me'yorlarni bilish, me'yoriy-huquqiy savodxonlik.
2. **Emotsional-kommunikativ komponent:** empatiya, o'quvchilarga nisbatan ijobiy munosabat, emotsional barqarorlik, madaniy muloqot.
3. **Axloqiy-hissiy komponent:** ichki etik tamoyillar, o'zini va boshqalarni qadrlash hissi, halollik, vijdon.
4. **Iroda-motivatsion komponent:** o'z kasbiga bo'lgan qiziqish, fidoyilik, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati.

Kasbiy mas'uliyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Quyidagi shartlar talabalarda kasbiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi:

1. **Nazariy tayyorgarlik:** maxsus pedagogikaga oid asosiy fanlarni chuqur o'zlashtirish. Etik me'yorlarga oid darslar (kasbiy etika, pedagogik madaniyat).
2. **Amaliy tayyorgarlik:** bosqichlardan boshlab maktab-internat va korreksion muassasalarda amaliyot o'tash. Haqiqiy muammolarni tahlil qilish orqali kasbiy vaziyatlarni anglash.
3. **Tarbiyaviy yondashuv:** shaxsiy namunalar orqali tarbiya (ustoz-shogird tizimi). Seminar-treninglar, rolli o'yinlar orqali kasbiy holatlarni modellashtirish.

Maxsus pedagogikada bu komponentlarning har biri o'ta muhim ahamiyatga ega, chunki maxsus pedagog (logoped) nafaqat o'quv dasturlarini o'rgatadi, balki bolalarning psixik, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ushbu kasb egalaridan yuqori darajada mas'uliyatli va murakkab rollarni bajarishni talab etadi: diagnost, terapevt, psixolog, tarbiyachi va namuna bo'luvchi shaxs sifatida. Kasbiy pedagogik mas'uliyatning mazmuni har tomonlama murakkab, lekin ayni paytda har bir pedagog uchun zaruriy shaxsiy sifatdir. U maxsus pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nafaqat kasbiy muvaffaqiyatning mezoni, balki jamiyat oldidagi ijtimoiy burchning ham ifodasidir.

Kasbiy mas'uliyatga ta'sir qiluvchi omillar.

1. **Ichki omillar:** shaxsiy motivatsiya, o'zini anglash, maqsadlilik.
2. **Tashqi omillar:** o'qituvchilarning namunasi, oila tarbiyasi, jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar.
3. **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** ta'lim muassasasining imkoniyatlari, amaliyot sharoitlari, mehnat bozoridagi talablar.

1 Сластенин В.А., Митина Л.М., Абрамова Г.С. Профессионально-педагогическая направленность личности учителя. – Москва: Педагогика, 1997. – 224 с.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning amaliy qismi maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarda kasbiy mas’uliyatni rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning samaradorligini aniqlash.[2] Mazkur tadqiqotning amaliy qismi maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarda kasbiy mas’uliyatni rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning samaradorligini aniqlash hamda ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalarning amaliy natijadorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot zamonaviy pedagogika, logopediya va pedagogik psixologiya fanlarining nazariy asoslariga tayangan holda ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy mas’uliyatni shakllantirishning amaliy holatini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv, suhbat va anketa so‘rovi o‘tkazildi. Tadqiqotda talabalarning kasbiy mas’uliyatga oid bilimlari, kasbiy faoliyatga munosabati, pedagogik etikaga rioya etishi hamda kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorgarlik darajasi tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik amaliyot davomida talabalarning kasbiy vaziyatlarda qaror qabul qilish, mas’uliyatni his etish va o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyati kasbiy mas’uliyatning nazariy mazmuni haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lsalar-da, uni amaliy faoliyatda namoyon etish ko‘nikmalari bir xil darajada shakllanmagan. Ayniqsa, murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini tanqidiy baholash hamda kasbiy javobgarlikni to‘liq his etish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarda ayrim kamchiliklar kuzatildi. Bunga amaliy mashg‘ulotlarning yetarli emasligi, real pedagogik vaziyatlar bilan ishlash tajribasining cheklanganligi va refleksiv faoliyatning sustligi sabab bo‘lishi mumkin.

Pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, muammoli topshiriqlar, rolli o‘yinlar hamda ustoz-shogird tamoyiliga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish talabalarning kasbiy mas’uliyat darajasini sezilarli oshirishga xizmat qildi. Mashg‘ulotlar yakunida talabalar pedagogik etikaga rioya qilish, kasbiy burchni anglash, o‘quvchilarga nisbatan mas’uliyat bilan yondashish hamda jamoada samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini namoyon etdilar.

Olingan natijalar maxsus pedagogika yo‘nalishida kasbiy mas’uliyatni shakllantirish jarayoni nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lagan holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Shu bois kasbiy tayyorgarlik jarayonida interfaol pedagogik texnologiyalar, refleksiv mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot va kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish usullaridan muntazam foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi talabalarida kasbiy mas’uliyatni shakllantirish muammosini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot jarayonida kasbiy mas’uliyatning mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda uni shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlari ilmiy asosda yoritildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy mas’uliyat murakkab va ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, u motivatsion, kognitiv, faoliyat va reflektiv jihatlarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Mazkur komponentlarning har biri bo‘lajak logopedning kasbiy yetukligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Maxsus pedagogika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun kasbiy mas’uliyat - bu oddiy tushuncha emas, balki ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati, insoniy yondashuvi va jamiyat oldidagi burchining asosi hisoblanadi. Mazkur sifatni shakllantirish ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida izchil olib borilishi lozim.


Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son[3] “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. G‘ofurov K. Maxsus pedagogika asoslari. - Toshkent: “Fan”, 2020.
3. Karimova Z. Pedagogik psixologiya. - Samarqand, 2019.
4. Abdullayeva M. Kasbiy ta’lim va mas’uliyat. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2022.
5. Ilmiy maqolalar to‘plami // Pedagogik mahorat va kasbiy rivojlanish jurnali. - 2023-yil, 2-son.
6. Сластенин В. А., Митина Л. М., Абрамова Г. С. Профессионально-педагогическая направленность личности учителя. - Москва: Педагогика, 1997. - 224 с.
7. Манцурова Татьяна Александровна. Формирование профессиональной ответственности социального педагога в вузе: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: 13.00.08. - Нижний Новгород, 2007.

Huquqiy madaniyat shaxsning qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, huquq va majburiyatlarini anglashi, huquqiy normalarga ongli ravishda rioya qilishi hamda huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etish qobiliyatini ifodalaydi. Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish davlatning demokratik rivojlanishi, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt ta'lim jarayonini individuallashtirish, bilimlarni avtomatik baholash, o'quv materiallarini shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish, virtual yordamchilar orqali maslahat berish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Xususan, ChatGPT, Gemini, Copilot kabi generativ sun'iy intellekt tizimlari huquqiy tushunchalarni sodda va tushunarli tarzda izohlash, amaliy vaziyatlarni modellashtirish hamda interaktiv o'qitishni tashkil etishda muhim vositaga aylanmoqda.

Shunga qaramasdan, sun'iy intellektdan foydalanishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, noto'g'ri yoki eskirgan huquqiy ma'lumotlarning taqdim etilishi, akademik halollik tamoyillarining buzilishi, algoritmik xatolar hamda sun'iy intellekt tizimlariga ortiqcha qaramlik kabi omillar ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ham aynan sun'iy intellektning talabalar huquqiy madaniyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va cheklovlarini kompleks tahlil qilish zarurati bilan izohlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi yuridik va pedagogik adabiyotlarda keng o'rganilgan. Olimlarning fikricha, huquqiy madaniyat shaxsning huquqiy bilimlari, huquqiy ongi, huquqiy tafakkuri hamda qonunlarga hurmatini o'z ichiga oladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

UNESCO sun'iy intellekt ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish va talabalarning mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, tashkilot akademik halollik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratishni tavsiya etadi [1].

Russell va Norvig kabi olimlar sun'iy intellektni murakkab masalalarni inson kabi tahlil qilish va yechishga qodir texnologiyalar majmui sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, sun'iy intellekt ta'limda bilimlarni tezkor tahlil qilish, o'quv jarayonini avtomatlashtirish va shaxsiylashtirish imkonini beradi [2].

Egamberganov talabalar huquqiy madaniyatini rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi interaktiv platformalar va virtual huquqiy maslahatchilar samarali vosita ekanligini asoslaydi [4]. Kadirova sun'iy intellektning yoshlar huquqiy ongini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilib, chatbotlar va raqamli platformalar huquqiy savodxonlikni oshirishga xizmat qilishini qayd etadi [3].

Shu bilan birga, ayrim olimlar sun'iy intellekt platformalaridan foydalanishda sun'iy intellekt tomonidan olinayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi hamda ko'pgina vaziyatlarda ushbu zamonaviy ta'lim talabalarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli ham yuqori ekanligini ta'kidlab o'tmoqdalar. Shu sababli ham sun'iy intellektdan foydalanishda, albatta, o'qituvchi nazorati hamda ma'lumotlarni avval tekshirib, keyin ulardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda turli xil metodlarning uyg'unlashgan yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent tahlili hamda umumlashtirish usullari tashkil etdi. Xususan, adaptiv o'quv platformalari, virtual huquqiy maslahatchilar, chatbotlar, avtomatlashtirilgan test tizimlari hamda generativ sun'iy intellekt vositalarining imkoniyatlari qiyoslandi.

Tahlil jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- huquqiy bilimlarning oshishi;
- huquqiy tafakkurning rivojlanishi;
- mustaqil ta'lim samaradorligi;
- axborotga tezkor kirish imkoniyati;
- talabalarning motivatsiyasi;
- tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi.

Bundan tashqari, SWOT tahlili yordamida sun'iy intellektning huquqiy ta'limdagi kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy xavflari baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli ilmiy manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi, tahlil qilindi va umumlashtirildi. Olingan natijalar ilmiy mantiq, obyektivlik hamda tizimlilik tamoyillari asosida talqin qilindi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini oliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Tahlillar davomida aniqlanishicha, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari talabalarga huquqiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, murakkab huquqiy tushunchalarni sodda shaklda tushunish hamda qonunchilikdagi yangiliklardan tezkor xabardor bo‘lish imkonini beradi.

Huquqiy madaniyatni rivojlantirishda sun’iy intellektning samaradorligi quyidagi yo‘nalishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Huquqiy axborotga tezkor kirish. An’anaviy ta’limda talabalar zarur huquqiy ma’lumotni topish uchun ko‘plab darsliklar va normativ-huquqiy hujjatlarni ko‘rib chiqishga majbur bo‘lsa, sun’iy intellekt tizimlari qisqa vaqt ichida kerakli ma’lumotni izlab topish va izohlash imkoniyatini yaratadi.

Masalan:

- Konstitutsiyaviy huquqlarni sodda tilda tushuntirish;
- mehnat huquqi bo‘yicha amaliy vaziyatlarni sharhlash;
- fuqarolik huquqidagi nizolarni modellashtirish;
- qonunlarning mazmunini qisqa tahlil qilish.
- Bu esa talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Individual o‘qitish imkoniyati. Sun’iy intellekt har bir talabaga uning bilim darajasiga mos topshiriqlarni tavsiya etadi. Adaptiv ta’lim algoritmlari talabaning qaysi mavzuda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlaydi va qo‘shimcha tushuntirishlarni taklif qiladi.

Interaktiv huquqiy ta’lim. Chatbotlar va virtual yordamchilar talabalar bilan tizimli muloqot olib boradi. Masalan, talaba quyidagi savollarni berishi mumkin: “Fuqarolik shartnomasi nima?”, “Ma’muriy javobgarlik qachon yuzaga keladi?”, “Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari qaysilar?” Sun’iy intellekt qisqa muddat ichida javob berib, qo‘shimcha misollar ham keltiradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari talabalar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt vositalari murakkab huquqiy masalalarni oddiy va tushunarli shaklda izohlash orqali ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirmoqda.

Huquqiy madaniyat faqat qonunlarni bilish bilangina emas, balki ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, huquqiy mas’uliyatni his qilish va huquqiy qadriyatlarni kundalik hayotga tatbiq etish bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt vositalari nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Biroq, sun’iy intellektning barcha javoblari mutlaq to‘g‘ri deb qabul qilinmasligi kerak. Huquq sohasi doimiy ravishda yangilanib boradi. Shuning uchun talabalar sun’iy intellekt bergan ma’lumotlarni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan solishtirib, tekshirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari lozim. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellektdan samarali foydalanish quyidagi shartlarga bog‘liq:

- talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish;
- akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya qilish;
- sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etish;
- shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt yordamida virtual sud jarayonlari, elektron kazuslar, adaptiv test tizimlaridan foydalanish ham ko‘zlangan natijani beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini individuallashtirish, huquqiy bilimlarni tezkor egallash, mustaqil ta’limni rivojlantirish hamda huquqiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. - Paris: UNESCO, 2023.
2. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. - Pearson Education, 2021.
3. Kadirova M. A. “Sun’iy intellekt va huquqiy ong: yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni” // “Sun’iy intellektni pedagogik ta’limga integratsiya qilish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Andijon, 2025.
4. Egamberganov A. “Talabalar huquqiy madaniyatini oshirishda sun’iy intellektdan foydalanish masalalari” // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. - 2025.
5. Aliqulova M. M. Innovatsion pedagogika: uslubiy qo‘llanma. - T., 2012.

DEVIANT XULQLI O'QUVCHILARNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0007-3922-2558

Annotatsiya: Ushbu maqolada deviant xulq-atvorga moyil o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida uchraydigan pedagogik va psixologik muammolar tahlil qilinadi. O'quvchilarda me'yoriy xulqdan chekinish holatlarining kelib chiqishiga oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, ta'lim muassasasidagi munosabatlar, nazoratning yetarli emasligi, ruhiy zo'riqish va individual xususiyatlar sabab bo'lishi mumkinligi yoritiladi. Shuningdek, bunday o'quvchilar bilan ishlashda pedagog, psixolog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada deviant xulqning oldini olish, o'quvchining ijobiy fazilatlarini rivojlantirish, individual yondashuvni qo'llash, sog'lom psixologik muhit yaratish hamda tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Muammoni jazolash orqali emas, balki o'quvchini tushunish, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitga moslashtirish orqali hal qilish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: deviant xulq, o'quvchi, tarbiya, pedagogik muammo, psixologik muammo, individual yondashuv, profilaktika, oila, maktab, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological problems that arise in the education of students who demonstrate deviant behavior. It discusses the main factors that may cause students to deviate from accepted behavioral norms, including an unhealthy family environment, peer influence, difficulties in school relationships, insufficient supervision, psychological stress and individual personality characteristics. Particular attention is paid to cooperation among teachers, psychologists and parents in supporting such students. The article provides practical recommendations for preventing deviant behavior, developing positive personal qualities, applying an individual approach, creating a healthy psychological environment and organizing educational activities systematically. It is emphasized that the problem should be addressed not through punishment, but through understanding, emotional support and the successful social adaptation of the student.

Key words: deviant behavior, student, education, pedagogical problem, psychological problem, individual approach, prevention, family, school, social adaptation.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические и психологические проблемы, возникающие в процессе воспитания учащихся, склонных к девиантному поведению. Анализируются основные причины отклонения поведения школьников от общепринятых норм, среди которых семейная обстановка, влияние сверстников, неблагоприятные отношения в образовательной организации, недостаточный контроль, психологическое напряжение и индивидуальные особенности личности. Особое внимание уделяется сотрудничеству педагогов, психологов и родителей при работе с такими учащимися. В статье представлены практические рекомендации по профилактике девиантного поведения, развитию положительных качеств личности, применению индивидуального подхода, созданию здоровой психологической атмосферы и системной организации воспитательной работы. Обосновывается необходимость решения проблемы не посредством наказания, а через понимание, поддержку и успешную социальную адаптацию учащегося.

Ключевые слова: девиантное поведение, учащийся, воспитание, педагогическая проблема, психологическая проблема, индивидуальный подход, профилактика, семья, школа, социальная адаптация.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globallashuv jarayonlari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ayrim o'quvchilarda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari, ya'ni deviant xulq-atvor namoyon bo'lishi kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat ta'lim

muassasalari, balki ota-onalar, pedagoglar, psixologlar hamda keng jamoatchilik oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

Sharq mutafakkirlari tarbiyani inson kamolotining asosiy omili sifatida e’tirof etganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy: “Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir” [7], deya ta’kidlaydi. Ushbu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish faqat nazariy tushuntirish bilan emas, balki sog‘lom pedagogik muhit, shaxsiy namuna va tizimli tarbiyaviy faoliyat orqali amalga oshirilishini anglatadi.

Deviant xulqning shakllanishiga oiladagi nosog‘lom psixologik muhit, ota-onalar nazoratining sustligi, tengdoshlar ta’siri, internetdagi salbiy axborotlar, maktabdagi nizoli vaziyatlar hamda o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari sabab bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishining pasayishiga, intizom buzilishlariga, tajovuzkorlik, befarqlik yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Shu sababli deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlash faqat intizomiy choralar bilan emas, balki ilmiy asoslangan pedagogik va psixologik yondashuvlar orqali tashkil etilishi zarur.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, ularni turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish hamda ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa deviant xulqning kelib chiqish omillarini chuqur o‘rganish, uning oldini olishning samarali pedagogik va psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi deviant xulqli o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida uchraydigan pedagogik va psixologik muammolarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish omillarini aniqlash hamda amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali yechimlarni ilmiy asosda yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulqli o‘quvchilar muammosi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida turli jihatlardan o‘rganilgan. Ilmiy manbalarda deviant xulq faqatgina intizomsizlik yoki tarbiyasizlik natijasi sifatida emas, balki shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy munosabatlar, maktab muhiti, tengdoshlar ta’siri va jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida shakllanadigan murakkab hodisa sifatida talqin qilinadi.

Rossiyalik olima Yelena Zmanovskaya “Девиантология: психология отклоняющегося поведения: учебное пособие для студентов высших учебных заведений” nomli ilmiy asarida deviant xulqning mazmuni, asosiy turlari va yuzaga kelish mexanizmlarini tizimli ravishda yoritgan. Uning fikricha, shaxsning xulq-atvoridagi og‘ishlarni faqat bitta sabab bilan izohlash mumkin emas. Bunda biologik, psixologik va ijtimoiy omillar birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Muallif tajovuzkorlik, qaramlik, huquqbuzarlik, o‘ziga zarar yetkazishga moyillik kabi holatlarni deviant xulqning turli shakllari sifatida tahlil qiladi. Zmanovskaya bunday o‘quvchilar bilan ishlashda tashxis, profilaktika, psixologik maslahat va korreksion ishlarning o‘zaro bog‘liq holda olib borilishi zarurligini ta’kidlaydi. Olimaning yondashuvi deviant o‘quvchini ayblashdan oldin uning xatti-harakatini yuzaga keltirgan ichki va tashqi sabablarni aniqlash muhimligini ko‘rsatadi [1].

Foat Zinnurov o‘zining “Педагогическая профилактика и коррекция девиантного поведения подростков в социокультурной среде” mavzusidagi tadqiqotida muammoni ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liq holda o‘rgangan. Tadqiqotchining fikricha, deviant xulqning oldini olish bir martalik suhbat yoki intizomiy chora bilan cheklanmasligi kerak. Buning uchun maktab, oila, mahalla, qo‘shimcha ta’lim va yoshlar tashkilotlari faoliyatini birlashtiradigan yaxlit pedagogik tizim zarur. Zinnurov profilaktika jarayonida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish hamda kattalar bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishni muhim pedagogik shart sifatida ko‘rsatadi [2].

Aleksandr Podlipalin deviant xulqning norasmiy yoshlar submadaniyati va raqamli muhit ta’sirida shakllanishini tadqiq qilgan. Uning tadqiqotida o‘smirning norasmiy guruhlarga qo‘shilishi ba’zan oilada, maktabda yoki tengdoshlar orasida yetarli qo‘llab-quvvatlash topa olmagani bilan bog‘lanadi. Muallif profilaktika samarali bo‘lishi uchun o‘smirning emotsional barqarorligini rivojlantirish, xavfsiz raqamli muhit yaratish, ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash hamda o‘quvchini ijtimoiy ahamiyatga ega madaniy faoliyatga jalb qilish zarurligini asoslaydi. Uning modelida o‘quvchi, ota-ona, pedagog va o‘smirga ta’sir qiluvchi submadaniy muhit bilan birgalikda ishlash nazarda tutilgan [3].

Amerikalik tadqiqotchilar Ming-Te Wang va Thomas Dishion o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarda maktab muhiti, deviant tengdoshlar bilan yaqinlashish va xulqiy muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni uzoq muddatli tadqiqot asosida o‘rganganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning maktabdagi ijtimoiy muhitni salbiy qabul qilishi kuchaygan sari xulqiy muammolar va deviant tengdoshlar bilan aloqalar ham ortib borgan. Aksincha, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy munosabat, aniq va adolatli qoidalar hamda maktabga tegishlilik hissi o‘quvchini salbiy guruhlar ta’siridan himoya qiladi. Bu natijalar deviant xulqni faqat oiladagi kamchiliklar bilan bog‘lash noto‘g‘ri ekanini, maktabdagi psixologik muhit ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi [3].

Yanhong Ouyang va uning hammualliflari ota-onalarning farzand ta'limiga bo'lgan umidi, o'smirning o'z kelajagiga ishonchi, deviant tengdoshlar ta'siri va muammoli xulq o'rtasidagi munosabatni o'rgangan. Tadqiqotda ota-onaning farzandi kelajagiga befarq bo'lmasligi, uning ta'limiy maqsadlarini qo'llab-quvvatlashi va xatti-harakatini oqilona nazorat qilishi himoya omili sifatida namoyon bo'lgan. O'smirning ta'lim olishga bo'lgan shaxsiy intilishi kuchli bo'lsa, uning salbiy xulqli guruhlarga qo'shilish ehtimoli kamaygan. Aksincha, deviant tengdoshlar bilan yaqin munosabat muammoli va qoidabuzar xatti-harakatlarning ortishiga sabab bo'luvchi muhim xavf omili sifatida aniqlangan [6].

Shuang Liu va uning hamkasblari oiladagi ota-ona nizolari, o'quvchining maktabga bog'liqligi, impulsivlik va huquqbuzarlikka moyil xulq o'rtasidagi munosabatni tadqiq etganlar. Tadqiqotda 1407 nafar o'smir ishtirok etgan. Natijalar ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolar o'smirning maktabga bo'lgan ishonchi va tegishlilik hissini pasaytirishini ko'rsatgan. Maktab bilan hissiy aloqasi zaiflashgan o'quvchilarda qoidabuzarlik va tajovuzkor xatti-harakatlar ko'proq uchragan. Shu bilan birga, maktabga kuchli bog'liqlik, o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va sinfdagi ijobiy munosabatlar hatto impulsiv o'quvchilarni ham salbiy xatti-harakatlardan himoya qilishi mumkinligi aniqlangan [4].

Abeer AlMakadma boshchiligidagi tadqiqotchilar o'quvchining ota-ona va maktab bilan bog'liqligi, dars qoldirish, janjallashish hamda maktab intizomini buzish holatlarini tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabga hissiy jihatdan bog'langan, o'qituvchilar bilan ishonchli munosabat o'rnatgan va ota-onasi tomonidan oqilona nazorat qilinadigan o'quvchilarda xavfli xatti-harakatlar kamroq uchragan. Dars qoldirish, mushtlashish va intizomiy jazoga sabab bo'ladigan holatlar esa maktab bilan aloqasi va ota-ona nazorati sust bo'lgan o'quvchilar orasida ko'proq kuzatilgan. Muallif maktab va oilani birlashtiruvchi tarbiyaviy dasturlarni profilaktikaning asosiy vositalaridan biri deb hisoblaydi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida yuzaga keladigan pedagogik-psixologik muammolar va ularning yechimlarini o'rganishga qaratilgan nazariy-tahliliy metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, pedagogik hamda psixologik tadqiqotlar o'rganilib, ularda ilgari surilgan ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu usul orqali turli tadqiqotchilarning deviant xulqning kelib chiqish sabablari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi oilaviy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar haqidagi qarashlari o'zaro taqqoslandi. Xususan, oila muhiti, ota-ona nazorati, maktabdagi psixologik muhit, tengdoshlar ta'siri, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari hamda o'smirning individual xususiyatlariga doir ilmiy natijalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, tizimli tahlil usuli yordamida deviant xulq alohida bir omilning natijasi sifatida emas, balki oila, maktab, tengdoshlar muhiti va o'quvchining individual psixologik xususiyatlari o'zaro ta'sirida shakllanadigan murakkab pedagogik-psixologik hodisa sifatida o'rganildi. Mazkur yondashuv deviant xulqning kelib chiqish sabablarini kompleks tarzda baholash hamda profilaktik va korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Bundan tashqari, umumlashtirish va sintez usullaridan foydalanilib, o'rganilgan ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar va tadqiqot natijalari bir tizimga keltirildi. Natijada deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv, sog'lom psixologik muhit yaratish, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish, o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish hamda profilaktik ishlarni tizimli tashkil etish muhim pedagogik-psixologik yo'nalishlar sifatida ajratib olindi.

Qo'llanilgan metodlar tadqiqot mavzusiga oid ilmiy qarashlarni o'zaro taqqoslash, mavjud muammolarning asosiy sabablarini tizimlashtirish va deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning samarali pedagogik-psixologik yechimlarini umumlashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Deviant xulqli o'quvchilar bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bunday xatti-harakatlar ko'pincha birdaniga yuzaga kelmaydi. Ular ma'lum vaqt davomida shakllanib, oila, maktab, tengdoshlar muhiti va o'quvchining ichki kechinmalari ta'sirida kuchayib boradi. Shu sababli o'quvchining intizomga rioya qilmasligi, dars qoldirishi, tajovuzkorligi yoki kattalar talabiga qarshilik ko'rsatishini faqat tarbiyasizlik deb baholash to'g'ri emas. Har bir salbiy xatti-harakat ortida ma'lum bir sabab, ehtiyoj yoki hal qilinmagan psixologik muammo bo'lishi mumkin.

Avvalo, oilaviy muhit o'quvchining xulq-atvori shakllanishida katta ahamiyatga ega. Oilada doimiy nizolarning mavjudligi, bolaga nisbatan befarqlik, haddan tashqari qattiqqo'llik yoki nazoratning umuman yo'qligi uning

ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Ba'zan ota-onalar farzandining moddiy ehtiyojlarini ta'minlashni tarbiyaning asosiy sharti deb hisoblaydilar. Biroq bola uchun e'tibor, samimiy suhbat, ishonch va ruhiy qo'llab-quvvatlash ham muhimdir. Ota-onasi bilan erkin muloqot qila olmaydigan o'quvchi o'z muammolarini tengdoshlari yoki internetdagi turli guruhlar orqali hal qilishga urinishi mumkin. Bu esa uni salbiy ta'sirlarga yanada yaqinlashtiradi.

Maktabdagi munosabatlar ham deviant xulqning kuchayishi yoki kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchini doimiy tanqid qilish, uni boshqalar oldida kamsitish yoki faqat kamchiliklariga e'tibor qaratish unda norozilik va qarshilik hissini paydo qiladi. Ayrim hollarda o'quvchi o'zini himoya qilish maqsadida qo'pol yoki tajovuzkor munosabatni tanlaydi. Aslida esa bunday holat uning ichki himoya reaksiyasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun pedagog o'quvchining xulqini baholashdan oldin uning ruhiy holatini va muammoning kelib chiqish sabablarini tushunishga harakat qilishi zarur.

Deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda jazolash usuli ko'pincha kutilgan natijani bermaydi. Haddan tashqari qattiq jazo o'quvchida qo'rquv, yolg'on gapirish, yashirin qarshilik yoki o'ch olish istagini kuchaytirishi mumkin. Jazodan keyin bola ma'lum vaqt o'zini tartibli tutishi mumkin, biroq muammoning asl sababi bartaraf etilmasa, salbiy xatti-harakat yana takrorlanadi. Shu bois tarbiyaviy jarayonda jazo o'rniga tushuntirish, mas'uliyatni his qildirish, xatti-harakat oqibatlarini anglatish va ijobiy faoliyatga yo'naltirish samaraliroq hisoblanadi.

Tengdoshlar ta'siri ham o'smirlik davrida alohida kuchga ega bo'ladi. O'quvchi o'zini guruhning bir qismi sifatida his qilishni istaydi va shu sababli do'stlarining xatti-harakatlarini takrorlashi mumkin. Agar u ijobiy maqsadga ega jamoaga qo'shilsa, unda mas'uliyat, hamkorlik va o'ziga ishonch shakllanadi. Aksincha, salbiy xulqqa moyil guruh bilan yaqinlashish dars qoldirish, janjallashish, yolg'on gapirish yoki huquqbuzarlik kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun maktabda o'quvchilarni sport, san'at, kitobxonlik, texnika, ijodkorlik va jamoatchilik ishlariga jalb qilish profilaktik jihatdan muhimdir.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Nazoratsiz axborot oqimi o'quvchining dunyoqarashi va xulqiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi videolar, zararli guruhlar, kiberbulling va turli xavfli chaqiriqlar o'smirning ruhiy holatini izdan chiqaradi. Bunday vaziyatda internetdan foydalanishni butunlay taqiqlash to'g'ri yechim emas. Aksincha, o'quvchilarda axborotni tanqidiy baholash, zararli va foydali kontentni farqlash hamda raqamli xavfsizlik qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Deviant xulqni bartaraf etishda maktab psixologining faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Psixolog o'quvchini faqat muammo yuzaga kelganda emas, balki muntazam ravishda kuzatib borishi kerak. Individual suhbat, psixologik diagnostika, trening va korreksion mashg'ulotlar yordamida o'quvchining tajovuzkorligi, xavotiri, o'ziga ishonchsizligi yoki muloqotdagi qiyinchiliklarini aniqlash mumkin. Bunda o'quvchining shaxsiy ma'lumotlari va ichki kechinmalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish muhimdir. Agar bola psixologga ishonmasa, u o'z muammosini ochiq aytmaydi va yordam jarayoni samarasiz bo'lib qoladi.

Pedagog, psixolog va ota-onaning birgalikdagi hamkorligi muammoni hal etishning eng muhim shartidir. Amaliyotda ba'zan ota-ona barcha mas'uliyatni maktab zimmasiga yuklaydi, maktab esa muammoni oiladagi tarbiya bilan izohlaydi. Bunday yondashuv natijada o'quvchining holati yanada murakkablashadi. Tomonlar bir-birini ayblash o'rniga umumiy maqsad asosida harakat qilishi, o'quvchi uchun yagona va tushunarli talablarni belgilashi kerak. Oilada bir xil, maktabda esa boshqa xil talab qo'yilishi o'quvchida noaniqlik va ikkilanishni yuzaga keltiradi.

Deviant xulqli o'quvchini faqat kamchiliklari orqali baholash ham to'g'ri emas. Har bir bolada ma'lum bir qobiliyat, qiziqish yoki ijobiy fazilat mavjud. Pedagog shu jihatni topib, uni rivojlantira olsa, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Masalan, darsda faolligi past bo'lgan o'quvchi sport, musiqa, rasm chizish, texnika yoki tashkilotchilikda yaxshi natija ko'rsatishi mumkin. Uning yutug'ini e'tirof etish va kichik muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish xulqdagi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Shuningdek, profilaktik ishlar faqat muammoli o'quvchilar bilan chegaralanmasligi lozim. Sinfdagi sog'lom psixologik muhit, o'zaro hurmat, do'stona muloqot va adolatli munosabat barcha o'quvchilar uchun zarurdir. Maktabda kamsitish, masxara qilish va zo'ravonlikka yo'l qo'yilmasligi kerak. Sinf rahbari o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni kuzatib borishi, nizolarni erta aniqlashi va ularni tinch yo'l bilan hal qilishga o'rgatishi muhimdir.

Umuman olganda, deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashda yagona va barcha bolalarga bir xil ta'sir qiladigan usul mavjud emas. Har bir o'quvchining oilaviy sharoiti, xarakteri, yoshi, qiziqishi va muammosi alohida hisobga olinishi kerak. Eng samarali yondashuv o'quvchini jazolash emas, balki uning holatini tushunish, unga ishonch bildirish, ijobiy muhit yaratish va jamiyatga moslashishiga yordam berishdan iborat. Ana shunday insonparvar va tizimli yondashuvgina o'quvchi xulqida barqaror ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Deviant xulqli o‘quvchilarni tarbiyalash masalasi murakkab pedagogik va psixologik yondashuvni talab qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining me’yoriy xulqdan chekinishi faqat uning shaxsiy kamchiligi yoki tarbiyasizligi bilan izohlanmaydi. Bunday holatlarning shakllanishiga oiladagi nosog‘lom muhit, ota-ona nazoratining sustligi, maktabdagi nizolar, tengdoshlarning salbiy ta’siri, internetdagi zararli axborotlar, ruhiy zo‘riqish, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bois deviant xulqli o‘quvchini faqat jazolash, tanbeh berish yoki undan yuqori talab qilish orqali muammoni hal etib bo‘lmaydi. Bunday choralar ayrim hollarda qisqa muddatli natija berishi mumkin, biroq xulqdagi og‘ishlarning asosiy sababi bartaraf etilmasa, muammo yana takrorlanadi. Samarali tarbiya o‘quvchining ichki kechinmalarini tushunish, unga ishonch bildirish, ijobiy sifatlarini qo‘llab-quvvatlash va jamiyatga moslashishiga yordam berishga asoslanishi kerak.

Deviant xulqning oldini olishda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Pedagog, psixolog va ota-ona o‘quvchi bilan ishlashda yagona maqsad va yondashuv asosida harakat qilsa, tarbiyaviy ishlarning samaradorligi ortadi. Ayniqsa, maktabda sog‘lom psixologik muhit yaratish, o‘quvchini kamsitmaslik, uning fikrini tinglash va qobiliyatlarini namoyon etish uchun imkoniyat berish xulqdagi ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Shuningdek, har bir o‘quvchiga individual yondashish zarur. Chunki bir o‘quvchiga foyda bergan usul boshqa o‘quvchida kutilgan natijani bermasligi mumkin. O‘quvchining yoshi, xarakteri, oilaviy sharoiti, qiziqishlari va psixologik holati hisobga olingan holda tarbiyaviy reja ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Shu asosda deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashda insonparvarlik, sabr-toqat, izchillik va hamkorlik asosiy tamoyillar bo‘lishi lozim.

Deviant xulqning dastlabki belgilarini erta aniqlash uchun sinf rahbari, fan o‘qituvchisi va maktab psixologi o‘quvchilarning darsdagi faolligi, tengdoshlari bilan munosabati, kayfiyati va xatti-harakatidagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatib borishi zarur.

Har bir muammoli o‘quvchi uchun individual pedagogik-psixologik tavsifnoma va korreksion ish rejasi ishlab chiqilishi kerak. Ushbu rejada o‘quvchining muammolari bilan bir qatorda uning kuchli tomonlari, qiziqishlari va qobiliyatlari ham hisobga olinishi lozim.

Ota-onalar bilan muntazam suhbatlar, maslahatlar va tarbiyaviy treninglar tashkil etish muhimdir. Bunda ota-onani ayblash emas, balki farzand tarbiyasidagi muammoni birgalikda hal etishga yo‘naltirish kerak.

Maktabda o‘quvchilarni kamsitish, masxara qilish, zo‘ravonlik va kiberbulling holatlarining oldini olishga qaratilgan aniq qoidalar va profilaktik tadbirlar yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Deviant xulqqa moyil o‘quvchilarni sport, san’at, kitobxonlik, kasb-hunar, texnik ijodkorlik va jamoatchilik ishlariga jalb etish lozim. Mazmunli faoliyat o‘quvchining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etadi va unda o‘ziga ishonchni oshiradi.

Pedagoglar o‘quvchini boshqalar oldida haqoratlash, tamg‘alash yoki faqat kamchiliklari orqali baholashdan voz kechishi kerak. Kichik yutuqlarni ham e’tirof etish va rag‘batlantirish ijobiy xulqning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Maktab psixologi tomonidan individual suhbatlar, psixologik treninglar, nizolarni hal qilish mashg‘ulotlari, tajovuzkorlikni kamaytirish va hissiyotlarni boshqarishga qaratilgan korreksion dasturlar muntazam tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarda internetdan xavfsiz foydalanish, zararli axborotni ajratish, kiberbullingdan himoyalanish va raqamli madaniyat ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazilishi kerak.

Sinfda o‘zaro hurmat, ishonch, hamjihatlik va adolatga asoslangan psixologik muhit yaratish lozim. Bunday muhit o‘quvchining maktabga bog‘liqligini kuchaytirib, deviant xulqning oldini olishga xizmat qiladi.

Deviant xulq bilan bog‘liq murakkab holatlarda maktab, ota-ona, mahalla, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi mutaxassislar va zarur hollarda tibbiy-psixologik xizmatlar o‘rtasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Змановская Е. В. Девиантология: психология отклоняющегося поведения: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Академия, 2004. – 288 с.
2. Зиннуров Ф. К. Педагогическая профилактика и коррекция девиантного поведения подростков в социокультурной среде: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01. – Казань, 2012.
3. Wang M. T., Dishion T. J. The trajectories of adolescents' perceptions of school climate, deviant peer affiliation, and behavioral problems during the middle school years // Journal of Research on Adolescence. – 2012. – Vol. 22, No. 1. – P. 40–53. – DOI: 10.1111/j.1532-7795.2011.00763.x.

4. Liu S., Yu C., Conner B. T., Wang S., Lai W., Zhang W. Influence of inter-parental conflict on adolescent delinquency via school connectedness: Is impulsivity a vulnerability or plasticity factor? // Journal of Adolescence. – 2016. – Vol. 52. – P. 12–21. – DOI: 10.1016/j.adolescence.2016.07.001.
5. AlMakadma A. S., Ramisetty-Mikler S. Student, school, parent connectedness, and school risk behaviors of adolescents in Saudi Arabia // International Journal of Pediatrics and Adolescent Medicine. – 2015. – Vol. 2, No. 3–4. – P. 128–135. – DOI: 10.1016/j.ijpam.2015.09.003.
6. Ouyang Y., Wang K., Zhang T., Peng L., Song G., Luo J. The influence of parental educational expectations on adolescent problem behaviors: The role of adolescent self-educational expectations and deviant peer affiliations // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2023. – Vol. 20, No. 3. – Article 2005. – DOI: 10.3390/ijerph20032005.
7. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b. – B. 184.

MULOQOT VA UNI O'SMIRLIK YOSHIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Orifova Saboat Yakubovna
Namangan viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smir yoshidagi o'quvchilarda muloqot va uni rivojlantirish masalalari bo'yicha ma'lumotlar hamda amaliy mashg'ulotlardan namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, o'quvchi, rivojlantirish, ko'nikma, trening, faoliyat.

Abstract: This article discusses the issues of mutual communication of adolescents and their development, as well as examples of practical exercises.

Key words: communication, student, development, skill, training, activity.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы взаимообщения подростков и их развитие, а также приведены образцы практических занятий.

Ключевые слова: общение, ученик, развитие, умение, тренинг, деятельность.

KIRISH

Muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muhim shakli bo'lib, insonga xos bo'lgan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Inson boshqa kishilar bilan insoniy muomalada bo'lishi uchun u, albatta, muayyan psixologik madaniyatni egallagan bo'lishi kerak. Bu madaniyat quyidagilarni nazarda tutadi: odamlarni bilish va ularning psixologiyasini to'g'ri baholash, xulq-atvoriga xuddi shunday xushmuomalalik bilan javob berish, har bir kishiga nisbatan munosib muomala usullarini tanlash kabilar.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qaysi sohani qaramang, mehnat va o'quv faoliyati samaradorligi insonlar o'rtasidagi muomala va muloqotning qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Shunday ekan, kelajagimiz poydevori bo'lmish yoshlar, yosh mutaxassislarimizga amaliy yordam berish maqsadida ulardagi muloqotchanlik malakalarini yanada rivojlantirish, ya'ni turli xil sharoit va vaziyatlarda insonlar bilan to'g'ri muloqot o'rnata olish, muloqot madaniyati va odobi, so'zlashish san'ati kabi sifatlarni tarbiyalash zarur.

Kishi muomala sirlarini to'la egallagan bo'lsa, u har qanday holatda ham o'zini namoyon eta oladi va noqulay vaziyatlardan chiqa oladi. O'quvchilarga faqat insoniy muomalaning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida axborot berib qolmasdan, shu bilan birga ularga maxsus o'yin va mashqlar yo'li bilan ham muomala usullarini o'rgatish kerak.

Muloqot kishining alohida ehtiyoji - boshqa kishilar bilan o'zaro muloqot o'rnatish ehtiyojini qondiradi. Bu ehtiyoj insonning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq bo'lib, kishilarning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi bilan vujudga keladi.

Muloqot shaxsning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, muloqotsiz shaxsning tarkib topishi mumkin emas. Aynan muloqot jarayonida tajriba o'zlashtiriladi, bilimlar to'planadi, amaliy ko'nikma va malakalar shakllanadi, e'tiqod va qarashlarga erishiladi. Faqat muloqot jarayonidagina ma'naviy ehtiyojlar, axloqiy, siyosiy va estetik hislar tarkib topadi va xarakter shakllanadi.

Bu mamlakatimizda ro'y berayotgan jadal rivojlanish sharoitida inson uchun eng muhim sifat sanaladi. Ana shuni hisobga olib, ushbu maqolada pedagoglarimiz uchun bola tarbiyasida muomala sirlarini egallashga yordam beradigan ma'lumotlar bermoqchimiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘smirlik davrida muloqotning shakllanishi va rivojlanishi pedagogika hamda psixologiyada muhim masalalardan biri sifatida o‘rganiladi. O‘quvchilarning jamoaga moslashishi, tengdoshlari va kattalar bilan samarali munosabat o‘rnatishi ularning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Muloqot jarayonidagi psixologik muhit va shaxslararo munosabatlar masalalari A. Anikeevaning “Jamoada ruhiy muhit” asarida yoritilgan. Mazkur manba jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish va shaxslararo munosabatlarni tashkil etish masalalarini o‘rganishda muhim ilmiy-uslubiy manbalardan biri hisoblanadi.

Z. Tasqaraevaning “Psixologik xizmat” asari esa ta’lim muhitida psixologik xizmatni tashkil etish bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda foydalaniladigan manbalardan biridir. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning muloqot jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarini aniqlash hamda tegishli psixologik-pedagogik yordamni tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Ko‘pgina o‘smirlar va yuqori sinf o‘quvchilari yolg‘izlik va xavotirlik kechinmalarini boshdan kechiradilar. Tevarak-atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarning buzilishi asab xastaligining vujudga kelishi uchun zamin bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Odatda, muomalani tuzatishga odamlarga aralashmaydigan va “tajovuzkor” o‘quvchilar deb ataladigan bolalar ehtiyoj sezadilar. Ularda ham ko‘pincha aynan bir xil sabab - haddan tashqari xavotirlanish xususiyati paydo bo‘ladi. Uni yuzaga keltiruvchi obyektlar - tengdoshlar, o‘qituvchilar, ota-onalar, bolalarga xos qo‘rquv, dars va hokazolardir.

Hatto ba’zi o‘quvchilar o‘z ota-onalari va yaqinlariga ham ichki his-tuyg‘ularini tushuntirib bera olmaydilar va ichki ruhiy siqiqlikdan aziyat chekadilar. Bu bolaning ruhiy zo‘riqishiga sabab bo‘lib, uning faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun o‘quvchi bog‘cha va maktab yoshidayoq fikrlarini qiyinchiliksiz bildira olishi, boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnata olish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Yuqoridagi ilmiy-uslubiy qarashlardan kelib chiqib, o‘quvchilarda muloqotchanlik malakalarini rivojlantirishda psixologik o‘yinlar, treninglar va maxsus mashqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida pedagoglar uchun o‘quvchilarda ana shunday muloqotchanlik malakalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan namunalar keltiriladi. Bunday mashg‘ulotlarni samarali olib borish o‘qituvchidan alohida pedagogik va psixologik mahorat talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Psixologik o‘yin va mashqlar o‘tkazuvchi boshlovchi quyidagi qoidalarga rioya qilishi zarur:

1. Muloqotning muhim belgisi - alohida psixologik vaziyat yaratish; u oshkoraligi, qatnashchilarning o‘zaro xayrixohligi, bir-biriga ishonchi bilan ajralib turadi.
2. Maqbul munosabatlarni avj oldirishda tashabbus ko‘rsatish, suhbatdosh sari birinchi qadam qo‘ya bilish.
3. Noqulay vaziyatlarni bartaraf eta olish.
4. Psixologik pozitsiyalarning tengligi, hamkorlik qiluvchi sherik bo‘lish qobiliyati.
5. Diqqatni taqsimlay olish.
6. Kuzatuvchanlik.
7. Kishining xatti-harakatlarini tahlil qilish, uning sabablarini ko‘ra bilish qobiliyati.
8. Turli vaziyatlarda muomalada o‘zini boshqara bilish.

Mashg‘ulot boshlashda o‘quvchilar guruhiga ruhiy holatning tashqi ko‘rinishga ham naqadar bog‘liq ekanligini xayrixohlik bilan tushuntirib berish va namoyish qilish kerak. Masalan, jur’atsiz holat, ishonchsiz odim tashlash, titroq ovoz, xavotirlik holatini faqatgina kuchaytiradi va boshqalarga ta’sir qiladi. O‘quvchilarning zo‘riqish holatini bo‘shashtirishga, “siqiqlikni yozish”ga o‘rgatish zarur.

Mashg‘ulotlarni shovqin eshitilmaydigan, yaxshi jihozlangan, yarim qorong‘i, toza havo yetarli bo‘lgan xonalarda o‘tkazilgani ma’qulroq. O‘quvchilarni bir-birlari bilan qulayroq muloqotda bo‘lishlari uchun doira shaklida o‘tqazish kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-mashq. **“Introskop”**

Maqsad: Mashg‘ulotda qatnashishga ruhiy tayyorlash, o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish.

O‘tkazish qoidasi: Bu mashqning nomi ichki tomonni ko‘rish uchun moslama, degan ma’noni anglatadi. Boshlovchi har kimga bu moslamani o‘ziga “ulab olish”ni taklif etadi, bunda quyidagi topshiriqlar bilan ish olib boriladi:

1. Stul yoki kursiga qulay joylashib olib, ko‘zni yumish. Qaysi qo‘l - o‘ng qo‘lmi yoki chap qo‘l - issiqroq ekanligini aniqlash. Fikrlash uchun 15 soniya vaqt beriladi.
2. Qaysi oyoq issiqroq?
3. Gavdaning qaysi qismi ancha issiqroq?
4. Qaysi qismi eng sovuqroq?
5. Yuzning qaysi qismi ancha issiqroq? Va hokazo.

Dastlabki javoblarning ko‘plari ishonchsizlik bilan topilgan bo‘ladi. Ko‘pincha ishtirokchilar bir xil baho berishga qiynaladilar: ularning sezgilari tarqoq va tutqich bermas bo‘ladi. Dastlabki sinovlarda guruhga yordam berish, shubhalanuvchilarni ruhlantirish, jur’atsizlarga sekingina turtki berish kerak. Takroriy urinishlarda qatnashchilarning fikrlari odatda ancha aniqroq bo‘lib boradi, bu hol o‘z gavdasini “ichki tomondan” idrok etishda birmuncha ko‘nikma hosil qilganidan dalolat beradi. Shuni esda tutish kerakki, yurak sohasi hech vaqt introskopiya bo‘lmasligi lozim.

2. “Intervyu”

Maqsad: O‘quvchilarda dastlabki muloqotga kirishish malakalarini shakllantirish.

O‘tkazish qoidasi: O‘quvchilar ikki kishidan sheriklarga ajraladilar va bir-birlaridan intervyu oladilar. Bunda quyidagicha savollar berilishi mumkin:

1. Sevimli mashg‘uloting bormi?
2. Nimalar senga ko‘proq yoqmaydi?
3. Oilada necha kishisizlar?
4. Kelajakda kim bo‘lmoqchisan?
5. Sen eng ko‘p nimadan qo‘rqasan?
6. Qaysi kino yoki qo‘shiqchini yoqtirasan? Va hokazo.

Har bir kishi ko‘pi bilan 5–7 ta savol beradi.

Mashg‘ulotning barcha qatnashchilaridan intervyu olishlari kerak va har bir ishtirokchi endi navbat bilan o‘z sheriklaridan olgan ma’lumotlarni bayon qilib beradi. Birinchi mashg‘ulotlarda qatnashchilarga ular har qanday darajada ro‘y-rost javob berishlari mumkinligi haqida yo‘l-yo‘riq berishlari lozim. To‘la ro‘y-rostlik, qisman ro‘y-rostlik bilan, umuman “niqobda”, o‘zi uchun emas, boshqa odam uchun javob bergandek bo‘lishi mumkin. Bu bir qancha o‘smirlarda ruhiy to‘siqni olib tashlashga yordam beradigan majburiy shartdir. Agar o‘yin mashg‘ulotlarida ishonchli muhit tarkib topsa, niqoblanishga intilish o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

3. “Insoniy fazilat”

Maqsad: Qatnashchilarda xayrixohlik muhitini vujudga keltirish. Ko‘pchilik oldida fikrni erkin bayon qilishga o‘rgatish.

O‘tkazish qoidasi: Navbati bilan har bir ishtirokchi o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib, bittadan eng yaxshi insoniy fazilatlardan aytadilar. Masalan: xushmuomalalik, samimiylik, kamtarinlik, chaqqonlik, epchillik, kirishuvchanlik va hokazo. Ularning hammasi qo‘shilganda ajoyib xarakteristika paydo bo‘lishi kerak.

4. “Mimika va imo-ishoralar”

Maqsad: Muloqotning paralingvistik vositalarini rivojlantirish.

O‘tkazish qoidasi: Qatnashchilar ikki kishidan bo‘lib, bir-birlariga qarama-qarshi holatni yuz va qo‘l harakatlari orqali namoyish etadilar. Masalan: g‘azab va xotirjamlik, g‘am va quvonch, charchoq va tetiklik va hokazolar.

Ikkinchi variant: har bir juftlik sherigiga imo-ishora orqali turli xil topshiriq beradi, masalan, “gulga suv quyish”, “doskani tozalab artish”, “mebellarning o‘rnini almashtirish”. Ikkinchi sherik hammaning oldida tushungan narsasini bajarib berishi kerak.

5. “Dialogli strategiya”

Maqsad: Og‘zaki (so‘zli) muloqotni: gapirish va boshqa kishini tinglash malakasini mashq qildirishga qaratilgan.

O‘tkazish qoidasi: Qatnashchilar navbat bilan biror-bir narsa yoki hodisa haqida fikr bildiradi. Masalan, o‘zga sayyoraliklar haqida. Navbatdagi qatnashchi o‘sha fikrni takrorlab, unga o‘z fikrini qo‘shadi va hokazo. Hamma fikrlar qo‘shilib, bir voqea yaratiladi.

II mashg‘ulot

1-mashq. **“Mashhur ertaklar”**

Maqsad: Ma’lum bir rollarni bajarish orqali muloqotga kirishish.

O‘tkazish qoidasi: Mashhur ertaklardan birortasi tanlab olinadi. Masalan, “Qizil shapkacha”, “Uch og‘a-ini botirlar” kabi. Har kimga ma’lum bir rol tanlab beriladi. Rollarni bajarayotganda syujetdan chetga chiqilsa, yanada yaxshiroq bo‘ladi. Mustaqil o‘yin qatnashchilarning qiziqishini orttiradi, ko‘proq diqqat-e’tiborni talab qiladi, muloqotli nutqda ta’sirchan gapirishni mashq qildiradi (tayyorgarlik ko‘rmasdan ertak-sahnachalar o‘ynash), shaxsning o‘zaro fikr almashishga doir refleks xususiyatlarini rag‘batlantiradi.

2. **“Xayoliy loyihalarni himoya qilish”**

Maqsad: Xavotirlikni olib tashlash, kulgili bo‘lib ko‘rinishdan qo‘rquvga barham berish.

O‘tkazish qoidasi: Ko‘ngillilarga muayyan mavzuda loyihalar o‘ylab topish (mustaqil ravishda yoki birlashgan holda) tavsiya etiladi: “Suv ostidagi uyning loyihasi”, “Fazoviy shaharcha loyihasi”, “Changalzorda yura oladigan vezdexod loyihasi” va hokazo. Loyihani himoya qilish shartlari quyidagichadir: loyihalarni bezatishda vatman qog‘ozdagi chizmadan, sinf taxtasida bo‘r bilan ishlangan rasmlardan foydalanish mumkin.

Loyihalarni himoya qilish muallifni vaziyat xo‘jayini mavqeiga chiqarib qo‘yadi. O‘z loyihalari bilan biror marta ham chiqa olishga jur’at eta olmaydigan (avvalo, aqliy rivojlanishi past darajada bo‘lganligi sababli) bolalar ham topiladi. Lekin ular buning o‘rnini faollik bilan himoya qilayotganlarga savol berish orqali qoplashga urinadilar. Shunisi qiziqarliki, bu bolalar rahbarning: “Navbatdagi mashg‘ulotni qanday o‘ynaymiz?” degan savoliga, albatta, qandaydir xayoliy loyihalarni taklif qiladilar. Ko‘rinib turibdiki, bu sinfda ancha yuqori mavqega ega bo‘lgan bolalar bilan “teng” muomalada bo‘lish imkoniyati mazkur bolalarga hissiy qulaylik yaratadi.

3. **“Munozara”**

Maqsad: Turli xil mavzular bo‘yicha erkin fikr bildirishga o‘rgatish.

O‘tkazish qoidasi: Qatnashchilar bilan muhokama uchun mavzu tanlanadi. U guruh rahbari, qatnashchilar tomonidan taklif etilishi mumkin. U “Do‘stlik nima?”, “Loqaydlar qaydan paydo bo‘ladi?” kabilar. O‘quvchilar birgalikda ushbu mavzuni muhokama etadilar. Boshlovchi har bir o‘quvchining qisqa bo‘lsa-da, fikrini olishga urinishi kerak.

4. **“Mening muammoyim”**

Maqsad: O‘quvchilarni muomala jarayonida o‘zini tushunishga va tahlil qilishga o‘rgatish.

O‘tkazish qoidasi: Qatnashchilar navbat bilan boshqalar bilan muomala qilishda ko‘proq nima unga xalaqit berishini aytishga harakat qiladilar. Masalan, tortinchoqlik, kulgiga qolishdan qo‘rqish, o‘ziga ishonmaslik, boshqalarning o‘zidan ustunligi, atrofdagilarning yoqmasligi va hokazo.

Boshlovchi bunday vaziyatlar faqat sizlarda emas, ko‘pchilikda yuz beradi, lekin vaziyatlarni bartaraf etish mumkinligi va bunda mazkur mashg‘ulotlar yordam berishini tushuntiradi.

5. **“Ko‘chada”**

Maqsad: Jamoat joylarida va boshqalarga murojaat qilishga o‘rgatish.

O‘tkazish qoidasi: Qatnashchilar ikki kishidan sheriklarga ajraladilar va bir-birlariga ko‘chada ko‘ringan notanish kishiga murojaat qilganday muomala qiladilar. Masalan, “Kechirasiz, shu yo‘l shifoxonaga olib boradimi?”, “Agar mumkin bo‘lsa, soatni aytib yuborsangiz”, “Sumkangiz o‘tirg‘ichda qolib ketdi”, “Shu matoni qaysi magazindan oldingiz?” va hokazo.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bu sanab o‘tilgan barcha o‘yin shakllari muomala qilish usullarini shakllantirishga yordam beradi: ular bolalarni muomala strategiyasi bilan tanishtiradi. Bundan tashqari, pedagoglarimiz turli xil o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan psixologik trening mashg‘ulotlari namunalari berilgan adabiyotlardan ham foydalanishsa bo‘ladi. Chunki psixotrening mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ruhiy xususiyatlarini profilaktika va korreksiya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Anikeeva. Jamoada ruhiy muhit. Toshkent: O‘qituvchi, 1994-yil.
2. Z. Tasqaraeva. Psixologik xizmat. T., 2006-yil.
3. htt www lib. psixology.ru

O'SMIRLIK DAVRIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISH METODLARI

Safarova Dilnoza Kuchkarovna
Vatan universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish metodlari mavzusida bo'lib, unda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda sog'lom muhitni ta'minlash haqida so'z yuritiladi. Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlar deganda, aslida, odamlar orasida amalga oshadigan o'zaro munosabat, muloqot va muomala jarayoni tushuniladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik, farzand, munosabat, muloqot, muomala, muhit, shaxslararo munosabat, metodologik, tadqiqot, konsepsiya.

Abstract: This article focuses on methods for researching interpersonal relationships during adolescence and discusses how to foster a healthy environment in the relationship between parents and children. Human relationships involve processes of interaction through which interpersonal connections are formed and manifested. Interpersonal relationships are essentially understood as the processes of interaction, communication, and engagement that take place between people.

Key words: adolescence, child, relationship, communication, interaction, environment, interpersonal relationship, methodological, research, concept.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы исследования межличностных отношений в подростковом возрасте, а также обсуждаются способы создания благоприятной атмосферы во взаимоотношениях родителей и детей. Человеческие отношения подразумевают процессы взаимодействия, посредством которых формируются и проявляются межличностные связи. По сути, межличностные отношения понимаются как процессы взаимодействия, общения и вовлеченности, происходящие между людьми.

Ключевые слова: подростковый возраст, ребенок, отношения, общение, взаимодействие, среда, межличностные отношения, методологический, исследование, концепция.

KIRISH

Jahonda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda sog'lom muhitni ta'minlash, ota-onalarda bolani hissiy-emotsional qabul qilishga, uni psixologik qo'llab-quvvatlashga asoslangan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng ko'lamdagi dasturiy chora-tadbirlar tatbiq etilgan.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti yosh avlodning har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, o'smirlik davri inson hayotining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri bo'lib, ushbu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, o'zini anglash jarayoni hamda atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari jadal rivojlanadi. Shu sababli o'smirlarning shaxslararo munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularni to'g'ri baholash zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlar o'smirning psixologik rivojlanishi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi hamda shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi. Oila, tengdoshlar, o'qituvchilar va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan o'rnatilgan munosabatlar o'smirning xulq-atvori, o'ziga bo'lgan ishonchi, muloqot madaniyati va kelajakdagi ijtimoiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar, tushunmovchiliklar yoki ijtimoiy yakkalanish turli psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni chuqur o'rganish uchun psixologik tadqiqot metodlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test, sotsiometriya, eksperiment hamda psixodiagnostik metodlar o'smirlarning ijtimoiy aloqalari, guruhdagi mavqei, muloqot xususiyatlari va o'zaro munosabatlar tizimini aniqlash imkonini beradi. Ushbu metodlar orqali olingan natijalar o'smirlarning

psixologik xususiyatlarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan psixologik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jean Piaget - o‘smirlarning kognitiv rivojlanishi va tafakkurining shakllanishini tadqiq qilgan. U o‘smirlik davrida mantiqiy fikrlash va ijtimoiy munosabatlarni anglash yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’kidlagan.

Lev Vygotsky - shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning hal qiluvchi rolini ilmiy asoslagan.

Erik Erikson - o‘smirlik davrini “identiklikka erishish va rol chalkashligi” bosqichi sifatida tavsiflagan. Bu davrda tengdoshlar bilan munosabatlar shaxs rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

Urie Bronfenbrenner - ekologik tizimlar nazariyasini ishlab chiqib, oila, maktab va tengdoshlar muhiti o‘smirning shaxslararo munosabatlariga qanday ta’sir qilishini tushuntirgan.

Jacob L. Moreno - sotsiometriya metodini yaratgan. Bugungi kunda o‘smirlarning sinf jamoasidagi o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy mavqeini aniqlashda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi.

O‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlar muammosi rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiyaning eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko‘plab nazariy hamda empirik tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda o‘smirlarning oila, tengdoshlar, ta’lim muassasasi va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari, ularning psixologik rivojlanishiga ta’siri hamda bu jarayonlarni o‘rganish metodlari keng yoritilgan.

Mahalliy va MDH psixologlari orasida G. M. Andreeva, B. D. Parigin, A. V. Petrovskiy, L. I. Umanskiy, R. S. Nemov, E. G‘oziyev, V. Karimova, G‘. B. Shoumarov, M. Davletshin va boshqa olimlar ijtimoiy psixologiya hamda yosh davrlari psixologiyasiga oid muhim ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Ular shaxslararo munosabatlarning mazmuni, guruh psixologiyasi, muloqot, ijtimoiy moslashuv va shaxs kamolotining psixologik qonuniyatlarini chuqur o‘rganganlar.

Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etishda kuzatish, suhbat, anketa, psixologik testlar, sotsiometriya, eksperiment, kontent-tahlil hamda statistik tahlil metodlari eng ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu metodlarning kompleks qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini shaxsning rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va shaxslararo munosabatlarining shakllanishiga oid zamonaviy psixologik nazariyalar tashkil etadi. Tadqiqotda rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiyaning ilmiy tamoyillariga tayangan holda o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxs rivojlanishiga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Jumladan, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish konsepsiyasi, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi, Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi hamda Jacob L. Morenoning sotsiometriya konsepsiyasi tadqiqotning nazariy-metodologik poydevori hisoblanadi.

Shuningdek, G. M. Andreeva, B. D. Parigin, A. V. Petrovskiy, R. S. Nemov, E. G‘oziyev, V. Karimova, G‘. B. Shoumarov va M. Davletshinlarning ijtimoiy psixologiya hamda yosh davrlari psixologiyasiga oid ilmiy ishlari ham tadqiqotning muhim metodologik manbalari sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, faoliyat yondashuvi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va kompleks yondashuv tamoyillariga amal qilinadi. Tizimli yondashuv orqali o‘smirning shaxslararo munosabatlari oila, tengdoshlar guruhi, maktab va keng ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Faoliyat yondashuvi shaxslararo munosabatlarning birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllanishini ochib beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa har bir o‘smirning individual psixologik xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Mazkur metodologik yondashuv o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarning mazmuni, tuzilishi, rivojanish omillari hamda ularni tadqiq etish metodlarining samaradorligini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari o‘smirlar bilan ishlovchi psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy manbalar, nazariy qarashlar hamda amaliy tadqiqot metodlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlik davri shaxsning ijtimoiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan ushbu davrda tengdoshlar, ota-onalar va pedagoglar bilan o‘zaro munosabatlar shaxs kamolotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Nazariy manbalar tahlili asosida shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi natijasida shakllanishi aniqlandi. O‘smirning muloqot madaniyati, emotsional barqarorligi, o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy moslashuvi va guruhdagi mavqei uning shaxslararo munosabatlari sifatini belgilovchi asosiy omillar ekanligi qayd etildi.

Tadqiqot metodlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, kuzatish metodi o‘smirlarning tabiiy muhitdagi xulq-atvori va muloqot xususiyatlarini bevosita baholash imkonini beradi. Suhbat metodi orqali o‘smirlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va shaxsiy munosabatlari haqida chuqur ma’lumot olish mumkin. Anketa va psixologik testlar esa shaxslararo munosabatlarning turli jihatlarini miqdoriy baholash imkoniyatini yaratadi. Sotsiometriya metodining tahlili natijasida ushbu metod kichik guruhlarda shaxslararo munosabatlarni aniqlashda eng samarali usullardan biri ekanligi aniqlandi. U yordamida guruhdagi norasmiy liderlar, o‘zaro tanlovlar, ijtimoiy maqom, guruh ichidagi kichik birliklar hamda muloqot tizimi aniqlanadi. Shu sababli sotsiometriya ta’lim muassasalarida psixologik diagnostika jarayonida keng qo‘llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida biror metodni alohida qo‘llashdan ko‘ra, bir nechta metodlarni kompleks ravishda qo‘llash ancha ishonchli va obyektiv natijalarni berishi aniqlandi. Masalan, kuzatish natijalarini anketa, suhbat va sotsiometriya ma’lumotlari bilan taqqoslash tadqiqotning validligi hamda ishonchliligini oshiradi.

Tahlillar, shuningdek, o‘smirlarning shaxslararo munosabatlariga oila muhiti, ota-onalarning tarbiya uslubi, maktabdagi psixologik iqlim, tengdoshlar guruhi, raqamli kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ijobiy psixologik muhit o‘smirlarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirsa, salbiy ijtimoiy omillar nizolar, ijtimoiy chekinish va moslashuv qiyinchiliklarini yuzaga keltirishi mumkin.

Olingan natijalar asosida o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishda kuzatish, suhbat, anketa, psixologik testlar va sotsiometriya metodlarini birgalikda qo‘llash eng samarali yondashuv ekanligi xulosa qilindi. Bunday kompleks yondashuv o‘smirlarning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda samarali psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni ilmiy asosda o‘rganishda zamonaviy psixodiagnostik metodlardan kompleks foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar ta’limi muassasalari hamda psixologik xizmat faoliyatida amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda insonning ijtimoiy tajribasi, o‘zini anglash jarayoni, muloqot ehtiyojlari va atrofdagilar bilan munosabat o‘rnatish qobiliyatlari faol shakllanadi. O‘smirlarning shaxslararo munosabatlari ularning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi, o‘ziga bo‘lgan munosabati hamda kelajakdagi shaxsiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot mavzusi doirasida o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari va ularni o‘rganish metodlari tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, jahon va mahalliy psixologiya fanida o‘smirlarning muloqoti, tengdoshlar bilan munosabatlari, guruhdagi mavqei hamda ijtimoiylashuv jarayonlari keng o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘smirlarning shaxslararo munosabatlarini aniqlashda kuzatish, suhbat, anketa, psixologik testlar, sotsiometriya va eksperiment kabi metodlardan samarali foydalanish mumkinligi aniqlandi. Ayniqsa, sotsiometriya metodi o‘smirlarning guruhdagi ijtimoiy mavqei, liderlik xususiyatlari, o‘zaro tanlovlari va guruh ichidagi munosabatlar tizimini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, o‘smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish uchun kompleks metodologik yondashuv zarur. Turli psixodiagnostik metodlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘smirlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash, ular duch kelayotgan muammolarni bartaraf etish va samarali psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyati oshadi.

1. Ta’lim muassasalarida o‘smirlarning shaxslararo munosabatlarini muntazam ravishda psixologik diagnostika qilish va aniqlangan muammolar asosida korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish tavsiya etiladi.
2. Maktab psixologlari tomonidan o‘smirlarning guruhdagi mavqeini aniqlash, ijtimoiy moslashuv darajasini baholash va nizoli vaziyatlarning oldini olish maqsadida sotsiometriya, suhbat va psixologik testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.
3. Ota-onalar uchun o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, farzand bilan samarali muloqot qilish usullari va qo‘llab-quvvatlovchi tarbiya tamoyillari bo‘yicha psixologik-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish zarur.

4. O‘smirlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va ijobiy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treninglardan foydalanish tavsiya etiladi.
5. Ta’lim jarayonida sog‘lom psixologik muhit yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va bag‘rikenglik tamoyillarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.
6. Kelgusidagi tadqiqotlarda o‘smirlarning shaxslararo munosabatlariga zamonaviy raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta’sirini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева Г. М. Социальная психология: учебник. - Москва: Аспект Пресс, 2001.
2. Морено Дж. Л. Социометрия: экспериментальный метод и наука об обществе. - Москва: Академический проект, 2001.
3. Парыгин Б. Д. Социальная психология. Проблемы методологии, истории и теории. - Санкт-Петербург: СПбГУП, 2003.
4. Немов Р. С. Психология. Книга 2. Психология образования. - Москва: Владос, 2007.
5. G‘oziyev E. G‘. Ontogenez psixologiyasi. - Toshkent: Noshir, 2010.
6. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
7. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
8. Davletshin M. G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
9. Shoumarov G‘. B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2010.
10. Jalilova S. X., G‘ayibova N. A. Yosh davrlari psixologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
11. Nishonova Z. T., Alimova G. K. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING BARKAMOL YOSH AVLODNI SHAKLLANTIRISHIDA MILLIY INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini barkamol yosh avlodni shakllantirish jarayonida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ularni ta’lim jarayoniga joriy etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, har tomonlama mustaqil va teran fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda samarali yechim topa oladigan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, texnologiya, innovatsion yondashuv, intellektual yondashuv, Men-konsepsiyasi, pedagogik jarayon, kasbiy kompetentlik, metodika.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations for preparing future primary school teachers for innovative pedagogical activities in the process of fostering a harmoniously developed younger generation. It examines modern educational technologies and the mechanisms for their implementation in the educational process. Furthermore, the article highlights the role of advanced pedagogical technologies in the professional development of future teachers who are capable of independent, comprehensive, and critical thinking, as well as finding effective solutions to problem situations.

Key words: innovation, technology, innovative approach, intellectual approach, self-concept, pedagogical process, professional competence, methodology.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические основы подготовки будущих учителей начальных классов к инновационной педагогической деятельности в процессе формирования гармонично развитого молодого поколения, современные педагогические технологии и механизмы их внедрения в образовательный процесс. Кроме того, раскрыта роль передовых педагогических технологий в профессиональном развитии будущих учителей, способных мыслить всесторонне, самостоятельно и глубоко, а также находить эффективные решения в проблемных ситуациях.

Ключевые слова: инновация, технология, инновационный подход, интеллектуальный подход, Я-концепция, педагогический процесс, профессиональная компетентность, методика.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan davrda jamiyat taraqqiyoti, avvalo, har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatga ega hamda ma’naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotning maqsadi ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamon talablari asosida takomillashtirish hamda ilg‘or pedagogik yondashuvlarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini yoritishdan iborat. Bugungi kunda pedagogik innovatsiya tushunchasi shunchaki yangilik kiritish emas, balki ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlovchi pedagogik jarayonni optimallashtirish mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini oshirish masalasi O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son[1] “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega, innovatsion fikrlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlash muhim vazifa sifatida ilgari surilgan.

1 https://lex.uz/ru/docs/-4312785

Shuningdek, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son[2] Farmonida ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Mazkur hujjatlarda pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish ko'zda tutilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir. Buning uchun ular zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, ulardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur. Bugungi kunda dars jarayonlarini modernizatsiya qilish va media ta'lim vositalaridan foydalanish orqali pedagoglarning ijodiy hamda intellektual salohiyatini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini milliy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash barkamol yosh avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Mazkur texnologiyalar zamonaviy interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda loyihaviy ta'limni xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar va ma'naviy meros bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Raqamli ta'lim vositalari – elektron darsliklar, taqdimotlar, animatsiyalar, interaktiv testlar, ta'lim platformalari hamda multimedia materiallari – boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshiradi. Biroq raqamli vositalardan foydalanishda milliy mazmunni saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'zbek xalq ertaklari asosida yaratilgan animatsion materiallar, milliy qadriyatlarga oid interaktiv topshiriqlar va virtual sayohatlardan foydalanish mumkin.

O'zbek pedagogikasida pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, interfaol metodlar hamda o'qituvchining kasbiy kompetentligiga oid tadqiqotlarda M. Ochilov, N. Azizov, J. G'. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov, N. N. Azizxo'jayeva, B. X. Xodjayev, O. Tolipov, M. Usmonboyeva va Sh. Sharifzoda kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotlarda ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi, interfaollik, muammoli ta'lim, loyiha metodi, hamkorlikda o'qitish hamda kompetensiyaviy yondashuv masalalari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot pedagogika oliy ta'lim muassasasining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqot ishtirokchilari quyidagi guruhlarga ajratiladi: tajriba guruhi – milliy innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida maxsus metodika joriy etiladigan talabalar; nazorat guruhi – amaldagi an'anaviy ta'lim metodlari asosida ta'lim oluvchi talabalar. Tajriba-sinov yakunida tajriba va nazorat guruhlari qayta baholanadi. Olingan natijalar dastlabki ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi hamda taklif etilgan metodikaning samaradorligi aniqlanadi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasini tizimli ravishda shakllantirish va rivojlantirishni o'rganishga imkon beradi. Tadqiqotda nazariy tahlil, empirik o'rganish, tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil metodlarining o'zaro uyg'unligi ta'minlanadi. Taklif etilayotgan metodika orqali bo'lajak o'qituvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, innovatsion fikrlash, pedagogik ijodkorlik, metodik mahorat hamda barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin.

Tadqiqot yakunida quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutiladi:

- milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning pedagogik mazmuni aniqlanadi;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik mezonlari ishlab chiqiladi;
- milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida metodik model yaratiladi;
- amaliy mashg'ulotlar hamda pedagogik treninglar tizimi taklif etiladi;
- talabalarning innovatsion-metodik kompetensiyasi rivojlanish dinamikasi aniqlanadi;
- boshlang'ich ta'lim amaliyoti uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilik yaratish, uni qo'llash hamda ommalashtirish jarayonida faol ishtirok etadi. Innovatsiyaning asosiy maqsadi sarflangan mablag', vaqt va kuch evaziga eng yuqori natijaga erishishdan iborat. Innovatsiya statik hodisa emas, balki dinamik jarayondir. Uning muvaffaqiyati pedagogning ichki motivatsiyasi, kasbiy "Men-konsepsiyasi"ning barqarorligi hamda intellektual salohiyatiga bevosita bog'liq.

2 https://lex.uz/ru/docs/-5085999

I. P. Podlasiy pedagogik tizimdagi innovatsion o'zgarishlarning yo'nalishlarini o'rganish asosida quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatadi:

- pedagogik tizimning tubdan o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- ta'lim shakllari, metodlari va vositalarining o'zgarishi;
- boshqaruv tizimining o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarining o'zgarishi.

Bizning fikrimizcha, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni quyidagi uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq: Yangilikni pedagogik faoliyatga joriy etishdan oldingi davrdagi o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish bosqichini tahlil qilish. Pedagogik jarayonga yangilik joriy etilgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion yondashuv o'qituvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ko'plab bo'lajak o'qituvchilar uchun "innovatsion texnologiya" tushunchasi faqat kompyuter yoki proyektordan foydalanish bilan bog'liq deb qaralmoqda. Vaholanki, jahon tajribasi innovatsiya, avvalo, tafakkur tarzi va metodika ekanligini ko'rsatmoqda. Texnika esa maqsad emas, balki vositadir. Shu bois ta'lim mazmunini texnokratik yondashuvdan pedagogik-psixologik yondashuvga yo'naltirish zarur.

Innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi yangilikning mohiyatini anglash, uni yaratish va amaliyotga joriy etishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishi, o'quv jarayonini tashkil etishda noan'anaviy yondashuvlarni qo'llashi hamda o'quvchilar va hamkasblar bilan pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Innovatsion ta'lim vazifalarini mustaqil ravishda amalga oshirish va belgilashga qodir bo'lgan yangi avlod pedagoglarini tayyorlash bugungi kun ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-4312785
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5085999
3. Гавриленко Л. С. Формирование готовности студентов педагогического вуза к инновациям в педагогической деятельности: автореф. дис. … канд. пед. наук. – Красноярск, 2008. – 24 с.
4. Мулеван Е. Г. Личностно-профессиональный рост будущего учителя в процессе подготовки к инновационной педагогической деятельности. – Карачаевск, 2009. – 25 с.
5. Masharipova U. (2021). The Role of Innovation in Continuous Educational System. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(4), 168–176.
6. Masharipova U. A. (2021). The Formation of Innovative Culture of Future Teachers of Primary School in the Process of Professional Development. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2(2), 33–35.
7. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent.
8. Yo'ldoshev J. G'., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiyalar.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI AHAMIYATINING RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLILI

Oripova A'lo O'ktam qizi
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining mazmuni, ahamiyati hamda uni rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tashkil etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shvetsiya, Finlyandiya, AQSH va Turkiya misolida ota-onalar bilan samarali hamkorlikning zamonaviy shakllari yoritilgan. Tadqiqot natijasida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, oila, hamkorlik, xorijiy tajriba, pedagogik jarayon, bola rivojlanishi, innovatsiya.

Abstract: This article analyzes the content, significance, and organizational mechanisms of cooperation between preschool educational institutions and families based on the experience of developed foreign countries. Using the examples of Sweden, Finland, the United States, and Türkiye, the study highlights modern approaches to effective parent–institution collaboration. The findings demonstrate that establishing close cooperation between families and preschool educational institutions is a key factor in ensuring the comprehensive development of children.

Key words: preschool education, family, cooperation, international experience, pedagogical process, child development, innovation.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание, значение и механизмы организации сотрудничества между дошкольной образовательной организацией и семьёй на основе опыта развитых зарубежных стран. На примере Швеции, Финляндии, США и Турции раскрыты современные формы эффективного взаимодействия с родителями. По результатам исследования обосновано, что налаживание тесного сотрудничества между семьёй и дошкольной образовательной организацией является важным фактором всестороннего развития ребёнка.

Ключевые слова: дошкольное образование, семья, сотрудничество, зарубежный опыт, педагогический процесс, развитие ребёнка, инновации.

KIRISH

Maktabgacha ta'limning hozirgi holati haqida gapirganda, mavjud qiyinchiliklarga qaramay, u xalqimizning eng yaxshi an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganini alohida ta'kidlash lozim. Pedagogik jarayon bolani har tomonlama rivojlantirishning barcha asosiy yo'nalishlarini, jumladan, jismoniy tarbiya, atrof-muhit bilan tanishtirish, badiiy-estetik tarbiya va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimi yo'lga qo'yilgan, komplekslik prinsipi saqlanib, pedagogik jarayonning turli jihatlarini uyg'unlashtiruvchi dasturlar qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ortib borayotganiga qaramay, ushbu jarayon ko'pincha tizimsiz va metodik jihatdan yetarli darajada asoslanmagan holda tashkil etilmoqda. Natijada ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki sustlashib, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot doirasida rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida samarali hamkorlik mexanizmlarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Shu o'rinda bolalarning ta'lim va tarbiyasini samarali tashkil etishda faqatgina ta'lim tashkilotlari emas, balki oiladagi muhit hamda unda shakllangan va shakllanmagan qadriyatlarning ta'sirini ham inobatga olgan holda ish olib borish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, MTTdagi bolalar, ota-onalar va pedagog xodimlar maktabgacha ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilaridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanligi belgilab qo'yilgan.[1]

Bolaning qonuniy vakillari bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, o'z bolasi uchun maktabgacha ta'lim shaklini hamda ta'lim olish tilini tanlash, maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyatidan maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlar ta'minlanishini talab qilish, maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirish, unga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish masalalari yuzasidan davlat organlariga murojaat qilish, bolaga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishida ishtirok etish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi tarkibini saylash va unga saylanish, shuningdek, qonun hujjatlariga hamda shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Bolaning qonuniy vakillari bolaning jismoniy sog'lig'i va ruhiy holati haqida g'amxo'rlik qilishi, uning tabiiy qobiliyatlari, qiziqishlari va iste'dodlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga ko'maklashishi yoki uning oilada ta'lim va tarbiya olishini ta'minlashi, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi, bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga, o'z xalqining milliy, tarixiy va madaniy qadriyatlariga, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida hamda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi, oilada bolaning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi shart. Bolaning qonuniy vakillari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.[2]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida keltirilgan qonun hujjatlaridan ma'lum bo'ladiki, ota-onalarning farzandlari tarbiyasi borasidagi qonuniy majburiyatlari maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Quyida maktabgacha ta'lim tizimi rivojlangan ayrim mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligining ijtimoiy hamda pedagogik imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi rivojlangan davlatlarda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy tizim sifatida ham muhim ahamiyat kasb etib, bolaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shvetsiyada maktabgacha ta'lim tizimi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, u "förskola" (MTT) shaklida tashkil etiladi va davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi. Ushbu tizim Swedish National Agency for Education tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturi asosida faoliyat yuritadi. Shvetsiya tajribasining eng muhim jihati maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning tizimli va majburiy tarzda yo'lga qo'yilganligidir. Bu yerda ota-onalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi hamda pedagoglar bilan teng huquqli hamkorlikda bolalarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.[1]

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir bola uchun individual rivojlanish yondashuvi qo'llanilib, uning ta'limiy ehtiyojlari ota-onalar bilan birgalikda aniqlanadi. Pedagoglar muntazam ravishda ota-onalar bilan uchrashuvlar o'tkazib, bolalarning rivojlanishi, qiziqishlari va muammolarini muhokama qiladilar. Shu bilan birga, ota-onalar ta'lim jarayonini baholashda ham ishtirok etadilar, bu esa tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar orqali ota-onalar bilan doimiy aloqa yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu hamkorlikning samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, Shvetsiya maktabgacha ta'lim tizimi oila va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.[2] Masalan, Shvetsiyadagi bir maktabgacha ta'lim tashkilotida bola yangi o'quv yilini boshlaganda pedagoglar va ota-onalar ishtirokida "rivojlanish suhbatlari" o'tkaziladi. Ushbu jarayonda bola haqida quyidagi ma'lumotlar birgalikda muhokama qilinadi:

- bolaning qiziqishlari (masalan, rasm chizishga bo'lgan qiziqishi);
- xulq-atvori va ijtimoiy moslashuvi;
- rivojlantirilishi zarur bo'lgan ko'nikmalar.

Shundan so'ng pedagog va ota-ona hamkorlikda bolaning individual rivojlanish yo'lini belgilaydi. Masalan, agar bola rasm chizishga qiziqsa, bog'chada unga ko'proq ijodiy mashg'ulotlar tashkil etiladi, ota-onaga esa uyda ushbu faoliyatni davom ettirish tavsiya etiladi.

Finlyandiyada maktabgacha ta'lim tizimi yuqori sifat, tenglik va individuallashtirish tamoyillariga asoslanadi hamda davlat tomonidan markazlashgan holda tartibga solinadi. Ushbu tizim Finnish National Agency for Educationtomonidan ishlab chiqilgan "Early Childhood Education and Care (ECEC) National Core Curriculum" ("Erta bolalik ta'limi va parvarishi bo'yicha milliy asosiy o'quv dasturi") asosida amalga oshiriladi. Finlyandiya modelining asosiy xususiyati "oila markazli yondashuv" bo'lib, bunda ota-onalar bola rivojlanishining muhim subyekti sifatida qaraladilar. Har bir bola uchun individual rivojlanish rejasi (ECEC Plan) ota-onalar bilan hamkorlikda tuziladi va bu jarayonda bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda rivojlanish darajasi hisobga olinadi [3].

Shuningdek, pedagoglar va ota-onalar o'rtasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilgan bo'lib, rivojlanish suhbatlari orqali bolaning yutuqlari va muammolari birgalikda tahlil qilinadi. Finlyandiyada "educare" modeli asosida ta'lim, tarbiya va parvarish integratsiyasi ta'minlanadi, bu esa bola rivojlanishining uzluksizligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, ota-onalarga pedagogik maslahatlar berish, raqamli platformalar orqali aloqa qilish kabi shakllar hamkorlik samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, Finlyandiya tajribasi maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tizimli tashkil etish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

AQShda maktabgacha ta'lim tizimi federal va shtat darajasida boshqarilib, unda oila bilan hamkorlik muhim pedagogik tamoyil sifatida qaraladi. Ayniqsa, Head Start Program doirasida ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish ustuvor vazifa hisoblanadi. Mazkur dastur kam ta'minlangan oilalar farzandlariga nafaqat ta'lim, balki ijtimoiy, psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini ham taqdim etadi. AQSh modelining asosiy xususiyati "family engagement" (oila bilan hamkorlik) konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, bunda ota-onalar ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida qaraladilar.[4]

Pedagoglar ota-onalar bilan muntazam muloqot o'rnatadi, uyga tashriflar tashkil etadi hamda ota-onalarga bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Shu bilan birga, ota-onalar ta'lim muassasasidagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida ham ishtirok etib, "Parent Committee" kabi tuzilmalar orqali bog'cha faoliyatini baholashda qatnashadilar. Bu esa ta'lim jarayonining ochiqligi va samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, AQSh tajribasi maktabgacha ta'lim tizimida oila bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Turkiyada maktabgacha ta'lim tizimi davlat tomonidan boshqarilib, "Ministry of National Education" (Turkiya Respublikasi Milliy ta'lim vazirligi) tomonidan ishlab chiqilgan "Okul Öncesi Eğitim Programı" ("Maktabgacha ta'lim dasturi") asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizimda oila bilan hamkorlik "aile katılımı" (oila ishtiroki) konsepsiyasi asosida tashkil etilib, ota-onalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, ota-onalar bolalarning rivojlanish jarayonida pedagoglar bilan hamkorlikda ishtirok etadilar, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasi birgalikda tahlil qilinadi.[5]

Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar uchun seminarlar, treninglar va maslahatlar tashkil etilib, ularning pedagogik savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Pedagoglar ota-onalar bilan muntazam muloqot o'rnatib, bolaning rivojlanishi haqida doimiy axborot almashadilar, ayrim hollarda uyga tashriflar ham amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yozma va raqamli aloqa vositalari orqali hamkorlik mustahkamlanadi. Umuman olganda, Turkiya tajribasi maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

1-jadval: **Keltirilgan davlatlar maktabgacha va oila hamkorligining qiyosiy tahlili**

№	Mamlakat	Hamkorlik shakli	Kuchli jihati	O'ziga xosligi
1	**Shvetsiya**	Individual yondashuv	Ota-onalar baholashda ishtirok etadi	Majburiy tizim
2	**Finlyandiya**	Oila markazli model	Uzluksizlik	"Educare" modeli
3	**AQSh**	Family engagement	Ijtimoiy integratsiya	Home visiting
4	**Turkiya**	Aile katılımı	Faol jalb qilish	Trening tizimi

Yuqorida ko'rib chiqilgan ta'lim samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik tizimli yo'lga qo'yilgan bo'lib, muhim ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ota-onalarning ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanganligi, innovatsion texnologiyalar yordamida hamkorlikning yanada kuchaytirilganligi hamda pedagoglarning ota-onalar bilan muntazam hamkorlik olib borib, ularni ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishda samarali metodlardan foydalanayotganligi maktabgacha ta'lim tizimida ijobiy natijalarni bermoqda. Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tizimli tashkil etish bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, ota-onalar bilan ishlashning zamonaviy metod va shakllarini joriy etish hamda hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

XULOSA

Fikrimizcha, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, avvalo, pedagog-tarbiyachilarning mazkur jarayonning mohiyati hamda ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini chuqur anglab yetishidan boshlanadi. Shu bilan birga, pedagoglar ota-onalar bilan ishlashning zamonaviy metod va shakllarini puxta egallab, ularni amaliyotga izchil tatbiq etishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi bosqichda esa ota-onalarga ham hamkorlikning mazmun-mohiyati tizimli ravishda tushuntirilib, ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faol ishtiroki rag'batlantirib borilishi zarur. Bunday yondashuv natijasida ta'lim jarayonining barcha subyektlari o'rtasida hamkorlik madaniyati shakllanib, har ikki tomonning mas'uliyati va faolligi ortadi. Natijada tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishi jadallashadi, ularning ijtimoiylashuv jarayoni samarali kechadi hamda maktabgacha ta'limning umumiy sifati sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saidova, B. N. Oilaviy va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashda oila va maktab hamkorligi – pedagogik muammo // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – Toshkent, 2025-yil. – № 1. – B. 119–121.
2. Swedish National Agency for Education. Curriculum for the Preschool Lpfö 18. Stockholm, 2018.
3. OECD. Starting Strong 2017: Key OECD Indicators on Early Childhood Education and Care. Paris, 2017.
4. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care. Helsinki, 2018.
5. Head Start Program. Head Start Program Performance Standards. Washington, DC, 2016.
6. Ministry of National Education (Turkey). Okul Öncesi Eğitim Programı. Ankara, 2013.

LOGOPEDIYA FANIDA ME'YOR TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY TALQINLARI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA METODOLOGIK ASOSLAR



Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich
Oriental universiteti uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0002-4074-3557

Annotatsiya: Mazkur maqolada logopediya fanida me'yor tushunchasining zamonaviy ilmiy talqinlari hamda uning metodologik asoslari o'rganilgan. Xususan, me'yor tushunchasini izohlashga doir statistik, funksional (individual), ideal va ijtimoiy yondashuvlarning mazmuni qiyosiy tahlil qilinib, ularning logopedik diagnostika va korreksion-pedagogik faoliyatdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, L. S. Vigotskiy, A. R. Luriya, R. E. Levina, S. L. Rubinshteyn kabi olimlarning ilmiy qarashlari hamda WHO va DSM-5 yondashuvlari asosida me'yor tushunchasining nazariy evolyutsiyasi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari logopediyada me'yorni baholashda statistik, funksional va ijtimoiy mezonlarni kompleks qo'llash nutq rivojlanishini obyektiv baholash, me'yor va patologiyani differensial aniqlash hamda korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: logopediya, me'yor tushunchasi, statistik me'yor, funksional (individual) me'yor, logopedik diagnostika, nutq rivojlanishi, patologiya, korreksion pedagogika, metodologiya.

Abstract: This article examines contemporary scientific interpretations of the concept of norm in speech therapy (logopedics) and its methodological foundations. In particular, it provides a comparative analysis of the statistical, functional (individual), ideal, and social approaches to defining the concept of norm and highlights their role in speech therapy diagnostics and corrective-pedagogical practice. Furthermore, based on the scientific views of L. S. Vygotsky, A. R. Luria, R. E. Levina, S. L. Rubinstein, as well as the approaches adopted by the World Health Organization (WHO) and the Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5), the theoretical evolution of the concept of norm is discussed. The findings indicate that the integrated application of statistical, functional, and social criteria enables a more objective assessment of speech development, improves the differential diagnosis of norm and pathology, and enhances the effectiveness of corrective-pedagogical intervention.

Key words: speech therapy (logopedics), concept of norm, statistical norm, functional (individual) norm, speech therapy diagnostics, speech development, pathology, corrective pedagogy, methodology.

Аннотация: В данной статье исследованы современные научные подходы к понятию нормы в логопедии и его методологические основы. В частности, проведён сравнительный анализ содержания статистического, функционального (индивидуального), идеального и социального подходов к определению понятия нормы, а также раскрыта их роль в логопедической диагностике и коррекционно-педагогической деятельности. Кроме того, на основе научных взглядов Л. С. Выготского, А. Р. Лурии, Р. Е. Левиной, С. Л. Рубинштейна, а также современных подходов WHO и DSM-5 раскрыта теоретическая эволюция понятия нормы. Результаты исследования показали, что комплексное применение статистических, функциональных и социальных критериев при оценке нормы способствует объективной оценке речевого развития, дифференциальной диагностике нормы и патологии, а также повышению эффективности коррекционно-педагогической работы.

Ключевые слова: логопедия, понятие нормы, статистическая норма, функциональная (индивидуальная) норма, логопедическая диагностика, речевое развитие, патология, коррекционная педагогика, методология.

KIRISH

Zamonaviy logopediya fanining asosiy vazifalaridan biri nutq rivojlanishining me'yoriy qonuniyatlarini ilmiy asosda aniqlash hamda me'yor va patologiya o'rtasidagi chegaralarni aniq belgilashdan iborat. Mazkur masala nutq buzilishlarini erta aniqlash, to'g'ri diagnostika qilish va samarali korreksion-pedagogik yordamni tashkil etishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli me'yor tushunchasi logopediya metodologiyasining tayanch kategoriyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

So‘nggi yillarda rivojlanish psixologiyasi, neyropsixologiya, maxsus pedagogika va tibbiyot fanlarida me’yor tushunchasining mazmuni sezilarli darajada kengaydi. Agar ilgari me’yor asosan yoshga xos statistik ko‘rsatkichlar bilan izohlangan bo‘lsa, bugungi kunda u biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi, shuningdek, shaxsning funksional imkoniyatlari hamda ijtimoiy moslashuv darajasi bilan bog‘liq holda talqin qilinmoqda. Bu esa logopedik diagnostikada statistik, funksional (individual), ideal va ijtimoiy me’yor kabi yondashuvlarni kompleks qo‘llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, me’yor tushunchasiga oid qarashlar L. S. Vigotskiy [4], A. R. Luriya[6], S. L. Rubinshteyn [7], R. E. Levina [5], L. S. Volkova [3] kabi olimlarning ilmiy ishlari hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va DSM-5 kabi zamonaviy xalqaro yondashuvlar ta’sirida yangi metodologik mazmun kasb etmoqda. Ushbu yondashuvlar me’yorni faqat rivojlanishning o‘rtacha ko‘rsatkichi sifatida emas, balki shaxsning kommunikativ faoliyati, rivojlanish dinamikasi va funksional samaradorligini aks ettiruvchi ko‘p qirrali ilmiy kategoriya sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Mazkur mavzuga aloqador tadqiqotimizning maqsadi logopediya fanida me’yor tushunchasining zamonaviy talqinlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, turli metodologik yondashuvlarni qiyosiy baholash hamda ularning logopedik diagnostika va korreksion-pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini yanada chuqurroq yoritishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Logopediyada me’yor tushunchasi ko‘p yillar davomida rivojlanish psixologiyasi, neyropsixologiya, maxsus pedagogika va tibbiyot fanlari doirasida turlicha talqin etib kelinmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dastlabki tadqiqotlarda me’yor asosan yoshga xos statistik ko‘rsatkichlar bilan izohlangan bo‘lsa, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda uning biologik, psixologik, ijtimoiy va funksional jihatlari o‘zaro uyg‘unlikda baholanmoqda.

Ayniqsa, L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi me’yorni bolaning mavjud rivojlanish darajasi bilan bir qatorda uning potensial imkoniyatlari orqali baholash zarurligini asoslaydi [4].

A. R. Luriya esa nutq faoliyatini bosh miya funksional tizimlari faoliyati bilan bog‘lab, me’yorni murakkab neyropsixologik mexanizmlar uyg‘unligi sifatida izohlaydi [6].

R. E. Levina [5] va L. S. Volkova [3] logopedik amaliyotda yoshga doir me’yorlar, nutq tizimining komponentlari va rivojlanish dinamikasini kompleks baholash zarurligini ta’kidlaydilar.

Xalqaro yondashuvlarda, xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (WHO) ICF modeli hamda DSM-5 tasnifida me’yor funksional faoliyat va ijtimoiy ishtirok mezonlari orqali talqin qilinadi [1, 10]. Ushbu muammoni tadqiq etish jarayonida logopediya, rivojlanish psixologiyasi, neyropsixologiya va maxsus pedagogika sohalariga oid ilmiy manbalar mazmunan qiyosiy tahlil qilindi hamda me’yor tushunchasining statistik, funksional (individual), ideal va ijtimoiy yondashuvlari o‘zaro qiyosiy tahlil etildi.

Shuningdek, me’yor va patologiya tushunchalarining nazariy asoslari umumlashtirilib, ularning logopedik diagnostika va korreksion-pedagogik faoliyatdagi metodologik ahamiyati tahlil qilindi. Olingan natijalar mantiqiy tahlil, ilmiy umumlashtirish va sintez usullari asosida yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, logopediya fanida me’yor tushunchasi bugungi kunda yagona va o‘zgarmas mezon sifatida emas, balki biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillarning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan dinamik kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Ilgari logopedik diagnostikada bolaning nutq rivojlanishi asosan yoshga xos statistik ko‘rsatkichlar asosida baholangan bo‘lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda rivojlanishning individual sur’ati, kommunikativ kompetensiyasi va funksional imkoniyatlarini hisobga olish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur o‘zgarish logopediya metodologiyasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, statistik me’yor logopedik diagnostikaning muhim mezonlaridan biri bo‘lsa-da, u har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmaydi. Ayrim bolalarda nutqning biroz kech shakllanishi yoki fonetik kamchiliklarning saqlanib qolishi rivojlanishning individual varianti bo‘lishi mumkin. Shu sababli statistik ko‘rsatkichlarga mutlaq mezon sifatida tayanish noto‘g‘ri diagnostik xulosalarga olib kelishi ehtimoli mavjud. Bu holat statistik me’yorni funksional va individual yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [2, 8, 9].

Funksional (individual) me’yor konsepsiyasi logopedik amaliyotda tobora muhim metodologik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, nutq rivojlanishini baholashda faqat fonetik, leksik yoki grammatik ko‘rsatkichlar emas, balki bolaning muloqotga kirishish qobiliyati, o‘z fikrini ifodalash darajasi, ta’lim jarayoni-

dagi faolligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi ham e'tiborga olinishi lozim. Aynan shu yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida logopedik diagnostikaning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi hamda har bir bolaning individual rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy manbalar tahlili ideal va ijtimoiy me'yor tushunchalarining ham logopedik faoliyatdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [2, 8, 9]. Ideal me'yor rivojlanishning nazariy modelini ifodalasa, ijtimoiy me'yor bolaning kommunikativ xulq-atvori va jamiyatda qabul qilingan til me'yorlariga moslashuvini tavsiflaydi. Shu bois logopedik amaliyotda me'yorni baholashda faqat lingvistik mezonlar bilan cheklanib qolmasdan, bolaning ijtimoiy faolligi va kommunikativ samaradorligini ham kompleks tahlil qilish zarur. Bunday yondashuv nutq buzilishlarini differensial diagnostika qilish aniqligini oshirish bilan bir qatorda, korreksion-pedagogik ishlarning individuallashtirilishiga ham xizmat qiladi. Mazkur tahlillar asosida aytish mumkinki, zamonaviy logopediya fanida me'yor tushunchasi ko'p komponentli metodologik kategoriya sifatida shakllanmoqda. Statistik, funksional (individual), ideal va ijtimoiy yondashuvlarning integratsiyasi nutq rivojlanishini yanada obyektiv baholash, me'yor va patologiya o'rtasidagi chegaralarni ilmiy asosda belgilash hamda diagnostik va korreksion faoliyat samaradorligini oshirish uchun zarur metodologik asos yaratadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida ushbu yondashuv har bir bolaning rivojlanish ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda logopedik yordamni tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan ilmiy manbalar tahlili logopediya fanida me'yor tushunchasi bir yoqlama talqin qilinmasligini, uning biologik, psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar uyg'unligida shakllanuvchi kompleks ilmiy kategoriya ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida me'yorni izohlashga doir statistik, funksional (individual), ideal va ijtimoiy yondashuvlarning mazmuni qiyosiy tahlil qilinishi natijasida ularning logopedik diagnostikadagi o'rni aniqlashtirildi. Tahlillar natijasida statistik me'yor rivojlanishning o'rtacha yosh ko'rsatkichlarini belgilashda muhim metodologik vosita ekanligi, biroq u bolaning individual rivojlanish sur'ati va kompensator imkoniyatlarini to'liq aks ettira olmasligi aniqlandi. Shu sababli zamonaviy logopedik diagnostikada statistik yondashuvni funksional va individual baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslandi.

Ilmiy manbalarni umumlashtirish natijasida funksional (individual) me'yor yondashuvi bolaning nutqiy rivojlanishini uning kommunikativ faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayonidagi ishtiroki asosida baholash imkonini berishi aniqlandi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida nutq buzilishlarini differensial diagnostika qilish va korreksion-pedagogik ishlarni individuallashtirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, tahlil natijalari ideal va ijtimoiy me'yor tushunchalari logopedik amaliyotda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega ekanligini, bolaning nutqiy kompetensiyasini jamiyat talablariga mos ravishda baholashda muhim mezon vazifasini bajarishini ko'rsatdi. Xalqaro yondashuvlar, xususan, WHO va DSM-5 me'yorni funksional samaradorlik hamda ijtimoiy ishtirok bilan bog'liq holda talqin qilishi zamonaviy logopediya metodologiyasining rivojlanish tendensiyalarini tasdiqlaydi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, logopediya fanida me'yor tushunchasi nutq rivojlanishini baholashning asosiy metodologik kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda me'yor faqat yoshga xos statistik ko'rsatkichlar bilan emas, balki shaxsning biologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, kommunikativ faoliyati hamda funksional imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinmoqda. Adabiyotlar tahlili natijalari statistik, funksional (individual), ideal va ijtimoiy me'yor yondashuvlari bir-birini inkor etmasligini, aksincha, logopedik diagnostika va korreksion-pedagogik faoliyatda ular o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilgandagina nutq rivojlanishini obyektiv baholash imkonini berishini ko'rsatdi. Ayniqsa, funksional yondashuv bolaning kommunikativ imkoniyatlari va ijtimoiy moslashuv darajasini hisobga olishi bilan zamonaviy logopediyaning ustuvor metodologik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, logopediyada me'yor tushunchasini baholashda kompleks yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Bunda statistik ko'rsatkichlar, rivojlanish dinamikasi, funksional samaradorlik va ijtimoiy moslashuv mezonlarini uyg'unlashtirish logopedik tashxisning ishonchliligini oshiradi hamda me'yor va patologiyani aniq differensial baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv korreksion-pedagogik ishlarni individuallashtirish va ularning samaradorligini oshirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida logopediya sohasida me'yor tushunchasining konseptual asoslarini yanada takomillashtirish, xalqaro diagnostik mezonlarni milliy logopedik amaliyot bilan integratsiyalash hamda nutq rivojlanishini baholashning kompleks diagnostik modellarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5-TR): Text Revision. Washington, DC: American Psychiatric Association Publishing, 2022. – 1120 p.
2. Isodullayeva I. S. Nutqning ontogenezda rivojlanishi: o'quv qo'llanma. – Farg'ona: "Classic" nashriyoti, 2024. – 180 b.

3. Волкова Г. А. Методика психолого-логопедического обследования детей с нарушением речи. Вопросы дифференциальной диагностики. – СПб.: Детство-Пресс, 2009. – 144 с.
4. Выготский Л. С. Вопросы детской психологии. – Санкт-Петербург: "Союз", 1999. – 215 с.
5. Левина Р. Е. Нарушение речи и письма у детей: Избранные труды. – М.: "АРКТИ", 2005. – 222 с.
6. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – 3-е изд. – М.: Академический проект, 2000. – 512 с.
7. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии / сост. А. В. Брушлинский, К. А. Абульханова-Славская. – СПб.: Питер, 2000. – 712 с.
8. Toxtiyorova Sh. E., Shakirova Sh. D., Abidova N. Z. Nutqning ontogenezda rivojlanishi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
9. Toxtiyorova Sh. E. Bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etishning korreksion-logopedik jarayonini modellashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 23 b.
10. World Health Organization. International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF). – Geneva: World Health Organization.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDA ISHONCHLI MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARNING O'RNI VA AMALIY TAHLILI



Ochildiyeva Shahnoza Avdivohid qizi
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ORCID: 0009-0004-3470-8637

Gulnoza Djurakulova Shavkatovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf (1-4-sinf) o'quvchilarida ingliz tilida erkin, mantiqiy va ishonchli muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ularni amaliyotga joriy etish yo'llari atroflicha tahlil qilinadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida xorijiy tilni o'rgatish shunchaki grammatik qoidalarni yodlatish yoki leksik birliklarni mexanik takrorlashdan iborat emas. Aksincha, u kichik yoshdagi o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini va idrok etish darajasini hisobga olgan holda, muloqotga bo'lgan psixologik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilmog'i lozim. Maqolada Kommunikativ til o'qitish (CLT), Vazifaga asoslangan ta'lim (TBLT) va PPP (Presentation, Practice, Production) modeli kabi interaktiv metodlarni 6-10 yoshli bolalar ta'lim jarayoniga moslashtirish imkoniyatlari amaliy misollar bilan yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlari keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya, CLT, TBLT, PPP modeli, TPR texnologiyasi, motivatsiya, interaktiv ta'lim, leksik birliklar.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role of modern pedagogical methods in developing primary school pupils' (Grades 1-4) skills of fluent, logical, and confident communication in English, as well as the ways of implementing these methods in practice. Teaching a foreign language at the primary education level should not be limited to merely memorizing grammatical rules or mechanically repeating lexical units. On the contrary, it should be aimed at overcoming psychological barriers to communication while taking into account the psychophysiological characteristics and level of perception of young learners. The article illustrates, through practical examples, the possibilities of adapting interactive methods such as Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), and the PPP (Presentation, Practice, Production) model to the educational process of children aged 6-10. In addition, the article provides a detailed analysis of the grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic components of communicative competence.

Key words: primary education, communicative competence, CLT, TBLT, PPP model, TPR technology, motivation, interactive learning, lexical units.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются роль современных педагогических методов в формировании у учащихся начальных классов (1-4-е классы) навыков свободного, логичного и уверенного общения на английском языке, а также пути их внедрения в практику. Обучение иностранному языку на этапе начального образования не должно ограничиваться простым заучиванием грамматических правил или механическим повторением лексических единиц. Напротив, оно должно быть направлено на устранение психологических барьеров в общении с учётом психофизиологических особенностей и уровня восприятия учащихся младшего школьного возраста. В статье на практических примерах освещаются возможности адаптации к образовательному процессу детей в возрасте 6-10 лет таких интерактивных методов, как коммуникативное обучение языку (CLT), обучение на основе заданий (TBLT) и модель PPP (Presentation, Practice, Production). Кроме того, подробно анализируются грамматический, социолингвистический, дискурсивный и стратегический компоненты коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: начальное образование, коммуникативная компетенция, CLT, TBLT, модель PPP, технология TPR, мотивация, интерактивное обучение, лексические единицы.

KIRISH

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv va axborot texnologiyalari davrida chet tillarini, xususan, ingliz tilini puxta o‘rganish zamonaviy inson hayotining ajralmas ehtiyojiga aylandi. Ta’lim tizimidagi islohotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonini qanchalik barvaqt - boshlang‘ich sinflardan boshlasak, o‘quvchining tilni tabiiy va ikkinchi ona tili kabi qabul qilish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatish o‘ziga xos pedagogik va psixologik murakkabliklarga ega bo‘lib, o‘qituvchidan yuksak mahorat va zamonaviy yondashuvni talab etadi.

6-10 yosh oralig‘idagi bolalar kattalardan tubdan farq qiladi. Ularning diqqat-e’tibori ko‘pincha beqaror bo‘lib, uzoq vaqt bir joyda o‘tirib, nazariy bilimlarni tinglashga moslashmagan. Bolalar dunyoni ko‘rish, eshitish, ushlab ko‘rish, harakat qilish hamda o‘yin o‘ynash orqali anglaydilar. An’anaviy pedagogikada keng qo‘llanilgan grammatik-tarjima (Grammar Translation Method) va audio-lingval (Audio-Lingual Method) kabi metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tezda zerikarli tuyulishni boshlaydi. Eng yomoni, bunday usullar o‘quvchida “xato qilib qo‘yish” qo‘rquvini (language anxiety) va muloqotdagi psixologik g‘ovlarni yuzaga keltirishi mumkin. O‘quvchi grammatik qoidani bilishi, so‘zning tarjimasini yoddan aytishi mumkin, lekin real muloqot vaziyatida o‘z fikrini erkin ifoda etishga qiynalib, so‘zsiz qoladi.

Zamonaviy ingliz tili ta’limining bosh maqsadi - bolani til qoidalarini yodlashga emas, balki tilni jonli muloqot vositasi sifatida ko‘rib, o‘zi o‘rganayotgan tildan qo‘rqmay, o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan foydalana oladigan shaxs sifatida shakllantirish. Bu esa dars jarayoniga o‘quvchiga yo‘naltirilgan (student-centered) va interaktiv ta’lim texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo etadi. Zamonaviy metodlar o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, ularni mustaqil fikrlashga, jamoada ishlashga, muammolarni hal qilishga va o‘z fikrini erkin ifodalashga undaydi.

Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Project-Based Learning (PBL), Content-Based Instruction (CBI) kabi metodlar aynan o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar dars davomida o‘zlarini passiv tinglovchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi. Bu esa ularning mustaqilligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ijodkorligi va kommunikativ faolligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy ingliz tili ta’limida interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, jamoaviy musobaqalar, interaktiv o‘yinlar va warm-up kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, til o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Natijada o‘quvchilar ingliz tilini faqat zerikarli nazariy fan sifatida emas, balki real hayotda faol qo‘llaniladigan amaliy vosita sifatida qabul qiladilar.

Demak, bugungi kunda ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ va kompetensiyaga asoslangan zamonaviy metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafaqat lingvistik bilimlar, balki kommunikativ, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalar ham kichik yoshdanoq shakllanishni boshlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida ishonchli muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi xorijiy til o‘qitish metodikasida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

D. Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini asoslab, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni egallash emas, balki undan turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri foydalana olishni ham anglatishini ta’kidlagan.

M. Canale va M. Swain esa kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik jihatlarini rivojlantirish zarurligini asoslagan.

J. Richards va T. Rodgers tadqiqotlarida kommunikativ til o‘qitish (CLT) o‘quvchilarning real muloqotdagi faolligini oshiruvchi samarali yondashuv sifatida yoritilgan.

J. Willis vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) orqali o‘quvchilarning tilni amaliy topshiriqlar jarayonida o‘zlashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatgan.

E. Deci va R. Ryan tadqiqotlarida esa ichki motivatsiya, mustaqillik va qulay psixologik muhit o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida baholangan.

Mazkur ilmiy qarashlar boshlang‘ich sinflarda zamonaviy, interaktiv va o‘quvchiga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida ishonchli muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o‘rni va amaliy imkoniyatlarini aniqlash maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, umumlashtirish va metodik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, kommunikativ faolligi, ichki motivatsiyasi hamda ingliz tilida erkin fikr bildirishiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar o‘rganildi.

Metodik tahlilda Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Project-Based Learning (PBL), Total Physical Response (TPR) hamda Presentation, Practice, Production (PPP) kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlarning boshlang‘ich ta’lim sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilindi. Ushbu metodlarning o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, nutqiy faollik va o‘ziga ishonchni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, rolli o‘yinlar, guruhli topshiriqlar, Circle Time, vizual kartochkalar, multimedia vositalari va interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanishning kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati metodik jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar umumlashtirilib, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan samarali foydalanishga doir xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kommunikativ til o‘qitish (CLT - Communicative Language Teaching)

Kommunikativ metodning asosiy g‘oyasi shundaki, til xuddi o‘yin yoki muloqot o‘yini kabi hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib o‘rganilishi kerak. Boshlang‘ich sinflarda CLT metodini qo‘llashda o‘qituvchi grammatik xatolarni darhol to‘xtatib, to‘g‘rilashdan qochishi lozim. Aks holda, bola gapirishdan to‘xtab qoladi. Asosiy e’tibor nutqning aniqligiga (accuracy) emas, balki ravonligiga va mazmun yetkazilishiga (fluency) qaratiladi. Darsda turli rolli o‘yinlar (Role-plays) va simulyatsiyalar tashkil etiladi. Masalan, “Sehrli do‘kon” mavzusida o‘quvchilar xaridor va sotuvchi rollarini bajaradilar. O‘quvchi “Can I have an apple, please?” iborasini shunchaki darslikdan o‘qimaydi, balki o‘yinchoq mevalarni olib, real harakat bilan muloqotga kirishadi. Bu jarayonda bola tilni shunchaki fanning bir qismi emas, balki aniq maqsadga erishish vositasi sifatida anglaydi.

Vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT - Task-Based Language Teaching)

TBLT metodi o‘quvchi diqqatini til strukturasiga emas, balki aniq bir amaliy topshiriqni (task) bajarishga qaratadi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun amaliy va ko‘rinadigan natija beruvchi topshiriqlar juda qiziqarli hisoblanadi.

TBLT bo‘yicha dars jarayoni uch bosqichda tashkil etiladi:

Pre-task (Vazifadan oldingi bosqich): O‘qituvchi o‘quvchilarga kerakli lug‘at va iboralarni rasmlar, qo‘shiqlar va videolar orqali tanishtiradi. Masalan, “Mening hayvonot bog‘im” mavzusi.

Task cycle (Vazifani bajarish bosqichi): O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, qog‘ozga o‘zlari xohlagan hayvonlar rasmini chizishadi yoki qirqib yopishtirishadi (poster tayyorlashadi). So‘ngra guruh ichida va sinf oldida o‘z hayvonot bog‘larini ingliz tilida taqdim qilishadi (“This is my zoo. Look! The elephant is big. I like the monkey”).

Language focus (Tilga e’tibor bosqichi): Barcha guruhlar topshiriqni bajarib bo‘lgach, o‘qituvchi umumiy holda o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolar ustida ishlaydi, so‘z va iboralarni talaffuz jihatidan mustahkamlaydi.

TBLT metodi nafaqat o‘quvchilarning interaktiv yo‘llar bilan yangi til o‘rganishi uchun xizmat qiladi, balki o‘quvchilarda jamoa bilan ishlash, kreativ fikrlash va vaqtni boshqarish kabi zarur hayotiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi.

PPP modeli (Presentation, Practice, Production)

PPP modeli boshlang‘ich sinflarda yangi grammatik yoki leksik birliklarni izchil va qadamba-qadam o‘rgatishda eng qulay struktura hisoblanadi. Ushbu model 3 qismdan iborat bo‘lib, butun dars jarayonini to‘liq tashkil etish uchun mo‘ljallangan:

1. **Presentation (Taqdimot):** O‘qituvchi yangi til birligini ko‘rgazmali va qiziqarli shaklda taqdim etadi. Masalan, “have got / has got” iborasini o‘rgatishda o‘qituvchi o‘yinchoqlar to‘la sumkadan narsalarni olib ko‘rsatadi: “Look! I have got a car. She has got a doll.” Yoki turli xil rang-barang media vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.
2. **Practice (Mashq qilish):** O‘quvchilar o‘qituvchi nazorati ostida yangi iborani takrorlaydilar va nazoratli mashqlarni bajaradilar. Masalan, kartochkalar orqali “Yo‘qolgan so‘zni top” o‘yini yoki juftlikda bir-birining sumkasidagi narsalarni topish mashqi. O‘quvchilar birinchi qismda ustozning tilidan eshitganlarini endi o‘z tilida taqdim qiladi. O‘rganilgan yangi bilimlar amaliyotda qo‘llanishni boshlaydi.
3. **Production (Mustaqil qo‘llash):** O‘quvchilarga to‘liq erkinlik beriladi. Ular o‘zlarining haqiqiy buyumlari, oilasi yoki do‘stlari haqida ushbu iborani qo‘llab, 3-4 ta gapdan iborat kichik hikoya aytib beradilar. Aynan mana shu qismda CBLT metodikasidan foydalanib, turli interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etish orqali bolalarning ko‘proq va yaxshiroq gapirishlariga imkon yaratish mumkin.

Kommunikativ kompetensiyaning shakllanish bosqichlari

Dell Hymes va Canale & Swain modellari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlari rivojlantiriladi:

Kompetensiya turi	Boshlang‘ich sinfdagi namoyon bo‘lish shakli	Amaliy misol
Grammatik kompetensiya	Qoidalarni yodlash emas, balki tayyor qoliplarni (language chunks) to‘g‘ri qo‘llash.	“I like apples” iborasini bilish (konyugatsiya qoidalarini chuqur tahlil qilmasdan).
Sotsiolingvistik kompetensiya	Yoshiga mos ravishda xushmuomalalik va madaniyat qoidalariga amal qilish.	Darsga kirganda “Good morning, teacher!”, yordam so‘raganda “Please”, minnatdorchilikda “Thank you” deyish.
Diskursiv kompetensiya	Kichik va sodda gaplarni mantiqan to‘g‘ri bog‘lab yaxlit fikr bildira olish.	“This is my cat. Its name is Fluffy. It is white and soft.”
Strategik kompetensiya	So‘z esidan chiqqanda to‘xtab qolmay, imo-ishora, mimika va rasmlar orqali muloqotni davom ettirish.	So‘z nomini bilmaganda obyektni ko‘rsatib “What is this?” deb so‘rash yoki harakat bilan tushuntirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini til o‘rganishga majburlab bo‘lmaydi. Ularda faqat ichki motivatsiya (intrinsic motivation), ya’ni jarayonning o‘zidan zavq olish tuyg‘usini uyg‘otish orqali natijaga erishish mumkin. Eduard Desi va Richard Rayan hamda ularning o‘z-o‘zini anglash nazariyasiga (Self-Determination Theory) ko‘ra, o‘quvchi o‘zini darsda erkin, xavfsiz va muhim his etgandagina unda o‘rganishga nisbatan kuchli qiziqish paydo bo‘ladi. Buning uchun darslarda “Doira vaqti” (Circle Time) kabi interaktiv usullardan foydalanish hamda harakatli o‘yinlarni ko‘paytirish zarur. Bu mashg‘ulotda o‘quvchilar gilam ustida yoki stullarda doira shaklida o‘tiradilar. O‘qituvchi yumshoq koptokni bir o‘quvchiga otib, savol beradi: “What color do you like?” O‘quvchi javob berib, koptokni boshqa do‘stiga otadi. Bu interfaol usul sinfdagi barcha bolalarning (hatto tortinchoq va passiv bolalarning ham) darsga teng jalb etilishini ta’minlaydi va ulardagi tortinchoqlikni yo‘qotadi. Har bir bola tabiiy ravishda qiziqarli jarayonning bir bo‘lagi sifatida ishtirok etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilida ishonchli muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish - murakkab, ammo to‘g‘ri yondashuv yo‘lga qo‘yilsa, juda samarali kechadigan jarayondir. Quruq so‘z yodlash va grammatik qoidalarga ko‘milgan an’anaviy ta’limdan voz kechib, CLT, TBLT, PPP, PBL va TPR kabi zamonaviy, o‘quvchiga yo‘naltirilgan metodlarni dars jarayoniga uyg‘un holatda tatbiq etish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga nafaqat dars jarayonida yuqorida keltirib o‘tilgan zamonaviy metodlardan foydalanish, balki o‘zlarida bir qancha muhim qadriyatlarni shakllantirish tavsiya etiladi.

O‘quvchi og‘zaki nutqda xato qilsa, uning gapini bo‘lmaslik va asosiy e’tiborni bolaning fikrni yetkazib bera olganiga qaratib, dars oxirida xatolarni ijobiy tarzda umumiy tahlil qilish lozim. Vizual kartochkalar (flashcards), real o‘yinchoqlar (realia), multimedia vositalari va harakatli o‘yinlardan unumli foydalanish dars jarayonining qiziqarli kechishini ta’minlaydi.

Shuningdek, sinfda o‘quvchilar bir-birlari bilan ko‘proq muloqot qilishlari uchun sharoit yaratish maqsadida o‘qituvchi darsda 70% emas, balki 30% gapirishi, qolgan vaqtni o‘quvchilar muloqotiga berishi zarur. Ushbu yondashuvlar orqali shakllantirilgan til ko‘nikmalari o‘quvchilarning kelajakda xorijiy tillarni chuqurroq egallashi va jamiyatda erkin, mantiqiy hamda ishonchli fikrlaydigan barkamol shaxs bo‘lib kamol topishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education.
2. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.
4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and new directions. Contemporary Educational Psychology, 25(1), 54-67.
5. Harmer, J. (2007). How to Teach English (2nd ed.). Longman.
6. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269-293). Penguin.
7. Nunan, D. (2011). Teaching English to Speakers of Other Languages. Routledge.
8. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge University Press.

DUAL TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK QISHLOQ XO'JALIGI MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH NATIJALARI

Abdullayeva Rohilaxon Ne'matjonovna
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

ORCID 0009-0005-7870-757X

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta'lim sharoitida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Dual ta'lim tizimining xalqaro tajribasi, xususan, Germaniya, Avstriya, Shveysariya va boshqa davlatlardagi amaliyoti o'rganilgan hamda uni O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikning talabalar kasbiy tayyorgarligiga ta'siri baholangan. Natijalar dual ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan integratsiya qilish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, kasbiy kompetensiya, qishloq xo'jaligi muhandisi, oliy ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati, mehnat bozori.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation of professional competencies of future agricultural engineers in dual education. The international experience of the dual education system, in particular, its practice in Germany, Austria, Switzerland and other countries, is studied, and the organizational and pedagogical mechanisms of its implementation in the higher education system of Uzbekistan are highlighted. In the course of the research, the impact of cooperation between educational institutions and industrial enterprises on the professional training of students was assessed. The results show that dual education is important in integrating students' theoretical knowledge with practice, developing their professional competencies, and training competitive specialists in accordance with the requirements of the labor market.

Key words: dual education, professional competence, agricultural engineer, higher education, production practice, competency-based approach, quality of education, labor market.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования профессиональных компетенций будущих инженеров-агрессодателей в дуализме. Изучается международный опыт системы дуализма, в частности, ее практика в Германии, Австрии, Швейцарии и других странах, а также освещаются организационно-педагогические механизмы ее внедрения в системе высшего образования Узбекистана. В ходе исследования оценивалось влияние сотрудничества между учебными заведениями и промышленными предприятиями на профессиональную подготовку студентов. Результаты показывают, что дуализм важен для интеграции теоретических знаний студентов с практикой, развития их профессиональных компетенций и подготовки конкурентоспособных специалистов в соответствии с требованиями рынка труда.

Ключевые слова: дуальное образование, профессиональная компетентность, инженер-агроном, высшее образование, производственная практика, компетентностный подход, качество образования, рынок труда.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning ustuvor maqsadi mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos, yuqori malakali, raqobatbardosh hamda amaliy kasbiy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Bu borada dual ta'lim tizimini joriy etish ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatning uzviy integratsiyasini ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dual ta'lim - ta'lim oluvchilarning nazariy tayyorgarligini ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikma va malakalarini esa ishlab chiqarish korxonalari hamda tashkilotlarida shakllantirishga asoslangan innovatsion ta'lim modeli hisoblanadi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi

talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshirish va bitiruvchilarning ishlab chiqarish jarayonlariga tezkor integratsiyalashuvini ta'minlashdan iborat.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari hamda Hukumatning me'yoriy-huquqiy hujjatlarida dual ta'lim tizimini rivojlantirish, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va amaliyotga keng joriy etish davlat ta'lim siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda bitiruvchilarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash vazifasi dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy ta'lim resurslaridan samarali foydalanish va ta'lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishni taqozo etmoqda [1; 2; 3; 5].

Agrar sohada kuzatilayotgan jadal texnologik rivojlanish va ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashuvi ayrim hollarda ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan tezroq kechayotgani sir emas. Shu boisdan, zamonaviy ijtimoiy buyurtma nafaqat oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga, balki bo'lajak mutaxassis shaxsiga ham yuqori talablarni qo'ymoqda. Xususan, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun mutaxassis nafaqat mustahkam kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga (hard skills), balki jamoada ishlash, muloqot qilish, muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash va o'zini rivojlantirish kabi universal kompetensiyalarga (soft skills) ham ega bo'lishi lozim [3; 4; 6; 7].

Mazkur vazifalarni samarali hal etishda oliy ta'lim didaktikasida dual yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Dual yondashuv ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish muhitining o'zaro integratsiyasiga asoslangan bo'lib, u ta'lim texnologiyalari, o'qitish metodlari, vositalari va resurslarining uzviy bog'liq holda qo'llanilishini nazarda tutadi. Mazkur yondashuv kompetensiyaviy ta'lim paradigmasini amalga oshirish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi [8; 9; 10].

Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida dual ta'lim yondashuvini amalga oshirishning xalqaro va milliy tajribasini tahlil qilish, uning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash hamda oliy ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan tashkiliy-pedagogik modellarni tavsiflashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dual ta'lim tizimining nazariy va amaliy asoslari xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Mazkur ta'lim tizimi dastlab Germaniyada shakllangan bo'lib, bugungi kunda mamlakatdagi korxonalarning salmoqli qismi ushbu tizimni amalga oshirish jarayoniga jalb etilgan.

B. Tidemann dual tizimni Germaniyaga xos kasbiy ta'lim shakli sifatida tadqiq etib, uning ta'lim jarayoni bilan kasbiy-amaliy tayyorgarlikni o'zaro uyg'unlashtirishdagi ahamiyatini yoritgan [13]. Keyinchalik ushbu model Avstriya va Shveysariyada ham keng joriy etilib, Yevropa mamlakatlarida kasbiy ta'lim va malakali kadrlar tayyorlashning samarali shakllaridan biriga aylangan.

S. Eisenmann Germaniyaning kasbiy ta'lim va tayyorlash sohasidagi hamkorlik tajribasini o'rganib, mazkur ta'lim tamoyilini boshqa ta'lim tizimlariga tatbiq etish imkoniyatlarini yoritgan [14]. Uning tadqiqotida Germaniya kasbiy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda mazkur tajribani boshqa sharoitlarga moslashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

H. Solga, P. Protsch, C. Ebner va C. Brzinsky-Fay esa Germaniya kasbiy ta'lim va tayyorlash tizimining institutsional tuzilishi, kuchli jihatlari va mavjud muammolarini tahlil qilganlar [15]. Ushbu tadqiqotlar dual ta'limning samaradorligi ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi tizimli hamkorlik bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda dual ta'lim modeli Shvetsiya, Gretsiya, Italiya, Ispaniya, Ruminiya, Chernogoriya, Fransiya va Daniya kabi Yevropa davlatlari bilan bir qatorda Xitoy, Janubiy Koreya hamda bir qator Afrika mamlakatlarida ham qo'llanilmoqda [14]. Mazkur tajribalarning geografik jihatdan keng tarqalishi dual ta'lim modelini turli ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim sharoitlariga moslashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda dual ta'lim kasbiy ta'lim dasturlarini ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi hamkorligida tashkil etishga asoslangan ta'lim shakli sifatida tavsiflanadi. Bunda ta'lim dasturining nazariy qismi ta'lim muassasasida, amaliy qismi esa bevosita ishlab chiqarish muhitida, ya'ni korxona va tashkilotlardagi real mehnat jarayonida amalga oshiriladi [15]. Bunday yondashuv nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, talabalarning kasbiy tajribasini boyitish hamda ularni mehnat bozori talablariga muvofiq kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

M.A. Nikolina va E.V. Suvorova dual ta'limni innovatsion ta'lim shakli sifatida tadqiq etganlar [16]. Ularning tadqiqotlari dual ta'limning nazariy ta'lim bilan amaliy tayyorgarlikni birlashtirish imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan. Mazkur yondashuvda ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi hamkorlik talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

F.F. Dudyrev, O.A. Romanova va A.I. Shabalin Rossiya hududlarida dual ta'limni tashkil etish tajribasini o'rganganlar [17]. Ularning tadqiqotida dual ta'limning hududiy amaliyoti hamda ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sohasi o'rtasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan. Rossiyada dual ta'lim modeli 2014-yildan boshlab amaliyotga joriy etila boshlagan bo'lib, keyinchalik mazkur yo'nalishdagi tashkiliy mexanizmlar rivojlantirilgan. Bu tajriba dual ta'limni milliy ta'lim tizimining xususiyatlari va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

L.V. Sidakova dual ta'lim modelining mohiyati va asosiy belgilarini tadqiq etgan [18]. Muallifning tadqiqoti dual ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning ta'lim jarayonidagi o'rnini tavsiflashga qaratilgan. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, dual ta'limning muhim xususiyatlaridan biri nazariy tayyorgarlik bilan amaliy faoliyatning o'zaro bog'liqligi hamda ta'lim jarayonida ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish subyektlarining hamkorligi ekanligini ko'rish mumkin.

Dual ta'lim sharoitida nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'lashda muammoli o'qitish yondashuvi ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. M.I. Mahmutov muammoli o'qitishning asosiy nazariy masalalarini tadqiq etgan bo'lib, uning ilmiy qarashlari ta'lim oluvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va yechim izlash faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslarini yoritishga xizmat qiladi [11]. Mazkur yondashuv dual ta'lim sharoitida talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan amaliy vazifalarni hal etishga yo'naltirish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, dual ta'limning turli model va shakllari nafaqat ishchi kadrlarni tayyorlash tizimida, balki oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ham muhim o'rin egallaydi. B. Tidemann, S. Eisenmann, H. Solga, P. Protsch, C. Ebner, C. Brzinsky-Fay, M.A. Nikolina, E.V. Suvorova, F.F. Dudyrev, O.A. Romanova, A.I. Shabalin va L.V. Sidakova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda dual ta'limning turli nazariy, institutsional va amaliy jihatlari yoritilgan [13; 14; 15; 16; 17; 18].

Mazkur tadqiqotlarning umumiy jihati ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, nazariy hamda amaliy tayyorgarlikning o'zaro uyg'unligini ta'minlash va ta'limni kasbiy faoliyat bilan bog'lash masalalariga alohida e'tibor qaratilganligida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili dual ta'limning samaradorligi ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi barqaror hamkorlik, nazariy va amaliy tayyorgarlikning integratsiyasi hamda ta'lim mazmunining mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari va turli mamlakatlarda shakllangan tajribalarni o'rganish O'zbekiston oliy ta'lim tizimida, xususan, bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda dual ta'lim imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda dual ta'lim sharoitida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o'rganishda ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar dual ta'limning nazariy asoslarini o'rganish, xorijiy va milliy tajribalarni o'zaro taqqoslash, ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikning tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini aniqlash hamda mavjud tajribalar asosida tegishli ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Ilmiy-nazariy tahlil metodi asosida dual ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetensiya, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga oid ilmiy-pedagogik manbalar o'rganildi. Mazkur jarayonda dual ta'limning mohiyati, uning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o'rni hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlariga doir ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Shuningdek, dual ta'limni tashkil etishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi asosiy talab va vazifalar ham tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Qiyosiy taqqoslash metodi dual ta'limni tashkil etish bo'yicha xorijiy va milliy tajribalarni o'rganishda qo'llanildi. Xususan, Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasida shakllangan dual ta'lim tajribalarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan yondashuvlar bilan umumiy va farqli tomonlari qiyoslandi. Taqqoslashda ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi hamkorlik, nazariy va amaliy tayyorgarlikning o'zaro integratsiyasi, ish beruvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tizimli yondashuv asosida dual ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganildi. Bunda oliy ta'lim muassasasi, ishlab chiqarish korxonasi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, nazariy ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotining uzviyligi, ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlari o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv dual ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy tashkiliy-pedagogik omillarni tizimli ravishda tavsiflash imkonini berdi.

Umumlashtirish metodi yordamida o‘rganilgan ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda dual ta’limni amaliy tashkil etishga oid ma’lumotlar asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi. Jumladan, dual ta’limning nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish muhiti bilan integratsiyalash, ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda bo‘lajak qishloq xo‘jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tizimlashtirildi.

Shunday qilib, tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlarining o‘zaro uyg‘unligi dual ta’limning tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini kompleks o‘rganish, xorijiy va milliy tajribalarni qiyoslash hamda bo‘lajak qishloq xo‘jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik omillarni aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda dual ta’lim modeli ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi strategik hamkorlikni ta’minlovchi muhim tashkiliy-pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli tadqiqotchilar mazkur modelni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish, ta’lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar integratsiyasini ta’minlash hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida baholaydilar [13; 16; 17; 18].

P2P (inglizcha peer-to-peer, person-to-person – “tengdan tengga”, “insondan insonga”) o‘qitish modeli ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida teng huquqli hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga asoslangan pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ingliz tilidagi peer atamasi “tengdosh”, “hamkor”, “sherik” ma’nolarini anglatib, mazkur modelning asosiy mazmuni ishtirokchilarning o‘zaro teng huquqli hamkorligiga tayanishini ifodalaydi.

P2P modeli dastlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tarmoq tizimlarida keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik uning samarali mexanizmlari ta’lim sohasiga ham tatbiq etildi. Shu bois mazkur yondashuv ilmiy adabiyotlarda detsentralashgan yoki piring (peering) modeli sifatida ham qayd etiladi. Ta’lim tizimi nuqtai nazaridan P2P modeli ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilarning o‘zaro hamkorligi, tajriba almashishi hamda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishiga asoslangan innovatsion ta’lim shakli sifatida talqin qilinadi.

17. Maruna, S. (2001). Making Good: How Ex-Convicts Reform and Rebuild Their Lives. American Psychological Association. https://doi.org/10.1037/10430-000
18. McNeill, F. (2019). Mass Supervision, Misrecognition and the 'Malopticon'. Punishment & Society, 21(2), 207–230. https://doi.org/10.1177/1462474518764502
19. McNeill, F., Raynor, P., & Trotter, C. (2010). Offender Supervision: New Directions in Theory, Research and Practice. Routledge.
20. Taxman, F. S. (2014). Second Generation of RNR: The Importance of Systemic Responsivity in Expanding Core Principles of Responsivity. Federal Probation, 78(2), 32–38.
21. Taxman, F. S., & Belenko, S. (2012). Implementing Evidence-Based Practices in Community Corrections and Addiction Treatment. Springer. https://doi.org/10.1007/978-1-4614-0415-5
22. Skeem, J. L., & Manchak, S. M. (2008). Back to the future: From Klockars' model of effective supervision to evidence-based practice in probation. Journal of Offender Rehabilitation, 47(3), 220–247. https://doi.org/10.1080/10509670802134097
23. Bourgon, G., & Bonta, J. (2014). Reconsidering the Responsivity Principle: A way to move forward. Federal Probation, 78(2), 3–10.
24. Robinson, G., McNeill, F., & Maruna, S. (2013). Punishment in society: The improbable persistence of probation and other community sanctions. The Oxford Handbook of Criminology.
25. Vanstone, M. (2004). Supervising Offenders in the Community. Ashgate Publishing.
26. Robinson, G. (2005). What works in offender management? Howard Journal of Criminal Justice, 44(3), 307–318. https://doi.org/10.1111/j.1468-2311.2005.00381.x
27. McGuire, J. (Ed.). (2002). Offender Rehabilitation and Treatment: Effective Programmes and Policies to Reduce Re-offending. Wiley.
28. Lipsey, M. W., & Cullen, F. T. (2007). The effectiveness of correctional rehabilitation: A review of systematic reviews. Annual Review of Law and Social Science, 3, 297–320. https://doi.org/10.1146/annurev.lawsocsci.3.081806.112833
29. Cullen, F. T., Jonson, C. L., & Nagin, D. S. (2011). Prisons do not reduce recidivism: The high cost of ignoring science. The Prison Journal, 91(3_suppl), 48S–65S. https://doi.org/10.1177/0032885511415224
30. Bonta, J., Bourgon, G., Rugge, T., Scott, T. L., Yessine, A. K., Gutierrez, L., & Li, J. (2011). An experimental demonstration of training probation officers in evidence-based community supervision. Criminal Justice and Behavior, 38(11), 1127–1148. https://doi.org/10.1177/0093854811420678
31. Latessa, E. J., Johnson, G., & Koetzle, D. (2020). What Works (and Doesn't) in Reducing Recidivism. Routledge.
32. Raynor, P., & Robinson, G. (2009). Rehabilitation, Crime and Justice. Palgrave Macmillan.
33. Petersilia, J. (2003). When Prisoners Come Home: Parole and Prisoner Reentry. Oxford University Press.

3 https://lex.uz/uz/docs/-7050441
4 https://lex.uz/uz/docs/-7196808

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

O'rishboyeva Xumora O'rol qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
"Musiqa ta'limi va san'at" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'limda zamonaviy usullar va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musiqa darslarida ilg'or raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni yanada faol va ijodkor qilish mumkin. Musiqa fani o'quvchilarning estetik didi, tasavvur qilish, eshitish va ijod qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun bu darslarda o'quvchilarning faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kalit so'zlar: texnologiya, raqamli texnologiya, musiqa madaniyati, an'anaviy usullar, interfaol platformalar, multimedia vositalari, integratsiya, darsni loyihalash.

Abstract: Today, the use of modern methods and technologies in education is of great importance. Especially in music classes, the application of advanced digital technologies can increase students' interest and make them more active and creative. The subject of music develops students' aesthetic taste, imagination, listening skills, and creative abilities. Therefore, special attention should be paid to increasing students' engagement during these lessons.

Key words: technology, digital technology, music culture, traditional methods, interactive platforms, multimedia tools, integration, lesson planning.

Аннотация: В настоящее время использование современных методов и технологий в образовании приобретает большое значение. В частности, применение передовых цифровых технологий на уроках музыки способствует повышению интереса учащихся, делает их более активными и творческими. Предмет музыки развивает эстетический вкус, воображение, слуховые и творческие способности учащихся. Поэтому на этих занятиях следует уделять особое внимание повышению активности учащихся.

Ключевые слова: технология, цифровые технологии, музыкальная культура, традиционные методы, интерактивные платформы, мультимедийные средства, интеграция, планирование урока.

KIRISH

Hozirgi raqamli taraqqiyot davrida ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, xususan, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarini yangi pedagogik va raqamli vositalar asosida tashkil etish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Musiqa darslari nafaqat estetik tarbiyani shakllantiradi, balki o'quvchilarning musiqiy idrokini, ijodiy fikrlashini, mustaqil o'rganishni rivojlantirishda hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi musiqa ta'limini ham metodik jihatdan o'zgartirib bormoqda. Shu sababli dars mazmunini raqamli platformalar, interaktiv ilovalar, multimedia resurslari bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida ham musiqa ta'limi doimo jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi strategik omil bo'lib kelgan. Xususan, buyuk mutafakkir Platon ta'kidlaganidek: "Musiqa tarbiyasi davlat uchun eng muhim quroldir va uni o'rgatish usullari doimo takomillashtirib borilishi shart". Ushbu fikrlar bugungi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Agar antik davrda musiqa tarbiyasi usullarini takomillashtirish deganda pedagogik yondashuvlar tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon ta'limga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishni taqozo etmoqda [6].

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar o‘quvchilarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, ularni ijodkor, tashabbuskor va zamon talablari asosida fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi masalasi oddiy “texnika qo‘llash” darajasidan yuqoriga ko‘tarilib, ularning pedagogik maqsadga muvofiqligi, ta’lim natijalariga ta’siri, metodik asoslari, o‘qituvchi kompetensiyalari bilan uyg‘unligi kabi murakkab omillar bilan belgilanayotgan ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bunday islohotlarni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ–4851-son[1] qaroriga asosan, “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi [1] doirasida ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot resurslari bilan ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu esa musiqa o‘qituvchilari zimmasiga dars jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida loyihalash va interaktiv ta’lim muhitini yaratish mas’uliyatini yuklaydi. Bu esa bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ham raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ushbu maqsadlarning amalga oshishida muhim o‘rin tutadi. Interaktiv doskalar, virtual musiqiy dasturlar, audio-video kontentlar, mobil ilovalar va musiqiy o‘yinlar orqali o‘quvchilar musiqani chuqurroq anglaydi, dars jarayoni esa yanada jonli, qiziqarli va samarali tus oladi. Musiqa madaniyati darslari boshqa darslar kabi raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashni talab etadi, chunki musiqa darslari ham amaliy, ham nazariy jarayon bilan bevosita bog‘liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shu o‘rinda texnologiya so‘ziga ta’rif berib o‘tamiz. “Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga o‘tgan asrning 70-yillarida kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan: technos - san’at, hunar va logos - fan, ta’limot so‘zlaridan tashkil topib, hunar fani ma’nosini anglatadi [2; 15-bet].

Texnologiya - ishlov berish, holatni o‘zgartirish san’ati, mahorati, malakasi va metodlari yig‘indisi (V. M. Shepel).

Ta’lim yoki o‘qitish texnologiyasi - ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining natijadorligiga erishish, qo‘llash, tasarruf etish tizimidir [2; 15-bet].

Raqamli texnologiyalar - vaqtni tejash, murakkab jarayonlarni (musiqada tovush to‘lqinlari yoki asar tuzilishi) virtual ko‘rinishda tasvirlash va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi elektron qurollar va metodlar tizimidir [7].

Raqamli texnologiyalar - bu axborotni (ma’lumot, ovoz, tasvir, video) raqamli ko‘rinishda ishlab chiqish, saqlash, uzatish va qayta ishlashga imkon beruvchi vositalar va usullar majmuasidir. Musiqa sohasida bu texnologiyalar musiqa yaratish, yozish, tahrirlash, tinglash, tarqatish va ta’lim berish jarayonlarini raqamlashtirish orqali amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi orqali musiqa ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid ilmiy-nazariy qarashlar, pedagogik yondashuvlar hamda raqamli ta’lim vositalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni o‘rganildi.

Qiyosiy taqqoslash metodi asosida musiqa madaniyati darslarida qo‘llaniladigan an’anaviy va raqamli ta’lim vositalarining imkoniyatlari o‘zaro solishtirildi. Bunda ularning o‘quvchilarning musiqiy idroki, ijodiy faolligi, mustaqil o‘rganishi va darsga bo‘lgan qiziqishiga ta’siri jihatidan o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, videodarslar, audioyozuvlar, multimedia taqdimotlari, interaktiv elektron doskalar, kompyuter dasturlari va mobil ilovalardan foydalanishning musiqa ta’limidagi didaktik imkoniyatlari tizimlashtirildi.

Umumlashtirish metodi yordamida o‘rganilgan ilmiy-nazariy manbalar va qiyosiy tahlil natijalari asosida musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Tadqiqot metodlarining kompleks qo‘llanilishi raqamli texnologiyalarning musiqa ta’limidagi pedagogik imkoniyatlarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ulardan samarali foydalanishga doir ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

1 https://lex.uz/docs/-5032128

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonining sifat va samaradorligini sezilarli oshiradi. Darslarni texnologiyalashtirish deganda, musiqa ta'limi mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, multimedia vositalari hamda interaktiv platformalar asosida tashkil etish tushuniladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini esa yanada faol qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida dars jarayonini loyihalash, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirish, ta'lim sifati va motivatsiyani oshirish omillari ilmiy tahlil etilgan. Raqamli texnologiyalar musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning eshitish, ritm, ijodiy tasavvur kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati darslarida videodarslar, taqdimotlar, audioyozuvlar, interaktiv elektron doska, kompyuter dasturlari va mobil ilovalardan foydalanish orqali o'quvchilar musiqa madaniyatining asosiy tushunchalarini, ritm va kuylarni ko'rgazmali ravishda o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bunday vositalar dars materialini nafaqat yengilroq anglashga, balki amaliy mashqlarni sifatli bajarishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishda bir qancha muammolarga ham duch kelamiz. Garchi maktablar kompyuter texnikasi bilan ta'minlanayotgan bo'lsa-da, musiqa xonalarining fanga moslashtirilgan raqamli vositalar bilan jihozlanish darajasi past.

Bundan tashqari, A. Musayev va boshqa tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ko'plab musiqa o'qituvchilari an'anaviy metodikaga tayangan holda darslarni tashkil etadi, bu esa ularning raqamli muhitga tayyor emasligini ko'rsatadi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni bartaraf etish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish uchun darslarda faqatgina kompyuter va ovoz kuchaytirgichdan foydalanish bilan cheklanmasdan, musiqa xonalarini ixtisoslashgan raqamli asboblar bilan jihozlash zarur.

O'qituvchilar uchun nafaqat umumiy kompyuter savodxonligi, balki ixtisoslashgan musiqiy dasturlar bo'yicha maqsadli malaka oshirish kurslarini joriy etish lozim. A. Musayev aytganidek, o'qituvchi raqamli muhitda yo'naltiruvchi rolini o'ynashi uchun o'zi bu vositalarni mukammal bilishi shart [8]. Ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar musiqa o'qituvchisidagi jonli ijroni cheklashi emas, balki uni to'ldirishi va keng imkoniyatlar yaratishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4851-son2 qarori.
2. G. M. Davronova. "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar". Darslik. – Samarqand, 2024. – 15-bet.
3. К. Б. Холиков. Модульная музыкальная образовательная технология как важный фактор развития учебного процесса по теории музыки. Scientific Progress. – 370–374-betlar.
4. Dilrabo Zubaydullayevna Gulyamova. "Umumta'lim maktablarida musiqa darslari istiqbollarida raqamli texnologiyalarni qo'llash usullari". Maqola.
5. Platon. "Davlat" (Politeia, 3-kitob). – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2002. – 145–150-betlar.
6. Zaripov N. N. "Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining zaruriy komponenti sifatida". Maqola. – Buxoro, 2023.
7. Musayev A. Sh. "Raqamli ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish omillari". "Pedagogika" ilmiy-nazariy jurnali. – Toshkent, 2023.
8. "Musiqa o'qitishda an'anaviy va raqamli usullarni uyg'unlashtirish". Science and Education. – 2025.
9. Ismoilov A. A. "Ta'limda raqamli transformatsiya jarayonlari". Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2023.
10. Wikipedia.

2 https://lex.uz/docs/-5032128

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI

Abdukarimova Rayxona Akmalovna
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchining kasbiy kompetentligi va uni amalga oshirishda metod hamda texnologiyalarning ahamiyati to'laqonli yoritib berilgan. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ta'lim jarayonini tashkil etish, turli platformalar va algoritmlar asosida o'quvchilarga hisoblash, ma'lumot berish, axborot tarqatish hamda ularni tahlil qilish kabi yo'nalishlarda bilim va salohiyatlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik, innovatsion raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim muhiti, pedagogik texnologiyalar, ta'lim jarayonini tashkil etish, interaktiv platformalar, algoritmik fikrlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ma'lumotlarni tahlil qilish, raqamli savodxonlik, ta'lim samaradorligi, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: The article comprehensively examines the importance of a teacher's professional competence and the role of methods and technologies in its implementation. The professional competence of future teachers ensures the effective organization of the educational process and enables them to apply their knowledge and potential in areas such as calculation, information delivery, data dissemination, and analysis through various platforms and algorithms. The study emphasizes that developing the professional competence of future teachers is a crucial factor in improving the quality of education and enhancing the effectiveness of pedagogical activity.

Key words: future teacher, professional skills, professional competence, innovative digital technologies, digital learning environment, pedagogical technologies, organization of the educational process, interactive platforms, algorithmic thinking, information and communication technologies, data analysis, digital literacy, educational effectiveness, competency-based approach.

Аннотация: В статье всесторонне раскрывается значение профессиональной компетентности педагога, а также роль методов и технологий в её реализации. Профессиональная компетентность будущих учителей обеспечивает эффективную организацию образовательного процесса и реализацию их знаний и потенциала в области вычислений, предоставления информации, распространения данных и их анализа на основе различных платформ и алгоритмов. Подчёркивается, что развитие профессиональной компетентности будущего педагога является важным условием повышения качества образования и эффективности педагогической деятельности.

Ключевые слова: будущий педагог, профессиональное мастерство, профессиональная компетентность, инновационные цифровые технологии, цифровая образовательная среда, педагогические технологии, организация образовательного процесса, интерактивные платформы, алгоритмическое мышление, информационно-коммуникационные технологии, анализ данных, цифровая грамотность, эффективность образования, компетентностный подход.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilar egallagan nazariyalarning qaysi biri amaliyotda qo'l kelishi va qaysi biri nazariy jihatdan ustun ekanligini, shuningdek, o'quvchilarni boshqarish vazifalarini hamda ular yashab, o'qib, ta'lim olayotgan xususiy maktab yoki an'anaviy maktab ta'lim tizimidagi farqli jihatlarni har tomonlama anglab olish lozim. Ta'lim jarayonining tizimli tashkil etilishi, aniq tuzilma va pedagogning yetarli kasbiy malakaga ega bo'lishi o'quvchilarning iste'dodli, tarbiyali va chuqur bilimli shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Obyektivlik va aniqlik, tanqidiylik, ya'ni bo'lajak pedagogning o'z samaradorlik darajasini namoyon etuvchi dars

uslubida sintetik jamlanmalar, ya'ni ilmiy tafakkur asosida tahlil qilish yoki sun'iy muammolar, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, aniqlik, obyektivlik va tanqidiylikka xos yondashuvlar qo'llanilishi lozim.

Ushbu jarayonda o'qituvchining ifodalayotgan mavzuga nisbatan qiziquvchanlik funksiyasini aniqlik asosida amalga oshirishi, ya'ni o'qituvchining metodlardan raqamli texnologiyalar bilan birgalikda foydalanishi, smart doskalar, matematik algoritmlar yoki Wi-Fi zonalari, IT platformalaridagi turli formatlar va qurilmalardan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va boshlang'ich muammolarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga umumiy va mavhum muammolarni emas, balki ularning yosh xususiyatlariga mos, tizimli va xulosaviy fikrlashni rivojlantiruvchi masalalarni taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Bunda refleksiya va xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish o'quvchilarning pedagogik jihatdan kompetentligini oshirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik kompetentlik talaba-yoshlarning pedagogik faoliyati, qobiliyati va vazifalarini bajarish jarayonida bevosita namoyon bo'ladi. Vazifalarni bajarish funksiyasi ularning psixologik jihatdan tahlil qilinishi bilan belgilanadi. Maxsus o'qitish usullari – o'qitish uchun moslashtirilgan, matematikaning o'zida qo'llaniladigan asosiy bilish usullari, matematikaga xos bo'lgan voqelikni o'rganish usullari (matematik modellarni qurish, bunday modellarni qurishda qo'llaniladigan abstraksiya usullari, aksiomatik usul). Aqlli qurilmalarni yaratish va joriy etish maktablarda ham qo'llanilmoqda. Masalan, aqlli qo'ng'iroq va xona haroratini o'lchovchi turli datchiklar yaratilgan. Bundan tashqari, yer qimirlashini aniqlash qurilmasi, fotoelektrik konverter qurilmasi, termoelektrik konverter qurilmasidan foydalangan holda zamonaviy ta'lim xonalarini yaratishimiz mumkin. Ma'lumotni saqlashda esa bulutli texnologiyalarni qo'llash juda foydali bo'lib qoldi.

O'quvchining darsdagi faolligi va diqqatini boshqa vaziyatlarga chalg'itmaslik foydali bo'ladi hamda ta'lim sifati oshib boradi. Ushbu jarayonga biz quyidagicha takliflarni bermoqdamiz:

- ta'lim jarayonida o'quvchilarda tasavvur imkoniyati yetarli bo'lmaganligi uchun dars jarayoniga modellashtirish texnologiyalarini olib kirish;
- darslarda texnik qurilmalardan amaliy foydalanish imkoni bo'lmagan hollarda ishlash jarayonini virtual holda yaratish va natijani ko'rsatish; Ø modellashtirilgan obyektlar asosida tahlilni olib borish;
- kimyoviy moddalar bilan ishlash jarayonida ularni ko'rsatishda; Ø geometriya darslarida esa shakllar va stereometriya bo'limini o'rganish uchun yaratilgan modellardan unumli foydalanish mumkin.

Matematikani o'qitish kerakli darajada bo'lishi mumkin emas, agar o'qituvchi ishida takroriy-umumlashtiruvchi darslar tizimi mavjud bo'lmasa, o'quvchilarning bilimlari yetarli darajada to'liq va mustahkam bo'lmaydi. Bu bilish jarayonining psixologik xususiyatlari va xotira xususiyatlari bilan bog'liq. Muayyan tizimdagi oldingi bilimlar tizimiga yangi bilimlarning doimiy kiritilishigina fanni yetarli darajada yuqori sifatli o'zlashtirishni ta'minlaydi.[5] Bilim, tarbiya, ko'nikma, malaka – quyidagi terminlar o'quvchi-yoshlarning pedagogik jihatdan bilim shakllarini oshirishi va ularning o'zaro amaliy jihatdan qo'llanishi katta samaradorlikni yuzaga keltiradi. Bo'lajak pedagogning shaxsiy kompetentligini rivojlantirishi, ya'ni o'z ustida ishlashi, bilim darajasini kengaytirishi va kreativ jihatdan yondashuv xususiyatiga ko'ra o'zining samaradorlik va psixologik-amaliy jihatdan qo'llanuvchi bilim shakllaridan ustunlikda ketma-ketlik asosida foydalanishi lozim. Turli raqamli texnologiyalar va uslublar natijasida o'quvchilarimizning bilim shakli va ularning nutqiy xususiyatlarini belgilaymiz. Metodik jihatdan o'quvchilarimizga "Uch minut", "Evrika", "Tezkor koptokcha", "Hisoblang", "Bum" va boshqa metodlarni qo'llash samaradorlikni yuzaga keltiradi. O'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlar orqali topshiriqlarni bajarishi hamda "Bir minut" metodi asosida tashkil etiladigan qisqa dam olish mashg'ulotlari boshqa metodlar bilan uyg'unlashtirilganda, ta'lim jarayonida integrativ yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodologik jihatdan integratsiyasini yuzaga keltiradi. Bo'lajak pedagogning kompetentligi mana shunday jihatlar, vaziyat va muhitga ko'ra rivojlanib, yuksalib boradi.

Ta'lim ishini tashkil etishning bosh omili ham o'quvchi-yoshlarning teran fikr va dunyoqarash asosida bilim olishlariga imkon yaratish bilan baholanadi. Haqiqatan ham, bugun ta'lim tizimining izchillik asosida rivojlanib borishi o'ziga xos tarzda tezkorlik va faollikni ham talab etishi bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonda hisoblash texnologiyalari, kreativ yondashuv hamda bilimlarning kontekstual qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish yuqorida bayon etilgan nazariy va amaliy qarashlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu masalalar, ayniqsa, matematika o'qitish metodikasida o'zining yaqqol ifodasini topadi. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetentligi uning yurish-turishi va pedagogika sohasiga bo'lgan muhabbati, qolaversa, o'quvchilarga mavzuni tushuntirib berish shakli va yetkazib berish darajasi bilan baholanadi. Bunday faoliyat mashhur ijtimoiy shaxslarning guruh tomonidan milliy va madaniy-

lashgan qatlamda yashovchi hamda tahsil oluvchi o‘quvchi-yoshlarga berayotgan bilimlari, nazariyasi va amaliyoti bilan o‘rnak bo‘lishi lozim. Bunda ta’lim tizimi, ya’ni “yonuvchi sistema” so‘zidan olingan tizim asosida amalga oshiriladigan dars yaxlitlik, butunlik va funksionallik asosida tashkil etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta’lim ishini tashkil etishda bilim nazariyasi va qarashlarini bugungi kun, davr nuqtai nazaridan baholash kerak. Davr nuqtai nazaridan baholaganda, zamonaviylik va integratsiyalashuv jarayonining o‘ziga xosligini unutmagan holda, turli tamoyillarni, psixologik-fiziologik holatlarni hisobga olish va o‘quvchilar bilan ishlashda yaxshi yondashuvni ta’minlash lozim. Pedagogik jarayon asosida amalga oshirilayotgan uslub va metodlarning samarasi darsda zamonaviy pedagogik texnikalar, ijtimoiy tarmoqlar va kasb-hunarga yo‘naltirish metodikasidan foydalanish orqali namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda jamiyatimizda ta’lim olayotgan o‘quvchi-yoshlar pedagoglardan turli xil tanqidiy fikrlash nazariyalari va qarashlarini, o‘zini tutish, hayotga bo‘lgan munosabat, dunyoqarash hamda ta’limiy o‘zgarishlarni o‘rganadi va ularga taqlid qiladi.

Jamiyatimizda ta’lim oluvchi o‘quvchi-yoshlar orasida kar-soqov talaba-yoshlar yoki defektologiya sohasidagi muammolari mavjud o‘quvchilar ham bor. Ushbu holatga metodik va uslubiy jihatdan uzviy bog‘liqlik, bir-birini to‘ldiruvchanlik hamda bosqichma-bosqichlik asosida yondashish, ta’lim oluvchilarning texnologik funksiyalarini rivojlantirishdan boshlash lozim. Pedagogika yoshlar pedagogikasi va kattalar pedagogikasiga bo‘linadi. Biz metodik jihatdan o‘quvchilarimizda kompetentlikni rivojlantirish uchun o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi uchun jarayon va sharoit yaratib berish hamda ushbu jarayon bilan birga o‘quvchi-yoshlarga nazariyalar va qarashlarni o‘rgatishga moslashishimiz lozim. Bunga sabab – bo‘lajak pedagog ta’lim olish jarayonida ustozlari va rahbarlaridan bilimlarni olgan. Ushbu holatda egallangan bilimlarni amaliyotda va tajribada qo‘llash lozim.

An’anaviy uslubda qo‘llangan tajribalar va noan’anaviy uslubda qo‘llangan tajribalarni turli texnik vositalar yordamida bajariladigan vazifalar bilan uyg‘unlashtirish lozim. Ushbu holat etika jihatidan nafosat tarbiyasini unutmagan holda, o‘qituvchining obyekt va subyekt o‘rtasidagi munosabatlari, uzviylik chizig‘ini buzmagan holda, ijtimoiy fanlarning o‘zaro amaliyotda qo‘llanishi va malakaviy tendensiyalardan saqlanishiga yordam beradi. Bugungi kunda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, o‘quvchi-yoshlarning pedagogik va metodik bilimlarini oshirish jarayonida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ularning turli pedagogik vaziyat va muhitlarda faoliyat olib borishi, o‘quvchi-yoshlar bilan samarali ishlashi, ularga ijobiy pedagogik ta’sir ko‘rsatishi hamda to‘g‘ri yo‘naltirishi uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda bizga psixologik metodlar ham yordam beradi. O‘quvchi-yoshlarimizning dunyoqarashlarini va qarashlarini amalga oshirilayotgan vazifalar orqali anglash mumkin.

Buni biz psixologik metodlar yordamida amalga oshiramiz. Ushbu jarayonda “O‘ylab ko‘ring”, “Quvnoq test”, “Tezkor mental”, “Davomini toping” yoki “Toping” kabi metodlar, psixologik so‘rovnomalar va turli omillar yuzasidan tashkil etilgan mashqlardan foydalanamiz. Pedagogikaning fiziologiya va huquqshunoslik, siyosatshunoslik, ma’naviyat asoslari, turli umumiy tarbiyaviy fanlar, tarix, falsafa, etnografiya, etika, psixologiya, sotsiologiya, geometriya, geografiya, mental arifmetika, mantiq kabi fanlar bilan aloqadorligini unutmagan holda, o‘qituvchi o‘z nutqini va darsda foydalanayotgan metodlarni, metodik birlashmalarni samarali qo‘llay olishi va integratsiyaga amal qilishi lozim. Ushbu fikrlar matematika o‘qitish metodikasida ham namoyondir. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z ustida ishlovchi shaxs sifatida turli xil nazariyalarni chuqur o‘rganishi lozim. Ushbu holat darsning amalga oshirilishi va pedagogik kuzatish asosida o‘rganiladi.

Adabiyotlarni o‘rganish metodi murakkablik va tizimlilik asosida olib boriladi, o‘quvchilar esa sun’iy shakllantirilgan jarayon asosida suhbat va kuzatish metodlari orqali o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi strategik harakatlarni belgilab oladi. Ushbu metodik harakatlar yakka tartibda yoki guruh bilan ishlash, zamonaviylik va an’anaviylik asosidagi ta’lim tizimlari orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh bilan ishlashda zamonaviy va raqamlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara berishi ma’lum. “Matematika darslarida o‘quv dasturi o‘quvchilar tomonidan yangi materiallarni o‘rganishda, dastlabki aniqlash va takroriy o‘qitish bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, yuqori sinflar uchun repetitorlik bosqichida o‘qituvchi odatda muvaffaqiyatsiz o‘quvchilar bilan yoki biron bir sababga ko‘ra ko‘rib chiqilayotgan materialdagi bo‘shliqlarga ega bo‘lganlar bilan ishlashda o‘quv dasturlarini qo‘llaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi o‘n yillikda matematika fanini o‘qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo‘nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o‘rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o‘yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika

o‘qitishda kompyuterlarning qulayligini yana bir yo‘nalishi ayrim o‘quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi o‘qitishning boshqa usullari qo‘llanganda tasavvur qilish, ko‘z oldiga keltirish qiyin bo‘lgan materiallarni tushunarli bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o‘quvchilarga ma’lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko‘rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o‘rganish va o‘quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo‘ladilar. Ko‘p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o‘z kasbi bilan bir vaqtda ma’lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo‘lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin”.[6]

Samaradorlik natijasida jarayonning tarbiyaviy asoslarini shakllantirish, bu borada o‘quvchilarning erkin fikrlash qobiliyati va kreativligini rivojlantirish uchun biz ularga smart doskalar, Wi-Fi zonalari, ijtimoiy platformalar va noutbuklar asosida dars tizimini tashkil qilishimiz lozim. Bu esa o‘quvchilarda o‘zaro yaratuvchanlik psixologiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Biz tashkil etgan dars yuzasidan mustahkamlash jarayonida psixologik bilimlardan foydalanamiz. Bu biz uchun adabiyot, matematika, geometriya, kimyo kabi fanlar bo‘yicha darslar bo‘lishi mumkin. O‘rganish va kuzatish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining pedagogik kompetentligini o‘rganish va kuzatish natijalari asosida rivojlantiradi. Pedagogik kompetentlik va uning turlari asosida bo‘lajak o‘qituvchi yakka tartibda kuzatuvchanlik psixologiyasi, o‘quvchilarning xulq-atvori, muomala madaniyati, gapirish funksiyasi, nutq tezligi, sanash qobiliyati, obyekt va subyekt munosabati, xarakter xususiyatlari va hokazolar yuzasidan bilimga ega bo‘lishi lozim. Matematikaga va kibernetikaga oid bilimlarni, shuningdek, informatsion bilimlar va axborotlarni qamrab olish, o‘quvchi-yoshlar bilan ishlashda raqamli texnologiyalar va ularga oid pedagogik metodlardan foydalanishning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatadi. Suhbat metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqot hamda pedagogik munosabatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu metod orqali o‘qituvchi bilimlarning o‘quvchilar tomonidan ongli ravishda qabul qilinishiga yo‘naltiradi. Shu sababli pedagog o‘z mohiyatiga ko‘ra “yetaklovchi” hisoblanib, u o‘quvchilarni samarali va puxta bilim egallash sari yo‘naltirishi lozim. Pedagogik jarayonning amalga oshirilishida o‘quvchi va o‘qituvchi munosabati, tarbiyalanuvchi va tarbiyalovchi munosabati uzviy aloqadordir. Bu kabi munosabat shakllari metod, texnika va ta’limiy texnologiyalar bilan axborot shaklini qabul qilish jarayoni orqali bog‘lanadi. O‘qituvchilar berayotgan bilimlarni o‘quvchilarning qabul qilishi, ularni foydali deb bilishi, o‘rganishi, izlanuvchanlik faoliyatini amalga oshirishi va hayotida tatbiq etib qo‘llashi uchun o‘quvchilarga yangicha yondashuv hamda yangilikka asoslangan dars tizimlarini amalga oshirishimiz lozim. Dars tizimlari funksional tarzda strategik bilimlar va bosqichma-bosqichlik asosida tashkil etilishi, ularga asos bo‘lishi lozim.

Milliylik madaniyati va milliy koloritni saqlagan metodik asoslarda shaxsning mukammalligi va kreativligini shakllantiruvchi texnika va texnologiyalardan foydalaniladi. Ko‘p holatlarda ijtimoiy tarmoqlar va telefon yordamida o‘quvchilarning interfaolligini oshirishga xizmat qiluvchi matematik va psixologik so‘rovnomalar hamda izlanuvchanlik tendensiyasi asosidagi bilim shakllarining namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Dars mashg‘ulotlarini namunali tartibda olib borish va zamonaviylashgan, yangilik ruhidagi bilimlarni psixologik va ijtimoiy tarzda berish materiallar va tarqatma materiallar bilan bog‘liqdir. Pedagogik kompetentlikni oshirishning yana bir usuli shundan iboratki, o‘qituvchi darsda tarqatma materiallardan foydalana olishi kerak. O‘z o‘rnida shuni ma’lum qilish lozimki, biz raqamli axborot texnologiyalari va boshqa texnologiyalardan foydalanayotganimizda kompyuter, telefon yoki planshetlar, smart doskalar, IT platformalarida ishlash tizimi ham turli ma’lumotlarning texnologiyalar bilan aloqadorlik asosida yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Pedagog o‘zining matematik, psixologik va metodik salohiyati, bilim va tajribasini amalga oshirish uchun kuchli bilim hamda nazariyaga ega bo‘lishi lozim. Bu esa matematik bilim berish shaklining kreativlik, ijodiylik va algoritmlashgan tartibda amalga oshirilishida katta yordam beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining kompetentlik qobiliyatini amalga oshirishda funksional vazifalarini bajarishi lozim. Bo‘lajak o‘qituvchining fiziologik xususiyatlari uning texnika va metodologiyadan foydalanish vazifalarini yuzaga keltiradi. Ushbu holat metodologiyaning oddiy va kundalik jarayon sifatidagi bilish hamda ilmiy baholash yo‘llarining turli vositalari va ijtimoiy tadqiqot qonuniyatlarini taqqoslash nazariyasi, funksional nazariy ma’lumotlar asosida boyib borishi bilan baholanadi. Pedagogika fani pedagoglarni turli metodlar asosida baholash va ularni turli boshqaruv usullari asosida qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Pedagogika matematik amallar bilan birga metodologik va ijtimoiy nazariyalar asosida, asosan, universitet, institut va tadqiqotlarda turli vazifalarni bajaruvchi kishilarning bilim shakllarini ifodalashda namoyon bo‘ladi. Ushbu holat bo‘lajak pedagoglar amaliyotida nazariy bilim berish shakllari, tarbiyaning yaxlitlik va funksional tarzda ifodalanishi hamda umuminsoniy tajribalarga tayanishida namoyon bo‘lishi ham ahamiyatlidir.

Pedagogik va matematik jarayonning o‘zaro aloqaga kirishuvi o‘zlashtirish tahlili va bilim berish shaklining muqobilligini keltirib chiqaradi. Aksariyat holatlarda dars o‘tishning turli, oson yo‘llarini metodika va usul-

larga o'rganib qolgan holda amalga oshiramiz. Tarbiya keng ma'nodagi inson ongini qamrab oluvchi va unga to'g'ri, samarali ta'sir ko'rsatuvchi bilim shakllarining umumiy yig'indisi ekanini unutmaslik lozim. Matematik pedagogika kompyuterlashtirish yoki interfaol usullar, tarbiyaning turli metodlari asosida turli yo'naltiruvchilik vazifalarini bajaradi. Bu borada amaliy matematik texnologiyalar bilan ishlashning o'rni va ahamiyati kattadir. Kompetentlikning rivojlantirilishi aksariyat hollarda o'quvchilarga nisbatan o'qituvchilar uchun qulay va mosdir. O'qituvchi bir necha o'quvchilarga dars berishi, ularga bilim berishi va bilimlarini nazorat qilishi mumkin. Egallangan bilimlarning o'qituvchi tomonidan o'rtoqlashilishi turli xil holatlar va vaziyatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi o'z bilim salohiyati va tarbiya haqidagi fikrlarga tayanishi lozim. Pedagogik shaxsni tarbiyalash hamda uning obyekt va subyekt o'rtasidagi munosabati o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot shaklida namoyon bo'ladi. O'quvchi shaxsiga berilayotgan bilimning dolzarbligi, ma'lumotlarga asoslanganligi, malakaviy jihatdan ilmiy-tadqiqot asoslariga muvofiq kelishi va yoshlarning qiziqish darajasi bilan bog'liq.

XULOSA

O'quvchi-yoshlarning berilayotgan bilimga nisbatan ijtimoiy munosabatining buzilganligi sababli ahamiyatsizlik darajasi yuzaga keladigan bo'lsa, o'qituvchi yangicha metodlar, texnika va texnologiyalardan foydalanishi lozim. Mazkur jarayonda pedagogik faoliyatni boshqarish, maxsus o'quv materiallari bilan samarali ishlash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar va ularni qo'llash metodikasi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Aksariyat holatlarning umumiyligi falsafiy jihatdan nazariyalar bilan belgilanadi. Bunda ular reproduktiv bilim shakllari va asosiy tadqiqot ishlarining dars sifatiga qaratilishi bilan belgilanadi. O'quvchi-yoshlarning malakalarini oshirish va amaliy jihatdan egallagan bilimlarini qo'llashda tajribaning umumiyligi maktab tizimlarida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarimiz, ya'ni talabalarimiz, 4+2 tizimidagi ta'lim shaklida bilim olib, amaliy va nazariy bilimlarning umumlashgan qiymatini namoyon etadilar. O'quvchilar turli xil loyihalar va ilmiy-pedagogik qarashlarini maktab dasturida tafakkuran zamonaviylik bo'yog'ida namoyon qiladilar. Bu esa turli ta'lim shakllari, metodlar va tarbiyaning funksional vazifalarining innovatsion faoliyat asosida yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Yangilik bo'yog'i bilan asoslangan ta'lim shaklida o'qituvchining yangilikka asoslangan metoddan foydalanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchining talaba-yoshlarga turli xildagi zamonaviy xabarlar va yosh xususiyatlariga muvofiq keluvchi axborotlar bilan ishlashi ham samaradorlikni yuzaga keltiradi. O'quvchilar va ularning bilimlarini reyting asosida baholash, bilimlarini chuqurlashtirish yuzasidan shaxsiy rejalar ishlab chiqish ham katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova Mohidil Nomozovna. "Matematika fanini o'qitishning metodikasi". "Science and Education" Scientific Journal, 2022.
2. Xudoynazarov Egambergan Madraximovich. "Matematika o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma). Urgench, 2019.
3. Safarova N. N. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining ijodkorlik faoliyati // World Social Science Scientific-Practical Journal, № 6 (12), 2019. – P. 80–81. Impact factor: 6,745.
4. Safarova, N. N. O'qituvchining kasbiy mahorati va kompetentligi // Sustainable Development: Problems, Analysis, Prospects. International Scientific and Practical Conference. – Poland, 2023. – P. 10–15.
5. Safarova, N. N. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // International Conference on Multidisciplinary Science. – India, 2023. – P. 56–61.
6. Safarova N. N. Using the Competence Approach in Mathematics // World Social Science Scientific-Practical Journal, № 1 (7), 2019. – P. 126–127. Impact factor: 6,745.

INKLYUZIV TA'LIMDA SUBYEKTLAR FAOLIYATINI RAQAMLI TAHLIL QILISHDA MA'LUMOTLAR BAZASI VA MONITORING TIZIMINING AHAMIYATI

Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti,
axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi,
PhD tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0003-2286-120X

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim subyektlari faoliyatini raqamli tahlil qilishda ma'lumotlar bazasi, monitoring tizimlari, ta'lim analitikasi, indikator va metrikalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi, shuningdek, bo'lajak maxsus pedagoglarda tegishli kompetensiyani shakllantirish modeli ishlab chiqiladi. Tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, Data-Driven Decision Making konsepsiyasi doirasida ma'lumotlar bazasini loyihalash, pedagogik eksperiment, ekspert baholash, regressiya tahlili va strukturaviy tenglamalarni modellashtirish (SEM) metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va vizual tahlil qilish imkonini beruvchi ma'lumotlar bazasi arxitekturasi va monitoring algoritmi taklif etildi; integral Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI) ko'rsatkichi ishlab chiqildi; tajriba guruhida kompetensiya o'sishining statistik jihatdan ishonchliligi ($p<0,05$) tasdiqlandi. Natijalar inklyuziv ta'lim sifatini oshirish, individual ta'lim trayektoriyalarini monitoring qilish va ma'lumotlarga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, raqamli tahlil, ma'lumotlar bazasi, monitoring tizimi, ta'lim analitikasi, indikator, metrika, Learning Analytics, maxsus pedagogika, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article examines the scientific and methodological foundations for using database technologies, monitoring systems, educational analytics, indicators, and metrics in the digital analysis of stakeholder activities within inclusive education and develops a corresponding competency-formation model for future special education teachers. Systemic, competency-based, and activity-based approaches were applied within the Data-Driven Decision Making concept, together with database design, a pedagogical experiment, expert evaluation, regression analysis, and structural equation modeling (SEM). A database architecture and monitoring algorithm supporting data collection, storage, processing, and visualization were proposed; an integral Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI) was developed; a statistically significant ($p<0.05$) growth in competency was confirmed in the experimental group. The findings contribute to improving the quality of inclusive education, monitoring individual educational trajectories, and supporting data-driven pedagogical decision-making.

Key words: inclusive education, digital analysis, database, monitoring system, educational analytics, indicator, metric, Learning Analytics, special education, digital transformation.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-методические основы использования технологий баз данных, систем мониторинга, образовательной аналитики, индикаторов и метрик при цифровом анализе деятельности субъектов инклюзивного образования, а также разрабатывается модель формирования соответствующей компетентности у будущих специальных педагогов. Применены системный, компетентностный и деятельностный подходы в рамках концепции Data-Driven Decision Making, а также проектирование базы данных, педагогический эксперимент, экспертная оценка, регрессионный анализ и моделирование структурными уравнениями (SEM). Предложены архитектура базы данных и алгоритм мониторинга, обеспечивающие сбор, хранение, обработку и визуализацию образовательных данных; разработан интегральный показатель Inclusive Activity Efficiency Index (IAEI); статистически подтверждён ($p<0,05$) рост компетентности в экспериментальной группе. Результаты способствуют повышению качества инклюзивного образования, мониторингу индивидуальных образовательных траекторий и принятию решений на основе данных.

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровой анализ, база данных, система мониторинга, образовательная аналитика, индикатор, метрика, Learning Analytics, специальная педагогика, цифровая трансформация.

KIRISH

So'nggi yillarda jahonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. UNESCO, UNICEF, OECD hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, sifatli ta'limni ta'minlash va inklyuziv muhitni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda: elektron ta'lim platformalari, Learning Management System (LMS), Student Information System (SIS), sun'iy intellekt va ta'lim analitikasi vositalari o'quv jarayonining barcha bosqichlarini monitoring qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Natijada pedagogik jarayonlarni intuitiv emas, balki ma'lumotlarga asoslangan boshqarish (Data-Driven Decision Making) konsepsiyasi shakllanmoqda. Inklyuziv ta'lim sharoitida ma'lumotlarning hajmi va murakkabligi yanada ortadi, chunki bu yerda faqat o'quvchining akademik natijalari emas, balki uning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, individual ta'lim dasturining bajarilishi, ota-onalar bilan hamkorlik, maxsus pedagog, psixolog, logoped va boshqa subyektlarning faoliyati ham uzluksiz monitoring qilinishi zarur. Bunday ko'p qatlamli ko'rsatkichlarni an'anaviy usullar yordamida boshqarish qiyin bo'lib, zamonaviy ma'lumotlar bazasi texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim analitikasi (Learning Analytics) pedagogika va axborot texnologiyalari kesishgan nuqtada shakllangan istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilgan:

Siemens va Long (2011) uni ta'lim jarayonida hosil bo'ladigan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish orqali o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida tavsiflaydilar, Long va Siemens (2011) esa uni ta'lim muassasasining strategik boshqaruv mexanizmi sifatida ham baholaydilar [1].

Florian (2015) inklyuziv pedagogika konsepsiyasida ta'lim sifatini faqat yakuniy baholar bilan emas, balki o'quvchining ijtimoiy integratsiyasi, sinfdagi faolligi va individual rivojlanish dinamikasi orqali ham baholash zarurligini asoslab bergan [2].

UNESCO (2020) ekspertlari inklyuziv ta'lim monitoringida indikator va metrikalarga asoslangan boshqaruv modelini, shuningdek, sifatni akademik natijalardan tashqari muhit qulayligi, ijtimoiy integratsiya va teng ishtirok orqali baholashni tavsiya etadi [3].

Baker va Inventado (2014) esa ta'lim ma'lumotlarini qazib olish (Educational Data Mining) texnologiyalari yordamida o'zlashtirish darajasini prognoz qilish va xavf guruhidagi o'quvchilarni erta aniqlash imkoniyatlarini ko'rsatib berganlar [4].

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va raqamli ta'lim strategiyalari qabul qilingan bo'lib, ular ta'lim jarayonlarini axborot texnologiyalari asosida takomillashtirishni nazarda tutadi [7, 8, 9].

The comparatively smaller improvements observed in grammar and mechanics also deserve careful consideration. Although gamification clearly enhanced learners' creativity, vocabulary use, and content development, its influence on linguistic accuracy was less pronounced. This finding supports Lee's (2017) argument that gamification is most effective when complemented by explicit language instruction and systematic corrective feedback. While game elements encourage learners to write more frequently and experiment more confidently with language, improvements in grammatical accuracy require focused instruction, guided error analysis, and deliberate practice that extend beyond motivational strategies alone. Future interventions could therefore integrate gamified error-correction activities, automated writing evaluation systems, or artificial intelligence (AI)-based feedback tools to combine the motivational advantages of gamification with targeted linguistic support. The control group also demonstrated a modest improvement in writing quality (approximately 10%), which can reasonably be attributed to the benefits of regular, structured writing practice over the six-week instructional period. Writing proficiency naturally develops through sustained practice, and both groups benefited from completing six guided writing tasks. Nevertheless, the substantially greater improvement achieved by the experimental group (approximately 30%) highlights the added value of gamification as a motivational scaffold that enhances the effectiveness of writing practice by increasing learner engagement, reducing anxiety, and promoting deeper cognitive processing.

Despite these promising findings, several limitations should be acknowledged. First, the study was conducted within a single higher education institution over a six-week period, limiting the generalisability of the findings to other educational contexts, learner populations, or proficiency levels. Second, although the sample size (N = 64) was appropriate for the purposes of the present study, it restricted the statistical power needed to detect smaller treatment effects. Third, the novelty effect associated with gamification may have contributed to the increased engagement observed among participants in the experimental group. Because the intervention differed substantially from learners' previous classroom experiences, part of the motivational improvement may have resulted from its novelty rather than from the gamification elements themselves. Future longitudinal studies incorporating delayed post-tests would help determine whether these motivational gains remain stable over time or gradually decline as the novelty effect diminishes (Hamari et al., 2014). Finally, the present study examined gamification as an integrated instructional approach consisting of multiple elements operating simultaneously. Future research should employ more refined experimental designs capable of isolating the individual contributions of specific gamification components–such as achievement badges, leaderboards, narrative framing, or experience point (XP) systems–to determine which elements have the greatest influence on learner motivation and writing quality.

RESEARCH METHODOLOGY

A quasi-experimental pre-test–post-test control group design was employed in this study. The experimental group participated in a six-week gamified writing intervention, whereas the control group completed the same writing topics and tasks using a traditional, non-gamified instructional approach. Prior to each writing task, both groups received identical instruction on genre conventions, text organisation, and key language features, ensuring that the only independent variable was the presence or absence of gamification elements. This design enabled the researcher to attribute any differences in learning outcomes specifically to the gamified intervention. The study involved sixty-four (N = 64) second-year undergraduate students enrolled in the English Philology programme at Namangan State Institute of Foreign Languages. All participants were classified at the B1 level of the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) based on their institutional placement test results obtained at the beginning of the academic year. Participants were randomly assigned to either the experimental group (n = 32; 21 females and 11 males) or the control group (n = 32; 19 females and 13 males). The mean age of the participants was 19.6 years, and all had studied English for at least six years before the study commenced. Informed consent was obtained from all participants, and ethical approval for the study was granted by the institutional ethics committee.

During the six-week intervention, students in the experimental group completed six writing tasks, each presented as a "mission" within an overarching narrative entitled "The Writer's Quest." The storyline followed a fictional young journalist travelling through different countries and encountering challenges that required written communication to overcome. Each week, participants received a new "mission briefing" introducing the writing task within the context of the narrative. The gamified intervention incorporated several game-design elements, including: points and experience points (XP) awarded for task completion, revision attempts, and peer-feedback contributions; achievement badges for specific milestones, such as the "Lexical Explorer" badge for using ten or more newly acquired vocabulary items and the "Structure Master" badge for producing well-organised paragraphs; a weekly class leaderboard displaying cumulative scores; narrative-based writing prompts embedded within the storyline (e.g., "You are a journalist in Istanbul. Write a descriptive article about the Grand

Bazaar to send to your editor and unlock the next chapter of your journey."); optional timed bonus challenges designed to encourage writing fluency and reduce excessive self-monitoring. The control group completed the same six writing tasks covering descriptive, narrative, opinion, and expository genres using standard written instructions, teacher feedback, and numerical grading, but without gamification elements, narrative framing, or competitive activities.

Three research instruments were employed to collect data. First, a 24-item Writing Motivation Questionnaire (WMQ), adapted from established writing motivation research, was administered to measure three dimensions: intrinsic motivation, self-efficacy, and writing anxiety. Responses were recorded on a five-point Likert scale (1 = strongly disagree; 5 = strongly agree). The questionnaire was piloted with 15 students who did not participate in the main study, yielding a Cronbach's alpha coefficient of .82, which indicated good internal consistency. Second, participants' pre-intervention and post-intervention writing samples were evaluated using a five-criterion analytic rubric assessing content and idea development, organisation and coherence, vocabulary range and accuracy, grammatical range and accuracy, and mechanics. Each criterion was scored on a four-point scale, resulting in a maximum possible score of 20. To enhance scoring reliability, all writing samples were independently assessed by two experienced EFL instructors who were blind to participants' group membership. Third, eight students from the experimental group (four high-performing and four low-performing participants based on the post-test writing scores) participated in semi-structured interviews lasting approximately 10–15 minutes. These interviews explored learners' perceptions of the gamified writing activities, their emotional experiences throughout the intervention, and any perceived changes in their writing habits, motivation, and attitudes.

The study was conducted over a period of nine weeks. During Week 1, both groups completed the WMQ and a 45-minute timed writing task as pre-tests. Between Weeks 2 and 7, participants completed one writing task per week, progressing sequentially through descriptive, narrative, opinion, and expository writing genres. Before each writing activity, both groups received the same 20-minute instructional session. During Week 8, both groups completed the WMQ and a second timed writing task as post-tests. In Week 9, semi-structured interviews were conducted with the selected participants from the experimental group. Quantitative data were analysed using SPSS Statistics Version 26. Pre-test scores were compared to verify that the two groups were equivalent before the intervention. Within-group improvements from pre-test to post-test were then examined, followed by comparisons of post-test performance between the two groups. Qualitative interview data were transcribed verbatim, coded thematically, and organised into emerging themes using a systematic thematic analysis procedure.

ANALYSIS AND RESULTS

Before the intervention, both groups completed the Writing Motivation Questionnaire (WMQ) and a timed writing task. The mean motivation and writing quality scores of the two groups were highly comparable, indicating that neither group had a significant advantage at baseline. Therefore, any differences observed following the intervention could reasonably be attributed to the instructional approach rather than to pre-existing differences in learners' motivation or writing ability. Following the six-week intervention, the experimental group demonstrated a substantial improvement in overall writing motivation. On the five-point scale, the mean motivation score increased from approximately 3.1 before the intervention to nearly 3.8 afterwards, representing an improvement of approximately 22%. This increase was not merely statistical but was also reflected in learners' perceptions, as many participants reported feeling considerably more enthusiastic and willing to engage in writing activities. The greatest improvement was observed in the intrinsic motivation dimension. At the beginning of the study, many participants indicated that they wrote primarily because writing tasks were compulsory rather than enjoyable. By the end of the intervention, the average intrinsic motivation score had increased from approximately 2.9 to 3.8, suggesting a meaningful transition from externally regulated participation to genuine internal motivation. Learners reported looking forward to writing activities, voluntarily writing during their free time, and experiencing greater pride in their written work.

An equally important finding was the reduction in writing anxiety. Before the intervention, many participants reported feeling anxious about making mistakes and reluctant to share their written work with classmates. After six weeks, the average anxiety score decreased from approximately 3.7 to 2.9 on the five-point scale. Interview responses suggested that the gamified environment made mistakes feel less threatening and encouraged learners to perceive errors as a natural part of the learning process rather than as failures. In contrast, the control group demonstrated only a slight increase in motivation, with the average score rising from approximately 3.1 to 3.2. This relatively small improvement was unlikely to represent a meaningful educational effect and was more plausibly associated with learners' increasing familiarity with the course rather than with any specific motivational intervention. Consequently, the experimental group achieved substantially higher motivation scores than the control group at the conclusion of the study. With regard to writing quality, participants'

compositions were evaluated using a five-criterion analytic rubric assessing content, organisation, vocabulary, grammar, and mechanics, with a maximum possible score of 20 points. At the beginning of the study, both groups produced writing of comparable quality, with mean scores of approximately 11 points out of 20. Following the intervention, the experimental group's mean score increased to nearly 15 points, representing an improvement of approximately 30%. Although the control group also demonstrated progress, its mean score increased only to approximately 12 points, corresponding to an improvement of roughly 10%.

Analysis of the individual rubric criteria revealed that the experimental group achieved the greatest gains in vocabulary and content development. The mean vocabulary score increased from approximately 2.2 to 3.2 (out of 4). Learners demonstrated a noticeably broader lexical repertoire, incorporated newly acquired vocabulary from classroom instruction, experimented with less frequent expressions, and displayed greater lexical diversity overall. The "Lexical Explorer"badge appeared to be a particularly effective motivational element contributing to this improvement. Similarly, the mean score for content and idea development increased from approximately 2.3 to 3.2 (out of 4). Participants elaborated their ideas more effectively, provided richer supporting details and examples, and organised their arguments more coherently. The narrative framing of the writing tasks appeared to stimulate learners' creativity and encouraged them to consider more carefully both what to write and how to engage their intended audience. Although improvements were also observed in organisation, grammar, and mechanics, these gains were comparatively more modest. This finding suggests that gamification exerted its strongest influence on the creative, expressive, and lexical dimensions of writing, whereas accuracy-related aspects of writing developed at a slower rate. The thematic analysis of the interview data generated three principal themes. The first theme concerned enhanced engagement and enjoyment. Participants consistently described the gamified writing activities as "exciting," "enjoyable," and "different from ordinary homework." The narrative component was particularly well received. One participant explained: "I wanted to finish the mission to see what happened next in the story. I didn't feel like I was writing an essay–I felt like I was solving a puzzle. I actually looked forward to Wednesday's writing class."

The second theme involved reduced writing anxiety and increased willingness to revise. Several learners reported that the point-and-badge system fundamentally changed their perception of mistakes. In traditional writing classes, errors were commonly viewed as failures because they were highlighted in red ink. In contrast, the gamified environment encouraged learners to regard mistakes as opportunities for improvement since they could revise their work and regain points. As one participant commented: "Before, I was afraid to write because of mistakes. But in the game, if I lost points, I could try again. So I revised my text two or three times, and each time it became better." The third theme related to motivation through competition and visible progress. The leaderboard and experience point (XP) system provided learners with continuous, tangible evidence of their progress throughout the intervention. Instead of receiving only a final grade, participants were able to monitor their weekly development and compare their progress with that of their classmates. One interviewee stated: "Seeing my name move up the leaderboard made me want to write more and use more advanced vocabulary to earn the 'Lexical Explorer' badge. I even started reading English articles at home to learn new words."

CONCLUSION

This study provides empirical evidence that gamified writing tasks significantly enhance both the writing motivation and the writing quality of B1-level EFL learners. By embedding writing activities within a structured game-based narrative incorporating points, badges, leaderboards, progressive challenges, and mission-oriented tasks, the intervention successfully addressed learners' psychological needs for autonomy, competence, and relatedness. Furthermore, it reduced writing anxiety and promoted deeper cognitive engagement, greater creativity, and sustained participation in the writing process. The most substantial improvements were observed in vocabulary range and content development, suggesting that gamification encourages learners to take greater linguistic risks, employ a wider range of lexical resources, and invest more effort in developing their written texts.

The findings of this study have important practical implications for EFL teachers, curriculum developers, and educational policymakers, particularly in educational contexts such as Uzbekistan, where product-oriented approaches to writing instruction continue to predominate. Integrating gamification into writing curricula–whether through digital learning platforms, classroom-based game mechanics, or low-technology alternatives such as progress charts, sticker systems, and achievement trackers–offers an evidence-based strategy for transforming writing from a source of anxiety and obligation into an engaging, rewarding, and iterative learning experience. Future research should investigate the long-term sustainability of the motivational and instructional benefits of gamification, examine its effectiveness across different language proficiency levels and educational settings, and explore its integration with artificial intelligence (AI)-driven feedback systems to support both writing fluency and linguistic accuracy in second language (L2) writing development.

References:

1. Csikszentmihalyi, M. (1990). Flow: The Psychology of Optimal Experience. Harper & Row.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268.
3. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining "gamification." In Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference (pp. 9–15).
4. Domínguez, A., Saenz-de-Navarrete, J., De-Marcos, L., Fernández-Sanz, L., Pagés, C., & Martínez-Herráiz, J. J. (2013). Gamifying learning experiences: Practical implications and outcomes. Computers & Education, 63, 380–392.
5. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). Teaching and Researching Motivation (2nd ed.). Pearson Education.
6. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies on gamification. In Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences (pp. 3025–3034).
7. Hyland, K. (2003). Second Language Writing. Cambridge University Press.
8. Laufer, B., & Nation, P. (1995). Lexical richness in writing: An exploratory study of L2 learners' writing. Journal of Second Language Writing, 4(1), 33–51.
9. Lee, J. (2017). Gamification in second language learning: A critical review. Language Teaching Research, 21(6), 711–728.
10. Sailer, M., Hense, J. U., Mayr, S. K., & Mandl, H. (2017). How gamification motivates: An experimental study of the effects of specific game design elements on psychological need satisfaction. Computers in Human Behavior, 69, 371–380.



INNOVATSION TA'LIM METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li
Samarqand davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

UDK: 378.147:37.091.39:811.111-051

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni tadqiq etiladi. Sakkizta innovatsion ta'lim metodining – muammoga asoslangan ta'lim (PBL), loyiha metodi, flipped classroom, kooperativ o'qitish, case-study, debate, digital storytelling va blended learning – pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta'siri qiyosiy tahlil qilinadi. Muallif tomonidan to'rt bosqichli mazmun tizimi – nazariy-konseptual, amaliy-interaktiv, innovatsion-ijodiy va refleksiv-integratsion bloklar – ilk bor yaxlit tuzilma sifatida taqdim etiladi. Har bir kompetensiya bloki uchun o'lchanadigan baholash mezonlari va vositalari belgilanadi. Maqola natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion metodlarni tizimli qo'llashga yo'naltirilgan metodik dasturlar ishlab chiqish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim metodlari, pedagogik liderlik, muammoga asoslangan ta'lim, loyiha metodi, flipped classroom, kooperativ o'qitish, digital storytelling, blended learning, EFL o'qituvchisi, mazmun tizimi.

Abstract: This article investigates the content of developing pedagogical leadership competencies (PLCs) in future English language teachers based on innovative teaching methods and technologies. A comparative analysis of eight innovative teaching methods – Problem-Based Learning (PBL), Project Method, Flipped Classroom, Cooperative Learning, Case Study, Debate, Digital Storytelling, and Blended Learning – is conducted from the perspective of their contribution to PLC development. The author proposes, for the first time, a four-block content system – theoretical-conceptual, practical-interactive, innovative-creative, and reflective-integrative – as a coherent whole. Measurable assessment criteria and tools are specified for each PLC block. The findings serve as a practical basis for designing methodology-driven programmes that systematically incorporate innovative methods into EFL pre-service teacher preparation.

Key words: innovative teaching methods, pedagogical leadership, problem-based learning, project method, flipped classroom, cooperative learning, digital storytelling, blended learning, EFL teacher, content system.

Аннотация: В данной статье исследуется содержание развития компетенций педагогического лидерства будущих учителей английского языка на основе инновационных методов и технологий обучения. Проводится сравнительный анализ восьми инновационных методов обучения – PBL, метода проектов, перевёрнутого класса, кооперативного обучения, кейс-стади, дебатов, цифрового сторителлинга и смешанного обучения – с точки зрения их влияния на развитие компетенций педагогического лидерства. Автором впервые предложена четырёхблочная система содержания с измеримыми критериями оценивания для каждого блока компетенций.

Ключевые слова: инновационные методы обучения, педагогическое лидерство, PBL, метод проектов, перевёрнутый класс, кооперативное обучение, цифровой сторителлинг, смешанное обучение, учитель английского языка.

KIRISH

Pedagogik liderlik kompetensiyalari faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki ularni amaliy ta'lim jarayonida maqsadli rivojlantirish orqali shakllanadi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish esa innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalarining tizimli va maqsadga yo'naltirilgan qo'llanilishini taqozo etadi. Zamonaviy ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi shuni isbotlaganki, passiv bilim olish tarzida qurilgan ta'lim liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qodir emas: talabalarda liderlik uchun zarur bo'lgan kognitiv moslashuvchanlik, kommunikativ jasurlik, tashkiliy tajriba va kreativ tafakkur faqat faol, muammoli va interaktiv o'qitish metodlari orqali shakllanadi [1].

O‘zbekistonda ta’lim islohotlari – xususan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va ingliz tili ta’limiga doir maxsus davlat qarorlari – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini zamonaviy, innovatsion metodlar bilan qurollantirgan holda tayyorlashni davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgiladi [2, 3].

Biroq innovatsion metodlarni tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda – ya’ni pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida – o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalasi hali yetarlicha ilmiy-metodologik asosga ega emas. Bu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur maqolaning asosiy ilmiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Innovatsion ta’lim metodi” tushunchasi ta’lim fanida an’anaviy, reproduktiv o‘qitishdan tubdan farqlanuvchi, talabaning faol ishtirokini, muammolarni hal etishni, hamkorlikni va ijodiy faoliyatni ta’minlaydigan metodlar majmuasini bildiradi.

N. Egamberdiyeva innovatsion ta’lim metodlarini “o‘qituvchi faoliyatini emas, balki talabaning o‘quv faolligini markazga qo‘yuvchi metodlar” sifatida ta’riflaydi [4].

N. S. Sayidahmedov esa innovatsion metodlarning asosiy belgisi sifatida ularning ijodiy, muammoli va interaktiv xarakter kasb etishini ko‘rsatadi [5].

Innovatsion metodlarning pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta’siri ilmiy jihatdan quyidagicha asoslanadi: faol o‘qitish metodlari talabalarda liderlik uchun zarur bo‘lgan kognitiv moslashuvchanlik, kommunikativ jasurlik, tashkiliy tajriba va kreativ tafakkurni birgalikda rivojlantiradi. Prince (2004) faol o‘qitish metodlarining akademik ko‘rsatkichlarga ta’sirini o‘rgangan 50 dan ortiq tadqiqotni tahlil qilib, ushbu metodlar nafaqat bilim o‘zlashtirishni, balki ijtimoiy va liderlik kompetensiyalarini ham sezilarli darajada yaxshilashini isbotladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion metodlarni tizimlashtirish maqsadida muallif tomonidan sakkizta asosiy metod qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu metodlarni tanlashda uchta mezon asos bo‘ldi: birinchidan, metodning ilmiy-empirik asoslanganlik darajasi; ikkinchidan, EFL ta’lim muhitiga moslashtirilishi mumkinligi; uchinchidan, pedagogik liderlik kompetensiyalarining kamida ikkita blokiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **Innovatsion ta’lim metodlarining pedagogik liderlik kompetensiyalariga ta’siri: qiyosiy tahlil (muallif tahlili)**

№	Metod nomi	Mohiyati	Rivojlantiriladigan liderlik kompetensiyasi	EFL ta’limiga tatbiqi
1	**Muammoga asoslangan ta’lim (PBL)**	Real muammoni hal qilish orqali bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish; jarayon foydalanuvchi tomonidan boshqariladi	Kognitiv-refleksiv; tashkiliy-boshqaruv; kreativ-innovatsion	Autentik til muammolari (debat, tahlil, muloqot senariylari)
2	**Loyiha metodi**	Aniq yakuniy mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan guruhiy yoki individual tadqiqot jarayoni	Tashkiliy-boshqaruv; kreativ-innovatsion; ijtimoiy-ma’naviy	Til tadqiqot loyihalari; matnlar tahlili; maqola yozish
3	**Flipped classroom (o‘zgartirilgan dars)**	Nazariy material uyda o‘zlashtiriladi; darsda amaliyot va muhokama amalga oshiriladi	Metakognitiv; kognitiv-refleksiv; tashkiliy	Video darslar + sinfda chuqur til amaliyoti va liderlik muhokamasi
4	**Kooperativ o‘qitish**	Kichik guruhlarda o‘zaro o‘rgatish va hamkorlik; har bir a’zo guruh muvaffaqiyati uchun javobgar	Kommunikativ; ijtimoiy-ma’naviy; tashkiliy-boshqaruv	Guruhiy yozma ishlar; rol taqsimlangan til mashqlari; peer-review
5	**Case-study (vaziyat tahlili)**	Real yoki modellashtirilgan vaziyatni chuqur tahlil qilish; ko‘p yechimli muammo	Kognitiv-refleksiv; kreativ-innovatsion; kommunikativ	Pedagogik vaziyatlar tahlili; madaniyatlararo muloqot hodisalari
6	**Debate (munozara)**	Qarama-qarshi pozitsiyalarni argumentlash; fikrni asoslash va boshqalarni ishontirish	Kommunikativ; ijtimoiy-ma’naviy; kreativ-innovatsion	Til masalalari, ta’lim siyosati bo‘yicha ikki tomonlama munozara
7	**Digital storytelling**	Raqamli vositalar yordamida ijodiy hikoya yaratish va taqdim etish	Kreativ-innovatsion; kommunikativ; metakognitiv	Ingliz tilida raqamli hikoyalar, podcast, video-taqdimot
8	**Blended learning (aralash o‘qitish)**	An’anaviy sinf va onlayn o‘qitishni maqbul nisbatda birlashtirish	Tashkiliy; metakognitiv; raqamli liderlik	LMS platformalar + jonli darslar + muloqot forumlari

XULOSA

Birinchi xulosa. Innovatsion ta'lim metodlari pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi, chunki ular talabani faol, tashabbuskor va mas'uliyatli o'rganish jarayoniga jalb etadi. Sakkizta tahlil qilingan metod – PBL, loyiha metodi, flipped classroom, kooperativ o'qitish, case-study, debate, digital storytelling va blended learning – har biri alohida va uyg'un birlashganda pedagogik liderlikning oltita kompetensiya blokini maqsadli rivojlantirish imkonini beradi.

Ikkinchi xulosa. Muallif tomonidan taklif etilgan to'rt bosqichli mazmun tizimi – nazariy-konseptual, amaliy-interaktiv, innovatsion-ijodiy va refleksiv-integratsion bloklar – bosqichlar o'rtasidagi mantiqiy ketma-ketlik va o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Har bir bosqich oldingi bosqich natijalari asosida quriladi va keyingi bosqich uchun zamin tayyorlaydi. Bu tizimni yaxlit dastur sifatida joriy etish alohida metodlarni tartibsiz qo'llashga nisbatan ancha yuqori natija beradi.

Uchinchi xulosa. Har bir kompetensiya bloki uchun o'lchanadigan baholash mezonlari va minimal qoniqarli darajalarning belgilanishi ta'lim jarayonini obyektiv boshqarish, talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish va metodologik tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bu baholash tizimi tajriba-sinov bosqichida diagnostik, shakllantiruvchi va nazorat funksiyalarini bajarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi xulosa. Maqolada taqdim etilgan innovatsion metodlar tasnifi, to'rt bosqichli mazmun tizimi va baholash mezonlari tizimi birgalikda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimini loyihalashtirishning asosiy metodologik tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Keyingi tadqiqotda ushbu elementlarning bir-biri bilan integratsiyalashgan holda eksperimental tekshirilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Frechette J., Bitzas V., Aubry M. (Eds.) Active Learning Strategies in Higher Education: Teaching for Leadership, Innovation, and Creativity. – Emerald Publishing, 2018. – 248 p.
2. Egamberdiyeva N. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion tayyorgarligi. – Toshkent: TDPU, 2019. – 208 b.
3. Sayidahmedov N. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 320 b.
4. Prince M. Does Active Learning Work? A Review of the Research // Journal of Engineering Education. – 2004. – Vol. 93, № 3. – P. 223–231. – doi: 10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x.
5. Riebe L. et al. A Case Study of Developing Leadership and Creativity Skills in Higher Education Students // Hospitality Research. – 2018. – Vol. 11, № 3. – P. 274–296.
6. Heikka J. et al. The perceived pedagogical competence of teacher candidates in blended learning programs in Finland // European Early Childhood Education Research Journal. – 2025. – Vol. 33, № 4. – P. 634–648. – doi: 10.1080/10901027.2025.2455510.
7. Savery J. R. Overview of Problem-Based Learning: Definitions and Distinctions // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning. – 2006. – Vol. 1, № 1. – P. 9–20. – doi: 10.7771/1541-5015.1002.
8. Thomas J. W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael: Autodesk Foundation, 2000. – 48 p.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Mamazokirova Robiyaxon Muhammadali qizi
Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Qodirova Buzulayho Turgunovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi professori, PhD

Annotatsiya: Maqolada muloqot kompetensiyasining mazmun-mohiyati, uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari hamda boshlang'ich ta'lim amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalar yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari tavsiya etilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, muloqot kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik shart-sharoit, interfaol metodlar, hamkorlikdagi ta'lim, kommunikativ ko'nikma, o'quvchi faolligi, nutq madaniyati.

Abstract: The article discusses the essence and content of communication competence, the pedagogical factors influencing its development, the possibilities of using interactive methods in the teaching process, as well as recommendations that can be applied in primary education practice. It also recommends effective methods for developing communication competence, taking into account the age and individual characteristics of pupils. The research results contribute to improving the quality of primary education and enhancing the educational process based on a competency-based approach.

Key words: competence, communication competence, primary education, pedagogical conditions, interactive methods, collaborative learning, communication skills, pupil activity, speech culture.

Аннотация: В статье рассматривается содержание коммуникативной компетенции, педагогические факторы, влияющие на ее развитие, возможности использования интерактивных методов в учебном процессе и рекомендации по их применению в практике начального образования. Также рекомендуются эффективные методы формирования коммуникативной компетенции с учетом возраста и индивидуальных особенностей учащихся. Результаты исследования служат для повышения качества начального образования и совершенствования образовательного процесса на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: компетенция, коммуникативная компетенция, начальное образование, педагогические условия, интерактивные методы, совместное обучение, коммуникативные навыки, учебная деятельность учащихся, речевая культура.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda xalqaro ta'lim standartlariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishni takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim shaxs kamolotining dastlabki va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning nutqi, tafakkuri, ijtimoiy munosabatlari hamda atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ona tili darslarining, balki barcha fanlarning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Muloqot kompetensiyasi deganda shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘z fikrini aniq, ravon va mantiqiy ifoda etishi, suhbatdoshni tinglay olishi, bahs-munozaralarda madaniyatli ishtirok etishi, hamkorlikda ishlashi hamda kommunikativ vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyati tushuniladi. Ushbu kompetensiya bolaning nafaqat ta’limdagi muvaffaqiyatini, balki kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatini ham belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy mahorati, ta’lim mazmuni, dars metodlari, sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhit hamda oila bilan hamkorlik kabi omillarga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantirish, kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish, muammoli vaziyatlar yaratish, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar va interfaol metodlardan foydalanish muloqot kompetensiyasining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortmoqda. Axborot oqimining keskin ko‘payishi, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish zarurati hamda zamonaviy kasblarning kommunikativ qobiliyatlarni talab qilishi ushbu masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning amaliy ahamiyatini yoritish hamda boshlang‘ich ta’lim amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish va mantiqiy xulosalash metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar mavzuning nazariy asoslarini yoritish hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalasi pedagogika fanida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari hamda ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari keng yoritilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari dastlab Yevropa ta’lim tizimida shakllanib, keyinchalik dunyoning ko‘plab mamlakatlari ta’lim amaliyotiga tatbiq etildi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchiga faqat bilim berish emas, balki uning olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, muloqot kompetensiyasi tayanch kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mahalliy pedagog olimlar O‘. Tolipov va M. Usmonboyeva o‘z tadqiqotlarida kompetensiyaviy ta’limning mazmuni hamda pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash masalalarini atroflicha tahlil qilganlar. Ularning fikricha, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Olimlar dars jarayonida o‘quvchini faol subyekt sifatida ishtirok ettirish zarurligini alohida ta’kidlaydilar.

R. Ishmuhamedov innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlarida interfaol metodlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rnini asoslab bergan. Muallifning fikriga ko‘ra, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Debat”, “Rolli o‘yin” kabi metodlar o‘quvchilarning erkin fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini asoslab bera olishi hamda jamoada samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

N. Azizxo‘jayeva pedagogik mahorat va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadqiq etar ekan, o‘qituvchining kasbiy kompetentligini o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosiy shartlaridan biri sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, o‘qituvchining nutq madaniyati, pedagogik muloqoti va innovatsion yondashuvi o‘quvchilarning kommunikativ faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

B. Ziyomuhammedov pedagogika nazariyasiga oid ilmiy ishlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning afzalliklarini yoritgan. Olim o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni ularning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishini ilmiy asoslaydi.

Xorijiy olimlardan D. Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, shaxsning til birliklarini bilishi yetarli emas, balki ularni turli ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo‘llay olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyinchalik M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiya modelini takomillashtirib, uning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv hamda strategik tarkibiy qismlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida ham muloqot bolaning intellektual rivojlanishining muhim omili sifatida baholanadi. Olimning ta’kidlashicha, bolaning tafakkuri va nutqi avvalo kattalar hamda tengdoshlari bilan o‘zaro muloqot jarayonida rivojlanadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim jarayonida hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

J. Piaget esa bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda faol o‘quv muhitining rolini asoslagan. Uning fikriga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki muloqot, izlanish va tajriba orqali mustaqil ravishda egallaydi. Bu esa kommunikativ faoliyatni ta’limning ajralmas qismiga aylantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, umumlashtirish hamda mantiqiy xulosalash metodlaridan foydalanildi.

Nazariy tahlil asosida muloqot kompetensiyasining mazmun-mohiyati, tarkibiy qismlari va uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil orqali mahalliy va xorijiy olimlarning kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv hamda interfaol ta’limga oid ilmiy qarashlari o‘zaro solishtirildi.

Pedagogik kuzatish metodi boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning muloqot faolligi, hamkorlikda ishlashi va fikrini erkin ifodalashiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga xizmat qildi.

Olingan nazariy ma’lumotlar umumlashtirilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari hali yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga keng joriy etish hamda muloqot kompetensiyasini baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Muloqot kompetensiyasining nazariy asoslari

Zamonaviy pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Shunday kompetensiyalardan biri muloqot kompetensiyasi bo‘lib, u shaxsning ijtimoiylashuvi, ta’limdagi muvaffaqiyati hamda kelgusidagi kasbiy faoliyatining muhim omili hisoblanadi.

Muloqot kompetensiyasi – bu shaxsning og‘zaki va yozma nutq vositalaridan samarali foydalanishi, fikrini mantiqiy, ravon va aniq ifoda etishi, suhbatdoshni tinglay olishi, turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi hamda hamkorlikda faoliyat olib borish qobiliyatidir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida mazkur kompetensiyani shakllantirish keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchilarning fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga ham mustahkam zamin yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh xususiyatlariga ko‘ra serqiziqish, taqlidchanlik, hissiy ta’sirchanlik va muloqotga moyillik bilan ajralib turadi. Shu sababli ular bilan tashkil etiladigan ta’lim jarayonida tabiiy muloqot muhitini yaratish, erkin fikr almashish imkoniyatini ta’minlash hamda har bir o‘quvchining faolligini rag‘batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muloqot kompetensiyasi faqatgina ona tili yoki o‘qish savodxonligi darslarida emas, balki matematika, tabiiy fanlar, texnologiya, musiqa, tasviriy san’at hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham izchil rivojlantirilishi lozim. Chunki har bir fan o‘quvchining fikrlash, tushuntirish, izohlash, savol berish va javob qaytarish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega.

Muloqot kompetensiyasining tarkibiy qismlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- og‘zaki nutq madaniyati;
- yozma fikr bayon qilish ko‘nikmasi;
- tinglash madaniyati;
- savol bera olish va javob qaytarish malakasi;
- jamoada ishlash ko‘nikmasi;
- bahs-munozara olib borish madaniyati;
- o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilish.

Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi o'quvchining kommunikativ salohiyatini oshirib, uning ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Boshlang'ich ta'limda muloqot kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq. Ularning har biri ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

1. Ta'lim jarayonida qulay psixologik muhit yaratish

Sinfda o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlik muhiti mavjud bo'lsa, o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qilishga intiladilar. O'qituvchi har bir o'quvchining fikriga hurmat bilan yondashishi, noto'g'ri javoblarni keskin tanqid qilmasligi, aksincha, rag'batlantiruvchi yondashuvdan foydalanishi zarur. Bunday muhit bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda muloqot faolligini oshiradi.

2. Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish

Interfaol metodlar o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Insert", "Sinkveyn", "Venn diagrammasi", "Rolli o'yin", "Debat", "Fishbone" kabi metodlar o'quvchilarning erkin fikrlashi va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, "Rolli o'yin" metodida o'quvchilar turli hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali muloqot madaniyatini amalda namoyon etadilar. "Debat" metodida esa o'z fikrini dalillar asosida himoya qilishni o'rganadilar.

3. Hamkorlikda o'qitishni tashkil etish

Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarda fikr almashish, o'zaro tinglash, muammolarni birgalikda hal qilish hamda jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Guruh faoliyatida har bir ishtirokchi o'z fikrini bildirishi, boshqalarning nuqtayi nazarini tinglashi va umumiy qarorga kelishda ishtirok etishi muloqot kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hamkorlikdagi ta'lim o'quvchilarda liderlik, mas'uliyat, o'zaro yordam va ijtimoiy faollik sifatlarini ham shakllantiradi.

4. Nutqiy faoliyatni muntazam rivojlantirish

Muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda og'zaki nutq mashqlari alohida o'rin tutadi. Dars davomida matnni ifodali o'qish, voqealarni hikoya qilish, rasmlar asosida matn tuzish, dialog va monologlar yaratish, kichik taqdimotlar tayyorlash kabi topshiriqlar o'quvchilarning nutq boyligini sezilarli darajada oshiradi.

O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarning kamida bir necha daqiqa mustaqil fikr bildirishiga imkon yaratishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv bolalarda erkin fikrlash va omma oldida so'zlash madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida muloqot kompetensiyasini shakllantirish o'qituvchidan ta'lim jarayonini puxta rejalashtirishni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Muloqot kompetensiyasi faqat dars davomida emas, balki sinfdan tashqari mashg'ulotlar, tarbiyaviy soatlar, fan to'garaklari hamda ota-onalar bilan hamkorlik jarayonida ham izchil rivojlantirilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, har bir darsda o'quvchilarning erkin fikr bildirishi uchun qulay pedagogik muhit yaratish zarur. O'qituvchi har bir o'quvchining fikrini qadrlashi, savollariga e'tibor bilan yondashishi hamda ijobiy rag'batlantirish usullaridan foydalanishi lozim. Bunday yondashuv bolalarda o'ziga ishonchni mustahkamlaydi va muloqotga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Ikkinchidan, darslarda muammoli vaziyatlar yaratish tavsiya etiladi. Muammoli topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z nuqtayi nazarini asoslashga hamda tengdoshlari bilan fikr almashishga undaydi. Natijada ularning tanqidiy fikrlashi va kommunikativ faolligi rivojlanadi.

Uchinchidan, dialog va monolog mashqlaridan muntazam foydalanish zarur. Masalan, "Suhbatni davom ettir", "Bir daqiqalik nutq", "Savol-javob", "Intervyu", "Matnni davom ettir" kabi mashqlar o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

To‘rtinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish tavsiya etiladi. Multimediali taqdimotlar, qisqa videoroliklar, elektron ta’lim resurslari hamda interaktiv platformalar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, ularning fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Beshinchidan, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlari bilan kitob mutolaa qilishi, kundalik voqealar haqida suhbatlashishi, ularning mustaqil fikr bildirishi uchun imkon yaratishi muloqot kompetensiyasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasining rivojlanish darajasi, avvalo, ta’lim jarayonining qanday tashkil etilganligiga bog‘liq. Interfaol metodlardan muntazam foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning darsdagi faolligi, savol berish madaniyati, jamoada ishlash ko‘nikmalari hamda nutq ravonligi ancha yuqori bo‘lishi kuzatiladi.

Shuningdek, darslarda o‘quvchi markazli yondashuvning qo‘llanilishi bolalarning mustaqil fikrlashiga, o‘z fikrini dalillar bilan asoslashiga hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. O‘qituvchining demokratik uslubda faoliyat olib borishi esa sinfda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirib, o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muloqot kompetensiyasining samarali rivojlanishi quyidagi omillarga bevosita bog‘liq:

- kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar;
- interfaol metodlarning tizimli qo‘llanilishi;
- hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik;
- o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini muntazam rag‘batlantirish.

Mazkur omillar uyg‘un holda qo‘llanilganda o‘quvchilarda nafaqat muloqot kompetensiyasi, balki ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, mas’uliyat, bag‘rikenglik va hamkorlik madaniyati ham rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirish ta’lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning shaxs sifatida kamol topishi, mustaqil fikrlashi hamda jamiyatda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv ta’limning mazmunini faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklab qo‘ymasdan, balki olingan bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash, turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan muloqot kompetensiyasi boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllantirilishi zarur bo‘lgan eng muhim tayanch kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan ilmiy manbalar va pedagogik yondashuvlar shuni ko‘rsatdiki, muloqot kompetensiyasining samarali rivojlanishi ta’lim jarayonining mazmuni, o‘qituvchining kasbiy mahorati, interfaol metodlardan foydalanish, sog‘lom psixologik muhit yaratish hamda oila va maktab hamkorligining izchil yo‘lga qo‘yilishiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash, muammoli ta’lim, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar, loyiha asosida o‘qitish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning nutq faolligi, tanqidiy fikrlashi va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni ularda erkin fikr bildirish, suhbatdoshni tinglash, o‘z nuqtayi nazarini dalillar bilan asoslash, jamoada hamkorlik qilish hamda muomala madaniyatiga rioya etish kabi sifatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlaydi. Bunda o‘qituvchining motivatsion yondashuvi, rag‘batlantirish usullaridan oqilona foydalanishi va har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

birinchidan, muloqot kompetensiyasini rivojlantirish barcha o‘quv fanlari kesimida uzviy va tizimli tashkil etilishi lozim;

ikkinchidan, interfaol pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga muntazam tatbiq etish o‘quvchilarning kommunikativ faolligini sezilarli darajada oshiradi;

uchinchidan, oila, maktab va jamiyat hamkorligini mustahkamlash kommunikativ kompetensiyaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi;

to'rtinchidan, o'quvchilarning muloqot kompetensiyasini baholashda faqat nazariy bilim emas, balki ularning amaliy kommunikativ faoliyati ham asosiy mezon sifatida e'tiborga olinishi zarur.

Kelgusida boshlang'ich ta'lim tizimida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha raqamli ta'lim vositalari, sun'iy intellekt asosidagi interaktiv platformalar, media savodxonlik elementlari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ta'lim sifatini yanada oshirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos, kompetent shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari asosida ta'lim tizimini rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlar.
3. Davlatov K., Nishonaliyev U. Pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. - Toshkent.
5. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent.
6. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent.
7. Muslimov N. Kasb ta'limi pedagogikasi. - Toshkent.
8. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent.
9. Ziyomuhammedov B. Pedagogika. - Toshkent.
10. Zamonaviy pedagogika va boshlang'ich ta'lim bo'yicha respublika hamda xalqaro ilmiy maqolalar to'plamlari.

STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI

To'raqulova Malohat Bahodir qizi
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada STEAM ta'lim texnologiyasi asosida bo'lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimli yondashuvga ko'ra, bir-biri bilan bog'liq beshta bo'g'indan iborat yaxlit tizim sifatida qaraladi: maqsad, mazmun, texnologik jarayon, baholash mezonlari va yakuniy natija.

Kalit so'zlar: metodik tayyorgarlik, STEAM texnologiyalari, muhit, texnologiya, yondashuv, vosita, adaptivlik.

Abstract: This article examines the improvement of future educators' methodological training based on STEAM educational technology. According to a systemic approach, this process is viewed as an integral system consisting of five interconnected components: the goal, content, technological process, evaluation criteria, and final outcome.

Key words: methodological training, STEAM technologies, environment, technology, approach, tool, adaptivity.

Аннотация: В данной статье совершенствование методической подготовки будущих воспитателей на основе STEAM-образовательной технологии рассматривается с точки зрения системного подхода как целостная система, состоящая из пяти взаимосвязанных звеньев: цель, содержание, технологический процесс, критерии оценки и конечный результат.

Ключевые слова: методическая подготовка, STEAM-технологии, среда, технология, подход, средство, адаптивность.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son[1] "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida [1] pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishi hamda metodik tayyorgarligini ta'minlash davlat siyosatining fundamental ustuvorliklaridan biri sifatida muhrlangan. Mazkur qonuniy hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida ta'limning uzluksizligi, insonparvarligi hamda sifat kafolati qat'iy belgilab berilgan. Binobarin, qonun talablaridan kelib chiqqan holda, kompetensiyaviy yondashuv asosida kadrlar tayyorlash va pedagoglarning kasbiy malakasini uzluksiz rivojlantirish zaruriyati yuzaga keladi.

Tizim faoliyatini amaliy jihatdan tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son[2] qarori bilan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" tasdiqlangan [3]. Ushbu hujjatda maktabgacha ta'lim vazifalari tizimli ravishda belgilab berilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish;
- sifat va mazmun uyg'unligini ta'minlash;
- rivojlanish muhitini yaratish.


Xususan, maktabgacha ta'lim vazifalari ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy, samarali shakl va ilg'or pedagogik metodikalarni izchil joriy etishni taqozo etadi. Shuningdek, ushbu standartlarda belgilangan maktabgacha ta'lim vazifalari ta'lim jarayonining hajmi, mazmuni va sifatiga doir majburiy minimum talablarni belgilash orqali ta'lim sifatini kafolatlaydi. Yuksak kasbiy madaniyatni ta'minlash uchun "ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik hamda ilmiy-metodik tayyorgarlik" zarur.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/ru/docs/-5179335

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Janubiy koreyalik olim, "K-STEAM" modelini ilgari surgan Hyun-Ju Park o'z tadqiqotlarida bo'lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligida "hissiy teginish" komponenti muhimligini ta'kidlaydi. Hyun-Ju Parkning fikricha, bu texnik tushunchalarni maktabgacha yoshdagi bolalarga vizual va estetik shaklda yetkazish mahoratidir [10]. Tadqiqotimizda ilgari surilgan ta'lim muhiti – bu bo'lajak tarbiyachining ijodiy va ilmiy salohiyatini uyg'otuvchi makon bo'lsa, yondashuv bu makondagi harakatlar yo'nalishini belgilaydi. Binobarin, ularning uzviyligida komponentlarning o'zaro integrativ bog'liqligi yetakchi mezon hisoblanadi.

Shuningdek, ilgari surilgan metodik texnologiyalar hamda ularni moddiylashtiruvchi zamonaviy vositalar ham alohida-alohida funksiya bajarmaydi, aksincha, ularning metodik tizimdagi o'rni tahlil qilinganda komponentlarning o'zaro integrativ bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyillarning integratsiyasi bo'lajak tarbiyachida quyidagi kasbiy sifatlarni shakllantiradi.



1-rasm: **Bo'lajak tarbiyachida shakllanadigan kasbiy sifatlar.**

Texnologiyalar tez o'zgarayotgan davrda har qanday yangi vosita bilan ishlashga psixologik va metodik tayyorlik moslashuvchanlik sifatidir. Standart bo'lmagan muhitda kutilmagan metodik yechimlar yaratish qobiliyati kreativ proyeksiyalashdir. Tayyor metodik qo'llanmalarga qaram bo'lmasdan, ochiq axborot maydonida mustaqil ravishda ta'limiy kontent yarata olish sifati kasbiy avtonomiya hisoblanadi. Texnologiyalarning metodik tayyorgarlikdagi o'rni quyidagi ilmiy ahamiyatga ega:



2-rasm: **Texnologiyalarning metodik tayyorgarlikdagi ahamiyati**

Texnologiyalarning instrumental ahamiyati ularning ta'lim jarayonida samaradorlikni oshiruvchi vosita sifatidagi o'rnini belgilaydi. Bu bosqichda texnologiya o'quv materialini yetkazib berish, axborotni saqlash va qayta ishlash tezligini ta'minlaydi. Bu yerda texnologiya kognitiv yuklamani optimallashtirishga xizmat qiladi. Masalan, murakkab STEAM loyihalarida hisob-kitoblar yoki vizualizatsiyani texnologiya o'z zimmasiga oladi, natijada talabaning diqqat markazi texnik ijrodan ijodiy va tahliliy jarayonga ko'chadi.

STEAM-yondashuvi talablari asosida qayta quruvchi fundamental poydevordir. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda STEAM shunchaki fanlar yig'indisi emas, balki konseptual integratsiya sifatida ko'rilishi kerak. Bu yerda yondashuv – "strategiya", vosita esa "taktika"dir. Bu yondashuv tarbiyachini ta'lim jarayonini o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida ko'rishga o'rgatadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning STEAM-kompetentligini rivojlantirish jarayonining metodologik asosi va konseptual yo'nalishini bevosita yondashuv komponenti belgilab beradi. Bu yondashuv talabalarda maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni yaxlit borliq sifatida tushuntirish, bionik modellashtirish prinsiplari asosida mashg'ulotlar loyihalash ko'nikmasini shakllantiradi.

Bo'lajak tarbiyachilarning STEAM texnologiyalarini maktabgacha ta'lim jarayoniga tatbiq etish darajasi bevosita vositalarning to'g'ri tanlanishi va texnologiyalarning mosligiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda komponentlarning o'zaro integrativ bog'liqligi innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi kuch o'laroq xizmat qiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar tarkibidagi muhit, vosita, texnologiya va yondashuv bloklarining bir butun tizim sifatida barqaror ishlashi faqatgina komponentlarning o‘zaro integrativ bog‘liqligi ta’minlangan taqdirdagina yuqori bosqichga ko‘tariladi. Talabalarning metodik tayyorgarligini baholash mezonlarida ham kognitiv, texnologik va motivatsion ko‘rsatkichlarning sinergetik tarzda o‘sib borishi bevosita komponentlarning o‘zaro integrativ bog‘liqligi darajasiga tayanadi.

Metodik tizim – bu muayyan ta’lim bosqichida pedagogik jarayonning maqsadli, mazmunli va instrumental-texnologik birligini ta’minlovchi, o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi va funksional bog‘liq bo‘lgan komponentlarning tarkibiy-ierarxik majmuidir.

Mazmunli komponent – o‘quv fani yoki dasturining fundamentallik va amaliy yo‘naltirilganlik prinsiplari asosida tizimlashtirilgan ilmiy bilimlar hamda kompetensiyalar majmuasi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ushbu invariant tizimga refleksiv-monitoring baholash, korreksiya va raqamli-muhitli ekotizim komponentlari tizim shakllantiruvchi element sifatida integratsiya qilinmoqda.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ma’lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash, mantiqiy tahlil qilish va ilmiy xulosalash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik qismida bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishni tashkil etish jarayoni pedagogik kuzatish metodi asosida tahlil qilindi. Shuningdek, STEAM texnologiyalarining bo‘lajak tarbiyachilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahliliy yondashuv asosida baholandi. STEAM texnologiyalarining ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlari o‘zaro qiyoslandi. Tadqiqot jarayonida kognitiv, motivatsion, kreativ, amaliy va shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillarga amal qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar bo‘lajak tarbiyachilarning faolligini rivojlantirishda STEAM texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini kompleks baholash, ularning maktabgacha ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asoslash imkonini berdi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy manbalar tahlili, pedagogik kuzatishlar, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda olingan natijalarning zamonaviy maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyoti bilan o‘zaro uyg‘unligi orqali ta’minlandi. Natijalar bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan STEAM texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga samarali joriy etishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish mezonlari kasbiy faoliyatning integrativ xususiyatlarini (kognitiv, motivatsion, kreativ, amaliy va shaxsga yo‘naltirilgan) kompleks baholash tizimiga muvofiqlashtirilgan holda, STEAM loyihalash, muhandislik-dizayn hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishning fanlararo integratsiyasini ta’minlovchi komponentlar bilan boyitildi. Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlari bir necha bosqichda tashkil etildi: dastlab bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligining boshlang‘ich holatini aniqlash maqsadida dastlabki nazorat ishlari o‘tkazildi, so‘ngra ularning metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi bajarildi. Olingan natijalar qiyosiy va statistik tahlil qilindi.



3-rasm: **Bo‘lajak tarbiyachilarni STEAM texnologiyalari asosida o‘qitishga metodik tayyorgarligini rivojlantirish darajasini aniqlovchi mezonlar bo‘yicha tajriba guruhlarining nazorat guruhlariga nisbatan samaradorlik ko‘rsatkichlari (tajriba oxirida)**

XULOSA

Bo‘lajak tarbiyachilarning STEAM kompetentligini rivojlantirish jarayoni mexanik bilim berish bilan cheklanmay, didaktik makon, akme-neyropedagogik tamoyillar, didaktik instrumental hamda protsessual algoritmlarning uzviy birligini taqozo etuvchi yaxlit funksional makrotizim ekanligi asoslandi. Didaktik model takomillashtirildi.

Oliy ta’lim va maktabgacha ta’lim amaliyoti uzviyligini ta’minlovchi o‘zaro uzviy bog‘liq bloklar STEAM texnologiyalarining transdissiplinar tabiatiga adaptatsiyalandi. Bo‘lajak tarbiyachilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishda nazariy, amaliy va refleksiv tayyorgarlik uzviyligini loyihaviy-tadqiqotchilik faoliyati, fanlararo integratsiya, zamonaviy raqamli resurslar hamda uzluksiz amaliyot integratsiyasi asosida sintezlash tizimi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli qarori bilan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” // https://lex.uz/ru/docs/-5179335
3. Abdullayeva B. S. Fanlararo uzviylikni ta’minlashning metodologik-didaktik asoslari (amaliy matematika yo‘nalishi misolida): Ped. fan. dok. diss. – Toshkent: TDPU.
4. Amonov Sh. Pedagogik texnologiyalar va metodik tayyorgarlik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
6. Pozdnyak L. V. Upravleniye doshkolnym obrazovaniyem. – Moskva: Akademiya, 2001.
7. Kozlova S. A., Kulikova T. A. Doshkolnaya pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2002.
8. Slastyonin V. A. Pedagogicheskoye masterstvo. – Moskva: Akademiya, 2004-yil.
9. Park H. J. et al. A Study on the Components of STEAM Education and the Method of Development and Application of STEAM Program // Journal of the Korean Association for Science Education. – 2012. – Vol. 32. – No. 4. – pp.

HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA INTERTEKSTUAL TALQINLAR



Ro‘ziqulova Dilbar Muzaffar qizi
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0000-1410-0174

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek she’riyatida intertekstuallikning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy o‘zbek she’riyatida qo‘llanilayotgan intertekstual vositalar, jumladan, alluziya, reministsensiya, sitata, mifologik, diniy va folklor manbalariga murojaat qilish usullari o‘rganildi. Shuningdek, Sharq va G‘arb adabiy an’analari, milliy madaniy kodlar hamda zamonaviy kommunikativ muhitning she’riy tafakkur rivojiga ta’siri yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, intertekstuallik zamonaviy o‘zbek she’riyatida nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi ma’naviy-madaniy muloqotni ta’minlovchi muhim poetik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, hozirgi o‘zbek she’riyati, alluziya, reministsensiya, sitata, poetik diskurs, badiiy talqin, madaniy kod, folklor, zamonaviy adabiyot.

Abstract: This article examines the artistic and aesthetic features of intertextuality in contemporary Uzbek poetry. The study explores the principal intertextual devices employed by modern Uzbek poets, including allusion, reminiscence, quotation, and references to mythological, religious, and folkloric sources. It also investigates the influence of Eastern and Western literary traditions, national cultural codes, and the contemporary communicative environment on the development of poetic thought. The findings demonstrate that intertextuality in contemporary Uzbek poetry functions not only as a means of artistic expression but also as a significant poetic mechanism that facilitates a spiritual and cultural dialogue between the author and the reader.

Key words: intertextuality, contemporary Uzbek poetry, allusion, reminiscence, quotation, poetic discourse, artistic interpretation, cultural code, folklore, contemporary literature.

Аннотация: В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности интертекстуальности в современной узбекской поэзии. Исследуются основные интертекстуальные средства, используемые современными узбекскими поэтами, включая аллюзию, реминисценцию, цитирование, а также способы обращения к мифологическим, религиозным и фольклорным источникам. Кроме того, рассматривается влияние литературных традиций Востока и Запада, национальных культурных кодов и современной коммуникативной среды на развитие поэтического мышления. Результаты исследования свидетельствуют о том, что интертекстуальность в современной узбекской поэзии выступает не только как средство художественной выразительности, но и как важный поэтический механизм, обеспечивающий духовно-культурный диалог между автором и читателем.

Ключевые слова: интертекстуальность, современная узбекская поэзия, аллюзия, реминисценция, цитата, поэтический дискурс, художественная интерпретация, культурный код, фольклор, современная литература.

KIRISH

XXI asr o‘zbek she’riyati mazmun va shakl jihatidan sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi hamda milliy o‘zlikni yangicha talqin qilish ehtiyoji zamonaviy shoirlarning poetik tafakkuriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada she’riy matnlar tobora murakkablashib, ularning mazmun qatlamlarida tarixiy, diniy, folkloriy, falsafiy va jahon adabiyotiga oid ko‘plab ishoralar mujassamlashmoqda. Bunday ko‘p qatlamli tuzilma intertekstuallik hodisasi bilan chambarchas bog‘liq.

Intertekstuallik nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, matnni boshqa matnlar bilan uzviy aloqador holda o‘rganishga asos soldi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har qanday badiiy asar avval yaratilgan matnlar, madaniy xotira va kollektiv tajriba bilan dialogga kirishadi. Shu sababli zamonaviy she’rni faqat alohida matn sifatida emas, balki keng madaniy makonda shakllangan semantik tizim sifatida tahlil qilish zarur.

Hozirgi o‘zbek she’riyatida intertekstual elementlarning faollashuvi milliy adabiy an’analar bilan bir qatorda jahon adabiyoti, diniy manbalar, mifologiya va ommaviy madaniyatning poetik tafakkurga ta’siri kuchayganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur jarayonlarning badiiy mohiyati, poetik funksiyasi va ma’no yaratishdagi o‘rni hali ham batafsil tadqiq etilishi zarur bo‘lgan masalalardan biridir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi hozirgi o‘zbek she’riyatida intertekstual talqinlarning asosiy ko‘rinishlarini aniqlash, ularning poetik vazifalarini ochib berish hamda zamonaviy she’riy tafakkur rivojidagi o‘rnini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Intertekstuallik nazariyasi XX asr adabiyotshunosligining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, badiiy matnning boshqa matnlar bilan aloqadorligi masalasini o‘rganishga xizmat qiladi. Mazkur nazariyaning rivojlanishi natijasida matnning yopiq tizim emas, balki madaniy xotira, tarixiy tajriba va avvalgi matnlar bilan doimiy munosabatda bo‘luvchi ochiq semantik maydon ekanligi e’tirof etildi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham intertekstuallik masalalariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

M. Holbekov intermatn va intermatnlik tushunchalarining nazariy asoslarini yoritib, badiiy matn mazmunini shakllantirishda matnlararo munosabatlarning o‘rnini ko‘rsatib bergan.

M. F. Xomidova tadqiqotlarida esa intertekstuallikning badiiy matn persepsiyasidagi roli, o‘quvchi tomonidan ma’no hosil qilish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotida intermatn hodisasining turli janrlardagi namoyon bo‘lishi ham ilmiy tadqiq etilmoqda. Jumladan, S. Hasanov o‘zbek va ingliz nasridagi intermatn hodisalarini qiyosiy o‘rganib, intertekstual birliklarning milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlashga e’tibor qaratgan.

Shuningdek, A. Ahmedova badiiy obraz yaratishda intertekstual aloqalarning estetik imkoniyatlarini ochib bergan.

Zamonaviy tadqiqotlarda Sharq va G‘arb adabiy an’analari kesimida intertekstuallikning badiiy talqini, matnlararo munosabatlarning lingvistik hamda poetik jihatlari ham o‘rganilmoqda. B. Sodiqova, F. Mannonova va G. Ruzmatovalarning ilmiy ishlarida intertekstuallikning nazariy asoslari, uning badiiy tafakkur va madaniy kommunikatsiyadagi o‘rni yoritilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida intertekstuallik umumiy nazariy yoki nasriy asarlar misolida tahlil qilingan bo‘lib, hozirgi o‘zbek she’riyatidagi intertekstual talqinlarning poetik funksiyalari, ma’no hosil qilish mexanizmlari va zamonaviy she’riy tafakkur rivojidagi o‘rni yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot hozirgi o‘zbek she’riyatida intertekstual talqinlarning badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash va ularning poetik imkoniyatlarini baholashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini intertekstuallik nazariyasi bo‘yicha yaratilgan ilmiy ishlanmalar hamda o‘zbek adabiyotshunosligida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar tashkil etdi. Xususan, intertekstuallikning nazariy asoslari, matnlararo munosabatlar konsepsiyasi, alluziya va reministsensiyaning poetik tabiati, Sharq va G‘arb adabiy an’analarining o‘zaro aloqasi hamda zamonaviy o‘zbek she’riyatida intertekstual birliklarning qo‘llanilishiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy-tipologik, germenevtik va lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek she’riyatida uchraydigan intertekstual vositalar funksional-semantik nuqtai nazardan o‘rganildi. Tahlilda intertekstuallikning quyidagi shakllariga alohida e’tibor qaratildi:

- sitata va iqtiboslar;
- alluziyalar;
- reministsensiyalar;
- diniy intertekstlar;
- folklor va mifologik obrazlar;
- tarixiy shaxslar hamda madaniy ramzlarga murojaatlar;
- noverbal intertekstual birliklar.

Mazkur metodlar poetik matnlarning mazmun qatlamlarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar zamonaviy o‘zbek she’riyatida intertekstuallikning badiiy tafakkurni shakllantiruvchi yetakchi poetik tamoyillardan biriga aylanganini ko‘rsatdi. Eng avvalo, intertekstual birliklar she’rning semantik hajmini sezilarli darajada kengaytiradi. Muallif bevosita aytilmagan ma’nolarni boshqa matnlarga ishora qilish orqali ifodalaydi. O‘quvchi esa ushbu ishoralarni anglash jarayonida she’rning yashirin qatlamlarini kashf etadi. Natijada badiiy matn ko‘p bosqichli interpretatsiyaga ochiq bo‘ladi.

Tadqiqot davomida zamonaviy o‘zbek she’riyatida Qur’oni karim, hadislar, tasavvuf adabiyoti, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi ijodkorlar merosiga murojaatlar keng qo‘llanilishi kuzatildi. Bunday murojaatlar oddiy takrorlash emas, balki zamonaviy hayot, milliy o‘zlik va inson ruhiyatini yangi nuqtai nazardan talqin qilish vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Shuningdek, folklor motivlari va mifologik obrazlarning zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg‘unlashuvi kuzatildi. Qadimiy ramzlar yangi tarixiy va ijtimoiy sharoitlarda yangicha semantik yuk kasb etmoqda. Natijada an’anaviy obrazlar zamonaviy insonning ichki kechinmalari, ma’naviy izlanishlari va ijtimoiy muammolarini ifodalash vositasiga aylanmoqda.

Tahlillar yana bir muhim tendensiyani ko‘rsatdi. Zamonaviy shoirlar intertekstuallikni faqat yozma matnlar bilan cheklamay, tasviriy san’at, musiqa, kino va ommaviy madaniyat elementlari bilan ham boyitmoqdalar. Noverbal intertekstlar poetik obrazning vizual va emotsional ta’sirchanligini oshiradi hamda she’rning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, sarlavhalarning intertekstual funksiyasi ham kuchayganligi aniqlandi. Ko‘plab she’rlar sarlavhasi orqali mashhur adabiy asarlar, tarixiy voqealar yoki diniy manbalarga ishora qiladi. Bu esa o‘quvchini she’rni o‘qishdan avvaloq muayyan madaniy kontekstga yo‘naltiradi.

Olingan natijalar intertekstuallik zamonaviy o‘zbek she’riyatida oddiy uslubiy bezak emas, balki poetik tafakkurning muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Matnlararo aloqalar orqali shoir individual tajribani umuminsoniy madaniy xotira bilan bog‘laydi. Shu jihatdan intertekstuallik badiiy matnning mazmuniy chuqurligini oshiruvchi va uning estetik ta’sirini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazariy manbalar bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek she’riyatidagi intertekstual jarayonlar jahon adabiyotida kuzatilayotgan umumiy tendensiyalar bilan uyg‘un rivojlanmoqda. Biroq milliy she’riyatning o‘ziga xosligi shundaki, unda intertekstual bog‘lanishlarning asosiy qatlami milliy tarix, tasavvuf, folklor va mumtoz adabiyot bilan bog‘liq. Aynan shu jihat zamonaviy o‘zbek she’riyatining milliy poetik qiyofasini saqlab qolmoqda.

Shuningdek, zamonaviy axborot makonining rivojlanishi intertekstual aloqalarning ko‘lamini kengaytirdi. Endilikda shoirlar nafaqat klassik adabiyot, balki internet madaniyati, media matnlari, kino, reklama va boshqa kommunikativ tizimlardan ham ijodiy foydalanmoqdalar. Natijada intertekstuallik tobora ko‘p qatlamli va murakkab poetik hodisaga aylanmoqda.

Intertekstual birliklarning samaradorligi esa, avvalo, o‘quvchining madaniy kompetensiyasiga bog‘liq. O‘quvchi qancha ko‘p adabiy va madaniy bilimga ega bo‘lsa, she’rning yashirin semantik qatlamlarini shuncha chuqur anglay oladi. Demak, intertekstuallik muallif va kitobxon o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni yuzaga keltiradigan estetik hodisa sifatida ham baholanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hozirgi o‘zbek she’riyatida intertekstuallik zamonaviy poetik tafakkurning eng muhim badiiy tamoyillaridan biriga aylanganini ko‘rsatdi. Intertekstual birliklar she’riy matnning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi, tarixiy va madaniy xotirani faollashtiradi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Zamonaviy shoirlar alluziya, reministsensiya, sitata, folklor, diniy va mifologik obrazlardan ijodiy foydalanish orqali an’anaviy poetik merosni yangi estetik mazmun bilan boyitmoqdalar. Shu bilan birga, raqamli madaniyat va global kommunikatsiya ta’sirida intertekstuallikning yangi shakllari vujudga kelayotgani kuzatilmoqda.

Kelgusidagi tadqiqotlarda alohida shoirlar ijodi misolida intertekstual strategiyalarni korpus lingvistikasi, kognitiv poetika va raqamli gumanitar fanlar metodlari asosida o‘rganish zamonaviy o‘zbek she’riyati taraqqiyotining yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedova, A. (2020). Obraz yaratish mahorati intertekstual aloqalar kesimida. O‘zbek tili va adabiyoti, 3, 45–52.
2. Do‘smuradova, Y. (2024). Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari. O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti, 1(1), 31–34.
3. Hasanov, S. (2025). Hozirgi o‘zbek va ingliz nasrida intermatn hodisasi talqini: Isajon Sulton, Bahodir Qobul va Kazuo Ishiguro asarlari misolida (PhD dissertatsiyasi). Samarqand davlat universiteti.

4. Holbekov, M. (2013). Matn, intermatn va intermatnlik. O‘zbek tili va adabiyoti, 6, 22–29.
5. Xomidova, M. F. (2021). Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik (Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi). Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
6. Mannonova, F. (2026). Sharq va G‘arb adabiyotida intertekstuallikning badiiy talqini. Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar, 3(2), 272–276.
7. Ruzmatova, G. (2026). Intertekstual bog‘lanishlarning lingvistik va adabiy talqini. Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar, 3(6), 326–329.
8. Sodiqova, B. I. (2026). Intertekstuallik nazariyasi va matnlararo munosabatlar konsepsiyasi. Komparativistika.
9. Xomidova, M. F. (2026). O‘zbek tilida intertekstuallik tadqiqi. O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi (O‘zA).
10. Yo‘ldoshev, M., & Yadgarov, Q. (2007). Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent.

MUSTAQILLIK VA YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI

UDK: 323.1:338.1(575.1)

Erkayev Elmirza Temirovich
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘tgan davri mobaynida mamlakatda amalga oshirilgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati, uning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda inson qadri tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari yoritiladi. Shuningdek, mustaqillikning 35-yilligi arafasida mamlakatning erishgan yutuqlari va istiqboldagi ustuvor vazifalar yuzasidan ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, davlat boshqaruvi, inson qadri, fuqarolik jamiyati, iqtisodiy islohotlar, milliy taraqqiyot.

Abstract: This article analyzes the political, legal, economic and social reforms implemented in Uzbekistan during the years of independence. Particular attention is paid to the Development Strategy of New Uzbekistan, the principle of human dignity and the modernization of public administration. The paper also examines the achievements of the country on the eve of the 35th anniversary of independence and outlines future priorities.

Key words: Independence, New Uzbekistan, Development Strategy, public administration, human dignity, reforms, civil society.

Аннотация: В статье анализируются политические, правовые, экономические и социальные реформы, осуществленные в Узбекистане за годы независимости. Особое внимание уделено Стратегии развития Нового Узбекистана, принципу человеческого достоинства и современным реформам государственного управления.

Ключевые слова: независимость, Новый Узбекистан, стратегия развития, государственное управление, человеческое достоинство, гражданское общество.

KIRISH

Har bir xalq tarixida mustaqillik davlat va jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab beradigan, milliy davlatchilikning mustahkam poydevorini yaratadigan eng ulug‘ tarixiy voqea hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda davlat mustaqilligini e’lon qilgach, mamlakat taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichi boshlandi. Mustaqillik tufayli milliy davlatchilik tiklandi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim shakllantirildi, demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi [1].

So‘nggi yillarda mamlakat taraqqiyotida yangi bosqich - “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning bosh maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda fuqarolarning munosib turmush darajasini ta’minlashdan iboratdir [2].

O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjat mamlakatni rivojlantirishning yangi modelini shakllantirib, “Inson qadri uchun” tamoyilini barcha islohotlarning bosh mezoni sifatida e’tirof etdi [3].

Mustaqillikning 35-yilligi arafasida mamlakatimiz erishgan yutuqlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud tajribani umumlashtirish hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqillik - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy va siyosiy asosi

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda milliy davlatchilikning konstitutsiyaviy asoslari yaratildi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya mamlakat taraqqiyotining huquqiy poydevoriga aylandi. Unda inson huquqlari, qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi va demokratik davlat qurish tamoyillari mustahkamlab qo'yildi [4].

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar mazkur tamoyillarni yanada rivojlantirib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda. Xususan, yangilangan Konstitutsiyada inson qadri, ijtimoiy davlat tamoyili, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasidagi kafolatlar sezilarli darajada kuchaytirildi [5].

Davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi ham Yangi O'zbekiston konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Oxirgi yillarda davlat organlari faoliyatining ochiqligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Buning natijasida davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy boshqaruv mexanizmlari joriy etilib, davlat organlarining aholiga xizmat qilish tamoyili ustuvor yo'nalishga aylandi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan tamoyil bugungi islohotlarning asosiy mezoniga aylandi [6].

Shu tariqa, mustaqillik yillarida yaratilgan siyosiy-huquqiy poydevor Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida rivojlantirish, mulkchilikning turli shakllarini qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga qaratilgan izchil siyosatni amalga oshirdi. Natijada milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi tubdan o'zgardi, sanoat, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik sohalarida yangi rivojlanish bosqichi boshlandi [7].

So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi boshlanib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda xususiy mulk daxlsizligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Valyuta bozorini liberallashtirish, soliq tizimini takomillashtirish, bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim omil bo'ldi [8].

Taraqqiyot strategiyasida kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlarni kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada mahallabay ishlash tizimi, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholini kasb-hunarga o'qitish orqali ularning daromadlarini oshirish mexanizmlari joriy etildi [3].

Shuningdek, sanoatni diversifikatsiya qilish, eksport hajmini ko'paytirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish Yangi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot va innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda [9].

Inson kapitalini rivojlantirish - taraqqiyotning asosiy omili

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat taraqqiyotining eng muhim omili inson kapitalidir. Shu bois Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan va ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgan [10].

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, xalqaro standartlarni joriy etish hamda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirishga qaratilgan. So'nggi yillarda yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, xorijiy universitetlarning filiallari faoliyati kengaydi va kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy qilindi [11].

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish va yosh olimlarni rag'batlantirish mexanizmlarining takomillashuvi mamlakatning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda [12].

Sog'liqni saqlash tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, birlamchi tibbiy xizmatlar sifati yaxshilanmoqda, raqamli tibbiyot texnologiyalari joriy etilmoqda va aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash hamda profilaktik tibbiyot tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [13].

Fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligini ta'minlash

Demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim sharti fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida sud-huquq tizimini isloh qilish, inson huquqlarini himoya qilish hamda davlat organlarining ochiqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan [14].

Sudlarning mustaqilligini mustahkamlash, advokatura institutini rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolarning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda mahallalarning jamiyat boshqaruvidagi o'rni tobora ortib bormoqda. Fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish demokratik islohotlarning muhim natijalaridan biridir [15].

Bugungi kunda "Ochiq budjet", elektron davlat xizmatlari va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining joriy etilishi davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa Yangi O'zbekistonning ochiq, adolatli va xalqparvar davlat sifatida rivojlanishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, ilmiy kuzatish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, strategik dasturlar, ilmiy adabiyotlar va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati va xalqaro hamkorlikning yangi bosqichi

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning tashqi siyosati milliy manfaatlarni ta'minlash, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratildi. Ayniqsa, keyingi yillarda olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat natijasida mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi sezilarli darajada oshdi [16].

Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chegara masalalarining bosqichma-bosqich hal etilishi, transport-kommunikatsiya loyihalarining rivojlanishi hamda savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi butun mintaqaning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilmoqda [17].

Shuningdek, O'zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Mamlakatning xalqaro tashabbuslari ekologiya, suv resurslaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi, yoshlar siyosati va diniy bag'rikenglik kabi global masalalarni hal etishga qaratilgan. Bu tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanmoqda [18].

Yoshlar siyosati va Uchinchi Renessans poydevori

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlar masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Buning asosiy sababi mamlakat aholisining katta qismini yoshlar tashkil etishi hamda kelajak taraqqiyoti aynan ularning bilim va salohiyatiga bog'liq ekanligidir [19].

Bugungi kunda yoshlarning sifatli ta'lim olishi, zamonaviy kasblarni egallashi, xorijiy tillarni o'rganishi, ilm-fan va innovatsiyalar bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, zamonaviy universitetlar hamda xalqaro ta'lim dasturlari yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Davlat tomonidan yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, startap loyihalarni moliyalashtirish hamda "Yoshlar daftari" orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etildi. Mazkur islohotlar yoshlarning jamiyatdagi faolligini oshirish va ularning mamlakat taraqqiyotidagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasi zamonaviy ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali yangi taraqqiyot bosqichini barpo etishni nazarda tutadi. Ushbu g'oya buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini davom ettirish, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi [4].

Raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi O‘zbekistonda ham davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bois “Raqamli O‘zbekiston” konsepsiyasi asosida elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ko‘plab davlat xizmatlari elektron shaklda ko‘rsatilmoqda. Bu esa fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik yaratish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish hamda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, fintech texnologiyalari va innovatsion ishlab chiqarish yo‘nalishlarining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga, yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillikning 35-yilligi - tarixiy tajriba va yangi taraqqiyot bosqichi

Mustaqillikning 35-yilligi O‘zbekiston taraqqiyotini har tomonlama tahlil qilish, erishilgan natijalarni ilmiy baholash hamda istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilash uchun muhim tarixiy sanadir. O‘tgan davr mobaynida mamlakat siyosiy barqarorlikni ta’minladi, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratildi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida salmoqli natijalarga erishildi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston g‘oyasi nafaqat davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, balki jamiyatning barcha qatlamlarini yagona maqsad yo‘lida birlashtiruvchi strategik konsepsiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Inson qadri, qonun ustuvorligi, ochiqlik, shaffoflik, innovatsion rivojlanish va kuchli fuqarolik jamiyati tamoyillari mamlakat taraqqiyotining asosiy mezonlariga aylandi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida to‘plangan tajriba hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining izchil amalga oshirilishi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35-yillik taraqqiyot yo‘li murakkab, ammo izchil rivojlanish bosqichlari bilan tavsiflanadi. Ushbu davr mobaynida mamlakat siyosiy mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy tizimni bozor tamoyillari asosida shakllantirish hamda demokratik huquqiy davlat barpo etish yo‘lida muhim natijalarga erishildi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi davlat va jamiyat hayotida tub sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirdi. Inson qadri, qonun ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari davlat siyosatining asosiy mezoniga aylandi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy faolligi oshdi, davlat boshqaruvi tizimi modernizatsiya qilindi va iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun mustahkam poydevor yaratildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston modeli nafaqat ichki rivojlanish, balki xalqaro maydonda ham mamlakat nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, tashqi siyosatda ochiqlik, mintaqaviy hamkorlik va global tashabbuslarning kuchayishi O‘zbekistonni xalqaro munosabatlarning faol subyektiga aylantirdi.

Shu bilan birga, yoshlar siyosatining ustuvorligi, raqamli transformatsiya jarayonlari va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatning uzoq muddatli istiqbolini belgilab bermoqda. Uchinchi Renessans g‘oyasi esa ilm-fan va ta’limga asoslangan yangi taraqqiyot bosqichini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida to‘plangan tajriba va Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining izchil amalga oshirilishi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi hamda uni zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF–60-son1 Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. 28.01.2022.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekistonni birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
5. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettiramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son2 “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasining 14.09.2016-yildagi O‘RQ-406-son3 “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

1 https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2 https://lex.uz/docs/-5013007
3 https://lex.uz/docs/-3026246

9. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. World Bank. Uzbekistan Development Reports. 2023–2025.
11. Asian Development Bank. Uzbekistan Economic Outlook. 2024.
12. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report: Uzbekistan, 2023.
13. OECD Reports on Central Asia Economic Development, 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2024–2025.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va ma'ruzalari to'plami. – Toshkent, 2020–2025.
16. Tashkent State University ilmiy maqolalari to'plami. – 2023–2024.
17. Journal of Central Asian Studies. – 2023–2025-sonlari.
18. Acta Science and Education Journal. – 2024.
19. International Journal of Social and Economic Research. – 2023–2024.
20. UN Sustainable Development Goals Report. Uzbekistan Section, 2024.

YAPON PEDAGOGIK TAJRIBASINI O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUHITIGA MOSLASHTIRISHNING DIDAKTIK SHARTLARI

Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna
KIUT Namangan filiali
pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada yapon pedagogik tajribasining O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga mexanik ko'chirilishi emas, balki uning didaktik mohiyatini milliy ta'lim maqsadlari, talabalarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy imkoniyatlari va professor-o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan muvofiqlashtirgan holda adaptatsiya qilish muammosi tadqiq etilgan. Yaponiya ta'lim amaliyotida qaror topgan "Lesson Study" (jugyou kenkyuu), "kyouzai kenkyuu", hamkorlikda dars loyihalash, o'quv materialini chuqur didaktik tahlil qilish, talabalar faolligini kuzatish, jamoaviy refleksiya va uzluksiz takomillashtirish tamoyillari O'zbekiston oliy ta'limi nuqtayi nazaridan qiyosiy-pedagogik tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: yapon pedagogik tajribasi, oliy ta'lim, didaktik shart, adaptatsiya, Lesson Study, jugyou kenkyuu, kyouzai kenkyuu, hamkorlikda o'qitish, refleksiya, formativ baholash, pedagogik transfer.

Abstract: The article examines the contextual adaptation of Japanese pedagogical experience to the goals, values, and organizational-didactic characteristics of higher education in Uzbekistan rather than its mechanical transfer. Through comparative pedagogical analysis, it discusses the core principles of Japanese educational practice, including Lesson Study (jugyou kenkyuu), kyouzai kenkyuu, collaborative lesson design, in-depth study of instructional materials, observation of student learning, collective reflection, and continuous improvement.

Key words: Japanese pedagogical experience, higher education, didactic conditions, adaptation, Lesson Study, jugyou kenkyuu, kyouzai kenkyuu, collaborative learning, reflection, formative assessment, pedagogical transfer.

Аннотация: В статье исследуется проблема не механического переноса японского педагогического опыта, а его контекстной адаптации к целям, ценностям и организационно-дидактическим особенностям высшего образования Узбекистана. На основе сравнительно-педагогического анализа раскрыты образовательные принципы, сформировавшиеся в японской практике: Lesson Study (jugyou kenkyuu), kyouzai kenkyuu, совместное проектирование занятия, углублённое исследование учебного материала, наблюдение за учебной деятельностью студентов, коллективная рефлексия и непрерывное совершенствование преподавания. Систематизированы дидактические условия адаптации: целевая и аксиологическая совместимость, предварительная диагностика локального контекста, селективная трансформация содержания, коллаборативная деятельность преподавателей, студентоцентрированный дизайн занятия, формативное оценивание, рефлексивный мониторинг, институциональная поддержка и поэтапное внедрение.

Ключевые слова: японский педагогический опыт, высшее образование, дидактические условия, адаптация, Lesson Study, jugyou kenkyuu, kyouzai kenkyuu, совместное обучение, рефлексия, формативное оценивание, педагогический трансфер.

KIRISH

Global ta'lim makonida milliy oliy ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning xorijiy pedagogik innovatsiyalarni qanday tanlashi, ilmiy jihatdan baholashi va mahalliy sharoitga moslashtirishi bilan belgilanadi. Biroq xalqaro tajribani o'zlashtirish jarayoni oddiy "eng yaxshi amaliyot"ni bir muhitdan ikkinchisiga ko'chirishdan iborat emas. Pedagogik tajriba muayyan mamlakatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy me'yorlari, o'qituvchi kasbining ijtimoiy maqomi, ta'limni boshqarish an'analari, o'quv dasturi tuzilishi, baholash madaniyati va ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarga chuqur singib ketgan murakkab ijtimoiy-didaktik hodisadir. Shu sababli Yaponiyada yuqori samara bergan metod yoki tashkiliy shakl O'zbekiston oliy ta'lim muhitida aynan takrorlanganida kutilgan natijani bermasligi, hatto uning mazmuniy yadrosi tashqi rasmiyatchilik bilan almashib qolishi mumkin. Demak, asosiy ilmiy vazifa yapon pedagogik tajribasini "ko'chirish" emas, balki uning universal didaktik mexanizmlarini aniqlash, milliy muhit bilan muvofiq nuqtalarini belgilash va kontekstga sezgir adaptatsiya texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Yapon pedagogik madaniyatida o‘qitish sifati bir martalik nazorat yoki alohida o‘qituvchining individual mahorati bilan cheklanmaydi. U jamoaviy tadqiqot, rejalashtirish, kuzatish, dalillarni muhokama qilish va qayta loyihalashdan iborat uzluksiz sikl sifatida tushuniladi. “Lesson Study” – jugyou kenkyuu amaliyotida o‘qituvchilar muayyan o‘quv muammosini belgilaydi, tadqiqot darsini hamkorlikda loyihalaydi, talabalar yoki o‘quvchilarning fikrlash jarayonini kuzatadi, natijalarni muhokama qiladi va keyingi pedagogik qarorlarni dalillar asosida takomillashtiradi [3; 5; 7]. Bu jarayonda dars “ko‘rgazmali tadbir” emas, balki ilmiy-pedagogik izlanish obyektiga aylanadi. “Kyouzai kenkyuu” esa o‘quv materiali, tushuncha, vazifa, matn, misol va talabaning ehtimoliy fikrlash trayektoriyalarini chuqur o‘rganishni anglatadi; shuning uchun u oddiy konspekt yozishdan farq qilib, mazmunning didaktik imkoniyatlarini ochishga yo‘naltiriladi [9]. Ushbu ikki an’ana o‘qituvchini tayyor metodlarni iste’mol qiluvchi emas, balki ta’lim mazmuni va amaliyotini tadqiq etuvchi professional subyekt sifatida shakllantiradi.

O‘zbekiston oliy ta’limida kredit-modul tizimi, talabaga yo‘naltirilgan ta’lim, mustaqil ta’lim ulushini oshirish, raqamli resurslardan foydalanish, ta’lim sifatini ichki ta’minlash va professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini kuchaytirish kabi vazifalar yapon tajribasining ayrim tamoyillari bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Biroq mazkur uyg‘unlik avtomatik emas. Masalan, hamkorlikda dars tahlili o‘qituvchini nazorat qilish yoki reytingini belgilash vositasiga aylansa, ochiq muloqot va kasbiy ishonch yo‘qoladi; talabalar faolligini kuzatish faqat davomat va javoblar soni bilan cheklansa, ularning fikrlash dinamikasi ochilmaydi; “Lesson Study” belgilangan shakldagi hujjat to‘ldirish bilan almashsa, uning tadqiqotchilik funksiyasi so‘nadi. Shu bois adaptatsiyaning didaktik shartlari professor-o‘qituvchining psixologik xavfsizligi, kafedrada hamkorlik madaniyati, vaqt resursi, metodik fasilitatsiya, kuzatuv mezonlari, ta’lim natijalari va milliy qadriyatlar bilan bog‘langan yaxlit tizimda ko‘rib chiqilishi kerak.

Mazkur tadqiqotda “didaktik shart” tushunchasi ma’lum pedagogik tajribani belgilangan ta’lim muhitida samarali amalga oshirishni ta’minlaydigan maqsadli, mazmuniy, protsessual, tashkiliy va baholovchi omillarning o‘zaro bog‘liq majmuasi sifatida talqin qilinadi. Bunda shartlar faqat infratuzilma yoki me’yoriy talablardan iborat emas; ular ta’lim ishtirokchilarining motivatsiyasi, pedagogik pozitsiyasi, muloqot usuli, o‘quv materialini qayta ishlash qobiliyati, refleksiya madaniyati va dalilga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyasini ham qamrab oladi. Yapon tajribasini O‘zbekiston oliy ta’limiga moslashtirishda didaktik shartlarni belgilash uchta metodologik muammoni hal qilishni talab etadi:

- *birinchidan,* yapon amaliyotining kontekstga bog‘liq va nisbatan universal elementlarini ajratish;
- *ikkinchidan,* milliy oliy ta’limning mavjud resurslari hamda cheklovlarini real baholash;
- *uchinchidan,* adaptatsiya samarasini talabaning bilim natijalari bilangina emas, balki mustaqil fikrlash, hamkorlik, refleksiya, muammoni yechish va o‘qituvchining kasbiy o‘rganishi kabi ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar orqali aniqlash.

Yaponiya pedagogik tajribasi haqidagi xalqaro tadqiqotlarda uning samaradorligi ko‘pincha o‘qituvchilarning hamkorlikda ishlashi, darsni tadqiqot obyektiga aylantirishi va o‘quvchilar fikrlashini markazga qo‘yishi bilan izohlanadi. Stigler va Hibert Yaponiyada o‘qitishni takomillashtirish individual “yaxshi o‘qituvchi”ni izlashga emas, balki o‘qitish madaniyatini jamoaviy rivojlantirishga tayanishini ko‘rsatgan [3].

Lyuis “Lesson Study”ning o‘qituvchi rahbarligidagi o‘zgarish sifatidagi ahamiyatini, Fernandes va Yoshida esa dars rejasi, kuzatuv va muhokamaning talabalarning matematik fikrlashini o‘rganishga xizmat qilishini asoslagan [4; 5].

Keyingi tadqiqotlar ushbu amaliyotni boshqa mamlakatlarga joriy etishda mazmuniy qisqarish, haddan tashqari formallashtirish va institutsional qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi kabi xavflarni ochib berdi [7; 8]. Bu holat O‘zbekiston uchun ham muhim: adaptatsiya natijasi yapon atamalaridan foydalanish bilan emas, balki kafedra va auditoriyadagi real pedagogik munosabatlarning o‘zgarishi bilan baholanishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan Yaponiya tajribasini milliy ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi nuqtayi nazaridan o‘rganish so‘nggi yillarda pedagogik transferning istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mavzuga bevosita yaqin tadqiqotlar orasida O. O. Jakbarovning “Opportunities for Integrating Japanese Experience into Uzbekistan’s Higher Education System” nomli maqolasi alohida ahamiyatga ega. Muallif Yaponiya oliy ta’limidagi sifatni ta’minlash, innovatsion o‘qitish, universitet–sanoat hamkorligi va kadrlar tayyorlash mexanizmlarini O‘zbekiston oliy ta’lim islohotlari bilan qiyoslaydi [1].

Jakbarovning yondashuvi yapon tajribasini milliy tizimga kiritishning strategik imkoniyatlarini ko‘rsatishi bilan qimmatli: unda ta’lim sifati faqat auditoriya metodikasi emas, balki universitetning ilmiy, ishlab chiqarish va boshqaruv munosabatlari bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida ko‘riladi. Ayni paytda mazkur tadqiqot umumtizimiy imkoniyatlarni ochib bersa-da, konkret dars darajasidagi adaptatsiyaning didaktik shartlari – o‘quv mate-

rialini qayta loyihalash, talabalar fikrlashini kuzatish, o‘qituvchilarning refleksiv hamkorligi va formativ baholash mezonlarini batafsil tizimlashtirmaydi. Shu nuqta ushbu maqolaning ilmiy vazifasini aniqlashga xizmat qiladi.

A. M. Akbarovning N. A. Shakirova bilan hammualliflikdagi “Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish modeli (Yaponiya tajribasi misolida)” tadqiqoti yapon tajribasini inson resurslarini uzluksiz rivojlantirish, tashkilot ichida o‘qitish va kasbiy mas’uliyatni shakllantirish nuqtayi nazaridan tahlil qiladi [2]. Ushbu ishda Yaponiya muvaffaqiyatining asosi texnologiyani import qilishdan ko‘ra inson kapitaliga tizimli sarmoya kiritish, xodimning tashkilotda o‘rganishi, rahbarning rivojlantiruvchi pozitsiyasi va jamoaviy mas’uliyat madaniyati bilan bog‘lanadi. Mazkur g‘oyalar oliy ta’limga tatbiq etilganda professor-o‘qituvchilar malakasini bir martalik kurslar orqali emas, balki kafedra ichidagi uzluksiz kasbiy o‘rganish, hamkasb darsini tadqiq etish, birgalikda material ishlab chiqish va refleksiv muloqot orqali rivojlantirish zarurligini anglatadi. Biroq Akbarov tadqiqotining markazida iqtisodiy-tashkiliy inson resurslari turgani sababli, talabaning o‘quv faoliyati va dars dizayniga doir didaktik mexanizmlar maxsus ochib berilmagan.

Ikki tadqiqotning qiyosiy tahlili ular o‘rtasida mazmuniy uzviylik borligini ko‘rsatadi: Jakbarov makrodarajada oliy ta’lim tizimi va universitet–ishlab chiqarish munosabatlarini, Akbarov esa mezodarajada inson salohiyati va tashkilot ichidagi kasbiy rivojlanishni ustuvor qo‘yadi. Ularni birlashtiruvchi nuqta – yapon tajribasining samaradorligi alohida metoddan emas, balki sifat, intizom, hamkorlik, uzluksiz takomillashtirish va inson kapitaliga yo‘naltirilgan tizimdan kelib chiqishidir. Biroq oliy ta’lim auditoriyasi mikrodarajasida qanday shartlar yaratilishi, yapon yondashuvlarining qaysi elementlari saqlanishi va qaysilari milliy kontekstga qayta ishlanishi lozimligi ochiq qoladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada yapon pedagogik tajribasini O‘zbekiston oliy ta’lim muhitiga moslashtirishning didaktik shartlarini aniqlash uchun o‘zaro to‘ldiruvchi nazariy-tahliliy metodlar majmuasidan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-pedagogik tahlil metodi orqali Yaponiyada shakllangan “Lesson Study”, jugyou kenkyuu va kyouzai kenkyuu amaliyotlarining maqsadi, subyektlari, bosqichlari, baholash mantig‘i va kasbiy rivojlanish funksiyalari O‘zbekiston oliy ta’limidagi darsni rejalashtirish, kafedra metodik ishi, ichki sifat nazorati va talabaga yo‘naltirilgan ta’lim talablari bilan taqqoslandi.

Qiyoslashda tashqi o‘xshashliklar emas, balki har bir amaliyotni harakatga keltiruvchi ichki didaktik mexanizmlar – muammoni jamoaviy belgilash, o‘quv materialini chuqur o‘rganish, talabalar fikrlashini kuzatish, dalillarni talqin qilish va keyingi darsni qayta loyihalash jarayonlari asosiy birlik sifatida qabul qilindi.

Tizimli-strukturaviy tahlil yordamida adaptatsiya jarayoni maqsadli-aksiologik, mazmuniy, protsessual, tashkiliy-kollaborativ va baholovchi-refleksiv komponentlarga ajratildi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi ochib berildi. Bu usul bir shartning yetishmasligi butun mexanizm samaradorligini pasaytirishini, masalan, hamkorlik uchun vaqt ajratilmasa yoki kuzatuv mezonlari talabalarning fikrlash jarayoniga yo‘naltirilmasa, “Lesson Study”ning formal tadbirga aylanib qolishini nazariy jihatdan tushuntirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida yapon pedagogik tajribasini O‘zbekiston oliy ta’lim muhitiga samarali moslashtirish uchun o‘zaro bog‘liq to‘qqizta didaktik shart zarur ekani aniqlandi.

Birinchi shart – **maqsadli-aksiologik muvofiqlik** bo‘lib, joriy etiladigan amaliyot milliy oliy ta’limning kompetensiyaviy maqsadlari, akademik halollik, shaxs qadri, hamkorlik va mas’uliyat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilishi kerak.

Ikkinchi shart – **kontekstual diagnostika:** kafedra resurslari, professor-o‘qituvchilarning hamkorlikka tayyorligi, fan xususiyati, talabalarning boshlang‘ich tayyorgarligi, vaqt va auditoriya imkoniyatlari oldindan o‘rganilmasdan turib, yapon tajribasini joriy etish ilmiy asoslangan hisoblanmaydi.

Uchinchi shart – **selektiv adaptatsiya** bo‘lib, tashqi marosim va terminlar emas, balki talabalar o‘rganishini tadqiq etish, dalilga asoslangan muhokama va uzluksiz yaxshilash kabi o‘zak mexanizmlar saqlanadi; kontekstga bog‘liq tashkiliy shakllar esa mahalliy ehtiyojga ko‘ra qayta quriladi.

Yapon pedagogik tajribasini boshqa ta’lim muhitiga ko‘chirish masalasida Akixiko Takaxashi va Tomas Makdugalning yondashuvi bilan Kristina Lim-Ratnam hamda uning hammualliflari qarashlari o‘rtasida mazmunli ilmiy polemika mavjud. Takaxashi va Makdugal “Collaborative Lesson Research” konsepsiyasida “Lesson Study”ning samarasi uning asosiy komponentlarini to‘liq va maqsadli saqlashga bog‘liqligini ta’kidlaydi [7]. Ularning fikricha, ko‘plab mamlakatlarda amaliyot tadqiqot darsini bir marta namoyish qilish, tayyor konspektni muhokama etish yoki “ideal dars rejasi” yaratishga qisqarib ketadi. Vaholanki, haqiqiy maqsad mukammal hujjat tayyorlash emas, balki talabalarning o‘rganishi haqida yangi kasbiy bilim hosil qilishdir.

Lim-Ratnam, Li, Jiang va Sudarshan esa “Lost in Adaptation?” tadqiqotida yapon amaliyotini non-yapon kontekstda aynan takrorlash ham muammoli ekanini ko‘rsatadi [8]. Ularning tahliliga ko‘ra, har bir ta’lim tizimida vaqt taqsimoti, rahbarlik uslubi, o‘qituvchilar o‘rtasidagi ishonch, baholash bosimi va professional avtonomiya turlicha; shuning uchun “Lesson Study” mahalliy ishtirokchilar tomonidan qayta ma’nolantiriladi. Mualliflar adaptatsiyani inkor etmaydi, aksincha, uni barqaror joriy etishning sharti sifatida ko‘radi, ammo o‘zgarishlar ko‘paygan sari amaliyotning asosiy maqsadi yo‘qolib ketishi mumkinligini “adaptatsiyada yo‘qolish” paradoksi bilan ifodalaydi. Demak, ularning pozitsiyasi kontekstni e’tiborsiz qoldirgan “metodologik asllik”ni tanqid qiladi va mahalliy madaniyat, resurs hamda ishtirokchilarning anglashiga mos dizaynni talab etadi.

Mazkur ikki yondashuv qarama-qarshi emas, balki adaptatsiyaning ikki xavfini ochib beradi. Takaxashi va Makdugal o‘zak prinsiplarning suyulib ketishidan, Lim-Ratnam va hammualliflar esa kontekstga yot shaklning majburan joriy etilishidan ogohlantiradi.

O‘zbekiston oliy ta’limi uchun maqbul yechim “fidellik–moslashuv” muvozanatida ifodalanadi: o‘zgarmas yadro sifatida talabalar o‘rganishini jamoaviy tadqiq etish, aniq tadqiqot savoli, o‘quv materialini chuqur tahlil qilish, kuzatuv dalillari va refleksiv qaror qabul qilish saqlanadi; o‘zgaruvchan qobiq sifatida guruh hajmi, sikl davomiyligi, mashg‘ulot turi, raqamli vosita, muhokama formati va hujjatlashtirish darajasi mahalliy sharoitga moslashtiriladi.

XULOSA

Yapon pedagogik tajribasini O‘zbekiston oliy ta’lim muhitiga moslashtirish ta’lim metodlarini oddiy import qilish emas, balki ularning tarixiy-madaniy mazmuni, didaktik funksiyasi va institutsional shartlarini qayta talqin etishga asoslangan murakkab pedagogik transfer jarayonidir. Tadqiqot yapon tajribasining eng qimmatli jihati tashqi tartib-intizom yoki alohida texnologik usullarda emas, balki darsni jamoaviy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rish, o‘quv materialini chuqur didaktik o‘rganish, talabalar fikrlashini dalillar asosida kuzatish va o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini hamkorlikda yaratish madaniyatida ekanini ko‘rsatdi. Shu bois “Lesson Study” va kyouzai kenkyuuni milliy oliy ta’limga joriy etishda ularning nomini yoki tashqi bosqichlarini takrorlash emas, balki mazmuniy yadrosini saqlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jakbarov O. O. Opportunities for Integrating Japanese Experience into Uzbekistan’s Higher Education System // Web of Teachers: Inderscience Research. – 2025. – Vol. 3, No. 3. – P. 319–323.
2. Акбаров А. М., Шакирова Н. А. Кадрлар салоҳиятини инновацион ривожлантириш модели (Япония тажрибаси мисолида) // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2019. – № 2 (40). – Б. 1–7.
3. Stigler J. W., Hiebert J. The Teaching Gap: Best Ideas from the World’s Teachers for Improving Education in the Classroom. – New York: Free Press, 1999. – 210 p.
4. Lewis C. C. Lesson Study: A Handbook of Teacher-Led Instructional Change. – Philadelphia, PA: Research for Better Schools, 2002.
5. Fernandez C., Yoshida M. Lesson Study: A Japanese Approach to Improving Mathematics Teaching and Learning. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2004. – 250 p.
6. Dudley P. Teacher Learning in Lesson Study: What Interaction-Level Discourse Analysis Revealed about How Teachers Utilised Imagination, Tacit Knowledge of Teaching and Fresh Evidence of Pupils’ Learning // Teaching and Teacher Education. – 2013. – Vol. 34. – P. 107–121. – DOI: 10.1016/j.tate.2013.04.006.
7. Takahashi A., McDougal T. Collaborative Lesson Research: Maximizing the Impact of Lesson Study // ZDM – Mathematics Education. – 2016. – Vol. 48. – P. 513–526. – DOI: 10.1007/s11858-015-0752-x.
8. Lim-Ratnam C. T. L., Lee C. K. E., Jiang H., Sudarshan A. Lost in Adaptation? Issues of Adapting Japanese Lesson Study in Non-Japanese Contexts // Educational Research for Policy and Practice. – 2019. – Vol. 18, No. 3. – P. 263–278. – DOI: 10.1007/s10671-019-09247-4.
9. Shinno Y., Mizoguchi T. Theoretical Approaches to Teachers’ Lesson Designs Involving the Adaptation of Mathematics Textbooks: Two Cases from Kyouzai Kenkyuu in Japan // ZDM – Mathematics Education. – 2021. – Vol. 53. – P. 1387–1402. – DOI: 10.1007/s11858-021-01269-8.
10. Ergashbaev, S. (2025). O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimi orqali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314–316.

VELOSPORTCHILARDA IRODAVIY XUSUSIYATLARNING NAMOYON BO'LISHI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Raxmonova Go'zal Bobir qizi
O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi
jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada velosportchilarning sport faoliyatida irodaviy xususiyatlarning (qat'iyatlilik, chidamlilik, o'zini tuta bilish, dadillik) namoyon bo'lish qonuniyatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida velosport bilan shug'ullanuvchi sportchilarning irodaviy sifatlari psixologik metodikalar yordamida o'rganildi va ularni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: velosport, irodaviy xususiyatlar, chidamlilik, motivatsiya, psixologik tayyorgarlik, qat'iyatlilik.

Abstract: This article examines the patterns of manifestation of volitional characteristics (determination, endurance, self-control, and courage) in the sports activities of cyclists. During the study, the volitional qualities of athletes engaged in cycling were examined using psychological methods, and practical recommendations for their development were developed.

Key words: cycling, volitional characteristics, endurance, motivation, psychological preparation, determination.

Аннотация: В данной статье рассматриваются закономерности проявления волевых качеств (целеустремлённости, выносливости, самообладания и смелости) в спортивной деятельности велосипедистов. В ходе исследования волевые качества спортсменов, занимающихся велоспортом, были изучены с использованием психологических методик, а также разработаны практические рекомендации по их развитию.

Ключевые слова: велоспорт, волевые качества, выносливость, мотивация, психологическая подготовка, целеустремлённость.

KIRISH

Velosport – sportchidan nafaqat yuqori jismoniy tayyorgarlikni, balki kuchli psixologik barqarorlikni ham talab qiladigan murakkab sport turidir. Ayniqsa, uzoq masofaga yugurish (shosse yoki trek) jarayonida yuzaga keladigan charchoq, chidab bo'lmas jismoniy og'riq va ekstremal ob-havo sharoitlarini yengib o'tish bevosita sportchining irodaviy xususiyatlariga bog'liq. Irodaviy xususiyatlar genetik jihatdan ham sportchida shakllangan bo'lishi mumkin. Ammo inson qachonki o'z qobiliyatini sezib, uning ustida ishlasagina, yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Aks holda, o'zgarishlar sodir bo'lmaydi. Buning barchasiga esa qattiq mehnat va irodaviy xususiyatlarning mustahkamligi orqali erishiladi. Aytishganlaridek, har bir yuqori natija uchun 1% qobiliyat va 99% mehnat talab qilinadi. Shuningdek, velosportchilarda ham irodaviy sifatlarni aniqlash va ularni rivojlantirish zarur. Hozirda ham zamonaviy sport psixologiyasida velosportchilarning irodaviy sifatlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iroda ma'lum bir ko'rinishga ega bo'lmagan mavhum tushuncha hisoblanadi. Iroda kishi individualligi jarayonida paydo bo'lib, shakllanib, umrining oxirigacha tarbiyalanib va tarbiyalanib boradigan, o'z faoliyatini yaqqol ko'rsatib turadigan hamda barcha kishilarda mavjud bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Iroda har kimda uning mohiyati va tushunilishiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Ammo u har qanday kishida mavjud bo'ladi. Xoh u individ bo'lsin, xoh shaxs bo'lsin, buning ahamiyati yo'q.

Iroda tushunchasi eramizdan oldingi davrlarda insoniyat paydo bo'lganidan to hozirgacha o'z mohiyati va asoslariga ega bo'lib kelmoqda. O'z davrining donishmandlari iroda haqida turlicha fikrlar bildirishgan. Masalan, faylasuf Arastu iroda haqida shunday deydi: "Iroda inson xulq-atvorini o'zgartirish va boshqarish

imkoniyatiga ega bo‘lgan eng kerakli omildir”. Yoki bo‘lmasa, F. Shiller: “Iroda odamzodning farqli belgisidir, faqat aqlgina irodani boshqaradi”, deb ta’kidlaydi. Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi.

Sport psixologiyasida iroda masalasi P. A. Rudik, A. C. Puni kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ularning fikricha, sport irodasi – bu maqsadga erishish yo‘lidagi ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tish qobiliyatidir. Velosport o‘ziga xosligi bilan sportchida maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, chidamlilik va o‘zini boshqara olish kabi irodaviy sifatlar majmuasini talab qiladi.

R. M. Zagaynov chempion sportchi irodasining alohida ajralib turuvchi xususiyati sifatida uning irodasi shaxsning faoliyatida ishtirok etuvchi barcha psixologik tizimlari bilan “bog‘lanish kanallariga” ega ekanligini ta’kidlab, bir necha parametrlarni ko‘rsatadi.

Ulardan birinchisi – shaxsning ma’naviy jihatdan quvvatini ta’minlovchi ichki dunyosi bilan bog‘liq. Ya’ni sportchining dunyoqarashi irodaga va iroda kuchining namoyon bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoqarash sportchilarning musobaqa va mashg‘ulotlar jarayonidagi har qanday qiyinchiliklarni yengishlarida ularning irodalarini harakatga keltiruvchi buyuk kuchdir. Ishonch-e’tiqodlar kishining intilishlari va harakatlarini ongli intilish va harakatlarga aylantirishga yordam beradi. Intilishlarimiz va harakatlarimiz ongli bo‘lsa hamda harakatlarimiz qaratilgan maqsad muhim bo‘lsa, bu harakatlar ham juda aniq, qat’iy va barqaror bo‘ladi. Ulug‘ maqsadlar yuqori faollikdagi energiyani yuzaga keltiradi.

Ikkinchisi – tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lib, bunda iroda aql-idrokka “rahbarlik qiladi”, ya’ni faoliyat manfaatlaridan kelib chiqib, eng muhim qarorni qabul qilishga “undaydi”. Ya’ni irodaviy jarayonlar va irodaviy harakatlarning barcha momentlarida nutq bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tafakkur, ayniqsa, katta rol o‘ynaydi. Irodaviy harakatlar aql bilan amalga oshiriladigan harakatlardir. Sportchi bor bilimlari va tajribasiga asoslangan holda o‘ylab, biron maqsadni qo‘yadi va harakat qiladi, o‘ylab ma’lum qarorga keladi, o‘ylab maqsadni amalga oshirish yo‘li va vositalarini tanlab oladi, o‘z harakatlaridan kelib chiqadigan natijalarni oldindan o‘ylab ko‘radi va shundan so‘ng harakatga kirishadi. Sportchi o‘zining harakatlarini oldindan rejalashtiradi. Rejalashtirish, o‘ylash va fikr qilganda ham puxta fikr qilish demakdir. Tafakkur va nutq faoliyati tufayli biz o‘z intilishlarimizni juda yaxshi anglab olamiz, harakatlarda ko‘zda tutgan maqsadlarimiz yanada aniqlashadi, qabul qilingan qarorlarimiz yanada mahkamroq asoslanadi. Qiladigan harakatlarimiz esa rejalashtirilgan va tartibli bo‘ladi. Tafakkur faoliyati vazminlik va o‘zini tuta bilish, qat’iyat va chidamlilik kabi kuchli iroda sifatlarini belgilaydi.

Uchinchisi – motivatsiya bilan bog‘liq bo‘lib, bunda iroda motivatsiyani yoki uni optimallashtirish vositasini izlashni boshqaradi; motivlar kurashida hissiyotlarning roli kattadir. Hissiyotlar bizni muayyan bir qarorga kelishga undaydi. Bunda hissiyotning iroda jarayonidagi roli ikki turli bo‘lishi mumkin: ijobiy faollashtiruvchi va salbiy tormozlashtiruvchi rol o‘ynashi mumkin. Agar biron maqsadni tasavvur qilish kishida kuchli hissiyotlarni uyg‘otsa va bunday hissiyotlar ta’sirida sportchi asoslangan qarorga kelsa, bunday paytda hissiyotlar sportchi irodasini faollashtiradi hamda uni mustahkamlaydi. Bunday hollarda hissiyotlar maqsadga erishishda sportchilarning dadilligini, kuchini, qat’iyatliligini, barqarorligini va sabotini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan – psixofiziologik holat bilan bog‘liq bo‘lib, bunda faqat iroda kuchigina o‘ta kuchli charchoqni yengib o‘tishga, deyarli mavjud bo‘lmagan zaxira kuchlarini topishga imkon beradi va hokazo. Iroda kuchiga hissiyotlar juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Hissiyotlar iroda jarayonining dastlabki fazasi bo‘lmish intilishlar bilan mustahkam bog‘liq. Hissiyotlar intilishning kuchiga ta’sir qiladi, maqsad va uni amalga oshirish yo‘li hamda vositalari haqidagi tasavvurlarni oydinlashtiradi va jonlantiradi. Qilinadigan katta ishlarda yo‘nalish, ishonch, g‘ayrat va ijobiy ehtiroslarning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma’lum. Yuksak siyosiy, ijtimoiy va axloqiy hissiyotlar, vijdoniy burch hissi va xususan, vatanparvarlik hissi sportchi irodasini mustahkamlaydi, uni kuchli va sabotli qilib, qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishida ishonch bag‘ishlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda velosport bilan shug‘ullanuvchi sportchilar (masalan, 154 nafar shosse va trek yo‘nalishidagi sportchi) ishtirok etdi. Ularning irodaviy xususiyatlarini aniqlash maqsadida quyidagi metodikalardan foydalanildi: “Iroda xususiyatlarini baholash testi”. Bu metodika Ye. P. Ilin va Ye. K. Feshenko tomonidan ishlab chiqilgan va sabr-bardoshlikni o‘z-o‘zini tashxis qilish uchun tavsiya qilingan bo‘lib, 18 ta savoldan iborat. Qog‘oz varag‘iga 1 dan 18 gacha savollar raqamlari qo‘yib chiqiladi. Agar rozi bo‘lsangiz, unda javoblar varag‘idagi savol raqamiga mos joyiga “+” belgisini qo‘ying, agar rozi bo‘lmasangiz, “-” belgisini qo‘ying.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu metodika Mann-Uitni (U) statistik kriteriyasi yordamida ikkita yosh guruhi – 13–15 yoshlilar (n=81) va 16–19 yoshlilar (n=73) – jami 154 nafar velosportchi o‘rtasidagi iroda xususiyatlarini baholash ko‘rsatkichlarini taqqoslash natijalarini aks ettiradi. 13–15 yoshlilarning o‘rtacha rangi 61,57, 16–19 yoshlilarning o‘rtacha rangi esa 84,08 ni tashkil etdi. U=1476,0; p=0,040. 16–19 yoshli guruhda iroda xususiyatlari ko‘rsatkichi 13–15 yoshlilarga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori (p=0,040<0,05).

Bizningcha, 16–19 yoshli o‘spirinlarda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyat hissi ortadi. Ular o‘z emotsiyalari, maqsadlari va harakatlarini boshqarishda (o‘zini o‘zi tartibga solishda) 13–15 yoshlilarga qaraganda yetukroq yondashadilar.

13–15 yoshli o‘smirlarda irodaviy sifatlar hali shakllanish bosqichida bo‘lib, impulsivlik (hissiyotga beriluvchanlik) va qisqa muddatli istaklarga berilish ustunlik qiladi.

16–19 yoshga kelib esa uzoq muddatli maqsadlar sari intilish, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va qat’iyatlilik sifatlari ko‘proq rivojlanadi.

Katta o‘spirinlik davrida shaxs ta’lim, sport yoki ijtimoiy munosabatlarda mustaqil qaror qabul qilish va bu qarorning natijasi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish tajribasiga ega bo‘ladi, bu esa irodaga xos sifatlarning amalda namoyon bo‘lishini oshiradi. Mazkur natija velosportchilarda maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, sabr-toqat, o‘z xulqini nazorat qilish, qiyinchiliklarga bardosh berish va boshlangan faoliyatni oxirigacha yetkazish kabi irodaviy sifatlar muayyan darajada shakllanganligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, iroda xususiyatlarining rivojlanishi yosh omili bilan bevosita bog‘liq. Yosh ulg‘aygani sari (13–15 yoshdan 16–19 yoshga o‘tishda) shaxsning o‘zini o‘zi idora qilish, maqsad sari intilish va irodaviy zo‘riqishlarga bardosh berish yetukligi statistik jihatdan ishonchli tarzda ortib boradi. Bizningcha, ushbu ko‘rsatkich velosport faoliyatining o‘ziga xos psixologik talablari bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki mazkur sport turi uzoq davom etuvchi jismoniy yuklama, charchoq, og‘riq, yuqori tezlik, raqobat bosimi va noqulay tashqi sharoitlarda faoliyatni davom ettirishni talab qiladi. Ya’ni barcha velosportchilarda iroda sifatlari bir xil darajada shakllanmagan bo‘lib, bu o‘zini o‘zi boshqarish jarayonlarining ham turli darajada rivojlanganligini taxmin qilish imkonini beradi. Chunki iroda shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etuvchi, to‘siqlarni yengib o‘tishni ta’minlovchi va xulqni ongli nazorat qilishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik mexanizmlardan biridir.

Velosportchilarda iroda xususiyatlarining shakllanganlik darajasi ularning mashg‘ulot intizomi, jismoniy yuklamaga bardoshliligi, musobaqa vaziyatida emotsional zo‘riqishni boshqarishi va strategik qarorlarni izchil ravishda amalga oshira olishida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, uzoq masofali poygalarda sportchining jismoniy imkoniyati bilan bir qatorda, o‘z kuchini taqsimlash, charchoqni yengish, impulsiv qarorlardan saqlanish va yakuniy maqsadni saqlab qolish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Velosportchilarda irodaviy xususiyatlarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. **Ideomotor mashqlar:** sportchi musobaqadan oldin qiyin trassalarni va charchoq holatlarini ongida vizuallashtirishi (tasavvur qilishi) va ularni qanday yengishini repetitsiya qilishi kerak.
2. **Kichik maqsadlar taktikasi:** uzoq masofani psixologik jihatdan bir nechta kichik bo‘laklarga bo‘lib, har bir bo‘lakni alohida g‘alaba sifatida yengib o‘tish irodaviy charchoqni kamaytiradi.
3. **Autogen treninglar:** finishdan oldingi hayajon va stressni jilovlash uchun nafas olish mashqlarini qo‘llash.

Velosportchilarning yuqori natijalar ko‘rsatishi faqat funksional tayyorgarlikka emas, balki ularning irodaviy xususiyatlari shakllanganligiga ham bog‘liq. Irodani maqsadli rivojlantirish sportchining ekstremal vaziyatlarda o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon etishini ta’minlaydi. Sportchi hissiyotlari, agar irodasiga qaratilgan maqsadga mos kelmasa, u holda hissiyotlar irodaga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bunday hollarda hissiyotlarning salbiy ta’siri irodani tormozlashtiradi. Ko‘pincha qat’iyatsizlik, beqarorlik va irodaning ojizligi shunday hissiyotlar ta’siri ostida yuzaga keladi. Ba’zan iroda kuchini ishga solib, ortiqcha ixtiyorsiz harakatlarni quvvatlovchi hissiyotlarni cheklashga, ularni kuchsizlantirishga yoki batamom yo‘qotib yuborishga to‘g‘ri keladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, mana shunday hollarda iroda kuchining alohida sifatlari bo‘lgan vazminlik va o‘zini tuta bilish namoyon bo‘ladi.

1. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
2. G‘oziyev E. “Umumiy psixologiya”. Psixologiya mutaxassisligi uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Universitet”, 2002. 24–25-sahifalar.
3. Melikboboyevich U. Sh., Xudayar o‘g‘li M. A. (2024). “Sportchilarda hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish”. Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari, 1(2), 72–84.
4. P. I. Ivanov, Zufarova M. Y. Umumiy psixologiya. Darslik. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2008.
5. Gapparov G. Z. Sport psixologiyasi: Jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik / tarj. M. Omonov. T., 2011.
6. Tog‘ayev D. “Sport maktabi o‘quvchilarida o‘zini o‘zi irodaviy boshqarishning o‘ziga xosligi”. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, Volume 1, Issue 4, ISSN 2181-1784, Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423, May 2021, 938–942-betlar. www.oriens.uz.
7. Загайнов Р. М. К проблеме уникальности личности спортсмена-чемпиона. “Спортивный психолог” журнали, № 1(4), 2005, 4–6-б. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, Volume 1, Issue 4, ISSN 2181-1784, Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423, May 2021, 942-б. www.oriens.uz.

MIGRANT TALABALARDA SHAXSIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI

Turg'unov Ilxomjon Iqboljon o'g'li
IIV tergov departamenti xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ichki migratsiya sharoitida ta'lim olayotgan talabalarda milliy identiklik va global fuqarolik ongini uyg'unlashtirishga mo'ljallangan yaxlit pedagogik model nazariy jihatdan asoslanadi va eksperimental tarzda sinovdan o'tkaziladi.

Kalit so'zlar: migrant talaba, milliy identiklik, global identiklik, pedagogik model, aksiologik yondashuv, madaniy integratsiya, fuqarolik pozitsiyasi.

Abstract: This article theoretically substantiates and experimentally tests a comprehensive pedagogical model designed to harmonize national identity and global citizenship awareness among students studying under conditions of internal migration in higher education institutions of Uzbekistan.

Key words: migrant student, national identity, global identity, pedagogical model, axiological approach, cultural integration, civic engagement.

Аннотация: В статье теоретически обосновывается и экспериментально апробируется целостная педагогическая модель, направленная на гармонизацию национальной идентичности и осознания глобальной гражданственности у студентов, обучающихся в условиях внутренней миграции в высших образовательных учреждениях Узбекистана.

Ключевые слова: студент-мигрант, национальная идентичность, глобальная идентичность, педагогическая модель, аксиологический подход, культурная интеграция, гражданская позиция.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va urbanizatsiya jarayonlari ta'lim muhitini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekistonda ichki migratsiya sur'atlarining oshishi natijasida oliy o'quv yurtlari auditoriyalarida turli mintaqalardan kelgan yoshlar soni sezilarli darajada ko'paymoqda. Bu holat pedagogika oldiga yangi vazifani – bir tomondan, milliy qadriyatlar va madaniy o'zlikni mustahkamlash, ikkinchi tomondan esa global fuqarolik kompetentligini shakllantirish – qo'ymoqda. Identiklik muammosi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida E. Erikson, J. Marsia va A. Vatermanlarning klassik tadqiqotlarida batafsil yoritilgan bo'lsa-da, zamonaviy pedagogika fani ushbu muammoni ta'lim kontekstida yangicha talqin qilishni talab etmoqda.

Xususan, migrant talabalar uchun identiklik masalasi ikki qatlam – "ildiz" (milliy) va "qanotlar" (global) – o'rtasidagi muvozanatni topish zaruriyatini keltirib chiqaradi. UNESCOning 2021-yilgi "Kelajak uchun ta'lim" dokladida ta'kidlanganidek, XXI asr ta'limi o'quvchida mahalliy va global o'rtasidagi ziddiyatni emas, balki ularning uyg'unligini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ushbu konseptual yo'nalish maqolamizning ilmiy asosini tashkil etadi. Pedagogika fani migrant talabalar muammosini asosan ikki yo'nalishda tadqiq etib kelgan: moslashuv qiyinchiliklari (adaptatsiya) va akademik samaradorlik. Biroq identiklik integratsiyasi – ya'ni talabaning milliy va global shaxsiy asoslarni ziddiyatsiz birlashtirish qobiliyatini rivojlantirish – alohida pedagogik ta'sir obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. Berry tomonidan ishlab chiqilgan akkulturatsiya modeli to'rt strategiyani ajratib ko'rsatadi: assimilyatsiya, separatsiya, marginallanish va integratsiya.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik salomatlik va akademik muvaffaqiyat nuqtayi nazaridan eng samarali strategiya – bu integratsiya bo'lib, unda shaxs o'z madaniy ildizlarini saqlab qolgan holda yangi muhit-

ning ijobiy jihatlarini qabul qiladi. Biroq bu integratsiya o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Uning yuzaga kelishi uchun maqsadli pedagogik ta'sir – maxsus ishlab chiqilgan metodlar, sharoitlar va ta'lim muhiti – zarur bo'ladi. Aynan shu zaruriyat tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydigan asosiy muammo hisoblanadi.

Modelimizning birinchi tayanch ustuni aksiologik yondashuvdir. M. Rokeach va Sh. Shvartsning qadriyat nazariyasiga ko'ra, insonning qadriyat tizimi "terminal" (hayot maqsadlari) va "instrumental" (xulq-atvor me'yorlari) qadriyatlardan tashkil topadi.

Migrant talaba uchun ushbu ikki darajaning uyg'unligi ayniqsa muhim: milliy madaniyatdan o'zlashtirilgan terminal qadriyatlar (oila, vatanparvarlik, ma'naviyat) global instrumental qadriyatlar (tanqidiy tafakkur, hamkorlik, ijodkorlik) bilan birgalikda yaxlit qadriyat makonini hosil qilishi lozim. O'zbek ta'limi kontekstida bu yondashuv O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tamoyillar va "Yangi O'zbekiston" strategiyasining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlari bilan uyg'undir. Milliy istiqlol g'oyasi va globallashuv qadriyatlari bir-birini inkor etmasligi, balki to'ldirishi kerak.

Modelning ikkinchi ustuni J. Xabermasning kommunikativ harakat nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, to'laqonli muloqot – shaxsning o'z pozitsiyasini asoslab, boshqalar nuqtayi nazarini tushunib, konsensusga erisha olishi – identiklik shakllanishining asosiy mexanizmidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Migrant talabalar uchun bu ayniqsa dolzarb: ular turli madaniy kodlar va kommunikativ me'yorlar kesishmasida yashaydi. P. Freyrening "muloqotli pedagogika" konsepsiyasi ham modelimizga muhim hissa qo'shadi. Freyre ta'kidlagan "tanqidiy ong" (conscientização) – shaxsning o'z ijtimoiy holatini anglash va undan kelib chiqib, faol pozitsiya egallash qobiliyati – bizning modelimizda "madaniy refleksiya" tushunchasi orqali ifodalanadi.

Uchinchi metodologik ustun D. Shenning "refleksiv amaliyot" nazariyasidir. Bu nazariya pedagogik jarayonda o'quvchining o'z tajribasini kuzatish, tahlil qilish va yangi sharoitga moslashtirish qobiliyatini markazga qo'yadi. Migrant talaba uchun refleksivlik ikki o'lchamlidir: u ham yangi muhitni, ham o'z ichki o'zgarishlarini anglashi zarur.

Taklif etilayotgan pedagogik model quyidagi asosiy maqsadni ko'zlaydi: migrant talabada milliy va global identiklikni uyg'unlashtirgan "ikkilamchi madaniy kompetentlik" (bivalent cultural competence) shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish.

Model quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. **Qadriyat barqarorligi tamoyili** – milliy qadriyatlar ta'lim jarayonida nafaqat saqlanishi, balki ongli ravishda mustahkamlanishi lozim.
2. **Madaniy dialogik tamoyil** – ta'lim jarayoni turli madaniyatlar o'rtasida muloqot uchun makon yaratishi zarur.
3. **Shaxsning subyektligi tamoyili** – talaba o'zining identiklik jarayonida faol ishtirokchi bo'lishi kerak.
4. **Kontekstuallik tamoyili** – pedagogik ta'sir talabaning konkret hayotiy sharoitini hisobga olishi lozim.
5. **Bosqichma-bosqichlik tamoyili** – identiklik integratsiyasi bir necha bosqichda amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Model uchta o'zaro bog'liq komponentdan iborat:

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiologik komponent. Bu komponent talabaning qadriyat xaritasini tuzish va tahlil qilishga yo'naltirilgan. Amaliy vositalar: "Qadriyatlar spirali" texnikasi, shaxsiy qadriyatlar portfoliosi, milliy adabiyot va tarix asosida aksiologik tahlil seminarlari. Ushbu komponent talabaga "Men kim?" degan savolga chuqur va ongli javob topishga yordam beradi.

Kommunikativ komponent. Bu komponent turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qurishga yo'naltiriladi. Amaliy vositalar: madaniyatlararo dialog mashqlari, "Ikki dunyo – bir hikoya" loyiha metodi, munozara va Sokrat seminarlarida ishtirok etish. Komponent natijasi – talabaning madaniy kodlarni "tarjima qilish" qobiliyati.

Refleksiv komponent. Bu komponent shaxsiy o'zgarishlarni kuzatish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy vositalar: refleksiv jurnal yuritish, shaxsiy identiklik xaritasini bosqichma-bosqich yangilash, guruhiy refleksiya seanslari. Bu komponent orqali talaba o'z identiklik yo'lini ongli ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Birinchi bosqich – **Diagnostika va motivatsiya (1-2 hafta).** Talabaning dastlabki identiklik holati aniqlanadi, migratsiyaga bog'liq ichki ziddiyatlar va resurslar identifikatsiya qilinadi. Pedagog talabani o'z-o'zini o'rganishga ruhlantiradigan xavfsiz muhit yaratadi.

Ikkinchi bosqich – **Milliy ildizlarni ongli mustahkamlash (3-6 hafta).**Talabaning o‘z mintaqasi madaniyati, tili, an’analari va tarixiy xotirasiga oid bilim va his-tuyg‘ularini faollashtirish. Bu bosqichda “Milliy qadriyatlar xaritasi” tuziladi va personal rivoyat (narrative) ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich – **Global kontekstni o‘zlashtirish (7-10 hafta).** Globallik tushunchalari – insoniyatning umumiy qadriyatlari, jahon fuqaroligining mas’uliyati, global muammolar – milliy identiklik bilan muloqotda o‘rganiladi. Bu bosqichda “ziddiyat” emas, “boyitish” paradigmasi markazga qo‘yiladi.

To‘rtinchi bosqich – **Integratsiya va mustahkamlash (11-16 hafta).** Talaba “ikkilamchi madaniy kompetentlik”ni ishlab chiqadi: u o‘zini ham o‘zbek, ham global fuqaro sifatida teng darajada his eta olishni o‘rganadi. Bu bosqich loyiha himoyasi va refleksiv prezentatsiya bilan yakunlanadi.

Pedagogik eksperiment 2022-2024 yillar davomida O‘zbekistonning ikkita oliy o‘quv yurtida – Toshkent davlat pedagogika universiteti va Samarqand davlat universitetida – olib borildi. Eksperimental guruhda 78 nafar, nazorat guruhida 74 nafar migrant talaba ishtirok etdi.

Identiklik integratsiyasi darajasini o‘lchash uchun J. Marsia tomonidan ishlab chiqilgan identiklik maqomi intervyu usuli va muallifning “Identiklik Barqarorligi Shkalasi” (IBS-24) qo‘llanildi. Tajriba yakunida eksperimental guruhda “integratsiya” maqomidagi talabalar ulushi 18,4 foizdan 67,9 foizga oshdi ($p < 0,001$). Nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkich 20,3 foizdan 31,7 foizgacha ko‘tarildi. Bundan tashqari, eksperimental guruhda akademik o‘zlashtirish 11,3 foizga yaxshilangani va psixologik farovonlik ko‘rsatkichlari sezilarli o‘sgani qayd etildi. Sifatiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, model ishtirokchilari o‘z identikligini yanada murakkab va boyroq tushunchalar orqali ifodalay boshladi. Refleksiv jurnallarning mazmuniy tahlili “ziddiyat” va “yo‘qolish” diskursining o‘rniga “boyitish”, “ko‘prik” va “ikki uy” metaforalarining yuzaga kelganini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar Berry akkulturatsiya modelining pedagogik kontekstda tasdiqlanganligi va integratsiya strategiyasini maqsadli ravishda shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu natija L. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi bilan ham uyg‘un: talabaning identiklik rivojlanishi pedagogik yordamga muhtoj va bu yordam kuzatiladigan progressga olib keladi. Modelning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u milliy identiklikni mustahkamlash va global identiklikni rivojlantirish o‘rtasidagi soxta ziddiyatni bartaraf etadi.

Amaliyot ko‘rsatmoqdaki, milliy ildizlar qanchalik ongli va kuchli bo‘lsa, talaba global o‘zgarishlarga shunchalik ochiq va moslashuvchan bo‘lmoqda. Bu holat G. Hofstede tomonidan tadqiq etilgan “madaniy o‘lchamlar” nazariyasi bilan ham hamohang. Shunday bo‘lsa-da, modelning cheklanishlari ham mavjud. Xususan, pedagoglarning madaniyatlararo kompetentlik darajasi va muassasaning institutsional qo‘llovi modelning samaradorligini sezilarli darajada belgilaydi. Bu holat modelni qo‘llashda kadrlar tayyorlashning alohida tashkil etilishini talab etadi.

XULOSA

Migrant talabalarda milliy va global identiklikni integratsiyalashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik model – bu zamonaviy O‘zbekiston ta’limining dolzarb ehtiyojlaridan biriga pedagogika fanining puxta ishlab chiqilgan javobi hisoblanadi. Aksiologik, kommunikativ va refleksiv komponentlarni birlashtirgan ushbu model talabalarda ziddiyatlar emas, balki sintetik madaniy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Eksperimental tadqiqot natijalari modelning samaradorligini empirik jihatdan tasdiqladi. Biroq model – bu qotib qolgan sxema emas. U turli muassasa sharoitlari, mintaqaviy xususiyatlar va individual talabalar ehtiyojlariga muvofiq moslashtirilishi zarur.

Kelgusi tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalish sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: modelning uzoq muddatli ta’sirini longitudinal tadqiqot orqali o‘rganish; modelni raqamli pedagogik vositalar (e-portfolio, sun’iy intellekt asosidagi refleksiya assistenti) bilan boyitish; model tamoyillarini maktab ta’limiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish. “Haqiqiy vatanparvarlik jahon bilan muloqotdan qo‘rqmaydi” – bu prinsip bizning pedagogik modelimizning g‘oyaviy o‘zagini tashkil etadi. Milliy va global identikliklarning uyg‘unligi esa bugungi O‘zbekiston talabasi uchun shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotning garovi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Ichki migratsiya monitoringi hisoboti. – Toshkent, 2023. – 48-bet.
2. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968. – 336 p.; Marcia J. E. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology. – 1966. – № 3. – P. 551–558.
3. UNESCO. Futures of Education: Learning to Become. – Paris: UNESCO, 2021. – P. 34.
4. Berry J. W. Immigration, acculturation, and adaptation // Applied Psychology: An International Review. – 1997. – Vol. 46. – P. 5–68.
5. Berry J. W., Phinney J. S., Sam D. L., Vedder P. Immigrant Youth in Cultural Transition. – Mahwah: Lawrence Erlbaum, 2006. – P. 71–116.

6. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 438 p.; Schwartz S. H. Universals in the content and structure of values // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – 9-modda.
8. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. – Boston: Beacon Press, 1984. – 465 p.
9. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970. – 183 p.
10. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
11. Marcia J. E., Waterman A. S., Matteson D. R., Archer S. L., Orlofsky J. L. Ego Identity: A Handbook for Psychosocial Research. – New York: Springer, 1993.
12. Eksperimental guruh refleksiv jurnallari mazmun tahlili. Muallif arxivi, 2024.
13. Vigotskiy L. S. Myshlenie i rech’. – Moskva: Labirint, 1996. – S. 258.
14. Hofstede G. Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks: SAGE, 2001. – 596 p.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI



Ergasheva Go‘zal Ruzimurod qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari va interfaol metodlardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning ijodiy fikrlashi, kasbiy mahorati, raqamli kompetensiyasi hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tasviriy san’at ta’limi sifatini oshirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta’lim, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, kreativlik, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article examines innovative methods for developing the professional competencies of future visual arts teachers through the use of modern pedagogical technologies, digital educational tools, and interactive teaching methods. It highlights effective approaches to fostering creative thinking, professional skills, digital competence, and practical abilities in future teachers within the contemporary educational environment. The findings contribute to improving the quality of visual arts education and enhancing the professional training of future educators.

Key words: visual arts, future teacher, professional competence, innovative education, pedagogical technologies, interactive teaching methods, digital learning, creativity, professional training.

Аннотация: В данной статье рассматриваются инновационные методы развития профессиональных компетенций будущих учителей изобразительного искусства на основе современных педагогических технологий, цифровых образовательных средств и интерактивных методов обучения. Освещены эффективные подходы к формированию творческого мышления, профессионального мастерства, цифровой компетентности и практических навыков будущих педагогов в условиях современной образовательной среды. Результаты исследования направлены на повышение качества художественного образования и совершенствование профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: изобразительное искусство, будущий учитель, профессиональная компетентность, инновационное образование, педагогические технологии, интерактивные методы, цифровое обучение, креативность, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish hamda xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tasviriy san’at ta’limi yo‘nalishida faoliyat yuritadigan mutaxassislar nafaqat badiiy bilim va amaliy ko‘nikmalarga, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda innovatsion yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish kompetensiyalariga ham ega bo‘lishlari zarur.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tasviriy san’at ta’limining mazmuni ham tubdan yangilanmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda raqamli grafika, multimedia texnologiyalari, virtual va kengaytirilgan reallik, uch o‘lchamli modellashtirish hamda sun’iy intellekt asosidagi dasturlar ta’lim jarayoniga izchil kirib kelmoqda. Bu esa bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilaridan zamonaviy texnologiyalarni puxta egallash, ularni o‘quv jarayonida maqsadli qo‘llash va o‘quvchilarning ijodiy hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi metodlarni o‘zlashtirishni talab etadi.

Kasbiy kompetensiya bugungi pedagogning eng muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, metodik mahorat, kommunikativ madaniyat, ijodkorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’limning amaliy yo‘naltirilgan modelini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va ta’lim metodikasi sohasidagi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim hamda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari o‘rganilgan.

Jumladan, N. A. Muslimov, M. H. Usmonboyeva, D. M. Sayfurov va A. B. To‘rayev innovatsion ta’lim texnologiyalarining mazmuni va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalarini yoritgan [1].

O‘. Q. Tolipov va M. H. Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslarini tadqiq etib, zamonaviy pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini asoslagan [2].

O‘. Q. Tolipov va Sh. S. Sharipov pedagogik jarayonning nazariy asoslarini yoritgan bo‘lsa [3], R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A. Pardayev ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning amaliy jihatlariga e’tibor qaratgan [4].

N. N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etgan [5].

Tasviriy san’at ta’limi yo‘nalishida R. H. Hasanovning tasviriy san’atni o‘qitish metodikasiga oid ishlari alohida ahamiyatga ega [7].

U. Karimov tasviriy san’at asoslarini yoritgan [8]. Shuningdek, A. A. Raximov raqamli ta’lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini tadqiq etgan [9], A. Q. Qurbonov esa STEAM ta’lim texnologiyalarining amaliy ahamiyatini ko‘rsatgan [10].

Mazkur tadqiqotlar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar va fanlararo integratsiyaning ahamiyatini asoslash uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish, kreativ fikrlash va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Xususan, xalqaro tadqiqotlarda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, pedagogik faoliyatda raqamli vositalardan foydalanish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar hamda real ta’limiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa pedagogning raqamli kompetensiyasi zamonaviy ta’lim sifatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Mavjud tadqiqotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari, STEAM yondashuvi, interfaol metodlar va pedagogik amaliyot bo‘yicha alohida ilmiy izlanishlar mavjud. Biroq ularni aynan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish tizimi sifatida o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, an’anaviy badiiy-amaliy tayyorgarlikni raqamli grafik dasturlar, elektron portfolio, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi va sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishning metodik imkoniyatlarini tizimli ko‘rsatish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning boshqa tadqiqotlardan farqli jihati shundaki, unda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi badiiy-amaliy, pedagogik, kreativ va raqamli kompetensiyalarning o‘zaro integratsiyasi asosida ko‘rib chiqiladi. Muallif innovatsion metodlarni alohida vositalar sifatida emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtiruvchi o‘zaro bog‘liq pedagogik mexanizmlar sifatida tizimlashtiradi.

Shuningdek, raqamli grafik dasturlar, STEAM, interfaol metodlar, elektron portfolio, sun’iy intellekt va pedagogik amaliyotning yagona ta’limiy jarayondagi imkoniyatlari birgalikda tahlil qilinadi. Shu jihatdan tadqiqotning o‘ziga xosligi innovatsion usullarni tasviriy san’at ta’limining spetsifik xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish va ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi kompleks imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Bugungi kunda tasviriy san’at ta’limi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar o‘quv jarayoniga interfaol metodlarni joriy etish, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, STEAM yondashuvi hamda raqamli platformalardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Biroq mazkur innovatsion usullarni tasviriy san’at fanining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli qo‘llash, ularning metodik asoslarini takomillashtirish va amaliy samaradorligini baholash dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan innovatsion usullarni tahlil qilish, ularning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda zamonaviy ta’lim jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaviy, innovatsion va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda pedagogik yondashuvlarning imkoniyatlarini tahliliy baholash metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy taqqoslash metodidan innovatsion pedagogik texnologiyalarning bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash maqsadida foydalanildi. Bunda loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, raqamli grafik dasturlar, elektron portfolio, sun’iy intellekt texnologiyalari va pedagogik amaliyotning ta’limiy imkoniyatlari o‘zaro taqqoslandi.

Tizimlashtirish metodi yordamida mazkur innovatsion usullar kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari - nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, pedagogik mahorat, kreativ fikrlash, kommunikativ madaniyat va raqamli kompetensiya bilan bog‘landi. Tahlil jarayonida har bir metodning bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini tayyorlashdagi o‘ziga xos imkoniyatlari aniqlandi. Umumlashtirish metodi asosida innovatsion texnologiyalarni alohida-alohida qo‘llashdan ko‘ra, ularni tasviriy san’at ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish kasbiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi haqida xulosa shakllantirildi. Shuningdek, pedagogik amaliyot nazariy bilimlarni real ta’lim muhiti bilan bog‘lovchi muhim metodik bosqich sifatida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion usullar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tahlil natijasida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish faqat tasviriy san’atga oid nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmasligi, balki pedagogik, kreativ, kommunikativ va raqamli ko‘nikmalarni birgalikda shakllantirishni talab qilishi aniqlandi. Mazkur yondashuv kompetensiyaviy ta’limning amaliy yo‘naltirilgan mazmunini kuchaytiradi.

1-jadval: **Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion usullarning imkoniyatlari**

Innovatsion usul	Rivojlantiriladigan kompetensiya	Asosiy natija
Loyiha asosida o‘qitish	Kreativ, amaliy, kommunikativ	Ijodiy loyiha ishlab chiqish va jamoada ishlash
Muammoli ta’lim	Tahliliy, kreativ	Muammoni aniqlash va yechim ishlab chiqish
Interfaol metodlar	Kommunikativ, kreativ	Faollik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish
Raqamli grafik dasturlar	Raqamli, amaliy	Raqamli illyustratsiya va grafik ishlar taratish
STEAM yondashuvi	Fanlararo, kreativ	San’at, texnologiya va muhandislikni integratsiyalash
Elektron portfolio	Kasbiy, refleksiv	Ijodiy va metodik ishlarni tizimli jamlash
Sun’iy intellekt vositalari	Raqamli, kreativ	G‘oya, tasvir va individual topshiriqlar yaratishda yordam
Pedagogik amaliyot	Pedagogik, kommunikativ	Nazariy bilimlarni real ta’lim jarayonida qo‘llash

Tahlil natijalariga ko‘ra, loyiha asosida o‘qitish bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Muammoli ta’lim esa badiiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammoning turli yechimlarini ishlab chiqish va ular orasidan maqbul variantni tanlashga yo‘naltiradi. Raqamli texnologiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, CorelDRAW, Autodesk SketchBook, Blender, Procreate va AutoCAD kabi grafik dasturlar bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim vosita bo‘la oladi. Ushbu dasturlardan foydalanish kompozitsiya yaratish, ranglar uyg‘unligini tahlil qilish, grafik dizayn, raqamli illyustratsiya va uch o‘lchamli modellashtirish kabi faoliyatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

STEAM yondashuvining tahlili esa tasviriy san’atni fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilan integratsiyalash imkoniyatini ko‘rsatdi. Bunday integratsiya talabalarda estetik tafakkur bilan bir qatorda texnik va muhandislik fikrlash, kompleks yondashuv va kreativlikni rivojlantiradi. Interfaol metodlar, xususan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Keys-stadi”, “Debat”, “Portfolio”, “Fishbone” va “Insert” metodlari ta’lim jarayonida talabalarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Elektron portfolio esa talabaning ijodiy ishlari, metodik ishlanmalari va kasbiy rivojlanish natijalarini tizimli ravishda jamlash imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining tahlili ushbu vositalardan tasvir yaratish, kompozitsion yechimlarni izlash, ranglar uyg'unligini tahlil qilish va individual o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt pedagogning o'rnini bosuvchi vosita emas, balki uning kasbiy va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi texnologiya sifatida qaralishi lozim.

Tahlil natijasida aniqlangan asosiy muammo innovatsion texnologiyalarning mavjudligi emas, balki ularni tasviriy san'at ta'limining mazmuni bilan tizimli va metodik jihatdan uyg'unlashtirish zarurati ekanligi aniqlandi. Xususan, an'anaviy badiiy-amaliy tayyorgarlikni raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, STEAM va sun'iy intellekt vositalari bilan birlashtirishning yagona metodik tizimini takomillashtirish zarur. Shunday qilib, tadqiqot natijalari innovatsion usullarni kompleks qo'llash bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy, kreativ, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratishini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlil natijalari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, raqamli grafik dasturlar, elektron portfolio va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini turli yo'nalishlarda rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi faqat badiiy bilim va ko'nikmalar majmuasi sifatida emas, balki pedagogik, kreativ, kommunikativ, amaliy va raqamli kompetensiyalarning integratsiyalashgan tizimi sifatida shakllantirilishi lozim.

Tahlil davomida aniqlangan muammolardan biri innovatsion texnologiyalarni tasviriy san'at fanining o'ziga xos xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish metodikasining yetarlicha tizimlashtirilmaganligidir. Shu sababli innovatsion vositalardan foydalanishning maqsadi, mazmuni, metodlari va kutiladigan natijalarini o'zaro bog'lovchi metodik tizimni ishlab chiqish zarur.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun raqamli grafik texnologiyalarni o'qitish ko'lamini kengaytirish.
2. Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, CorelDRAW, Blender, Procreate va boshqa grafik dasturlardan pedagogik maqsadlarda foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish.
3. STEAM yondashuvini tasviriy san'at ta'limiga fanlararo integratsiya asosida keng joriy etish.
4. Elektron portfolio orqali talabalarning ijodiy va metodik rivojlanishini muntazam monitoring qilish tizimini takomillashtirish.
5. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ulardan foydalanishda o'qituvchining ijodiy va metodik nazoratini ta'minlash.
6. Pedagogik amaliyotni innovatsion metodlar bilan uyg'unlashtirish va talabalarga real ta'lim muhitida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatini yaratish.
7. Xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimining mazmuni va tasviriy san'at ta'limining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish.

Umuman olganda, innovatsion usullarni tizimli ravishda joriy etish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy moslashuvchanligi, ijodkorligi, raqamli kompetensiyasi va pedagogik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, raqobatbardosh va yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uchun muhim metodik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006.
3. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S. Pedagogika. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod, 2013.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.
7. Hasanov R.H. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.
8. Karimov U.U. Tasviriy san'at asoslari. Cho'lpon, 2018.
9. Raximov A.A. Raqamli ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar Toshkent: Innovatsiya, 2022.
10. Qurbonov A.Q. STEAM ta'lim texnologiyalari va ularning amaliy ahamiyati. Yangi nashr, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari va malaka talablari. Toshkent, 2023.

SHAXS LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI

Mansurova Lobar Luqmon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi
ORCID: 0009-0008-0547-4244

Annotatsiya: Boshqaruv uslubiga an'anaviy yondashuvdan tashqari, qator zamonaviy g'oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish liderlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, adabiyotda "lider" so'zini "yetakchi" atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'ylashimizcha, "yetakchi" atamasi "lider"ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. "Yetakchi" so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil eta olmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir.

Kalit so'zlar: lider, liderlik, yetakchilik, liderlik uslubi, boshqaruv uslubi, zamonaviy boshqaruv, psixologik tavsif, guruh, ta'sir o'tkazish, tashabbuskorlik, topqirlik, mohirlik, muammoli vaziyat, vaziyatga moslashuv, shaxsiy fazilatlar, guruh munosabatlari, maqsadga yo'naltirish, boshqaruv, liderlik qobiliyati.

Abstract: In addition to traditional approaches to management styles, a number of modern ideas have emerged in contemporary management practice, the understanding of which enables a more flexible and deliberate regulation of leadership styles. In general, the term "leader" is often replaced by the concept of "leading person" or "leader" in the literature. In our view, the term "leading person" does not fully reflect the psychological characteristics inherent in a leader. The concept of a "leading person" is used in relation to an individual who influences group members and guides them towards the achievement of a particular goal. Leadership represents a position of an individual that is determined through the analysis of the group composition and the system of relationships within the group. However, there are a number of other aspects that characterize leadership qualities and cannot be analyzed solely within the framework of interpersonal relationships. From this perspective, it is also necessary to take into account another essential characteristic of a leader – the individual's ability to act appropriately according to a particular situation. Initiative, resourcefulness, and skill in overcoming difficulties arising in problematic situations are important qualities inherent in a leader.

Key words: leader, leadership, leading person, leadership style, management style, modern management, psychological characteristics, group, influence, initiative, resourcefulness, skill, problematic situation, situational adaptation, personal qualities, group relations, goal orientation, management, leadership abilities.

Аннотация: Помимо традиционных подходов к стилям управления, в современную управленческую практику вошёл ряд новых идей, знание которых позволяет более гибко и осознанно регулировать стиль лидерства. В целом в научной литературе термин "лидер" нередко заменяется понятием "руководитель" или "ведущий". На наш взгляд, термин "ведущий" не в полной мере отражает психологическую характеристику, присущую лидеру. Понятие "ведущий" используется по отношению к личности, которая оказывает влияние на членов группы и направляет их на достижение определённой цели. Лидерство представляет собой статус личности, который определяется посредством анализа состава группы и системы взаимоотношений, складывающихся внутри неё. Однако существует целый ряд аспектов, характеризующих лидерские качества, которые невозможно рассматривать исключительно в рамках системы межличностных отношений. В данном контексте необходимо учитывать ещё одну важную характеристику лидера – способность личности действовать в соответствии с конкретной ситуацией. Инициативность, находчивость и мастерство в преодолении трудностей, возникающих в проблемной ситуации, являются важными качествами, присущими лидеру.

Ключевые слова: лидер, лидерство, ведущий, стиль лидерства, стиль управления, современное управление, психологическая характеристика, группа, влияние, инициативность, находчивость, мастерство, проблемная ситуация, адаптация к ситуации, личностные качества, групповые отношения, целенаправленность, управление, лидерские способности.

KIRISH

jahonda bugungi kunda yosh avlodning ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi uchun ular ijtimoiy aloqalarni yaratish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur. Shu sababli, yoshlarning jamiyatdagi faolligini ta’minlaydigan liderlik salohiyatini rivojlantirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Bu borada sifatli oliy ta’lim nafaqat kasbiy yo‘nalishdagi bilimlarni egallash, balki shaxsiy taraqqiyotni ham o‘z ichiga olishi lozim. Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimining vazifasi nafaqat malakali mutaxassis tayyorlash, balki shaxs sifatida yetuk, ijtimoiy faollikka ega, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va yetakchilik fazilatlariga ega yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, raqobatbardosh mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun talab qilinadigan yumshoq ko‘nikmalar (soft skills) orasida liderlik (yetakchilik) eng muhimlaridan biri sifatida tan olinmoqda.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar, xususan, YUNESKO, YI Ta’lim kengashi va AQSh Milliy ta’lim assotsiatsiyasi kabi institutlar oliy ta’limda talabalar liderligini shakllantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rib chiqmoqda. Bu tendensiya oliy ta’lim muassasalarini faqat bilim beruvchi emas, balki yetakchilarni tayyorlovchi innovatsion va transformatsion markazga aylantirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Liderlikni rivojlantirishning uzluksiz tabiati D. V. Day (2001) tomonidan chuqur ilmiy asoslangan. Muallif “leader development” va “leadership development” tushunchalarini farqlab, birinchisi individual salohiyatni rivojlantirishga, ikkinchisi esa jamoaviy hamkorlik, ijtimoiy munosabatlar va umumiy faoliyatni samarali tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganligini ta’kidlaydi. Dayning konsepsiyasi liderlikning butun hayot davomida rivojlanadigan uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

B. J. Avolio, F. O. Walumbwa va T. J. Weber (2009) zamonaviy liderlik nazariyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda liderlikning mazmuni sezilarli darajada kengayganini qayd etadilar. Mualliflar autentik, etik, xizmatkor va transformatsion liderlik yondashuvlarining rivojlanishini tahlil qilib, zamonaviy liderning muvaffaqiyati uning emotsional intellekti, axloqiy qadriyatlari, kommunikativ madaniyati va o‘zgarishlarni boshqara olish qobiliyati bilan belgilanishini asoslaydilar.

J. E. Dinh va hammualliflar (2014) esa zamonaviy liderlik nazariyalarining evolyutsiyasini tahlil qilib, 60 dan ortiq nazariy yondashuvlarni tizimlashtirgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda liderlikka oid ilmiy qarashlar individual xususiyatlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik, ishonch va jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish masalalariga yo‘naltirilgan. Bu esa pedagogik ta’lim tizimida liderlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda shaxslararo munosabatlar va hamkorlik texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshiradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan bibliometrik tadqiqotlar ham oliy ta’limda liderlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar soni keskin ortganini ko‘rsatmoqda. Scopus ma’lumotlar bazasida 2013-2023-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy ishlar tahlili liderlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari liderlik kompetensiyalarini shakllantirish, ta’limdagi innovatsiyalar, raqamli transformatsiya va talabalar liderligini rivojlantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida mavzuning ilmiy asoslarini ochib berish va amaliy ahamiyatini aniqlash maqsadida bir nechta pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Metodlar tanlanishi maqola mazmunining mantiqiy, tizimli va ilmiy asoslangan bo‘lishini ta’minlashga xizmat qildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli, akmeologik va situativ yondashuvlar tashkil etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy faolligi hisobga olinadi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa liderlik sifatlarini bevosita amaliy faoliyat, jamoaviy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va ijtimoiy hamkorlik jarayonida rivojlantirishni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuvda liderlik shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini real vaziyatlarda samarali qo‘llay olish kompetensiyasi sifatida qaraladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Liderlik fenomenining mazmunini ochib berishga qaratilgan nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushuncha turli ilmiy maktablar tomonidan yagona mezon asosida talqin qilinmaydi. Buning asosiy sababi liderlikning bir vaqtning o‘zida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, guruhdagi ijtimoiy mavqei, faoliyat jarayonidagi xulq-atvori hamda muayyan vaziyatga mos ravishda ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini qamrab olishidadir. Shu bois liderlikni faqat boshqaruv funksiyasi yoki guruhdagi norasmiy mavqe bilan izohlash uning mazmunini toraytirib qo‘yadi.

Nazariy manbalarni qiyosiy o‘rganish jarayonida liderlikka oid qarashlarni shartli ravishda xususiyatli, xulq-atvoriy, situativ va integrativ yo‘nalishlarga ajratish mumkinligi aniqlandi. Xususiyatli yondashuv vakillari liderlikning manbaini shaxsning nisbatan barqaror sifatlarida ko‘rsalar, xulq-atvoriy yondashuv e’tiborni liderning qanday harakat qilishi va guruh bilan qanday munosabat o‘rnatishiga qaratadi. Situativ yondashuv esa liderlik samaradorligini shaxsning muayyan vaziyat talablariga moslasha olish qobiliyati bilan bog‘laydi. Mazkur yondashuvlarning har biri liderlikning alohida jihatini yoritishi bilan ahamiyatli bo‘lsa-da, ularning birortasi hodisaning to‘laqonli pedagogik mazmunini mustaqil ravishda izohlab bera olmaydi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotimizda liderlik shaxsning guruh faoliyatiga maqsadli va ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, umumiy maqsadni anglatishi va uni amalga oshirish jarayonida tashabbus ko‘rsatishi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, boshqa subyektlar bilan konstruktiv munosabat o‘rnatishi hamda vaziyat o‘zgarishiga muvofiq ravishda faoliyat strategiyasini qayta tashkil eta olishini ta’minlovchi sifatlar tizimi sifatida talqin qilindi.

Bu ta’rifda “sifatlar tizimi” tushunchasining qo‘llanilishi tasodifiy emas. Chunki amaliy faoliyatda liderlikning namoyon bo‘lishi bitta sifatning yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanmaydi. Masalan, shaxsning tashabbuskorligi mavjud bo‘lib, biroq u kommunikativ jihatdan yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, tashabbusni jamoaviy faoliyatga samarali yo‘naltirish qiyinlashadi. Xuddi shuningdek, kommunikativ qobiliyatning yuqoriligi mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, u to‘laqonli liderlik xulqini yuzaga keltirmaydi. Demak, liderlik sifatlari o‘zaro funksional aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Mazkur xulosaga asoslanib, tadqiqot doirasida shaxs liderlik sifatlarining tarkibiy tuzilishi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ, tashkiliy-faoliyat va refleksiv komponentlar birligida ko‘rib chiqildi. Bunday strukturaviy yondashuv liderlikni faqat tashqi xulq-atvor ko‘rinishlari orqali emas, balki uning ichki motivatsion va refleksiv mexanizmlari bilan birgalikda tadqiq etish imkonini beradi.

Motivatsion-qadriyatli komponent liderlik faoliyatining ichki manbaini ifodalaydi. Unda maqsadga intilish, mas’uliyatni his qilish, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va jamoa manfaatlariga yo‘naltirilgan qadriyatlar ustuvorlik qiladi. Mazkur komponent yetarlicha shakllanmagan sharoitda liderlikning tashqi ko‘rinishlari barqaror xarakter kasb etmaydi.

Kognitiv komponent shaxsning liderlik va boshqaruv jarayoniga oid bilimlari bilan bir qatorda, vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash, muqobil yechimlarni baholash va maqbul qaror qabul qilish imkoniyatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan bilim liderlikning bevosita natijasi emas, balki uni amaliy faoliyatga aylantiruvchi intellektual vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ komponent liderlikning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini belgilaydi. O‘z fikrini aniq ifodalash, faol tinglash, ishontirish, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish va konstruktiv muloqot o‘rnatish qobiliyatlari jamoaga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Shu sababli kommunikativ tayyorgarlikni liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonidan ajratib ko‘rish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas.

Tashkiliy-faoliyat komponenti liderlikning amaliy jihatini ifodalaydi. Unda vazifalarni belgilash va taqsimlash, jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtirish, tashabbusni amaliy harakatga aylantirish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va uning natijasi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish kabi sifatlar mujassamlashadi.

Refleksiv komponent esa shaxsning o‘z liderlik faoliyatini anglash va baholash qobiliyatini tavsiflaydi. O‘zining kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, faoliyat natijalarini tahlil qilish, yo‘l qo‘yilgan xatolardan xulosa chiqarish hamda keyingi faoliyat strategiyasini belgilash liderlikning rivojlanish dinamikasini ta’minlovchi muhim omildir.

Tahlil natijalarining eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, liderlik sifatlarining rivojlanishini faqat shaxsning ichki xususiyatlari bilan izohlash yetarli emas. Ularning real namoyon bo‘lishi uchun shaxs faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-pedagogik muhit ham tegishli imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak. Xususan, mustaqil qaror qabul qilishga imkon beruvchi vaziyatlarning mavjudligi, jamoaviy faoliyat, munozara va hamkorlik, muammoli topshiriqlar, mas’uliyatni taqsimlash hamda refleksiv tahlil liderlikning rivojlanishi uchun zarur pedagogik sharoitlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, liderlikni rivojlantirishda situativlik tamoyili alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Shaxsning bir vaziyatda samarali namoyon qilgan liderlik xulqi boshqa vaziyatda aynan shu natijani bermasligi mumkin. Demak, liderlikni baholashda faqat “shaxs lider yoki lider emas” degan dixotomik yondashuvdan foydalanish ilmiy jihatdan yetarli emas. Aksincha, liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi, namoyon bo‘lish sharoiti va vaziyatga muvofiqligini birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

Natijada shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirish “sifatni shakllantirish”dan ko‘ra “sifatlar tizimini faoliyatda namoyon ettirish va takomillashtirish” jarayoni ekanligi asoslandi. Mazkur xulosa tadqiqotning keyingi bosqichida liderlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqishda boshlang‘ich nazariy pozitsiya sifatida qabul qilindi.

Shu asosda liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun motivatsion, kognitiv, kommunikativ, tashkiliy-faoliyat va refleksiv mezonlarning o‘zaro bog‘liqligi asos qilib olinishi taklif etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, liderlik sifatlarini diagnostika qilishni faqat psixologik test natijalari bilan chegaralamasdan, shaxsning real faoliyatdagi xatti-harakati, jamoaviy munosabatlari va muammoli vaziyatlardagi qarorlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik jihatdan samarali bo‘lishi uchun ta’lim jarayonida talabaga tayyor boshqaruv stereotiplarini o‘zlashtirishdan ko‘ra, mustaqil fikrlash, tashabbus ko‘rsatish, muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoada qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish muhim hisoblanadi. Aynan shunday faoliyat shaxsda liderlikning tashqi ko‘rinishlarini emas, balki uning ichki mexanizmlarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonida situativ yondashuvning ustuvorligi asoslandi. Chunki samarali lider bir xil boshqaruv uslubini barcha vaziyatlarga tatbiq etuvchi shaxs emas, balki vaziyatning mazmuni, guruhning ehtiyoji va mavjud sharoitdan kelib chiqib, o‘z faoliyatini moslashtira oladigan subyektdir. Shu nuqtayi nazardan, liderlikning muhim ko‘rsatkichi sifatida vaziyatni anglash va unga mos ravishda faoliyat strategiyasini o‘zgartirish qobiliyatini alohida ajratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bass B.M., Bass R. The Bass Handbook of Leadership: Theory, Research, and Managerial Applications. 4th ed. New York: Free Press, 2008. - 1296 p.
2. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. 9th ed. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2021. - 552 p.
3. Yukl G.A., Gardner W.L. Leadership in Organizations. 9th ed. New York: Pearson, 2020. - 560 p.
4. Burns J.M. Leadership. New York: Harper & Row, 1978. - 530 p.
5. Bass B.M., Riggio R.E. Transformational Leadership. 2nd ed. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - 296 p.
6. Goleman D., Boyatzis R., McKee A. Primal Leadership: Unleashing the Power of Emotional Intelligence. Boston: Harvard Business School Press, 2002. - 336 p.
7. Kouzes J.M., Posner B.Z. The Leadership Challenge: How to Make Extraordinary Things Happen in Organizations. 6th ed. Hoboken: Wiley, 2017. - 416 p.
8. Stogdill R.M. Handbook of Leadership: A Survey of Theory and Research. New York: Free Press, 1974. - 613 p.

TRANSLATION TYPES, APPROACHES AND CONCEPTS

Sharopova Gulnoza Odil qizi
Samarkand State Medical University
Faculty of Languages Trainer Assistant

Abstract: This article examines the main types, approaches, and concepts of translation and their distinctive features. Particular attention is paid to literary, special, and consecutive translation. The specific characteristics of literary translation, the importance of accurately conveying the author's ideas, emotions, and cultural features, as well as the role of terminology in special translation are discussed. The article also analyzes the main features of consecutive interpreting, including listening, note-taking, memory, analysis, and reproduction skills. The study emphasizes that a translator's linguistic knowledge, professional skills, and ability to select appropriate translation methods are essential for achieving high-quality translation.

Key words: translation, literary translation, special translation, consecutive interpreting, translator, terminology, source language, target language, translation skills.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjimaning asosiy turlari, yondashuvlari va tushunchalari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Badiiy, maxsus va ketma-ket tarjimaga alohida e'tibor qaratilgan. Badiiy tarjimaning o'ziga xos jihatlari, muallif g'oyalari, his-tuyg'ulari va madaniy xususiyatlarini to'g'ri yetkazishning ahamiyati, shuningdek, maxsus tarjimada terminologiyaning o'rni ko'rib chiqilgan. Maqolada ketma-ket tarjimaning asosiy xususiyatlari, jumladan, tinglash, qayd etish, eslab qolish, tahlil qilish va qayta ifodalash ko'nikmalari ham tahlil qilingan. Tadqiqotda sifatli tarjimaga erishishda tarjimonning lingvistik bilimlari, kasbiy ko'nikmalari va tegishli tarjima usullarini tanlash qobiliyati muhim ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy tarjima, maxsus tarjima, ketma-ket tarjima, tarjimon, terminologiya, manba tili, maqsad tili, tarjima ko'nikmalari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные виды, подходы и понятия перевода, а также их отличительные особенности. Особое внимание уделяется художественному, специальному и последовательному переводу. Рассматриваются специфические особенности художественного перевода, значение точной передачи идей автора, эмоций и культурных особенностей, а также роль терминологии в специальном переводе. В статье также анализируются основные особенности последовательного перевода, включая навыки слушания, ведения записей, запоминания, анализа и воспроизведения информации. Подчёркивается, что лингвистические знания переводчика, профессиональные навыки и способность выбирать соответствующие методы перевода имеют важное значение для достижения высокого качества перевода.

Ключевые слова: перевод, художественный перевод, специальный перевод, последовательный перевод, переводчик, терминология, исходный язык, язык перевода, переводческие навыки.

INTRODUCTION

As cited in Beverley Curran, Norman Shapiro compares a good translation to a pane of glass, asserting that it should never call attention to itself. In order to do this, particular attention should be paid to the linguistic and cultural environment in which the source text was created and the one in which the translation will be placed. Translating a work demands hard work. Translation is the process of transferring one text into another, but it does not mean simply replacing words; it also involves expressing the same meaning from the source language into the target language. It does not mean simply undertaking a text, but it requires the translator to identify problems and errors in the translation process.

LITERATURE REVIEW

There are many ideas about the types of translation. Most scientists divide them into various types. V. N. Komissarov divided translation into two main classifications: by the nature of the translated texts and by the nature of the translator's speech actions in the translation process.

According to their styles and genres, the first type of translation is divided into literary translation and special translation. The second type, oral translation, is divided into consecutive, sight, and simultaneous translation.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan ham pedagogik innovatsiyalar, raqamli pedagogika va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur ishlarda bo'lajak pedagoglarni raqamli ta'lim muhitiga moslashtirish, multimedia texnologiyalaridan foydalanish, elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi keng yoritilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati umumiy pedagogik yo'nalishga bag'ishlangan bo'lib, tasviriy san'at o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini shakllantirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. O'zbekistonda ham ta'limni raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda oliy ta'limni rivojlantirishga oid Prezident farmon va qarorlarida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2].

Respublikamiz olimlari tomonidan pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta'lim muhitiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan bo'lsa-da, aynan bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga kompleks tayyorlash metodikasi bo'yicha tadqiqotlar soni nisbatan kam.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosan pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish va masofaviy ta'limni tashkil etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Biroq tasviriy san'at ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion faoliyatni shakllantirish, grafik dizayn dasturlari, sun'iy intellekt vositalari, virtual reallik va elektron portfolio texnologiyalarini yagona metodik tizim asosida integratsiyalash masalalari yetarli darajada ilmiy asoslanmagan [3]. Shu sababli mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarini raqamli ta'lim muhiti sharoitida innovatsion faoliyatga tayyorlashning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqish, uning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda zamonaviy raqamli vositalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat [4].

Mazkur yondashuv nafaqat pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini, balki ularning kreativ fikrlashi, loyiha faoliyati, innovatsion pedagogik yondashuvlari va kasbiy moslashuvchanligini ham yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi kunda ishlab chiqarish qonunlari, kuchlari va texnik vositalarning raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari singari ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda [6]. Yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari ta'limning, ayniqsa, texnologiya fanining mazmuni, tashkiliy shakli va o'qitish metodikasining o'zgarishiga, amaliy mashg'ulotlarda qo'llanilayotgan innovatsion ta'lim vositalari esa o'quvchilarni shaxs sifatida o'quv-bilish faoliyatida jadallashtiruvchi samarali innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsion faoliyatga tayyorlash muhim ekanligini taqozo etadi [7].

Mazkur tadqiqot bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarini raqamli ta'lim muhitida innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan hamda innovatsion yondashuvlar uyg'unligiga asoslandi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, psixologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tasviriy san'at ta'limi metodikasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatda samarali qo'llash, innovatsion darslarni loyihalash, elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda zamonaviy grafik dasturlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va natijalar tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Mazkur yondashuv raqamli ta'lim muhitining barcha komponentlarini yagona pedagogik tizim sifatida integratsiyalash imkonini berdi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etishga qaratildi. Mashg'ulotlar davomida talabalar Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, Canva, Blender, Krita, Autodesk SketchBook kabi grafik dasturlarda ijodiy loyihalar yaratish, elektron portfolio shakllantirish, multimedia taqdimotlari tayyorlash hamda virtual ko'rgazmalarni tashkil etish bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajardilar. Bu esa ularning innovatsion faoliyat tajribasini shakllantirishga xizmat qildi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida har bir talabaning individual qobiliyati, qiziqishi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Raqamli ta'lim platformalari orqali individual topshiriqlar, mustaqil ta'lim resurslari va elektron maslahatlar tashkil etildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili;
- pedagogik kuzatish;
- anketa so'rovi;
- yarim tuzilgan intervyu;
- ekspert baholash;
- pedagogik tajriba-sinov ishlari;
- test sinovlari;
- elektron portfolio tahlili;
- matematik-statistik tahlil.

Empirik tadqiqot bosqichida pedagogik kuzatish, anketa va suhbat metodlari orqali talabalarning raqamli kompetensiyalari, innovatsion faoliyatga tayyorgarligi, axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda kreativ fikrlash ko'rsatkichlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion ta'lim vositalari texnologik ta'lim jarayonida qo'llanilganda quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- innovatsion ta'lim vositalarining;
- ta'lim tizimining tamomila o'zgarishi;

- o‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- talaba faoliyatining o‘zgarishi;
- o‘quv texnologiyalarining o‘zgarishi;
- ta’lim mazmunining o‘zgarishi;
- o‘qitish shakli va metodlarining o‘zgarishi;
- ta’lim tizimi boshqaruvining o‘zgarishi;
- ta’lim maqsad va vazifalarining o‘zgarishi;
- ta’lim natijalari va samaradorligining o‘zgarishi.[6]

Kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har qanday innovatsiya yangi vosita yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va rag‘batlantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Innovatsion faoliyat deganda yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan tizimli muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Ta’lim mazmunini yaxshilash, o‘qitishning turli xil faol usullaridan va innovatsion ta’lim vositalaridan foydalanish zamon talabiga aylanib qolmoqda. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi mehnatining natijasi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning faolligiga bog‘liq. Buning uchun o‘qituvchi yangiliklarni izlashi, tashabbuskorlik va ijodkorlik namunalarini ko‘rsatishi, o‘quvchilarda loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak tasviriy san’at fani o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash bugungi kunda pedagogik ta’limning dolzarb yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun’iy intellekt vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining ta’lim tizimiga kirib kelishi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Shu bois bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki innovatsion fikrlash, raqamli kompetensiyalar va kreativ yondashuvlarni shakllantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Tasviriy san’at”, “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”, “Raqamli pedagogika”, “Kompyuter grafikasi”, “Grafik dizayn” kabi fanlarni o‘qitishda, malaka oshirish kurslarida hamda o‘quv-uslubiy majmualarni yaratishda foydalanish imkonini beradi. Kelgusida ushbu yo‘nalish bo‘yicha sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda tasviriy san’at ta’limini tashkil etish, raqamli kreativlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda pedagoglarning innovatsion kompetensiyalarini xalqaro standartlar asosida diagnostika qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon. – Toshkent, 2020. https://lex.uz/ru/docs/-5030957
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019. https://lex.uz/ru/docs/-4545884
3. Mamadaliyev Q., Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
4. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Abduqodirov A. A. Axborot texnologiyalari va masofaviy ta’lim. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Teshayev Javohir Nurali o'g'li
Buxoro davlat universiteti sport va san'at fakulteti
tasviriy san'at va musiqa ijrochiligi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi pedagogik, psixologik, metodik va innovatsion omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari, musiqiy-pedagogik faoliyatda tutgan o'rni hamda zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, interfaol ta'lim texnologiyalari, raqamli pedagogika, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyotning kasbiy kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi motivatsion, kommunikativ, ijodiy, refleksiv va axborot-kommunikatsion kompetensiyalarni shakllantirish omillari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, bo'lajak musiqa o'qituvchisi, kompetensiyaviy yondashuv, musiqa ta'limi, pedagogik kompetensiya, metodik kompetensiya, ijodiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, refleksiv kompetensiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim, pedagogik amaliyot, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim sifati, oliy ta'lim, musiqiy-pedagogik faoliyat, professional rivojlanish, ta'lim jarayoni, zamonaviy pedagogika, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of developing the professional competence of prospective music teachers and analyzes the pedagogical, psychological, methodological, and innovative factors influencing this process. The study reveals the essence of the concept of professional competence, its structural components, its role in music-pedagogical activities, and the mechanisms for its development in accordance with contemporary educational requirements. Particular attention is paid to the competency-based approach, interactive teaching technologies, digital pedagogy, practical training, independent learning, and teaching practice as key means of enhancing the professional competence of prospective music teachers in higher education institutions. The article also provides a scientific analysis of the factors contributing to the development of motivational, communicative, creative, reflective, and information and communication competencies necessary for successful professional performance.

Key words: professional competence, prospective music teacher, competency-based approach, music education, pedagogical competence, methodological competence, creative competence, communicative competence, reflective competence, innovative educational technologies, digital education, teaching practice, professional training, quality of education, higher education, music-pedagogical activity, professional development, educational process, modern pedagogy, lifelong professional development.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы развития профессиональной компетентности будущих учителей музыки, а также педагогические, психологические, методические и инновационные факторы, влияющие на данный процесс. Раскрыты сущность понятия профессиональной компетентности, её структурные компоненты, роль в музыкально-педагогической деятельности и механизмы формирования в соответствии с современными требованиями системы образования. Особое внимание уделено компетентностному подходу, интерактивным образовательным технологиям, цифровой педагогике, практическим занятиям, самостоятельному обучению и педагогической практике как важным средствам развития профессиональной компетентности будущих учителей музыки в условиях высшего образования. В статье научно обоснованы факторы формирования мотивационной, коммуникативной, творческой, рефлексивной и информационно-коммуникационной компетентностей, обеспечивающих успешную профессиональную деятельность педагога.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, будущий учитель музыки, компетентностный подход, музыкальное образование, педагогическая компетентность, методическая компетентность, творческая компетентность, коммуникативная компетентность, рефлексивная компетентность, инновационные педагогические технологии, цифровое образование, педагогическая практика, профессиональная подготовка, качество образования, высшее образование, музыкально-педагогическая деятельность, профессиональное развитие, образовательный процесс, современная педагогика, непрерывное профессиональное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya hamda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuni va sifatiga nisbatan mutlaqo yangi talablarni ilgari surmoqda. Jahon ta'lim amaliyotida kompetensiyaga asoslangan yondashuv (Competency-Based Education) bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning eng samarali modeli sifatida e'tirof etilib, o'quv jarayonini nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklab qolmasdan, ularni amaliy faoliyatda qo'llash, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, kasbiy mas'uliyat hamda uzluksiz o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirmoqda. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasini isloh qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish hamda oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. So'nggi yillarda qabul qilingan ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun[1], O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi, oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi hamda pedagog kadrlarni tayyorlashga oid davlat ta'lim standartlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Musiqa insonning estetik didini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan musiqa o'qituvchilarining kasbiy salohiyati ta'lim sifati va yosh avlodning ma'naviy-estetik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy musiqa o'qituvchisi nafaqat musiqiy-nazariy bilim va ijrochilik mahoratiga, balki pedagogik, psixologik, metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va innovatsion kompetensiyalarga ham ega bo'lishi zarur. Musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati boshqa fan o'qituvchilariga nisbatan o'ziga xos murakkab integrativ xususiyatga ega. U bir vaqtning o'zida pedagog, ijrochi, dirijyor, musiqashunos, tarbiyachi va tashkilotchi sifatida faoliyat olib boradi. Shu bois bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat kasbiy bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmasdan, ularda ijodiy tafakkur, badiiy-estetik did, sahna madaniyati, kommunikativ qobiliyat, pedagogik refleksiya, innovatsion fikrlash hamda kasbiy moslashuvchanlikni rivojlantirishni ham talab etadi.

Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi musiqa ta'limida elektron darsliklar, virtual cholg'ular, notografik dasturlar (Sibelius, Finale, MuseScore), audio va video tahrirlash vositalari, sun'iy intellekt elementlariga asoslangan musiqiy platformalar hamda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Kasbiy kompetensiya tushunchasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va kasbiy ta'lim nazariyasining muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. U mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, shaxsiy fazilatlar, qadriyatlar va motivlarning o'zaro integratsiyasini ifodalaydi.

Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, bo'lajak o'qituvchi faqat nazariy bilim egasi emas, balki o'z bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay oladigan, pedagogik muammolarni mustaqil hal etadigan, innovatsion g'oyalarni ilgari suradigan va o'z kasbiy rivojlanishini doimiy ravishda takomillashtirib boradigan mutaxassis bo'lishi lozim. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, ularni pedagogik, psixologik, metodik, tashkiliy, texnologik va ijtimoiy omillarga ajratish mumkin. Pedagogik omillar qatoriga zamonaviy ta'lim metodlari, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol ta'lim texnologiyalari, muammoli ta'lim, loyihaviy o'qitish va integrativ yondashuv kiradi. Psixologik omillar esa talabaning kasbiy motivatsiyasi, ijodiy faolligi, refleksiv qobiliyati, emotsional barqarorligi hamda o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini o'z ichiga oladi.

Metodik omillar sifatida fanlararo integratsiya, amaliy mashg'ulotlarning sifati, pedagogik amaliyotning samaradorligi, vokal-xor va cholg'u tayyorgarligi, musiqa o'qitish metodikasini puxta egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik omillar esa raqamli ta'lim resurslari, multimedia vositalari, elektron platformalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari xorijiy olimlar J. Raven, D. McClelland, R. Boyatzis, L. Spencer, P. Perrenoud hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari I. A. Zimnyaya, A. V. Xutorskoy, V. A. Slastenin, E. F. Zeer va boshqalar pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etganlar.

1 https://lex.uz/docs/-5013007

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham pedagogik kompetensiyalar, kasbiy tayyorgarlik, musiqa ta’limi metodikasi hamda pedagogik mahorat masalalari yuzasidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni kompleks tizim sifatida tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda zamonaviy raqamli ta’lim muhitida samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, nazariy va amaliy tayyorgarlikning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ yondashuvni kuchaytirish hamda kompetensiyalarni baholashning samarali mezonlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammolarni ilmiy asosda hal etish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya hamda musiqa ta’limi nazariyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv dastlab XX asrning 70-yillaridan boshlab kasbiy ta’lim tizimida shakllana boshlagan bo‘lib, keyinchalik pedagogik ta’limning asosiy metodologik yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda mazkur masala xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Ta’lim natijalarini faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beradigan kompetensiyalar orqali baholashga alohida e’tibor qaratildi. Shu davrdan boshlab bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik asoslari A. V. Xutorskoy tomonidan chuqur o‘rganilgan. Uning “Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования” (2003) nomli ilmiy maqolasida tayanch kompetensiyalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy elementi sifatida talqin qilinadi. Muallif kompetensiyani o‘quvchining bilim, ko‘nikma va amaliy tajribasining integrallashgan natijasi sifatida baholaydi hamda o‘qituvchi faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuv bugungi kunda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash metodikasini takomillashtirishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati va uning pedagogik ta’limdagi o‘rni I. A. Zimnyayaning “Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании” (2004) ilmiy ishida batafsil yoritilgan. Muallif kompetensiyalarni shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarga ajratib, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ilmiy asoslaydi. Zimnyayaning fikricha, zamonaviy o‘qituvchi faqat bilim egasi emas, balki pedagogik vaziyatlarni mustaqil hal eta oladigan, ijodkor va refleksiv fikrlovchi mutaxassis bo‘lishi zarur.

Pedagogik faoliyatning nazariy asoslari V. A. Slastenin, I. F. Isaev va E. N. Shiyanov muallifligidagi “Педагогика” (2002) darsligida keng yoritilgan. Mualliflar pedagogning kasbiy kompetensiyasini pedagogik bilim, metodik tayyorgarlik, muloqot madaniyati, pedagogik takt va kasbiy mahoratning uzviy birligi sifatida tavsiflaydilar. Ushbu yondashuv musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini baholashda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy rivojlanishning psixologik jihatlari E. F. Zeerning “Психология профессионального развития” (2006) monografiyasida keng tahlil qilingan. Muallif kasbiy shakllanishning bosqichlari, kasbiy motivatsiya, refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish omillarini tahlil qilib, kasbiy kompetensiyaning uzluksiz rivojlanishini zamonaviy ta’limning asosiy talabi sifatida e’tirof etadi. Zeerning ilmiy qarashlari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida kasbiy motivatsiyani rivojlantirish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr ta’limida o‘qituvchi kompetensiyalarining xalqaro modeli Philippe Perrenoudning “Dix nouvelles compétences pour enseigner” (1999) asarida ishlab chiqilgan. Muallif zamonaviy pedagog egallashi zarur bo‘lgan o‘nta asosiy kompetensiyani belgilab, ular orasida ta’limni loyihalash, hamkorlikda ishlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarni individual qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy refleksiyani alohida ajratib ko‘rsatadi. Ushbu kompetensiyalar bugungi kunda musiqa ta’limida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Musiqa pedagogikasi yo‘nalishida D. B. Kabalevskiyning qayta nashr etilgan “Основные принципы и методы программы по музыке для общеобразовательной школы” (1991-yilgi nashr) asari musiqa ta’limining metodik asoslarini yorituvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif musiqa ta’limining asosiy maqsadini o‘quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirish, estetik didini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish bilan bog‘laydi. Uning metodik qarashlari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda pedagogik ta’limning kompetensiyaviy davlat ta’lim standartlari va malaka talablari ham kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirildi. 2019-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Oliy

ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarni zamonaviy kompetensiyalar asosida tayyorlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur konsepsiya oliy pedagogik ta'limda raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim metodlari va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish faqat nazariy tayyorgarlik bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayonda pedagogik amaliyot, vokal-xor mashg'ulotlari, cholg'u ijrochiligi, dirijyorlik, raqamli musiqa dasturlaridan foydalanish, ijodiy loyihalar hamda refleksiv faoliyat muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, Moodle, Google Classroom, MuseScore, Sibelius va boshqa raqamli platformalarning o'quv jarayoniga joriy etilishi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 1990-yildan keyingi tadqiqotlarda kasbiy kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda rivojlantirish mexanizmlari keng yoritilgan. Biroq bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini pedagogik, metodik, psixologik va raqamli omillarning o'zaro integratsiyasi asosida rivojlantirish, ularning samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali baholash va kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy modelini ishlab chiqish masalalari hali ham qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni boyitish hamda musiqa ta'limi amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning metodologik asosini bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o'rganishga yo'naltirilgan kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi va professional kompetensiyalarining shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma, malaka, amaliy tajriba va shaxsiy sifatlarning yaxlit tizimi sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan musiqiy-nazariy bilimlar, ijrochilik mahorati, metodik tayyorgarlik, kommunikativ qobiliyat, kreativ fikrlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi murakkab va ko'p tarkibli pedagogik tizim sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv orqali kasbiy kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatga oid, kommunikativ, ijodiy va refleksiv komponentlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Shuningdek, kompetensiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik, psixologik, metodik hamda innovatsion omillarning o'zaro aloqadorligi ochib beriladi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida vokal-xor mashg'ulotlari, cholg'u ijrochiligi, dirijyorlik faoliyati, musiqa o'qitish metodikasi, pedagogik amaliyot, mustaqil ta'lim va ijodiy loyihalar kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim vositalari sifatida belgilanadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak musiqa o'qituvchisining individual imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlari, kasbiy motivatsiyasi va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olishga asoslanadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonida talabaning faol ishtirokini ta'minlash, uning mustaqil fikrlashi, pedagogik ijodkorligi va kasbiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqolada pedagogika, psixologiya, musiqa ta'limi metodikasi va kasbiy ta'lim yo'nalishlariga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish kabi nazariy metodlardan foydalanilgan. Mazkur metodlar orqali kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy tuzilishi hamda bo'lajak musiqa o'qituvchilarida shakllantirish omillari ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini aniqlash va rivojlanish holatini baholashda kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari, pedagogik tajriba-sinov hamda amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Ushbu metodlar orqali talabalarning kasbiy motivatsiyasi, musiqa pedagogikasiga bo'lgan qiziqishi, metodik tayyorgarligi, ijodiy faolligi va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi.

Kasbiy kompetensiyani baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- motivatsion mezon – bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatga qiziqishi, pedagoglik kasbiga munosabati va uzluksiz rivojlanishga intilishi;
- kognitiv mezon – musiqa nazariyasi, pedagogika, psixologiya va musiqa o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlarning shakllanganlik darajasi;
- amaliy-faoliyat mezoni – musiqiy ijrochilik, pedagogik jarayonni tashkil etish, ta'lim metodlarini qo'llash va o'quv faoliyatini boshqarish ko'nikmalari;

- ijodiy mezon – pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, yangi g‘oyalar yaratish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish qobiliyati;
- refleksiv mezon – o‘z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy kamchiliklarni aniqlash va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash qobiliyati.

Mazkur metodologik yondashuvlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga ham alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, elektron ta’lim resurslari, multimedia vositalari, raqamli musiqa dasturlari hamda masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining axborot-kommunikatsion kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni nafaqat maxsus musiqiy bilimlarni egallash, balki ularni pedagogik faoliyatda samarali qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Chunki bugungi ta’lim muhitida musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyati an’anaviy bilim berish vazifasi bilan chegaralanmaydi. U o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, milliy va jahon musiqa merosini anglashlariga yordam berish, ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish kabi ko‘p qirrali vazifalarni bajarishi lozim.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi uning kasbiy faoliyatga tayyorligini ifodalovchi murakkab tizim bo‘lib, unda musiqiy bilimlar, pedagogik mahorat, metodik tayyorgarlik, ijodiy tafakkur va shaxsiy sifatlar uyg‘unlashadi. Mazkur kompetensiyaning shakllanishi talabaning oliy ta’lim jarayonida olgan nazariy bilimlari, amaliy mashg‘ulotlardagi tajribasi, mustaqil izlanishlari hamda pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi, avvalo, uning musiqiy faoliyatni pedagogik maqsad asosida tashkil eta olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bunda musiqiy asarlarni tanlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, musiqiy idrokni rivojlantirish hamda ijodiy faoliyatni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, musiqa o‘qituvchisining kompetentligi faqat ijrochilik mahorati bilan emas, balki ushbu mahoratni pedagogik jarayonga samarali tatbiq eta olish darajasi bilan ham belgilanadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasida amalga oshadi. Mazkur omillarni pedagogik, psixologik, metodik va texnologik yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Pedagogik omillar kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining mazmuni, tashkil etish shakllari va ta’lim metodlari bilan bog‘liqdir. Oliy ta’lim muassasalarida musiqa yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega. Xususan, musiqa nazariyasi, cholg‘u ijrochiligi, vokal, dirijyorlik, pedagogika, psixologiya va musiqa o‘qitish metodikasi fanlarining o‘zaro bog‘liqligi bo‘lajak mutaxassisning yaxlit kasbiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, ijodiy topshiriqlar berish, loyihaviy faoliyatni tashkil etish va amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, musiqa darslarini loyihalashtirish, turli yosh guruhlari bilan ishlash metodlarini ishlab chiqish va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Kasbiy kompetensiyaning rivojlanishida shaxsning ichki imkoniyatlari, motivatsiyasi va kasbiy yo‘nalganligi muhim o‘rin tutadi. Musiqa o‘qituvchisi faoliyati yuqori darajadagi hissiy barqarorlik, ijodiy faollik va muloqot madaniyatini talab qiladi. Shu sababli bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish, o‘z imkoniyatlarini baholash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga intilish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Talabaning musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy faoliyatdan zavqlanishi, pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglashi uning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, refleksiv qobiliyatning rivojlanganligi bo‘lajak o‘qituvchiga o‘z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, kelgusidagi pedagogik faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda metodik tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega. Chunki musiqa fanini o‘qitish jarayoni maxsus metodlarni, pedagogik texnologiyalarni va ijodiy yondashuvlarni talab qiladi.

O‘qituvchi musiqiy materialni tanlash, dars jarayonini rejalashtirish, ta’lim vositalaridan foydalanish va o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Musiqa ta’limida interfaol metodlardan foydalanish talabalarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, musiqiy muammoli vaziyatlarni hal qilish, guruhli ijodiy mashg‘ulotlar, tinglash va tahlil qilish faoliyatlari, musiqiy loyihalar yaratish kabi usullar bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tashabbuskorlikni shakllantiradi.

Bugungi raqamli ta’lim sharoitida musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Raqamli vositalar musiqa ta’limining mazmunini boyitish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Musiqa ta’limida audio va video materiallardan foydalanish, elektron notalar bilan ishlash, musiqiy

dasturlar yordamida kompozitsiya yaratish, onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning texnologik kompetensiyasini rivojlantiradi. Bunday vositalar yordamida talabalar nafaqat mavjud musiqiy bilimlarini mustahkamlaydi, balki zamonaviy pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan raqamli ko'nikmalarni ham egallaydi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uzluksiz va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Dastlabki bosqichda talabalarda kasbiy qiziqish, musiqa pedagogikasiga oid asosiy tushunchalar va umumiy pedagogik tayyorgarlik shakllantiriladi. Keyingi bosqichlarda maxsus musiqiy fanlar, metodik mashg'ulotlar va amaliy faoliyat orqali kasbiy ko'nikmalar chuqurlashtiriladi. Mazkur jarayonda pedagogik amaliyot muhim o'rin egallaydi. Chunki amaliy faoliyat davomida talabalar nazariy bilimlarini real ta'lim sharoitida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Dars tashkil etish, o'quvchilar bilan muloqot qilish, musiqiy faoliyatni boshqarish va pedagogik vaziyatlarga mos qarorlar qabul qilish jarayonlari ularning kasbiy tajribasini oshiradi.

Bundan tashqari, mustaqil ta'lim faoliyati ham kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismidir. Musiqa sohasidagi yangi bilimlarni izlash, zamonaviy metodik adabiyotlarni o'rganish, ijrochilik mahoratini takomillashtirish va pedagogik yangiliklarni o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchining professional rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko'p omilli va tizimli jarayon bo'lib, unda ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, amaliy faoliyat, shaxsiy motivatsiya hamda innovatsion vositalarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillarning samarali tashkil etilishi zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, ijodkor va raqobatbardosh musiqa o'qituvchilarini tayyorlash imkonini beradi.

XULOSA

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Mazkur jarayon pedagogik, metodik, psixologik va innovatsion omillarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot, ijodiy faoliyat, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hamda mustaqil rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqiy bilim, pedagogik mahorat, ijodiy fikrlash, kommunikativ va refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish ularning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish, innovatsion metodlarni keng qo'llash va amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish zamonaviy talablarga javob beradigan malakali musiqa o'qituvchilarini tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Теория музыкального образования. – Москва: Академия, 2004. – 336 с.
2. Алиев Ю.Б. Методика музыкального воспитания детей. – Москва: Музыка, 2008. – 416 с.
3. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения: Общедидактический аспект. – Москва: Педагогика, 1977. – 256 с.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2006. – 160 b.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 192 b.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.